O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI

JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASH KAFEDRASI

“Yangi O‘zbekistonda “Xavfsiz ta’lim” konsepsiyasini amalga oshirish: milliy va xorijiy tajriba” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami



TOSHKENT – 2025

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI

JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASH KAFEDRASI

“Yangi O‘zbekistonda “Xavfsiz ta’lim” konsepsiyasini amalga oshirish: milliy va xorijiy tajriba”

Respublika ilmiy-amaliy anjuman

maqolalar to‘plami



TOSHKENT-2025

KBK – 67.401.212

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Kengashi tomonidan muhokama qilingan va tasdiqlangan. 2025-yil “26” mart.

“Yangi O‘zbekistonda “Xavfsiz ta’lim” konsepsiyasini amalga oshirish: milliy va xorijiy tajriba”: republika ilmiy-amaliy anjuman maqolalar to‘plami -Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, 2025.- 450 bet.

To‘plamga O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universitetida o‘tkazilgan **“Yangi O‘zbekistonda “Xavfsiz ta’lim” konsepsiyasini amalga oshirish: milliy va xorijiy tajriba”:** respublika ilmiy-amaliy anjumanga topshirilgan maqolalar kiritilgan.

Respublikaning Oliy ta’lim muassasalarning ilmiy xodimlari, magistrantlari, tinglovchilar, talabalar va kursantlarning foydalanishiga tavsiya etiladi.

To‘plamda chop etilgan maqolalarning mazmuni va mohiyati uchun shuningdek materiallarning, statistik ma’lumotlarning, ismlar, geografik nomlar va boshqa ma’lumotlarning to‘g‘riligiga mas’uliyat va javobgarlik maqola mualliflari zimmasida.

Mas’ul muharrir:

Tahririyat a’zolari:

Selimanova S.M.	Jamoat xavsizligini ta’minlash kafedrasi boshlig‘i, yu.f.d., prof., polkovnik
Yarashev B.Ch.	Jamoat xavsizligini ta’minlash kafedrasi boshlig‘ining o‘rinbosari, yu.f.b.f.d (PhD)., dotsent., podpolkovnik
Tursunova S.R.	Jamoat xavsizligini ta’minlash kafedrasi dotsenti, yu.f.b.f.d (PhD)., kapitan
Tallibayev U.Sh.	Jamoat xavsizligini ta’minlash kafedrasi dotsenti, yu.f.b.f.d (PhD)., kapitan
Sunnatov U.T.	Jamoat xavsizligini ta’minlash kafedrasi katta o‘qituvchisi, podpolkovnik
Axmedov Sh.O.	Jamoat xavsizligini ta’minlash kafedrasi o‘qituvchisi, kapitan

KIRISH SO‘ZI

Assalomu alaykum hurmatli konferensiya ishtirokchilari, mehmonlar, hamkasblar, professor-o‘qituvchilar va kursantlar!

Sizlarni O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universitetida o‘tkazilayotgan “**Yangi O‘zbekistonda “Xavfsiz ta’lim” konsepsiyasini amalga oshirish: milliy va xorijiy tajriba”** mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasida ko‘rib turganimdan mamnunman. Barchaga ushbu anjuman tashkilotchilariga va qatnashchilariga konferensiyani o‘tkazishda va unda ishtirok etishda yordam bergani uchun o‘z minnatdorchiligimizni bildiramiz. **Ta’lim** – bu har bir davlat taraqqiyotining asosi, yoshlarimiz kelajagi va ularni dunyoviy va ma’naviy jihatdan barkamol shaxslar qilib yetishtirishning eng ishonchli vositasi hisoblanadi. Biroq, ta’lim jarayonining samaradorligi va sifatini ta’minlashning eng muhim sharti – bu xavfsiz muhitni yaratishdir. **Xavfsiz ta’lim** - bu barcha yoshdagilar uchun jismoniy, psixologik, ijtimoiy va axloqiy jihatdan xavfsiz muhitda sifatli ta’lim olish imkoniyatini ta’minlashdir. Bu nafaqat o’quv jarayonining xavfsizligini, balki o’quvchilar, o’qituvchilar va boshqa barcha ishtirokchilarning farovonligini ham nazarda tutadi. Bugungi kunda dunyoda va mintaqada ro‘y berayotgan turli xil xavf-hatar va tahdidlar, jumladan, zo‘ravonlik, ekstremizm, giyohvandlik vositalari va tabiiy ofatlar ta’lim muassasalarining xavfsizligini jiddiy ta’minlash zarurligini ko’rsatmoqda.

Milliy rivojlanishning va iqtisodiyotning innovatsion o‘sish yo‘liga o‘tishi inson salohiyatiga kiritilayotgan keng ko‘lamli investitsiyalar bilan albatta bog‘liq hisoblanadi. **Innovatsion salohiyat** - bu milliy g‘oya, yuksak ma’naviyat va iqtisodiyotning global rivojlanish tizimdagi o‘rnini belgilaydigan strategik manbadir. Ko‘pgina mamlakatlarda innovatsion salohiyat mamlakat rivojlanishining asosiy manbai sifatida qaraladi va milliy boylikning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Bugungi kunda muhtaram yurtboshimiz tomonidan Yangi O’zbekistonda **sifatli va xavfsiz ta’limni** rivojlantirish uni qo’llab-quvvatlash va kafolatlash davlat

siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilanib, bu borada muhim islohotlar amalga oshirilmoqda. Buning asosiy vazifasi esa ta’lim muassasalarini zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash, psixologik xavfsizlikni ta’minlash, jamiyatning barcha qatlamlarini jalb qilish va xalqaro tajribalardan samarali foydalanish orqali yoshlarimiz uchun yanada xavfsiz va qulay muhitni shakllantirishdir.

Xavfsiz ta’lim, fan va ishlab chiqarishning turli darajalari hamda tashkiliy shakllarini birlashtirish jarayoni dunyoning barcha mamlakatlarini, shu jumladan O‘zbekistonni ham bosqichma-bosqich qamrab olgan tendensiyaga aylanmoqda. So‘nggi yillarda ilmiy va ta’lim salohiyatini birlashtira oladigan shakllarni yaratish haqida ko‘p gapirilayotgani bejiz emas. Yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash yagona ta’lim muassasasining vazifasi emas, balki ishlab chiqarish va amaliyot bilan yaqin aloqada bo‘lgan butun ta’lim tizimining vazifasi ekanligini alohida qayd etish joiz. Buning tasdig‘i sifatida muhtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev 2024 yilning 29-avgust kunida universitetimizga qilgan tashriflari chog’ida bizga xavfsiz ta’limning muhim yo‘nalishi sifatida **dual ta’lim tizimini** rivojlantirish vazifasini qo‘yganligi ham bejiz emas.

Xavfsiz ta’limning ahamiyati shundaki, uni amalga oshirish orqali:

birinchidan, *Inson kapitalini rivojlantirish ya’ni xavfsiz muhitda ta’lim olgan yoshlar kelajakda samarali va mas’uliyatli fuqarolarga aylanishadi.*

ikkinchidan, *Ijtimoiy barqarorlikka erishiladi. Ta’lim muassasalarida xavfsiz muhitni ta’minlash ijtimoiy tinchlik va barqarorlikni mustahkamlaydi.*

uchinchidan*, Iqtisodiy taraqqiyotga bevosita bog’liq ya’ni sifatli va xavfsiz ta’lim iqtisodiyot uchun malakali ishchi kuchini tayyorlashga yordam beradi.*

Qadrli anjuman ishtirokchilari **“Yangi O‘zbekistonda “Xavfsiz ta’lim” konsepsiyasini amalga oshirish: milliy va xorijiy tajriba”** mavzusiga bag‘ishlangan ushbu konferensiyada biz xavfsiz ta’lim konsepsiyasini amalga oshirishning dolzarb masalalarini, undagi muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llarini muhokama qilish, shuningdek, yangi g‘oyalar va yechimlarni ishlab chiqishni maqsad qilganmiz.

So‘zim yakunida menga berilgan vakolatdan foydalanib, Konferensiyada qatnashish uchun o‘z vaqtlarini ayamasdan kelgan barcha konferensiya ishtirokchilari va mehmonlariga yana bir bor minnatdorchilik bildirgan holda, konferensiyani ochiq deb e’lon qilaman va barcha ishtirokchilarga muvaffaqiyatlar tilayman!

E’tiboringiz uchun rahmat!

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti boshlig‘ining o‘rinbosari, yuridik fanlari doktori, professor Zulfiqarov Sherzod Xurramovich

ASOSIY QISM

YANGI O‘ZBEKISTONDA XAVFSIZ TA’LIM MUHITINI TA’MINLASHDA MILLIY GVARDIYA BO‘LINMALARINING ROLI

Selimanova Svetlana Mixaylovna
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti “Jamoat xavfsizligini ta’minlash” kafedrasi boshlig‘i, yu.f.d., professor.

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining ta’lim muassasalari xavfsizligini ta’minlash sohasidagi faoliyati ko‘rib chiqiladi. Normativ-huquqiy baza, ularni amalga oshirishning asosiy yo‘nalishlari va mexanizmlari tahlil qilingan. Profilaktika tadbirlari, boshqa davlat organlari bilan o‘zaro hamkorlik, shuningdek, “xavfsiz ta’lim” institutini yanada rivojlantirish istiqbollariga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Kalit so‘zlar: Milliy Gvardiya, ta’lim xavfsizligi, ta’lim muhiti, jinoyatchilikning oldini olish, terrorizmga qarshi himoya, davlat organlarining o‘zaro hamkorligi, kiberxavfsizlik, huquqiy tartibga solish, zamonaviy texnologiyalar.

Ta’lim jamiyat va davlatning barqaror rivojlanishining muhim omillaridan biridir. Demokratik islohotlar va fuqarolar huquqlarini himoya qilishga qaratilgan yangi O‘zbekistonda xavfsiz ta’lim muhitini ta’minlash ustuvor vazifaga aylanmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 50-moddasida “Har kim ta’lim olish huquqiga ega”[1] ekanligi ta’kidlangan. Ta’limda xavfsizlikni ta’minlash davlat organlarining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’lim sohasida xavfsizlikni ta’minlash muhimligini bir necha bor ta’kidlagan. Oliy Majlisga yo‘llagan murojaatida ta’lim sifatini oshirish yangi O‘zbekistonni rivojlantirishning yagona to‘g‘ri yo‘li ekanini, binobarin, Yusuf Xos Hojib bobomizning hikmatli

[1] O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi https://lex.uz/docs/6445145#6445572

so‘zlari “Zakovat bor joyda ulug‘lik bo‘ladi, Bilim bor joyda buyuklik bo‘ladi”[1] degan so‘zlari bugungi kun uchun muhim ahamiyatga egadir.

Prezidentimiz qarori bilan tasdiqlangan 2022–2026-yillarda Yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasini amalga oshirish doirasida xavfsiz va sifatli ta’lim muhitini yaratishga alohida e’tibor qaratilmoqda[2]. Mazkur strategiyani Davlat dasturida ta’lim sifatini ilg‘or xalqaro standartlarga moslashtirish chora-tadbirlari belgilangan.

Bejizga 2023-yilni «Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili» deb e’lon qilinmadi. Ta’lim va xavfsizlik tushunchalari o‘zaro fenomenal tushunchalar hisoblanadi.

Shuningdek, Prezidentning “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni[3]da bolalar uchun inklyuziv ta’lim uchun xavfsiz muhit yaratish zarurligi alohida ta’kidlangan. Bunga inklyuziv ta’limni rivojlantirish, bolalar, ota-onalar va pedagogik xodimlarga ijtimoiy-psixologik xizmatlar ko‘rsatish orqali erishiladi.

Shu tariqa, ta’lim sohasida xavfsizlikni ta’minlash O‘zbekiston davlat siyosatining asosiy yo‘nalishi bo‘lganini Prezident Shavkat Mirziyoyevning ko‘plab bayonotlari va tashabbuslari ham tasdiqlaydi.

O‘tgan yili mamlakatimizda voyaga yetmaganlar 3,5 mingta jinoyat sodir etgan. Ulardan 2 ming 280 nafarini maktab o‘quvchilari tashkil qilgan. Buning uchun faqat maktab direktori yoki o‘qituvchilar javobgar emas albatta[4].

Mamlakatimizda ta’lim islohotlariga davlat siyosati darajasida alohida e’tibor berib kelinmoqda. 2024-yilning 5-fevral kuni prezident boshchiligida o‘tkazilgan ijtimoiy sohadagi ustuvor vazifalarga bag‘ishlangan yig‘ilishda maktab ta’limidagi islohotlarni yanada jadallashtirishga qaratilgan vazifalar belgilangan edi. Shu sababdan, respublikadagi maktablarda o‘quvchi va o‘qituvchilarni xavfsizligini ta’minlash borasida hozirda yangi ish tizimi joriy qilindi[5].

---

[1] https://oliymahad.uz/36240

[2] https://president.uz/ru/lists/view/5980?utm_source=chatgpt.com

[3] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 06.11.2020 yildagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”ги Farmoni PF-6108-son https://lex.uz/ru/docs/-5085999

[4] https://uza.uz/uz/posts/maktablarga-komaklashayotgan-milliy-gvardiya_568986

[5] https://uz24.uz/uz/articles/milliy-gvardiya-3-12

Bu borada jamoat tartibini saqlash va ta’lim muassasalari bilan bog‘liq tahdidlarga qarshi kurashish bo‘yicha vakolatlar berilgan Milliy gvardiyaga alohida o‘rin ega.

Milliy gvardiyaning ta’lim muassasalari xavfsizligini ta’minlash borasidagi faoliyati qator normativ hujjatlar, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, “Milliy gvardiya to‘g‘risida”gi qonun, shuningdek, Prezident va Vazirlar Mahkamasining qarorlari bilan tartibga solinadi. Mazkur hujjatlarda Milliy gvardiyaning vazifalari, jumladan, ta’lim muassasalarini qo‘riqlash, ular yaqinida jamoat tartibini ta’minlash, terrorizm va jinoyatchilikka qarshi kurashda ishtirok etish kabi vazifalar belgilab berilgan.

Milliy gvardiya maktablar, oliy o‘quv yurtlari va boshqa ta’lim muassasalarida xavfsizlik qoidalariga rioya etilishini nazorat qiladi, vaziyatni muntazam tekshirish va nazorat qilib boradi.

O‘quvchilar o‘rtasida jinoyat va huquqbuzarliklarning oldini olish, o‘quv jarayoni xavfsizligiga tahdid soluvchi shaxslarni aniqlash muhim vazifa hisoblanadi.

Eng asosiy e’tiborli jixati shundaki Milliy gvardiya organlarining voyaga yetmaganlar o‘rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasi bo‘yicha vakolatlari kengaytirildi.

Qonun bilan Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksga o‘zgartirishlar kiritildi. Unga ko‘ra, Milliy gvardiyaning Bolalar bilan ishlash boshqarmasi hamda uning hududiy bo‘linmalari harbiy xizmatchilari va xodimlarining ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqishga hamda ma’muriy jazo choralarini qo‘llashga doir vakolatlari belgilandi.

Milliy gvardiyaning inspektor-psixologlari fevral oyidan hozirgi kunga qadar **44 450 ta** Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 47-moddasi birinchi qismida nazarda tutilgan huquqbuzarliklarni aniqlab, ichki ishlar organlarining profilaktika inspektorlari orqali ma’muriy jazo choralari qo‘llanilishini ta’minlagan hamda ota-onalar tomonidan farzandlarini maktabga yubormaslik holatlari bo‘yicha 175 mingga yaqin ogohlantirish xatlari yozilgan. Bugungi kunda 1 nafar inspektor-psixologga maktablardagi bola sonidan kelib chiqib 3 tadan 10 tagacha maktab

to‘g‘ri kelmoqda. 2025-yil boshida maktablardagi o‘quvchilarning darslarda ishtirok etish davomatlari 50 foizni tashkil etgan bo‘lsa, hozirga kelib bu ko‘rsatkich 95 — 99 foizni tashkil etmoqda[1].

Shuningdek, Milliy gvardiya terrorchilik xurujlarining oldini olish bo‘yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etadi, evakuatsiya va favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish bo‘yicha o‘quv mashg'ulotlarini o‘tkazadi.

Ta’lim sohasida xavfsizlikni samarali ta’minlash maqsadida Ichki ishlar, Xalq ta’limi vazirliklari, maxsus xizmatlar va boshqa tuzilmalar bilan yaqindan hamkorlik qiladi.

O‘quvchilar, o‘qituvchilar va ota-onalar o‘rtasida xavfsizlik qoidalari, jinoyatchilikka qarshi kurashish bo‘yicha axborot-tushuntirish tadbirlarini o‘tkazish muhim jihatdir.

Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi bilan ta’lim muassasalarining kiberxavfsizligini ta’minlash, o‘quvchilar va o‘qituvchilar ma’lumotlarini himoya qilish, shuningdek, radikal guruhlarning internet tarmog‘i orqali buzg‘unchi ta’siriga qarshi kurashishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Kelgusida Milliy gvardiyani yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan tahdidlarni bashorat qilish va oldini olish uchun zamonaviy videokuzatuv tizimlari, sun’iy intellekt va tahliliy vositalar bilan integratsiyalashuvini kuchaytirish rejalashtirilgan.

Xulosa

Xavfsiz ta'lim muhitini ta'minlash muhim davlat vazifasi bo‘lib, uning hal etilishi jamiyatning barqaror rivojlanishini belgilaydi. O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi mazkur vazifani amalga oshirishda, o‘quvchi va o‘qituvchilarning ishonchli himoyasini ta’minlashda muhim o‘rin tutadi. Huquqiy tartibga solishni takomillashtirish, idoralararo hamkorlikni kuchaytirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish xavfsizlik choralari samaradorligini oshiradi va yangi O‘zbekistonda ta’lim jarayoni uchun qulay sharoitlar yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YHATI:

[1] https://www.gazeta.uz/uz/2025/02/07/milliy-gvardiya/

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi https://lex.uz/docs/6445145#6445572

2. https://oliymahad.uz/36240

3. https://president.uz/ru/lists/view/5980?utm_source=chatgpt.com

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 06.11.2020 yildagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni PF-6108-son https://lex.uz/ru/docs/-5085999

5. https://uza.uz/uz/posts/maktablarga-komaklashayotgan-milliy-gvardiya_568986

6. https://uz24.uz/uz/articles/milliy-gvardiya-3-12

7. https://www.gazeta.uz/uz/2025/02/07/milliy-gvardiya/

UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABLARIDA XAVFSIZLIKNI TA’MINLASH: MUAMMO VA YECHIMLAR

Isamiddin Ismailov
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universtiteti professori yuridik fanlar doktori, professor
isomiddinosmoilov@gmail.com
Muzaffar Ziyodullaev
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universtiteti professori yuridik fanlar doktori, professor muzzziyo@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Toshkent shahri Chilonzor tumani umumiy o‘rta ta’lim maktablarida xavfsiz ta’limni ta’minlash holatini o‘rganish va tahlil qilish natijalari, aniqlangan muammolar hamda ular hal etishga xizmat qiladigan taklif va tavsiyalar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: umumiy, o‘rta, ta’lim, maktab, xavfsiz, xulq-atvor, huquqbuzarlik, jinoyat, profilaktika, o‘quvchi, ota-ona, oila, mahalla, o‘qituvchi, inspektor-psixolog, profilaktika inspektori

Jamiyat xavfsizligini ta’minlash sohasini isloh qilish bo‘yicha qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq “Xavfsiz turizm” [1. 2], “Xavfsiz shahar” [3], “Xavfsiz poytaxt” [4], “Odob va xavfsiz mahalla” [5] “Jamoat xavfsizligi” [6] konsepsiyalarining bosqichma-bosqich amalga oshirilayotganligi mamlakatimizda aholining tinch va osoyishta hayotini va jamiyatda barqaror taraqqiyotni ta’minlashga xizmat qilib kelmoqda.

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasiga “aholi talablariga va xalqaro standartlarga to‘liq javob beradigan ta’lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilish” g‘oyasi singdirilgan bo‘lib, uning “Har bir insonga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishi uchun munosib sharoitlarni yaratish” yo‘nalishining 1-12-maqsadlari ta’lim tizimini isloh qilishga oid ko‘rsatkichlar va chora-tadbirlar, 38-44-maqsadlari ma’naviy taraqqiyotni ta’minlash va madaniyat sohasini yangi bosqichga olib chiqish bo‘yicha islohotlarni amalga oshirish choralari belgilangan [7]. Xususan:

100 foiz maktabgacha ta’lim tashkilotlarini toza ichimlik suv va zamonaviy sanitariya-gigiena infratuzilmasi bilan ta’minlash;

umum o‘rta ta’lim muassasalarini toza ichimlik suv va zamonaviy sanitariya-gigiena infratuzilmasi bilan to‘liq ta’minlash ko‘rsatkichlariga erishish;

pedagog kadrlar maqomini oshirish, ularning bilimi va malakasini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish;

umumiy o‘rta ta’limni rivojlantirish uchun xususiy sektorni keng jalb qilish kabi maqsadlarni amalga oshirish;

mafkuraviy xurujlarga qarshi milliy g‘oya asosida birgalikda kurashish, oila, maktab va mahalla hamkorligini mustahkamlash va shu asosda ma’naviy tarbiyaning uzviyligini ta’minlash;

maktablarni chinakam ma’naviyat va ma’rifat, madaniyat o‘chog‘iga aylantirish uchun ta’lim-tarbiyaning interaktiv usullarini joriy qilish;

O‘zbek xalqining milliy qadriyatlari va ma’naviy merosini asrab-avaylash, keng ommalashtirish hamda rivojlantirish bo‘yicha yangi yondashuvlarni joriy qilish orqali jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligini ta’minlash bevosta va bilvosita umumiy o‘rta maktablarda xavfsiz ta’limni ta’minlashga xizmat qiladi.

Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq bolalar mehnatining bolaning sog‘lig‘iga, xavfsizligiga, axloqiga, aqliy va jismoniy rivojlanishiga xavf soluvchi, shu jumladan uning ta’lim olishiga to‘sqinlik qiluvchi har qanday shakllari taqiqlanadi [8].

Bolalar huquqlari, xususan ularning ta’lim olish huquqlari oid konstitutsiyaviy talablarni hayotda ta’minlash bo‘yicha qabul qilingan qonunchilik hujjatlari barcha o‘quvchilarning umumiy o‘rta ta’lim maktablarida har qanday ko‘rinishdagi tahdid va tajovuzlardan himoya qilaoladigan, sog‘lom xulq-atvorli, o‘zining fuqarolik pozitsiyasiga ega, qonunga itoatkor va ma’naviy barkamol shaxsni shakllantiraoladigan xavfsiz ta’lim tizimini yaratishni nazarda tutadi.

O‘zbekistonda bola huquqlarining kafolatlarini amalda ta’minlash mexanizmlarini takomillashtirish, sohaga ilg‘or tajribalarni joriy etish maqsadida bir qator normativ-hujjatlar qabul qilinib[9, 10, 11], ijroga kiritilishi natijasida bolalar,

shu jumladan ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar huquqlarini himoya qilish, shuningdek jamiyatda voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasi milliy tizimi yanada takomillashtirilmoqda.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon[12]ga muvofiq jamiyatda jamoat xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikka qarshi kurash, shu jumladan voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining barvaqt profilaktikasini ta’minlashning mutlaqo yangi tizimini yaratish hamda uni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladigan islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, bola huquqlarining kafolatlarini ta’minlash, shu jumladan voyaga yetmaganlar jinoyatlarining barvaqt profilaktikasini ta’minlash maqsadida:

birinchidan, «Xavfsiz ta’lim muassasasi» tamoyili asosida har bir o‘quvchi kesimida umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida psixologik muhitni yaxshilash, voyaga yetmaganlar orasida qonunbuzilishlarga murosasiz munosabatda bo‘lish hissini shakllantirish, muammoli o‘quvchilar bilan ularning yashash joylarida ota-onalari ishtirokida manzilli ishlash uchun voyaga yetmaganlar masalalari bo‘yicha inspektor-psixolog lavozimi joriy etilib[13], ichki ishlar organlari tarkibidan Milliy gvardiya tizimiga o‘tkazildi;

ikkinchidan, inspektor-psixologlarning bevosita xizmat o‘tash joyi etib umumiy o‘rta ta’lim muassasalari belgilangandi[14];

uchinchidan, maktablar idoraviy qorovullik ishchilari Milliy gvardiya hududiy Qo‘riqlash boshqarmalari tuzilmasiga o‘tkazildi, muassasalarda raqamli xavfsizlik tizimini yaratish borasida tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda[15].

Afsuski, jamiyatda voyaga yetmaganlar tomonidan va ularga nisbatan sodir etilayotgan jinoyatlar haqidagi ma’lumotlar tahlili[16, 17] mamlakatda, xususan umumiy o‘rta ta’lim maktablarida xavfsiz ta’lim tizimini yaratish hamda uning amal qilishini ta’minlash sohasida bir qator muammolar mavjudligini ko‘rsatmoqda.

Toshkent shahri Chilonzor tumanida voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan huquqbuzarliklarning asl sabablarini aniqlash yuzasidan ijtimoiy so‘rov o‘tkazilib, uning natijalari tahliliga ko‘ra, quyidagilar aniqlandi:

1. Maktablarning aksariyatida o‘quvchilarning bo‘sh vaqtini mazmunli va maqsadli tashkil etish ishlari o‘z holiga tashlab qo‘yilgan, fan va kasbga yo‘naltirilgan to‘garaklar faqat qog‘ozda qolib ketmoqda, ota-onalarning ko‘pchiligi asosiy vaqtlarini bolalari bilan birga o‘tkazmasdan, ularni o‘z holiga tashlab qo‘yganlar.

O‘quvchilarning bo‘sh vaqtini nimaga sarflashi o‘rganilganda, ularning 63 % oila davrasida, 24 % do‘stlari bilan uchrashish va gaplashishga, 13 % ijtimoiy tarmoqlarda o‘tkazadi, 98 % bolalarining bo‘sh vaqtlarda nima bilan shug‘ullanishini bilishini, ota-onalarning 88 % bolalari bilan 3 soat, 12 % 1 soat yoki uyqusidan oldin vaqt o‘tkazishini, bolalar bilan birga vaqt o‘tkazishga nimalar to‘sqinlik qilishi bo‘yicha o‘rganilganda 66 % ishda bandligi, 30 % bolalar uchun maxsus jihozlangan maydonchalar, xiyobonlar yo‘qligini ta’kidlashgan.

2. Maktablarda dars mashg‘ulotlarining qiziqarli emasligi, nazorat yo‘qligi, qo‘shimcha mashg‘ulot (repititor)ga borishi, huquqbuzarlik yoki jinoyat sodir etishning oqibatlarini bilmasligi, o‘quvchilarning huquqbuzarlik yo‘liga kirib qolishiga, maktabga borishni xoxlashmasligiga olib kelmoqda.

O‘tkazilgan ijtimoiy so‘rovda 20 % yetkazilgan zarar uchun javobgarlik va jazo borligini bilmasligi, 14 % bo‘sh vaqtning ko‘pligi, 12 % ko‘p pul ishlab topish va tez boyib ketish istagi, 11 % huquqbuzarlarga taqlid qilish, 5 % tushuntirish ishlari yetarli emasligi, 8 % sinfdoshlar o‘rtasida kelishmovchilik borligi, 7 % maktabning uzoqligi va moddiy yetishmovchilik, huquqbuzarlik yoki jinoyat sodir etishning oqibatlarini 17 % bilmasligini, 12 % oqibatlarini qisman bilishini, 2 % oqibatlari haqida tushunchasi yo‘qligi qayd etilgan.

3. Oilada e’tibor va mehribonlikning yetishmasligi, tarbiyadagi kamchiliklar, ota-onalarining xulq-atvoriga taqlid qilishi, o‘ziga yuqori baho berish, sardor bo‘lishga moyillik yuqoriligi, maktabda ayrim o‘quvchilar xulq-atvorida qo‘pollik, zo‘ravonlik belgilarining paydo bo‘lishiga, uydan qochib ketishga sabab bo‘lmoqda. O‘qituvchilarning fikriga ko‘ra, 37 % oilada ularga e’tibor va mehribonlikning yetishmasligi, 36 % tarbiyadagi kamchiliklar, 12 % ota-onalarining xulq-atvorini taqlid qilishi, 10 % o‘ziga yuqori baho berish, 5 % sardor bo‘lishga moyillik

yuqoriligi, 80 % dars qoldirish, undan bo‘yintovlash, 10 % uydan qochib ketish, 9 % qo‘pollik, zo‘ravonlik, bulling, 3 % bezorilik, tamaki chekish va psixotrop moddalarni iste’mol qilish, erta jinsiy aloqa, o‘g‘irlik holatlari qayb etilgan.

4. Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishning muayyan chegarasining yo‘qligi sababli telegramm, instagram, yutub kabi tarmoqlarda vaqtini ko‘p o‘tkazishi, internet o‘yinlarini o‘ynash yoki bugunni kunda kuzatuvchilari ko‘p bo‘lgan, ammo axloqsizlikni, madaniyatsizlik bilan namuna bo‘layotgan blogerlarning xulq-atvoriga taqlid qilish holatlari kuzatilmoqda.

O‘quvchilarning internetdagi qaysi tarmoq va saytlardan tez-tez foydalanishi xususida so‘ralganda 48 % Telegram, 24 % Instagram, 19 % YouTube, 8 % Tik Tok, 2 % Facebook va WhatsAppdan foydalanishini, bloger, vayner yoki media-yulduzlardan 20 % Vayner Mitti.me, 19 % Dili Me, 17 % Instasamka, 10 % Erali, 8 % Mubilolo, 8 % Lil Xurramov, 18 % Bobur Mansurov, Xushnudbek Xudoyberdiev kabilar yoqishina belgilashgan.

5. O‘quvchilarning farovonligi, ta’lim va tarbiyasi uchun mas’ullik san-salorlikka solinayotganligi, ona-ona maktabga yo‘naltirsa, maktab ota-ona va mahalla mas’ulligini tak’ikdlamoqda, bu esa o‘z navbatida bolaning nazoratsiz va e’tiborsiz qolishiga olib kelmoqda.

O‘qituvchilarning 51 % ota-onalari, 41 % davlat, maktab, mahalla, ota-ona teng, 8 % maktab, davlat, mahalla deb hisoblasa, ota-onalaring 64 % ota-onalar, 30 % davlat, maktab, mahalla, ota-ona teng; 5 % maktab mas’ul deb javob berishgan.

Tadqiqotlar tuman umumiy o‘rta ta’lim maktablarida xavfsiz ta’lim tizimini yaratish va o‘quvchilar o‘rtasida huquqbuzarliklar barvaqt profilaktikasini ta’minlash sohasida bir qator yechimini kutayotgan muammolar mavjudligini ko‘rsatmoqda.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarini qo‘riqlash va ularda xavfsizlikni ta’minlash sohasidagi muammolar:

– maktablarda idoraviy qorovullik ishchilarining kunu-tun xizmati tashkil etilmagan, ular Milliy gvardiya hududiy Qo‘riqlash boshqarmalari tuzilmasiga to‘liq

o‘tkazilmagan, shu bilan bir qatorda maktablarda qo‘riqlash bo‘linmalari xodimlari va xizmatchilari xizmat olib bormayaptilar;

– idoraviy qorovullik ishchilariga maktablar tomonidan tayinlangan o‘rtacha 1 mln. so‘m miqdoridagi oylik maoshlari ishga kirishni xohlovchilarni qoniqtirmayotganligi sababli, ayrim maktablar (masalan, 79-son maktab)da ushbu lavozimlar jamlanmasdan qolmoqda, ko‘pgina maktablarda esa idoraviy qorovullikka kunduzgi smenaga faqat bitta ishchi yollanib, unga qolgan 2-3ta shtatdagi ishchilarning oyliklari to‘lanib kelinmoqda;

– amaldagi idoraviy me’yoriy-huquqiy hujjatlar talablariga muvofiq maktab hududiga faqat asosiy darvoza orqali kirilishi hamda u yerda idoraviy qorovullik xizmati yo‘lga qo‘yilishi belgilangan bo‘lsa-da, tumandagi aksariyat maktablarga asosiy darvozadan tashqari yana 1-2ta joydan kirish imkoni yaratilgan hamda idoraviy qorovullik ishchilarining faoliyati maktabning asosiy o‘quv binosiga kirish eshigidan kirgan joyda tashkil etilgan, maktab hududiga, shuningdek asosiy o‘quv binosidan tashqari boshqa binolarga kirish va chiqish nazoratsiz qoldirilmoqda;

– idoraviy qorovullik ishchilarining funksional majburiyatlari biron-bir normativ-huquqiy hujjat bilan aniq belgilanmagan, ishchilarning aksariyati zimmasidagi asosiy vazifalarni yaxshi bilmaydilar.

Maktablarda faoliyat yuritayotgan inspektor-psixologlar faoliyatini tashkil etishdagi muammolar:

– tumandagi 31 ta umumiy o‘rta ta’lim maktablariga 15 nafar inspektor-psixologlar biriktirilgan bo‘lib, ularga jamoatchilik asosida 2 nafar katta inspektor-psixologlar rahbarlikni amalga oshirmoqda. Xususan, ular inspektor-psixologlardan kunlik hisobotlarni qabul qilish va O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Toshkent shahar bo‘yicha boshqarmasi Bolalar bilan ishlash bo‘limiga taqdim etish, yuqoridan berilgan ko‘rsatmalarni inspektor-psixologlarga yetkazish hamda ijrosini nazorat qilish vazifalarini amalda bajarib kelayotgan bo‘lsa-da, ularning rahbarligi, bu boradagi funksional majburiyatlari hech qanday normativ-huquqiy hujjatlar bilan belgilanmagan;

– inspektor-psixologlar bir-biriga yaqin joylashgan 2-3ta maktabga biriktirilgan holda faoliyat yuritayotgan bo‘lsa-da, ularning aksariyati maktablarda alohida xizmat xonalari bilan ta’minlanmagan, biriktirilgan maktablardagi o‘quvchilar sonidan kelib chiqqanda ularning ish yuklamalari turlicha bo‘lib qolgan;

– inspektor-psixologlarning voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiruvchi bir qator organlar va muassasalar bilan hamkorligi belgilangan bo‘lsa-da, uni amalga oshirishning huquqiy mexanizmlari ishlab chiqilmagan, bu esa inspektor-psixologlarning hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etish qiyinchilik va muammolarni keltirib chiqarmoqda;

– inspektor-psixologlar bugungi kunda zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun zarur bo‘lgan vakolatlar, xizmat planshetlari va dasturiy tizimlar bilan yetarli darajada ta’minlanmagan;

– inspektor-psixologlar o‘quvchilar va ularning oilalari bilan profilaktik ishlarni tashkil etish bo‘yicha maxsus uslubiy qo‘llanmalar bilan ta’minlanmagan.

Maktab o‘quvchilari tomonidan sodir etilgan jinoyatlarning hisobini yuritish, ularning sabablari va shart-sharoitlarini aniqlash hamda bartaraf etish, jinoyat sodir etgan o‘quvchilar bilan tarbiyaviy-profilaktik ishlarni tashkil etishdagi kamchiliklar:

– tumanda sodir etilgan jinoyatlarning hisobini yuritish amaliyotida maktab o‘quvchilari tomonidan sodir etilgan jinoyatlarni qayd etishda elektron jinoiy-huquqiy yagona axbrot tizimiga o‘quvchilar ta’lim olayotgan maktablarni xato qayd etish holatlari kuzatilmoqda;

– ayrim hollarda ichki ishlar organlari tomonidan jinoyat sodir etgan o‘quvchi ta’lim olayotgan maktab ma’muriyati holat yuzasidan xabardor qilinmasdan qolmoqda, bu esa maktablarda vakolatli shaxslar tomonidan bunday o‘quvchilarga nisbatan tegishli tarbiyaviy-profilaktik choralar belginmay, zarur ishlar amalga oshirilmay qolishiga olib kelmoqda;

– ichki ishlar organlari va Milliy gvardiya bo‘linmalari tomonidan maktab o‘quvchilari sodir etgan jinoyatlarning sabablari va ularga imkon bergan shart-

sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etish, bu borada o‘quvchining jinoyat sodir etishiga yo‘l qo‘ygan ota-onalar va o‘qituvchilarga nisbatan tegishli choralarni qo‘llash bo‘yicha ishlar tizimli yo‘lga qo‘yilmagan.

Oilalar va ta’lim muassasalarida ko‘p hollarda voyaga yetmaganlar, xususan o‘quvchilar yetarlicha nazorat qilinmasligi, ularga zamonaviy raqamli texnologiyalardan to‘g‘ri va maqsadli foydalanish xususida, sog‘lom jinsiy hayotga oid zarur maslahatlar va yo‘nalishlar berilmayotganligi, bu borada ota-onalar, maktab ma’muriyati va mahallaning hamkorligi yetarlicha yo‘lga qo‘yilmaganligi bilan bog‘liq muammolar:

– aksariyat ota-onalar loqaydligi va beparvoligi sababli farzandlari yurish-turishi, nima bilan bandligidan bexabar, ularni o‘z holigi tashlab qo‘ygan va nazoratsiz qoldirgan;

– oilalar va ta’lim muassasalarida bolalarning uyali aloqa vositalari orqali internet va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishi nazorat qilinmasdan, o‘z holiga tashlab qo‘yilishi natijasida bolalar internet saytlari orqali axloqsizlik, zo‘ravonlik va faxshni targ‘ib qiluvchi materiallarni to‘siqsiz, bemalol tomosha qilishi, ularni bir-biriga tarqatishi, oxir-oqibatda esa ko‘rganlariga taqlid qilishi, bilib-bilmay huquqbuzarlik va jinoyat sodir etishi holatlari uchramoqda;

– voyaga yetmaganlarni o‘z holiga tashlab qo‘yish, nazoratsiz qoldirish ularning giyohvandlik vositalari, psixotrop modda va spirtli ichimlik iste’moliga o‘rganishiga hamda oqibatda jinoyat yo‘liga kirishiga olib kelmoqda;

– oilalarda va umumiy o‘rta ta’lim maktablarida bolalarga ularning jinsi va xususiyatidan kelib chiqib sog‘lom jinsiy hayotga oid mavzular bo‘yicha zarur tushintirishlar yetarlicha olib borilmayapti;

– oilalar va ta’lim muassasalarida voyaga yetmaganlarga g‘ayrihuquqiy qilmish huquqbuzarlik yoki jinoyat sifatida baholanishi va uning uchun jazo muqarrarligi xususida tushintirish ishlari yetarlicha olib borilmayapti;

– voyaga yetmaganlarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli va maqsadli tashkil etish, ularni nazorat qilish borasida ota-onalar, maktab ma’muriyati va mahallaning tizimli hamkorligi yo‘lga qo‘yilmagan.

Maktab o‘quvchilarining sinfdan sinfga qoldirilishi bilan bog‘liq muammolar:

– amaldagi tartibga muvofiq oilaviy sharoitiga ko‘ra xorijiy davlatlarda o‘qishni davom ettirayotgan bolalarni maktab o‘quvchilari safidan chiqarish uchun Bolalar masalalari bo‘yicha tuman komissiyasining roziligi aks etgan qarori shartligi belgilangan, biroq biron-bir normativ-huquqiy hujjatda Komissiyaga qanday hujjatlar taqdim etilishi belgilanmagan, bu esa ota-onalar va maktab ma’muriyatining sarsongarchiligiga sabab bo‘lmoqda, natijada ota-onalar tomonidan farzandini maktab balansidan chiqarmasdan, xorijiy davlatlarga ketib qolishiga olib kelmoqda;

– O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirining 2008 yil 4 martda qabul qilingan va bugungi kunda amalda bo‘lgan “Umumiy o‘rta ta’lim oluvchilarning yakuniy davlat attestatsiyasi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 56-son buyrug‘ida faqatgina maktablarda umumiy o‘rta ta’lim davlat ta’lim standartlari talablarini bajarmay, “qoniqarsiz” baho olgan bitiruvchilarning shu sinfda qayta o‘qishga qoldirilishi belgilangan. Biroq, bitiruvchi sinflardan boshqa sinflar o‘quvchilarining surunkali darslarga qatnashmagan, uzoq muddatga chet elga chiqib ketgan, davlat imtihonlariga kelmagan va boshqa sabablarga ko‘ra o‘quvchilarning sinfdan sinfga qoldirilishi tartibi belgilab berilmagan;

– sinfdan sinfga qolgan o‘quvchilar bilan ishlash amaliyoti bilan bog‘liq yagona monitoring tizimi mavjud emas, bu esa ushbu sohada tizimli ish olib borilmasdan qolishiga olib kelmoqda.

Maktablarda fan va kasbga yo‘naltirilgan, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan 5 tashabbus doirasida o‘quvchilarning qiziqishlari bo‘yicha to‘garaklar va ularda ishtirok etuvchi o‘quvchilarning ro‘yxatlari shakllantirilgan bo‘lsa-da, amalda ushbu to‘garaklar faqat qog‘ozda qolib, ularda mashg‘ulotlar tashkil etilmasligi bilan bog‘liq muammolar:

tumandagi maktablarning barchasida ularning sig‘imiga nisbatan ko‘proq o‘quvchilarning qamrab olinganligi va aksariyatida ikki smenali o‘quv jarayonining

tashkil etilganligi natijasida to‘garaklarni tashkil etish uchun o‘quv sinflarining yetishmasligi va yetarli shart-sharoitning mavjud emasligi;

maktab ma’muriyati va o‘qituvchilar tomonidan dars mashg‘ulotlaridan keyin bo‘sh qolayotgan o‘quvchilarni to‘garaklarga jalb etish bo‘yicha ishlarning to‘g‘ri tashkil etilmaganligi.

Yuqoridagi ko‘rsatilgan bilan bir vaqtda maktablarda: “Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik” fanini o‘qitish ahvoli bugungi kun talablariga javob bermasligi; psixologlar faoliyatida bir qator kamchiliklarning mavjudligi; o‘quvchilarning kitobxonlik darajasi pastligi, bu borada maktablar ma’muriyati va pedagogik jamoaning tashabbuskorligi yetishmayotganligi; jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari talab darajasida olib borilmayotganligi va ularda buning uchun zarur shart-sharoitlar mavjud emasligi kuzatilmoqda**.**

Tuman umumiy o‘rta ta’lim maktablarida xavfsiz ta’limni yaratish, o‘quvchilar o‘rtasida huquqbuzarliklar barvaqt profilaktikasini samarali yo‘lga qo‘yish kompleks, maqsadli va manzilli chora-tadbirlarni tizimli amalga oshirishni taqozo etadi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarini qo‘riqlash va ularda xavfsizlikni ta’minlash ishlarini tizimli tashkil etish bo‘yicha:

– maktablarda idoraviy qorovullik ishchilarining 3 smenali kunu-tun xizmatini tashkil etish, ularni Milliy gvardiya hududiy Qo‘riqlash boshqarmalari tuzilmasiga to‘liq o‘tkazish;

– idoraviy qorovullik ishchisi lavozimiga tayinlash uchun belgilanadigan talablar (jumladan, ilgari sudlanmagan, jinoyat sodir etishga moyil bo‘lmagan, narkologik kasalliklar dispanseri ro‘yxatida turmaydigan bo‘lishi va boshq.)ni, ularga to‘lanadigan oylik maoshining miqdorini aniq belgilash hamda ushbu lavozimlar talabga javob beradigan shaxslar bilan to‘liq jamlash choralarini ko‘rish;

– maktab hududiga faqat asosiy darvoza orqali kirilishi hamda u yerda O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi hududiy Qo‘riqlash boshqarmalari tomonidan o‘rnatilib, xizmat ko‘rsatiladigan turniketlar, yuz orqali shaxsni tanib olish imkonini beruvchi kuzatuv kameralari va tezkor chaqiruv tugmalari bilan

jihozlangan maxsus xona (kabina, budka)lar tashkil etilgan holda ularda idoraviy qorovullik ishchilari xizmat olib borishini yo‘lga qo‘yish, maktablarga asosiy darvozadan tashqari boshqa joylardan kirish holatlariga chek qo‘yish;

– idoraviy qorovullik ishchilarining funksional majburiyatlari, huquqlari va xizmatini tashkil etish tartibini ishlab chiqish hamda O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi hamda Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi qo‘shma qarori bilan tasdiqlab, ijroga qaratish.

Maktablarda faoliyat yuritayotgan inspektor-psixologlarning faoliyatini tizimli tashkil etish va samarali muvofiqlashtirish maqsadida:

– umumiy o‘rta ta’lim maktablarida faoliyat yuritayotgan 15 nafar inspektor-psixologlarning faoliyatini tizimli tashkil etish va samarali muvofiqlashtirish uchun tumanda alohida guruh rahbari lavozimini kiritish, uning vakolatlari, funksional majburiyatlari va xizmat joyini aniq belgilab berish;

– inspektor-psixologlarga biriktirilgan maktablar taqsimotini qayta ko‘rib chiqib, ularni o‘quvchilarning soni va ish yuklamasidan kelib chiqqan holda adolatli tarzda qayta biriktirish choralarini ko‘rish;

– inspektor-psixologlar bilan hamkorlikda voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirishi belgilangan organlar va muassasalarning idoraviy me’yoriy-huquqiy hujjatlarida bu boradagi o‘zaro hamkorlikning huquqiy mexanizmlarini aniq belgilash;

– inspektor-psixologlarni zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun zarur bo‘lgan vakolatlar, xususan voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan, shuningdek bolalarni tarbiyalash va ularga ta’lim berish borasidagi majburiyatlarni bajarmaslik bilan bog‘liq ma’muriy huquqbuzarliklar yuzasidan ma’muriy bayonnoma rasmiylashtirish vakolatini berish, shuningdek ularni faoliyati davomida foydalanish zarurati mavjud bo‘lgan dasturiy tizimlarga ulangan xizmat planshetlari bilan ta’minlash;

– inspektor-psixologlari faoliyatida foydalanish uchun o‘quvchilar va ularning oilalari bilan profilaktik ishlarni tashkil etish bo‘yicha maxsus uslubiy qo‘llanma ishlab chiqish hamda ta’minlash.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, quyidagilarni manzilli va tizimli amalga oshirib borish:

maktab o‘quvchilari tomonidan sodir etilgan jinoyatlarning hisobini yuritish, ularning sabablari va shart-sharoitlarini aniqlash hamda bartaraf etish, jinoyat sodir etgan o‘quvchilar bilan tarbiyaviy-profilaktik ishlarni tashkil etishdagi mavjud kamchiliklarni bartaraf etish;

oilalar va ta’lim muassasalarida voyaga yetmaganlarning turli salbiy illatlar ta’siriga tushishining oldini olish, ularni nazorat qilish, o‘quvchi-yoshlar o‘rtasida zamonaviy raqamli texnologiyalardan to‘g‘ri va maqsadli foydalanish xususida, sog‘lom jinsiy hayotga oid tushintirishlar olib borish bo‘yicha ota-onalar, maktab ma’muriyati va mahalla tomonidan hamkorlikda tizimli ishlarni tashkil etishni yo‘lga qo‘yish;

maktab o‘quvchilarining sinfdan sinfga qoldirilishi bilan bog‘liq muammolarni bartaraf etish;

tumanda yangi umumiy o‘rta ta’lim maktablarini barpo etish, shuningdek xususiy maktablarni sonini ko‘paytirish orqali 2 smenada faoliyat olib borayotgan 24 ta maktablardagi o‘quv jarayonini 1 smenalikka o‘tkazish hamda fan va kasbga yo‘naltirilgan, shuningdek o‘quvchilarning qiziqishlari bo‘yicha to‘garaklarning ish faoliyatini real tashkil etish hamda bu orqali o‘quvchilarning dars mashg‘ulotlaridan keyin bo‘sh vaqtlarini maqsadli va mazmunli tashkil etish choralarini ko‘rish;

maktablarda “Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik” fanini o‘qitish sifatini oshirish;

maktablardagi psixologlar faoliyatini tizimli va yagona yondashuv asosida tashkil etishni yo‘lga qo‘yish;

maktablarda jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari sifatini oshirish, ularni zarur shart-sharoitlar va inventarlar bilan ta’minlash O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasida nazarda tutilgan g‘oyalarni tizimli ravishda amalda samarali ta’minlash maqsadida qabul qilingan «O‘zbekiston – 2030» strategiyasida belgilangan maqsad va vazifalarni amalga oshirish bevosita milliy xavfsizlikni,

uning ajralmas tarkibiy qismi bo‘lgan jamoat xavfsizligini, xususan xavfsiz ta’lim tizimini yaratishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOT VA MANBALAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 23 noyabrdagi “Buxoro, Samarqand, Xiva va Shahrisabz shaharlarida xavfsiz turizmni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 939-son qarori. http://www.lex.uz.;

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 martdagi “Transport va turizm ob’ektlarida jamoat xavfsizligini ta’minlashning samarali tizimini joriy etishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4229-son qarori http://www.lex.uz.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 29 avgustdagi “Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida loyiha boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-3245-son qarori. http://www.lex.uz.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 19 iyundagi “Toshkent shahrida jamoat tartibini ta’minlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3786-son qarori. http://www.lex.uz.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 18 fevraldagi “Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo‘llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5938-son farmoni. http://www.lex.uz.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 29 noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-27-son farmoni // Elektron manba: https://lex.uz/uz/docs/5749291

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentabrdagi «O‘zbekiston – 2030» strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son farmoni // Elektron manba: https://lex.uz/docs/6600413

8. Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi https://lex.uz/docs/6445145

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining: 2019 yil 22 apreldagi “Bola huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4296-son qarori // https://lex.uz/docs/4302023;

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 maydagi «Bola huquqlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-4736-son qarori // https://lex.uz/ docs/4831107;

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 9 avgustdagi “Bola huquqlarining kafolatlarini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6275-son farmoni https://lex.uz/docs/5570490.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining: 2021 yil 26 martdagi “Jamoat xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6196-son farmoni https://lex.uz/docs/5344118;

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 2 apreldagi «Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikka karshi kurashish sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha ko‘shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-5050-son qarori. // https://lex.uz/ru/docs/5353841

14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 5 fevraldagi "Voyaga yetmaganlar o‘rtasida qonunbuzarliklar profilaktikasi tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi PQ-55-son qarori

15. Voyaga yetmaganlar o‘rtasida qonunbuzarliklar profilaktikasi tizimini takomillashtirish. https://haqiqattv.uz/uzk/khukuk/voyaga-etmaganlar-urtasida-konunbuzarliklar-profilaktikasi-tizimini-takomillashtirish

16. I.Ismailov Kriminologiya va jinoyatchilik: yangi O‘zbekiston huquqbuzarliklar profilaktika milliy tizimi. // Jahon kriminologlarining ilg‘or tajribalari I xalqaro forumi materiallari to‘plami. 29-30 oktabr 2024 yil., – B.66-75;

17. I.Ismailov, M.Z.Ziyodullaev Voyaga yetmaganlar jinoyatlari barvaqt profilaktikasining bugungi holati va istiqbollari. // Bola va zamon. № 4 2024., 8-12-b.

OTA-ONA TOMONIDAN FARZANDINI TA’LIM VA TARBIYA QILISH MAJBURIYATINI BAJARMAGANLIK UCHUN JAVOBGARLIK MASALASI

Usmanova Muborak Akmaldjanovna
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti “Jinoyat huquqiy fanlar” kafedrasi professori, yu.f.d., professor
Tallibayev Umidjon Shergaziyevich
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti “Jamoat xavfsizligini ta’minlash” kafedrasi dotsenti, yu.f.b.f.d. (PhD)

Milliy gvardiyaga ma’muriy huquqbuzarliklar bo‘yicha javobgarlik tayinlash yuzasidan vakolatlar dast avval O‘zbekiston Respublikasining 2019-yilning 8-iyuldagi O‘RQ-548-son «O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat-protsessual kodekslariga hamda Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida»gi qonuniga muvofiq, Milliy gvardiyaning tergovga qadar tekshiruv va surishtiruvni amalga oshirish sohasidagi vakolatlari belgilandi, jumladan: O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 248^1-modda bilan to‘ldirilishi natijasida, Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 61, 185^1 (bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzish bilan bog‘liq huquqbuzarliklardan tashqari), 194^1, 195^1, 196 (O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi organlariga tegishli qismi bo‘yicha) va 210^1-moddalarida nazarda tutilgan ma’muriy huquqbuzarliklar aniqlangan taqdirda, O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi organlarining mansabdor shaxslari ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risida bayonnoma tuzishi belgilandi[1].

Ushbu moddaning hozirgi kundagi shakli O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 12-may kunidagi O‘RQ-842[2] sonli “O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga o‘zgartishlar kiritish haqida”gi Qonuni bilan O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi organlarining xodimlariga

[1] O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 8-iyul kunidagi O‘RQ-548-son “O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat-protsessual kodekslariga hamda O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida” Qonuni // https://lex.uz/uz/docs/-4407820

[2] O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 12-may kunidagi O‘RQ-842-son “O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga o‘zgartishlar kiritish haqida” Qonuni // https://lex.uz/docs/-6464211

mayda bezorilik, sovuq qurolni yoki sovuq qurol sifatida foydalanilishi mumkin bo‘lgan ashyolarni olib yurish, voyaga yetmagan shaxsni ma’muriy huquqbuzarlik sodir etishga, g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlarga jalb qilish, jamoat joylarida alkogol mahsulotini iste’mol qilish kabi ma’muriy huquqbuzarliklar bo‘yicha ishlarni ko‘rib chiqish, bayonnomalar tuzish va ularni ko‘rib chiqish uchun sudga yuborish yuzasidan qo‘shimcha vakolatlar berildi.

O‘zbekiston Respublikasining 2023-yilning 11-iyul kunidagi O‘RQ-854-son[1] “Ekologiya va jamoat tartibini saqlash sohalaridagi qonunchilik takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonuni bilan , 72-moddasining birinchi va to‘rtinchi qismlarida (suvlarni ifloslantirish yoki bulg‘atish, suvto‘plagich inshootlarida suvni muhofaza qilish rejimini buzish, suv ob’ektlariga oqova suvlarni oqizishga yo‘l qo‘yish shartlari to‘g‘risidagi talablarni buzishga oid qismida, bundan yer osti suvlariga doir huquqbuzarliklar mustasno), 79-moddasining birinchi va uchinchi qismlarida, 88-moddasida (bundan bitum eritish chog‘ida atmosfera havosini muhofaza qilish talablariga rioya etmaslik mustasno), 90-moddasining birinchi qismida, 91-moddasida (sanoat chiqindilarini, maishiy chiqindilarni va boshqa chiqindilarni to‘plash, tashish chog‘ida tabiatni muhofaza qilish talablarini buzishga oid qismida), 91^1-moddasining birinchi, ikkinchi va uchinchi qismlarida, 91^2, 161-moddalari bo‘yicha ko‘rib chiqish va 79-moddasining ikkinchi qismida, 90-moddasining ikkinchi, uchinchi va to‘rtinchi qismlarida, 90^1-moddasida, 91^1-moddasining to‘rtinchi qismlari bo‘yicha ma’muriy huquqbuzarliklar bo‘yicha ish yuritish huquqlari berildi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda bolalarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga, shuningdek ularning jismoniy, intellektual, ma’naviy va axloqiy jihatdan kamol topishiga ko‘maklashishga qaratilgan yaxlit huquqiy tizimni yaratish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

[1] O‘zbekiston Respublikasining 2023 yil 11-iyul kunidagi O‘RQ-854-son “Ekologiya va jamoat tartibini saqlash sohalaridagi qonunchilik takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” Qonuni // https://lex.uz/uz/docs/-6530788

Voyaga yetmaganlar o‘rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasi tizimini takomillashtirish bo‘yicha olib borilayotgan islohotlar doirasida O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasida Bolalar bilan ishlash boshqarmasi va uning hududiy bo‘linmalari tashkil etildi, shuningdek voyaga yetmaganlar masalalari bo‘yicha katta inspektor-psixologlar va inspektor-psixologlar lavozimlari joriy etildi.

Shu munosabat bilan O‘zbekiston Respublikasi 2025-yil 6-fevral kunidagi O‘RQ-1024[1]-son “Voyaga yetmaganlar o‘rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasi tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga o‘zgartirishlar kiritish haqida”gi qonun bilan O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Bolalar bilan ishlash boshqarmasi hamda uning hududiy bo‘linmalari harbiy xizmatchilari va xodimlarining ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqishga hamda ma’muriy jazo choralarini qo‘llashga doir vakolatlari belgilanishini nazarda tutuvchi o‘zgartirishlar kiritildi.

Hususan:

O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining “248[1]-modda. O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi organlari” moddasiga 47-moddasining birinchi qismida va 56[1]-moddalari Milliy gvardiya organlarining mansabdor shaxslari tomonidan ko‘rib chiqilishi mumkinligi belgilandi hamda Milliy gvardiya nomidan ma’muriy huquqbuzarliklar ko‘rib chiqish mumkin bo‘lgan mansabdor shaxslar ro‘yxatiga O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining Bolalar bilan ishlash boshqarmasi boshlig‘i, bo‘lim boshliqlari va katta ofitserlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri bo‘yicha boshqarmalari boshliqlari, ularning o‘rinbosarlari, surishtiruv bo‘limlari boshliqlari,

[1] O‘zbekiston Respublikasi 2025 yil 6-fevral kunidagi O‘RQ-1024-son “Voyaga yetmaganlar o‘rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasi tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga o‘zgartirishlar kiritish haqida” Qonuni // https://lex.uz/docs/-7367702

bolalar bilan ishlash bo‘yicha katta inspektor-psixologlari va inspektor-psixologlari kiritildi.

Ushbu Qonun O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi organlarining voyaga yetmaganlar o‘rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasiga, shuningdek bolalarning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishga doir faoliyati samaradorligini oshirishga xizmat qilishi nazarda tutilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 47-moddasi **“Bolalarni tarbiyalash va ularga ta’lim berish borasidagi majburiyatlarni bajarmaslik”**

Ota-onalar yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar tomonidan voyaga yetmagan bolalarni tarbiyalash va ularga ta’lim berish borasidagi majburiyatlarni bajarmaslik, shu jumladan voyaga yetmagan bolalarning ma’muriy huquqbuzarlik sodir etishiga olib kelishi huquqbuzarligi.

Ota-onalarning bolalarni tarbiyalash bo‘yicha majburiyatlari oila huquqi va etikasida muhim mavzudir. Bu majburiyatlar ma’naviy va yuridik jihatlarni o‘z ichiga oladi, ular turli mamlakatlarning madaniy va huquqiy tizimlariga qarab farqlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 50-moddasiga muvofiq[1], har bir shaxs ta’lim olish huquqiga ega. Davlat uzluksiz ta’lim tizimini shakllantirish, uning turli turlari va shakllarini rivojlantirish, shuningdek, davlat va nodavlat ta’lim muassasalarining barqaror faoliyat yuritishini ta’minlash majburiyatini o‘z zimmasiga oladi.

Shuningdek, davlat maktabgacha ta’lim va tarbiyaning rivojlanishi uchun zaruriy huquqiy va moddiy-texnik shart-sharoitlarni yaratadi. Shu bilan birga, davlat umumiy o‘rta ta’lim hamda boshlang‘ich professional ta’limning bepul ta’minlanishini kafolatlaydi. Bunda, umumiy o‘rta ta’limning majburiy ekani alohida e’tirof etiladi.

[1] O‘Zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son // https://lex.uz/docs/-6445145

Konstitutsiyaviy normalarga ko‘ra, maktabgacha ta’lim va tarbiya hamda umumiy o‘rta ta’lim davlat nazoratida bo‘lishi belgilangan. Bu esa davlat tomonidan ta’lim sifatini monitoring qilish va nazorat mexanizmlarini samarali joriy etish imkoniyatini yaratadi.

Bundan tashqari, ta’lim muassasalarida alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan bolalar uchun inklyuziv ta’lim va tarbiya jarayoni ta’minlanishi qonuniy asos sifatida belgilangan bo‘lib, bu barcha bolalarning ta’lim olishga bo‘lgan konstitutsiyaviy huquqini amalga oshirishga xizmat qiladi.

Mazkur moddada ifodalangan “Umumiy o‘rta ta’lim majburiydir” normasi alohida e’tiborga loyiq bo‘lib, davlat tomonidan bolalarning umumiy o‘rta ta’limni majburiy tarzda olishini ta’minlashga qaratilgan qat’iy konstitutsiyaviy talab hisoblanadi. Ushbu norma davlatning fuqarolar oldidagi ijtimoiy-huquqiy majburiyatlarini mustahkamlashga va ta’lim tizimining samaradorligini oshirishga qaratilgan fundamental tamoyillardan biri sifatida qaraladi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 77-moddasiga binoan, ota-onalar va ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar o‘z farzandlarini voyaga yetguniga qadar boqish, ularning tarbiyasi, ta’lim olishi, sog‘lom, to‘laqonli va har tomonlama kamol topishini ta’minlash majburiyatiga ega. Ushbu norma Oila kodeksining 73-moddasida yanada batafsil yoritilib, ota-onalarning farzandlarining tarbiyasi va ta’limi borasidagi majburiyatlari aniq belgilab berilgan. Jumladan:

1. Ota-onalar farzandlarini tarbiyalash huquqiga ega bo‘lish bilan birga, ushbu jarayonni amalga oshirishlari shart.

2. Ota-onalar farzandlarining tarbiyasi va kamoloti uchun shaxsiy javobgarlikka ega bo‘lib, ularning sog‘lig‘i, jismoniy, ruhiy, ma’naviy va axloqiy rivojlanishiga g‘amxo‘rlik qilishlari shart.

3. Ota-onalar farzandlarini tarbiyalash borasida barcha boshqa shaxslarga nisbatan ustun huquqqa ega.

4. Ota-onalar farzandlarining qonunchilikda belgilangan darajada ta’lim olishlarini ta’minlashlari majburiydir.

Ota-onalarning xulq-atvori bolalarning kelajakdagi hayotiga juda katta ta’sir ko‘rsatadi[1]. Ota-onalarning ijtimoiy va moddiy ko‘makchiligi bolalarning katta yoshdagi hayotini shakllantiradi. Ota-onalik majburiyatlari bolalik davri bilan cheklanmaydi; ular xayot davomida davom etadi, chunki ota-onalar bolalariga yetikdigan xavflarni minimallashtirish va ularga yetikdigan zararni qoplash majburiyatini anglatadi[2].

Oila kodeksining 74-moddasi ota-onalarning bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasidagi majburiyatlarini belgilaydi. Unga ko‘ra, ota-onalar o‘z farzandlarining qonuniy vakili hisoblanib, sud yoki boshqa organlarda alohida vakillikka ehtiyoj sezmasdan ularning huquq va manfaatlarini ifoda etadilar. Agar ota-onalar va farzandlar manfaatlari o‘rtasida qarama-qarshilik vujudga kelsa, vasiylik va homiylik organlari bolalar manfaatlarini himoya qilish uchun vakil tayinlaydi.

Shuningdek, Oila kodeksining 75-moddasida ota-onalik huquqlarini amalga oshirish tartibi belgilangan. Mazkur norma bo‘yicha ota-onalik huquqlari bolalar manfaatlariga zid tarzda amalga oshirilishi mumkin emas. Ota-onalar farzandlarining jismoniy va ruhiy sog‘lig‘iga, axloqiy tarbiyasiga zarar yetkazish huquqiga ega emaslar. Tarbiya jarayoni shafqatsizlik, qo‘pollik va insoniy qadr-qimmatni kamsituvchi usullarni o‘z ichiga olmay, bolalarni ekspluatatsiya qilish holatlariga yo‘l qo‘yilmasligi lozim. Agar ota-onalar ushbu talablarni buzsa, qonun doirasida javobgarlikka tortilishi mumkin.

Ota-onalarning bolalariga nisbatan majburiyatlari ma’naviy va huquqiy jihatlarni o‘z ichiga olgan murakkab va ko‘p tomonlama mavzudir. Bu majburiyatlar madaniy va huquqiy tizimlarga qarab farqlanadi, lekin ular barcha joyda bolalarning farovonligi va rivojini ta’minlashga qaratilgan.

Bolalarning ta’lim va tarbiyasiga oid masalalar ota-onalar tomonidan o‘zaro kelishuv asosida hal etilishi lozim. Kelishmovchilik yuzaga kelgan taqdirda, ushbu masalalar vasiylik va homiylik organlari yoki sud tomonidan bolalar manfaatlarini

[1] Arrow, K. (2013). THE RESPONSIBILITY OF PARENTS TO CHILDREN. . https://doi.org/10.4324/9781315632230-16.

[2] Weinberg, R. (2018). The Endless Umbilical Cord: Parental Obligation to Grown Children. , 6, 55-72.

inobatga olgan holda hal etiladi. Agar ota-onalar alohida yashayotgan bo‘lsa, bolalarning qaysi ota-onasi bilan qolishi masalasi ham kelishuv asosida belgilanadi. Kelishuvga erishilmagan taqdirda, sud bolaning manfaatlarini hisobga olgan holda, ota-onaning shaxsiy fazilatlari, moddiy ahvoli, ish tartibi va bolaga bog‘lanish darajasi kabi omillar asosida qaror qabul qiladi.

Ota-onalar bolalariga g‘amxo‘rlik qilish ma’naviy majburiyatdir, bu ko‘pincha huquqiy normalar bilan mustahkamlanadi. AQSh, Avstraliya va Buyuk Britaniya kabi ba’zi mamlakatlarda qonunlar ota-onalik majburiyatlarini "tabiiy" ma’naviy tartibning bir qismi sifatida ko‘zda tutib, ularni qat’iyat bilan talab qiladi[1]. Olmoniya va Fransiyada esa oila huquqi ota-onalik huquqini bolaning xavfsizligi, sog‘lig‘i va ta’limini qamrab oluvchi huquq va majburiyatlar majmui sifatida belgilab beradi[2][3].

Ota-onalarni javobgarlikka tortishning asosi ularning bolalariga ta’lim va tarbiya borasidagi majburiyatlarini bajarmaslik holati bilan bog‘liqdir. Ota-onalarning harakatsizligi voyaga yetmaganlarning to‘g‘ri tarbiya topmasligiga va huquqbuzarliklarga sabab bo‘lishi mumkin. Shu sababli, ota-onalar farzandlarining ta’limi va tarbiyasiga befarq bo‘lib, ularning huquqbuzarlik sodir etishiga sabab bo‘lsa, ma’muriy javobgarlikka tortilishi mumkin. Ma’muriy javobgarlik ota-onaning bevosita bolasi tomonidan huquqbuzarlik sodir etilganligi uchun emas, balki tarbiyaviy majburiyatlarini bajarmaganligi sababli qo‘llaniladi.

Shuningdek, ota-onalik majburiyatlarini bajarmaslik qasddan amalga oshirilgan taqdirda javobgarlik choralari ko‘riladi. Bunday holatlar aniqlanganda, ota-onaning bolani tarbiyalash va ta’lim olishiga befarqligi, takroriy huquqbuzarliklar sodir etilishi hamda turli organlar tomonidan berilgan ogohlantirishlarga qaramay, holatni tuzatish uchun choralar ko‘rilmaganligi inobatga olinadi.

[1] Eekelaar, J. (1991). Are Parents Morally Obliged to Care for Their Children. Oxford Journal of Legal Studies, 11, 340-353. https://doi.org/10.1093/OJLS/11.3.340.

[2] Sydorenko, D. (2024). Fulfillment of parents’ obligation to carry out child education (germany’s experience). Analytical and Comparative Jurisprudence. https://doi.org/10.24144/2788-6018.2024.05.36.

[3] Dinu, C. (2024). Exercising Parental Authority – A Right or a Legal Obligation?. Bulletin of the Transilvania University of Braşov. Series VII: Social Sciences • Law. https://doi.org/10.31926/but.ssl.2023.16.65.2.14.

Mazkur javobgarlik nafaqat qonuniy ota-onalarga, balki ularga tenglashtirilgan shaxslarga ham tegishlidir. Xususan:

- Vasiylik yoki homiylik huquqiga ega bo‘lgan shaxslar;
- Bola asrab oluvchilar;
- Ota-onalik huquqidan mahrum qilingan shaxslar (agar bolaning huquqbuzarlik sodir etishi ota-onaning huquqlari cheklanganidan keyin sodir bo‘lgan bo‘lsa, javobgarlik bekor qilinishi mumkin);
- Bolalar davlat muassasalarida tarbiyalanayotgan taqdirda ham ota-onalar ularning tarbiyasiga javobgarlikni saqlab qoladilar.

Javobgarlik faqatgina ota-onalarning aybdor harakatlariga nisbatan qo‘llanilishi mumkin. Ruhiy kasallik, aqliy zaiflik yoki boshqa obyektiv sabablar tufayli ota-onalik majburiyatlarini bajara olmaydigan shaxslar ushbu modda doirasida javobgarlikka tortilmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son // https://lex.uz/docs/-6445145
2. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 8-iyul kunidagi O‘RQ-548-son “O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat-protsessual kodekslariga hamda O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida” Qonuni // https://lex.uz/uz/docs/-4407820
3. O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 12-may kunidagi O‘RQ-842-son “O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga o‘zgartishlar kiritish haqida” Qonuni // https://lex.uz/docs/-6464211
4. O‘zbekiston Respublikasining 2023 yil 11-iyul kunidagi O‘RQ-854-son “Ekologiya va jamoat tartibini saqlash sohalaridagi qonunchilik takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” Qonuni // https://lex.uz/uz/docs/-6530788
5. O‘zbekiston Respublikasi 2025 yil 6-fevral kunidagi O‘RQ-1024-son “Voyaga yetmaganlar o‘rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasi tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga o‘zgartirishlar kiritish haqida” Qonuni // https://lex.uz/docs/-7367702

6. Arrow, K. (2013). THE RESPONSIBILITY OF PARENTS TO CHILDREN. . https://doi.org/10.4324/9781315632230-16.

7. Weinberg, R. (2018). The Endless Umbilical Cord: Parental Obligation to Grown Children. , 6, 55-72.

8. Eekelaar, J. (1991). Are Parents Morally Obliged to Care for Their Children. Oxford Journal of Legal Studies, 11, 340-353. https://doi.org/10.1093/OJLS/11.3.340.

9. Sydorenko, D. (2024). Fulfillment of parents' obligation to carry out child education (germany's experience). Analytical and Comparative Jurisprudence. https://doi.org/10.24144/2788-6018.2024.05.36.

10. Dinu, C. (2024). Exercising Parental Authority – A Right or a Legal Obligation?. Bulletin of the Transilvania University of Braşov. Series VII: Social Sciences • Law. https://doi.org/10.31926/but.ssl.2023.16.65.2.14.

HARBIY SOHADA AXBOROT XAVFSIZLIGI PSIXOLOGIYASINI TA’MINLASH MASALALARI

Mamatkulov Davlatjon Mahamadjonovich
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavsizligi universiteti “Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta’minlash” kafedrasi dotsenti, f.f.d (DSc), dotsent

Ma’lumki, yaqin tariximizgacha muayyan axborotni olov, tutun, chopar, qushlar, karvon, shimol mamlakatlarida esa, itlar singari vositalar orqali bir manzildan ikkinchi manzilga yetkazib kelingan. Mazkur axborot tashuvchilar tomonidan axborotni belgilangan manziliga yetkazgunga qadar bir necha soat, kun yoki oylar ketgan.

XX asr o‘rtalaridan boshlab muayyan xabar axborot komunikatsiya texnologiyalari (AKT) orqali uzatila boshlandi. XX asrning so‘ngi o‘n yilligida boshlangan AKTning intensiv rivoji telefon, radio, televideniya, internet kabilar bir mamlakat doirasidan chiqib sayyoraviy maqomga ko‘tarilishiga olib keldi. Mazkur rivojlanish avvalo axborot uzatish tezligiga kuchli ta’sir ko‘rsatdi. Endilikda, AKT orqali muayyan axborotni bir manzildan ikkinchi manzilga yetkazish tezligi 0,6 sekundga yetdi. Mazkur o‘zgarishlar natijasida yo‘ldosh (sputnik) telefoniyasi, yo‘ldosh radiotelevideniyasi, internet hamda ijtimoiy tarmoqlar insoniyat hayotidan mutloq o‘rin egalladi.

Ta’kidlash kerakki, dunyo taraqqiyoti axborot va uning uzatish bilan bog‘liq quyidagi uch bosqichni bosib o‘tdi. Ular:

1. Ilk, sodda shaklda axborot uzatish davri;
2. Faol axborot uzatish davri;
3. Yolg‘on axborot uzatish davri.

Bugungi kunda insoniyat jamiyati yolg‘on axborot uzatish davriga kirib keldi. Darhaqiqat, hozirda global yoki lokal axborot makonida ishonchli axborotlar ulushidan ko‘ra “fake news” - soxta axborotlar ulushi katta miqdorni tashkil etmoqda.

Davrimizning asosiy xususiyatlaridan yana biri shundaki, bugungi kunga kelib, an’anaviy bozor va raqobatdan mutloq farq qiladigan yangi bozor va raqobat shakllari vujudga keldi.

Yangi bozorda mahsulot emas, inson e’tibori sotilmoqda. Bugungi kunda ijtimoiy tarmoq kompaniyalari (*Facebook, “Twitter” yoki “X”, “Telegram”, “Instagram”, “V-kontakte”, “Linkedln” kabilar*) aynan shuning uchun ya’ni, odamlarni ekrandan uzoqlashtirmaslik, ularning diqqatini ko‘proq ushlab turish uchun o‘zaro raqobatlashmoqda.

Darhaqiqat, hozirda hech kim ijtimoiy tarmoq foydalanuvchisi sifatida unga pul to‘lamaydi. Lekin, shuni unutmaslik lozimki, iqtisodiyotning asosiy tamoyiliga ko‘ra “Agar kimdir mahsulot uchun pul to‘lamayotgan bo‘lsa, bilinki, uning o‘zi mahsulot hisoblanadi!”.

Ta’kidlash kerakki, ijtimoiy tarmoq kompaniyalarining uchta asosiy maqsadi mavjud. Ular:

1. Inson e’tiborini tortish va uni ushlab turish. Bu maqsad kishilarni iloji boricha ijtimoiy tarmoqda bo‘lish vaqtini uzaytirishga qaratilgan;
2. Do‘stlarimizni ijtimoiy tarmoqqa qo‘shish va ularga axborot uzatishimizni rag‘batlantirish. Bundan maqsad ijtimoiy tarmoq auditoriyasini kengaytirish va uni yanada rivojlantirish;
3. Ijtimoiy tarmoqdagi axborotlar orasiga mohirona reklama joylash. Bu mazkur sohadagi kompaniyalarining asosiy maqsadi bo‘lib bu orqali o‘z faoliyatlarini monetizatsiya qilishadi.

Shu vaqtga qadar inson shaxsi va psixologiyasi bu qadar kuchli kuzatilmagan va o‘rganilmagan edi. Endilikda axborot gigantlari tomonidan insonning har bir xatti-harakati: ekrandagi rasmga qancha soniya tikilgani, qaysi mazmundagi videolarni ko‘p tomosha qilgani, yozayotgan izoh (komentariy)larining mazmuni va xissiy dinamikasidan uning ruhiy va intelektual xolatidagi o‘zgarishlar chuqur o‘rganib borilmoqda. Albatta, bu ishni aniq kimdir emas, balki, murakkab algoritmga asoslangan axborot tizimi amalga oshirmoqda.

Shu tariqa ijtimoiy tarmoqlar onlayn aloqa, ayniqsa yosh avlod uchun birinchi o‘ringa chiqqan yangi, vertual dunyoni yaratdi. Bu dunyoda inson fyuchersi (*futurus – lotincha kelajak, fyuchers – xali ishlab chiqilmagan mahsulotlarning oldi-sottisi bo‘yicha o‘zaro kelishuv*) ya’ni, kelajakdagi istak va ehtiyojlari, oldindan qiladigan xatti-harakatlari sotuvga qo‘yilmoqda. Bu degani hozirgi zamon kishisining istak va ehtiyojlari va amaliy xatti-harakatlari uning o‘ziga emas, ko‘proq axborot gigantlari istaklariga bog‘liq bo‘lib qolmoqda. Shuning uchun ham tarixan o‘z qo‘lidagi narsa-buyum va uskunalarning mutloq egasi bo‘lgan inson endilikda o‘ziga tegishli axborot texnologiyalari (*smartfon, kompyuter va turli gejetlar*)ning tobesiga aylandi.

Darhaqiqat, mana shunday vaziyat dunyoda gibrid urush jarayonlari uchun qulay shart-sharoitni vujudga keltirayotganidan dalolat beradi. Ma’lumki, “gibrid urush (inglizcha – *hybrid warfare*) – hujum qilayotgan tomonning klassik ravishdagi harbiy bosib kirish usulini qo‘llamasdan, yashirin operatsiyalar, qo‘poruvchilik harakatlari, kiber urush hamda dushman hududida harakatlanayotgan nomuntazam, isyonchi guruhlarni qo‘llab quvvatlagan holda o‘z raqibiga bosim o‘tkazish bo‘yicha dushmanlik harakatlari. Bunday holatlarda harbiy harakatlar umuman olib borilmasligi va rasmiy nuqtai nazardan gibrid urushi tinchlik davrida ham olib borilishi mumkin” [3: 77].

Ta’kidlash kerakki, axborotning psixologik ta’siri bilan bog‘liq bugungi murakkab xolat hamda uning ta’sirida yuzaga keladigan gibrid urush tahdidi mamlakatimiz uchun ham begona emas. Bu xolat ayniqsa to‘laqonli hayotiy tajriba shakllanmagan, biroq zamonaviy texnologiyalarga o‘ta qiziquvchan va psixologik jihatdan tobe yoshlar faoliyati orqali yanada xavfli bo‘lishi mumkin.

Ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasi Qonunchiligiga ko‘ra 18 yoshga to‘lgan, harbiy xizmatga yaroqli har bir fuqaro Qurolli kuchlar tizmida o‘z fuqarolik burchini bajarishi majbur etib belgilangan. Afsuski, hozirda axborotning salbiy psixologik ta’sirini kuchayishi natijasida aksariyat mamlakatlar ijtimoiy hayotida hatbiy tizim uchun potensial zahira bo‘lgan yosh avlodda mazkur sohaga qishiqishni pasayish tendensiyasi yuzaga kelmoqda. Bir so‘z bilan aytganda, bugungi kundagi

axborotning salbiy psixologik ta’siri harbiy tizimda avlodlar almashunuvi masalasini havf ostida qoldirmoqda.

Axborotning salbiy psixologik ta’siri sharoitida birinchi muammo, harbiy tizim uchun potensial zahira bo‘lgan yosh avlodni asrash hamda mazkur sohada avlodlar almashunuvi to‘laqonli ta’minlash bo‘lsa, ikkinchi muammo hozirda bevosita muddatli harbiy xizmat, safarbarlik chaqiruvidagi harbiy xizmat, konrtakt asosidagi harbiy xizmat, qurolli kuchlar safida harbiy xizmatni o‘tab bo‘lgan rezervchilar harbiy xizmatchilari orasida gibrid urush shakllaridan biri bo‘lgan internet, ijtimoiy tarmoq va ayniqsa onlayn azart o‘yinlarga tobelikning ortayotgani hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, harbiy tizim davlat va jamiyatni himoyalashga qodir bo‘lishi uchun avvalo, o‘zini axborotning salbiy psixologik ta’siri hamda nostandart shakldagi gibrid urushlardan himoya qilmog‘i kerak. Albatta, bu o‘rinda himoya deganda harbiy tizimdagi klassik shakldagi harbiy arsenalni to‘la qonli harakatga keltirish orqali mudofaani ta’minlash nazarda tutilmaydi. Bu birinchi navbatda axborotning salbiy psixologik ta’siridan himoyalanishni, zarur bo‘lganda milliy manfaat himoyasi yo‘lida gibrid va axborot urushlariga kira olishni nazarda tutadi.

Bizningcha, bugungi axborotning salbiy psixologik ta’siri va gibrid urush shakllari kuchayib borayotgan bir sharoitda harbiy tizimda quyidagi vazifalarni amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

Birinchidan, harbiy tizimdagi Oliy harbiy ta’lim muassasalari o‘quv dasturlariga kompleks tarzda “Axborot xavfsizligi psixologiyasi” o‘quv kursini joriy etish;

Ikkinchidan, harbiy jurnalistika sohasini rivojlantirish. Buning uchun shu soha fuqorolik Oliy ta’lim muassasalari bilan qo‘shma fakultetlar ochish va ularda harbiy jurnalist kadrlarni tayyorlash;

Uchinchidan, harbiy kadrlar tayyorlash tizimi uchun “Harbiy jurnalistika va axborot xavfsizligi” ixtisosligini joriy etish hamda yaqin istiqbolda mazkur ixtisoslik bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlarini yo‘lga qo‘yish;

To‘rtinchidan, harbiy soha (keng xalq ommasi bilishi mumkin bo‘lgan ma’lumotlar)ni yoritish uchun blogerlik faoliyatiga imkon berish;

Beshinchidan, gibrid va axborot urushlarining katta ehtimolini hisobga olgan holda harbiy tizimda axborot-psixologik operatsiyalar bo‘yicha mutaxassislar hamda kiber armiya bo‘linmalarini shakllantirish;

Oltinchidan, axborot-psixologik operatsiyalar bo‘yicha mutaxassislar hamda kiber armiya bo‘linmalari uchun alohida jismoniy va professional me’yorlar ishlab chiqish. Masalan, jismoniy jihatdan nogironligi bo‘lsada, lekin professional jihatdan soha uchun zarur malakaga ega bo‘lgan shaxslarni harbiy xizmatga olish.

So‘ngi so‘z o‘rnida shuni aytish mumkinki, bundan buyon har bir davlatning harbiy tizimida albatta ikki turdagi bo‘linmalarni tarkib topishi muqarrar. Ularning birinchisi, albatta uzoq yillik rivojlanish tarixiga ega bo‘lgan klassik shakldagi harbiy arsenal bo‘linmalari bo‘lsa, ikkinchisi zamon talablari asosida shakllantiriladigan gibrid va axborot urushlariga qarshi turuvchi axborot-psixologik operatsiyalar bo‘yicha mutaxassislar hamda kiber armiya bo‘linmalari hisoblanadi.

Yuqorida ta’kidlanganidek, harbiy tizimda “Axborot xavfsizligi psixologiyasi” o‘quv kursini kompleks tarzda o‘qitish, harbiy jurnalistika va blogerlik faoliyatini yo‘lga qo‘yish, “Harbiy jurnalistika va axborot xavfsizligi” ixtisosligi bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish hamda eng asosiysi axborot-psixologik operatsiyalar bo‘yicha mutaxassislar hamda kiber armiya bo‘linmalarini shakllantirish harbiy tizimni yanada zamonaviylashuvi hamda mudofa sohasini yanada mustahkam bo‘lishini ta’minlab beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbarning kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – Toshkent: O‘zbekiston 2017.

2. Пахрутдинов Ш.И. Тараққиётга таҳдид: назария ва амалиёт. - Т.: Академия, 2006.

3. Самаров Р.С. Ҳарбий атамаларнинг янги изоҳли луғати. Тошкент.: “Инновация-Зиё”, 2020.384-б.

4. Adelstein A.S. Total Propaganda Horn Mass Culture to Popular Culture. – Mahway, N.J. – London, 2021.

5. Семирухин Л.В. Нанотехнологии и сознание // Философские науки. - 2022. - №2.

6. Маматкулов Д.М. Мафкуравий жараёнлар трансформацияси // Монография – Тошкент: «Lesson press» нашриёти, 2023 – 224 б.

INKLYUZIVGA YO‘NALTIRILGAN O‘QUVCHINI TENGDOSHLARI BILAN TA’LIM OLISHIDA O‘QUVCHI BILAN KORREKSIYALASH ISHLARIDA IJTIMOIY MUHIT AHAMIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Abdug‘aniyev Abdurauf Abdumannonovich
Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi Inklyuziv ta’lim va mehrli maktab faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘limi yetakchi mutaxassisi

“ Inson tanasi, miyasi, sezgi organlari tug‘ilishdan mavjud, lekin aqliy bilimi, ma’naviyligi ruhi va ahloqiy xislatlari boshqa insonlar bilan muloqotda vujudga keladi. Inson o‘z faoliyati yordamida ularni egallaydi, erishadi”.

Abu Nasr Farobiy

Oila-jamiyatning ajralmas bo‘lagi hisoblanadi. Farzand oilaning quvonchi baxti va avlodining davomchisi hisoblanadi. Shunday ekan qandaydir bir sabablarga ko‘ra ayrim oilalarda kamchilikli va nuqsonli bolalar tug‘ilishi sir emas. Nogironligi bo‘lgan farzandlarini kamchilik va nuqsonlarini ayrim ota-onalarimiz sir saqlashga va tengdoshlariorasida kamsitilishiga olib kelishi bo‘yicha aziyat chekib aytmaslikga harakat qiladilar. Go‘yoki ular qarindosh urug‘lardan atrofdagilardan, qo‘ni-qo‘shnilardan sir tutish aniq mutaxassisga olib bormaslik muammoni hal qilish sababi deb noto‘g‘ri o‘ylaydilar. Bunday xollarda imkoniyati cheklangan alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan bolalar bilan ishlash, avvalom bor, ularni ota-onalarini qo‘llab-quvvatlash, rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar bilan o‘zaro munosabatlarni yaxshilash.bu usullarni tug‘ri anglash va boshqa bir qator masalalarni hal etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Oilalarda nogironligi bo‘lgan o‘quvchilarni erta aniqlash har tomonlama ularni qo‘llab-quvvatlash, insonparvarlik, mehr-muhabbat va fidoiylik ruhida tarbiyalash, o‘qitish kasb-hunurga yo‘naltirish sog‘lomlashtirish hayotga tayyorlash va ijtimoiy jamiyatga moslashtiish ham amaldagi muhim vazifalardan biridir. Natijada bolalarda ikkilamchi qo‘shimcha kasalliklarni ham kelib chiqishiga sabab bo‘ladi. Ayniqsa

murakkab(ikki va undan ortiq nuqsonlarning birlashib kelishi) bolalarni yurish turishida, qo‘llarini harakatlanishida qiynaladilar. Bunga markaziy asab tizimini og‘ir buzilishlari va shu asosda artikulyatsion apparatning(nutq hosil qiluvchi a’zolari)ning buzilishlari ham ta’sir ko‘rsatib, nutqning talaffuzi gramatik tuzilishi va ba’zan duduqlanishida o‘z ifodasini topadi. Murakab nuqsondagi bolalar nutqini hamma ham tushinib bilmaydi. Bu o‘rinda buyuk mutafakkirimiz tib qonunining sultoni Abu Ali IbnSino bemorlarda kasalliklarni kuzatish jarayonida ularning kelib chiqish sabablari, patalogiyasi, oldini olish va davolash yo‘llarini tadqiq qilar ekan,u albatta rivojlanishida biron jismoniy yoki ruhiy kamchiligi bor shaxslarni diqqat e’tibordan chetda qoldirmagan. Ibn Sinoning bosh miya va asablar, ko‘z, quloq, burun og‘iz bo‘shlig‘i anatomiyasi va fiziologiyasi zamonaviy me’yorlarga deyarli mos kelishi va olimning mazkur organlar tuzilishi va kasallanishi, tug‘ma yoki orttirilgan nuqsonlar,ularni davolash yo‘llari haqidagi muhim ilmiy ma’lumotlarni va qarashlari hozirgi kunda ham tibbiyotda va amaliyotda qo‘llanib kelinmoqda. Shu bois bunday bolalarni tarbiyalashda, yuqorida qayd qilingan kamchiliklarni oldini olishga, tuzatishga qaratilgan ta’limiy va davolovchi ishlarni kompleks ravishda amalga oshirishimiz zarurdir. Nogiron farzandi bor oilalarda bola bilan ota-ona munosabati o‘ta muhim va murakkab muammoni kasb etadi. Imkoniyati cheklangan bolalarning ijtimoiy moslashuvi ko‘proq ota-onaning tarbiyasiga bog‘liqdir. Shu tarzda ota-ona o‘rtasida ham turli xil to‘siqlar vjudga kelishi mumkin.

Mashhur psixolog L.S.Vagotskiy “Bola tug‘ilgan kunidan boshlaboq ijtimoiy vujuddir” deb tasdiqlagan edi. Darhaqiqat imkoniyati cheklangan bola o‘z hayotida zarur bo‘lgan bilim va tajribalarni o‘z ota-onalaridan o‘rganib boradi. Chunonchi har bir ota-ona farzandiga nuqson va kamchilik sezdimi, ularni yoshiga va nogironlik toifasini etiborga olgan holda kiyintirish, ularni ruhlantirib hayotga bo‘lgan qiziqishlarini orttirib borish va qiyinchilikliklarni yengib o‘tishi va sog‘liqlari uchun mutaxassislarga murojaat etib, ularni maslahati va hamkorligida korreksion tarbiyaviy ishlarni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish psixologik-pedagogik tibbiy reabilitatsiya ishlarini muntazam ravishda amalga oshirib yurmog‘i lozimdir. Buyuk davlat arbobi Amir Temur qaysi bir mamlakatni o‘z davlatiga qo‘shib olsa, xalqqa

nisbatan adolat bilan” Adlu ehson bilan jahon gulshani obod bo‘ladi” deb vasiyat qilgan ekanlar. Bu degani-nochor kishilarga gamho‘rlik qilishning umuminsoniylik namunasidir. ”Millatning dardiga darmon bo‘lmoq vazifangizdir. Zaiflarni ko‘ring, yo‘qsullarni boylar zulmiga tashlamang. Adolat va ozodlik dasturingiz, rahbaringiz bo‘lsin”deya bejizga ta’kidlamaganlar. Shunday ekan ushbu qadimdan kelayotgan odatlarimiz nogironlarga e’tibor berish mehr-muruvvat, sahovat ishlarini ko‘paytirish, nochorlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash ularga yordam berishga qaratilgan dasturi amal tizimlarini to‘g‘ri joriy etib borishimiz darkordir. Mamlakatimizda alohida ehtiyoji bo‘lgan bolalar bilan ishlash ular bilan yakka individual ishlar olib borish, inklyuziv-korreksion ta’lim-tarbiyani rivojlantirish, ta’lim muassasalarida inklyuziv sinflar tashkil qilish va bunday o‘quvchilardan jamiyatga ijtimoiy moslashuvini shakllantirishda muhim ahamiyatli ishlarni amalga oshirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Aynan hozirgi kunda ko‘pgina nogironligi bo‘lgan bolalar bir necha sabablarga ko‘ra uyda yakka tartibda yoki umuman ta’limdan chetda qolib ketmoqdalar. Alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan bolalar sog‘lom muhitda, sog‘lom bolalar qatorida teng ta’lim olishlari uchun barcha zaruriy shart-sharoitlarni yaratish bizning har kungi **“Harakat mezonimiz**” bo‘lib xizmat qilishi kerak. Inklyuziv ta’lim 1996- yildan buyon O‘zbekiston Respublikasida ham davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Natijada ko‘plab nazariy va amaliy ishlar amalga oshirildi.

2024-yil 16-mart kuni Oliy majlis Qonunchilik palatasining Demokratik nodavlat tashkilotlar va fuqarolarni o‘zini-o‘zi boshqarish organlari qo‘mitasining kengaytirilgan yig‘ilishida Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Sog‘liqni saqlash vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi ijtimoiy himoya agentligi, O‘zbekiston nogironlar jamiyati, Bola huquqlari bo‘yicha Ombudsman tegishli vazirlik idoralar va OAB vakillari ishtirok etgan kengaytirilgan yig‘ilishda, keying yillarda mamlakatimizda nogironligi bo‘lgan shaxslarni har tomonlama qo‘llab quvvatlash ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish, barcha darajada sifatli ta’lim olish uchun teng imkoniyatlar yaratilmoqda. Ushbu toifada shaxslarni jamiyatdagi mavjud imkoniyatlaridan foydalanish, bilim olish, mehnat qilish,

malakali tibbiy xizmatdan foydalanish uchun zarur sharoit yaratishga qaratilgan bir qator qonunlar hamda meyoriy huquqiy hujjatlar qabul qilib, mustahkam qonuniy baza yaratilganligi ta’kidlandi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 50-moddasida “Ta’lim tashkilotlarida alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun inklyuziv ta’lim va tarbiya ta’minlandi”degan normaning kiritilishi inklyuziv ta'limga konstitutsion darajada ahamiyat qaratilishini yana bir bor ko‘rsatdi. Inklyuziv ta’lim tushunchasini ko‘pchilik nogironligi bor bolani sog‘lom bolalar bilan bir qatorda, bir maktabda, bir sinfda o‘qitishni va bir partada o‘tirishi deb tushunadi xolos. Inklyuziv ta’lim hamma bolalarni bir xil maktab va bir xil sinfxonalarda bir xil sharoitda ta’lim olishni anglatadi. Shunday ekan bunday bolalarni bir xil sharoitda tengdoshlari qatorida ta’lim olishida qanday to‘siqlar mavjud va bu to‘siqsiz muhit yaratish uchun qanday shart-sharoit va imkoniyatlarni yaratishimiz darkor. Barcha inklyuziv sinflar tashkil qilingan umumta’lim maktablarida barcha sharoitlarini to‘g‘ri tanlay bilish, zarur adabiyotlar va metodik qo‘llanmalar bilan ta’minlash, shuningdek, turli kasblarni o‘qitish uchun mo‘ljallangan uskunalar bilan to‘liq ta’minlanishi shart. Avvalam bor har bir ta’lim muassasasi rahbari va pedagog hodimlari alohida ta’limga ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni bilim olish huquqi inklyuziv ta’lim tizimini mazmun mohiyati haqida o‘zlari to‘liq bilimga ega bo‘lishi va bu haqda butun keng jamoatchilik o‘rtasida tushuntirish targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishi lozim. Biz inklyuziv ta’limni maktablarda to‘g‘ri va tizimli tashkil qilar ekanmiz biz albatta eng muhimi ota-onalar va ularning farzandi bo‘yicha hatti-harakatlari, oiladagi psixologik muhit, maktabdagi jamoaning inklyuzivga tayyorligi va maxsus ko‘rsatma va o‘quv dasturlari bilan qurollanib olishimiz zarur.

Nogironligi bo‘lgan o‘quvchilar ular kimlar va ular bilan qanday ishlar amalga oshirish kerakligi ustida ishlar ekanmiz biz oldin “**Inklyuziv”** tushunchasi va farzandning turli nuqsonlari va anashu nuqsonlar ustida ishlash tizimi haqidagi ma’lumotlar bilan tanishib, ish ko‘rmoq muhim ahamiyat kasb etadi. Jamiyatni ma’naviy-ahloqiy va madaniy rivojlanishi, ma’naviy qadriyat, milliy g‘oya, madaniy me’ros, o‘zbek xalq va davlatchilik tarixini hamda ta’limning uzviyligi va

uzluksizligini, barkamol avlod tarbiyasida tadqiq etishda nogiron bolalarni tarbiyalash oila, bog‘cha, maktab va mahalla hamkorligini ta’minlash juda muhimdir.

Har bir inklyuzivga yo‘naltirilgan o‘quvchilar bilan ishlashda avvalambor ular tarbiyasidagi muammolar bilan tanishib yaqindan o‘rganib, bunda qaysi taraf muammolari ustunlik qilish darajasini hisobga olish lozim, ya’ni ta’lim-tarbiyani bola shaxsida qanday yaxlit ketma-ketlikda olib borish jarayoniga bog‘liq.

Inklyuzivga yo‘naltirilgan o‘quvchini tengdoshlari bilan ta’**lim olishida o‘quvchi bilan korreksiyalash ishlarida ijtimoiy muhit ahamiyati**

Aynan bunday vaqtda o‘z tengdoshlari bilan birga teng ta’lim olar ekan har bir bolaga ijtimoiy muhitdan kelib chiqib yondashish va eng asosiysi uning ijtimoiy moslashuvini yaxlit tizimda shakllantirishdan iborat.

Xo‘sh, ta’limolib kelayotgan o‘quvchi bilan mutaxasislar qanday tizimli ishlarni amalga oshirishi kerak deb o‘ylaymiz?

1. Avvalambor sinfda maqbul psixologik mikro iqlim yaratilishiga yo‘naltirilganligi.
2. O‘zaro kundalik jarayonlarini sodda kayfiyat ko‘taruvchin rolli o‘yinlar bilan boshlash.
3. Har bir topshiriqni muvaffaqiyatli o‘zlashtirishiga ishonch hosil qilish va shunga ishontirish amaliyotini hammaga bir xil tempda tutib turish.
4. Undagi hulq-atvoridagi o‘zgarishlar va rivojlanishida orqada qolishlar va kamchiliklarni bartaraf etishda barcha atrof muhit va jamoaning shakllanish tartibi.

Alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan o‘quvchini inklyuzif sinfda ta’lim olishi uchun u, har qanday kasallik turi bilan qabul qilinganligi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin(aqli zaif, zaif ko‘ruvchi, zaif eshituvchi, autistic spektri, tayanch harakatida) nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilar bo‘lishi mumkin. Biz bunday o‘quvchilar bilan, ularning adaptatsiyasi bilan qanday ishlaymiz va qaysi tamoyillar asosida samarali ishlarni amalga oshirishimiz.


Har bir o`quvchi uchun tanlangan tadqiqot rejimi
Unga qulay bo`lgan shart-sharoitlar ninlashga qaratilgan odikalar bilan ishlash
Ta`lim-tarbiya obyekti: o`quvchi
Nogiron bolalarni tarbiyasi va ijtimoiy moslashuvini shakllantirish
Oila a`zolari bilan hamkorlikda mustahkamlash
Ularga maxsus ta`lim-tarbiya berishda bola adptatsiyasini o`rganish
Ota-onalar barcha jamoani hatti harakatalrini shunga nisbatan izchil takomillashtirib borish
Kompleks yondashuvda barcha muammolarni qiyosiy tahlil qilish amaliyoti shakllanadi
Natija
Barcha yaxlit tizimli ishlar samaradorligiom adi va inklyuziyaga to`sqinlarsiz

Biroq har xil toifadagi nogironligi bo‘lgan o‘quvchilar bular aqlan va ruhan sog‘lom va tayanch harakatida nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarni tashkil qilsa ko‘pchiligini nutqida nuqsoni bor bo‘lgan bolalarni tashkil qiladi. Bu kasallik bolalarda turli hastalik sabablaridan kelib chiqadi. Nutqida yetishmovchiligi bo‘lgan ayniqsa Dizortriya nutqiy yetishmovchiliklar ko‘p uchraydi. Bunday kasallikka ega bo‘lgan bolada talaffuz qilishi buzilishi ko‘p bo‘ladi; bunda bolaning nutqi tushunarsiz bo‘ladi. Dizartriya keltirib chiqargan ko‘proq hollarda serebral falajlikning asorati sifati yuzaga keladi. Bunday o‘quvchilar bilan ishlashda ko‘proq vaqtni o‘z ichiga oladi. Ya’ni ba’zida yillab davom etishi mumkin. Bunda inklyuziv o‘quvchi va unga ta’lim berib kelayotgan maxsus o‘qituvchi, ya’ni logopeddan balki, ota-onadan ham ko‘proq o‘quv va tajriba talab qilinadi. Maktabda nutqiy buzilishdagi o‘quvchilar bilan ishlashda har ikki tomon olib borilishi va hamkor bo‘lishi kerak deb o‘ylayman. Buni faqat maxsus pedagog amalga oshirishi bilan birga ota-onalar ham faol jarayonlarni olib borishi maqbuldir. Chunki, nutq kamchiligini bartaraf etishda bolani tarbiyalayotgan ota-ona ko‘proq masuliyat sezishi kerak. Bunday o‘quvchilarning nutqining to‘g‘ri korreksion-logopedik ishlar ota-onalar jalb qilinishi va ular bu hamkorlikda maxsus pedagog sifatida amaliy yordam berishimiz kerak. Ayniqsa hozirda inklyuziv ta’limga jalb qilinib kelayotgan bolalarni ko‘pchiligini serebral falaji bolada harakatlari qo‘pol va qovushmagan holatlarda kuzatishimiz mumkin. Bunday vaqtlarda ularga ko‘proq harakatlarda o‘z o‘rnida bajarish uchun, imkon darajasida o‘z-o‘ziga xizmat qilishi uchun sabr-toqat va asta-sekinlik bilan harakatlanishga o‘rgatish lozimdir. Bolaning qo‘l harakatlarini uy sharoitida ham rivojlantirish zarur. Buning uchun bolani qo‘l kaftlari ochib-yumish unga ruchka yoki qalam berilishi yozuvlar yozdirish orqali birgalikda nutqini ham rivojlantirishga erishamiz. Masalan: 1 raqami bolaga ko‘rsatiladi va qo‘l kaftlari barmoqlari bukilib 1(bir) deb sanaladi va ham harakat, ham nutq ishga tushadi. Natijada ikki tomon ishga tushishi bilan jarayonlar amalga oshiriladi. Bolaning qo‘liga ko‘pincha qalamdan ko‘ra flomaster berib qo‘yish, bola uchun uning kafti va barmoqlari uchun qulay sharoit bo‘ladi. Shuningdek katta haflar bilan yozilgan bo‘g‘in lug‘atli kitoblardan foydalanish ham ijobiy samara ko‘rsatadi.

Umuman olganda inklyuziv ta’limni qaysi toifaga mansubligi jihatidan oladigan bo‘lsak masalan: koxleor implantatsiyali bolalarning nutqi va eshitishida ham ota-onalarga bola bilan olib boriladigan surdopedagog mashg‘ulotlari va o‘zlarining mashg‘ulotlari ham koxleor implantatsiyasidan foydalanish darrov natijasini ko‘rolmaydi, ular ham sabr bilan harakat qilib kuzatuvda davom etishlari mumkin. Ko‘proq bunday hollarda barcha toifadagi kasalliklarga mansub inklyuziv ta’lim olayotgan o‘quvchilar uchun ko‘rgazmalilikka rioya qilish juda muhim, zero bu har bir jarayonni samarali tashkil etilishini ta’minlaydi. Ularda ko‘pincha dastlabki boshlang‘ich ko‘nikmalar tovushlarni talaffuz qilish, eng oddiy matematik tasavvurlarni, atrof olam, o‘ng,chap,baland,past kabi maxsus korreksion mashg‘ulotlar bolaga yaxshi yordam beradi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Koroleva I.V «Kolernaya implantatsiya gluxix detey i vzrosl ых» (elektrodnoe protezirovanie sluxa) - SPB: KARO 2009

2. Mo‘minova L. “Oilada nogiron va yordamga muhtoj bolalar haqida” Toshkent 1999 y

3. Abu Ali Ibn Sinoning “Anomal bolalar nutqiy buzilishlarini o‘rganishdagi roli rivojlanishi orqada qolgan bolalarni o‘qitish va tarbiyalash”Ilmiy to‘plam” Toshkent 1994 y 24-28 betlar

АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ ПО РЕАЛИЗАЦИИ КОНЦЕПЦИИ «БЕЗОПАСНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ» В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ, СУЩЕСТВУЮЩИЕ ПРОБЛЕМЫ И РИСКИ НА ФОНЕ СОВРЕМЕННЫХ ВЫЗОВОВ И УГРОЗ

Тен Виктор Робертович
Сотрудник аппарата Совета Безопасности при Президенте Республики Узбекистан

Аннотация. В статье рассмотрены актуальные вопросы обеспечения общественной безопасности обучающихся в ходе их пребывания в образовательных учреждениях от угроз криминального и террористического характера, присутствующие проблемы в системе обеспечения безопасности данных объектов.

Ключевые слова: обеспечение общественной безопасности, проводимые реформы, законодательные акты, формы и способы решения характерных проблем, апробирование и внедрение современных технологий и подходов к обеспечению безопасности объектов сферы образования.

В современном мире в эпоху цифровой глобализации нельзя с точностью сказать, что мир и в частности изменения в окружающем нас обществе будет меняться исключительно в положительную сторону.

Говоря об активном развитии эпохи искусственного интеллекта, мы забываем или не уделяем должного внимания вопросам безопасности, которые являются чрезвычайно актуальными.

Мы знаем, что развитие любой сферы деятельности порождает активизацию внимания и параллельное развитие негативных факторов, влияющих на вопросы обеспечения общественной безопасности.

Известно, что современные государства развиваются в период большого размаха новых вызовов и угроз национальной безопасности. С одной стороны угрозы международного терроризма, наркобизнеса, транснациональной организованной преступности и кибератак, с другой финансовыми кризисами, межконфессиональными конфликтами и пандемией, которые в том числе

негативно влияют на стабильное развитие и совершенствование системы национального образования в современных государствах.

Необходимо отметить, что получение качественного образования – это трудоемкий и сложный процесс, требующей усидчивости и который сопряжен с современным бизнесом, то есть прохождением частного коммерческого обучения.

В данном контексте в быстрой «погоне» за предпринимательским первенством, прибылью и конкуренцией некоторые директора, начальники, а также им подобные руководители различных частных обучающих учреждений, центров и организаций недостаточно уделяют внимание вопросам безопасности, а в некоторых случаях стараются просто экономить на ней или ссылаться на «некое» отсутствие террористической угрозы.

В настоящее время ни один объект государственного образовательного учреждения или частного предпринимательства, так называемые учебные центры несмотря на целый комплекс принимаемых мер не могут гарантировать абсолютную безопасность самих объектов и тем более пребываемых в них обучающей и обучаемой категории граждан.

Анализ проведенного исследования показал, что современные угрозы и вызовы, а также проблемы учебно-образовательной сферы напрямую зависят от их всестороннего развития и постоянного обновления, в том числе в архитектурно-техническом отношении и поэтому объекты данного типа всегда будут привлекать особое внимание со стороны деструктивных сил и других элементов преступного мира [1].

С учетом массового пребывания граждан на территории образовательных учреждений постоянно существуют характерные угрозы безопасности, в частности их можно разделить на:

1. Криминальные опасности: похищение людей, распространение и употребление наркотиков, кражи, мошенничество и хулиганство.

2. Информационные опасности: использование телефонных разговоров, личных переписок и фотографий, съем информации их компьютерных баз

данных образовательного учреждения, уничтожение служебной информации, воздействие на психику несовершеннолетних посредством запрещенных и распространенных в социальных сетях игр «Синий кит» и другие.

3. Чрезвычайные ситуации: стихийные бедствия, аварии, катастрофы, пожары, массовые заболевания, искусственно созданные провокации и террористические атаки [2].

Все вышеперечисленные угрозы безопасности в современном обществе остаются в зоне повышенного внимания и как правило совершение каждого из них может привести к резонансным случаям и как следствие напрямую будут влиять на общественную безопасность в регионе.

И поэтому нельзя отметить, что какое-то из них наименее слабое по вопросу воздействия на общество. При этом, происходящие за последние пять лет чрезвычайные ситуации в образовательных учреждениях, в том числе передовых зарубежных странах и государствах ближнего зарубежья, связанные с похищением людей, распространением и употреблением наркотиков, а также организацией террористических атак можно отнести к наиболее опасным [3].

Именно террористические угрозы продолжают оставаться чрезвычайно опасными. Трудность в противодействии, которым заключается в первую очередь в их непредсказуемости и сложности. Как показывает практика они совершаются на территории образовательного учреждения с ведением целенаправленной или беспорядочной стрельбы в отношении администрации, персонала сотрудников охраны, а также обучающихся в одном учреждении сверстников.

В данном контексте учитывая негативные последствия происходящих чрезвычайных ситуаций можно отметить, что в 2023 году США вновь столкнулись с тревожной тенденцией увеличения числа инцидентов с применением огнестрельного оружия на территории образовательных учреждений. По данным на 6 сентября 2023 года, в стране произошло не менее

46 расстрелов в учебных заведениях, из которых 13 произошли в колледжах, а 33 – в школах K-12 (*детские сады и школы для учеников от 1 до 12 класса*).

В результате этих инцидентов погибли 24 человека, и не менее 62 получили ранения, согласно сведениям, опубликованным CNN на основе анализа данным архива насилия с применением оружия и организации «Everytown for Gun Safety».

Наблюдения показывают, что стрельба в школах США охватывает широкую территорию, включая здания, школьные дворы, парковки, стадионы и даже автобусы. Важно отметить, что в статистику входят любые случаи, когда хотя бы один человек был ранен, не считая стрелка. Если огонь открывают сотрудники правоохранительных органов или охраны школы, такие инциденты не учитываются.

Несмотря на то, что пандемия COVID-19 временно снизила число расстрелов в школах, последующие годы показали резкий рост инцидентов с огнестрельным оружием. В 2021, 2022 и 2023 годах были установлены антирекорды по числу таких инцидентов. В 2022 году случилось одно из самых трагичных событий за всю историю США – расстрел в «Robb Elementary School Uvalde», штат Техас, где погибли 19 учеников и двое педагогов, а десятки получили ранения.

Анализ проводимого исследования также показал, что южные штаты США испытывают более высокий уровень школьных расстрелов по отношению к численности населения. В Вашингтоне, округ Колумбия, было зафиксировано шесть случаев стрельбы в школах, что составляет почти один инцидент на 100 000 человек – самый высокий показатель в стране.

В Техасе зафиксировано наибольшее количество случаев стрельбы в школах – 61 инцидент с 2008 года. К примеру, в тоже время, в пяти штатах – Монтане, Вайоминге, Нью-Гемпшире, Вермонте и Род-Айленде – не было зарегистрировано ни одного случая стрельбы в школах за тот же период.

Многочисленные инциденты со стрельбой на территории учебных заведений вызвали резонанс среди студентов и педагогов, что привело к

активной общественной кампании против насилия с применением огнестрельного оружия. Некоторые учителя, сталкиваясь с постоянным риском на рабочем месте, предпочитают уходить из профессии.

Борьба за усиление контроля над оборотом оружия в школах остается важной темой общественных обсуждений, однако кардинальных решений на национальном уровне до сих пор не принято [4].

К следующему немаловажному элементу системы безопасности образовательного учреждения относятся объекты защиты, которые целесообразно разделить по категории охраны – на учащихся, преподавателей и администрацию, по хранению – на личное имущество, материальные, интеллектуальные и духовные ценности, а также по защите служебной информации – об объекте, персонала и учащихся с их непосредственными адресами проживания.

Отмечается, что в настоящее время продолжают существовать негативные факты относительно утечки информации о конкретном человеке в пользу криминального синдиката, который в том числе специализируется на похищении людей вблизи образовательных учреждений ввиду их слабой защищенности и уязвимости.

При этом похищения несовершеннолетних это одна из форм пропажи детей в мире, в данном случае криминальный синдикат владея складывающейся обстановкой, а также положением дел в образовательных учреждениях и в будущем будет вести наблюдение за объектом, использовать прилегающую территорию в особенности местные закрытые улицы и плохо просматриваемые переулки, прилегающие к образовательному учреждению.

Обращаясь к официальной статистике, пропавших детей в современном мире миллионы, и с каждым годом их становится больше.

По данным международных правозащитных организаций, в среднем в Европе ежегодно исчезает более 70 тысяч несовершеннолетних, в России – примерно 20 тысяч, в США – около 100 тысяч. Причем, данные цифры – это официальные данные, неофициальные гораздо выше.

Дата ведет свою историю из США, а символом Дня пропавших детей является изображение синей незабудки. В этот день в 1979 году по дороге домой пропал американский шестилетний школьник Эвиан Пейтс, его искали всем миром, дело получило широкий резонанс, но поиски не увенчались успехом.

В 2010 году по инициативе Международного центра поиска пропавших и эксплуатируемых детей, созданного в 1997 году, был учрежден Международный День пропавших детей.

Как показывает практика, многие из пропавших детей сами убегают от родителей или из детдома. Причины тому разные – ссоры со старшими, непонимание или агрессия в семье, желание «посмотреть мир»…

Но нередки и случаи похищения детей с целью их продажи или сексуальной эксплуатации, и статистика таких похищений, с каждым годом увеличивается. Причем часто пропажа «случается» из-за невнимательности и халатности родителей, которые оставляют своих чад без присмотра или не объясняют им правила общения с незнакомыми людьми. В итоге ребенок становится легкой добычей преступника.

Также совместное расследование британского издания «The Guardian» и международного журналистского коллектива «Lost in Europe» показало, что в период с января 2018 года по декабрь 2020 года в Европе пропали без вести 18 292 ребенка-мигранта, что эквивалентно почти 17 детям в день.

Большинство детей, пропавших без вести за последние три года, приехали в Европу из Марокко, Алжира и Афганистана. По имеющимся данным, 90 % составляли мальчики, и примерно каждый шестой младше 15 лет. Только в 2020 году пропало 5 768 детей в 13 странах Европы [5].

В России существует Указ «О национальной стратегии действий в интересах детей на 2012-2017 гг.». При его реализации был создан Национальный центр помощи пропавшим и пострадавшим детям.

Основными задачами данного Центра являются создание и отладка системы помощи детям, координация действий общественных организаций и волонтеров, силовиков, медицинских учреждений и органов опеки [6].

Международная школа безопасности «Стоп, угроза» проанализировала не только количество пропавших. Эксперты школы опросили множество детей и делают выводы о явно недостаточной степени информированности детей о безопасном поведении. «Стоп, угроза» приводит следующую статистику:

50 детей пропадает ежедневно, из них пятерых найти не удается; 2. 90% детей помогут постороннему найти котенка; 3. 45% преступлений против детей совершают женщины; 4. 80% детей представляют преступника как мужчину в чёрной маске с пистолетом; 5. 70% детей считают подъезд и лес безопасным местом; 6. 75% называют человека знакомым, если видят его второй раз [7].

Очередной угрозой для обучающихся является распространение и употребление наркотиков. Обращая внимание на статистику наркомании в странах СНГ за период с 2021 по 2022 годы можно сделать выводы, что из-за пандемии пострадали все сферы экономики, однако наркоторговцам эта ситуация позволила в разы увеличить объемы реализуемых наркотических средств.

Новое тысячелетие ознаменовалось все более стремительным развитием синтетических психоактивных препаратов, количество и глобальное распространение которых растет с каждым днем.

Они характеризуются более агрессивным воздействием на организм и стремительным формированием зависимости. Большинство из них ведут к непоправимым нарушениям в работе головного мозга и привыканию уже после первого употребления. Смертность в результате употребления синтетических препаратов возникает чаще всего в результате истощения и некроза внутренних органов, например, сердца.

Кроме того, общая нервозность, неорганизованность подростков и молодежи из-за дистанционного обучения, сокращение рабочих мест и попытки получения доходов путем создания и распространения наркотических веществ – все эти факторы привели к резкому увеличению оборота наркотиков во всем мире.

Если сравнивать с 2012 годом, то за 12 лет объем изъятых из оборота наркотиков в России вырос более чем на 3 тонны. В 2020 году он составил 35 600 кг. Для сравнения, это составляет примерно 20 % от общемировых данных по изъятию психоактивных веществ.

Средний возраст наркозависимых находится в диапазоне 15 – 19 лет. Среди них: 20% – это школьники от 9 до 14 лет. Среди них все чаще появляются и дети более раннего возраста, 60% молодежи от 16 до 24 лет.

Анализ результатов должен быть непосредственно связан с поставленными в программе целями и задачами обучения. Наиболее типичной ошибкой является то, что при привлечении к участию в программе профилактики злоупотребления наркотиками молодых людей и оценка уровня потребления наркотиков только этими людьми.

Формы противодействия употреблению наркотиков и проводимой профилактики для молодых людей должны носить системный характер и включать: 1. Благоприятную школьную среду; 2. Результаты употребления психотропных веществ; 3. Привлечение родителей к работе по профилактике 4. Воздействие школы [8].

В целях предотвращения влияния на обучающихся в современных образовательных учреждениях обращается внимание на элементы системы безопасности, которые подразделяются на: 1. Службу охраны 2. Технические средства охраны и пожаротушения 3. Специальную охрану.

К службе охраны можно отнести: пропускной режим, посты охраны, дежурный персонал. К техническим средствам охраны и пожаротушения: средства освещения, радио и телефонная связь, охранная и пожарная сигнализации, камеры видеонаблюдения. К специальным средствам относятся

защита специальных средств связи и компьютерных информационных данных.

Проводимые исследования показали, что в независимости на каком уровне, сопряженности и согласованности будут работать данные элементы системы безопасности образовательного учреждения, они постоянно будут требовать совершенствования и на их работоспособность, будут влиять негативные стороны, исходящие от человеческого фактора [9].

Учитывая изложенное, а также актуальность рассматриваемой темы и проведенные выводы, разработаны соответствующие предложения по повышению бдительности в образовательных учреждениях Узбекистана и усилению практических работ инспекторами-психологами в данном направлении:

1. Инспектору-психологу совместно с преподавателями допризывной подготовки юношей и физической подготовки среди учащихся средних школ на еженедельной основе, в том числе организовывать информирование о важности поддержания бдительности учащимися вне школьной среды при встрече с «посторонними», изучать психику обучающихся (*в т.ч. доведение информации посредством демонстрации видеороликов, учебно-методических фильмов*).

2. Внедрить механизм обязательного информирования администрации школы, преподавательского состава и охранного персонала о любых возможных подозрительных проявлениях и ситуациях, могущих возникнуть непосредственно вблизи прилегающей или удаленной к учебному заведению территории с обязательным фиксированием подобных случаев в специальных журналах учета.

3. Активизировать ведение специальных журналов контроля на школьных пропускных пунктах по фиксированию «подозрительных» или потенциально опасных лиц, на системной основе осуществлять проверку работоспособности камер видеонаблюдения и «тревожной» кнопки экстренного вызова.

4. Разработать специальный годовой план по организации плановой проверки бдительности учащихся школ в дневное время и несения ночного дежурства охранным персоналом школы, в т.ч. оставлением подозрительных мелких и крупногабаритных предметов на территории или вблизи учебного заведения, проводить критические разборы и анализ случившегося, вести соответствующие отчеты в данном направлении.

5. На ежемесячной основе подготавливать ежемесячный отчет о выполненных практических мероприятиях по обеспечению безопасности в рамках возложенных обязанностей и анализом произведенных записей системы видеонаблюдения [10].

В данном контексте в целях недопущения чрезвычайных ситуаций, связанных с противоправными действиями в образовательных учреждениях в Узбекистане на постоянной основе принимаются соответствующие меры по повышению эффективности национальной нормативно-правовой базы.

Так, 5 февраля 2024 года издано Постановление Президента Республики Узбекистан ПП-55 «О дополнительных мерах по совершенствованию системы профилактики правонарушений среди несовершеннолетних», данным нормативным документов деятельность персонала школьной охраны, несущих службу во всех общеобразовательных школах республики, взята под контроль территориальных управлений охраны Национальной гвардии.

В соответствии с данным документом, в целях установления порядка входа и выхода из школ для деятельности персонала охраны, несущих службу в школах, издана «Временная инструкция командующего Национальной гвардией Республики Узбекистан» и утверждено «Положение об организации караульной службы в государственных общеобразовательных учреждениях».

Практическая эффективность данного документа заключается в конкретном определении комплексных задач по обеспечению образовательных учреждений, возлагаемых на подразделения Главного управления охраны Национальной гвардии Республики Узбекистан.

В рамках исполнения данных задач в составе Главного управления охраны Национальной гвардии создано отделение по мониторингу охраны образовательных учреждений и созданием в регионах подразделений по непосредственной организации охраны образовательных учреждений [11].

Кроме того,

– из 33 241 персонала школьной охраны, работающий в школах, 1 224 охранника в возрасте 70-85 лет, находящихся на пенсии по старости, были поэтапно заменены молодыми охранниками. Проведена работа по комплектованию 108 вакантных должностей в школах;

– информация об персонале школьной охраны, несущей службу в 10 134 школах республики (*фото, удостоверение личности, рост, вес, военная служба*) размещена в мониторинговом центре Главного управления охраны и сформирована база данных в региональных управлениях охраны Национальной гвардии;

– в 10 134 школах, расположенных на территории Республики, закреплен один школьный охранник для несения службы в дневное время, 2 867 школ обеспечены с металлодетекторами, 4 158 школ обеспечены палками резиновыми (ПР-73), а также выделено 4 432 радиостанции;

– в целях повышения профессиональных знаний и навыков работников, проходящих службу охраны в общеобразовательных школах, согласно приказу начальника Главного управления охраны от 2 августа 2024 года № 206 и от 2 октября 2024 года № 264 на базе учебного центра Национальной гвардии с персоналом школьной охраны проведены тренинги по обучению и повышению квалификации;

– 4 – 6 ноября 2024 года на базе региональных управлений охраны Национальной гвардии проведены учебные занятия для рабочего персонала и охраны, посвященные разработанному совместному решению Национальной гвардии и Министерства дошкольного и школьного образования Республики Узбекистан по безопасности № 29/37 от 31.10.2024 года.

Кроме того, в рамках плана оснащения Главным управлением охраны Национальной гвардии, проведена работа по материально-техническому оснащению персонала школьной охраны на 2023-2024 года, в частности:

– из 34 241 охранников, проходящих службу в школах, летней формой были обеспечены 15 796, осенней – 12 457, зимней – 10 158;

– по периметру 10 134 школ установлены 77 615 камер видеонаблюдения.

Из них 15 776 камер видеонаблюдения в 1 723 школах интегрированы в Главное управление охраны Национальной гвардии, завершена практическая работа по установке во всех школах специальной «тревожной» кнопки.

Для организации мероприятий по мониторингу складывающейся обстановки в образовательных учреждениях на базе Главного управления охраны создан Центр мониторинга, который способствует оперативному реагированию и поддержанию координации действий сотрудников охраны Национальной гвардии и персонала школьной охраны по всей республике [12].

Наряду с этим, в **соответствии с поручением Секретаря Совета безопасности при Президенте Республики Узбекистан *(№ 11-РА 2/1-3891 от 19.12.2022 г.*) Главным управлением охраны Национальной гвардии разработан проект постановления Президента Республики Узбекистан «О мерах по дальнейшему совершенствованию системы обеспечения охраны и безопасности государственных и негосударственных образовательных учреждений».**

Данный проект документа также будет предусматривать поэтапное внедрение новой конфепции в систему безопасности образовательных учреждений современных информационно-коммуникационных технологий.

Необходимость разработки и принятия проекта постановления обосновывается следующим:

– ведомственные системы охраны образовательных учреждений не отвечают современным требованиям, основная задача действующей системы

направлена на охрану имущества, при этом не учитываются обеспечение безопасности обучающихся и воспитанников, а также организация эффективного контрольно-пропускного режима;

– возникающие в настоящее время чрезвычайные ситуации в образовательных учреждениях зарубежных стран и инциденты, а также инциденты связанные с нарушением общественного порядка в образовательных учреждениях страны, требуют кардинального пересмотра системы поддержания общественного порядка в образовательных учреждениях и обеспечения безопасности образовательного процесса.

Принимая во внимание зарубежный опыт существует необходимость в разработке новых процедур по обеспечению безопасности детей во время их пребывания в образовательных учреждениях, а также в ходе их прибытия и убытия.

Принятие и внедрение данной концепции позволит совершенствовать системы безопасности образовательных учреждений посредством:

– внедрения в их деятельность современных информационно-коммуникационных технологий и организацией централизованного управления;

– акивизации сотрудничества в обеспечении безопасности образовательных учреждений;

– совершенствование порядка проведения проверок образовательных организаций и внутреннего режима учреждения;

– интеграции «Безопасного образования» в платформы единой информационной системы;

– совершенствования системы обеспечения безопасности участников образовательного процесса;

– обеспечения пожарной безопасности образовательных учреждений;

– обеспечения работников персонала охраны единой униформой;

– доустановке и обслуживанию «тревожных» кнопок в образовательных учреждениях;

– обеспечения школьных инспекторов-психологов специальными сервисными планшетами;

– создание дополнительных постов охраны в образовательных учреждениях [13].

В настоящее время 18 410 или 84% всех государственных образовательных учреждений Республики охраняются подразделениями охраны, имеющими «тревожные» кнопки.

В частности, 99,9% образовательных учреждений городских и районных центров (*7988 из 7999*) находятся под охраной.

Исходя из выводов и проведенного анализа в заключительной части, целесообразно отметить, что проводимые реформы в сфере обеспечения общественной безопасности должны постоянно совершенствоваться и быть направлены на поддержание мира и стабильности в стране, а также служить сохранности жизни и здоровья граждан Узбекистана.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. rrpredaggogy.ru/jornal/article/822/ «Угрозы безопасности на учащихся и методы противодействия им в образовательной организации».

2. ntagil. org/ bezopas/ profilaktika- pravonarusheniy/ antiterror/ metodika «Основные виды угроз», «Порядок действий при угрозе террористического акта работников объектов (территорий) к антитеррористической защищенности»

3. electronic-sirens.com/ru/ «Чрезвычайные ситуации в школах».

4. https://chikago24online.com/news/rasstrely-v-shkolah-ssha-trevozhnaya-statistika-2023-goda//.

5. https://gazetaingush.ru/obshchestvo/ezhegodnaya- statistika- po-propazham-detey-v-mire-sostavlyaet-neskolko-desyatkov-i-sotni «Жертвы не войны».

6. Указ Президента Российской Федерации от 1 июня 2012 года № 761 «О национальной стратегии действий в интересах детей на 2012-2017 гг.». https://base.garant.ru/70183566/.

7. https://elkanko.ru/projects/skola-bezopasnosti-stop-ugroza Международная школа безопасности Стоп-угроза.

8. https://www.gazeta.uz/ ru/2024/10/07/ changes/, https://center-zdorovie.ru/ rasprostranenie-upotrebleniya-narkotikov-i-narkozavisimosti-odna-iz-samyh-sereznyh-problem-sovremennogo-obshchestva.

9. https://videoglaz.ru/blog/mery-bezopasnosti-v-shkole?srsltid=AfmBOorQM jbcgwCemFr7hMGO9PHfCPbC_SB51PoCXwXG94uDowoF6Py8 «Элементы системы безопасности в образовательном учреждении».

10. Доклад Заместителя командующего – начальника Главного управления охраны Национальной гвардией полковника М.Ганиева в ходе подведения итогов работы Республиканской межведомственной рабочей группы по проверке особоважных и категорированных объектов, Книга «Я вижу, о чем вы думаете», как агенты ФБР читают людей, автор книги Джо Наварро.

11. Постановление Президента Республики Узбекистан от 5 февраля 2024 года ПП-55 «О дополнительных мерах по совершенствованию системы профилактики правонарушений среди несовершеннолетних».

12. Отчетно-информационная справка Главного управления охраны Национальной гвардии о выполненных практических мероприятиях по комплектованию материально-техническим имуществом и специальными средствами образовательные учреждения республики.

13. Поручение Секретаря Совета безопасности при Президенте Республики Узбекистан (*№ 11-РА 2/1-3891 от 19 декабря 2022 года*), прорабатываемый Главным управлением охраны Национальной гвардии проект постановления Президента Республики Узбекистан «О мерах по дальнейшему совершенствованию системы обеспечения охраны и безопасности государстве нных и негосударственных образовательных учреждений».

“XAVFSIZ TA’LIMNI TASHKIL ETISHDA” MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI SOHASIDAGI ISLOHOTLAR

Kamolov Jamoliddin Sayfitdinovich
Toshkent shahar Maktabgacha va maktab ta’lim boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari, t.f.b.f.d. (PhD), Turon fanlari akademiyasi akademigi

Bugungi kunda Toshkent shahar Maktabgacha va maktab ta’lim boshqarmasi tasarrufidagi jami **325** ta umumiy o‘rta ta’lim maktablari, **12** ta“Barkamol avlod” bolalar maktabi, **499** ta maktabgacha ta’lim tashkiloti faoliyat olib boradi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida jami **494 208** nafar **(shundan 258 377 nafar o‘g‘il bola 235 831 nafar qiz bola)** o‘quvchilar ta’lim-tarbiya jarayoniga qamrab olingan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-fevralda o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida o‘quvchilarni ta’limga jalb etish, ularni vatanparvarlik ruxida tarbiyalash, konunbuzarliklarning oldini olish, psixologik ko‘llab-kuvvatlash, bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazish, xavfsizlikni ta’minlash, **“Xavfsiz maktab”** konsepsiyasini keng joriy etish hamda “Voyaga yetmaganlar o‘rtasida qonunbuzarliklar profilaktikasi tizimini takomillashtirish buyicha qo‘shimcha chora-tadbirlar tug‘risida”gi **PQ-55 xdfu- sonli** qarori qabul qilindi.

Ushbu qaror ijrosini ta’minlash maksadida O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi xamda O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi qo‘mondonligi tomonidan umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘quvchilarni ta’limga jalb etish, ularni vatanparvarlik ruxida tarbiyalash, konunbuzarliklarning oldini olish, psixologik ko‘llab-kuvvatlash xamda xavfsizlikni ta’minlash yuzasidan xamkorlik konsepsiyasi ishlab chiqildi.

Bunda.

Maktablarda **“Xavfsiz maktab”** konsepsiyasini keng joriy etish jarayonini zamonaviy axlokiy-psixologik metodikalar, vatanparvarlik tarbiya sohasining ilg‘or yutuqlari va axborot texnologiyalari asosida tashkil qilish, **“Oila-mahalla-maktab”** uzviy tizimi asosida voyaga yetmaganlar bilan manzilli ishlashni yulga qo‘yish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi

xamda O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi bilan Respublika mikyosida umumiy urta ta’lim muassasalarida o‘quvchilarni ta’limga jalb etish, ularni vatanparvarlik ruxida tarbiyalash, konunbuzarliklarning oldini olish, psixologik kullab- kuvvatlash xamda xavfsizlikni ta’minlash borasida xamkorlik ishlari amalga oshirilmoqda. Jumladan:

Hamkorlik kilish tizimi **“Maktab-tuman (shaxar)-viloyat- Respublika”** darajasida o‘rnatilib, davomat va boshka xisobot shakllari buyicha axborot almashinuvi yulga kuyiladi.

Umumuiy o‘rta ta’lim maktablariga biriktirilgan Milliy gvardiya inspektor-psixologlarining bevosita xizmat joyi maktablar etib belgilanadi xamda ular maktab ma’muriyati va psixologlari bilan birgalikdagi kundalik faoliyatini tashkil etib bormoqda.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida **“Xavfsiz maktab”** konsepsiyasi asosida ishlash tizimini joriy etildi.

Bunda.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarini qo‘riqlanishi Milliy gvardiya Qo‘riklash bosh boshkarmasining xududiy bulinmalari tomonidan shartnoma asosida qo‘riqlash “**Postlar va tashvish”** tugmalari orkali amalga oshirilmoqda.

Qo‘riqlash bo‘linmalarining maktablarni qo‘riqlashga jalb etilgan ishchi va xizmatchilari (keyingi o‘rinlarda qorovul) qorovullik bo‘linmalari uchun belgilangan farqlovchi belgilari mavjud bo‘lgan maxsus formali kiyim-bosh bilan ta’minlanib va xizmat o‘tash vaqtida ushbu formada olib borilmoqda.

Qorovullarni tayyorlash, kayta tayyorlash va malakasini oshirish O‘zbekistan Respublikasi Milliy gvardiyasining mintakaviy o‘quv markazlarida amalga oshirilmoqda.

Bundan tashqari umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘quvchilar xavfsizligini ta’minlash, ular o‘rtasida jinoyatchilik va huquqbuzarliklarni oldini olish va boshqa noxush xolatlarni bartaraf etish maqsadida maktablarning kirish qismiga **1 202** ta, koridorlarga **4 364** ta, sinf xonalariga **11 643** ta, sport maydonchalariga **240** ta jami

17 449 ta videokuzatuv kameralari o‘rnatilgan. Ushbu joylarni to‘liq kamera bilan ta’minlash uchun **5540** ta kameraga extiyoj mavjud.

Maktablarni qo‘riqlovini tashkil etishda maktab ma’muriyati quyidagilarni amalga oshiradi:

maktablarda qo‘riqlovni amalga oshirish uchun shart-sharoitlarni yaratadi;

qo‘riqlash bo‘linmalari tomonidan kiritilgan takdimnomalarga asosan maktabni texnik mustaukamligida aniklagan kamchiliklarni bartaraf etadi;

maktabda nazorat-o‘tkazish tartibini belgilaydi va qo‘riqlash bo‘linmasi bilan kelishadi.

Maktablarning qo‘riqlovini amalga oshirishda qo‘riqlash bulinmalari kuyidagilarni amalga oshiradi:

maktabda qo‘riqlash postlarini tashkil etadi va qorovullar xizmatini o‘rnatilgan tartibda yo‘lga qo‘yadi;

maktabda tasdiklangan yo‘riqnomaga asosan nazorat-o‘tkazish rejimini ta’minlaydi;

komissiya tarkibida ular olti oyda bir marta maktabning texnik mustaukamlik holatini urganadi, aniklangan kamchiliklani bartaraf etish buyicha maktab ma’muriyatiga takdimnomalar kiritadi.

Maktab qorovuli maktab xududiga transport vositalarini kirishi (chikishi), mol-mulkni olib kirish va olib chikishni, shuningdek, maktabda belgilangan yongin xavfsizligi va ichki tartib qoidalariga rioya etilishini nazorat qiladi.

Har bir maktabda ichki tartib yo‘riqnomasi alohida tarzda, maktabning joylashuvi, uziga xosliklaridan kelib chiqqan holda ishlab chikilib, qo‘riklash bo‘limi boshlig‘i bilan kelishiladi va maktab raxbariyati tomonidan tasdiklanadi.

Maktab xududiga olib kirilishi va xududidan olib chiqib ketilishi taqiqlangan vositalar (ashyo-buyumlar) ruyxati maktab ma’muriyati tomonidan tasdiklanadi.

Maktabni asosiy (ikkilamchi) binolarini qo‘riqlash-yongindan ogoxlantiruvchi signalizatsiyasi, perimetr, maydonlar, bino yulaklaridagi videokuzatuv vositalari qo‘riqlash postidagi **kichik sigimdagi** videomonitorga ulangan.

O‘quvchilarning ota-onalari (ularning urnini bosuvchi shaxslar), yaqinlari yoki begona shaxslar tomonidan maktablardagi pedagogik faoliyatga kasddan aralashish yoki o‘qituvchi va o‘quvchiga nisbatan tajovuzkorlik xolatlarining oldini olish maqsadida o‘z vaktida **tashvish tugmasini bosish** orkali tuman shahar qo‘riklash bo‘limi tezkor harakatlanuvchi otryadlari yetib kelishini ta’minlaydi.

HARBIY QONUNCHILIKNI TIZIMLASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI, TASNIFI VA O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Maxsadov Maxsatullo Ismatovich
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Maxsus huquqiy fanlar va harbiy diplomatiya kafedrasi professori, yuridik fanlar doktori (DSc), dotsent

Har bir mamlakatda mudofaa va xavfsizlik sohasini, Qurolli Kuchlar faoliyatini huquqiy tartibga solish, ichki va tashqi xavfsizlikni ta’minlash jarayonida yuzaga keluvchi murakkab harbiy munosabatlarni tartibga solishda qonun hujjatlarining o‘rni va ahamiyati katta. Ushbu sohada qonunchilik hujjatlarining holati va mukammalligi davlatning harbiy-siyosiy faoliyatini samarali bo‘lishiga bevosita ta’sir etadi. Davlatning harbiy-siyosiy faoliyatining muvaffaqiyatli olib borilishi qonun hujjatlari holati va takomillashtirilishiga bevosita bog‘liq.

Shunday ekan, harbiy sohadagi qonunchilik hujjatlarini bosqichma-bosqich va tizimli takomillashtirib borish davlatning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Zero, “qonun – zamonaviy jamiyat huquqiy hayotining asosiy fenomeni va o‘zak yuridik tushunchasidir. O‘zida tizimlashgan ijtimoi manfaatlarni ifodalagani holda qonun ijtimoiy munosabatlarning bosh tartibga soluvchisi, shaxs huquq va erkinliklarining kafili sifatida namoyon bo‘ladi. Qonun mazmunida va uni hayotga tatbiq etishda huquqiy mafkura namoyon bo‘ladi hamda huquqiy siyosat amalga oshiriladi”[1]. Mustaqillik sharoitida, ya’ni ijtimoiy hayotning barcha sohalarida islohotlarni amalga oshirish uchun samarali huquqiy mexanizmlarni yaratishga, yangi ijtimoiy munosabatlarning huquqiy negizlarini ishlab chiqishga asosiy e’tibor qaratildi[2], xususan harbiy sohada ham.

Qonunchilik va normativ-huquqiy bazadagi kamchilik va nuqsonlarga imkon qadar tezroq barham berish, huquqni qo‘llash amaliyotida g‘oyat jiddiy o‘zgarishlarni joriy etish, huquqni muhofaza qilish va sud organlarining faoliyatida faqat va faqat qonunga rioya etlishini ta’minlash bilan bog‘liq ishlarni takomillashtirish darkor[3].

---

[1] Имамов А.Э. Механизм реализации закона в Республике Узбекистан: вопросы теории и практики: Автореф. дисс. ... канд. юрид. наук. – Ташкент: Академия МВД, 2004. – С.9.

[2] Нажимов М.К. Глобализация жараёнлари ва давлатнинг экологик функцияси // Давлат қурилиши ва бошқарувининг долзарб муаммолари: илмий мақолалар тўплами / Масъул муҳаррир: проф. Ҳ.Т.Одилқориев. – 2015. – №1. – Тошкент: ТДЮУ, Ҳуқуқий тадқиқотлар маркази, 2015. – Б.145.

[3] Каримов И.А. Мамлакатимизни модернизация қилиш ва кучли фуқаролик жамияти барпо этиш – устувор мақсадимиз (Ўзбекистон Республикаси Қонунчилик палатаси ва Сенатнинг қўшма мажлисидаги маъруза) \\ Асосий мақсадимиз – ватанимиз тараққиёти ва ҳалқимиз фаравонлигини янада юксалтириш. –Т., 2010., 21 б.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning 2018 yil 8 avgustdagi PF-5505-son farmonida “Idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni imkon qadar qisqartirish, umumiy tusdagi, harakatsiz va huquqni qo‘llashga ta’sir etmaydigan qonun hujjatlarini qayta ko‘rib chiqish hamda asossiz cheklovlar, ortiqcha ma’muriy tartib-taomillar va tartibga solishning eskirgan mexanizmlarini bartaraf etish hisobiga aniq sohalardagi munosabatlarni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tizimlashtirish va kodifikatsiyalash”[1] degan ustuvor vazifa belgilangan.

Darhaqiqat, ijtimoiy hayotning boshqa sohalari kabi harbiy xizmatni o‘tash jarayonida vujudga keluvchi munosabatlar ham harbiy qonun hujjatlari tizimi bilan tartibga solinadi.

Harbiy qonun hujjatlari tizimi tushunchasiga to‘xtalib o‘tishdan oldin, “tizim” va “qonun hujjatlari tizimi” tushunchalariga aniqlik kiritib o‘tish maqsadga muvofiq. O‘zbek tilining izohli lug‘atida tizim “o‘zaro bog‘liq va uzviy tartibda bo‘lgan narsa, hodisalar birligi, majmui; biror-ish faoliyatni tashkil etish, amalga oshirishning shakl va tartib-qoidalari majmui”[2] sifatida, boshqa manbalarda esa, “bir qator o‘zaro bog‘liq yoki mustaqil bo‘lsada, bir-biriga ta’sir ko‘rsatuvchi qismlarning birgalikdagi bir butun murakkab yaxlit holatga kelishi”[3], deb ta’rif berilgan.

Huquq tizimi – huquqning ichki tuzilishi, ichki qurilishi (tarkibi) bo‘lib, u huquqning qanday qismlardan iborat ekanligini hamda qismlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabat va nisbatni ko‘rsatadi[4]. A.X.Saidov, U.Tadjixanov va X.Odilqoriyevlarning fikricha, “Huquq tizimi turli-tuman, lekin o‘zaro mustahkam aloqa bo‘lgan yuridik normalar yig‘indisidir[5]. Ushbu fikr huquq tizimining murakkab va integratsiyalashgan tuzilishini ta’kidlaydi. Bu turli-tumanlik va mustahkam aloqadorlik huquq tizimini kuchli qiladi, lekin uni samarali

[1] Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Норма ижодкорлиги фаолиятини такомиллаштириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида” 2018 йил 8 августдаги ПФ-5505-сон фармони // Lex.uz.

[2] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 4–жилд. / А.Мадвалиев таҳрири остида. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2008. – Б. 85.

[3] Alexander Backlund (2000). The definition of system. In: Kybernetes Vol. 29 nr. 4, pp. 444-451.

[4] Конституциявий ҳуқуқ. Энциклопедик луғат. Масъул муҳаррир ва муаллифлар жамоасининг раҳбари Б.Мустафоев. – Тошкент: Ўзбекистон, 2006. – 584 б.

[5] Саидов А.Х., Таджиханов У., Одилқориев Х. Давлат ва ҳуқуқ асослари: Дарслик. – Т.: 2002. – Б.36.

ishlashi uchun doimiy ravishda nazorat va isloh qilish talab etiladi. Qonun hujjatlari tizimi deganda, huquqiy normalar ifodalanish shakli tizimi (ularning manbalari) tushuniladi”[1].

Huquq tizimi huquqning mazmuni va mohiyatini ifodalasa, qonun hujjatlari tizimi huquqning ifodalanish shaklini aks ettiradi. F.Riyanovning ta’kidlashicha, “Qonun hujjatlari tizimi deganda, huquqning ichki tuzilmasi va mazmunini rasmiylashtiruvchi, moddiylashtiruvchi, mustahkamlovchi normativ-huquqiy hujjatlar majmui tushuniladi. Ayni damda uning gorizontal (huquq sohalari bo‘yicha), vertikal (yuridik kuchi, ierarxiyasi bo‘yicha) va kompleks (huquqiy tartibga solish obyekti va davlat boshqaruvi mazmuni bo‘yicha) tizimi farqlanadi”[2].

F. Riyanovning fikricha, qonun hujjatlari tizimi huquqning ichki tuzilmasi va mazmunini rasmiylashtiruvchi, moddiylashtiruvchi va mustahkamlovchi normativ-huquqiy hujjatlar majmuini ifodalaydi. Ushbu tushuncha huquq tizimining murakkab tuzilishini ko‘rsatib beradi va huquqiy tartibga solishning ko‘p qirraliligini yoritadi.

Gorizontal tizim, huquq sohalari bo‘yicha huquqiy normalarning aloqadorligini bildiradi. Bu yondashuvda, masalan, fuqarolik huquqi, jinoyat huquqi va mehnat huquqi kabi turli sohalar bir-biriga bog‘liq holda ishlaydi. Bu aloqadorlik qonun hujjatlarining izchilligini ta’minlashda muhimdir.

Vertikal tizim huquq normalarining yuridik kuchi va ierarxiyasini ifodalaydi. Bu, masalan, konstitutsiyaviy normalar, qonunlar va me’yoriy hujjatlar o‘rtasidagi ierarxik tuzilishni anglatadi. Vertikal tizim huquqiy tizimda yuqori darajadagi me’yorlarning ustunligini ta’minlaydi.

Kompleks tizim huquqiy tartibga solish obyekti va davlat boshqaruvi mazmuni bo‘yicha tuzilgan. Bu yondashuvda turli huquqiy sohalar ma’lum bir masala yoki muammoni kompleks tartibga solish maqsadida birlashtiriladi. Misol uchun, ekologik xavfsizlik yoki iqtisodiy rivojlanish bo‘yicha kompleks huquqiy normalar mavjud bo‘lishi mumkin.

---

[1] Раянов Ф.М. Проблемы теории государства и права: Учебный курс. – М., 2003. – С. 282 - 283.; Никишин В.В. Экологического законодательства субъектов Российской Федерации // Журнал российского права. – 2004. – №10.

[2] Теория государства и права. Учебник. Коллектив авторов: Х.Т.Адилкариев, И.Т.Тультеев, Н.П.Азизов и др. / Под общ. ред. Х.Т.Адилкариева. – Ташкент: Академия МВД РУз, 2014. – С.330-331. (522 с.)

Bu tizimning gorizontal, vertikal va kompleks shakllari huquqiy tartibga solishning samaradorligini ta’minlaydi. Biroq, amaliyotda ushbu turli tizimlar o‘rtasidagi muvofiqlik va izchillikni saqlash doimiy e’tiborni talab etadi.

O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi Qonunining 3-moddasiga ko‘ra, normativ-huquqiy hujjat qonunga muvofiq qabul qilingan, umum majburiy davlat ko‘rsatmalari sifatida huquqiy normalarni belgilashga, o‘zgartirishga yoki bekor qilishga qaratilgan rasmiy hujjatdir[1], Qonunning 6-moddasiga ko‘ra, normativ-huquqiy hujjatlar qonun hujjatlaridir va ular O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari majmuini tashkil qiladi[2].

“Harbiy” tushunchasi mamlakat mudofaa va xavfsizlik (Qurolli Kuchlar faoliyati bilan bog‘liq) munosabatlari sohasida yuzaga kelgan ijtimoiy munosabatlarni qamrab oladi hamda uning mazmunida yetakchi o‘rinni davlat suverenitetini va hududiy yaxlitligini, aholining tinch hayoti va xavfsizligini himoya qilish egallaydi.

Harbiy qonun hujjatlari tizimi qonun hujjatlari tarmoqlaridan biri sifatida uning mustaqilligi va o‘ziga xosligini tavsiflovchi barcha belgilarga ega.

Qonunchilik mustaqil tarmog‘ining farqlanuvchi belgilari – avvalambor, uning ierarxik tuzilishi, bir-biriga bo‘ysunuvi hamda uni tashkil etuvchi hujjatlarning o‘zaro bir-biriga mosligi, yuridik jihatdan ustun turuvchi hujjat qoidalarining uning tarkibidagi hujjatlarda yanada aniqlashtirilishi, to‘ldirilishi kabilardir. Qonunchilik tarmog‘ining majburiy belgisi bu tarmoqning boshqa hujjatlari mazmuni va shaklini belgilab beruvchi asosiy, o‘zak hujjatning (bir necha hujjatlar) mavjudligi, ularning o‘zaro chambarchas bog‘liqligidadir[3].

Harbiy qonun hujjatlari qonunchilik tarmog‘i uchun xos bo‘lgan barcha umumiy belgilarga ega bo‘lgani holda, qator o‘ziga xos xususiyatlari bilan ham tavsiflanadi. Binobarin, harbiy huquq ham avvalambor, huquq tarmog‘i sifatida harbiy ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi o‘ziga xos huquqiy normalar tizimini ifodalaydi. Harbiy

[1] Ўзбекистон Республикасининг “Норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар тўғрисида”ги Қонуни (Янги таҳрири) 3-модда. //Lex.uz.

[2] Ўша манба, 6-модда.

[3] Сафаров Дж.И. Экология соҳасида қонун ҳужжатлари тизими ва уларни кодификациялаш. Юрид.фан.док. Диссер., - Т., ТДЮУ. – 2017 й. – Б. 27.

qonun hujjatlari, harbiy huquqning manbai bo‘lib, o‘zida harbiy-huquqiy normalarini mujassam etgan normativ-huquqiy hujjatlarni ifodalaydi.

Harbiy qonun hujjatlari tizimi komplekslиligi bilan tavsiflanadi, ya’ni ushbu huquq tarmog‘i huquqiy tartibga solishning yagona usuli va mexanizmi bilan o‘zaro bog‘lanmagani holda muayyan davrda vujudga kelgan va huquqiy tizimga ajralib chiqqan huquq normalari majmuini birlashtiradi hamda harbiy huquq normalari harbiy huquq oldida turgan vazifalarni hal qilish uchun boshqa huquq tarmoqlari normalari bilan ham bog‘lanadi.

Mamlakatimizda huquqshunos olimlar tomonidan harbiy qonun hujjatlarining yuzaga kelishi va rivojlanishining turli jihatlari fundamental tadqiq etilmagan bo‘lsada, biroq fan nuqtai nazaridan o‘rganilgan.

Normativ-huquqiy hujjatlarni hisobga olishning davlat siyosati darajasidagi eng yirik va zamonaviy ko‘rinishi bo‘lgan – O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi tarmoqlarining umumhuquqiy klassifikatorini jamiyatni yangilash, mamlakatni modernizatsiya etishning huquqiy bazasini takomillashtirish jarayoni bilan uyg‘unlashtirish asosida doimiy yangilab borish muntazam yo‘lga qo‘yilishi lozim.

Qonunchilikni tizimlashtirishda Umumhuquqiy klassifikatorning ahamiyati va zarurligi quyidagilarda ifodalanadi:

– ushbu hujjat qonunchilikni tizimlashtirish va kodekslashtirishning asosini tashkil etadi;

– u huquq normalari va normativ hujjatlarni izlab topishning amaliy vositasidir;

– qonunchilikning tizimi va tarkibi haqida foydalanuvchilarga axborot beradi;

– foydalanuvchilar manfaatidan kelib chiqqan holda me’yoriy materialni tasniflash va boshqacha xususiy turkumlashning o‘ziga xos mezoni (standarti) dir;

– amaldagi qonunchilikni tahlil qilishga ko‘maklashadigan vositadir;

– huquqiy ta’limni tashkil etishning muhim omilidir;

– qonunchilikni takomillashtirish bo‘yicha yo‘nalish va bazadir[1].

Harbiy sohadagi qonun hujjatlari harbiy huquqning asosiy manbai hisoblanib, yuridik adabiyotlarda “harbiy qonunchilik konunchilikning kompleks tarmog‘i sifatida

[1] Қаранг: Теория государства и права / Под.ред.проф. В.К.Бабаева. – М., 2006, с.390.

davlat, ma’muriy, moliyaviy, yer, jinoyat va boshqa huquqning sohalarini, davlatning harbiy soxasidagi faoliyatini, shu jumladan, harbiy tashkilotning o‘ziga xos hayotiy faoliyatini tartibga soluvchi normalarini o‘z ichiga oladi”[1] sifatida ta’riflangan.

Harbiy qonunchilik yoki harbiy huquq – qurolli kuchlarning tamoyillarini va tuzilish shakllarini mustahkamlovchi, ularning qurilishi, kundalik hayoti va faoliyati sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi, harbiy qurilish sohasida harbiy xizmatchilarning va boshqa ijtimoiy munosabatlar ishtirokchilarining majburiyatlarini, huquqlarini va javobgarligini belgilaydigan davlat huquqiy normalarning o‘rnatilgan tizimi hisoblanadi. Urush vaqtida va urush holati e’lon qilingan hududlarda harbiy qonunchilikning amal qilish sohasi odatda kengayadi, bunda uning talablari harbiy nuqtai nazardan qishloq xo‘jaligi va transportning eng muhim tarmoqlariga, jamoat va davlat xavfsizligini saqlash sohalariga tadbiq etiladi.

Ushbu tahlillardan kelib chiqib, “harbiy qonunchilikni tizimlashtirish” tushunchasiga quyidagicha ta’rif berishimiz mumkin, *“harbiy qonunchilikni tizimlashtirish* – bu mudofaa va xavfsizlik sohasidagi harbiy qonunchilik hujjatlarini unifikatsiyalash, konsolidatsiyalash yoki kodekslashtirish asosida belgilangan tizimga keltirish, ularni tegishli bir xil huquqiy kuchga ega bo‘lgan qonunchilik hujjatlariga (kodeks, qonun, nizom) birlashtirish jarayonidir”[2].

Tizimlashtirishning asosiy maqsadlari bizningcha quyidagilardan iborat:

birinchidan, qonunchilikni soddalashtirish va tartibga solish, ya’ni, mavjud qonunlarning to‘liq va aniq bo‘lishini ta’minlash;

ikkinchidan, huquqiy aniqlik, ya’ni, harbiy qonunchilikni to‘g‘ri va aniq tushunishni ta’minlash.

uchinchidan, huquqiy mustahkamlik, ya’ni, harbiy sohadagi qonun hujjatlarining barqarorligini ta’minlash.

Harbiy qonunchilikni tizimlashtirish quyidagilar asosida amalga oshirilishi mumkin:

[1] Военное право: Учебник. – М.: «За права военнослужащих», 2004. – Вып. 45. — 28 с. ISBN 5-93297-046-4.

[2] Ushbu ta’rif muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Inkorporatsiya – mavjud qonunlarni biriktirib chiqish, ularni mazmunan o‘zgartirmay, bir yig‘ma hujjat shaklida berish.

“Harbiy qonunchilikni inkorporatsiya qilish” deganda mudofaa va xavfsizlik sohasidagi turli huquqiy hujjatlarni bir tizimga birlashtirish orqali ma'lum bir sohadagi qonunchilikni muayyan tartibda joylashtirish jarayoni tushuniladi. Bu jarayon huquqiy hujjatlarning izchilligini ta'minlash va ulardan foydalanishni osonlashtirish maqsadida amalga oshiriladi. Inkorporatsiya qilish jarayoni, odatda, harbiy sohadagi mavjud huquqiy hujjatlarni, masalan, farmonlar, qarorlar, va qonunlarni bir to‘plamda to‘plash orqali amalga oshiriladi. Bu to‘plamlar huquqiy hujjatlarni mavzulariga yoki qo‘llanilish sohalariga qarab tizimlashtirishni o‘z ichiga oladi.

Inkorporatsiya natijasida harbiy qonunchilikda tartib, izchillik va qulaylik yaratiladi, bu esa huquqni qo‘llash jarayonini yengillashtiradi va harbiy xizmatchilar uchun huquqiy manbalardan foydalanishni osonlashtiradi. Bu jarayon shuningdek, normativ hujjatlarning dolzarbligini va ular o‘rtasidagi muvofiqlikni ta’minlashga yordam beradi.

Konsolidatsiya – bir sohadagi qonunlarni yagona hujjatga birlashtirish, ularni jamoa shaklida chiqarish.

“Harbiy qonunchilikni konsolidatsiya qilish” deganda mudofaa va xavfsizlik sohasidagi turli huquqiy normalar va hujjatlarni yagona tizimga birlashtirish jarayoni tushuniladi. Bu jarayon turli xil huquqiy hujjatlarni tartibga solish va ularni yagona huquqiy aktlarga jamlash orqali huquqiy tizimni soddalashtirishga va izchillikni ta'minlashga qaratilgan. Konsolidatsiya orqali mavjud bo‘lgan harbiy qonunchilikda mavjud bo‘lishi mumkin bo‘lgan ziddiyatlar va takrorlanishlar bartaraf etiladi, natijada huquqiy normalarning aniq va tushunarli bo‘lishi ta’minlanadi. Bu, ayniqsa, harbiy sohaga oid qonunchilikni to‘g‘ri qo‘llash va harbiy xizmatchilarning huquqiy ongini oshirish uchun muhim ahamiyatga ega.

Kodifikatsiya – huquqiy normalarni birlashtirish va yangi qonun hujjatlarini qabul qilish yo‘li bilan mavjud qonunlarni yangilash va takomillashtirish.

“Harbiy qonunchilikni kodifikatsiya qilish” deganda mudofaa va xavfsizlik sohasidagi mavjud huquqiy normalarni tizimlashtirib, ularni yagona huquqiy hujjat – kodeks shaklida birlashtirish jarayoni tushuniladi. Bu jarayon huquqiy normalarni tartibga

solish, ularni izchil va bir butun shaklda jamlash orqali huquqiy tizimni yanada soddalashtirish va samarali qilishga qaratilgan.

Kodifikatsiya natijasida harbiy sohadagi barcha huquqiy normalar bir kodeksda to‘planadi, bu esa turli huquqiy hujjatlar o‘rtasidagi ziddiyatlarni bartaraf etishga va takrorlanishlarni yo‘qotishga yordam beradi. Kodeks shaklidagi hujjatlar huquqni qo‘llash amaliyotida qulaylik yaratadi va harbiy xizmatchilar uchun huquqiy normalarni tushunishni osonlashtiradi.

Harbiy qonunchilikni kodifikatsiya qilish, shuningdek, huquqiy tizimda aniqlik va izchillikni ta’minlaydi, normativ hujjatlarning aniq va tushunarli bo‘lishiga yordam beradi. Bu jarayon huquqiy normalarning samaradorligini oshirish va ularni zamonaviy talablar va ehtiyojlarga moslashtirish imkonini beradi.

Harbiy qonunchilikni tizimlashtirish huquqiy sohada muhim ahamiyatga ega, chunki bu sohadagi qonunlarning yaxlit va uyg‘un bo‘lishini ta’minlaydi, harbiy xizmatchilarning huquq va majburiyatlarini aniq belgilab beradi.

Harbiy qonunchilik armiyaning xususiyatlarini qurolli kurash uchun mo‘ljallangan va bu asnoda qat’iy harbiy intizomga, to‘liq yakkaboshchilikka, so‘zsiz bo‘ysunuvga, qo‘shinlarni boshqarishda ketma-ket markazlashtirishga asoslanadigan tashkilot sifatida hisobga olinadi.

Umumhuquqiy fanlar kabi “Harbiy huquq” tushunchasini ham uchta jihatda ko‘rib chiqish mumkin:

1) ijtimoiy munosabatlarning belgilangan guruhini tartibga soluvchi huquqning tarmog‘i sifatida;

2) fan (huquqshunoslik doirasi) sifatida;

3) harbiy huquqni o‘qitish bilan bog‘liq o‘quv fani sifatida.

“Harbiy huquq” tushunchasining sanab o‘tilgan turlari bir-biriga o‘zaro bog‘liq, ammo ularning har biri o‘zining mazmuniga ega.

Huquqning tarmog‘i sifatidagi harbiy huquq tarmoqli yuridik fan va o‘quv fani uchun dastlabki tushuncha bo‘lib xizmat qiladi.

Huquq tarmoqlari, eng avvalo, bir-biridan tartibga solishning predmeti, ya’ni mazkur huquq tarmog‘ining normalari yo‘naltirilgan ijtimoiy munosabatlarning aniq bir turi bilan farqlanadi.

Davlatning harbiy faoliyati sohasida yuzaga kelayotgan ijtimoiy munosabatlar harbiy huquqning umumiy predmeti hisoblanadi. Ushbu predmetning ichida davlat harbiy faoliyatining turli sohalarida yuzaga kelayotgan ijtimoiy munosabatlar bir nechta guruhlarga bo‘linadi.

Birinchi guruhga harbiy metodlar bilan davlatning mudofaasini va xavfsizligini ta’minlash hamda ushbu maqsadlarda davlat harbiy tashkilotining barcha elementlarini tayyorlash va qo‘llashni, davlatning harbiy tashkilotini boshqarish va uni har tomonlama ta’minlash sohasida yuzaga kelayotgan ijtimoiy munosabatlarni kiritishimiz mumkin.

Ikkinchi guruhga harbiy majburiyatni bajarish, kontrakt bo‘yicha harbiy xizmatga kirish, harbiy xizmatni o‘tash hamda harbiy xizmatchilarning maqomi bilan bog‘liq munosabatlarni kiritishimiz mumkin.

Uchinchi guruhga harbiy intizomni, qonunchilikni va huquqiy tartibni saqlash, Qurolli Kuchlar tuzilmalari faoliyati bilan bog‘liq munosabatlarni kiritish mumkin.

To‘rtinchi guruhga halqaro huquq normalari bilan tartibga solinadigan va harbiy hamkorlik, halqaro gumanitar huquq normalarini buzish masalalari bilan bog‘liq munosabatlarni kiritish mumkin.

Barcha sanab o‘tilgan munosabatlar “harbiy ish munosabatlari” yoki “harbiy munosabatlar” tushunchasi bilan qamrab olinadi.

Harbiy munosabatlar asosan ijro hokimiyati sohasida yuzaga keladi. Tartibga solishda ma’muriy-huquqiy jihatlarning ustunligi ko‘proq harbiy munosabatlarning ikkinchi va uchinchi guruhlariga xos, biroq boshqa guruhlarda ham o‘rin egallaydi. Bu esa, davlatda harbiy faoliyatni huquqiy tartibga solishning o‘ziga xos xususiyati hisoblanadi. Shu bilan birga birinchi guruhga kiruvchi harbiy munosabatlar konstitutsion (davlat), to‘ritinchi guruhdagi esa – halqaro huquqning normalari bilan tartibga solinadi.

Biroq huquq faqatgina normativ massivga, ya’ni qonunlar va boshqa huquqiy hujjatlarning to‘plamiga yo‘naltirilmaydi. Huquqning barcha tarmoqlari jamiyatning yutuqlarini, ilg‘or g‘oyalarni va konsepsiyalarni aks ettirib, ularni u yoki bu huquqiy

normalarning yig‘indisida (qonunda, kodeksda va boshqalarda) mujassamlashtirishga undaydi. Kodifikatsiyalangan hujjatning yo‘qligi ijtimoiy munosabatlarning tartibga solinishi kelgusida takomillashtirishni talab etishi haqida dalolat beradi. Masalan, ilmiy yuridik jamoa tomonidan ko‘p marotaba horijiy mamlakatlar singari harbiy munosabatlar sohasida kodifikatsiyalangan hujjat (Harbiy kodeks yoki Harbiy xizmat kodeksi)ni ishlab chiqish va qabul qilish masalasi ko‘tarilgan.

Huquq normalari quyi tizimining umumiy tamoyillari va funksiyalari bilan bog‘liq bo‘lgan huquq sohasining mavjud ta’rifiga ham e’tibor qaratish lozim, ular o‘ziga xos yuridik usul va vositalar yordamida bir xil ijtimoiy munosabatlarning ma’lum bir keng sohasini (doirasini) tartibga soladi. Harbiy huquq “chegara hududlari”ning mavjudligi bilan tavsiflanadi, ya’ni bir xil masalalarning tartibga solinishi huquqning sohalari tomonidan amalga oshiriladi. Masalan, harbiy xizmatchilarning uy-joy munosabatlarini huquqiy tartibga solish “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining harbiy xizmatni o‘tash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi PQ-4447-son qaror[1] bilan ham, Uy-joy kodeksi bilan ham amalga oshiriladi. Harbiy huquq harbiy xizmatchilarning jinoiy javobgarligi va jinoiy jazosini ijro etish masalalarida jinoyat va jinoyat-ijroiya qonunchiligi bilan chambarchas bog‘liqdir. Harbiy munosabatlar, shuningdek, ma’muriy, soliq, byudjet va moliya huquqi va ommaviy huquqqa kiritilgan boshqa qator huquq sohalari bilan ham tartibga solinadi.

Shunday qilib, hududni aniq va keng qamrovli “bo‘linishini” ko‘zda tutuvchi huquq tizimining aniq differensiatsiyalanishi (huquq sohalarining chegaralanishi) mavjud emasligi ko‘rinib turibdi. Bu holat, bir huquq sohasining kuchlari va vositalari bilan harbiy munosabatlarni tartibga solish, ularning katta differensiatsiyalanishi tufayli hozirda imkonsiz ekanligi bilan izohlanadi.

Shu bilan birga, bir qancha huquq sohalarining imkoniyatlaridan foydalanish obyektiv ravishda talab qilinadi, ularning arsenalidan hozirgi vaqtda maqsadli va samarali huquqiy tartibga solishning mos keladiganlar olinadi. So‘z alohida huquq soharining birlashuvi haqida ketmoqda, u istiqbolda huquqning yangi sohasini “qonuniylashtirish”ga

[1] Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикаси фуқароларининг ҳарбий хизматни ўташ тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида”ги ПҚ-4447-сон қарор // Lex.uz.

olib kelishi mumkin (masalan, harbiy huquqni), uning umumiy normalarining yig‘indisi esa tegishli kodeksda mastahkamlanishi mumkin.

Harbiy huquq yuridik fanning sohasi sifatida XIX asrning ikkinchi yarmidan o‘rganilib kelinmoqda. G‘arbda harbiy huquq nazariyasini ishlab chiqishga birinchi urinish “Davlat to‘g‘risidagi fan sifatida harbiy turmush haqida bilimlar” kitobini nashr etgan nemis professori L. fon Shteyn tomonidan amalga oshirildi. Aleksandrovsk harbiy yuridik akademiyasining professori A.M.Dobrovolskiy, harbiy huquq fanining mohiyati va mazmunini belgilab, shuni qayd etganki, armiya hayotini tartibga soluvchi normalar o‘zining yig‘indisida huquqning o‘ziga xos sohasiga – harbiy huquqqa aylanib, o‘zining ichiga harbiy-ma’muriy, harbiy-jinoiy va harbiy-sud huquqini oladi.

U harbiy huquqning xususiyatlarini bu huquqiy me’yorlar bir butun sifatida umum davlat normalar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lsa-da va davlat huquqiy tartibining g‘oyasiga bo‘ysunsa-da, armiyaning maqsadi va uning ichki hayotining o‘ziga xos xususiyatlari mos keluvchi maxsus tizimga aylanadi. A.M.Dobrovolskiy so‘zlariga ko‘ra, harbiy-ma’muriy huquq – bu armiyaning tuzilishini, tashkil etilishini, tarkibini, uni zarur moddiy ehtiyojlar bilan ta’minlash tartibini, shuningdek harbiy hokimiyat organlarining tuzilmasi, vakolati va faoliyatini belgilaydigan huquqiy normalar to‘g‘risidagi fan hisoblanadi.

Harbiy-huquqiy tadqiqotlar konsepsiyalarining izlanishi 1936 yilda harbiy-yuridik fakultetini, so‘ngra Harbiy yuridik akademiyani tashkil etilishi bilan kuchaydi. Ularning ishlab chiqilishida S.N.Bratus, S.S.Studenikin, V.N.Kudryavsev, I.F.Pobejimov kabi olimlar ishtirok etishdi.

Harbiy huquqning metodologik va umumnazariy muammolarini hal qilish bo‘yicha ikkita konseptual yondashuvni ko‘rishimiz mumkin:

1) huquqning tizimi doirasida harbiy-huquqiy muammolarni hal etish;

2) harbiy huquq konsepsiyasini tarmoqli harbiy-yuridik fan sifatida e’tirof etish asosida harbiy-huquqiy muammolarni hal etish.

Harbiy huquqning manbalariga qonunchilik va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar kiradi. Harbiy qonunchilikni belgilangan tizim sifatida tasavvur qilish mumkin, unga O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, xalqaro shartnomalar, konstitutsiyaviy

qonunlar va O‘zbekiston Respublikasining qonunlari, Oliy Majlis palatalarining birgalikdagi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon, farmoyish va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Qurolli Kuchlar tizimidagi vazirlik va davlat idoralarining normativ hujjatlari kiradi, ya’ni mudofaa sohasidagi munosabatlar qonunlar tomonidan tartibga solinadi.

Harbiy huquqning manbalari orasida O‘zbekiston Respublikasiningning Konstitutsiyasi va xalqaro shartnomalar muhim o‘ringa ega bo‘lib, harbiy qonunchilikning rivojlanishi uchun asos yaratadi.

Qonunchilikning kompleks sohasi sifatidagi harbiy qonunchilik o‘z ichiga davlat, ma’muriy, moliyaviy, yer, jinoiy va huquq boshqa sohalarining normalarini qamrab oladi, ular davlat harbiy faoliyatining sohasini, shu jumladan harbiy tashkilotining o‘ziga xos kundalik hayotini tartibga soladi.

Harbiy qonunchilik normalari qurolli kuchlarning tuzilishini, harbiy boshqaruv organlarining tashkil etilishi va vakolatlarini, kadrlar bilan jamlash va qurolli kuchlar zaxirasini yaratish, harbiy xizmatni o‘tash tartibini, harbiy xizmatchilar va harbiy xizmatga majbur shaxslarning huquqiy maqomini, harbiy xo‘jalikni tashkil etish va olib borish, harbiy xizmatchilarni moddiy va moliyaviy ta’minlash qoidalarini, harbiy holat deb e’lon qilingan hududlardagi harbiy hokimiyat organlarining huquqlarini, qurolli kuchlarning safarbarlik asoslarini belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi[1] davlat mudofaasi va xavfsizligining asoslarini mustahkamlaydi. Masalan, 3-moddasiga O‘zbekistonning davlat chegarasi va hududi daxlsiz va bo‘linmasli, 64-moddaga muvofiq O‘zbekistonni himoya qilish har bir fuqaroning burchi ekanligi, 109-moddada O‘zbekiston Respublikasining Prezidentini O‘zbekiston Respublikasining suvereniteti, xavfsizligi va hududiy yaxlitligini muhofaza etish, milliy-davlat tuzilishi masalalariga doir qarorlarni amalga oshirish, 152 va 153-moddalarda mudofaa va xavfsizlik masalalarini belgilash va boshqalar kiritilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mudofaa va xavfsizlik sohasidagi barcha munosabatlarga taalluqli bo‘lgan asoslarni belgilaydi.

[1] Ўзбекистон Республикаси Конституцияси // Lex.uz. (Мурожаат санаси: 10.08.2023).

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi Vatanni himoya qilish bo‘yicha har bir fuqaroning majburiyatini belgilaydi. Konstitutsiyaning 64-moddasida quyidagilar belgilangan: 1) Vatanni himoya qilish O‘zbekiston Respublikasi fuqarosining burchi va majburiyati hisoblanadi; 2) O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi harbiy yoki muqobil xizmatni qonunga muvofiq o‘taydi.

Harbiy qonunchilik xalqaro shartnomalarni ham o‘z ichiga oladi. “O‘zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to‘la huquqli subyektidir. Uning tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning daxlsizligi, nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik qoidalariga va xalqaro huquqning umum e’tirof etilgan boshqa qoidalari va normalariga asoslanadi. Respublika davlatning, xalqning oliy manfaatlari, farovonligi va xavfsizligini ta’minlash maqsadida ittifoqlar tuzishi, hamdo‘stliklarga va boshqa davlatlararo tuzilmalarga kirishi va ulardan ajralib chiqishi mumkin”[1]. O‘zbekistonning harbiy xizmatchilarini huquqiy maqomi Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risidagi[2], O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining harbiy xizmatni o‘tash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqidagi qaror[3] va umumharbiy nizomlar bilan belgilanadi.

Ko‘pgina mamlakatlarda harbiy xizmatchilarning huquqiy maqomi nafaqat milliy huquq bilan balki, xalqaro, mintaqaviy va lokal hujjatlar bilan tartibga solinadi. Bunday mamlakatlarning harbiy xizmatchilarni maqomi, birinchi navbatda, shu bilan aniqlanadiki, ular o‘z davlatida belgilangan barcha huquq va majburiyatlar bilan o‘z davlatining harbiy xizmatchilari bo‘lib qolishadi, boshqacha aytganda, o‘z davlatlarining qonunlarida nazarda tutilgan barcha huquq va imtiyozlarni saqlab qoladilar. Shu bilan birga, tinchlikni saqlash operatsiyalarini o‘tkazish paytida milliy kontingentning harbiy xodimlari tarkibida o‘z davlatidan tashqarida bo‘lganida, harbiy xizmatchilar boshqa davlatlar o‘z yurisdiksiyasini amalga oshiradigan hududda vazifalarni bajaradilar. Harbiy xizmatchilar harakatlarining

[1] Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. 17-модда. // Lex.uz. (Мурожаат санаси: 10.07.2024).

[2] Ўзбекистон Республикаси «Умумий ҳарбий мажбурият ва ҳарбий хизмат тўғрисида»ги 436-II-сонли Қонуни. 11.05.2022. // Lex.uz. (Мурожаат санаси: 10.08.2022).

[3] Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикаси фуқароларининг ҳарбий хизматни ўташ тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида”ги ПҚ-4447-сон қарор. 12.09.2019. // Lex.uz. (Мурожаат санаси: 10.08.2022).

qonuniyligi, ularning huquq va majburiyatlari, imtiyoz va immunitetlarining qonuniy mustahkamlanishi xalqaro shartnomalarda aks ettiriladi.

Boshqa davlatlar hududida harbiy xizmatchilarning huquqiy maqomini belgilaydigan MDHga a'zo davlatlar o'rtasida tuzilgan xalqaro shartnomalarga Rossiya va MDHga a'zo davlatlar o'rtasida Rossiya Federatsiyasining harbiy tuzilmalarining holati va joylashuv shartlari to'g'risida ikki tomonlama xalqaro shartnomalarni misol qilib keltirish mumkin. Bunday shartnomalar Tojikiston Respublikasi, Moldova Respublikasi, Armaniston Respublikasi, Belarus Respublikasi, Qirg'iziston Respublikasi, Turkmaniston, Ukraina va Gruziya Respublikasi bilan tuzilgan.

Biroq, O'zbekiston hech qanday harbiy bloklarga qo'shilmaydi, boshqa davlatlarning hududlarida harbiy harakatlarda ishtirok etmaydi. Faqatgina tinchlik yo'lida harbiy hamkorlikni amalga oshirishi Mudofaa doktrinasida aks ettirilgan.

Konstitutsiyaviy qonunlar faqat O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi[1]ning 93-moddasida va boshqa moddalarda sanab o'tilgan O'zbekiston yurisdiksiyasining predmetlari bo'yicha qabul qilinadi. Konstitutsiyaviy qonunlarni qabul qilishda barcha deputatlar, senatorlar umumiy sonining kamida uchdan ikki qismi ishtirok etishi shart. Xususan, mudofaa va xavfsizlik sohasida ularga quyidagilar kiradi:

93-moddaning 2-qismi – O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy qonunlarini, qonunlarini qabul qilish, ularga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish tartibini belgilaydi;

93-moddaning 18-qismi – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining umumiy yoki qisman safarbarlik e'lon qilish, favqulodda holat joriy etish, uning amal qilishini uzaytirish yoki tugatish to'g'risidagi farmonlarini tasdiqlash belgilangan;

109-moddaning 19-qismi – alohida hollarda real tashqi xavf, ommaviy tartibsizliklar, yirik halokat, tabiiy ofat, epidemiyalar yuz bergan taqdirda fuqarolarning xavfsizligini ta'minlashni ko'zlab, O'zbekiston Respublikasining butun hududida yoki uning ayrim joylarida favqulodda holat joriy etadi va qabul qilgan qarorini uch kun ichida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari tasdig'iga kiritadi. Favqulodda holat joriy etish shartlari va tartibi qonun bilan belgilanadi;

[1] Ўзбекистон Республикаси Конституцияси // Lex.uz. (Мурожаат санаси: 02.05.2023).

111-modda –O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati favqulodda holat joriy etilgan davrda tarqatib yuborilishi mumkin emasligiga tegishli.

Konstitutsiyaviy qonunlarning maxsus yuridik kuchi, uning harbiy qonunlar bilan o‘zaro zid bo‘lmasligi bilan ifodalanadi. Davlatning harbiy faoliyati sohasidagi konstitutsiyaviy qonunlarga quyidagilar kiradi:

1991 yil 30 sentyabrdagi «O‘zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida»gi O‘RQ-358-XII-son Konstitutsiyaviy qonun;

1991 yil 18 noyabrdagi «O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i to‘g‘risida»gi O‘RQ-407-XII-son qonun;

1992 yil 2 iyuldagi «O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbi to‘g‘risida»gi O‘RQ-616-XII-son qonun;

1992 yil 10 dekabrdagi «O‘zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi to‘g‘risida»gi O‘RQ- 768-XII-son qonun;

2002 yil 12 dekabrdagi «O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to‘g‘risida»gi O‘RQ-433-II-son Konstitutsiyaviy Qonun

2002 yil 12 dekabrdagi «O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to‘g‘risida»gi O‘RQ-435-II-son Konstitutsiyaviy Qonun

2021 yil 15 dekabrdagi “Favqulodda holat to‘g‘risida”gi O‘RQ-737-son Konstitutsiyaviy qonun.

Darhaqiqat, bugungi kunda qo‘shinlar jangovar shayligi doimiy, kuchaytirilgan, harbiy havf va to‘liq kabi turlarga bo‘linadi. Xorijiy mamlakatlarda harbiy havf va to‘liq alohida normativ hujjatlar bilan tartibga solinadi. Xususan, Rossiya Federatsiyasida harbiy havf bilan bog‘liq munosabatlar vujudga kelganda 2002 yil 30 yanvardagi “Harbiy holat to‘g‘risida”gi[1] 1-FKQ-sonli federal konstitutsiyaviy qonun bilan, to‘liq jangovar shaylikda esa 2001 yil 30 maydagi “Favqulodda holat to‘g‘risida”gi[2] 3-FKQ-sonli federal konstitutsiyaviy qonun bilan tartibga solinadi. Shu bilan bir qatorda, harbiy

[1] Россия Федерациясининг 2001 йил 30 майдаги “Ҳарбий ҳолат тўғрисида”ги 1-ФКҚ-сон федерал конституциявий қонуни // http://www.consultant.ru/document/cons_ doc_LAW_35227

[2] Россия Федерациясининг 2002 йил 30 январдаги “Фавқулодда ҳолат тўғрисида”ги 3-ФКҚ-сон федерал конституциявий қонуни // pravo.gov.ru. (Мурожаат санаси: 10.08.2022).

xizmatchilarning huquqiy maqomi bilan bog‘liq munosabatlar Rossiya Federatsiyasining “Harbiy xizmatchilarning maqomi to‘g‘risida”gi[1] federal qonunida mustahkamlangan.O‘zbekiston tajribasida esa, to‘liq jangovar shaylik bilan bog‘liq munosabatlar “Favqulodda holat to‘g‘risida”gi konstitutsiyaviy qonun bilan, harbiy xavf hoati esa muyyan darajada “Favqulodda holat to‘g‘risida”gi konstitutsiyaviy qonun va asosan qonun osti hujjatlari bilan tartibga solinadi. Shu bilan birga harbiy xizmatchilarning maqomi alohida qonun hujjati bilan tartibga solinmagan.

Fikrimizcha, xorij tajribasidan kelib chiqib O‘zbekiston Respublikasining “Harbiy holat to‘g‘risida”gi hamda “Harbiy xizmatchilarning maqomi to‘g‘risida”gi qonunlarning loyihasini ishlab chiqish va qabul qilish maqsadga muvofiqdir. Natijada, harbiy holat va harbiy xizmatchilarning huquqiy maqomi bilan bog‘liq munosabatlar qonun osti hujjatlari bilan emas, qonun normalari bilan huquqiy tartibga solinadi hamda bu xalqaro huquq normalariga ham to‘liq mos tushadi.

Mudofaa va harbiy xavfsizlik sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi qonun osti normativ-huquqiy va boshqa qonun hujjatlari faqat mudofaa va xavfsizlik to‘g‘risidagi qonunchilikning rivoj topishida ishlab chiqarilishi va unga zid bo‘lmasligi kerak. Ularga umumharbiy nizomlar, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining va Vazirlar Mahkamasining harbiy masalalar bo‘yicha qabul qilingan qarorlari, shuningdek, Mudofaa vaziri, qonunda harbiy xizmatni o‘tash nazarda tutilgan boshqa harbiy tuzilmalar rahbarlarining o‘z vakolatlari doirasida chiqarilgan idoraviy normativ-huquqiy hujjatlar kiradi.

Umumharbiy nizomlar harbiy-xizmat munosabatlarini huquqiy tartibga solishda katta ahamiyatga ega. Umumharbiy nizom – bu harbiy xizmatchilarning xulq-atvori va faoliyati uchun uzoq vaqtga o‘rnatilgan va Qurolli Kuchlarning, boshqa qo‘shinlar, harbiy tuzilmalar va organlarning, harbiy boshqaruv va nazorat organlarining, alohida harbiy xizmatchilarning kundalik hayotini va faoliyati (tayyorgarlik va jangovar qo‘llash)ni ma’lum bir qismini tartibga soluvchi normativ-huquqiy qoidalarning to‘plami hisoblanadi.

[1] Россия Федерациясининг 1998 йил 27 майдаги “Ҳарбий хизматчиларнинг мақоми тўғрисида”ги 76-ФҚ-сонли федерал қонун // pravo.gov.ru. (Мурожаат санаси: 10.08.2022).

Yuqoridagilar bilan bir qatorda harbiy qonun hujjatlari tizimining o‘ziga xos xususiyatlari sifatida yana quyidagilarni ham alohida ko‘rsatib o‘tish maqsadga muvofiq:

birinchidan, harbiy qonunchilikni tizimlashtirish – bu, mudofaa va xavfsizlik sohasidagi harbiy qonunchilik hujjatlarini unifikatsiyalash, konsolidatsiyalash yoki kodekslashtirish asosida belgilangan tizimga keltirish, ularni tegishli bir xil huquqiy kuchga ega bo‘lgan qonunchilik hujjatlariga (kodeks, qonun, nizom) birlashtirish jarayonidir;

ikkinchidan, harbiy qonunchilikni inkorporatsiya qilish deganda, mudofaa va xavfsizlik sohasidagi turli huquqiy hujjatlarni bir tizimga birlashtirish orqali ma'lum bir sohadagi qonunchilikni muayyan tartibda joylashtirish jarayoni tushuniladi;

uchinchidan, harbiy qonunchilikni konsolidatsiya qilish deganda, mudofaa va xavfsizlik sohasidagi turli huquqiy normalar va hujjatlarni yagona tizimga birlashtirish jarayoni tushuniladi;

to‘rtinchidan, harbiy qonunchilikni kodifikatsiya qilish deganda, mudofaa va xavfsizlik sohasidagi mavjud huquqiy normalarni tizimlashtirib, ularni yagona huquqiy hujjat – kodeks shaklida birlashtirish jarayoni tushuniladi;

beshinchidan, qonun hujjatlari tizimining ushbu tarmog‘i ikki darajali – gorizontal va vertikal tizimida namoyon bo‘ladi. Vertikal tusdagi ierarxik tizimdan konstitutsiya, kodekslar, qonunlar va qonun osti normativ-huquqiy hujjatlar joy olgan. Gorizontal tizimda esa, o‘z yuridik kuchi bo‘yicha teng bo‘lgan qonun hujjatlari majmui tushuniladi;

oltinchidan, O‘zbekiston Respublikasi harbiy qonun hujjatlari tizimi harbiy xizmatni tashkil etish va o‘tash bilan bog‘liq munosabatlarni huquqiy ta’minlash sifatiga erishishni ta’minlashga xizmat qiladigan quyidagi yo‘nalishda shakllangan: mudofaa va xavfsizlikni ta’minlash, umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmatni o‘tashni tashkil etish sohasidagi qonun hujjatlari;

yettinchidan, harbiy qonun hujjatlari tizimi kompleksliligi bilan tavsiflanadi, huquqiy tartibga solishning yagona usuli va mexanizmi bilan o‘zaro bog‘lanmagani holda muayyan davrda vujudga kelgan va huquqiy tizimga ajralib chiqqan huquq normalari majmuini birlashtiradi hamda harbiy huquqiy normalar harbiy huquq oldida turgan vazifalarni hal

qilish uchun boshqa huquq tarmoqlari (ma’muriy, jinoyat, xo‘jalik, mehnat, fuqarolik va b.q.) normalari bilan ham bog‘langandir.

UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA XAVFSIZLIKNI TA’MINLASH: MUAMMOLARI VA YECHIMLARI

Yarashev Bobomurod Chalgashevich

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti “Jamoat xavfsizligini ta’minlash” kafedrasi boshlig‘ining o‘rinbosari, yu.f.b.f.d (PhD), dotsent

Oddiy maktab hovlisini tasavvur qiling. Bolalar kuladi, to‘p o‘ynaydi, o‘qituvchilar dars rejalarini muhokama qiladilar. Ammo bu idilning orqasida tashvishli haqiqat yotadi: dunyodagi har uchinchi o‘quvchi kamida bir marta maktab devorlari ichida tahdidga duch kelgan - bu bezorilik, zo‘ravonlik yoki eski simlar tufayli yong'in. Bilim boshpanasi bo‘lishi kerak bo‘lgan maktab tobora jang maydoniga o‘xshab bormoqda. Qanday qilib biz uning xavfsiz boshpana rolini tiklashimiz mumkin? Javob nafaqat qonunlar va videokuzatuv kameralarida, balki ushbu xavfsizlik hayotiy muhim bo‘lganlarni - bolalarning o‘zlarini ham tinglash qobiliyatida.

Zamonaviy maktab murakkab ijtimoiy-huquqiy tizim bo‘lib, unda o‘quvchilarning xavfsizligi ta’lim olish huquqini amalga oshirishning ajralmas shartidir. YuNESKO hisobotiga ko‘ra (2023), dunyo bo‘ylab bolalarning 70 foizi jismoniy zo‘ravonlikdan tortib kiberbullinggacha bo‘lgan ta’lim muassasalari devorlari ichida tahdidlarga duch kelmoqda. Rossiyada Milliy tadqiqot universiteti Oliy Iqtisodiyot maktabi (2022) tadqiqoti shuni ko‘rsatadiki, maktab o‘quvchilarining 34 foizi xavfsizlikning etishmasligi bilan bog‘liq surunkali stressni boshdan kechirishadi. Ushbu ishning maqsadi ta’lim muassasalari xavfsizligini ta’minlashdagi tizimli kamchiliklarni tahlil qilish va huquqiy, boshqaruv va pedagogik strategiyalar sintezi asosida ularni bartaraf etishning kompleks modelini ishlab chiqishdan iborat.

Ta’lim muhitining xavfsizligi deganda, bir tomondan, ta’lim sub'ektlarining hayoti va sogligïni ta'minlaydigan, boshqa tomondan, ularning shaxsiyatini rivojlantirish va shakllantirishning zarur sharti bo‘lgan hamda o‘quvchilar, o‘qituvchilar va ota-onalarning huquqiy, ijtimoiy, psixologik va axborot himoyasini ta'minlaydigan ta’lim muhitining tashkiliy, fazoviy va ijtimoiy jihatlarining holati

tushunilishi mumkin. Ta’lim tashkilotining har tomonlama xavfsizligi deganda ta’lim muassasasi o‘quvchilari va xodimlarini ijtimoiy, texnologik va tabiiy tahdidlardan himoya qilish, uning xavfsiz ishlashini ta’minlash holati tushuniladi[1].

Ta’lim muhitining xavfsizligi bilan bog'liq muammoli vaziyatlarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, bugungi kunda kamida to‘rtta xavf toifasini aniqlash mumkin (L.A. Gayazova). Bularga maktabning ta’lim muhitida shaxslararo o‘zaro munosabatlarda zo‘ravonlikning namoyon bo‘lishi bilan bog'liq xavflar, bir shaxsning boshqasiga yoki bir guruh odamlarga nisbatan jismoniy va ruhiy salomatligiga zarar etkazish va ularning psixologik farovonligini buzish maqsadida tajovuz qilishning har xil turlari va shakllari kiradi. Zo‘ravonlikning ko‘rinishi bo‘lgan ksenofobiya va ekstremizm bugungi kunda ta’lim muhiti sub'ektlari uchun xavfning alohida toifasini ifodalaydi. Bu bunday ko‘rinishlarning o‘ziga xos mazmuni va ijtimoiy ahamiyati, shuningdek, hali barqaror fuqarolik va axloqiy pozitsiyasi bilan ajralib turmagan, lekin ko‘pincha jamiyat me'yorlariga zid bo‘lgan guruhning bir qismi bo‘lishga aniq ehtiyojga ega bo‘lgan shaxsning rivojlanayotgan shaxsi uchun yuqori xavf darajasi bilan bog'liq. Ta’lim muhiti xavfsizligini buzish xavfining navbatdagi toifasi o‘z-o‘zini buzish xatti-harakati, shu jumladan bolalar va o‘smirlarning hayoti va sog'lig'iga zarar etkazish bilan bog'liq turli xil harakatlari; Bular har xil turdagi giyohvandlik, antisosyal va huquqbuzarlik, o‘z joniga qasd qilish xatti-harakatlari. Ta’lim muhiti xavfsizligini buzish xavfining alohida toifasi antropogen va tabiiy kelib chiqadigan favqulodda vaziyatlarning yuzaga kelishi bilan bog'liq xavflarni o‘z ichiga oladi[2].

Xalqaro tashabbuslar qabul qilinishiga qaramay (BMT SDG 4.a), milliy huquq tizimlari ko‘pincha o‘zlarini rasmiy ravishda mustahkamlovchi normalar bilan cheklaydilar.

Janubiy Koreyada Maktab xavfsizligi to‘g'risidagi qonun (2021) infratuzilmani har yili tekshirishni talab qiladi, ammo Ta’lim vazirligi

[1] Torikova, E., Torikov, A., & Kobzareva, I. (2020). Integrated Safety and Security of Educational Institution. , 38-49. https://doi.org/10.31483/r-75856.

[2] Гаязова Л.А. Обеспечение комплексной безопасности образовательной среды и ее психологическое сопровождение [Текст] // Известия Российского государственного педагогического университета им. А.И. Герцена. – 2011. – №142. – С. 27–33.

ma'lumotlariga ko‘ra (2023), byurokratik to‘siqlar tufayli maktablarning 58 foizi talablarga rioya qilmaydi.

Braziliyada 13.663/2018-sonli videokuzatuv kameralarini o‘rnatish to‘g‘risidagi qonunni amalga oshirish Auditorlar sudi (2022) tomonidan o‘tkazilgan audit tomonidan tasdiqlangan mablag‘larning etarli emasligi muammosiga duch keldi.

Bunday holatlarning asosiy sabablari:

• qonunlarni qo‘llash mexanizmlarining yo‘qligi.

• Rivojlanayotgan mamlakatlarda maktab byudjetlarining 3% dan kamrog‘i xavfsizlik choralariga ajratiladi (Jahon banki, 2023 yil).

Shu bilan birga, qishloq ta’lim muassasalari resurslardan foydalanishda tizimli diskriminatsiyaga duch kelmoqda.

Hindistondagi qishloq maktablarining 60 foizida to‘siqlar yo‘q, bu tashqi tahdidlar xavfini oshiradi (UNICEF, 2022).

Meksikada ota-onalarning migratsiyasi voyaga etmaganlar jinoyatchiligining ko‘payishiga olib keladi, qishloq joylaridagi voyaga etmaganlarning 25 foizi noqonuniy faoliyatga jalb qilingan (OECD, 2023).

Aynan shu muammolarni, xususan, O‘zbekiston Respublikasining bepoyon hududlarida ham ko‘rish mumkin. Hozirgi kunda ota-onaning har ikkalasi ham chet elga pul topish uchun sayohat qilishlari odatiy hol bo‘lib, bunday hollarda bolalar vasiylikni rasmiylashtirmasdan, yaqin qarindoshlari qaramog‘ida qolib ketishadi. Bu esa bolani tarbiyalash va o‘qitish mas'uliyati noma'lum holatda qolishiga olib keladi.

Ta’limni raqamlashtirish va COVID-19 pandemiyasi talabalarning ruhiy salomatligi muammosini yanada kuchaytirdi. Bunga misollar kiradi:

• Kiberbulling: Yevropa Ittifoqida o‘smirlarning 29 foizi ijtimoiy tarmoqlarda zo‘ravonlikka duchor bo‘ladi (EU Kids Online, 2023).

• Akademik stress: Yaponiyada o‘rta maktab o‘quvchilarining 18 foizi charchash alomatlarini ko‘rsatadi (Milliy ta’lim instituti, 2023).

Ushbu muammoning huquqiy jihati shundaki, aksariyat mamlakatlarda maktablarga psixologik yordam ko‘rsatishni talab qiluvchi qonunlar mavjud emas.

Qoidadan istisno Finlyandiya bo‘lib, u erda 2020 yildan boshlab majburiy “hissiy intellekt darslari” joriy etilgan va bu zo‘ravonlik darajasini 35% ga kamaytiradi (KiVa dasturi, 2023).

Maktablarda xavfsizlikni ta'minlash uchun texnologik echimlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

• Sun’iy intellektdan foydalanish: Qo‘shma Shtatlardagi Predictive Safety ijtimoiy media monitoringi tizimi 2022 yilda 5 ta qurolli hujumning oldini oldi (DOE, 2023).

• Hindistonda 10 000 ta muassasada joriy etilgan SafeSchool biometrik tanib olish tizimi platformasidan foydalanish maktab hududida begonalar sonini 40 foizga kamaytirdi (Ta’lim vazirligi, Hindiston, 2023 yil).

Maktablarda xavfsizlikni ta'minlashning yana bir yo‘lini idoralararo hamkorlik deb hisoblash mumkin: Tataristonda, Rossiya Federatsiyasida, “Xavfsiz maktab” (2022) platformasi ta’lim muassasalarini Ichki ishlar vazirligi va Favqulodda vaziyatlar vazirligi bilan birlashtirib, favqulodda vaziyatlarga javob berishni 40% ga tezlashtirdi.

O‘zbekiston Respublikasi maktablarida xavfsizlikni ta’minlash sohasidagi ilg‘or tajribalardan foydalanish va integratsiyalashuv “Havfsiz talim” konsepsiyasini amalga oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa

Maktab xavfsizligini ta'minlash qonunchilik, resurslar va ijtimoiy voqelik o‘rtasidagi tizimli ziddiyatlarni bartaraf etishni talab qiladi. Finlyandiya va Singapur tajribalari shuni ko‘rsatadiki, muvaffaqiyatli modellar quyidagilarga asoslanadi:

• Reaktiv chora-tadbirlardan ko‘ra oldini olishga ustuvor ahamiyat bering.

• Texnologiyalarni gumanitar yondashuvlar bilan integratsiyalashuvi.

• Idoralararo hamkorlik, jumladan, talabalar bilan muloqot.

Keyingi tadqiqotlar AIdan foydalanishning axloqiy jihatlariga va qishloq maktablari xavfsizligi uchun xalqaro moliyalashtirish mexanizmlarini ishlab chiqishga qaratilishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Kang, W. (2023). A Study on the Legal and Policy Measuresfor Ensuring School Safety: Focusing on the laws and systems for preventing school safety accidents. *Forum of Public Safety and Culture*. https://doi.org/10.52902/kjsc.2023.20.181.

2. Cornell, D., & Mayer, M. (2010). Why Do School Order and Safety Matter?. *Educational Researcher*, 39, 15 - 7. https://doi.org/10.3102/0013189X09357616.

3. Mikhalkin, N., Averyushkin, A., & Simonova, S. (2021). Ways and Tools to Ensure the Safety of the Educational Environment at School and University. *Yazык i tekst*. https://doi.org/10.17759/langt.2021080209.

4. Wu, N., & Meng, X. (2023). The Existing Problems and Solutions of Life Safety Education for Contemporary Rural Teenagers. *Theory and Practice of Chinese Pedagogy*. https://doi.org/10.48014/tpcp.20220726004.

5. Kaya, D., & Balyer, A. (2024). Examining Parents' Opinions on Safe School. *International Journal of Educational Research Review*. https://doi.org/10.24331/ijere.1487915.

6. Eganyan, G., & Aghuzumtsyan, G. (2024). THE PROVISION OF SAFE EDUCATIONAL ENVIRONMENT IN PUBLIC SCHOOL. *SUSh Scientific Proceedings*. https://doi.org/10.54151/27382559-24.1pb-260.

7. Kostina, L. (2022). ATTITUDE OF PARENTS AND TEACHERS TO THE PROBLEM OF PSYCHOLOGICAL SAFETY OF STUDENTS OF PRIMARY AND SECONDARY SCHOOL. *Educational Psychology in Polycultural Space*. https://doi.org/10.24888/2073-8439-2022-60-4-14-21.

8. Bahar, H. (2020). Safety in Schools and Their Surroundings: A Case Study in Istanbul. *Annals of Social Sciences & Management Studies*. https://doi.org/10.19080/asm.2020.06.555680.

9. Tusseyev, M., Torybayeva, J., Ibragim, K., Gurbanova, A., & Nazarova, G. (2021). Ensuring the safety of learning and teaching environments. *World Journal on Educational Technology: Current Issues*. https://doi.org/10.18844/wjet.v13i4.6299.

10. Masekela, N., Ngobeni, E., & Sepeng, P. (2024). Implementation of School Safety Policy in Primary and Secondary Schools. *Research in Educational Policy and Management*. https://doi.org/10.46303/repam.2024.2.

11. Cornell, D. (2010). Why Do School Order and Safety Matter? *Educational Researcher*.

12. Ministry of Education, South Korea. (2023). *Report on School Infrastructure Audits*.

13. UNICEF. (2022). *Safety in Rural Schools: Global Overview*.

14. DOE. (2023). *Predictive Safety Systems in U.S. Schools*.

15. Ministry of Internal Affairs, Colombia. (2023). *Project Escuelas Seguras: Results and Challenges*.

16. Torikova, E., Torikov, A., & Kobzareva, I. (2020). Integrated Safety and Security of Educational Institution. , 38-49. https://doi.org/10.31483/r-75856.

17. Gayazova L.A. Obespechenie kompleksnoy bezopasnosti obrazovatelnoy sredы i yee psixologicheskoe soprovojdenie [Tekst] // Izvestiya Rossiyskogo gosudarstvennogo pedagogicheskogo universiteta im. A.I. Gersena. – 2011. – №142. – S. 27–33.

IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA’MINLASHDA BOJXONACHI KADRLAR TAYYORLASHNING O‘RNI

A.Shadmankulov
Bojxona instituti Bojxona tartibga solinishi va bojxona to‘lovlari kafedrasi boshlig‘i, i.f.n., dotsent, b.x. podpolkovnigi.

Mamlakatimizning taqdiri va kelajagi uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga, bu yo‘lda bor bilim va salohiyatini safarbar etishga qodir bo‘lgan, azmu shijoatli yoshlarni tarbiyalab voyaga yetkazish biz uchun eng muhim masaladir.

Shavkat Mirziyoyev.

Jamiyatimizda kamsonli bo‘lsa-da yurtimiz uchun o‘ta muhim vazifalarni bajarib kelayotgan bojxonachi kasbining egalari bor. Ularga asosan chegarani kesib o‘tayotgan shaxslar yoki tashqi savdo operatsiyalarini amalga oshirayotgan tadbirkorlar hayotda ko‘proq duch kelishadi. Aholimizning boshqa qatlamida bojxonachi kasbi haqida ma’lumotga kamroq ega bo‘lishadi. Maqolada bojxonachilar tayyorlaydigan oliy ta’lim muassasasi – **Bojxona qo‘mitasining Bojxona instituti** haqida ma’lumotlar berilgan.

Mamlakatimizning iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash, kontrabandaga oid jinoyatlar va bojxonaga oid huquqbuzarliklarni oldini olish, aniqlash, bojxona to‘lovlarini undirish kabi aholi manfaatlari hamda mamlakat ravnaqi uchun xizmat qilishda bojxona organlarining o‘rni beqiyos. Bu vazifalarni amalga oshirish uchun bojxonachilardan bir vaqtning o‘zida huquq, iqtisodiyot, psixologiya, tabiiy, aniq fanlar va boshqa yo‘nalishlardagi bilimlarga ega serqirra hamda mukammal inson bo‘lishi talab etiladi.

Ma’lumot uchun: *So‘ngi 4 yil mobaynida bojxona organlari tomonidan amalga oshirilgan ishlar natijasida erishilgan ko‘rsatkichlarning ayrimlariga nazar tashlaydigan bo‘lsak, fiskal yo‘nalishda 2024-yilda* ***58,7 trln. so‘m*** *bojxona to‘lovlari davlat byudjetiga undirilib, 2020-yilga (24,7 trln. so‘m) nisbatan 2,4 martaga oshgan. Shuningdek, 2024-yil davomida aniqlangan huquqbuzarliklar*

*natijasida **1010,5 kg.** giyohvandlik vositalarini noqonuniy aylanishi oldi olinib, 2020-yilga (280,2 kg.) 3,6 karraga keskin oshgan.*

Bojxonachilar qayerda ta'lim oladi? Markaziy Osiyo mintaqasida **yagona** bo‘lgan va Toshkent shahrida joylashgan Bojxona instituti yurtimizga oliy ma'lumotli bojxonachi kadrlarni tayyorlashga ixtisoslashgan ta'lim muassasasi hisoblanadi. Mazkur institutga dastlab 2003-yilda asos solinib, 21 yildan ortiq vaqt mobaynida bojxona tizimiga "Bojxona ishi", "Yurisprudensiya" ta'lim yo‘nalishlarida malakali ofitser kadrlar tayyorlab kelmoqda. Bojxona organlari shaxsiy tarkibining ½ **qismida** institut bitiruvchilari fidoiylik va sadoqat bilan samarali xizmat olib bormoqda. Kelgusida ushbu hissani yanada oshirib borish rejalashtirilgan. Davlatimiz rahbarining qaroriga muvofiq, 2018-yildan boshlab oliy ma'lumotli bojxonachilar tayyorlash tizimi ikki (*bakalavriat, magistratura*) bosqichga ajratildi va ta'lim-tarbiya jarayoni takomillashtirildi.





Ta'lim muassasasi nufuzini belgilashda uning bitiruvchilarining **karyerasi** muhim rol o‘ynaydi. Institut "yosh" bo‘lsa-da, bitiruvchilar orasidan ayrimlari Bojxona qo‘mitasi markaziy apparati tarkibiy tuzilmalari hamda hududiy boshqarmalarda rahbar lavozimlarda xizmat qilmoqda. Shuningdek, bitiruvchilarning **5 nafari** bojxona ishiga oid mavzularda PhD doktorlik dissertatsiyalarini yoqladi. Bitiruvchilarning **ikki** nafari Belgiyaning Bryussel shahrida joylashgan Jahon bojxona tashkilotida faoliyat yuritdi.

Institutda ta’lim olish qanday amalga oshiriladi? Bakalavriat bosqichidagi kursantlar to‘liq **davlat ta’minotida** (*oziq-ovqat, stipendiya, formali kiyim-bosh, turar-joy va boshqalar*) harbiylashtirilgan tartib asosida ta’lim olib, o‘qishni bitirganidan so‘ng yurtimizning turli hududlarida joylashgan bojxona sarhadlarida xizmatni o‘tash uchun yuboriladi. Magistratura bosqichiga amaldagi bojxona xodimlari qabul qilinib, o‘qishni bitirgach ulardan rahbar kadrlar zaxirasi shakllantiriladi va bojxona organlarida xizmat faoliyatini davom ettirishadi.

Institutining “Bojxona ishi” ta’lim yo‘nalishi o‘quv rejasi 2022-yilda Jahon bojxona tashkilotining bojxonachilarga belgilagan professional standartlari - **PICARD** (*Partnerships in customs academic research and development*) dasturi bo‘yicha xalqaro akkreditatsiyadan o‘tdi. Natijada bitiruvchilarning oliy ma’lumoti to‘g‘risidagi diplomi xalqaro darajada tan olinishiga erishildi. Dunyo miqyosida 29 ta ta’lim muassasasi bu kabi xalqaro akkreditatsiyadan o‘tgan

.





Shuningdek, mazkur yilda institut yurtimizning ta’lim sifati bo‘yicha milliy akkreditatsiyasidan ham muvaffaqiyatli o‘tgan. Kursantlarning o‘quv amaliyoti va stajirovkasi bevosita Bojxona qo‘mitasi va uning hududiy boshqarmalarida tashkil etish yo‘lga qo‘yilgan.

Institutning pedagogik va ilmiy salohiyati. Institut professor-o‘qituvchilari bojxona xodimi hisoblanib, bojxona organlarida xizmatni o‘tash to‘g‘risida Nizom asosida xizmat faoliyatini olib borishadi. Institut tarkibida 2ta fakultet tarkibida 9ta kafedra tashkil etilgan. Amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida, so‘ngi yillarda

institut pedagog xodimlarning ilmiy salohiyati **16 foizga** oshib, bugungi kunda jami pedagog xodimlarning **52 foizi** ilmiy daraja va unvonlarga ega hisoblanadi. Bojxona sohasidagi ilmiy tadqiqotlarni yanada chuqurlashtirish maqsadida 2024-yilda institut tarkibida Ilmiy markaz tashkil etildi. Shuningdek, ustozlar ilmiy-tadqiqot ishlarni bajarish bilan bir qatorda bojxona organlarida uzoq yillik amaliy tajribaga ham ega. Ta'lim – amaliyot – fan uyg'unligini ta'minlash maqsadida institut xodimlarini bojxona organlarida stajirovka o'tashlari davriy tashkil etilgan.





So'nggi 5 yil davomida institutda yangi avlod o'quv adabiyotlari bilan uslubiy ta'minlashga alohida e'tibor qaratilib, o'qitiladigan fanlar bo'yicha darslik va o'quv qo'llanmalar bilan to'liq ta'minlandi. Axborot-resurs markazi elektron o'quv adabiyotlar fondi boyitildi. O'quv jarayonlarini tashkil qilish va boshqarish yuzasidan maxsus **elektron platforma** ishlab chiqilib, sinov tariqasida ishga tushirildi. Bular kursantlarning zamonaviy bilimlarni egallashiga muhim hissa qo'shmoqda.

Kursantlarning ma'naviyati va xulq-atvorini yuksaltirish, Vatanga sadoqat va fidoiylik bilan xizmat qilish ruhida tarbiyalash maqsadida yurtimizning taniqli madaniyat xodimlari, shoir va yozuvchilar, sportchilar, tajribali bojxonachilar bilan muntazam uchrashuvlar hamda mashg'ulotlar tashkil etilmoqda.

Institutning moddiy-texnik bazasi. Institutda kursantlarning tahsil olishi, yashashi, ovqatlanishi, jismoniy chiniqishi uchun zarur bo'lgan o'quv bino, yotoqxonalar, oshxona, sport majmuasi, harbiy tayyorgarlik va o'q otish maydonlari

mavjud. O‘quv bino zamonaviy jihozlangan ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlarni o‘tishga mo‘ljallangin o‘quv auditoriya hamda laboratoriyalarga ega. Yotoqxonalarda dam olish uchun zarur yangi mebellar bilan jihozlangan xonalar mavjud bo‘lib, ularning xar biri hojatxona hamda yuvinish xonalariga ega. Oshxonada kursantlar yetarli kaloriyada sifatli oziqlanishi uchun uch mahal ovqatlanish **“*Autsorsing*”** talablariga muvofiq tashkil etilgan.

Kursantlarning jismoniy chiniqishi uchun mavsumga mos ochiq va yopiq turdagi futbol, minifutbol, futzal, tennis, basketbol, voleybol maydonlar, suzish havzalari, trenajer zallar, **sport majmuasi** mavjud bo‘lib ularda kursantlarning jismoniy shug‘ullanishlari uchun sharoitlar yaratilgan. Shu bilan birga 7 turdagi sport bo‘yicha to‘garaklar tashkil etilgan. Kursantlar va xodimlar jismoniy tayyorgarlik holatini aniqlash maqsadida sinovlar davriy tashkil etiladi. Kursantlarimiz *armreysling, belbog‘li kurash, qo‘l jangi, karate* kabi sport turlari bo‘yicha respublika va xalqaro miqyosdagi musobaqalarda sovrinli o‘rinlarni egallab kelmoqda.

Kursantlarning harbiy tayyorgarlik darajasini muntazam oshirib borish maqsadida dala-harbiy o‘quv mashg‘ulotlari, saf tayyorgarligi, quroldan foydalanish hamda o‘q otish kabi yo‘nalishlarda muntazam darslar tashkil etiladi.

Kelgusidagi rejalar. Jahonda shiddat bilan yuz berayotgan globallashuv jarayonlari mamlakatimiz oliy ta’lim tizimiga hamda bojxona organlari oldiga zamon talablariga hamnafas bo‘lgan islohotlarni izchil davom ettirishni taqozo etmoqda. Jumladan, oliy ma’lumotli bojxonachi ofitser kadrlarni kelajak zamon talablariga mos ravishda tayyorlash maqsadida Bojxona instituti oldiga bir qator yo‘nalishlar belgilangan. Jumladan:

bojxonaning sohaviy yo‘nalishlari bo‘yicha profillashgan tarzda o‘quv jarayonini tashkil etish, ularning tashkiliy-huquqiy, uslubiy asoslarini yaratish;

bojxona nazorati va rasmiylashtiruvi jarayonlarida inson omili ishtirokini qisqartirish hamda suniy intellektdan foydalangan holda raqamlashtirishni yanada rivojlantirishga hissa qo‘shadigan kadrlar tayyorlash tizimini ishlab chiqish;

iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashga hissa qo‘shadigan oliy ma’lumotli kadrlar tayyorlash jarayonini samarali tashkil etish borasida yurtimizning boshqa huquqni muhofaza qiluvchi idoralari bilan hamkorlikni chuqurlashtirish.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkin-ki, Markaziy Osiyo mintaqasida yagona bo‘lgan Bojxona instituti o‘z faoliyatini jadal borayotgan xalqaro iqtisodiy integratsiyalashuv jarayonlariga mos ravishda takomillashtirib bormoqda hamda Vatanga sadoqat bilan xizmat qilishga shay zamonaviy bilimlarga ega oliy ma’lumotli bojxonachilarni tayyorlash borasida aniq strategiyaga ega barqaror muassasa deb hisoblanadi va kelgusidagi faoliyatiga muvaffaqiyatlar tilaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.Mirziyoyev. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. Toshkent — 2017.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 02.11.2018 y PQ-3995-son Qarori “O‘zbekiston Respublikasi bojxona organlari kadrlarini tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 22.05.2003-y. 229-son qarori “O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi organlari uchun kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”.

4. https://new.customs.uz/uz/

TA’LIM MUASSASALARIDA PROFAYLINGGA O‘QITISH BO‘YICHA FRANSIYA TAJRIBASI

Ikanov Azamat Agzamovich

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Ilmiy-amaliy tadqiqotlar markazi boshlig‘i, yu.f.b.f.d. (PhD), katta ilmiy xodim

So‘nggi yillarda mamlakatimizda tinchlik va osoyishtalikni ta’minlashning mutlaqo yangi mexanizmlarini joriy etish, huquqbuzarlikni sodir etishga sabab bo‘layotgan muammolarni profilaktika choralari tizimi orqali hal etish borasida samarali chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, sohani har tomonlama qo‘llab-quvvatlash maqsadida bir qator normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 15-yanvardagi “Jamoat xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasini ilmiy tadqiq qilish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-10-son Farmoni [1], O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 3-yanvardagi “2025 yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-1-son qarorlari[2] shular jumlasidandir.

Bugungi kunda ham mazkur yo‘nalishdagi chora-tadbirlar samaradorligini yanada oshirish, xavfsiz muhitni yaratish, ijtimoiy xavfli qilmish sodir etmoqchi bo‘lgan shaxsni barvaqt aniqlash dolzarb ahamiyatga ega hisoblanadi.

Bu borada insonning motivlarini tushunish, uning xatti-harakatlarini bashorat qilish, yolg‘on va manipulyatsiyalarni aniqlashni profaylingni qo‘llash orqali amalga oshirish mumkin.

Bundan tashqari, profayling ko‘nikmasi kundalik hayotda va muzokaralar olib borish, xodimlarni boshqarishga to‘g‘ri keladigan har qanday ishda qo‘l keladi. Jumladan, profayling dasturlari orqali odamlarni yaxshiroq tushunishga imkon beradigan foydali vositani tezda o‘zlashtirish imkoni yuzaga keladi.

Shu sababli, muallif tomonidan profayler-mutaxassislarni tayyorlash borasida Fransiya tajribasi o‘rganildi.

Fransiya Respublikasida profaylerlarni tayyorlashning ko‘p bosqichli modeli mavjud bo‘lib, bu nafaqat huquqni muhofaza qilish organlarida, balki biznes tuzilmalarida ham faol qo‘llaniladi.

Fransiyada kriminologiya bo‘yicha profayler-mutaxassislar mavjud bo‘lib, ularning roli, birinchi navbatda, kriminologiyani o‘rganishdan iborat.

Xususiy detektiv agentliklar va huquqni muhofaza qilish organlarida ko‘plab profaylerlar mavjud. Profaylerlarning roli jinoyatchining psixologik profilini tushunishga harakat qilib, politsiyaga tergovni yakunlashiga yordam berish hisoblanadi. Ammo Fransiyada bu kasb rasmiy tan olinmagan.

“Profayler” atamasi AQSHda kelib chiqqan bo‘lib, u yerda FQB inson xulq-atvori bo‘yicha mutaxassis (profayler)larni jinoyat ishlarini fosh qilish uchun jalb qiladi.

Fransiyada profayler – bu birinchi navbatda kriminologiyaning bilimdoni hisoblanadi.

Shunday qilib, profayler joylarda tergov bilan shug‘ullanishdan ko‘ra ko‘proq o‘z ofisida bo‘lib, kriminologik ma’lumotlarni tahlil qiladi va jinoyatlarning sabablarini o‘rganadi. U doimiy ravishda huquqiy yangiliklarni kuzatib boradi.

Profaylerning roli barcha ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va albatta, psixologik jihatlarni o‘rganish orqali jinoyatchilarning portretlarini va ularning xatti-harakatlari sabablarini o‘rganishdan iborat. Buning uchun u jinoyatchilar bilan tez-tez uchrashib turishi, ularning gaplarini eshitishi va psixologik tekshiruvlar o‘tkazishi kerak.

Profayler tergovchi va sudlarga jinoyat uchun eng mos keladigan hukmni aniqlashga yordam beradi. Ushbu tadqiqot ishi huquqbuzarlik va jinoyatchilikka qarshi kurash vositalarini joriy etayotgan politsiya va jandarmeriyaga ham foydali hisoblanadi.

Profayler-kriminolog psixologlar, ijtimoiy xodimlar, axloq tuzatish muassasalari xodimlari va boshqalar bilan hamkorlikda ishlaydi.

Bu borada profayler-mutaxassis tayyorlash jarayoni, ularni o‘qitish ham muhim ahamiyatga ega. Ushbu bosqich quyidagilarni qamrab oladi:

– jinoyat huquqi mutaxassisligi bo‘yicha psixologiya yoki yurisprudensiya bakalavri darajasi;

– kriminologiya magistri;

– jinoyat huquqi, kriminal fanlar va asosiy huquqlarga ixtisoslashgan Universitet magistri[3].

Profaylerlarni tayyorlash bilan bog‘liq ta’lim muassasalari orasida **“Psixologiya va psixoanaliz elektron fakulteti”** ta’lim muassasasida alohida o‘ringa ega[4].

EFPP elektron ta’lim maktabi ishlayotgan talabalar uchun masofadan turib yoki kechki psixologiya kurslarida ko‘nikmalarni egallash bo‘yicha yuqori darajadagi treninglarni taklif qiladi.

Shuningdek, kriminolog mutaxassisligi bo‘yicha o‘qitishda **Psixologik profayling** moduli mavjud bo‘lib, o‘qitish ham onlayn, ham oflayn o‘tkazilishi mumkin.

Kriminolog ta’lim kursida ta’lim davomiyligi 12 oydan ortiq bo‘ladi (tuzilmada stajirovkani hisobga olmagan holda o‘rtacha 150 soat, 36 kurs).

Kurs (15 sahifadan 30 sahifagacha bo‘lgan mavzu, ilovalar) har shanba kuni chop etiladigan tegishli video (20 daqiqadan 30 daqiqagacha), har payshanba kuni soat 12:00 dan 13:30 gacha 1,5 soatlik videokonferensiyani o‘z ichiga oladi.

Har bir mavzu bo‘yicha 1 ta amaliy MCQ (3 tadan 4 tagacha savol, bir nechta javob variantlari bilan), 1 fakultativ topshiriq, amaliy keys/semester mavjud.

Profaylingga oid modul quyidagicha tuzilishga ega:

– kriminologlarni tayyorlash dasturi: kriminal ekspertizadan profaylinggacha hisoblanadi;

– jinoiy profayling;

– profayling asoslari;

– profayling usuli – fayllarni va jinoyat joyini tahlil qilish;

– profayling usuli – Viktimologiya va sud ekspertizasi;

– profayling usuli – Dalillarni qayta qurish, muallifning ehtimoliy psixologik profilini yaratish, Profilni yangi elementlar bilan aniqlashtirish.

Bundan tashqari, Fransiya huquq-tartibot idoralari tizimidagi profaylerlar[5] Milliy jandarmeriyaning (PJGN) Sud bo‘linmasi tarkibida fransuz profaylerlari markaziga, Markaziy jinoiy razvedka xizmatiga, Xulq-atvor fanlari departamentiga (DSC) jalb qilingan bo‘lib, ularning mavjud shtati yettita ofitserni (shundan, beshta xulq-atvor tahlilchisi va ikkita tergovchi) tashkil qiladi.

Amalda Fransiya politsiyasi va jandarmlari ko‘pincha “profayler” atamasini ishlatmaydilar. Ular o‘zlarining fransuzcha “xulq-atvor tahlilchisi” degan nomlaridan foydalanadilar.

Xulq-atvor tahlilchisi (profayler) bo‘lish uchun ofitser diplomdan keyingi ta’lim kursini o‘tishi kerak, odatda psixologiya yoki huquq fakultetida o‘qishi kerak. Shu bilan birga, kriminologiya sohasida bilimga ega bo‘lish uchun universitet diplomi (DU) bilan ta’lim kursini o‘tash kerak.

Umuman olganda, Fransiyada “**kriminologiya**” ikki fan, huquq va psixologiyaning kesishmasi hisoblanadi.

Xulq-atvor tahlilchisi “profayler” bo‘lish uchun, ideal holatda, psixologiya yoki huquq bo‘yicha magistr darajasini olish kerak. Bunda kriminalistika yoki psixokriminologiya bo‘yicha tajriba to‘plab, stajirovka o‘tash lozim.

Tergovchi joylarda xulq-atvor tahlilchisi bilan hamkorlikda ishlaydi, tadqiqot bo‘linmalarini qo‘llab-quvvatlaydi. U xulq-atvor tahlilchilari va hududiy tadqiqotchilar o‘rtasidagi aloqani shakllantiradi, masalan, ehtimoliy kamchiliklarni qayd etib, faktlarning global ko‘rinishini ta’minlaydi.

Shu bilan birga, Fransiyada profayler ko‘proq kriminolog va tahlilchi hisoblanadi, shu munosabat bilan ko‘plab oliy o‘quv yurtlari va o‘quv markazlari kriminolog profaylerlarini tayyorlash xizmatlarini taqdim etadi.

O‘rganishlarimiz natijasiga ko‘ra aytishimiz mumkinki, mamlakatimizda huquqni muhofaza qiluvchi organlar ta’lim muassasalarida jamoat xavfsizligini ta’minlashga jalb etiladigan harbiy xizmatchi va xodimlar, kriminologlar uchun profayling kurslarini tashkil etish lozim.

Pirovard natijada profayler-mutaxassislarni tayyorlanishi huquqbuzar shaxsini yanada sinchkovlik bilan tahlil qilinishiga hamda potensial xavfli shaxslarni barvaqt aniqlashga imkoniyat yaratib, jinoyatlarni oldini olishni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 15-yanvardagi “Jamoat xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasini ilmiy tadqiq qilish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-10-son Farmoni. https://lex.uz/uz/docs/6755597

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 3-yanvardagi “2025 yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-1-son qarori. https://lex.uz/docs/7330260

3. Josée Lesparre. Profiler. 09.12.2024. https://www.cidj.com/ metiers/ profiler.

4. E-Faculté de Psychologie Et Psychanalyse. https://www.efpp-e-learning.com/

5. Comment devient-on profiler en France? 23.10.2024. https://www. gendarmerie.interieur.gouv.fr/pjgn/actualite/comment-devient-on-profiler-en-france

XAVFSIZ TA’LIM –O‘QUVChILARNING TA’LIM OLISh HUQUQINI TA’MINLASh GAROVIDIR

Ikramov Sherzod Raximdjanovich
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, Jamoat xavfsizligini ta’minlash kafedrasi katta o‘qituvchisi, yu.f.b.f.d. (PhD)

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (50-moddasi) da **“**Har kim ta’lim olish huquqiga ega. Davlat bepul umumiy o‘rta ta’lim va boshlang‘ich professional ta’lim olishni kafolatlaydi. Umumiy o‘rta ta’lim majburiydir” deb, ko‘rsatib o‘tilgan [1].

Mazkur normaning asosiy qomusimizda mustahkamlab qo‘yilgani, davlatning xalqchiligi, o‘sib kelayotgan yosh avlodni ma’naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirish borasida g‘amxo‘rlik qilishi va bolaning ta’lim olish huquqi davlat siyosati darajasida ekanligidan dalolat beradi.

Bepul umumiy o‘rta ta’lim majburiy va davlat tomonidan kafolatlangan bo‘lsada, ota-onalarning o‘z farzandlarini turli sabablar bilan maktabga yubormaslik holatlarining uchrab turishi kishini tajubga soladi.

Birlashgan millatlar tashkilotining ma’lumotlariga ko‘ra, dunyodagi qochqin oilalarning **4** milliondan ortiq farzandlari maktabga bormaydi.

Prezidentimiz tomonidan 2024 yil 5 fevral kuni o‘tkazilgan, ijtimoiy sohadagi ustivor vazifalarga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishda, “Maktablarda og‘riqli masalalardan biri, bu-tarbiya va ma’naviyat”dir. O‘tgan (2023) yili voyaga yetmaganlar 3.5 mingta jinoyat sodir etgan. Shundan 2 ming 280 nafarini maktab o‘quvchilari tashkil etgani, 50 mingta o‘quvchi maktabga sababsiz kelmayotgani ma’lum qilinib, Prezidentimiz tomonidan “O‘quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash orqali ularda ***“huquqbuzarlikka qarshi immunitet”*** yaratish bo‘yicha tizim qilish zarurligini ta’kidlab, maktablardagi inspektor-psixologlar shtati Ichki ishlar vazirligidan Milliy gvardiya tizimiga o‘tkazilishi haqida topshiriq berildi[2]..

Milliy gvardiya inspektor psixologlari tomonidan olib borilgan, sayi-harakatlar (04.02.2025 yil holatiga) natijasida, Respublikamizdagi **101134** ta maktabdagi **6.542.493** nafar o‘quvchidan 53835 (08%) nafari maktabga kelmagan,

shundan 46705 (0,7%) nafari sababli kelmagan bo‘lsa, 7130 (01%) nafarining kelmaganligi sababi noaniq bo‘lgan. Umumiy davomat 99,2 % tashkil etayotgani quvonarli holatdir[3]..

Maktabga o‘quvchilarning nima sababdan kelmayotganligi o‘rganilganda, bitiruvchi sinf o‘quvchilarining repetitorga borishi, ayrim hollarda o‘z ota-onasi bilan “Umra” amallarini bajarishga ketishi, oilasi moddiy tomondan qiynalganligi bois, pul topish bilan ovoraligi, bolaning o‘qishni (nazoratni yo‘qligi) xohlamasligi kabi holatlarni ko‘rish mumkin.

Misol sifatida oladigan bo‘lsak, Farg‘ona viloyati Uchko‘prik tumani 30-maktab 11-sinf o‘quvchisi D.A. 75 soat, 46-maktabning 6-sinf o‘quvchisi O.M.esa 65 soat dars qoldirib, Umra amallarini bajarib kelgan.

Yana bir misol, Qibray tumani, Birlik mahallasida istiqomat qiluvchi, 6-maktabning 11-sinf o‘quvchisi, 2007 y.t. S.U. esa o‘qishga kelmaydi, uni Milliy gvardiya inspektor psixologlari uyi yoki daydib yurgan joyidan maktabga olib kelishsada, ertasi kunidan yana darsga kelmaydi. Uning oilaviy sharoiti o‘rganilganda, otasi vafot etgani, onasi jazo muddatini o‘tayotgani, buvisi nogiron nabirasini tarbiyasi bilan shug‘ullanishga imkoni yo‘qligi aniqlangan.

Shu yerda bir savol tug‘iladi ? Xo‘sh maktablarimizda o‘quvchilarni bilim olishlari uchun barcha sharoitlar yaratilganmi ?

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida qayd etilishicha, maktablarning **28** foizida qo‘shimcha jihozlashga ehtiyoj mavjud, ishlatilayotgan jihozlarning **50** foizi ma’nan va jismonan eskirganligi uchun almashtirilishi kerak, **3000** dan ortiq umumta’lim maktablarida o‘quvchilarning sog‘lom ovqatlanishi uchun oshxonalar va bufetlar tashkil etish lozim, **2907** ta umumta’lim maktabi qurilish-ta’mirlash ishlariga muhtojligi davlatning hali bu borada amalga oshiriladigan ishlari talaygina ekanligidan dalolat beradi[4].

Bundan tashqari, hozirda xorijdagi rivojlangan davlatlarda maktablarda sodir etilayotgan otishmalar va mamlakatimizdagi maktablarda o‘qituvchilarga nisbatan o‘quvchi hamda ularning ota onasi tomonidan bo‘layotgan munosabat, muallimga

qo‘l ko‘tarish, tan jarohati yetkazish holatlari nafaqat bizni balkim, keng jamoatchilikni ham tashvishga solmoqda.

Bunga misol sifatida 2025 yil 5 fevarl kuni soat 13:00 larda, Shvesiyaning “Erebru” shahridagi maktabda sodir bo‘lgan otishmada **10** kishi halok bo‘lgan va hujum uyushtirgan shaxs o‘z joniga qasd qilgan [5]..

2022 yil 26 sentabr kuni Rossiyaning Ijevsk shahridagi 88-maktabda noma’lum shaxs otishma uyushtirgani oqibatida, 13 kishi halok bo‘lgan bo‘lsa, 20 kishi jabrlangan[6].

Bu kabi ko‘ngilsiz mudhish voqealarni dunyoning barcha mamlakatlaridagi maktablarda sodir bo‘layotgani haqidagi xabarlar tez-tez tarqalayotgani tashvishlanarlidir.

Endi mamlakatimizdagi maktablarda sodir bo‘layotgan jinoiy qilmishlar xatti-harakatlar barchani o‘ylantiradi. Bizda otishma bilan bog‘liq holatlar bo‘lmagan bo‘lsada, ammo millatimiz, ma’naviyatimizga zid harakatlar kuzatilmoqda.

Masalan: 2023 yilning may oyida Toshloq tumanidagi maktabning boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi o‘z o‘quvchisining onasi tomonidan, 2024 yil aprel oyida Farg‘onada maktab o‘qituvchisi o‘quvchining yaqinlari tomonidan, 2025 yil 14 fevral kuni Sirdaryo viloyati Sardoba tumanidagi maktabda o‘qituvchi o‘quvchining onasi tomonidan kaltaklandi[7].

Shuningdek, 2024 yil 6 mart kuni soat 15:40 larda, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Taxtako‘pir tumanida 4-sonli maktabga 45 yoshli S.D. mast holda bolta ko‘tarib, maktabda ishlovchi turmush o‘rtog‘i bilan gaplashib olmoqchi bo‘lib kirgan vaqti Milliy gvardiya Qo‘riqlash xizmati xodimlari tomonidan ushlangan edi[8]. Agarda ushbu erkak Milliy gvardiya xodimlari tomonidan ushlab qolinmaganda, voqea ayanchli yakunlanishi mumkin edi.

Davlatimiz rahbarining topshirig‘iga asosan Toshkent viloyati Qibray tumanidagi maktablarda o‘quvchilarning davomati, u yerdagi sharoit, o‘quvchilarni

bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazish holati ishchi guruh tomonidan o‘rganilganda bir qator o‘z yechimini kutayotan muammolar borligi aniqlandi.

1. Tumandagi 13 ta (30 %) maktablarning hududlari o‘ralmagan bo‘lib, ushbu holat maktab hududiga begona shaxslarni kirishiga va o‘quvchilar tomonidan sovuq qurol hamda taqiqlangan buyumlarni olib kirish, maktab hududini qo‘riqlash, mol-mulkga shikast yetkazish, o‘quv qurol-aslahalarni talon-toroj qilinishiga sharoit yaratadi.

2. Tumandagi 6 ta (13,9%) maktablarda o‘quvchilarni bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish uchun sport zallari, 4 ta (9,3%) maktablarda esa stadion mavjud emas.

3. Tumandagi 17 ta (39%) maktablarda faollar zalining mavjud emasligi, o‘quvchilar bilan ma’naviy va ma’rifiy hamda bayram tadbirlarini samaralari tashkil etish, ota-onalar majlisini o‘tkazish, “O‘zbekiston-2030” strategiyasi talablariga ko‘ra, maktablarni chinakam ma’naviyat va ma’rifat madaniyat o‘chog‘iga aylantirish uchun ta’lim-tarbiyaning interaktiv usullarini joriy etish bo‘yicha imkoniyatlar cheklangan.

4. Tumandagi 9 ta (21%) maktablarning oshxonasi ta’mirtalab bo‘lsa, 13 tasida (37,2%) oshxona mavjud emas. Bu holat, o‘quvchilar ovqatlanish maqsadida maktab hududidan boshqa hududlarga chiqib ketishi, darslarga kelmasligi, nazoratsiz bo‘lganligi uchun tamaki mahsulotlari iste’mol qilishiga shart-sharoit yaratmoqda.

Bu birgina tuman misolidagi muammodir, agarda viloyat va respublika miqyosida olinadigan bo‘lsa, mavjud muammolarni salmog‘i yanada ortishi barchamizga ayondir.

Yuqorida qayd etib o‘tilgan holatlar bo‘yicha misollarni ko‘plab keltirish mumkin. Bu kabi holatlar maktablarimizda xavfsizlikni kuchaytirishni, kirish-chiqishni nazoratga olishni talab etadi. Zero farzandlarimiz xavfsiz maktabda ta’lim va tarbiya olishlari, o‘qituvchilar esa emin erkin faoliyat yuritishlari lozimdir.

Bu borada mamlakatimizda maktablarda xavfsiz muhitni yaratish borasida ijobiy ishlar ham amalga oshirilayotganligini ta’kidlab o‘tish joizdir, masalan har bir

maktab hududiga kuzatuv kameralari o‘rnatilib, qoravullar bilan Milliy gvardiya qo‘riqlash xizmati xodimlari muntazam ravishda navbatchilikni hushyor holda olib borish, begona shaxslarni maktab hududiga kiritmaslik, zarur hollarda zudlik bilan xabar berish haqida profilaktik tushuntirish ishlari olib borilmoqda.

Yana bir ijobiy tajribalardan biri, respublikamizdagi barcha maktablarga Milliy gvardiya Qo‘riqlash xizmatining **“Tashvish tugma”** lari o‘rnatilganligi, maktabda biror xavf-xatar yuzaga kelgan taqdirda birgina tugmani bosilishi bilan 3-5 (masofaga qarab) daqiqada Qo‘riqlash xizmati ekipaji chaqiruv bo‘yicha yetib kelishi va xavfni bartaraf etish tizimi joriy etilganligi taqsinga sazovordir.

Ammo yuqorida qayd etilgan muammolarni yechimi sifatida “Xavfsiz ta’lim”ga erishish borasida, quyidagi taklif va tavsiyalar ilgari suriladi.

– umumta’lim muassasalarida pullik xizmatlarni ko‘rsatish, shuningdek homiylik va xayriya mablag‘lari orqali budjetdan tashqari jamg‘armalarni shakllantirish va mablag‘larni (ta’mirlash ishlari, moddiy-texnik bazani yaxshilash, sport maydonchalari qurish, kuzatuv kameralari o‘rnatish) maqsadli sarflash choralarini ko‘rish;

– davlat budjeti (Open Budget) mablag‘lari hisobidan maktab hududini o‘rash, isitish tizimini va oshxonalarni ta’mirlash ishlarini olib borish;

– maktab o‘quvchilari bilan bog‘liq yo‘l transport hodisalarini oldini olish borasida, yo‘l bo‘yida joylashgan maktablar oldiga stansionar svetaforlar o‘rnatish;

– “Mahalla yettiligi” bilan hamkorlikda haftaning har payshanba “**Huquqbuzarliklar profilaktikasi**” kuni aholi, yoshlar, xotin-qizlar bilan (maktab, korxona, muassasa, mehnat jamoalarida) faollar imkoniyatlaridan foydalangan holda, “**O‘z uyingni o‘zing asra**”, “**Men farzand tarbiyasiga befarq emasman**”, **“Mening mahallam-mening fahrim”** shiori ostida, huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasini amalga oshirish.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, o‘sib kelayotgan yosh avlodni ma’naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko‘tarish uchun, maktablarda o‘quvchilarning munosib xavfsiz ta’lim olishiga barcha sharoitlar

yaratilishi “oila-mahalla-maktab-davlat” o‘z majburiyatni sidqidildan bajarishi va kelajak avlod oldidagi mas’uliyat his etishi talab etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYoTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi www.lex.uz

2. Ijtimoiy sohalardagi vazifalar muhokama qilindi.https://president.uz/uz/lists/view/7008 (murojaat sanasi 28.02.2025y)

3. Milliy gvardiya markaziy devoni tahliliy ma’lumoti.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-5712-son farmoni.

5. Shvetsiyadagi-maktbada-otishma-10 kishi-halokbo‘ldi. https://daryo.uz/k/2025/02/05/

6. Rossiyadagi maktabda yuz bergan otishmada 13 kishi halok bo‘ldi-Gazeta.uz https://www.gazeta.uz/uz/2022/09/26/

7. Sirdaryodagi maktabda o‘quvchining onasi o‘qituvchini urdi. https://daryo.uz/k/2025/02/14/

8. Taxtako‘pirda mast erkak qo‘lida bolta bilan maktabga kirishga uringanda to‘xtatib qolinda-O‘zbekiston yangiliklari-Gazeta.uz https://www gazeta.uz/uz/2024/03/06/

YANGI O‘ZBEKISTON “XAVFSIZ TA’LIMI”NI TA’MINLASHDA MIGRASIYA JARAYONLARINING ROLI

Tursunova Sabina Ravshanovna,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
“Jamoat xavfsizligini ta’minlash” kafedrasi dosenti, yu.f.b.f.d. (PhD)

Migratsiya jarayonlari O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga, jumladan, ta’lim sohasiga ham katta ta’sir ko‘rsatmoqda. Globallashuv sharoitida “xavfsiz ta’lim” tushunchasi fuqarolarning migratsiya holatidan qat’i nazar, uzluksiz va sifatli ta’lim olishlari uchun shart-sharoitlar yaratishga alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Respublikamizning demografik dividendlaridan samarali foydalanish davlatimizning dolzarb vazifalaridan biri bo‘lib qolmoqda. O‘zbekistonda har yili **650 mingga** yaqin yoshlar umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarini tamomlamoqda, shundan **160-165 ming nafari** oliy ta’lim muassasalarining bakalavriatiga o‘qishga kirmoqda. O‘zbekiston iqtisodiyotida yiliga o‘rtacha **300 mingdan** ortiq yangi ish o‘rinlari yaratilmoqda, buning natijasida **200 mingga** yaqin yoshlar mustaqil ravishda, jumladan, xorijda ham ish izlay boshlaydi. 2022-yil 1-aprel holatiga ko‘ra, respublikadan tashqarida joylashgan O‘zbekiston mehnat migrantlari soni qariyb **2,4 million** kishini tashkil etadi, ularning **76 foizi** erkaklar va **24 foizi** ayollardir. O‘zbekistonni asosan past malakali va o‘rta maxsus ma’lumotli ishchilar tark etadi. Bugungi kunda migrantlarning asosiy qismi qurilishda – **51,6%**, qishloq xo‘jaligida – **12,3%**, sanoatda – **9,2%**, savdoda – **8,5%** va hokazo sohalarda mehnat qilmoqda.[1]

Mehnat migratsiyasining yuqori darajasi “zexnlilarning ketishi”ga va mamlakat ichida malakali kadrlarning qisqarishiga olib keladi, bu esa ta’lim tizimiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bundan tashqari, migrantlarning farzandlari ko‘pincha o‘z mamlakatida ham, qabul qiluvchi mamlakatlarda ham sifatli ta’lim olishda qiyinchiliklarga duch kelishadi.

[1] Rivojlanish strategiyasi ma’lumotlari https://strategy.uz/

Zamonaviy yoshlar migratsiyasining yo‘nalishlaridan biri intellektual migratsiya deb hisoblanishi mumkin, bu **“zexnlilarning ketishi”** deb ham ataladi. Intellektual migratsiya atamasi malakali ishchilar va olimlarning o‘z mamlakatidan tashqarida ishlash uchun ommaviy ravishda chiqib ketish jarayonini bildiradi. Intellektual migratsiyaning kengroq ma’nosi xorijda ta’lim olayotgan va u yerda uzoq vaqt qolish istagida bo‘lgan ilmiy-texnik mutaxassislar, ijodkor ziyolilar va talabalarning transchegaraviy harakatidir. Shunday qilib, intellektual migratsiya nafaqat ish topish, balki ta’lim olish maqsadidagi migratsiyani ham o‘z ichiga oladi. Ma’lumotlarga ko‘ra, Markaziy Osiyo mintaqalarida Brain Drain indeksi (maksimal ball 10): Qozog‘iston – 4,3, Turkmaniston – 4,4, O’zbekiston – 5,1, Tojikiston – 5,5, Qirg‘iziston – 6,7[1] ballni tashkil etadi.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston migratsiya siyosatini faol isloh qilib, gumanitar jihatlarga alohida e’tibor qaratmoqda. Ushbu jarayonda uchta asosiy yo‘nalishni o‘z ichiga olgan noyob mexanizm ishlab chiqilgan: birinchidan, fuqarolarni jo‘nab ketishdan oldin o‘qitish: xorijiy mehnat bozorlarida raqobatbardoshlikni oshirish maqsadida til va kasbiy ko‘nikmalarni o‘rgatish, ikkinchidan, chet elda migrantlar huquqlarini himoya qilish, moddiy va ma’naviy yordam ko‘rsatish, shuningdek, huquqiy himoyani ta’minlash uchun xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilish, uchinchidan, qaytgandan keyin ijtimoiy reintegratsiya qilish, bandlikni ta’minlash, moslashish va uzluksiz ta’lim olish uchun qulay sharoitlar yaratish.

Bundan tashqari, O‘zbekistonda raqamli ta’lim faol rivojlanmoqda, bu fuqarolarga mamlakatdan chiqmasdan masofadan turib bilim olish imkonini beradi. Ushbu tashabbuslar yoshlarning chetga ketishini kamaytirishga va ularning malakasini oshirishga yordam beradi.

Migratsiya jarayonlari ta’lim tizimiga, ayniqsa “xavfsiz ta’lim” ta’minlanishi sharoitida o‘zining til bilmaslik, migrantlar turli bilim darajalariga ega bo‘lishi, madaniyat, an’analar va ta’lim darajasidagi farqlar, ta’lim va tarbiya yondashuvlaridagi farqlar bilan sezilarli salbiy ta’sirini ko‘rsatadi. Shu bilan birga

[1] I.Kuchiyev. “Yangi O‘zbekiston” migratsiya muammolarini hal qilish yo‘lida. Ikkinchi qism. https://nuz.uz/2024/02/21/novyj-uzbekistan-na-puti-resheniya-migraczionnyh-problem-chast-vtoraya/#utm_source=chatgpt.com

migrasiya jarayonlari “xavfsiz ta’lim”ni ta’minlashda o‘zining ijobiy jihatlariga ham ega. Madaniyatlararo almashinuv va o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytirishga hissa qo‘shadi, mutaxassislar yetishmovchiligini kamaytiradi, davlatlararo hamkorlikni mustahkamlashga yordam beradi.

Xorijiy mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, ta’lim sharoitida migratsiyani muvaffaqiyatli boshqarish kompleks yondashuvlarni talab qiladi:

Germaniya migrantlarni, ayniqsa, bolalar va yoshlarni integratsiya qilish maqsadida ta’lim dasturlarini faol ravishda qo‘llaydi. Ushbu dasturlar quyidagi asosiy chora-tadbirlarni o‘z ichiga oladi: migrantlarning bolalari uchun moslashuv darslari (Willkommensklassen), bu darslar orqali ular oddiy darslarga o‘tishdan oldin nemis tilini va ta’lim tizimining asoslarini o‘rganadilar. Kasbiy ta’lim dasturlari (Berufsausbildung) migrantlarga ish bilan o‘qishni uyg‘unlashtirish va talab qilinadigan kasblarni egallash imkonini beradi. Migrantlarning ta’lim olishlariga yordam beradigan masofaviy ta’lim va onlayn kurslar mavjud[1].

Ushbu chora-tadbirlar migrantlarning jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyasini ta’minlashga yordam beradi.

Kanada o‘zining samarali xilma-xillik siyosati bilan mashhur, jumladan: Ingliz va fransuz tillarini o‘qitish bo‘yicha davlat dasturlari (Kanadaga yangi kelganlar uchun til yo‘riqnomasi - LINC), migrant talabalarga moddiy yordam, jumladan, turli grantlar va stipendiyalar ajratiladi, migrantlarning mehnat bozoriga tezroq integratsiyalashuviga yordam beruvchi xorijiy diplomlarni tan olish dasturlari[2] ham mavjud.

Janubiy Koreya migrantlarni o‘qitishda raqamli texnologiyalarni faol qo‘llamoqda, Koreys tilini va kasbiy tayyorgarlikni o‘rganish uchun bepul kurslar taqdim etadigan masofaviy ta’lim platformalari yaratilgan, unda tilni o‘rganish va madaniy moslashishga yordam beradigan mobil ilovalar mavjud, bepul darslar taklif

[1] https://cyberleninka.ru/article/n/rol-obrazovaniya-v-integratsii-detey-migrantov-opyt-germanii-i-rossii?utm_source=chatgpt.com

[2] https://canada.by/articles/kanada-kak-zemlya-obetovannaya-dlya-migrantov-vozmozhnosti-vyzovy-i-perspektivy?utm_source=chatgpt.com

qiluvchi migrant bolalari uchun davlat ta’lim markazlari[1] faoliyati ham yo‘lga qo‘yilgan.

Turkiya, millionlab migrantlarni qabul qilib, ta’lim orqali integratsiya dasturlarini ishlab chiqdi. Ikki tilli ta’lim tizimi, bu migrant bolalariga Turkiya maktablarida turk tilida o‘qish va bir vaqtning o‘zida ona tilida ta’lim olish imkonini beradi. Universitetlarda migrant talabalar uchun grantlar ajratiladi. Ota-onalarni o‘qitish orqali oilalarning jamiyatga integratsiyasini osonlashtirishga yordam beriladi[2].

Ilg‘or xorijiy mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, ta’lim sohasidagi muvaffaqiyatli migratsiya siyosati quyidagilarni o‘z ichiga oladi: moslashuv kurslarini ishlab chiqish va til o‘rgatish, masofaviy ta’limni kengaytirish, migrant talabalar uchun grant yordamlarini ajratish, mutaxassislarning qaytishi uchun sharoit yaratish kabilar.

Ushbu yondashuvlarni qo‘llash O‘zbekistonga nafaqat “xavfsiz ta’lim”ni ta’minlash, balki global migratsiya sharoitida jamiyat va iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi uchun sharoit yaratish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Rivojlanish strategiyasi ma’lumotlari https://strategy.uz/

2. I.Kuchiuev. “Yangi O‘zbekiston” migratsiya muammolarini hal qilish yo‘lida. Ikkinchi qism. https://nuz.uz/2024/02/21/novyj-uzbekistan-na-puti-resheniya-migraczionnyh-problem-chast-vtoraya/#utm_source=chatgpt.com

3. https://cyberleninka.ru/article/n/rol-obrazovaniya-v-integratsii-detey-migrantov-opyt-germanii-i-rossii?utm_source=chatgpt.com

4. https://canada.by/articles/kanada-kak-zemlya-obetovannaya-dlya-migrantov-vozmozhnosti-vyzovy-i-perspektivy?utm_source=chatgpt.com

5. https://canada.by/articles/kanada-kak-zemlya-obetovannaya-dlya-migrantov-vozmozhnosti-vyzovy-i-perspektivy?utm_source=chatgpt.com

[1] https://canada.by/articles/kanada-kak-zemlya-obetovannaya-dlya-migrantov-vozmozhnosti-vyzovy-i-perspektivy?utm_source=chatgpt.com

[2] https://islamnews.ru/2022/1/20/turtsiya-i-es-zapuskayut-obrazovatelnyy-proekt-dlya-siriyskikh-bezhentsev?utm_source=chatgpt.com

https://islamnews.ru/2022/1/20/turtsiya-i-es-zapuskayut-obrazovatelnyy-proekt-dlya-siriyskikh-bezhentsev?utm_source=chatgpt.com

BOSH QOMUSIMIZDA XOTIN-QIZLAR MASALASI

A.K.Paxratdinova
Jamoat xavfsizligi universiteti "Ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish" bo'limi xodimi, Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Maqolada konstitutsiyamizdagi xotin-qizlar huquq va erkinliklari, mamlakatimizda xotin-qizlar uchun yaratilgan imkoniyatlar haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: konstitutsiya, qonun hujjatlari, islohatlar, xotin-qizlar masalasi, qonun ustuvorligi.

Konstitutsiya – jamiyatimizning huquqiy asosini kafolatlaydi. Bosh qomusimiz davlatimizda inson huquq va erkinliklarini ta'minlashga xizmat qiladi. Yangi Konstitutsiyamizda jamiyatimizning rivojiga hissa qo'shadigan barcha sohalarga alohida e'tibor qaratilgan.

Jumladan, Konstitutsiyamizda xotin-qizlarning haq-huquqlari aks etganligi so'zimizga misol bo'ladi. Azaldan go'zal diyorimizda munis onaxonlarimiz, latofatli opa-singillarimizga hurmat alohida bo'lib kelgan va ular sharqona milliylik ruhida o'sib ulg'aygan. Konstitutsiyamizda xotin-qizlarimizning erkin kasb tanlashi, gender tengligini ta'minlash, o'z iqtidorlarini namoyon qilishlari masalalariga alohida to'xtab o'tilgan.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev o'z nutqida: "davlat va jamiyat boshqaruvida ayollarning o'rni va mavqeini yanada mustahkamlash – islohatlarning eng ustuvor yo'nalishlaridan biridir" - deya ta'kidlab, yurtimizda amalga oshirilayotgan islohatlarga alohida to'xtab o'tgan. [1.] Mamlakatimizda xotin-qizlarimiz o'z faolliklarini namoyon qilib, o'qituvchi, shifokor, jurnalist, tarbiyachi, tarjimon, sportchi, fermer, murabbiy, harbiy va rahbar lavozimlarida faoliyat yuritib kelmoqda. Konstitutsiyamizda belgilangan haq-huquqlaridan kelib chiqib, xotin-qizlarimiz vatanimizda va xorijiy davlatlarda o'zlarining bilimi, iqtidori va sport sohasida erishgan yutuqlari bilan yurtimiz bayrog'ini jahon arenalarida hilpiratib kelmoqda.

Go‘zal diyorimizda xotin-qizlar huquqlari har tomonlama kafolatlangan. Misol tariqasida keltirib o‘tsak, yangidan qabul qilingan Konstitutsiyamizning 42-moddasida: “Har kim munosib mehnat qilish, kasb va faoliyat turini erkin tanlash, xavfsizlik va gigiena talablariga javob beradigan qulay mehnat sharoitlarida ishlash, mehnati uchun hech qanday kamsitishlarsiz hamda mehnatga haq to‘lashning belgilangan eng kam miqdoridan kam bo‘lmagan tarzda adolatli haq olish, shuningdek ishsizlikdan qonunda belgilangan tartibda himoyalanish huquqiga ega.

Mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdori insonning munosib turmush darajasini ta’minlash zarurati hisobga olingan holda belgilanadi.

Homiladorligi yoki bolasi borligi sababli ayollarni ishga qabul qilishni rad etish, bo‘shatish va ularning ish haqini kamaytirish taqiqlanadi”[2.11] -deb ko‘rsatilsa, 58-moddada: “Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar. Davlat xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, shuningdek jamiyat va davlat hayotining boshqa sohalarida teng huquq va imkoniyatlarni ta’minlaydi”[2.14] -deb keltiriladi.

Xalqaro huquq normalari hisoblangan BMT xotin-qizlarga nisbatan diskriminatsiyaning barcha shakllarini tugatish to‘g‘risidagi Konventsiyaning 1-moddasida xotin-qizlar diskriminatsiyasi: “Ayollarning oilaviy holati, millati, insonning e’tiqod huquqi, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, fuqaroviy va boshqa har qanday sohadagi huquqlarini tan olmaslikga yoki ularning amalga oshirilishini zaiflashtirishga qaratilgan jins belgilari bo‘yicha har qanday farqlash, cheklanishni istisno etishdir deyilgan.”[3.413] -deyilgan.

Ammo, yurtimizda ayrim xotin-qizlar yaratilayotgan imkoniyatlardan unumli foydalanmasdan, ular tomonidan huquqbuzarlik holatlari amalga oshirilganini ko‘rishimiz mumkin.Soha vakillari amalga oshirilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, xotin-qizlar o‘rtasidagi jinoyatchiliklar soni ma’lum darajada ko‘paygan. Xotin-qizlar tomonidan firibgarlik va o‘g‘irlik jinoyatlarining soni ortgan. Bu chinarli holat, albatta. Bunday ko‘ngilsiz holatlarning oldini olishda, yuz berishi mumkin bo‘lgan baxtsiz hodisalarni bartaraf etishda mahalla, oilalarda tushuntirish ishlari

amalga oshirilishi zarur. Tegishli soha mutaxassislari tomonidan amalga oshirilgan targ‘ibot ishlari o‘zining ijobiy natijasini ko‘rsatadi.

Yo‘qorida ta’kidlaganimizdek, O‘zbekistonda ayollar huquqlarini ta’minlash bo‘yicha islohatlar izchil davom etmoqda. Misol tariqasida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta’minlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari,[4.] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xotin-qizlarni muammolarini o‘rganish va hal etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlariga asoslanib,[5.] “Ayollar daftari” tashkil etilganligini alohida ta’kidlab o‘tishimiz o‘rinli.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz joyizki, konstitutsiyamizda xotin-qizlar huquqlarining aks ettirilishi yurtimizda inson huquqlarining har tomonlama kafolatlanganidan darak beradi. Bosh qomusimiz fuqarolarimizning farovon hayot kechirishini ta’minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga murojaatnomasi // Xalq so‘zi, 2020-yil 30-dekabr
2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi., T., O‘zbekiston-2023-yil., betlar-11-14.
3. Узбекистан и международные договори по правам человека. –Т,: “Адолат”, 1998. – С.413.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-mart kunidagi “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta’minlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori., www.lex.uz
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 31-mart kungi 145-son Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta’minlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori., www.lex.uz
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining harbiy xizmatni o‘tash tartibi to‘g‘risidagi nizomini tasdiqlash haqida”., Toshkent-2019-yil 12-sentabr PQ-4447-son; www.lex.uz

“XAVFSIZ TA’LIM” JAMOAT XAVFSIZLIGINI MUSTAHKAMLASH OMILI SIFATIDA

Shagilov Pulatbek Koptleuovich
O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Qoraqalpog‘iston Respublikasi mintaqaviy o‘quvmarkazi “Huquqiy fanlar” sikli boshlig‘i

Bugungi kunda ta’lim nafaqat davlatning intellektual va iqtisodiy rivojlanishining asosi, balki jamoat xavfsizligini ta’minlashning asosiy omili sifatida ham ishlaydi. Ta’lim jarayonida xavfsizlikni ta’minlash davlat siyosatining ustuvor vazifasidir. Keng ko‘lamli islohotlar faol amalga oshirilayotgan yangi O‘zbekistonda yoshlar o‘rtasida huquqiy ongni shakllantirish va huquqbuzarliklarning oldini olishga yordam beradigan xavfsiz ta’lim muhitini yaratishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Ta’lim muassasalari nafaqat bilim berishi, balki talabalar o‘rtasida jinoyatchilik, ekstremizm va deviant xatti-harakatlarning oldini olish, ijtimoiy himoya funksiyasini ham bajarishi kerak. Ta’lim tizimida xavfsizlikni ta’minlashning huquqiy va tashkiliy jihatlari, shuningdek, ularning mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida jamoat xavfsizligini mustahkamlashga ta’siri juda yuqori.

“Xavfsiz ta’lim” va *“Jamoat xavfsizligi”* tushunchalari bir-biri bilan chambarchas bog‘liq, chunki ta’lim muhiti xavfsizligi umumiy jamoat xavfsizligi tizimining ajralmas qismidir.

“Xavfsiz ta’lim” – bu o‘quvchilar, o‘qituvchilar va ta’lim muassasalarini ichki va tashqi tahdidlardan (jismoniy, psixologik, kiber tahdidlar va boshqalar) himoya qilishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimi hisoblansa, “Jamoat xavfsizligi” kengroq tushuncha bo‘lib, fuqarolar va jamiyatni jinoiy, terroristik, ijtimoiy va texnogen tahdidlardan himoya qilishni o‘z ichiga oladi.

Ta’lim muassasalarida xavfsizlik jamoat xavfsizligini mustahkamlashga hissa qo‘shadi, chunki u qonunga itoatkor va mas’uliyatli fuqarolarni tarbiyalash orqali jinoyatchilik hamda ijtimoiy keskinlikni kamaytiradi. Jamoat xavfsizligi bevosita ta’lim muassasalaridagi xavfsizlik darajasiga ta’sir qiladi. Barqaror va xavfsiz

jamiyatda ta’lim olish va shaxsiy rivojlanish uchun qulay sharoitlar yaratiladi. Davlat va jamoat institutlari qonunlar, profilaktik chora-tadbirlar hamda nazorat mexanizmlari orqali nafaqat ta’lim muassasalarida xavfsizlikni ta’minlaydi, balki umumiy jamoat xavfsizligini mustahkamlashda ham muhim rol o‘ynaydi.

“Xavfsiz ta’lim” muhitini ta’minlash bilan bog‘liq, talabalar, o‘quvchilar, o‘qituvchilar va ta’lim muassasalarining huquqlarini himoya qilishga qaratilgan bir qator qonun va me’yoriy hujjatlar mavjud: O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 50-moddasida “Har kim ta’lim olish huquqiga ega” ekanligi, shuningdek “Maktabgacha ta’lim va tarbiya, umumiy o‘rta ta’lim davlat nazoratida”[1] ekanligini kafolatlaydi.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunining 4-moddasida[2] xavfsiz ta’lim jarayonini tashkil etishga ko‘maklashuvchi bir qator asosiy prinsiplar belgilab berilgan. Masalan, ta’lim sohasida kamsitishlarga yo‘l qo‘yilmasligi, ta’lim va tarbiyaning insonparvarlik, demokratik xususiyati.

O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi 197[1]-moddasida Ta’lim tashkiloti pedagog xodimining kasbiy faoliyatiga qonunga xilof ravishda aralashish yoki o‘z xizmat vazifalarini bajarishiga to‘sqinlik qilganlik uchun javobgarlik belgilangan[3].

Ta’lim muassasalarining xavfsizligi ijtimoiy barqarorlikning muhim jihati hisoblanadi, chunki maktablar va universitetlar nafaqat o‘quv markazlari, balki yosh avlodning huquqiy ongi va ijtimoiy qadriyatlari shakllanadigan joylardir. Ta’lim muhitidagi xavfsizlik darajasiga turli omillar ta’sir qiladi: talabalarning huquqiy savodxonligi darajasi, huquqni muhofaza qilish organlarining samaradorligi, raqamli himoya holati, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar.

Eng keng tarqalgan muammolardan biri bu jismoniy, psixologik, ijtimoiy yoki kiber ta’qib shaklida bo‘lishi mumkin bo‘lgan bezorilikdir. YUNISEF tadqiqotlariga ko‘ra, dunyodagi maktab o‘quvchilarining 60%ga yaqini kamida bir marta

[1] O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi 2023-yil 30-aprel https://lex.uz/docs/6445145#6445551
[2] O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni https://lex.uz/docs/5013007#5013028
[3] O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi https://lex.uz/docs/97664#200613

bezorilikka uchragan[1], Markaziy Osiyo mamlakatlarida esa bu ko‘rsatkich 70% ga yetgan va har beshinchi o‘quvchidan biri tengdoshlarining zo‘ravonligini boshdan kechirmoqda, bu esa akademik ko‘rsatkichlarning pasayishiga, ruhiy tushkunlikka va hatto o‘z joniga qasd qilishga urinishlarga olib kelishi mumkin[2]

Ushbu hodisaga qarshi kurashish maqsadida mamlakatda bezorilikka qarshi dasturlar, o‘quvchilarga psixologik yordam ko‘rsatish va intizomni buzgan shaxslar uchun ma’muriy javobgarlik choralari jadal amalga oshirilmoqda.

Axborot texnologiyalarining rivojlanishi onlayn muhitda jinoyatlar sonining ortishiga olib kelmoqda. Asosiy tahdidlarga quyidagilar kiradi:

- *buzg‘unchi kontentlarni tarqatish* (zo‘ravonlik, ekstremizm va giyohvand moddalarni targ‘ib qilish);

- *onlayn firibgarlik* (shaxslarni aldab moliyaviy manfaatlarga erishish);

- *kiberhujum* (ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlar va onlayn o‘yinlar orqali kamsitish va ta’qib qilish).

Bu tahdidlar jamiyat xavfsizligi uchun katta xatar tug‘dirmoqda, shuning uchun ularga qarshi kurashish uchun samarali choralarni amalga oshirish zarur.

O‘zbekiston axborot va ommaviy kommunikasiyalar agentligi ma’lumotlariga ko‘ra, 2020-yilda axborot texnologiyalari sohasida 106 ta, 2021 yilda 2281 ta, 2022-yilda esa 4332 ta jinoyat aniqlangan. Shundan 2747 tasi kiber o‘g‘irlik, 625 tasi kiberfiribgarlik, 874 tasi AKTdan foydalangan holda sodir etilgan giyohvandlik bilan bog‘liq jinoyatlardir[3]. Shu munosabat bilan hukumat maktablarda raqamli xavfsizlikni mustahkamlash uchun choralar ko‘rmoqda. Bu choralar orasida internetdagi zararli kontentni filtrlash tizimlarini joriy etish, kiber tahdidlar haqida huquqiy ta’lim berish va o‘quvchilarning shubhali onlayn faoliyatini kuzatish kabi tadbirlar mavjud.

Xavfli tahdidlardan yana biri bu yoshlarning radikallashuvi va ularning jinoiy faoliyatga jalb etilishi. Prezident huzuridagi Statistika agentligi hisobotiga ko‘ra 2023-yilda O‘zbekistonda jinoyat sodir etgan 3599 nafar (13-17 yoshli) voyaga

[1] UNICEF Global Report on Bullying, 2021 https://www.unicef.org/belarus/en/violence-against-children
[2] https://www.gazeta.uz/ru/2024/02/27/protecting-children-from-violence/
[3] https://www.gazeta.uz/ru/2023/02/22/cybercrime/

yetmaganlar ro‘yxatga olingan. Ularning 1602 nafari o‘g‘irlik (bir yil avval – 1581 nafar), 453 nafari – bezorilik (284 nafar, o‘sish 60 foiz), 135 nafar – firibgarlik (134 nafar), 181 nafar – talon-taroj qilish (162, +11 foiz), og‘ir (162, +11 foiz) 4 - zo‘rlash va zo‘rlashga urinish (46, +20%), 27 - tovlamachilik (16, +70%) 12 - qasddan qotillik va suiqasd (10, +20%) sodir etishgan. Shuningdek, 57 nafar voyaga yetmaganlar giyohvandlik vositalarini ishlab chiqarish yoki sotish, 121 nafari o‘limga olib kelmaydigan yo‘l-transport hodisalarini, 4 nafari qalbaki pul yoki qimmatli qog‘ozlarni tayyorlash yoki sotish kabi jinoyatlarni sodir etgan.

Ular tomonidan sodir etilgan jinoyatlarning sabab va sharoitlari o‘rganilganda asosan huquqiy ong va bilimning yetishmasligi yoki past ijtimoiy-iqtisodiy qiyinchiliklar va internetdagi kontentlarning ta’siri bilan baholangan.

Shu sababdan ham Prezident Shavkat Mirziyoyev “bolalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash orqali ularda “**jinoyatga qarshi immunitet**”ni shakllantirish tizimini yaratish zarurligi”[1] yuzasidan bir qator vazifalarni belgilaganlar.

O‘zbekistonda ta’lim muhitida jamoat xavfsizligiga tahdidlarni kamaytirish bo‘yicha qator tashabbuslar amalga oshirilmoqda, jumladan: maktab va universitetlarda zamonaviy videokuzatuv tizimlarini o‘rnatish, o‘qituvchilarning malakasini oshirish, zo‘ravonlik va nizolarning oldini olish bo‘yicha o‘qituvchilar uchun ixtisoslashtirilgan kurslar o‘tkazish, ta’lim muassasalari va huquqni muhofaza qilish organlari o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash, bu esa yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan tahdidlarni tezda aniqlash va jinoyatlarning oldini olish imkonini beradi. Shunday qilib, ta’lim muassasalarida jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimli yondashuvni, shu jumladan huquqiy tartibga solish, ta’lim dasturlari, raqamli himoya va jamiyatning faol ishtirokini talab qiladi. Faqatgina kompleks chora-tadbirlar yoshlarning rivojlanishi va mamlakatning barqaror kelajagi uchun xavfsiz va qulay muhit yaratishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi 2023.

[1] https://www.gazeta.uz/ru/2024/02/26/youth-crime/?utm_source=chatgpt.com

2. O‘zbekiston Respublikasining 23.09.2020 yildagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-son Qonuni

3. O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi

4. UNICEF Global Report on Bullying, 2021 https://www.unicef.org/belarus/en/violence-against-children

5. https://www.gazeta.uz/ru/2024/02/27/protecting-children-from-violence/

6. https://www.gazeta.uz/ru/2023/02/22/cybercrime/ https://www.gazeta.uz/ru/2024/02/26/youthcrime/?utm_source=chatgpt.com

JADIDCHILIK HARAKATINI O‘ZBEKISTONNI RIVOJLANISHIGA QO‘SHGAN HISSASI

Islomov Shavkat Musurmon o‘g‘li
O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Jizzax mintaqaviy o‘quv markazi o‘quv bo‘limi, o‘qituvchi-metodist

Jadidilar tomonidan tashkil etilgan yangi usuldagi maktablar, teatr, kutubxona va muzeylar, gazeta va jurnallar, Turkiston farzandlarini chet ellarga o‘qishga yuborish maqsadida tuzilgan xayriya jamiyatlari xalqimizni necha asrlik g‘aflat uyqusidan uyg‘otdi, milliy ozodlik harakati uchun beqiyos kuch beradi.[1]

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

SH. Mirziyoyev

Muhtaram Prezidentimiz tomonidan Vatanimiz ozodligi va xalqimiz baxt-saodati yo‘lida jonini fido qilgan jadid bobolarimizning ilmiy-ma’rifiy, adabiy-badiiy merosi biz uchun beqiyos ahamiyat kasb etishi, bu bebaho boylikni faol targ‘ib etish halqimiz, ayniqsa, yoshlarimizning bugungi tinch va erkin hayot qadrini anglab yetishishda muhim o‘rin egallashi bir necha bor takidlangan.

Xalqimizni mamlakat ravnaqi yo‘lida birlashtirish, qalblarni uyg‘otish, dunyo xaritasida har tomonlama rivoj topgan “Yangi O‘zbekiston” ni barpo etishni ko‘zlagan Uchinchi Renessans g‘oyasining ildizi aslida ma’rifatparvar jadidlar faoliyatiga borib taqaladi.

Ular butun umrlarini milliy uyg‘onish g‘oyasiga bag‘ishlab, o‘lkani jaholat va qoloqlikdan olib chiqish, millatimizni g‘aflat botqog‘idan qutqarish uchun bor kuch va imkoniyatlarini safarbard etdilar.

Buyuk ma’rifatparvar bobolarimiz tomonidan olg‘a surilgan g‘oyaviy-siyosiy, ijtimoiy-ma’rifiy va huquqiy-axloqiy qarashlar, turli millat va elatlar o‘rtasida bag‘rikenglik va hamjihatlik tamoyillarini qaror toptirish bilan birga, milliy

[1]O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2023 yil 11 dekabrda “Jadidlar: milliy o‘zlik, istiqlol va davlatchilik g‘oyalari” mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariga so‘zlagan nutqidan.

manfaatlarni himoya qilishga qaratilgan intilishlar hozirgi murakkab va tahlikali zamonda barchamiz, avvalo, yoshlarimiz uchun chinakam ibrat namunasidir. Ularning hayoti va jasorati bugungi tinch va osoyishta kunlarga osonlik bilan erishilmaganini eslatib, milliy istiqlolimizni, jonajon Vatanimizni ko‘z qorachig‘iday asrashga doimo da’vat etib turadi.

Xalqimiz biz yoshlarga kelajak bunyodkorligi sifatida qarar ekan, bu yo‘lda bizga buyuk tariximiz – murabbiy, ajdodlarimiz ibratli xayoti, faoliyati va ma’naviy merosi – dasturiamaldir.Ko‘pchilik jadidlarni g‘arbparastlikda aybladi. Ular g‘arbparastligini tushunsa bo‘ladi. Bu nafaqat jadidlar falsafasiga, balki tashqi ko‘rinishiga ham ta’sir ko‘rsatgan. Ular hatto yevropaliklarga o‘xshab kiyinib, charmdan tikilgan poyabzal kiyib yurar, so‘ngra mullalar jadidlarni cho‘chqa terisidan tikilgan oyoq kiyim kiyganlikda ayblar, lekin ular bunga parvo qilmas edi. Jadidlar, agar biz G‘arbning madaniy va texnologik yutuqlarini bilmasak, kelajagimiz barbod bo‘ladi, deb hisoblagan.

O‘tmishning madaniy kapitaliga, sayohat qilish, Yevropa, shuningdek, rivojlangan musulmon mamlakatlarining sanoat va madaniyat sohasidagi yutuqlari, turli ziyolilar va har xil ijtimoiy harakatlar vakillari bilan tanishish imkoniyatiga ega bo‘lgan jadidlar Turkiston qanchalik taraqqiyotdan ortda qolib ketganini juda yaxshi anglayotgan edi. Shuning uchun O‘rta Osiyoning musulmon madaniy an’anasini modernizatsiya qilishni yoqlab chiqa boshladi. Ular islohotni islom ta’limotini anglab yetishdan boshladi. Shu sabab Qur’on va hadislardan hamma narsa bilimga tayanishini tasdiqlovchi o‘rinlarni izlashga tushdi. Bilamizki, Qur’on tarixga bag‘ishlangan, butun boshli tarix esa o‘tmishning intellektual tajribasini tushunmay turib, jahon intellektual tajribasini anglab olmay turib, biror narsaga erishib bo‘lmasligidan dalolat beradi. Amerikalik tarixchi Adib Xolid fikricha, O‘rta Osiyo jadidchiligi musulmon modernizmi chorcho‘plari bilan mahalliylashtirilgan edi.

Jadidchilar ritorik tuzilmasi ildizlari O‘rta Osiyoning musulmon an’anasiga borib taqaladi, shuning uchun jadidlar, an’anaga ko‘ra, islom diniga tayangan. Zamonaviylik islom dinining haqiqiy mazmuniga bog‘langan, faqat barcha asrlar davomida paydo bo‘lgan o‘simtalaridan tozalangan islom musulmonlar

farovonligini ta’minlashi mumkin edi. Jadidlarning g‘oyasi shu bo‘lgan. Dunyoga yangicha nazar bilan boqar ekan, islomni tushundi, musulmonlik nima ekanini angladi. Ularning jamiyatni yangilash nazariyasida taraqqiyotda juda oldinlab ketgan Yevropa bilan yaqinlashish, eng yaxshi yutuqlarini o‘zlashtirish haqidagi masala jiddiy o‘rin tutgan. Islomni oqlamasdan buning iloji yo‘q edi. Turkistonning mustamlakadagi holati sabab bo‘lgan inqirozli vaziyatdan chiqish eng avvalo Yevropa tajribasidan foydalangan ko‘yi madaniy islohotlar o‘tkazishda ko‘rilgan.

Ular juda ko‘p kitoblari va maqolalarida musulmon ruhoniylari fikrlari va amallarini tez-tez islom dinini tushunmaslik va Qur’onni yaxshi bilmaslik bilan izohlagan. Ko‘plab asarlarda shunday yo‘l tutilgani ko‘zga tashlanadi. Masalan, Abdurauf Fitratning “Munozara” kitobi va hind sayyohi tilidan yozilgan hikoyalarida shu holatni ko‘rish mumkin. Ikki nafar chet ellik Qur’onning solih nuktadonlari sifatida tasvirlanadi hamda muallif ular nomidan Turkiston va Buxorodagi ta’lim, armiyani boshqarish, ijtimoiy-iqtisodiy hayot holatiga baho beradi. Fikrimcha, Fitrat bir asarida bir yevropalik – fransuzni, ikkinchisida esa O‘rta osiyolik bo‘lmagan hindni behuda tanlamagan va ular nomidan taraqqiyotning ob’ektiv sabablari va unga chorlovchi Qur’on oyatlari haqida bekorga fikr yuritmagan. Menimcha, bu odamlarga, yoshlarga, islom inson qo‘li tegadigan har bir narsa bilim talab qiladigan din ekanini ko‘rsatib berish uchun juda yaxshi usuldir. Jadidlar boshqa, ayniqsa, musulmonlarniki bo‘lmagan madaniyatlar va dinlarga nisbatan yomon ko‘z bilan qaramasligini ko‘rsatishni yana bir karra tasdiqlash uchun tez-tez Yevropa va Osiyo tarixiga murojaat qilib turgan. Uzoq tarixiy taraqqiyot davomida madaniyatlarning meros bo‘lib avloddan-avlodga o‘tishi, ularning o‘zaro aloqadorligi, qadriyatlarining biridan ikkinchisiga o‘tishi va bir-biriga kirib borishi haqidagi nazariya bag‘rikenglik tashviqotining asosiy vositasi bo‘lib xizmat qilgan. Masalan, ba’zi kishilar Sharq, jumladan, O‘rta Osiyo Yevropaga juda ko‘p narsa bergan, deb hisoblagan. Ular IX – XII asrlardagi Renessansni hamda Temur va Temuriylar davridagi ikkinchi Renessansni hisobga olib, Yevropa ilm-fan va tibbiyot rivojlanishi (Ibn Sinoning “Tib qonunlari” asari) sohasida juda ko‘p narsa olgan deb bilgan. Endi esa ular, biz Yevropadan oladigan

vaqtimiz keldi, chunki ushbu Renessans XVI asrda Ma’rifat asridan boshlanib, Yevropaga ko‘chib o‘tgan, deb hisoblaydi. Bu haqda juda ko‘p gapirish mumkin, garchi odamlar turli dinga itoat etib, turli mamlakatlarda istiqomat qilsa-da, turli qabilalar va millatlarga mansub esa-da, bir otaning farzandi va zurriyoti ekaniga shubha yo‘qligiga ishonchi komil bo‘lgan. Boshqacha aytganda, ular – og‘a-ini, modomiki, shunday ekan, bir-biriga mehr ko‘rgizishi va bir-birini yaxshi ko‘rishi shart. Ular asarlarida Yevropa musulmon Renessansi davridagi O‘rta Osiyoning dehqonchiligi, hunarmandchiligi va san’ati, ilm-fani va bilim sohasidagi yutuqlarini o‘zlashtirgani bot-bot tilga olinadi.

Ular endi qayta o‘zlashtirish vaqti kelganini tushunadi. Fitrat mana bunday deb yozgan edi: “Taassufki, agar bir yo‘qotilgan madaniyatimizni, tamaddunimizni qaytarish uchun, hech bo‘lmasa, bir harakat qilmasak, ulamomiz, sen kofir bo‘lding, deb aytadi va bizga xalaqit bera boshlaydi”. Mahmudxo‘ja Behbudiy zamonasidan shunchalik oldinlab ketgan kishi ediki, Bahouddin Naqshband maqbarasiga borganda, uning atrofida shunchalik ko‘p masjid qurilganini ko‘rib, o‘sha vaqt uchun jasorat bo‘lgan bir gapni aytadi: “bir musulmon uchun bunchalik ko‘p masjidlarning keragi yo‘q, unga ibodat qilishi uchun bitta joynamozning o‘zi yetadi. Bunchalik ko‘p masjid qurgandan ko‘ra, unga sarflangan mablaqqa farzandlarimizni chet elga o‘qishga yuborish vaqti kelmadimikan?” Umuman, ular g‘oyalari, islom dinini isloh qilishga intilishi boshqa dinlarga nisbatan bag‘rikenglikni tarbiyalash va G‘arbdan bilim o‘zlashtirishni o‘z ichiga olgan.

O‘rta Osiyoda homiylik harakati yaxshi rivojlangan edi. Tadbirkorlar, boylar va savdogarlar orasida jadidlarga homiylik qilgan kishilar ko‘p bo‘lgan. Masalan, mashhur Azimboevlar urug‘ini olaylik. Bu dongdor urug‘ vakillari hali Rossiya O‘rta Osiyoni bosib olmay turib, Rossiya bilan savdo aloqalari o‘rnatgan, o‘sha yerga qatnab turgan. Albatta, ularga yaxshi, ma’lumotli, rus tilini biladigan mutaxassislar kerak bo‘lgan, shuning uchun ular ushbu maktablar va gazetalarinng ahamiyatini yaxshi tushungan. Masalan, Said Azimboev bunday maktablar ochish uchun maxsus joy ajratgan, pul bergan. Andijon viloyatidan Mirkomilboy ham pul ajratgan. Bunday kishilar juda ko‘p edi. Ular gazetalarga homiylik qilgan, chunki

homiylik mablag‘larisiz gazetalarni chop etishning iloji bo‘lmagan. 1900 yildan boshlab, O‘rta Osiyo uchun nisbatan ko‘p gazetalar paydo bo‘lgan. Masalan, 1906 yilda Obidov muharrirligida “Taraqqiy” gazetasi nashr etilgan, o‘sha yili Munavvarqori rahbarligida “Xurshid”, 1907 – 08 yillarda Abdulla Avloniy muharrirligida “Shuhrat” gazetasi chiqa boshlagan. Bektemirov “Osiyo” gazetasiga rahbarlik qilgan. Biroq tez orada mustamlakachilar hukumati o‘z eksperti Ostroumov bergan ma’lumotga tayanib, ushbu nashrlarni yopadi. Ostroumov maktablar va gazetalarni yopish uchun ko‘p “jonkuyarlik” qilgan. Biroq ma’rifatparvarlikning gazeta va jurnallar chop qilish bilan ifodalangan yangi to‘lqini 1913 yili boshlandi hamda “Samarqand”, “Sadoi Turkiston”, “Sadoi Farg‘ona”, “El bayrog‘i”, “Kengash”, “Turon” va Oyna” singari gazeta va jurnallar dunyo yuzini ko‘rdi. 1917 yilga kelib, Turkiston muxtoriyati o‘rnatilgach, “Hurriyat”, “Najot”, “Buyuk Turkiston” va eng muhimi, Said Azimboevning sharofati bilan “Tujjor” gazetasi paydo bo‘ldi. O‘sha gazeta jadidlar uchun minbar vazifasini o‘tadi, islohot borasidagi g‘oyalarini targ‘ib qilish bilan yanada ko‘proq imkoniyatlar ochib berdi. Umuman olganda, ular soni 15 ta bo‘lib, ulkan mafkuraviy kuchga ega edi. Men 1917 yildan so‘ng matbaa ishlari qanchalik rivojlanganini bilmayman, chunki endi boshqa qonunlar amal qila boshlagan edi. 1918 – 1919 yillarga kelib, Sovet hokimiyati bilan hamkorlik qilishga rozi bo‘lgan jadidlar faoliyat ko‘rsatgan qaysidir gazetalar boshqa nomlar bilan chiqib turgan. Lekin oradan ko‘p o‘tmay hammasi yopilib ketdi.

1917 yilda Turkistonda 100 ta jadidlar maktabi bo‘lgan va albatta, ulardagi o‘qitish mullalar va musulmon ruhoniylari qarshiligiga uchrab turgan. Avvalboshdanoq bu maktablar Yevropa maktablariga yaqin va ta’limni rivojlantirishga yordam beradi, deb qaralgan, lekin tez orada bunday yangi maktablar omma ongiga yangiliklar olib kirayotgani va yoshlarning savollari ko‘payib ketayotgani, jumladan, milliy ong uyg‘onayotgani fahmlangan. Va navbati bilan yopila boshlagan. Bunday maktablar juda ko‘p narsa berayotgan edi. Albatta, aholi asta-sekin ota/ona savod chiqarish uchun farzandini 40 kun o‘qitishi kerakligini tushuna boshladi, oddiy maktabda esa bola 10 yil o‘tiradi, madrasada esa

10 – 15 yil o‘qiydi va faqat Qur’onni yod oladi. Yana maktabda xivich bilan savalash tizimi mavjud edi. Albatta, ular ayni maktablarni ustuvor ahamiyat berishi zarur bo‘lgan muassasa deb tushungan, lekin aytib qo‘yishim joizki, jadidlar harakatini keng miqyosli bo‘lgan deyish xatodan boshqa narsa emas, chunki aholining aksariyat qismi musulmon ruhoniylari ta’sirida bo‘lgan, jadidlar maktablarida tafakkuri rivojlangan va bu maktablarning istiqbolini tushungan kishilar farzandlari ta’lim olgan. Jadidlar maktablarini Yevropa maktablariga bevosita o‘xshash bo‘lgan, deyish qiyin, lekin ularda o‘sha maktablarning dastlabki namunalari (proobraz) bor edi. Birinchidan, ular partalar bilan jihozlangan, bu maktablardagi bolalar musulmon maktablaridagi singari yerda o‘tirmagan va o‘qituvchilar ularning boshi ustida kaltak o‘ynatib turmagan. Jadidlar maktablarida kitoblar, keyinchalik esa xaritalar bo‘lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 24 maydagi “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2995 – sonli Qarori.

2. Каримов И.А. Юксак ма'навият – энгилмас куч. –Т.: Ма'навият, 2008.

3. Каримов И.А. “Тарихий хотира ва инсон омили-буюк келажагимизнинг гаровидир”.- Т. : “О'збекистон”, 2012.

4. Qosimov B. Milliy uyg‘onish: jasorat, ma’rifat, fidoyilik. — Toshkent: Ma’naviyat, 2002. — B. 128.

5. Po‘latjon Domla Qayyumov. Tazkirayi Qayyumiy. 3-jild. — Toshkent: O‘zRFA Qo‘lyozmalar instituti tahririy nashriyot bo‘limi, 1999. — B. 582.

YANGI O‘ZBEKISTONDA TA’LIM SOHASIDA PEDAGOGLAR UCHUN XAVFSIZLIKNI TA’MINLASH

Mamatkulov Qaxramon Choriyevich

O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Toshkent mintaqaviy o‘quv markazi “Kasbiy tayyorgarlik” sikli katta o‘qituvchisi

Anotatsiya: Ushbu maqolada o‘qituvchilarning ish sharoitlari, psixologik xavfsizlik, ijtimoiy xavfsizlik, xavfsizlikni ta’minlash uchun strategiyalar, ta’lim sohasida xavfsizlikning asosiy maqsadlari, o‘qituvchilarga jismoniy tahdidlar, o‘qituvchilarga xavfsiz ish sharoitlarini yaratishda qonuniy va ijtimoiy muammolar, o‘qituvchilarga xavfsiz ish sharoitlarini yaratish bo‘yicha yechimlar haqida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Jismoniy sharoitlar, maosh va rag‘batlantirish, professional rivojlanish, stress va charchoq, psixologik yordam, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, sifatli ta’limning kafolati, o‘qituvchilarning xavfsizligini ta’minlash, motivatsiya va qo‘llab-quvvatlash, ta’lim sohasida xavfsizlikning asosiy maqsadlari, o‘qituvchilarga xavfsiz ish sharoitlarini yaratish bo‘yicha qonuniy va ijtimoiy muammolar, o‘qituvchilarga xavfsiz ish sharoitlarini yaratish bo‘yicha yechimlar.

Abstract: This article discusses the working conditions of teachers, psychological safety, social safety, strategies for ensuring safety, the main goals of safety in education, physical threats to teachers, legal and social problems in creating safe working conditions for teachers, solutions for creating safe working conditions for teachers.

Keywords: Physical conditions, salary and incentives, professional development, stress and fatigue, psychological support, social support, guarantee of quality education, ensuring teacher safety, motivation and support, the main goals of safety in education, legal and social problems in creating safe working conditions for teachers, solutions for creating safe working conditions for teachers.

Yangi O‘zbekistonda ta’lim tizimida o‘qituvchilarning xavfsizligini ta’minlash juda muhim masala hisoblanadi. O‘qituvchilar ta’lim jarayonining asosiy faol ishtirokchilari bo‘lib, ularning ish sharoitlari, psixologik va ijtimoiy xavfsizligi ta’lim sifatiga bevosita ta’sir qiladi. Quyida o‘qituvchilarning ish sharoitlari, psixologik xavfsizlik, ijtimoiy xavfsizlik, xavfsizlikni ta’minlash uchun strategiyalar haqida fikr yuritamiz.

O‘qituvchilarning ish sharoitlari ta’lim tizimining sifatini belgilovchi muhim omil bo‘lib, bu erda quyidagi masalalarga alohida e’tibor qaratilishi kerak:

- **Jismoniy sharoitlar**: O‘qituvchilar uchun qulay va xavfsiz ish joylarini yaratish zarur. Sinf xonalarning holati, texnik vositalar, o‘quv resurslari va boshqa infrastruktura o‘qituvchining samarali ishlashiga ta’sir qiladi.
- **Maosh va rag‘batlantirish**: O‘qituvchilarning moddiy va ma’naviy taqdirlanishi ta’lim tizimining samaradorligini oshirishga yordam beradi. O‘qituvchilarga yuqori maoshlar, mukofotlar va boshqa rag‘batlar taqdim etish, ularning motivatsiyasini oshirishga yordam beradi.
- **Professional rivojlanish**: O‘qituvchilarning malakasini oshirish, yangi pedagogik usullarni o‘rganish va zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash uchun imkoniyatlar yaratish ham muhim.

O‘qituvchilarning psixologik xavfsizligi ham muhim jihatdir. Ularning ish joyidagi ruhiy holati ta’lim jarayoniga ta’sir qiladi.

- **Stress va charchoq**: O‘qituvchilar ko‘pincha yuqori ish yuklamasi, talablar va o‘quvchilarning xatti-harakatlaridan ta’sirlanadi. Ularning stress darajasini kamaytirish va ish vaqti boshqaruvi bo‘yicha yordam ko‘rsatish zarur.
- **Psixologik yordam**: O‘qituvchilarga ruhiy yordam, maslahatlar va psixologik qo‘llab-quvvatlash xizmatlari taqdim etilishi lozim. Bu ayniqsa uzoq muddatli o‘qitish faoliyatini olib borayotgan pedagoglar uchun muhimdir.
- **Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash**: O‘qituvchilarning ishida o‘zaro yordam va qo‘llab-quvvatlash tizimini rivojlantirish zarur. Bunda jamiyatdagi o‘qituvchilar o‘rtasida hamkorlik va rahbarlarning o‘qituvchilarga hurmat bilan qarashlari muhim.

Ijtimoiy xavfsizlik ham o‘qituvchilarning xavfsizligini ta’minlashda muhim omil hisoblanadi:

- **Jamoaviy mehnat muhitini yaratish**: O‘qituvchilar bir-biriga yordam berib, tajriba almashishlari, darslarni muvaffaqiyatli o‘tkazishlari uchun jamoaviy ishni rivojlantirish zarur.
- **O‘qituvchilarning huquqlari**: O‘qituvchilarning huquqlarini himoya qilish, ularning malakasiga qarab yuqori darajadagi kasbiy qadriyatlarini hurmat qilish, ta’lim sohasida ularga yuksak ijtimoiy ahamiyat berish lozim.
- **Ijtimoiy barqarorlik**: O‘qituvchilarning jamoada va jamiyatda o‘rni mustahkamlanishi, ularning ijtimoiy rollari tan olinishi zarur.

O‘qituvchilarning xavfsizligini ta’minlash uchun bir nechta strategiyalarni amalga oshirish kerak:

- **Qonunchilik va normativ hujjatlar**: O‘qituvchilarning xavfsizligini ta’minlash uchun o‘qituvchilarni himoya qiluvchi qonunchilikni kuchaytirish zarur. Bu qonunlar o‘qituvchilarning huquq va majburiyatlarini aniq belgilaydi.
- **O‘qituvchilarni rivojlantirish dasturlari**: O‘qituvchilarning malakasini oshirish, pedagogik faoliyatda yangi yondashuvlarni o‘rganish va psixologik qo‘llab-quvvatlash dasturlarini rivojlantirish.
- **O‘qituvchilarga xavfsiz ish muhitini yaratish**: Ta’lim muassasalarida xavfsizlikni ta’minlash, o‘qituvchilar va o‘quvchilar uchun sharoit yaratish.

Pedagoglarning xavfsizligini ta’minlash, ta’lim tizimining samarali ishlashini va o‘qituvchilarning kasbiy faolligini oshirishda katta ahamiyatga ega. Bu nafaqat o‘qituvchilarning o‘zlarini xavfsiz his qilishlari, balki o‘quvchilarning sifatli ta’lim olishiga ham ijobiy ta’sir qiladi. Xavfsizlik masalalari faqat jismoniy himoyani o‘z ichiga olmaydi, balki psixologik va yuridik jihatlar ham muhim rol o‘ynaydi. Quyida pedagoglarning xavfsizligini ta’minlashning ahamiyati, xavfsizlikni amalga oshirish yo‘llari haqida ma’lumot beraman.

Pedagoglarning xavfsizligi ta’lim tizimi va jamiyat uchun bir nechta jihatdan juda muhimdir:

- **Sifatli ta’limning kafolati**: O‘qituvchilar o‘zlarini xavfsiz va erkin his qilganlarida, ular ta’lim jarayoniga to‘liq diqqat qaratishlari va o‘quvchilarga sifatli ta’lim berishlari mumkin. Yaxshi ish sharoitlari o‘qituvchilarning ishga bo‘lgan motivatsiyasini oshiradi.

- **Psixologik barqarorlik**: Pedagoglarning psixologik xavfsizligi, o‘z navbatida, o‘quvchilar bilan munosabatlarda ijobiy natijalarga olib keladi. Stressiz va xavfsiz muhit pedagoglarga o‘z vazifalarini yaxshiroq bajarishga yordam beradi.

- **Jamiyatda hurmatni oshirish**: Pedagoglarning ijtimoiy xavfsizligini ta’minlash, ularning jamiyatdagi mavqeyini mustahkamlaydi va ularni jamiyatda hurmatga loyiq kasb egalari sifatida qabul qilinishini ta’minlaydi.

- **Mehnat unumdorligi**: O‘qituvchilarning xavfsizligi, ayniqsa, psixologik xavfsizlik, ularning umumiy ish unumdorligini oshiradi. Stress va xavotirlar kamaygan sayin, ular o‘z ishlariga to‘liq e’tibor qaratadilar va o‘quvchilarga yanada sifatli xizmat ko‘rsatadilar.

Pedagoglarning xavfsizligini ta’minlash uchun bir nechta yo‘llar mavjud, ular quyidagi asosiy yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi:

- **Mehnat huquqi**: O‘qituvchilarning mehnat huquqlari, ish sharoitlari va ularning xavfsizligini himoya qilish bo‘yicha qonunchilikni takomillashtirish zarur. O‘qituvchilarning huquq va majburiyatlari aniq belgilanishi, ta’lim muassasalarida xavfsizlikni ta’minlovchi normativ hujjatlar ishlab chiqilishi kerak.

- **Ijtimoiy himoya va sug‘urta**: Pedagoglar uchun ijtimoiy himoya tizimini rivojlantirish zarur. Bu o‘qituvchilarning kasbiy faoliyatida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolarni yengish va ular uchun zarur sug‘urta xizmatlarini taqdim etishni o‘z ichiga oladi.

- **Stressni kamaytirish**: O‘qituvchilarni kasbiy stressdan himoya qilish uchun turli usullarni qo‘llash zarur. Masalan, ish yukini boshqarish, kasbiy rivojlanish imkoniyatlarini yaratish va ish joyida qo‘llab-quvvatlash tizimlarini joriy etish.

- **Psixologik qo‘llab-quvvatlash**: Pedagoglar uchun psixologik maslahat xizmati tashkil qilish, ularga kasbiy qiyinchiliklarga qarshi kurashishda yordam

berishi mumkin. Bu o‘qituvchilarning ruhiy holatini yaxshilaydi va ularning ishga bo‘lgan munosabatini ijobiy tomon o‘zgartiradi.

- **Motivatsiya va qo‘llab-quvvatlash**: Pedagoglarning ishga bo‘lgan motivatsiyasini oshirish uchun ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimini yaratish lozim. Bu tizim o‘qituvchilarning o‘zlarini jamiyatda va o‘z kasblarida qadrlanganini his

Ta’lim sohasida xavfsizlikning tushunchasi, o‘quvchilarning, o‘qituvchilarning va boshqa ta’lim jarayonida ishtirok etuvchilarning jismoniy, psixologik va ijtimoiy xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan kompleks tizimni anglatadi. Bu tushuncha faqat jismoniy xavfsizlik bilan cheklanmaydi, balki shuningdek, ta’lim muassasalarida hamma ishtirokchilar uchun sog‘lom, barqaror va samarali o‘qish muhitini yaratish zarurligini bildiradi.

Ta’lim sohasida xavfsizlikning asosiy maqsadlari:

- Ta’lim jarayonida barcha ishtirokchilarning jismoniy, psixologik va ijtimoiy xavfsizligini ta’minlash**.**

- O‘qituvchilarning kasbiy faoliyatini xavfsiz va samarali tarzda olib borishlarini qo‘llab-quvvatlash**.**

- Ta’lim muassasalarida ijobiy, teng va xavfsiz muhit yaratish**.**

- O‘qituvchilar va o‘quvchilar o‘rtasidagi ijtimoiy va ruhiy munosabatlarni yaxshilash**.**

O‘qituvchilar uchun jismoniy va ruhiy tahdidlar ta’lim tizimida muhim muammo bo‘lib, ularning faoliyatiga bevosita ta’sir qiladi. O‘qituvchilarni himoya qilish va xavfsiz ish sharoitlarini yaratish bo‘yicha bir qator qonuniy va ijtimoiy muammolar mavjud. Bu muammolarni hal qilish ta’lim sifatini yaxshilash va o‘qituvchilarning kasbiy faolligini oshirish uchun zarur.

Jismoniy tahdidlar o‘qituvchilarning xavfsizligini ta’minlashda eng muhim omil bo‘lib, ular ba’zan o‘quvchilardan yoki ota-onalardan kelib chiqishi mumkin:

- **Zo‘ravonlik va jismoniy hujumlar**: O‘qituvchilarga qarshi o‘quvchilar yoki ularning ota-onalari tomonidan zo‘ravonlik ko‘rsatish holatlari mavjud. Bu, asosan, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi kelishmovchiliklardan yoki

o‘qituvchining o‘quvchi tomonidan amalga oshirilgan xatti-harakatlarini to‘g‘ri baholay olmadi degan fikrdan kelib chiqadi.

- **Jismoniy xavfsizlikni ta’minlashdagi muammolar**: Ko‘plab ta’lim muassasalarida xavfsizlikka oid infrastrukturaviy muammolar mavjud. Masalan, ayrim o‘quv muassasalarida xavfsizlik kameralarining yo‘qligi, xavfsizlik xodimlarining etishmasligi, o‘quvchilarning sinf xonalarida olib boradigan noxush xatti-harakatlaridan o‘qituvchilarni himoya qilishning etarli mexanizmlarining bo‘lmasligi.

Ruhiy tahdidlar o‘qituvchilarning psixologik holatiga bevosita ta’sir qiladi, bu esa ta’lim jarayonining samaradorligini kamaytiradi. Bunga quyidagi holatlar kiradi:

- **Psixologik stress va charchoq**: O‘qituvchilar ko‘pincha yuqori ish yuklamasi, mehnat sharoitlari, o‘quvchilarning xatti-harakatlari, o‘quvchilarning ota-onalari bilan munosabatlar va boshqalar sababli psixologik stressga duch keladilar. Bu uzoq muddatda kasbiy charchoqka, ruhiy va jismoniy salomatlikning yomonlashishiga olib kelishi mumkin.

- **Ijtimoiy va kasbiy obro‘ning pasayishi**: O‘qituvchilarning kasbiy qadr-qimmati, ba’zan jamiyat tomonidan e’tiborsiz qoldiriladi. O‘qituvchilarga qo‘llab-quvvatlovchi ijtimoiy muhitar yo‘qligi, ularni ruhiy jihatdan engillashtiruvchi dasturlar yoki mexanizmlar etishmasligi o‘zgarishlarga olib kelishi mumkin.

O‘qituvchilarga xavfsiz ish sharoitlarini yaratish bo‘yicha qonuniy va ijtimoiy muammolar:

- **Mehnat huquqi va himoya qilish**: O‘qituvchilarni himoya qilish uchun aniq qonunlar va normativ hujjatlar zarur. Ko‘plab mamlakatlarda o‘qituvchilarning mehnat huquqlari to‘liq himoya qilinmaydi. O‘qituvchilarga qarshi jismoniy va ruhiy tahdidlar mavjud bo‘lsa ham, ko‘plab joylarda bu holatlar qonuniy nuqtai nazardan etarlicha ko‘rib chiqilmaydi yoki jazolar yumshoq bo‘lishi mumkin.

- **O‘qituvchilarni yuridik himoya qilish tizimi**: O‘qituvchilarning xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha qonunchilikni kuchaytirish zarur. Bunga o‘qituvchilarni zo‘ravonlikdan, psixologik stressdan himoya qilishni ta’minlaydigan

qonunlar va normativ hujjatlar kiradi. Ko‘plab davlatlarda bu sohada hali ham aniq qonunlar va mexanizmlar yo‘q.

- **Mehnat sharoitlarini yaxshilash**: Ta’lim muassasalarida ish sharoitlari (maosh, ish vaqti, o‘qituvchilarga qo‘yiladigan talablar) hali ham ko‘plab muammolarni keltirib chiqaradi. O‘qituvchilar uchun professional rivojlanish imkoniyatlari, ishdagi stressni boshqarish, va o‘qituvchilarga qarshi zo‘ravonlikdan himoya qilishni kuchaytirish kerak.

- **O‘qituvchilarga nisbatan jamiyatdagi munosabat**: Jamiyatda o‘qituvchilarning kasbiy qadriyatlari va obro‘si ba’zan past bo‘lishi mumkin. Bu ijtimoiy muammolar o‘qituvchilarning motivatsiyasiga salbiy ta’sir qiladi va ularning ruhiy holatiga zarar yetkazadi.

- **Ijtimoiy yordam va qo‘llab-quvvatlash tizimi**: O‘qituvchilarni himoya qilish uchun ijtimoiy yordam tizimini rivojlantirish zarur. Bu o‘qituvchilarni stress va charchoqdan himoya qilish, ularning kasbiy faoliyatini qo‘llab-quvvatlash uchun zarur dasturlarni joriy etishni o‘z ichiga oladi.

- **O‘qituvchilarga hurmatni oshirish**: O‘qituvchilarning jamiyatdagi hurmatini oshirish uchun ularning kasbiy yutuqlarini tan olish, o‘qituvchilarning ishiga e’tibor berish va ularga zamonaviy pedagogik yordam va vositalarni taqdim etish muhimdir.

O‘qituvchilarga xavfsiz ish sharoitlarini yaratish bo‘yicha yechimlar:

- **Huquqiy himoya va qo‘llab-quvvatlash**: O‘qituvchilarni himoya qilish uchun qonunchilikni kuchaytirish va ularning mehnat huquqlarini himoya qiluvchi aniq qonunlar ishlab chiqish zarur. O‘qituvchilarga psixologik va yuridik yordam ko‘rsatish tizimlarini joriy etish muhim.

- **Psixologik qo‘llab-quvvatlash**: O‘qituvchilar uchun stressni boshqarish, psixologik yordam va maslahat xizmatlarini taqdim etish. O‘qituvchilarga kasbiy charchoqqa qarshi kurashish va ular bilan ishlashda yordam berish zarur.

- **O‘qituvchilar uchun xavfsiz ish muhitini yaratish**: O‘qituvchilarning jismoniy xavfsizligini ta’minlash uchun maktablarda xavfsizlik tizimlarini kuchaytirish, xavfsizlik xodimlarini jalb etish va sinf xonalarini xavfsiz qilish kerak.

- **O‘qituvchilarni qadrlash va rag‘batlantirish**: O‘qituvchilarning kasbiy qadriyatlarini oshirish, ularning mehnatini tan olish, va o‘qituvchilarga yuqori maoshlar va motivatsiya tizimlarini taqdim etish muhim.

Hukumat va ta’lim muassasalari o‘qituvchilarga nisbatan xavfsizlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Ularning vazifasi nafaqat o‘qituvchilarning jismoniy va ruhiy xavfsizligini ta’minlash, balki ta’lim tizimining samaradorligini oshirishga ham yordam berishdir. Bu jarayonlar turli qonunchilik va tashkil etilgan tizimlar orqali amalga oshiriladi.

Xulosa: O‘qituvchilarni himoya qilish va xavfsiz ish sharoitlarini yaratish hukumat va ta’lim muassasalarining asosiy vazifalaridan biridir. Buning uchun kuchli qonunchilik, samarali xavfsizlik tizimlari, psixologik yordam va yuridik qo‘llab-quvvatlash zarur. Hukumat va ta’lim muassasalari o‘qituvchilarning xavfsizligini ta’minlash orqali nafaqat ularning mehnat sharoitlarini yaxshilaydi, balki ta’lim sifatini ham oshiradi.

O‘qituvchilarning xavfsizligini ta’minlash, ta’lim tizimining samaradorligini oshirish va jamiyat rivojini qo‘llab-quvvatlash uchun muhim ahamiyatga ega. Hukumat va ta’lim muassasalari o‘qituvchilarga nisbatan xavfsizlikni ta’minlashda asosiy rol o‘ynaydi, chunki ular ta’lim jarayonini tartibga soluvchi qonunlarni ishlab chiqish, xavfsizlikni ta’minlash tizimlarini yaratish va psixologik qo‘llab-quvvatlashni taqdim etishda muhim vazifalarni bajaradilar.

O‘qituvchilarni himoya qilish va xavfsiz ish sharoitlarini yaratish faqat ularning o‘zini xavfsiz his qilishi uchun emas, balki ta’lim sohasining umumiy samaradorligini oshirish va jamiyatning kelajagini ta’minlash uchun ham muhimdir. Buning uchun hukumat, ta’lim muassasalari va jamiyat birgalikda o‘qituvchilarga nisbatan xavfsizlikni ta’minlashga qaratilgan barcha chora-tadbirlarni amalga oshirishlari zarur. Bu, o‘z o‘rnida, ta’lim sohasidagi islohotlar va o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. **Abdullaev M.** “O‘qituvchilarni jismoniy xavfsizlikdan himoya qilishning muammolari va yechimlari.” Ta’limdagi Xavfsizlik, 9 (2), 75-84. (2021).

2. **Alimov R.** “Ta’lim tizimida xavfsizlik va o‘qituvchilarni himoya qilish.” Ta’limdagi Islohotlar, 8 (4), 50-55. (2019).

3. **Gonzalez, J.** “Teacher Protection Laws: A Global Overview.” Global Education and Safety Review, 22 (4), 12-25. (2019).

4. **Ismoilov A.** “O‘qituvchilarni kasbiy charchoqdan saqlashning psixologik usullari.” Psixologik Tadqiqotlar, 5 (2), 103-112. (2020).

5. **Mehnat Kodeksi** O‘zbekiston Respublikasining mehnat huquqi asoslari. Toshkent: Adolat. (2021).

6. **Maksudov N.** “Psixologik yordam va o‘qituvchilarni stressdan himoya qilish.” Pedagogik Psixologiya, 10 (3), 72-80. (2022).

7. **Sodiqov E.** “Ta’lim tizimida xavfsizlikni ta’minlashning yuridik va psixologik aspektlari.” O‘zbekiston Ta’lim Jurnali, 12 (1), 12-19. (2018).

8. **Tursunov M.** “O‘qituvchilarning kasbiy obro‘sini oshirish va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash." Ijtimoiy Ta’lim Tadqiqotlari, 6 (7), 123-130. (2022).

9. **Ta’lim va Mehnat Huquqlari.** Ta’lim va Huquq jurnali, 9 (1), 10-15. (2019).

10. **Umarova R.** “O‘qituvchilar uchun psixologik qo‘llab-quvvatlash tizimlari.” O‘qituvchi va Jamiyat, 17 (1), 61-68. (2021).

11. **Xo‘jaev Sh.** “O‘qituvchilarni himoya qilishda qonuniy mexanizmlar: Muammolar va yechimlar.” O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim Vazirligi Ma’lumotnoma, 12 (4), 45-59. (2021).

UMUMTA’LIM MUASSASALARIDA DRONLARDAN FOYDALANISH BO‘YICHA O‘QUVLARNI TASHKIL ETISH BO‘YICHA CHET EL TAJRIBASI

Jo‘rayev Abdurauf Aliyevich
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Ilmiy-amaliy tadqiqotlar markazi yetakchi ilmiy xodimi

Bugungi kunda dunyoda harbiy harakatlarda qo‘llanilayotgan harbiy taktika va strategiyalar maktab yoshidan boshlab fuqarolarni uchuvchisiz uchish apparatlaridan (keyingi o‘rinlarda dron) foydalanishga o‘qitishni talab qilmoqda.

Kelajakda fuqarolik va harbiy sohalarda dron bo‘yicha muhandis va mutaxassislarga bo‘lgan talab keskin o‘sishini inobatga olgan holda, ta’limning boshlang‘ich davrlarida dronlarni o‘rgatish orqali yoshlarni zamonaviy texnologiyalar bilan uzviy bog‘langan holda ongini rivojlantirishga e’tibor qaratilmoqda.

2016 yildan boshlab Koreya Respublikasi maktablarida **dronlarni boshqarishga oid yangi fan** joriy etilib, o‘quvchilarga **Byrobot Drone Fighter** dronlaridan (33 gramm) 7 yoshdan boshlab foydalanishga ruxsat berilgan [1].

E’tibor qaratish lozimki, hozirda maktablarda dronlar bo‘yicha ta’lim berayotgan mamlakatlar soni **50 dan** ortiq bo‘lib, ushbu ko‘rsatkich ortib borayotganligi kuzatilmoqda.

AQSh Mehnat statistikasi byurosi, Federal fuqarolik aviatsiyasi, Milliy ta’lim statistikasi markazi tadqiqotiga ko‘ra, kelgusi **10 yil**da jahonda dron mutaxassisilariga bo‘lgan ehtiyoj **11 foizga** ortishi prognoz qilingan.

Amerikada dronlarni maktab o‘quv dasturlariga integratsiyalash loyihasi Federal fuqarolik aviatsiyasi tomonidan taqdim etilib, **9-12-sinflar** uchun “Technical Studiyes” (Mehnat darsi) faniga kiritilgan [2].

AQShda “Youth Drone Camps” dasturi orqali **8-11 va 12-17 yoshdagi** o‘quvchilar dronni boshqarish, dron poygasi, fotosurat va videografiya, hududlarni belgilash kabi bilimlarga ega bo‘ladi.

Ilmiy eksperimental havo tadqiqotlari (SEAR) dasturi o‘rta maktab o‘quvchilari uchun dronlardan foydalangan holda ilmiy tadqiqotlar olib borishni o‘rgatadi. “**Drones in the Classroom**”, “**Years Drone Program**” (MYdrone) dasturi orqali **7-9-sinf** o‘quvchilari dron texnologiyasi asoslarini va turli sohalarda dronlardan qanday foydalanishni o‘rgatadi.

Dunyodagi harbiy-siyosiy vaziyatning keskinlashuvi, ayniqsa Rossiya va Ukraina konflikti natijasida jangovar harakatlar bo‘layotgan va chegara hududlardagi mamlakatlar o‘z xavfsizligini ta’minlashning strategik echimi sifatida

maktab yoshidan boshlab harbiy tayyorgarlik tizimini rivojlantirishga asosiy e’tiborni qaratmoqda.

Xususan, **Rossiya**ning 2023 yildagi **“Uchuvchisiz aviatsiyaning 2030 yilgacha va istiqboldagi 2035 yilgacha rivojlantirish strategiyasi”** ga muvofiq, maktablarda dronlarni boshqarishni o‘rgatish mantiqiy to‘g‘riligi va zaruratdan kelib chiqib, o‘qitish va professional kadrlarni tayyorlash bo‘yicha uzluksiz ta’lim tizimi joriy etilgan.

Rossiyaning Federal davlat ta’lim standartiga muvofiq **5-9 sinf** o‘quvchilari **“Mehnat (texnologiya)”** fani doirasida **34 soat** dronlardan foydalanish va yig‘ishga o‘qitiladi [3]. **10-11-sinflar** uchun boshlang‘ich harbiy tayyorgarlik bo‘yicha o‘quv dasturiga dronlardan foydalanish asoslarini o‘rgatish kiritilib, bunda **“Vatan xavfsizligi va mudofaasi asoslari”** fani doirasida maktab o‘quvchilariga **56 soat** dronlardan jangovar foydalanish usullari va razvedka ishlari o‘rgatiladi. Shuningdek, ularga dushmanning uchuvchisiz uchish apparatlariga qarshi turish, razvedka ishlarini olib borish va ulardan jang maydonida foydalanish usullari o‘rgatiladi.

Bu borada, ta’lim muassasalarini dronlar bilan ta’minlash, o‘quv parvoz uchun kerakli joylar, ixtisoslashtirilgan sinf xonalari, ta’mirlash stansiyalari va 3D bosib chiqarish uskunalari bilan jihozlangan. **2030** yilga qadar **4 872 ta** maktab va **370 ta** kollejni dronlar bilan jihozlash rejalashtirilgan.

Xususan, 2024 yilning yangi o‘quv mavsumidan boshlab **523 ta** maktab va **30 ta** kollejlarda dronlarni boshqarishni o‘rgatishga ixtisoslashgan to‘garaklar tashkil etilgan [4].

Voronej davlat texnika universiteti negizida “**Yosh UUA operatori**” kurslari, Uxta shahrida “**UUA operatorlari maktabi**” loyihasiga asosan to‘garaklar faoliyati yo‘lga qo‘yilgan yoshlarga yoshlarga ta’lim berib borilmoqda, shuningdek, Moskva davlat universitetida “**Pedagogik kadrlar uchun uchuvchisiz aviatsiya tizimlarini boshqarish asoslari**” bo‘yicha maxsus dastur asosida tayyorlanib ularga bolalar uchun boshlang‘ich, o‘rta, umumiy ta’lim tizim doirasida ta’lim berishning nazariy va amaliy jihatlari o‘rgatiladi.

Xalqaro etakchi tahlil markazlari 2025 yilga kelib jahon dron bozori **43 mlrd** AQSh dollarga etishini va bu esa ushbu sohada mutaxassislarni tayyorlash muhimligini ta’kidlaydi.

Dronlarni o‘qitish bo‘yicha pedagoglarni tayyorlash Rossiya uchun birlamchi ahamiyat kasb etadi, chunki unga qarshi davlatlarda bu borada asosan Yevropa va AQSh mutaxassislarining faol yordami orqali amalga oshirilmoqda.

Shuningdek, dronlarni maktab o‘quvchilariga o‘rgatish va bu sohaga keng jalb etishning yana bir yo‘li sifatida sport tanlanib, Rossiyada dronlar poygasi sporti keng qamrovda o‘tkazilib kelinadi. Sportchilar etkazib berishda “**Rossiya dron poygalari**

federatsiyasi” etakchi bo‘lib yoshlarni keng jalb etilishini ta’minlaydi. Rossiyada “Dron poygasi” sport turi 2023 yilda butunrossiya sport reestriga kiritilgan.

So‘nggi ikki yilda Ukrainadagi konflikt dronlar zamonaviy jang maydonini tubdan o‘zgartirganini ko‘rsatdi. Bu borada Ukraina kichik o‘lchamli dronlarni (FPV) boshqarish, demontaj qilish, yig‘ish bo‘yicha katta tajribaga ega bo‘ldi.

Bunga Ukrainadagi 35 ta o‘quv maktabi va 500 dan ortiq dron ishlab chiqaruvchi kompaniyalar o‘z ta’sirini o‘tkazdi.

Ukrainadagi yana bir eng ilg‘or loyihalardan biri “Xalq droni” loyihasi bo‘lib [5], unda har bir ukrainalik uyida dronlarni yig‘ishi, boshqarishi, sotish uchun shartnomalar tuzishi mumkin.

Shu bilan birga, Ukraina dunyoda yagona “Dron qo‘shin” turi tuzildi. Unda **20 000 nafar** dron operatori xizmat olib boradi, shuningdek, dunyodagi eng yirik **uchuvchisiz aviatsiya flotini** tashkil etdi.

Bu o‘z navbatida, dronlarni boshqarish bo‘yicha mutaxassis kadrlarga bo‘lgan ehtiyojni keltirib chiqaradi.

Shu bois, **2023 yil** sentyabr oyidan boshlab Ukraina maktablarida “**Ukrainani himoya qilish**” fanining yangilangan dasturi asosida dronlarni boshqarish bo‘yicha darslar o‘tilmoqda.

Ushbu darslar jarayonida birinchi tibbiy yordam, minalar xavfsizligi, dronlarni yig‘ish, boshqarish va joylarni belgilash yo‘nalishlarida mashg‘ulotlar olib boriladi.

Ukraina hukumatiga ko‘ra, maktablarda o‘quvchilarni dronlarni yig‘ish va boshqarishga o‘rgatish hamda bu borada qobiliyatini rivojlantirish STEM ta’limi tamoyillariga to‘liq mos keladi. Dronlarni boshqarish bo‘yicha ushbu mashg‘ulotlar o‘quvchilarda matematika, fizika, dasturlash bo‘yicha bilimlarini oshirish, shuningdek, dunyoviy va mantiqiy fikrlashga, ijod qilishga o‘rgatadi. Bu o‘z navbatida dunyoda dronlar mutaxassislariga bo‘lgan talab ortib borishi zamirida Ukrainada dronlar ishlab chiqarishni kengaytirish imkonini beradi.

STEM ta’limi (fan, texnologiya, muhandislik va matematika) – bu bolalarni tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish, ijodkorlik va hamkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishga undash uchun ilmiy, texnik, muhandislik va matematik fanlarni birlashtirishga asoslangan yondashuv bo‘lib, zamonaviy hayotda talab qilinadigan ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan [6]. Ushbu yondashuv bolalarga turli fanlar o‘rtasidagi munosabatlarni yaxshiroq tushunishga va o‘z bilimlarini amalda qo‘llashga imkon beradi.

Dronlarni o‘rganishga bo‘lgan intilish butun dunyoda keng ommalashib borayotganligini inobatga olib dunyoning bir qator etakchi davlatlari o‘zlarining “**Dron maktablari**” xizmatlarini taklif etib, daromad qilish barobarida yoshlarga dronlarni o‘rgatish bilan shug‘ullanib kelmoqda.

Bu borada, yurtimizda “O‘zbekiston–2030” strategiyasida umumiy o‘rta ta’lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish va yoshlarni zamonaviy kasblarga o‘qitish tizimini yaratish borasida bir qator vazifalar belgilab berilgan[7].

O‘zbekistonda umumta’lim maktablarida o‘quvchilarning globallashuv, texnik taraqqiyot, innovatsion ishlanmalarning salbiy va ijobiy jihatlari hamda mamlakatimiz uchun tahdid va xavf xatarlarni inobatga olgan holda ishlab chiqilgan dasturlar orqali o‘qitilishida muammolar mavjudligi kuzatilmoqda. Xususan, hozirda umumta’lim maktablarda dronlarni o‘rgatish bo‘yicha darslar yo‘lga qo‘yilmagan.

Qayd etish lozimki, maktablarda “Texnologiya” fani **5-6**-sinflarda **272 soat**, **7**-sinfda **340 soat**, **8**-sinfda **136 soat**, **9**-sinfda **102 soat** o‘tiladi. “Chaqiriqqa qadar boshlang‘ich tayyorgarlik” fani esa **10-11**-sinflarga yil davomida atiga **34 soat** o‘tiladi [8].

Mamlakatimizda “Chaqiriqqa qadar boshlang‘ich tayyorgarlik” fani o‘qitilayotgan bo‘lsa-da fan va darslar ma’nan eskirgan, zamonaviy hayot, texnik taraqqiyot davri bilan uyg‘unlashmagan.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda dronlardan foydalanishni o‘qitishni tashkil etish zaruriyati mavjud. Zamonaviy texnologiyalarni o‘rganishga bo‘lgan intilish yoshlarda juda kuchli bo‘lib, dronlar zamonaviy texnika sifatida ularni keng jalb etishni talab qiladi. Bu esa, o‘z navbatida maktab o‘quvchilarni zamonaviy texnikalarni o‘zlashtirgan etuk shaxs bo‘lib kamol topishiga va Vatan taraqqiyoti uchun o‘z hissalarini qo‘shishiga zamin yaratadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasida uchuvchisiz uchadigan apparatlardan foydalanishni kengaytirish maqsadida **quyidagilar taklif etiladi:**

1. Maktablardagi “Chaqiriqqa qadar boshlang‘ich tayyorgarlik” fani o‘quv dasturiga uchuvchisiz uchish apparatlaridan foydalanishga oid mavzularni kiritish.

2. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida 2025- yildan boshlab, **5-9-sinflarda** “Texnologiya” fani doirasida, **10-11- sinflarda** esa harbiy mahoratni oshirishga qaratilgan fan doirasida dronlarni o‘qitishni joriy etish.

3. Maktablarni **dronlar bo‘yicha** maxsus sinflar, dronlar, darsliklar va o‘quv-metodik qo‘llanmalar, ko‘rgazmali vositalar bilan ta’minlash.

4.O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa, Ichki ishlar, Favqulodda vaziyatlar vazirliklari, Davlat xavfsizlik xizmati, Milliy gvardiyasi tarkibidagi **“Temurbeklar maktabi”** harbiy-akademik litseylarida ixtisoslashgan “**Dronchilar”** guruhlarni tashkil etish.

Ixtisoslashgan guruhlarning iqtidorli bitiruvchilarini ushbu yo‘nalishidagi oliy ta’lim muassasalariga **suhbat asosida test sinovlarisiz** qabul qilish tizimini yo‘lga qo‘yish.

5. Respublikamizdagi barcha akademik litsey, kollej, kasb-hunar maktabi va texnikumlarida **“Texnik kurslar”**ni joriy etish va shu kurslar doirasida dronlar bo‘yicha darslarni tashkil etish.

6. Har o‘quv yilining yakunida o‘rta ta’lim maktablari, akademik litsey, kollej, kasb-hunar maktabi va texnikum o‘quvchilari o‘rtasida Respublika miqyosida **“Mohir dronchilar”** musobaqasini tashkil etish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. В школах Южной Кореи появилась новая дисциплина– “дроноведение” Об этом сообщает “Рамблер”. Далее: https://news.rambler.ru/other/39773187/?utm.
2. Изучай дрон смолоду. В США разработали план внедрения БАС в школьное обучение. 02 марта 2022. https://aeronext.aero/press_room/news/012087.
3. https://xn--59-bmce4b.xn--p1ai/bpla-v-shkolah.
4. Аргументы и Факты / aif.ru. 21 июл 2023.
5. Виталий Залевский, Орест Пона, “5 канал”. Каждый украинец может собрать FPV-дрон у себя дома – как присоединиться к проекту. https://www.5.ua/ru/obshchestvo/kazhdii-ukraynets-.-321679.html.
6. https://en.wikipedia.org/wiki/Science,_technology,_engineering,_and_mathematics.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi PF- 158- son farmoni. https://lex.uz/uz/docs/-6600413.
8. Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrdagi 802-son “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida” qarori. https://lex.uz/ru/docs/-5179335.

ICHKI ISHLAR ORGANLARINING MIGRATSIYA VA FUQAROLIKNI RASMIYLASHTIRISH FAOLIYATI SOHASIDAGI HUQUQIY NORMALARNI QO‘LLASH AMALIYOTI

Tursunova Sabina Ravshanovna
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
“Jamoat xavfsizligini ta’minlash” kafedrasi dosenti, yu.f.b.f.d. (PhD)

Najmutdinova Mexrangiz Fayoz qizi
Jamoat xavfsizligi universiteti 3-bosqich 423-guruh kursanti

Annotatsiya: Ushbu maqolada, Ichki ishlar organlarining migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish faoliyati sohasidagi huquqiy normalarni qo‘llash amaliyoti, shuningdek bu borada Migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bosh boshqarmasi vakolatlari hamda uning o‘ziga xos xususiyatlari to‘g‘risida munozara yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Bosh boshqarma, vakolat, qonun, huquqiy asos, migratsiya, murojaat, pasport, identifikatsiya, rasmiylashtirish, fuqarolik, huquqiy ong, huquqiy madaniyat.

O‘zbekistonda migratsiya jarayonlari va fuqarolikni rasmiylashtirish masalalarini tartibga solish bir nechta davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi. Ularning vakolatlari O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, prezident farmonlari va hukumat qarorlari asosida belgilanadi.

O‘zbekistonda migratsiya jarayonlari va fuqarolikni tartibga solish bo‘yicha bir nechta davlat organlari o‘ziga xos vakolatlarga ega. Ushbu davlat organlari o‘zaro hamkorlikda ishlaydi hamda migratsiya va fuqarolikni tartibga solish tizimini takomillashtirishda ishtirok etadi.

Ichki ishlar organlari tizimida, xususan migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bo‘linmalari faoliyatini boshqarishni huquqiy ta’minlash, ushbu sohadagi normativ-huquqiy hujjatlarni respublikada amalga oshirlayotgan islohotlarni inobatga olib hamda zamon talablaridan kelib chiqqan holda takomillashtirib borish bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biridir.

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi (IIV) vakolatli tuzilmasi - IIV huzuridagi Migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bosh boshqarmasi hisoblanadi[1].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 10-apreldagi *“Ichki ishlar organlarining faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta’minlashda ularning mas’uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi* ***PF-5005 sonli*** Farmoniga muvofiq ***“Xorijga chiqish, kelish va fuqarolikni rasmiylashtirish boshqarmasi”*** **“Migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bosh boshqarmasi”**ga o‘zgartirildi.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 11-iyuldagi ***“Ichki ishlar organlarining migratsiya jarayonlari va fuqarolikni rasmiylashtirish sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”***gi ***PQ-3126- sonli*** qaroriga asosan Bosh boshqarma shtatlar soni ***87 tadan 69 taga*** qisqartirildi[2].

Bosh boshqarmada 3 boshqarma va 5 ta bo‘lim tashkil etildi:

- Ichki migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish *boshqarmasi;*
- Xorijiy fuqarolarni hisobga olish va viza muddatlarini uzaytirish *boshqarmasi;*
- Elektron axborot tizimlari *boshqarmasi;*
- Axborot-tahlil *bo‘limi;*
- O‘zbekiston Respublikasi fuqarolariga xorijga chiqish hujjatlarini rasmiylashtirish *bo‘limi*;
- “Islom Karimov” nomidagi aeroportda pasport-viza tartibini nazorat qilish *bo‘limi*;
- «Toshkent-Markaziy» temir yo‘l vokzalida pasport-viza tartibini nazorat qilish *bo‘limi*;
- Kotibiyat.

[1] http://lex.uz – O‘zbekiston Resrublikasi qonun hujjatlari bazasi rasmiy sayti
[2] http://www.norma.uz – O‘zbekiston Resrublikasi qonun hujjatlari bazasi sayti

Mazkur qaror asosida boshqaruv apparati shtatlarining soni qisqartirilib, **quyi tizimlar shtatlari soni 1 ming 57 tadan, 1 ming 185 taga** oshirildi. Bundan tashqari islohotlar natijasida **112 ta** serjantlik lavozimlari ***ofitser*ga**, **431 ta** erkin yollangan xodimlar lavozimlari ***safdor*** lavozimiga o‘zgartirildi.

Migratsiya jarayonlari va fuqarolikni tartibga solish uchun mas’ul bo‘lgan davlat organlari bular: O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining Migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bosh boshqarmasi to‘g‘risidagi nizomga muvofiq Ichki ishlar vazirligining Migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bosh boshqarmasi O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi markaziy apparatining pasport tizimi qoidalariga rioya etilishini, O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligini rasmiylashtirishni va migratsiya jarayonlari monitoringini ta’minlovchi tarkibiy bo‘linmasi hisoblanadi.

Ushbu nizomga muvofiq quyidagilar Bosh boshqarmaning asosiy vazifalari hisoblanadi:

- migratsiya, fuqarolikni rasmiylashtirish, pasport tizimi qoidalariga va O‘zbekiston Respublikasida bo‘lish tartibiga rioya etilishini ta’minlash sohasidagi faoliyatni tizimli va kompleks tahlil qilish, shuningdek huquqbuzarliklarning sodir etilish sabablarini va ularga imkon yaratuvchi shart-sharoitlarni aniqlash, o‘rganish va bartaraf etish;
- ichki ishlar organlarining migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bo‘linmalarining zimmalariga yuklatilgan vazifalarning samarali bajarilishini ta’minlash bo‘yicha faoliyatini tashkil etish va muvofiqlashtirish;
- ichki ishlar organlarining migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bo‘linmalari faoliyatini tashkiliy-uslubiy ta’minlash va ularga amaliy yordam ko‘rsatish;
- pasport tizimi qoidalariga va O‘zbekiston Respublikasida bo‘lish tartibiga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha ichki ishlar organlarining boshqa bo‘linmalari, davlat organlari, fuqarolik jamiyati institutlari va aholi bilan hamkorlikni tashkil etish va amalga oshirish;

- migratsiya, fuqarolikni rasmiylashtirish, pasport tizimi qoidalariga va O‘zbekiston Respublikasida bo‘lish tartibiga rioya etilishini ta’minlash sohasidagi qonunchilikni va huquqni qo‘llash amaliyotini yanada takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish va amalga oshirish[1].

Shuningdek vazifalardan tashqari quyidagi funksiyalarni bajarishni ham amalga oshiradi:

a) ***migratsiya, fuqarolikni rasmiylashtirish, pasport tizimi qoidalariga va O‘zbekiston Respublikasida bo‘lish tartibiga rioya etilishini ta’minlash sohasidagi faoliyatni tizimli va kompleks tahlil qilish, shuningdek huquqbuzarliklarning sodir etilish sabablarini va ularga imkon yaratuvchi shart-sharoitlarni aniqlash, o‘rganish va bartaraf etish sohasida:***

- migratsiya, fuqarolikni rasmiylashtirish, pasport tizimi qoidalariga va O‘zbekiston Respublikasida bo‘lish tartibiga rioya etilishini ta’minlash sohasidagi axborotni talab qilib olish, baholash, umumlashtirish va tahlil qilish;
- fuqarolardan va yuridik shaxslarning vakillaridan kelib tushgan murojaatlarni tahlil qilish va ularni hal etish bo‘yicha choralar ko‘rish;
- kelgusi yilda pasportlashtirilishi lozim bo‘lgan fuqarolar sonini, fuqarolikni rasmiylashtirish, pasport tizimi qoidalariga va O‘zbekiston Respublikasida bo‘lish tartibiga rioya etilishini, shuningdek migratsiya borasidagi boshqa masalalarni prognoz qilishni va rejalashtirishni tashkil etish va amalga oshirish;
- O‘zbekiston Respublikasida bo‘lish qoidalarini buzayotgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarni aniqlash bo‘yicha tegishli vazirlik va idoralar bilan birga profilaktik tadbirlar o‘tkazish;
- O‘zbekiston Respublikasi Davlat chegarasidan o‘tishning belgilangan tartibini buzishga moyil shaxslarni aniqlash, shuningdek qaytish guvohnomasi (sertifikati) asosida qaytgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar yo‘qotib qo‘ygan pasporti yoki identifikatsiyalovchi ID-karta

[1] “O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining Migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bosh boshqarmasi to‘g‘risida” nizomi

(yashash guvohnomasi) o‘rniga yangisini olish uchun murojaat etganlarida, ular bilan profilaktika suhbatlarini tashkil etish;

- tergovga kadar tekshiruv, surishtiruv va tergov organlariga O‘zbekiston Respublikasi Davlat chegarasidan o‘tish tartibini buzgan shaxslar haqidagi axborotni o‘z vaqtida taqdim etilishini ta’minlash;
- huquqiy ong va huquqiy madaniyatni oshirish, aholi orasida pasport tizimi sohasidagi qonunchilikning talablarini tushuntirish bo‘yicha tadbirlarni amalga oshirish[1];

b) Ichki ishlar organlarining migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bo‘linmalari zimmasiga yuklatilgan vazifalarning samarali bajarilishini ta’minlash bo‘yicha faoliyatini tashkil etish va muvofiqlashtirish sohasida:

- O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining, chet el fuqarolarining va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning pasport tizimi va fuqarolik masalalari bo‘yicha murojaatlarini ko‘rib chiqish;
- Ichki ishlar organlari migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bo‘linmalarining pasport tizimi qoidalariga rioya etilishini nazorat qilish bo‘yicha ishlarini tashkil etish;
- Qoraqalpog‘iston Respublikasi IIV, Toshkent shahar ichki ishlar bosh boshqarmasi, viloyatlar ichki ishlar boshqarmalari manzil-ma’lumot byurolarining ish faoliyatini muvofiqlashtirish;
- Ichki ishlar organlari migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bo‘linmalarining chegara zonasiga kirish uchun ruxsatnoma va ruxsat berish bo‘yicha ishini tashkil etish;
- nomzodlarni tanlash bo‘yicha idoralararo komissiyaning qarorlariga asosan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolariga xorijda mehnat faoliyatini yuritish uchun ruxsatnomalarni berish bo‘yicha materiallarni ko‘rib chiqish;
- Ichki ishlar organlari migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bo‘linmalari faoliyatida qonunchilik talablariga rioya etilishini rejali tekshirishlarni

[1] “O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining Migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bosh boshqarmasi to‘g‘risida” nizomi

tashkil etish va o‘tkazish, ularning yakunlari bo‘yicha aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan takliflar ishlab chiqish;

- O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining fuqarolikdan chiqish haqidagi, fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning fuqarolikni qabul qilish haqidagi iltimosnomalarini, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligini yo‘qotganlik bo‘yicha materiallarni ko‘rib chiqish va zarur materiallarni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Fuqarolik masalalari bo‘yicha komissiyaga yuborish;
- O‘zbekiston Respublikasida siyosiy boshpana berish bo‘yicha masalalarni ko‘rib chiqish;
- O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining va O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashovchi fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning, shu jumladan 16 yoshga to‘lmagan shaxslarning xorijga vaqtincha va doimiy chiqish hujjatlarini rasmiylashtirish masalalari bo‘yicha murojaatlari ko‘rib chiqilishini ta’minlash, ular bo‘yicha qarorlar qabul qilish;
- O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining, shu jumladan xorijiy mamlakatlarga xizmat safariga chiqishi maxsus kelishishni talab etadigan mansabdor shaxslarning xorijga vaqtincha chiqishi uchun hujjatlar rasmiylashtirish to‘g‘risidagi vazirlik va idoralarning iltimosnomalarini qonun hujjatlarida o‘rnatilgan tartibda ko‘rib chiqish, ular bo‘yicha qarorlar qabul qilish;
- yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan chet el fuqarolarini va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarni taklif etish, qabul qilish (yashash) qoidalariga rioya etilishini nazorat qilish;
- O‘zbekiston Respublikasi fuqarolariga xorijda mehnat faoliyatini yuritish huquqini amalga oshirishida xorijga chiqish hujjatlarini rasmiylashtirib berish orqali ko‘maklashish;
- O‘zbekiston Respublikasida yashovchi shaxslarning chet el fuqarolarining va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning xususiy tartibda O‘zbekiston Respublikasiga kirishi uchun viza berishga ruxsat etilishi haqidagi arizalarini ko‘rib chiqish, ular bo‘yicha qaror qabul qilish;

- chet el fuqarolariga va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarga ularning vaqtincha turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatga olish rasmiylashtirilishini ta’minlash;
- chet el fuqarolariga va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarga doimiy yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishni rasmiylashtirish va yashash guvohnomasi berish masalasini ko‘rib chiqish, shuningdek qonunda o‘rnatilgan tartibda ularni bekor qilish;
- fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarga biometrik xorijga chiqish hujjatlari berishni tashkil etish, xorijga vaqtinchalik va doimiy chiqish uchun hujjatlar rasmiylashtirish;
- ichki ishlar organlari migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bo‘linmalarining faoliyatini o‘rganish, pasportlarni (yo‘l hujjatlarini), xorijga chiqish hujjatlarini rasmiylashtirish va berish, doimiy yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olish va doimiy ro‘yxatga olinganlikni bekor qilishni rasmiylashtirish, chet el fuqarolariga va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarga doimiy yashash uchun ruxsatnomalar berishda aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan choralarni ishlab chiqish va amalga oshirishni ta’minlash;
- uslubiy qo‘llanmalar, tavsiyalar va sharhlar ishlab chiqish, shuningdek ichki ishlar organlari migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bo‘linmalariga pasportlar (yo‘l hujjatlari), xorijga chiqish hujjatlarini rasmiylashtirish va berishda, doimiy yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olish va doimiy ro‘yxatga olinganlikni bekor qilishni rasmiylashtirishda, chet el fuqarolariga va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarga doimiy yashash uchun ruxsatnomalar berishda amaliy yordam ko‘rsatish;
- O‘zbekiston Respublikasiga kelgan, shu jumladan mehnat faoliyati bilan shug‘ullanish uchun kelgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar vizasining amal qilish muddatini uzaytirish masalasini ko‘rib chiqish;
- O‘zbekiston Respublikasida xorijiy ishchi kuchidan foydalanishda ish beruvchilarning pasport tizimi qoidalarini belgilovchi hujjatlarga rioya etishi ustidan nazoratni amalga oshirish;
- Ichki ishlar organlarining migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bo‘linmalari tomonidan qonunchilik va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar

talablarining, shuningdek zimmalariga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarning bajarilishini nazorat qilishni rejalashtirish va amalga oshirish;

- O‘zbekiston Respublikasi fuqarosining, O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashovchi chet el fuqarolarining va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning identifikatsiya raqamini (shaxsiy kodini) tasdiqlash;
- respublikada va xorijda yo‘qolgan pasport yoki identifikatsiyalovchi ID-kartalarning, qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda bekor qilingan pasport yoki identifikatsiyalovchi ID-kartalarning yagona ma’lumotlar bazasini yuritish;
- migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish sohasidagi axborot tizimlarining uzluksiz ishlashini ta’minlash[1];

s) Ichki ishlar organlarining boshqa bo‘linmalari, davlat organlari, fuqarolik jamiyati institutlari va aholi bilan hamkorlikni tashkil etish va amalga oshirish sohasida:

- ✓ migratsiya, fuqarolikni rasmiylashtirish, pasport tizimi qoidalariga, O‘zbekiston Respublikasida bo‘lish tartibiga rioya etish, doimiy yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olish va doimiy ro‘yxatga olinganlikni bekor qilish masalalarida ichki ishlar organlarining boshqa bo‘linmalari va davlat organlari bilan o‘rnatilgan tartibda o‘zaro axborot almashishni va tadbirlar o‘tkazishni amalga oshirish;
- ✓ O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Mudofaa vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, Davlat bojxona qo‘mitasi, Davlat statistika qo‘mitasi, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat personallashtirish markazi va boshqa organlar bilan fuqarolikni qabul qilish, yo‘qotish, fuqarolikdan chiqish, pasport va chegara rejimini mustahkamlash, aholi migratsiyasini hisobga olish, shuningdek xorijga chiquvchi va O‘zbekiston Respublikasiga kiruvchi shaxslarning ma’lumotlar bazasini shakllantirish va yuritish;

[1] “Fuqarolik va migratsiya sohasida davlat xizmatlarini ko‘rsatish tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” PF. 20.04.2022

✓ qidiruvdagi shaxslar, bedarak yo‘qolgan shaxslar va uzoq vaqt yashash joyida bo‘lmagan shaxslarning pasport yoki identifikatsiyalovchi ID-karta ma’lumotlarini taqdim etish orqali ichki ishlar organlarining boshqa bo‘linmalari bilan huquqbuzarliklar profilaktikasi va ularga qarshi kurashish sohasida o‘zaro hamkorlikni tashkil etish;

✓ O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining xorijdagi O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining shaxsini tasdiqlash bo‘yicha so‘rovlarini ijro etish;

✓ huquqni muhofaza qiluvchi va boshqa vakolatli organlarning O‘zbekiston Respublikasi fuqarolariga xorijga chiqish hujjatlari rasmiylashtirilganligi to‘g‘risida axborot taqdim etish bo‘yicha so‘rovlarini ijro etish;

✓ boshqa vakolatli organlar bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasida mehnat faoliyatini yuritish huquqiga egaligi tasdiqlangan chet el fuqarolarining respublika hududida o‘rnatilgan pasport tizimi qoidalariga rioya etishi ustidan nazoratni amalga oshirish;

✓ sudlarning O‘zbekiston Respublikasi hududida bo‘lish, uning hududidan tranzit o‘tish qoidalarini buzgan chet el fuqarolarini va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarni chiqarib yuborish to‘g‘risidagi qarorlari ijrosini ta’minlash;

✓ fuqarolik jamiyati institutlari va aholi bilan migratsiya jarayonlari va fuqarolikni rasmiylashtirish masalalarida hamkorlikni tashkil etish[1];

d) qonunchilikni va huquqni qo‘llash amaliyotini yanada takomillashtirish bo‘yicha takliflarni ishlab chiqish va amalga oshirish sohasida:

❖ migratsiya, fuqarolikni rasmiylashtirish, pasport tizimi qoidalariga va O‘zbekiston Respublikasida bo‘lish tartibiga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha normativ-huquqiy hujjatlar va boshqa hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish va ishlab chiqishda qatnashish;

[1] “Fuqarolik va migratsiya sohasida davlat xizmatlarini ko‘rsatish tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” PF. 20.04.2022

❖ migratsiya sohasida xalqaro shartnomalar loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirishda qatnashish;

❖ huquqni qo‘llash amaliyotini o‘rganish va umumlashtirish, ilg‘or xorijiy va milliy tajribani ichki ishlar organlarining migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bo‘linmalari faoliyatiga joriy etish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

❖ axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini davlat xizmatlarini ko‘rsatish jarayoniga, shu jumladan biometrik hujjatlarni olish, xorijga chiqish uchun materiallarni ko‘rib chiqish va rasmiylashtirish, doimiy yashash joyi va vaqtincha turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatga olish, shuningdek manzil-ma’lumot axborotlarini berish jarayoniga joriy etish va ulardan foydalanish;

❖ pasport tizimi qoidalariga rioya etish muammolari bo‘yicha ilmiy-amaliy konferensiyalar, seminarlar va davra suhbatlari tashkil etish va o‘tkazish, axborot materiallarini tayyorlash[1].

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish faoliyati izchil takomillashtirilmoqda. Sababi, migratsiya va fuqarolik har bir davlatning uzviy va ajralmas bo‘lagi hisoblanadi. Shuning uchun ham har bir yangilanayotgan qonun loyihalari faqat “ Inson qadri uchun” tamoyili asosida amalga oshirilmoqda. Fuqarolarning murojaatlari kundan-kunga ko‘payib borishi bilan bir qatorda, ularni ko‘rib chiqish amaliyoti ham tobora yangilanmoqda. Migratsiya fuqarolikni rasmiylashtirish faoliyati sohasidagi huquqiy normalarni qo‘llash amaliyotini yanada takomillashtirishga bo‘lgan ehtiyoj sezilarli darajada ortmoqda. Shu sababli migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish faoliyatini amalga oshirish vakolatiga ega bo‘lgan davlat organlari bilan hamkorlik masalalariga, shuningdek, ularning vakolatlarini fuqarolarning murojaatlarini tez va samarali ko‘rib chiqish uchun oshirish ham alohida e’tibor qaratilmoqda. Biroq, tizimning samaradorligini yanada oshirish va murojaatlar bilan ishlash jarayonini ijobiy hal qilish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur:

[1] http://lex.uz – O‘zbekiston Resrublikasi qonun hujjatlari bazasi rasmiy sayti

- huquqiy bazani xalqaro tajribaga mos ravishda yangilash;
- davlat organlari o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish va yagona elektron tizim yaratish;
- migratsiya va fuqarolik jarayonlarini to‘liq raqamlashtirish va avtomatlashtirish;
- noqonuniy migratsiyaning oldini olish bo‘yicha nazorat choralarini kuchaytirish;
- fuqarolarning huquqlarini himoya qilish va ularga hujjatlarni rasmiylashtirishda qulayliklar yaratish.

Agar ushbu choralar samarali amalga oshirilsa, migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish jarayoni yanada shaffof, tezkor va samarali bo‘ladi. Migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish faoliyatini bevosita amalga oshiruvchi davlat organlarining faoliyat samaradorligi ham ortadi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasining yangi taxirdagi Konstitutsiyasi. *(Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023 y., 03/23/837/0241-son)*
3. Qonunchilik milliy ma’lumotlar bazasi lex.uz
4. O‘zbekiston Respublikasining eski taxirdagi Konstitutsiyasi. *(Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi 08.12.1992y.,)*
5. Ismailov I. O‘zbekiston Respublikasi “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi qonuni ijrosini ta’minlashning o‘ziga xos jihatlari // “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi qonunning qabul qilinishi − inson manfaatlarini ta’minlashning muhim huquqiy kafolati: Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari (2017-yil 16-mart). – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2017. – B-18.
6. O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 16-sentyabrdagi “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi qonuni // O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari to‘plami, – 2016. – № 38. – 438-m.
7. Egamberdiev B.I. Ichki ishlar organlarining migratsiya jarayonlariga doir faoliyatining nazariy-huquqiy va tashkiliy jihatlari: Monografiya.

8. O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi to‘g‘risida” 2020-yil 13-martdagi qonuni;

9. http://lex.uz – O‘zbekiston Resrublikasi qonun hujjatlari bazasi rasmiy sayti;

10. http://www.norma.uz – O‘zbekiston Resrublikasi qonun hujjatlari bazasi sayti;

АРМИЯ И ВОЕННОЕ ОБРАЗОВАНИЕ КАК ВАЖНЫЕ КОМПОНЕНТЫ РАЗВИТИЯ СИЛ САМООБОРОНЫ ЯПОНИИ: ИСТОРИЧЕСКАЯ РЕТРОСПЕКТИВА И СОВРЕМЕННОСТЬ

Мадалиева Рухшона Хакимджановна
старший преподаватель Таможенного института Таможенного комитета, кандидат политических наук, +998935330922, ruhshonamadaliyeva@mail.ru

Абдусамедов Нодир Анварович
старший преподаватель Таможенного института Таможенного комитета, кандидат философских наук, +998900003669,

Аннотация: В настоящей статье рассмотрены особенности функционирования японской армии в различные исторические периоды, а также становление военного образования как основополагающего ядра подготовки офицерского состава Вооружённых сил Японии.

Ключевые слова: Япония, школа самураев, воинская повинность, военное образование, Силы самообороны, военные кадры, военнослужащие, виды войск, сухопутные войска, ВВС, ВМС, сёгунат, реставрация Мэйдзи.

Аннотация: Ушбу мақолада япон армиясининг турли тарихий даврлардаги фаолиятининг ўзига хос хусусиятлари, шунингдек, Япония Қуролли Кучлари офицерларини тайёрлашнинг асосий ядроси бўлган ҳарбий таълимнинг шаклланиши кўриб чиқилган.

Калит сўзлар: Япония, самурайлар мактаби, ҳарбий таълим, Ўз-узини ҳимоя қилиш кучлари, ҳарбий кадрлар, ҳарбий хизматчилар, қўшинлар турлари, қуруқликдаги кучлар, ҳаво кучлари, денгиз кучлари, сёгунлик, Мэйдзи тикланиши.

Abstract: This article examines the peculiarities of the functioning of the Japanese army in various historical periods, as well as the formation of military education as the fundamental core of officer training in the Japanese Armed Forces.

Key words: Japan, samurai school, conscription, military education, Self-Defense Forces, military personnel, military personnel, types of troops, ground forces, air force, navy, shogunate, Meiji restoration.

Успешное осуществление любой деятельности неразрывно связано с наличием в сфере профессиональных кадров. В связи с этим, развитие образования как фундаментальной ступени формирования кадрового потенциала является одним из важных направлений государственной политики.

В Узбекистане в последние годы образование стало одним из быстроразвивающихся отраслей социально-экономической жизни общества. Основываясь на традиционных ценностях и вбирая в себя конструктивные

элементы мировой практики ведущих зарубежных стран, национальная система образования направлена на повышение качества обучения и подготовку высококвалифицированных кадров, профессиональных специалистов, способных выдерживать конкуренцию на отечественном и мировых рынках труда.

Совершенствование механизмов и технологий повышения эффективности системы образования является не только условием социальной стабильности, но и одним из важных факторов обеспечения безопасности страны. Данный вопрос непосредственно касается и развития технологий обучения в военных образовательных учреждениях.

В настоящее время в высших военных учебных заведениях многих стран активно разворачивают свою деятельность научно-исследовательские центры, по созданию новых моделей военного и военно-технического образования и использованию инновационных механизмов и технологий в их реализации.

В этом отношении интересным примером можно считать Японию. Японская система образования в последние десятилетия привлекает внимание специалистов не только потому, что являет собой важный элемент отличного от европейской культуры и весьма самобытного этноса, но и потому, что результаты ее работы повсюду в мире оцениваются достаточно высоко. В частности, общепризнанным ее достоинством считается высокий средний уровень знаний выпускников средних и высших учебных заведений при одном из наиболее высоких в мире показателей общей образованности населения [1].

В стране «восходящего солнца» военная служба и оборона ещё с ранних этапов образования японской государственности в III-IV веках считалась важнейшей государственной задачей. Островное положение Японии, неактивная внешняя политика и сосредоточение внимания на управление внутри государства, способствовали формированию армии по образцу отдельных собираемых дружин. Однако опасение возможной угрозы с соседнего Китая в дальнейшем привела к необходимости реформирования военной доктрины и централизации войск.

Так создавались регулярные вооружённые войска, которые комплектовались посредством введения системы государственной воинской повинности. Её должна была проходить часть мужского населения в свободное от сельскохозяйственных дел время, таким образом, что каждый четвёртый мужчина в семье отбирался на военную службу. В одном из древнейших письменных источников Японии - Нихон сёки (Нихонги) об этом говорится так: «в каждой провинции надлежит разделить юношей на четыре части, одну из них объявить войском и проводить с ними упражнения в воинском деле» [2].

Командные части японской армии состояли из кадровых воинов, а рядовые части из феодалов и крестьян. В пору развитого средневековья и нового времени, характеризовавшемся правлением сёгунатов, называемый в истории страны периодом Камакура, Муромати и Эдо, в Японии активно происходили междоусобные противоборства. Это приводило к тому, что

сёгуны собирали огромные по численности солдат армии. Так 21 октября 1600 года в самом масштабном в истории Японии сражении при Сэкигахара армия сёгуна Токугавы Иясу численностью от 75 тысяч до 120 тысяч солдат выступила против 88 тысячного войска военного клана Исиды Мицунари.

В Японии XVII–XIX веков, во время правления сёгуната Токугава, ведущим сословием считались воины-самураи, которые обладали огромным количеством привилегий. Самураи составляли десятую часть населения Японии и представляли собой многочисленную силу. Их жизнь вплотную была связана с военным делом, а когда заканчивались сражения часть самураев становилась наемниками, другие открывали школы боевых искусств и становились мастерами военного искусства (например фехтования), некоторые становилась чиновниками, остальные пыталась перевернуть ход развития государства и вновь призывали к войнам [3].

Этико-правовой свод Бусидо (с японс. «Путь воина»), которому подчинялись самураи провозглашал нормы верноподданничества и своеобразного патриотизма объединяя в себе правила взаимоотношений японских владетельных князей как сюзеренов и их вассалов — благородных воинов. Самураи практиковали медитацию для физических и духовных упражнений, тренировали спокойствие и хладнокровие при любых обстоятельствах [4].

В середине XIX века в Японии существовало три типа школ. Это ханские (княжеские) школы (ханко), храмовые школы (тэракоя) и гражданские (частные) школы (сидзюку). Ханские школы учреждались по инициативе правящего военно-феодального клана и первоначально предназначались для обучения взрослых, главным образом высших самураев, а позднее и их детей [5].

Революция 1868 года и возрождение Мэйдзи сопровождались широкими преобразованиями. Самурайские войска были заменены регулярной армией, формировавшейся на основе всеобщей воинской повинности с трёхгодичной службой. Изменения затронули и сферу образования.

В начале 1870-х годов был разработан национальный проект системы образования по-западному (главным образом американскому) образцу. В стране сложились учреждения начального, среднего и высшего образования, появился Императорский университет (1877). Выпущенный в 1890 году указ императора об образовании содержал в себе принципы японской школьной системы и провозглашал цель «способствовать общественному благу и содействовать общественным интересам; всегда уважать конституцию и соблюдать законы; а в случае возникновения чрезвычайной ситуации – отважно предложить свою помощь государству» [6].

Одним из главных высших учебных заведений по подготовке офицеров военно-морских сил стала Военная академия Императорского флота Японии. Изначально находилась в Нагасаки, в 1866 году была перемещена в Иокогаму, в 1869 году — в Цукидзи (Токио), в 1888 — в Этадзиму.

Курсанты учились в Академии от трёх до четырёх лет, и по окончании становились мичманами, после некоторого периода активной службы и совершения кругосветного плавания они становились младшими лейтенантами.

В 1943 и 1944 годах были открыты отдельные школы морской авиации в городах Ивакуни и Майдзуру. После поражения Японии во Второй мировой войне и ликвидации императорского флота в 1945 году Академия была закрыта. В настоящее время на её территории размещается школа для кандидатов на офицерские звания морских сил самообороны Японии.

В 1882 году для обучения и подготовки офицеров высшего командного состава, а также с целью модернизации и вестернизации вооружённых сил при Генеральном штабе Императорской армии была создана Высшая военная академия Императорской армии Японии. Академия специализировалась в основном на обучении тактике, и рассматривалась как вершина армейской системы образования, необходимая для занятия штаб-офицерских и генеральских должностей. Её выпускниками стали известные в истории Японии представители политической элиты и государственной власти. Однако в 1945 году при окончании императорской армии Академия прекратила своё существование.

После окончания Второй мировой войны, которая закончилась для Японии поражением и пережитым ужасом ядерных ударов, императорская армия была распущена. В Конституции страны, принятой 3 мая 1947 года, официально оформлен принцип неучастия в военных конфликтах. Так 9 статья Основного закона гласила «Искренне стремясь к международному миру, основанному на справедливости и порядке, японский народ на вечные времена отказывается от войны как суверенного права нации… Для достижения цели, указанной в предыдущем абзаце, никогда впредь не будут создаваться сухопутные, морские и военно-воздушные силы, равно как и другие средства войны. Право на ведение государством войны не признается» [7].

Однако это не означало, что для обороны государства в Японии не было бы необходимости вооружённых войск. Армия была создана, однако она действовала в формате полицейских формирований, насчитывавших к концу 40-х гг. около 120 тысяч человек, в основном выполнявших охранную функцию.

При содействии США, с которыми Япония подписала в 1951 году «Договор о безопасности», по которому Япония соглашалась размещать на своей территории американские военные объекты. Существовавшие в то время японские полицейские подразделения стали преобразовываться в корпус безопасности.

А в сентябре 1953 года, войска «корпуса безопасности» получили наименование «сил самообороны», которые по своей структуре и характеру вооружений уже представляли собой настоящую кадровую армию. Затем, в соответствии с принятым в 1954 году законом о силах самообороны, формирования были преобразованы в «сухопутные войска самообороны» и «военно-морские войска самообороны», также был создан новый вид

вооруженных сил – «военно-воздушные силы самообороны». Для непосредственного управления и руководства данными вооруженными силами было учреждено «Управление национальной обороны» [8]. Такому ходу событий и формированию вооружённых войск Японии способствовала и разгоревшаяся в Корее война 1950-1953 годов.

В настоящее время «дзиэйтай» - армия, именуемая Силами самооборы Японии, включают в себя три рода войск:

- Сухопутные силы самообороны (рукюдзё: дзиэйтай);
- Военно-морские силы самообороны (кайдзё: дзиэйтай)
- Военно-воздушные силы самообороны (коку: дзиэйтай).

Кроме указанных видов войск, компонентами Сил самообороны Японии также являются военно-строительное управление, управление закупок вооружения, научно-исследовательский технический центр, исследовательский институт обороны, академия обороны. Общее руководство вооруженными силами осуществляет управление национальной обороны через объединенный комитет начальников штабов и командующих сухопутными, ВВС и ВМС. Управление национальной обороны фактически является военным министерством, его начальник имеет ранг государственного министра [9].

Подготовка кадров-военнослужащих для современной японской армии осуществляется в военных учебных заведениях общего профиля, а также относящихся к видам сил самообороны.

Одним из главных высших военных образовательных учреждений является Национальная Академия Сил самообороны Японии, которая практически считается кузницей подготовки офицерских кадров и обучения военной профессии всех тех, кто изъявил желание служить в составе государственных сил самообороны.

Академия была основана в 1952 году. На обучение сроком в 4 года принимаются молодые люди в возрасте до 21 года из числа гражданских лиц и до 23 лет из военнослужащих. Ежегодный набор 530 человек, в том числе для сухопутных войск - 300 человек, воздушных войск - 130, флота - 100 человек. С 1992 года в Академии было введено обучение и для женщин.

В учебную программу входят военные и общеобразовательные дисциплины, с упором на естественные и технические науки, историю и иностранные языки. Начиная со 2-го курса преподаются специальные дисциплины в зависимости от вида вооруженных сил, для службы в котором курсант предназначен - история войн и военного искусства, основы тактики и стратегии, стрелковое дело, топография и др.

Также к военному учебному заведению центрального подчинения, специализированного на формировании высшего командного состава Вооружённых сил Японии, относится Командно-штабной колледж объединенного штаба.

Обучение в колледже включает в себя три курса:

- стандартного (для офицеров в звании подполковника, полковника, капитана 1 и 2 ранга со сроком обучения десять месяцев),

- специального (для военнослужащих в звании полковника, генерал-майора, капитана 1 ранга, контр-адмирала со сроком обучения две недели),

- ознакомительного по совместным операциям (краткосрочные курсы, состоящие из 4-18 дней, для офицеров в звании майора, капитана 3 ранга и выше, окончивших командно-штабные факультеты колледжей видов вооруженных сил).

Аналогичным учебным заведением для подготовки старшего офицерского состава (начальники штабов частей, начальники отделений штабов, командиры соединений) сухопутных войск считается Командно-штабной колледж сухопутных войск, расположенный в районе Мэгуро в Токио.

Командование ВС Японии уделяет повышенное внимание профессиональной подготовке авиационного и лётного компонента войск. Для подготовки военных кадров ВВС созданы Командно-штабной колледж Военно воздушных сил Японии, Офицерское кандидатское училище Нара, Авиационное училище Обата гарнизон Акэно префектуры Миэ, Авиационно-технические училища, состоящие из пяти учебных заведений.

Летный состав комплектуется на добровольной основе как офицерами, так и унтер-офицерами (старшинами), причем большая часть за счет второй категории, целенаправленно поступающей в силы самообороны в качестве курсантов летного состава. При этом в интересах авиации ВВС и ВМС отбираются кандидаты из числа гражданской молодежи в возрасте от 18 лет до 21 года, имеющие полное среднее образование, годные к летному обучению по состоянию здоровья, сдавшие экзамены, прошедшие проверку на благонадежность и тестирование с целью определения профпригодности. Конкурс свыше 30 человек на одно место обучения. В армейской авиации набор для летной подготовки проводится среди военнослужащих с определенной выслугой лет [10].

Островное положение Японии, омываемое с одной стороны внутренними морями с другой тихоокеанскими водами, всегда создавала необходимость обороны морского пространства государства. В этом отношении, основной функцией Военно-морского флота Японии заключается в защите морского побережья страны. Для обеспечения морского флота умелыми военнослужащими в Японии в конце 60-х годов XIX века была образована Военно-морская академия, обучавшая младший офицерский состав военного флота. В 1888 году в столичном районе Цукидзи был учреждён Военно-морской штабной колледж, готовивший средний и старший командный состав. К учебным заведениям морских войск Сил самообороны Японии относятся Офицерское кандидатское училище округа Этадзима префектуры Хиросима, четыре технических училища.

Список использованной литературы:

1. А.Прасол. Школьное обучение в период Токугава. Княжеская школа как элемент средневекового образования // Россия и АТР. №2, 1998 //

https://cyberleninka.ru/article/n/shkolnoe-obuchenie-v-period-tokugava-knyazheskaya-shkola-kak-element-srednevekovogo-obrazovaniya

2. Е.Османов. Роль военной составляющей в истории японского государства и общества: ретроспективный анализ. Особенности военной системы Японии VII-IX вв. // Известия ДГПУ. Общественные и гуманитарные науки. №2, 2017. С.-2

3. Япония в эпоху правления династии Токугава // https://interneturok.ru/lesson/istoriya/7-klass/vseobschaya-istoriya/yaponiya-v-epohu-pravleniya-dinastii-tokugavy

4. Е.Трикоз. Военно-сословные кодификации в средневековой Японии: эпоха первых сёгунатов. // Вестник РУДН. Серия: Юридические науки. Т. 24. № 4, 2020. С.-973

5. А.Прасол. Школьное обучение в период Токугава. Княжеская школа как элемент средневекового образования // Россия и АТР. №2, 1998 // https://cyberleninka.ru/article/n/shkolnoe-obuchenie-v-period-tokugava-knyazheskaya-shkola-kak-element-srednevekovogo-obrazovaniya

6. Революция Мэйдзи // https://bigenc.ru/c/revoliutsiia-meidzi-e03ac8

7. Конституция Японии. Конституции стран мира на русском языке // https://legalns.com/download/books/cons/japan.pdf

8. М.Елкин. Создание и развитие сил самообороны Японии после второй мировой войны // Интеллектуальный потенциал XXI века: ступени познания. №28, 2015. С.-19.

9. Вооружённые силы Японии. Зарубежное военное образование. Май №6, 2020 // https://zvo.su/voennye-problemy/vooruzhennye-sily-yaponii.html

10. С.Вадимов. Подготовка лётного состава Сил самообороны Японии (2016) // Зарубежное военное обозрение. 2016, №5, С.-56

“XAVFSIZ TA‘LIM” KONSEPSIYASINI AMALGA OSHIRISH: MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA

Shaymatov Odil Abdukadirovich
O‘zbekiston Respublikasi MG Jizzax mintaqaviy o‘quv markazi “Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va texnik qo‘riqlash vositalari” sikli boshlig‘i

Annotatsiya: Maqolada “Xavfsiz ta‘lim” konsepsiyasining mohiyati, uning Yangi O‘zbekiston sharoitida amalga oshirish istiqbollari hamda milliy va xorijiy tajribalar tahlil qilinadi. Zamonaviy ta’lim muassasalarida xavfsizlikni ta’minlashning dolzarb jihatlari, pedagoglar va o‘quvchilarning huquqlarini himoya qilish, shuningdek, axborot xavfsizligi muammolari yoritiladi. Shuningdek, AQSh, Yevropa va Osiyo davlatlarining tajribasi o‘rganilib, ularning O‘zbekiston sharoitida qo‘llash imkoniyatlari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: xavfsiz ta’lim, ta’lim tizimi, pedagogik xavfsizlik, milliy tajriba, xorijiy tajriba, axborot xavfsizligi.

Ta’lim jarayoni inson kapitalini shakllantirishning asosiy omili bo‘lib, uning xavfsizligini ta’minlash har bir davlatning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi[1]. Yangi O‘zbekiston ta’lim tizimi innovatsion yondashuvlarga asoslangan holda, xavfsiz muhit yaratishga katta e’tibor qaratmoqda. “Xavfsiz ta‘lim” konsepsiyasi ta’lim muassasalarida xavfsiz muhitni shakllantirish, ta’lim jarayoni ishtirokchilarining huquq va manfaatlarini himoya qilish hamda turli xavf-xatarlarning oldini olishni o‘z ichiga oladi.

Bugungi kunda ta’lim muassasalarida xavfsizlikni ta’minlash dolzarb masalalardan biri bo‘lib, bu jarayonni samarali amalga oshirish uchun xalqaro tajribadan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Dunyo miqyosida ta’lim xavfsizligi bo‘yicha turli model va dasturlar ishlab chiqilgan bo‘lib, O‘zbekiston ham ushbu ilg‘or tajribalardan foydalanib, o‘z ta’lim tizimiga mos yondashuvlarni tatbiq etishga harakat qilmoqda. Shu bois maqolada xavfsiz ta’lim konsepsiyasining asosiy yo‘nalishlari, O‘zbekiston sharoitida uning tatbiqi hamda xorijiy tajribalarni o‘rganish masalalari yoritiladi.

“Xavfsiz ta‘lim” konsepsiyasining mazmuni va ahamiyati

“Xavfsiz ta‘lim” konsepsiyasi ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilari – o‘quvchilar, pedagoglar va ota-onalar uchun xavfsiz muhit yaratishga qaratilgan. Bu konsepsiya quyidagi asosiy yo‘nalishlarni qamrab oladi:

Jismoniy xavfsizlik: ta’lim muassasalarining himoyalanganligi, kuzatuv tizimlari va xavfsizlik xodimlarining mavjudligi. Maktab va universitet hududlarida favqulodda vaziyatlarga qarshi chora-tadbirlar ishlab chiqish, xavfsizlik tizimlarini doimiy ravishda yangilab borish muhim ahamiyatga ega[3].

Axborot xavfsizligi: kiberxavfsizlik choralarini ko‘rish, o‘quvchilarning shaxsiy ma’lumotlarini himoya qilish. Zamonaviy ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalar keng qo‘llanilayotgan bir paytda, kiberjinoyatchilikning oldini olish muhim vazifalardan biridir[4].

Ruhiy va psixologik xavfsizlik: maktab va oliy ta’lim muassasalarida zo‘ravonlik va tazyiqning oldini olish. Buning uchun o‘quvchilar va o‘qituvchilar uchun maxsus psixologik maslahat markazlari tashkil etilishi lozim[5].

O‘zbekistonda “Xavfsiz ta‘lim” tizimini shakllantirish istiqbollari

Yangi O‘zbekiston sharoitida “Xavfsiz ta‘lim” konsepsiyasini amalga oshirish uchun quyidagi chora-tadbirlar muhim ahamiyat kasb etadi:

Ta’lim muassasalarida zamonaviy videokuzatuv tizimlarini o‘rnatish va favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik ko‘rish. Har bir ta’lim muassasasi xavfsizlik standartlariga mos bo‘lishi, barcha xodimlar favqulodda vaziyatlarda qanday harakat qilishni bilishi zarur[1].

O‘quvchilarning kiberxavfsizligini ta’minlash bo‘yicha maxsus dasturlarni ishlab chiqish va tatbiq etish. Ta’lim muassasalarida axborot texnologiyalaridan foydalanishda xavfsizlik choralari kuchaytirilishi lozim.

Psixologik xizmatlarni rivojlantirish va o‘quvchilarga maxsus maslahat markazlarini tashkil etish. Maktab va universitetlarda psixologlarning doimiy faoliyat yuritishi, o‘quvchilarga individual yondashuv asosida yordam berish tizimi shakllantirilishi zarur.

Xalqaro tajribalarni o‘rganish va ularni milliy ta’lim tizimiga moslashtirish. Bunda xorijiy davlatlarda sinovdan o‘tgan ilg‘or ta’lim xavfsizligi modellarini o‘rganish va ularni mahalliy sharoitlarga moslashtirish muhimdir[2].

Xorijiy tajriba va uning O‘zbekiston uchun ahamiyati

Dunyo tajribasida “Xavfsiz ta‘lim” konsepsiyasi bo‘yicha bir qancha ilg‘or yondashuvlar mavjud:

AQSh tajribasi: AQShda ta’lim muassasalarining xavfsizligi davlat siyosatining muhim qismi hisoblanadi. Maktablarda xavfsizlik xizmatlari va psixologik yordam dasturlari keng joriy etilgan. Maxsus xavfsizlik kameralarining o‘rnatilishi, favqulodda vaziyatlar bo‘yicha o‘qituvchilar va o‘quvchilar uchun doimiy mashg‘ulotlar tashkil etilishi muhim omil sanaladi[5]. Shuningdek, maktablardagi zo‘ravonlik va qurol bilan bog‘liq hodisalarning oldini olish uchun “Zero Tolerance” siyosati joriy qilingan.

Yevropa mamlakatlari tajribasi: Yevropaning rivojlangan davlatlarida ta’lim muassasalarida raqamli xavfsizlikka katta e’tibor qaratilib, maktab va universitetlarda kiberxavfsizlik bo‘yicha majburiy kurslar tashkil etilgan. Masalan, Germaniya va Buyuk Britaniyada maktab o‘quvchilari va talabalar kiberxavfsizlik bo‘yicha doimiy ravishda o‘qitilib, ularga zararli dasturlardan himoyalanish

bo‘yicha ko‘nikmalar beriladi[4]. Bundan tashqari, ta’lim muassasalarida favqulodda vaziyatlarga qarshi dasturlar ham faol amalga oshirilmoqda.

Janubiy Koreya tajribasi: Janubiy Koreya ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali xavfsizlikni ta’minlashga katta e’tibor qaratadi. Bu mamlakatda psixologik xizmatlarni rivojlantirish, o‘quvchilarning ruhiy holatini monitoring qilish tizimlari yo‘lga qo‘yilgan. Shuningdek, maktablarda zo‘ravonlik va bosimning oldini olish maqsadida maxsus dasturlar ishlab chiqilgan bo‘lib, har bir ta’lim muassasasida psixologlarning doimiy ishlashi ta’minlanadi[3].

O‘zbekiston ushbu tajribalarni o‘z sharoitiga moslashtirib, ta’lim tizimida xavfsizlik chora-tadbirlarini takomillashtirish imkoniyatiga ega. Xususan, xorijiy mamlakatlardagi ilg‘or amaliyotlar asosida:

Pedagoglar va o‘quvchilar uchun maxsus xavfsizlik bo‘yicha treninglar tashkil etish;

Maktablarda xavfsizlik bo‘yicha qo‘mitalar tuzish va ularning faoliyatini rivojlantirish;

Kiberxavfsizlik bo‘yicha ta’lim dasturlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;

O‘quv muassasalarida favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik bo‘yicha rejalar ishlab chiqish.

Bu choralar O‘zbekiston ta’lim tizimida xavfsizlik madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladi va o‘quvchilar, o‘qituvchilar hamda ota-onalarning xavfsiz muhitda bilim olishini ta’minlaydi.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, “Xavfsiz ta‘lim” konsepsiyasini amalga oshirish nafaqat ta’lim sifati, balki o‘quvchilarning jismoniy va ruhiy farovonligini ta’minlashga xizmat qiladi[1]. Ta’lim jarayonida ishtirok etuvchi barcha tomonlarning hamkorligi va faol ishtiroki xavfsizlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi.

O‘zbekistonning ta’lim sohasida ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘zlashtirishi va milliy xususiyatlarga mos holda tatbiq etishi ta’lim sifati va barqarorligini oshirishga yordam beradi.

Kelajakda “Xavfsiz ta‘lim” konsepsiyasini to‘liq amalga oshirish uchun ta’lim muassasalarida xavfsizlik infratuzilmasini rivojlantirish, zamonaviy texnologiyalarni tatbiq etish hamda o‘quvchilar va pedagoglar uchun xavfsizlik bo‘yicha maxsus dasturlar ishlab chiqish zarur. Xavfsiz ta’lim tizimi nafaqat mamlakatimiz kelajagini belgilovchi yosh avlodning rivojlanishi, balki jamiyatning umumiy farovonligini ta’minlashda ham muhim o‘rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni. https://lex.uz/uz/docs/-5841063
2. Xalqaro ta’lim xavfsizligi bo‘yicha UNESCO va UNICEF hisobotlari. 2023-yil 4-soni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligining rasmiy nashrlari. 2023-yil 3-soni.
4. “Education and Security” jurnali.2023-yil 2-soni
5. AQSh va Yevropa mamlakatlarining ta’lim xavfsizligi bo‘yicha qonunchilik bazasi.

“YANGI O‘ZBEKISTONDA XAVFSIZ TA’LIM KREATIV PEDAGOGIKA FANINING VAZIFALARI

Safarov Abduxakim Uralovich
O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Jizzax mintaqaviy o‘quv markazi “Kasbiy tayyorgarlik” sikli boshlig‘i, mayor

Zamonaviy pedagogikada “kreativ pedagogika” tushunchasi qo‘llanila boshlaganiga hali u qadar ko‘p vaqt bo‘lmadi. Biroq, o‘qitish jarayoniga innovatsion hamda ijodkorlik yondashuvlarini qaror toptirishga bo‘lgan ehtiyoj “Kreativ pedagogika”ning pedagogik turkum fanlar orasida mustaqil predmet sifatida shakllanishini ta’minladi. Ushbu predmet asoslarini pedagogikatarixi, umumiy va kasbiy pedagogika hamda psixologiya, xususiy fanlarni o‘qitish metodikasi, ta’lim texnologiyasi va kasbiy etika kabi fanlarning metodologik g‘oyalari tashkil etadi. “Kreativ pedagogika” fanining umumiy asoslari mutaxassis, shu jumladan, bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy kamol topishlari uchun zarurshart-sharoitni yaratishga xizmat qiladi. Ma’lumki, kasbiy tajriba bilim, ko‘nikma va malakalarning integratsiyasi sifatida aks etadi.

Biroq, kasbiy-ijodiy faoliyat ko‘nikmalarining o‘zlashtirilishi nafaqat amaliy ko‘nikma va malakalarning integratsiyasi, mutaxassis sifatida faoliyatni samarali tashkil etish usul va vositalarini ishlab chiqishni emas, shu bilan birga kasbiyijodkorlik metodologiyasidan xabardor bo‘lish, ijodiy tafakkurni rivojlantirish va kreativ xarakterga ega shaxsiy sifatlarining yetarli darajada o‘zlashtirilishini talab etadi. Ijodkor shaxsning shakllanishini shaxsning o‘zaro mos tarzda bajarilgan ijodiy faoliyat va ijodiy mahsulotlarni yaratish borasidagi rivojlanishisifatida belgilash mumkin. Ushbu jarayonning sur’ati va qamrovi biologik va ijtimoiy omillar, shaxsning faolligi va kreativ sifatlari, shuningdek, mavjud shart-sharoit, hayotiy muhim va kasbiy shartlangan hodisalarga bog‘liq. Zamonaviy sharoitda pedagogning kreativlik sifatlariga ega bo‘lishi taqozo etiladi.

So‘nggi yillarda yetakchi xorijiy mamlakatlarning ta’lim tizimida o‘quvchi va talabalarda kreativlik sifatlarini shakllantirish masalasiga alohida, jiddiy e’tibor qaratilmoqda. Buni Bronson, Merriyman (2010-y.), Ken Robinson (2007-y.), Fisher,

va b. tomonidan olib borilgan ko‘plab tadqiqotlar, ularning natijalarini ko‘rish mumkin.

Ta’lim tizimini boshqarish organlari har yili ta’limmuassasalarida yuqori samaradorlikka erishishga e’tibor qaratadi. Ana shu maqsadda o‘quv dasturini ishlab chiqiladi, yangi o‘quv darsliklari yaratiladi. Bu esa ham talabalar, ham o‘qituvchilarni kasbiy o‘sishlariga yordam beradi. Olib boriladigan amaliyharakatlar talabalarda yutuqlarga erishish, olg‘a intilishga bo‘lgan ehtiyojni muayyan darajada yuzaga keltiradi, ularning o‘quv-bilish qobiliyatlarini bir qadar rivojlantirishga yordam beradi.

Biroq, o‘quv yilining oxirida kelib oliy ta’lim muassasalaridatalabalarning fanlarni o‘zlashtirishlarida yuqori darajadagi ijobiynatijalar kuzatilmayapti. Ko‘plab talabalarning ta’lim olishga nisbatan qiziqishi yo‘qolgan. Buning natijasida o‘qituvchilar ham avvalgidek zavqu shavq bilan kasbiy faoliyatni tashkil etishni o‘ylashmayapti. Ta’lim tizimini boshqaruvchi organlar ta’lim olishga nisbatan xohish-istagi bo‘lmagan talabalar, bu kabi ta’limoluvchilarni o‘qitishni istamayotgan o‘qituvchilar faoliyatini o‘zgartirish borasida yangidan-yangi chora-tadbirlar belgilansada, ahvol o‘zgarishsiz qolmoqda.

Buning sababi nimada? Balki darslarning avvaldan o‘ylab, rejalashtirilib qo‘yilishi talabalaruchun qiziq bo‘lmayotgandir, balki ta’lim mazmunining muayyan qolipga solinganligi talabalar uchun hech qanday stimul bermayotgandir, rag‘batbildirmayotgandir. O‘quv mashg‘ulotlarining avvaldan rejalashtirilishidan voz kechish, talabalarda tanqidiy, kreativ tafakkurni shakllantirish varivojlantirish, ularni ijodiy fikrlash, yangi g‘oyalarni o‘ylab topishga majbur qilish ta’lim olishga bo‘lgan munosabatni o‘zgartirish, ularni yutuqlarga erishishga rag‘batlantirishda asosiy omil bo‘lar. O‘quv mashg‘ulotlarida yetishmayotgan omil –kreativlik sanaladi. Shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirish jarayoniningumumiy mohiyatini to‘laqonli anglash uchun dastlab “kreativlik” tushunchasining ma’nosini tushunib olish talab etiladi.

Kreativlik (lot., ing. “create ” – yaratish, “creative” –yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g‘oyalarni ishlabchiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi va mustaqil omil sifatidaiqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati.

E.P.Torrens fikricha,“kreativlik” tushunchasi negizida quyidagilar yoritiladi:

-muammoni yoki ilmiy farazlarni ilgari surish;

-farazni tekshirish va o‘zgartirish;

-qaror natijalarini shakllantirish asosida muammoni aniqlash;

-muammo yechim ini topishda bilim va amaliy harakatlarningo‘zaro qarama-qarshiligiga nisbatan ta’sirchanlik.

Kreativ fikrlash har bir ijtimoiy sohada yaqqol aks etishi mumkin. O‘qituvchining ijodkorligi esa u tomonidan tashkil etiladigan kasbiy faoliyatni tashkil etishga ijodiy (kreativ) yondashuvida aks etadi. So‘nggi yillarda ushbu holat “pedagogik kreativlik” tushunchasi bilan ifodalanmoqda.

“Kreativ pedagogika” quyidagi ikki holatni kafolatlay olishi zarur:

1) o‘qituvchilar tomonidan o‘quv fanlarini past o‘zlashtirayotgan va ularini o‘rganishni zerikarli deb hisoblayotgan talabalar e’tiborlarini fan asoslarini o‘zlashtirishga jalb etish;

2) o‘qituvchilarga talabalarda kreativ fikrlash va ijodiy faoliyat natijalarini rag‘batlantirishga xizmat qiladigan strategiyava vositalarni tavsiya etish-qilish orqali auditoriyada ulardan samarali foydalanishlari uchun imkoniyat yaratish.

Pedagogning kreativlik sifatlariga ega bo‘lmasligi tufaylitalabalar ham qiziqarli va ajoyib g‘oyalarga ega bo‘lsalar-da, biroqularni ifodalashda sustkashlikka yo‘l qo‘yadi. Buning sababli ta’lim jarayonida qo‘llanilayotgan metodlar talabalardaerkin, mustaqilfikrlashko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qilmasligi bilanbelgilanadi. Kasbiy faoliyatda pedagogning kreativligi turli shakllarda namoyon bo‘ladi.

Pedagoglar tomonidan kreativlik sifat va ko‘nikmalariningo‘zlashtirilishida fan sifatida “Kreativ pedagogika” muhim o‘rin tutadi.

Kreativ pedagogika–

1) pedagogda ta’lim va tarbiyajarayonini tashkil etishga nisbatan ijodiy, kreativ yondashish,mavjud pedagogik muammolarni ijobiy hal qilishga bo‘lgan qobiliyat va malakalarini rivojlantirish;

2) talabalarda o‘quv materiallarini o‘zlashtirishga ijobiy,mustaqil yondashish, o‘quv topshiriqlarini bajarishda yangi, ijodiy va kreativ g‘oyalarni ilgari surish qobiliyati ko‘nikmalarini shakllantirish hamda bosqichma-bosqich rivojlantirish asosida kasbiy tayyorlash asoslarini yoritadigan, shaxs kreativligining turli yosh bosqichlari xususiyatlariga muvofiq rivojlanishi masalalarini o‘rganuvchi fandir.Har qanday fan kabi “Kreativ pedagogika” o‘quvpredmeti ham aniq maqsadni ko‘zlaydi. “Kreativ pedagogika” faniningmaqsadishaxsni kreativ o‘qitish, tarbiyalash varivojlantirishdan iborat.

“Kreativ pedagogika muayyan vazifalarni bajaradi.

Ular quyidagilardan iborat:

1) ta’lim mazmuni, o‘quv rejalari va dasturlarini saralash;

2) o‘quv moduli (fani)ni o‘qitishning taktika vastrategiyalarini belgilash;

3)mos psixologik-pedagogik tashxis vositalarini tanlash;

4)ta’lim oluvchilarning kreativ rivojlanishinibashoratlash;

5)kreativ shaxsni shakllantirishning boshqaruv tiziminiishlab chiqish.

Pedagoglarning ta’lim jarayoniga kreativ yondashuvlari talabalarda ta’lim olishga bo‘lgan qiziqishni yuzaga keltiradi, ularning o‘quv-bilish faoliyatlarini faollashtirishga yordam beradi. Qolaversa, talabalarning mutaxassis sifatida kreativ sifat, ijodkorlik ko‘nikma, malakalarini faol o‘zlashtirishlari uchun zarur sharoitni yaratadi. “Kreativ pedagogika” fanining asoslari talabalar vapedagoglarda kreativlik sifatlari va ijoiy faoliyat ko‘rsatish malakalarini samarali shakllantirishga xizmat qiladi.

TA’LIM VA XAVFSIZLIK: ILMIY YONDASHUV, XALQARO TAJRIBA HAMDA O‘ZBEKISTONDAGI ISLOHOTLAR

Yuldashev Sherali Nuralievich
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Jamoat xavfsizligini ta’minlash kafedrasi katta o‘qituvchisi

Abstrakt: Mazkur maqolada ta’lim va xavfsizlik o‘rtasidagi bog‘liqlik ilmiy yondashuvlar asosida tahlil qilinadi. Ta’limning jamiyatda xavfsizlikni ta’minlashdagi o‘rni, jinoyatchilikka ta’siri va xalqaro tajribalar asosida bu jarayonning samaradorligi ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, O‘zbekistonda ta’lim tizimini takomillashtirish va xavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlarga alohida e’tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: ta’lim, xavfsizlik, jinoyatchilik, kiberxavfsizlik, psixologik himoya, xalqaro tajriba, ijtimoiy barqarorlik, O‘zbekistondagi islohotlar.

Har qanday davlat va jamiyatning barqarorligi, taraqqiyoti hamda tinchligi ikki asosiy omilga – ta’lim hamda xavfsizlikka bevosita bog‘liq. Zero, yuksak ta’lim saviyasiga ega bo‘lgan jamiyatda jinoyatchilik kamayib, huquqiy ong va mas’uliyat ortadi. Shu bilan birga, xavfsizlik ta’lim tizimida ustuvor ahamiyat kasb etsa, bu fuqarolarni huquqiy bilimlar bilan ta’minlash va huquqbuzarliklarning oldini olishda muhim omilga aylanadi. Shu bois ta’lim va xavfsizlikni bir-biridan ajratib o‘rganish mumkin emas, ular birgalikda jamiyat rivojlanishini belgilaydigan mezonlar hisoblanadi. Ta’limning xavfsizlikka ta’siri keng ko‘lamli bo‘lib, uni turli qirralardan tahlil qilish mumkin.

Birinchidan, ta’lim jinoyatchilik darajasini pasaytirishda katta rol o‘ynaydi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bilimli insonlar jinoyatga moyil bo‘lmaydi, chunki ular qonuniy ishlab topilgan daromadning barqarorligi va uzoq muddatli foydalari haqida tushunchaga ega bo‘ladilar. Bundan tashqari, ta’lim insonning axloqiy qadriyatlarini shakllantirib, uni jamiyat uchun foydali fuqaroga aylantiradi.

Ikkinchidan, huquqiy savodxonlik xavfsizlikni ta’minlashda muhim omillardan biri sanaladi. Agar fuqaro o‘z huquq va burchlarini yaxshi bilsa, u huquqbuzarliklarning oldini olishga intiladi, qonunga rioya qiladi va huquq-tartibot

organlari bilan hamkorlik qiladi. Huquqiy ongning yuqori darajada bo‘lishi fuqarolarni firibgarlik, korrupsiya va boshqa noqonuniy harakatlardan himoya qilishda asosiy vositalardan biridir. Shuning uchun ta’lim tizimida huquqiy bilimlar alohida o‘rin tutishi, yoshlar maktab va universitetda huquqiy madaniyatni o‘zlashtirishi zarur.

Uchinchidan, ta’lim ekstremizm va radikallashuvning oldini olishda muhim vosita hisoblanadi. Bilimsiz va axborotni tanqidiy tahlil qilish qobiliyatiga ega bo‘lmagan insonlar turli g‘oyaviy ta’sirlarga moyil bo‘lib qoladilar. Ilmiy tahlillar radikallashuv ko‘p hollarda savodsizlik va axborot manipulyatsiyasi bilan bog‘liq ekanini ko‘rsatadi. Shu sababli, ta’lim tizimida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, yoshlarga turli ma’lumotlarni tahlil qilish va manbalarning ishonchliligini aniqlash ko‘nikmalarini o‘rgatish lozim.

To‘rtinchidan, kiberxavfsizlik va axborot xavfsizligi ham zamonaviy ta’limning ajralmas qismiga aylanishi kerak. Hozirgi raqamli davrda internet orqali tarqatilayotgan yolg‘on axborotlar, firibgarlik sxemalari va jinoiy kiberfoliyatlar tobora kuchayib bormoqda. Agar ta’lim tizimida kiberxavfsizlikka oid maxsus kurslar tashkil etilsa, yoshlar virtual tahdidlarga qarshi tura oladi. Bugungi kunda AQSh, Yevropa va Osiyo davlatlarida kiberxavfsizlik bo‘yicha maxsus o‘quv dasturlari joriy qilingani ham bu masalaning dolzarbligini ko‘rsatadi.

Ta’lim va xavfsizlik o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ta’minlash uchun hukumat, ta’lim muassasalari va jamoat tashkilotlari o‘rtasida samarali hamkorlik o‘rnatilishi zarur. Maktab va universitetlarda huquqiy ta’limni kuchaytirish, huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlikda xavfsizlik mavzulari bo‘yicha o‘quv kurslarini tashkil etish, jamoat tartibini saqlash bo‘yicha fuqarolik mas’uliyatini oshirish – bularning barchasi xavfsizlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Singapur, Germaniya va Yaponiya kabi davlatlarda ta’lim tizimi orqali xavfsizlikni ta’minlashga alohida e’tibor qaratilayotgani samarali natijalar bermoqda.

O‘zbekistonda ta’lim va xavfsizlik sohalari davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mamlakatda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, fuqarolarning huquqiy

savodxonligini oshirish va jamiyatda xavfsizlikni ta’minlashga qaratilgan. Bu jarayon O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan qabul qilingan strategik hujjatlar, davlat dasturlari va qonunlar asosida tartibga solinmoqda.

Ta’lim sohasidagi islohotlar mamlakatning uzoq muddatli rivojlanish strategiyasi bilan chambarchas bog‘liq. Birinchi navbatda, ta’lim tizimi xalqaro standartlarga moslashtirilmoqda, yangi o‘quv dasturlari ishlab chiqilmoqda va innovatsion o‘qitish metodlari joriy etilmoqda. Xususan, 2030 yilgacha O‘zbekistonda ta’lim sifati bo‘yicha jahon reytinglarida yuqori o‘rinlarni egallash maqsad qilingan.

Maktabgacha ta’lim sohasida qamrov darajasini oshirish maqsadida davlat-xususiy sheriklik asosida yangi maktabgacha ta’lim muassasalar tashkil etilmoqda. Bugungi kunda maktabgacha ta’lim muassasalarining qamrovi 70% dan oshgan bo‘lib, bu sohadagi davlat siyosati samaradorligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, umumiy o‘rta ta’limda «Yangi O‘zbekiston maktabi» konsepsiyasi asosida zamonaviy ta’lim standartlari joriy etilmoqda.

Oliy ta’lim sohasida ham jiddiy o‘zgarishlar kuzatilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning topshirig‘i bilan 2021 yildan boshlab davlat grantlari soni ko‘paydi, xususiy universitetlar tashkil etildi va xalqaro universitetlarning filiallari ochildi. Bu islohotlar ta’lim sifatini oshirish, talaba-yoshlarni xalqaro standartlarga mos qilib tayyorlash va mehnat bozoriga raqobatbardosh mutaxassislarni yetkazib berishga qaratilgan.

Jamiyat xavfsizligini ta’minlash yo‘nalishida ichki ishlar organlarining islohotlari ham diqqatga sazovor. Huquq-tartibot idoralarida zamonaviy axborot texnologiyalari joriy etilmoqda. «Xavfsiz shahar» konsepsiyasi asosida kuzatuv kameralari va intellektual xavfsizlik tizimlari o‘rnatilmoqda. Bu chora-tadbirlar jinoyatchilikning oldini olish va jamiyatda tartibni ta’minlashga xizmat qilmoqda.

Kiberxavfsizlik ham bugungi kunda ustuvor yo‘nalishlardan biriga aylandi. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi bilan birga kiber tahdidlar ham ortib bormoqda. Shu sababli, O‘zbekistonda kiberxavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha qonunchilik takomillashtirilmoqda, mutaxassislar tayyorlanmoqda va IT sohasidagi

ta’limga katta e’tibor qaratilmoqda. 2022-yilda Toshkentda «Kiberxavfsizlik markazi» tashkil etildi, u esa milliy axborot tizimlarini himoya qilishda muhim rol o‘ynamoqda.

Ta’lim va xavfsizlik har bir davlat uchun strategik ahamiyatga ega bo‘lib, ularning uyg‘unligi jamiyat barqarorligi va rivojlanishi uchun muhim omil hisoblanadi. Dunyoning turli davlatlarida bu yo‘nalishda samarali modellar ishlab chiqilgan bo‘lib, ularning tajribasi O‘zbekiston uchun ham ahamiyatli bo‘lishi mumkin. Xususan, ta’lim tizimini xavfsizlikka yo‘naltirish, huquqiy savodxonlikni oshirish va jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan dasturlar xorijiy davlatlarda muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda.

Singapur dunyodagi eng xavfsiz davlatlardan biri hisoblanadi. Bu natijalarning ortida kuchli huquqiy tizim va samarali ta’lim siyosati turadi. Mamlakatda maktablarda huquqiy ta’lim va fuqarolik ma’rifati majburiy ravishda o‘qitiladi. Bundan tashqari, politsiya va ta’lim muassasalari o‘rtasida yaqin hamkorlik o‘rnatilgan bo‘lib, yoshlar o‘rtasida jinoyatchilikning oldini olish maqsadida muntazam ravishda profilaktik tadbirlar o‘tkaziladi.

Germaniyada ta’lim tizimi xavfsizlikni ta’minlashga yo‘naltirilgan tarzda tashkil etilgan. Maktab va universitetlarda terrorizm, ekstremizm va kiberxavfsizlikka oid maxsus kurslar o‘qitiladi. Shuningdek, mamlakatda huquqiy ta’lim keng yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, talabalar va o‘quvchilarga huquqiy savodxonlik bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar tashkil etiladi.

Yaponiya maktablarida intizom va fuqarolik tarbiyasiga katta e’tibor qaratilgan. Bu mamlakatda ta’lim tizimi nafaqat akademik bilim berish, balki fuqarolik mas’uliyatini shakllantirishga ham yo‘naltirilgan. Shuningdek, Yaponiyada maktab o‘quvchilari uchun tabiiy ofatlar va favqulodda vaziyatlarda harakat qilish bo‘yicha maxsus kurslar tashkil etilgan.

AQShda so‘nggi yillarda kiberxavfsizlik sohasidagi tahdidlarga qarshi kurashish maqsadida ta’lim tizimida yangi yondashuvlar joriy etilmoqda. Maktab va universitetlarda kiberxavfsizlik, axborot xavfsizligi bo‘yicha maxsus kurslar o‘qitiladi. Shuningdek, Amerikada huquqiy ta’lim keng tarqalgan bo‘lib, yoshlar

o‘rtasida qonunchilikni bilish va huquqiy madaniyatni rivojlantirishga qaratilgan ko‘plab dasturlar mavjud.

Janubiy Koreya raqamli texnologiyalar bo‘yicha yetakchi davlatlardan biri bo‘lib, u ta’lim tizimida kiberxavfsizlikni ta’minlashga katta e’tibor qaratadi. Maktab o‘quvchilari internet xavfsizligi, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish va raqamli madaniyat qoidalari bo‘yicha maxsus kurslarni o‘taydilar. Bundan tashqari, davlat va xususiy sektor hamkorligida axborot xavfsizligi bo‘yicha milliy dasturlar amalga oshirilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, ta’lim va xavfsizlik jamiyat barqarorligi uchun o‘zaro bog‘liq tushunchalar bo‘lib, ularning uyg‘un rivojlanishi mamlakat taraqqiyotini ta’minlaydi. O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar ta’lim va xavfsizlik o‘rtasidagi bog‘liqlikni mustahkamlashga qaratilgan bo‘lib, bu mamlakatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Ta’lim va xavfsizlik bir-biriga chambarchas bog‘liq bo‘lib, ularning uyg‘unligi jamiyat barqarorligini ta’minlaydi. Har bir davlat o‘zining madaniy va ijtimoiy xususiyatlaridan kelib chiqib, bu yo‘nalishda turli yondashuvlarni amalga oshiradi. O‘zbekiston uchun xalqaro tajribalarni o‘rganish va ularni milliy sharoitga moslashtirib joriy etish muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim va xavfsizlik sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar jamiyat barqarorligi va taraqqiyotini ta’minlashga qaratilgan. Ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, huquqiy ongni oshirish va xavfsizlikni mustahkamlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi bo‘lib qolmoqda. Bu islohotlar natijasida O‘zbekiston jahon miqyosida raqobatbardosh, huquqiy madaniyati yuksak va xavfsizlik darajasi yuqori bo‘lgan davlatga aylanishi kutilmoqda.

Ta’lim va xavfsizlik bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ularning uyg‘unligi jamiyatning barqaror rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Yuksak ta’lim darajasi jinoyatchilikni kamaytiradi, huquqiy ongni oshiradi, ekstremizmning oldini oladi va kiberxavfsizlikni ta’minlaydi. Shuning uchun ham ta’lim tizimini

xavfsizlikka yo‘naltirilgan tarzda rivojlantirish nafaqat jamiyat, balki davlat barqarorligi uchun strategik ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi (yangi tahrirda) 2020 yil 23-sentabr O‘RQ-637-sonli Qonuni. https://lex.uz/docs/5013007
2. O‘zbekiston Respublikasining «Kiberxavfsizlik to‘g‘risida»gi 2022 yil 17-iyul O‘RQ-764-sonli Qonuni. https://lex.uz/docs/5960604
3. O‘zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasining «Butunjahon internet tarmog‘ida axborot xavfsizligini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 2018 yil 6-sentabr 707-sonli Qarori. https://lex.uz/docs/3893085
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Maktabgacha va maktab ta’limi xodimlarining uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida»gi 2024 yil 20-dekabr 867-sonli Qarori https://lex.uz/docs/7271575
5. Mamajonov I.G «Ta’limda innovatsiya va innavatsion faoliyat». «Iqtisodiyot va innavatsion texnologiyalar» ilmiy elektron jurnali №6 noyabr-dekabr 2020 yil. https://iqtisodiyot.tsue.uz
6. Mirzaev D. «Ta’lim va xavfsizlik uyg‘unligi» Nashr qilingan yili: 2022 yil Havola: https://journal.edu.uz/articles/mirzaev2022
7. Xalqaro tashkilotlar tahlillari: YUNESKO, YUNISEF va boshqalar Nashr qilingan yili: 2020-2024 yillar Havola: https://www.unesco.org/uz/articles/education-reports

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY GVARDIYA FAOLIYATIDA “XAVFSIZ SHAHAR – XAVFSIZ MAMLAKAT” KONSEPSIYASINING AHAMIYATI

O.Mustafayev
O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Jizzax mintaqaviy o‘quv markazi Maxsus va o‘q otish tayyorgarlik sikli katta o‘qituvchisi

Mamlakatimizda demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida keng qamrovli islohotlar jarayoni olib borilmoqda. Mamlakatimizda ham olib borilayotgan keng qamrovli islohotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan biri bu albatta, xavfsizlikni ta’minlash bilan bog‘liqdir.

2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasining beshinchi ustuvor yo‘nalishi – xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta’kinlash, chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritishdir.Albatta, bugungi kunda Harakatlar strategiyasi doirasida olib borilayotgan islohotlar natijasida mamlakatimizning xavfsizligi yanada mustahkamlanib bormoqda.

Bizga ma’lumki, mamlakatimizda 2019-yilga – “Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili” deya nom berildi. Albatta, biz mamlakatimizda qulay investitsion muhitni yaratishimiz va ijtimoiy rivojlanishga katta e’tibor berishimiz talab etiladi. Chunki, xavfsizlik ta’minlangan mamlakatga va shaharga investorlar hech ikkilanmasdan o‘z kapitalini kiritishi, sayyohlar mamlakatimizning tarihiy-me’moriy obidalarga boy shaharlariga tashrif buyurishi mumkin va ijtimoiy sohadagi rivojlanishlar o‘z samarasini berishi mumkin.

“Xavfsiz shahar – xavfsiz mamlakat” konsepsiyasini amalga oshirishda eng avvalo, ichki va tashqi havf xatar va tahdidlarlarni bartaraf etishga katta e’tibor berish lozim. Mamlakatning ichki xavfsizligi va barqarorligiga tahdid soluvchi omillarga – jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oshib borishi, korrupsiya va boshqa bir qator omillarni keltirib o‘tish mumkin.

Albatta, bugungi kunda mamlakatimizda xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlash jarayonida davlatimizning mudofaa qudratini oshirish va O‘zbekiston

Respublikasi Qurolli Kuchlarining salohiyatini mustahkamlash borasida ham muhim islohotlar jarayoni amalga oshirilmoqda. Hususan, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tizimida yangi tuzilma O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasini tashkil etilishi xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlash borasida muhim qadamlardan biri bo‘ldi.

Prezidentimiz ta’kidlab o‘tganlaridek, “Ma’lumki bugungi kunda biz “Xavfsiz shahar–xavfsiz mamlakat” konsepsiyasi asosida yurtimizda jamoat tartibini ta’minlashga qaratilgan ishlarni amalga oshirmoqdamiz. Shu munosabat bilan mana shu yangi tuzilma, ya’ni Milliy gvardiya tashkil etildi. Endi bundan buyon har bir shahar va viloyatda xavfsiz hudud loyihasini amalga oshirish, jamoatchilik tartibini saqlash uchun Ichki ishlar vazirligi bilan birga Milliy gvardiya ma’sul va javobgar etib belgilanadi. Bu vazifalarni bajarish uchun Milliy gvardiya joylardagi davlat hokimiyati idoralari, jamoat tashkilotlari bilan yaqin hamkorlikda faoliyat olib boradi” .

Darhaqiqat, bugungi kunda Prezidentimizning tashabbusi bilan tashkil etilgan yangi tuzilma Milliy gvardiya mamlakatimizda xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlashda o‘z o‘rni va mavqeiga ega bo‘lib bormoqda.

Prezidentimiz tomonidan 2018-yil 24-dekabrda qabul qilingan “Jamoat xavfsizligini ta’minlash samaradorligini oshirish bo‘yicha chora tadbirlar to‘g‘risida” Qarori mamlakatimizda jamoatchilik xavfsizligini ta’minlash va sodir etilishi mumkin bo‘lgan jinoyatlarning barvaqt oldini olish borasida ishlarni samaradorligini oshirishga qaratilganligidir.

Mamlakatning xavfsizligi va barqarorligiga tahdid soluvchi tashqi omillarga bugungi kunda mavjud bo‘lgan terrorizim, estremizm, narkobiznes va noqonuniy qurol-yarog‘ savdosi va boshqalarni keltirish mumkin.

Bugungi kunda tomonidan mamlakatimizning xavfsizligi va barqarorligini ta’minlash borasida Markaziy Osiyo mintaqasida mavjud bo‘lgan turli xavf-xatarlarni oldini olish borasida O‘zbekiston davlatining faol pozitsiyani namoyon qildi. Chunonchi, bugungi kunda davlatimiz Markaziy Osiyo mintaqasidagi davlatlar bilan “Yahshi qo‘shnichilik va qardoshlik hamda o‘zaro teng huquqli

hamkorlik” asosida munosabatlarni yo‘lga qo‘ymoqda. Albatta, bu kabi faol pozitsiya Markaziy Osiyo mintaqasi xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlashga qaratilganligi bilan belgilanadi. Chunki, mintaqaviy tinchlik va barqarorlikdan barcha davlatlar birdek manfaatdordir.

Demak, mamlakatning xavfsiz deb topilishi eng avvalo ichki va tashqi xavflardan holiligi sifatida izohlash mumkin. Umuman olganda, mamlakatning xavfsiz deb topilishini bir qator ko‘rsatkichlar asosida baholash mumkin bo‘lsada, umumiy bir so‘z bilan har bir insonni o‘z yurtida, shahrida erkin yashashi va faoliyat yuritishi, unga hech qanday xavf-xatarlar tahdid solmasligi nazarda tutiladi.

2018-yil 7-mayda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining **“**Xavfsiz shahar” loyihasini amalga oshirish bo‘yicha bosqichma-bosqich chora-tadbirlar va yagona texnologik yondashuvni tashkil qilish to‘g‘risida Qarorie’lon qilinib, unga muvofiq, “Xavfsiz shahar» tizimini yaratish, shuningdek, “Xavfsiz hudud», «Xavfsiz turizm», “Xavfsiz dam olish” kabilarni ham rivojlantirish ko‘zda tutilgan .

Prezidentimizning 2018-yil 19-iyundagi “Toshkent shahrida jamoat tartibini ta’minlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qaroriga muvofiq, 2018-yil 1-iyuldan Toshkent shahrida jamoat tartibini ta’minlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimi asosida “Xavfsiz poytaxt” konsepsiyasini eksperiment tariqasida joriy etish va keyinchalik 2018-yil yakuni bo‘yicha ushbu amaliyotni butun mamlakat bo‘ylab joriy etish ko‘zda tutilgan .

Albatta, bu tizim bugungi kunda amaliyotga joriy etilib, uni amalga oshirishda Ichki ishlar organlari va Milliy gvardiya saf bo‘linmalari o‘zaro hamkorlikda samarali faoliyat olib bormoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizning barcha hududlarida tinchlik, barqarorlik va xavfsizlik borasida muhim ko‘rsatkichlarga erishilib, jinoyatchilik va huquqbuzarliklar miqdori keskin qisqardi. Natijada bir necha ko‘rsatkichlar borasida

O‘zbekiston dunyo mamlakatlari orasida turizm, investitsion jozibadorlik, terrorizm va ekstremizm xavfining mavjud emasligi kabilarda yuqori o‘rinlarga ega bo‘ldi.

Jumladan, Butun jahon Solo Travel Safety Report 2019-yil hisobotiga ko‘ra, O‘zbekiston yolg‘iz sayyohlar uchun eng xavfsiz bo‘lgan mamlakatlar reytingida 5-o‘rinni egalladi.

Safar uchun eng xavfsiz mamlakat Singapur bo‘ldi. Shuningdek, O‘zbekiston bilan bir qatorda birinchi beshlikka Islandiya, Norvegiya va Finlyandiya kirgan.

Hisobotga ko‘ra, 142 davlatlar aholisi o‘rtasida bir necha talablar bo‘yicha so‘rov o‘tkazilgan. Savollar ular tungi shaharda yolg‘iz aylanib yurganlarida o‘zlarini xavfsiz his qilishlari, mahalliy politsiya xodimlariga ishonishlari va o‘g‘irlikka yoki bosqinchilikka duch kelishlari haqida bo‘lgan.

Bundan tashqari, sayohat uchun eng xavfsiz bo‘lmagan mamlakatlar ham e’lon qilingan. Ro‘yxatda Venesuela, Afg‘oniston va Janubiy Sudan yetakchilik qilmoqda.

Shuningdek, Global Terrorism Index 2019-yil hisobotiga ko‘ra terrorizm xavfining mavjudligi bo‘yicha ko‘rsatkichlarda O‘zbekiston 135-o‘rinni egallagan holda 0.019 ballga ega bo‘lgan. Bu reytingda terrorizm xavfining yuqoriligi bo‘yicha birinchi 5 talikni Avg‘oniston, Iroq, Nigeriya, Suriya va Pokiston egallagan bo‘lsa, terrorizm xavfi mavjud bo‘lmagan davlatlarning 5 – taligini Belorussiya, Gvineya-Bisau, Ummon, Gambiya, KXDR lar egalladi.

Demak, bugungi kunda mamlakatimizdagi keng qamrovli islohotlarning ustuvor yo‘nalishlardan biri xavfsizlik va barqarorlik hisoblanadi. Chunki, jamiyatda xavfsizlik va barqarorlik ta’minlangan taqdirdagina, biz o‘z oldimizga qo‘ygan maqsadlarga erisha olishmiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2018-yil 24-oktyabr Qarori: Oliy ta’lim sohasini yanada rivojlantirish, kadrlar tayyorlash sifatini yanada oshirish, ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasini kengaytirish masalalari yuzasidan.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Xavfsizlik

kengashining kengaytirilgan yig’ilishidagi nutqi. Xalq so’zi. 2020-yil 11-yanvar.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Xalq so’zi. 2020-yil 25-yanvar.

4. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 18-noyabrdagi “O‘zbekiston RespublikasiMilliy gvardiyasi to‘g‘risida”gi 647- son qonuni.

FAVQULODDA HOLATLAR E'LON QILINGAN HUDUDDA JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH VA XAVFSIZ TA'LIM SHAROITNI YARATISH

Raxmatov Moxirjon Kosimovich
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi, podpolkovnik

Annotatsiya: Ushbu maqolada favqulodda holat yuzaga kelganda hududda xavfsiz ta'lim tizimini yarati, favqulodda holadda jamoat xavfsizligini ta'minlovchi davlat organlari, favqulodda holat to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasining konstitusiyaviy qonguni, o'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasi to'g'risida aytib o'tilgan.

Kalit so'zlar: xavfsiz ta'lim tizimi, favqulodda holat, jamoat xavfsizligi, jamoat xavfsizligini ta'minlash.

Ohirgi yillarda butun jahon miqyosida favqulodda holat sodir bo'lganda jamoat xavfsizligi ta'minlash bilan bog'liq holatlar juda ham ko'p sodir bo'lmoqda. Shu o'rinda aytish joizki, agar favqulodda holat yuz bersa, demak u yerda albatta jamoat xavfsizligini ta'minlanishi, shu bilan bir qatorda fuqarolarning xavfsiz ta'lim olishlari va huquqlarini buzilishiga yo'l qo'ymaslik zarur bo'ladi.

Ta'lim- bu bilim berish, malaka va ko'nikmalar hosil qilish, kishini mehnati orqali hayotga tayyorlashning asosiy vositasidir.

Favqulodda holat sodir bo'lganda jamoat xavfsizligi ta'minlash uchun malakali kadrlarni tayyorlash, bu hozirgi kunda dunyo miqyosida global muammoga aylanib bormoqda. Dunyoning yetakchi rivojlangan davlatlarida bu muammoni oldini olish va uni keskin bartaraf etish chora-tadbarlari izchillik bilan amalga oshirilmoqda va bu bo'yicha aniq rejalar davlatning qonunchiligiga asosan ishlab chiqilib, favqulodda holatlarda jamoat xavfsizligi ta'minlashda ishtirok etuvchi subektlar aniq ko'rsatilib, ularning bunday vaziyatdagi vazifalari belgilab berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 29 noyabrdagi 27-sonli farmoni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasi ham bizning yurtimizda jamoat xavfsizligini ta'minlashda olib borilayotgan izchil xarakatlarga poydevor bo'lib xizmat qiladi desak yanglishmagan bo'lamiz.

Prezidentimiz tomonidan tasdiqlangan ushbu konsepsiyada, favqulodda holat sodir bo‘lganda jamoat xavfsizligi ta’minlash uchun malakali kadrlarni tayyorlash bo‘yicha ham alohida vazifalar belgilab berilgan bo‘lib, bunda:

faoliyatida yuqori natijalarga erishgan Toshkent shahar va Toshkent viloyati ichki ishlar organlaridan ikkitadan, qolgan hududiy ichki ishlar organlaridan bittadan profilaktika inspektori Departament boshlig‘i taqdimnomasiga asosan Ichki ishlar vazirligi Akademiyasining sirtqi ta’limiga imtihonlarsiz qabul qilinishi hamda bepul o‘qitilishi;

profilaktika inspektorlari uchun Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi sirtqi ta’limiga qabul qilinadigan xodimlar umumiy sonining kamida yigirma besh foizi miqdorida qabul kvotasi ajratilishi;

2024 yil 1 sentabrdan e’tiboran Toshkent shahar ichki ishlar organlari, 2025 yil 1 sentabrdan boshlab qolgan hududiy ichki ishlar organlari profilaktika katta inspektori lavozimlariga faqat oliy yuridik ma’lumotga ega bo‘lgan xodimlar tayinlanishi nazarda tutilgan.[1]

Aytib o‘tish lozimki, o‘sha 2022 yil iyul oyida Qoraqalpog‘iston Respublikasida sodir bo‘lgan favqulodda holatda ham huquqni muxofaza qiluvchi organlar o‘zlarining yetuk tajribalariga tayanib, favqulodda holat sodir bo‘lgan xududda jamoat xavfsizligini, fuqarolarni xavfsizligini o‘z vaqtida ta’minlab, xavfsiz xudud yaratishga erishdilar va buning natijasida, favqulodda holat oqibatlari zudlik bilan bartaraf etildi.

Biz kelajakda yurtimizda barcha sohalarda yetuk mutaxasislarni yetishib chiqishini xoxlasak, unda muxtaram prezidentimiz aytganlaridek, “*Mamlakatimiz taraqqiyotini yangi pog‘onaga olib chiqish uchun boshqaruv ham, qonunchilik ham, jamiyatimiz ham o‘zgarishi kerak. Agar shunday qilmasak, muammolarni ko‘rib, ko‘rmaslikka olsak, zamondan orqada qolamiz. Xalqimiz, yosh avlodimiz bizdan rozi bo‘lmaydi. Shu bois, “Avval – inson, keyin – jamiyat va davlat” degan g‘oyani Konstitusiyamiz va qonunlarimizga ham, kundalik hayotimizga ham chuqur*

[1] PF-27 “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021 yil 29 noyabrda qabul qilingan.

singdirishimiz kerak. Hozirgi kundagi jiddiy sinovlar va bashorat qilib bo‘lmaydigan xavf-xatarlarni yengib o‘tishga qodir bo‘lgan milliy davlatchiligimiz asoslarini mustahkamlashimiz zarur”[1].

Shu bois ham mamlakatimizda yangi tahrirdagi konstitusiyaga kiritilgan qo‘shimcha va o‘zgartirishlarning hammasi inson qadrini ulug‘lashga, huquqiy demokratik yangi O‘zbekistonni barpo qilishga qaratildi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar doirasida aholining tinch va osoyishta hayotini ta’minlash hamda bilimi va madaniyatini shakllantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Hozirgi kunda ahamiyat beradigan bo‘lsak, xavfsiz ta’limni ta’minlash uchun umumta’lim maktablariga ham milliy gvardiya xodimlari navbatchilikka tayinlangan va ular o‘quvchilarni xavfsizligini ta’minlash va xavfsiz o‘quv dargohida bilim olishlari uchun imkon darajasida o‘z mexnatlarini ayamasdan kechayu-kunduz xizmat olib bormoqdalar.

Favqulodda holat sodir bo‘lgan hududda jamoat xavfsizligi davlat tomonidan yetarli darajada ta’minlanmas ekan, buning oqibati juda ko‘p salbiy holatlarni keltirib chiqarishi mumkin, masalan; inson xuquqlarining buzilishiga, o‘rta hamda oliy ta’lim muassasalarida o‘quvchi va talabalar yoshlarni xavfsiz bilim ololmasliklariga, davlatni iqtisodiyotini, olib borilayotgan oqilona siyosatini izdan chiqishiga, halqning davlatga bo‘lgan ishonchini yo‘qolishiga, o‘sib kelayotgan yosh avlodning ongini zaharlanishiga va boshqa ko‘plab noxush holatlarga olib kelishi mumkin. Favqulodda holatga, O‘zbekiston Respublikasining 2021 yil 15 dekabrda qabul qilingan 737-sonli konstitusiyaviy qonunida favqulodda holatga quyidagicha tarif berib o‘tilgan: **Favqulodda holat** - bu davlatning butun xududi yoki alohida ma’muriy xududlarida vaqtinchalik joriy etilgan, davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat xokimiyati organlari, fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari, siyosiy partiyalar, no’davlat notijorat tashkilotlari hamda tashkiliy-huquqiy va mulkchilik shaklidan qat’iy nazar boshqa tashkilotlar, ularning mansabdor shaxslari faoliyatining alohida xuquqiy rejimi[2].

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 20 dekabr kungi halqqa va Oliy majlisga murojaatnomasi. https://qalampir.uz/news/ Web20/12/2022 y.
[2] O‘zbekiston Respublikasining 2021 yil 15 dekabrda qabul qilingan 737-sonli konstitusiyaviy qonuni.

Favqulodda holatning e’lon qilinishi, jamoat xavfsizligini ta’minlanishi bilan uzviy bog‘liqdir. Favqulodda holat sodir bo‘lgan xududda jamoat xavfsizligini ta’minlanmas ekan, sodir bo‘lgan holatni bartaraf etishga qaratilgan urinishlar samarasiz yakun topishi extimoldan holi emas. Shunday ekan jamoat xavfsizligi va uni ta’minlash degan tushunchaga xam qisqacha to‘xtalib o‘tishimiz lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021- yil 29- noyabrdagi 27-sonli farmoni bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasida, jamoat xavfsizligi va jamoat xavfsizligini ta’minlash tushunchalariga shunday tarif berilgan:

Jamoat xavfsizligi - bu jamiyatning qonunga xilof tajovuzlar, ijtimoiy va millatlararo nizolar, favqulodda vaziyatlar va boshqa taxdidlardan himoyalanganlik holati bo‘lib u jamiyatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi hamda insonning xuquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari ro‘yobga chiqarilishini ta’minlaydi;

Jamoat xavfsizligini ta’minlash – bu davlat tomonidan jamiyatni tahdidlardan himoya qilish uchun belgilanadigan hamda doimiy ravishda takomillashtirib boriladagan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, xuquqiy va boshqa kompleks tashkiliy chora -tadbirlarni qamrab oluvchi yaxlit tizim xisoblanadi.[1]

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan keyingi yurtimizda sodir bo‘layotgan favqulodda holatlardagi jamoat tartibini buzilish holatlarini, bunga misol tariqasida, 2005 yil may oyidagi Andijon viloyatida ro‘y bergan favqulodda holat, 2022 yil iyun oyida esa Qoraqalpog‘iston Respublikasida konstitusiyaviy tuzimimizga qarshi olib borilgan xarakatlar natijasida u yerda favqulodda holat e’lon qilinishini aytishimiz mumkin.

Bunday holatlarda jamoat xavfsizligini ta’minlash va u yerda ishtirok etuvchi subyektlar va ularning faoliyati va vazifalari, biz yuqorida aytib o‘tgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 29 noyabrdagi 27-sonli farmoni bilan tartibga solingan, bular: O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi, Ichki Ishlar vazirligi, Milliy gvardiya, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Davlat xavfsizligi

[1] PF-27 “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021 yil 29 noyabrda qabul qilingan.

xizmati, Bosh prokuratura, Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, Raqamli texnologiyalar vazirligi, Sog‘liqni saqlash vazirligi, Mahalla davlat xokimiyati organlaridan iborat. Bu subyektlarning vazifalari konsepsiyada aniq qilib belgilab berilgan[1].

Konsepsiyaga asosan ushbu subyektlar o‘z vazifalarini Jamoat xavfsizligini ta’minlash asosiy tamoyillariga tayangan holda amalga oshiradilar,

Aytish joizki hozirgi kunda dunyodagi ro‘y berayotgan davlatlar o‘rtasidagi o‘zaro to‘qnashuvlar, ular natijasida kelib chiqayotgan salbiy oqibatlar, iqlim buzilishlari bilan bog‘liq tabiiy ofatlar, har xil turdagi yuqumli infeksiyalarni butun dunyo bo‘ylab tarqalishi, joylarda, qolaversa davlatlarda bunday favqulodda holatlarni bartaraf etish uchun karantin holatlarini bir qancha muddatga e’lon qilinishi bilan unga halqni rioya qilishini tartibga solish va uni nazorat qilib bir maromda amalga oshishini ta’minlash bu hammasi Favqulodda holatlarda jamoat xavfsizligi, xavfsiz xududni, xavfsiz ta’lim olishga sharoit yaratishni talab qiladi.

Qo‘shimcha sifatida yana shuni aytish mumkinki, Jamoat xavfsizligi taminlash – bu xalq tinchligini saqlash, xalqni davlatga bo‘lgan ishonchini oshirish, Prezidentimiz aytganlaridek “*Halqni rozi qilish*” demakdir. Shu o‘rinda aytib o‘tish joizki favqulodda holatlarda jamoat xavfsizligi taminlash, unda xavfsiz ta’lim sharoitini yaratishni amalga oshirishga asos bo‘ladigan bir qator qonun xujjatlari talablarini to‘g‘ri talqin qilib, undan to‘g‘ri foydalanmoqlik lozim, ayrim hollarda ushbu qonun talablarini qo‘pol ravishda buzilishi, jinoiy javobgarlikka sabab bo‘lishi mumkin.

Zamonaviy davrda xorijiy davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, butun dunyodagi maxalliy, mintaqaviy tashkilotlar jamoat xavfsizligini tashvish va amaliyotga ega bo‘lgan asosiy yo‘nalashlardan biri sifatida aniqladilar. Ular aholisi hamda jamiyatning xavfsiz hayot kechirishini, xavfsiz ta’lim olishlarini ta’minlash uchun yangi bo‘lim va idoralar tashkil etmoqdalar. Chunki ijtimoiy xavfsiz xududda jamiyatning iqtisodiy, savdo va moliyaviy farovonligi hamda ta’lim sifati

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 29 noyabrdagi 27-sonli farmoni bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasi.

shakllanadi. Investorlar va ishbilarmonlar jinoyat darajasi har doim yuqori qo‘rsatgichda turadigan mintaqaga sarmoya kiritishni istamaydilar. Shuning uchun ham dunyodaning har sohada yetakchi davlatlarida aholisini yetarli darajada himoya qilishni ta’minlash, shuningdek ofatlar ehtimoli bilan iloji boricha kurashish chora-tadbirlari ko‘rilmoqda.

Hozirgi kunda jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, jamoat xavfsizligini yetarli darajada ta’minlanmasligi va inson xuquqlarini paymol bo‘lishi, xavfsiz ta’lim olish sharoitining yo‘qligi uning aholisini mamlakatdan ko‘chib ketishiga sabab bo‘lmoqda. Bu dunyoning turli burchaklarida turli mamlaktlarda bo‘lgan va hozir ham kuzatilmoqda. Bu esa mamlakat uchun katta yo‘qotish xisoblanadi. Davlatimizning bosh qomusi bo‘lgan konstitusiyamizning **7-moddasida** shunday deyilgan “Halq davlat xokimiyatining birdan-bir manbaidir”[1] deb takidlab o‘tilgan. Shunday ekan huquqni muxofaza qiluvchi davlat idoralari doimo fuqarolarning xavfsizligini ta’minlash uchun kechayu-kunduz o‘z xizmatlarini ayamaydilar degan fikrdamiz.

Xulosa o‘rnida shuni aytish lozimki, dunyo bugungi kunda shiddat bilan rivojlanib borayotgan va shu bilan birga favqulodda holatlarda jamoat havfsizligini ta’minlash bilan bog‘liq vaziyatlarning har xil qo‘rinishda sodir bo‘lishi va halqning ongidagi bo‘shliqni zaharlash uchun turli xil yot g‘oyalar tomonidan kurash kuchaygan bir vaqtda, xalq farovonligi yo‘lida faqat davlat idoralarigina emas, ular bilan halq ham hamkorlikda, birdamlikda sadoqat bilan xarakat qilishimiz, yurtimiz ravnaqiga har birimiz o‘z xissamizni qo‘shmog‘imiz lozim deb o‘ylayman. Joylarda davlat organlarining halq bilan xamkorligini kuchaytirishni yanada takomillashtirish bo‘yicha qabul qilingan meyoriy xujjatlar talablarini chuqur anglab yetib va uni amaliyotga to‘g‘ri tadbiq etsak ko‘plab jamoat xavfsizligi buzilishlarini va jinoyatchilikni yangi ko‘rinishlarini oldini olishda amaliy yordam bo‘lar edi degan fikrdamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining konstitusiyasi.

[1] O‘zbekiston Respublikasining konstitusiyasi.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 29 noyabrdagi 27-sonli farmoni bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasi.

3. O‘zbekiston Respublikasining 2021 yil 15 dekabrda qabul qilingan 737-sonli konstitusiyaviy qonuni “Favqulodda holat to‘g‘risi”da.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 20 dekabr kungi halqqa va Oliy majlisga murojaatnomasi.https://qalampir.uz/news/ Web20/12/2022 y.

ХАВФСИЗ ТАЪЛИМ ВА ИНСОН ҲУҚУҚЛАРИ

Алимов Гайбулла Алимович
Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети доценти, ю.ф.н., доцент

2024 йилда халқаро ҳамжамият 2011 йилнинг 19 декабрда қабул қилинган БМТнинг Инсон ҳуқуқлари соҳасида таълим тўғрисидаги декларациясининг 15 йиллигини нишонлади. Инсон ҳуқуқлари бўйича таълим универсаллик, бўлинмаслик, ўзаро боғлиқлик тамойилларига мувофиқ барча учун инсон ҳуқуқларига ҳурматни рағбатлантириш, ҳуқуқ ва эркинликларни таъминлаш учун фундаментал асосга эгадир.

БМТнинг Барқарор ривожланиш мақсадларининг тўртинчи мақсадида, Инсон ҳуқуқлари соҳасидаги Жаҳон таълим дастурида ҳам таълимнинг барча босқичларида инсон ҳуқуқларини ўқитиш давлатларнинг муҳим вазифаси сифатида белгиланган.

2020 йилдан буён Жаҳон таълим дастурининг тўртинчи босқичи амалга оширилиб келинмоқда. Ушбу босқич ёшларни тенглик, инсон ҳуқуқларига амал қилиш ва камситмаслик, таълимда чекловларга йўл қўймаслик руҳида тарбиялаш ва инклюзив, тинч ва осойишта жамиятни яратишга имкон берувчи хавфсиз таълим беришга қаратилгандир.

Инсон ҳуқуқлари маданиятини шакллантириш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси Кенгаши ва Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Сенати Кенгаши томонидан 2019 йил 15 июлда БМТнинг Инсон ҳуқуқлари соҳасида таълим тўғрисидаги декларацияси қоидаларини амалга ошириш бўйича Миллий ҳаракатлар дастури ва унинг ижроси юзасидан «Йўл харитаси» қабул қилинди[1].

Мазкур йўл хартиасида Давлат органлари, фуқаролик жамияти институтлари, оммавий ахборот воситалари, таълим муассасалари аҳоли

[1]қаранг: Ўзбекистон Республикасида инсон ҳуқуқлари бўйича халқаро мажбуриятларга риоя қилинишининг ҳолати тўғрисида ахборот. – Тошкент: Инсон ҳуқуқлари бўйича Ўзбекистон Республикаси Миллий маркази, 2021. – 42 бет.

орасида умуминсоний қадриятлар, инсон ҳуқуқларини ҳурмат қилиш ва унга риоя қилиш тамойилларини оммалаштиришга, шунингдек, фуқароларнинг ҳуқуқий ахборотдан фойдаланишини таъминлаш жараёнига кенг жалб этилди. Жумладан, инсон ҳуқуқлари соҳасида таълимни такомиллаштириш борасида кадрлар тайёрлаш ва қайта тайёрлашнинг барча шакллари ва турларида (олий, ўрта-махсус касб-ҳунар таълими) махсус ўқув курслари ишлаб чиқилди ва у амалиётга жорий этиб келинмоқда.

Инсон ҳуқуқлари бўйича Миллий маркази ҳузурида давлат органлари ва фуқаролик жамияти институтлари ходимлари учун Инсон ҳуқуқларига риоя этиш ва уни ҳимоя қилиш соҳасида кадрлар малакасини ошириш бўйича ўқув курслари ташкил қилинди.

Шунингдек, Марказ томонидан турли йўналиш ва босқичлардаги таълим муассасалари учун «Инсон ҳуқуқлари» фани бўйича ўқув дастурлари тайёрланган. 2020 йилда илк бор ташкил этилган «Рақамли иқтисодиёт, инсон ҳуқуқлари соҳасида таълим ва тадқиқотлар» мавзусидаги танловда 12 номинация бўйича қатнашган 80 та иштирокчи орасидан ғолиблар тақдирланди.

Адлия вазирлиги томонидан «bolahuquqi.uz – Бола ҳуқуқлари портали» ҳуқуқий, мантиқий, интерактив ва кўнгилочар портал ишлаб чиқилди. Бош прокуратура Академиясида “Инсон ҳуқуқлари бўйича халқаро ҳуқуқ” магистратура йўналиши очилди.

2022 йилдан буён Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университетида “Инсон ҳуқуқлари” фани курсантлар ва талабаларга ўқитилиб келинмоқди.

Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлиги тизимида инсон ҳуқуқлари бўйича ўқитиш ва тайёрлашни такомиллаштириш мақсадида раҳбар кадрлар факультети тингловчилари учун «Ички ишлар органларининг инсон ҳуқуқларини ҳимоя қилиш ва таъминлаш фаолияти» фани, сиртқи ўқитиш факультетларида «Инсон ҳуқуқлари умумий назарияси» фани бўйича

дарслар жорий қилинди. Шунингдек, Ички ишлар вазирлиги Академиясида «Инсон ҳуқуқлари» кафедраси қайта ташкил этилди.

Миллий стратегия доирасида Ўзбекистон Республикаси Олий аттестация комиссияси қарори билан “Олий малакали илмий ва илмий-педагог кадрлар рўйхати”га 12.00.13 – “Инсон ҳуқуқлари (юридик фанлар, социология фанлари)” ихтисослиги киритилди, шунингдек, Инсон ҳуқуқлари бўйича Миллий марказ ҳузурида юридик фанлар ва социология фанлари бўйича фан доктори (DSc) ва фалсафа доктори (PhD) илмий даражаларини берувчи Илмий кенгаш тузилди[1].

Инсон ҳуқуқлари соҳасида олий малакали илмий ва илмий-педагогик кадрлар тайёрлаш, шунингдек, ушбу йўналишда фундаментал тадқиқотларни ривожлантириш мақсадида 12.00.13 – “Инсон ҳуқуқлари” (юридик фанлар, социология фанлари) ихтисосликлари бўйича олий таълимдан кейинги таълим институти очилди, докторантлар ва мустақил тадқиқотчиларнинг қабули ташкил қилинди.

Шунингдек, мамлакатимизда биринчи марта Ўзбекистон Республикаси Конституцияси ҳамда “Ногиронлиги бўлган шахсларнинг ҳуқуқлари тўғрисида”ги қонун матни расмий нашрлари Брайл алифбосида чоп этилди.

Шуни алоҳида таъкидлаш лозимки, БМТнинг Инсон ҳуқуқлари бўйича олий комиссари Бошқармасининг 2020 йилдаги фаолияти ҳисоботида Ўзбекистон билан инсон ҳуқуқлари соҳасидаги ҳамкорлик муносабатлари ижобий баҳоланган. Шунингдек, Ўзбекистон томонидан БМТнинг инсон ҳуқуқлари соҳасидаги Ихтиёрий бадаллар жамғармасига, шу жумладан “Инсон ҳуқуқлари бўйича таълим” глобал форумини ташкил этиш ва ўтказиш-га 100 минг АҚШ доллари миқдорида маблағ ўтказилди.

Шу билан бирга, жамиятда инсон ҳуқуқлари ва эркинликларига ҳурмат ҳиссининг шаклланиши, халқаро ва минтақавий механизмлар тавсияларининг тўлиқ бажарилиши учун инсон ҳуқуқлари бўйича хавфсиз таълим тизимини йўлга қўйиш борасида бир қатор долзарб муаммолар мавжудлигини эътироф

[1] Ўша ерда

этиш жоиз. Улардан бири хавфсиз таълим тизимини самарали ишлашига тўсиқ бўлаётган таълим соҳасидаги камситишлар ва чекловлар тўғрисида алоҳида тўхталиб ўтиш жоиз.

Таълим соҳасидаги чекловлар бутун жаҳон ҳамжамияти учун, шу жумладан, БМТнинг Барқарор ривожланиш мақсадлари доирасидаги нохуш ижтимоий, иқтисодий ва молиявий оқибатлари бу борада мувофиқлаштирилган глобал жавоб чораларини кўриш, таълим соҳасида ижтимоий-иқтисодий, илмий, инновацион ва технологик салоҳиятни сафарбар этиш зарурлигини яна бир бор кўрсатмоқда**.**

БМТ томонидан 1960 йилда қабул қилинган таълим соҳасидаги камситишга қарши Конвенцияси кучга киргандан бери ЮНЕСКО Бош конференцияси ташкилотнинг таълим соҳасидаги асосий меъёрий ҳужжатларидан бири бўлиб келган. Бугунги кунга келиб, ушбу конвенцияни дунёнинг 104 мамлакатлари уни ратификация қилди ва ЮНЕСКО энди бошқа давлатларни конвенцияни ратификация қилишга ундамоқда[1].

Мазкур Конвенция таълим ҳашамат эмас, балки инсоннинг асосий фундаментал ҳуқуқи эканлигини тасдиқлайди. Бу давлатларнинг бепул ва мажбурий ва хавфсиз таълимни таъминлаш бўйича мажбуриятларини белгилайди, таълим соҳасидаги ҳар қандай камситиш ва чеклашларни таъқиқлайди ва таълим имкониятларининг тенглигини таъминлайди. Конвенция таълим олиш ҳуқуқини ҳар томонлама қамраб олади ва бутунлай таълимга бағишланган БМТнинг ягона ҳужжатидир. Конвенция 2030 йилгача хавфсиз таълим кун тартибининг асоси ҳамда инклюзив ва адолатли сифатли таълимни тарғиб қилишнинг кучли воситаси сифатида тан олинган.

COVID-19 пандемияси вақтида Ўзбекистонда ҳам хавфсиз таълим соҳасида бир қатор муаммолар мавжудлиги кўзга ташланиб қолди. Хусусан, инсон саломатлиги, унинг ҳуқуқлари ва қонуний манфаатларини таъминлаш, аҳолини самарали ижтимоий қўллаб-қувватлашга қаратилган устувор чора-тадбирлар қабул қилиниб, ушбу масала юзасидан 50 дан ортиқ Ўзбекистон

[1] Ыаранг: https://www.unesco.org/ru/articles/

Республикаси қонунлари, Президент ва Ҳукуматнинг норматив-ҳуқуқий ҳужжатлари қабул қилинди. Бутун мамлакат миқёсида карантин тизими жорий этилди. Бу борадаги масалаларда аҳолининг масъулиятини ошириш мақсадида қонунчиликка тегишли ўзгартиришлар киритилди, шунингдек нотўғри ахборот тарқатганлик учун жавобгарлик белгиланди.

COVID-19 пандемияси мамлакатимизда таълим олиш шакли ўзгариши, таълимнинг масофавий шаклга ўтказилиши мактаб ўқувчилари ва талабаларнинг тўлақонли ҳамда сифатли таълим олиш ҳуқуқларига риоя этилиши борасида бир қатор муаммоларни келтириб чиқарди.

Хусусан: таълим олиш тизимидаги туб ўзгаришлар, масофавий ўқишга ўтиш натижасида қуйидаги муаммоларни юзага чиқарди:

- академик ҳамжамиятнинг иш куни давомийлиги ошиши, меҳнат шароитларининг ўзгариши;
- ўқитувчиларнинг катта қисмида масофавий ўқитишни ташкил этиш учун зарур бўлган шароитлар, тўлақонли масофавий ишлаш учун техник жиҳозлар ва ахборот технологиялари ёрдамида ишлаш бўйича профессионал кўникмаларнинг мавжуд эмаслиги;
- тиббиёт, муҳандислик ва ижодий (мусиқачилар, дизайнерлар ва бошқалар) мутахассислиги бўйича талабалар учун амалий машғулотлар, ўқув-лаборатория ишларини ташкил этиш имкониятининг йўқлиги ва ҳ.к.

Юқорида келтириган камчиликлар инсон ҳуқуқлари соҳасидаги таълим сифатига ҳам салбий таъсир қилиб келмоқда. Масалан, 2021 йил апрель-май ойларида Инсон ҳуқуқлари бўйича миллий Марказ ташаббуси билан олий ўқув юртларида, лицей ва техникумларда “Инсон ҳуқуқлари”, “Аёллар ҳуқуқлари” ва “Бола ҳуқуқлари”га оид ўқув курслари ва дарсликлар жорий этилганлиги ҳолати ҳамда мазкур мавзуларнинг ўқитилиш сифатини ўрганиш мақсадида мониторинг ўтказилган.

Мониторинг Наманган, Хоразм, Самарқанд вилоятлари ва Қорақалпоғистон Республикаси ҳудудларида фаолият олиб бораётган олий ўқув юртлари ҳамда техникум ва академик лицейларни қамраб олди. Ушбу

таълим муассасаларининг 248 нафар профессор-ўқитувчиси ва 456 нафар талаба ўртасида сўров ўтказилди.

Олий ўқув юртларида ўтказилган мониторингда шу ҳолат яққол аён бўлдики, “Инсон ҳуқуқлари” махсус курсини олий таълим тизимида ҳуқуқшунос мутахассислар эмас, балки асосан тарихчилар ёки фалсафа ўқитувчилари ўқитаётган экан.

Айрим олий ўқув юртларида (Наманган давлат университети, Самарқанд давлат университети, Самарқанд медицина-ветеренария институти, Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, “Ипак йўли” туризм халқаро университети, Бердақ номидаги Қорақалпоқ давлат университети, Тошкент тиббиёт академияси Урганч филиали) “Инсон ҳуқуқларини ўрганиш бўйича махсус ўқув курси”ни ўқитиш юзасидан молиявий манбалар белгиланмаганлиги сабабли, махсус курсни ўқитиш имконияти бўлмаган. Шунингдек, мониторинг натижасида “Аёл ҳуқуқлари” ва “Бола ҳуқуқлари” фанлари умуман ўқитилмаслиги маълум бўлди. Педагогик кадрлар малакасини ошириш институтларида ҳам инсон ҳуқуқлари бўйича дарс соатлари ёки курслар ҳалигача ташкил этилмаган.

Мамлакатимизда инсон ҳуқуқлари бўйича таълимни ривожлантириш соҳасида амалга оширилаётган ислоҳотларга қарамасдан, қатор ҳал этилмаган масалалар, камчиликлар ва фойдаланилмаган имкониятлар мавжудлигини кўриш мумкин.

Ҳозирда Марказ томонидан Ўзбекистон Республикасида Жаҳон таълим дастурининг тўртинчи босқичини амалга ошириш бўйича Инсон ҳуқуқлари соҳасидаги миллий таълим дастури лойиҳаси ишлаб чиқилган бўлиб, ушбу ҳужжат давлат органлари, фуқаролик жамияти институтлари ҳамда халқаро ҳамкорлар билан биргаликда такомиллаштирилмоқда.

IJTIMOIY JIHATDAN XAVFLI AHVOLDA BO‘LGAN BOLALAR BILAN ISHLASH BO‘YICHA MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA

Mirzatillayev Umid Izzatillaevich
O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti yetakchi ilmiy xodimi, Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi
E-mail: mirzatillaevumid7@gmail.com

Bugungi kunda mamlakatimiz aholisining 40 foizga yaqinini voyaga yetmaganlar tashkil etishi voyaga yetmaganlar jamiyat va davlat rivojiga ta’sir etuvchi va hal qiluvchi asosiy omil ekanligidan dalolat beradi.

Azaldan mamlakatimizda farzand dunyoga kelganidan boshlab, to kamolga yetguniga qadar uning ta’minoti, ta’lim-tarbiyasi va bilim olishi, kasb-hunar egallashiga, umuman, yetuk inson bo‘lib kamol topishiga alohida e’tibor qaratib kelingan.

Shu o‘rinda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2019 yilda mamlakatimizni rivojlantirishning eng muhim ustuvor vazifalari to‘g‘risidagi Parlamentga Murjaatnomasida: “Xalqimizda “ta’lim va tarbiya beshikdan boshlanadi” degan hikmatli bir so‘z bor. Faqat ma’rifat insonni kamolga, jamiyatni taraqqiyotga yetaklaydi[1]” degan fikrlari ham so‘zimizni yana bir bor isbotlaydi

Voyaga yetmaganlarni vatanparvarlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ularni terrorizm, diniy ekstremizm,

«ommaviy madaniyat», zo‘ravonlik va shafqatsizlik g‘oyalaridan himoyalash voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklarining oldini olishga xizmat qiladi.

Ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo‘lgan bolalar bilan ishlash jamiyatning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularga munosib tarbiya va ta’lim berish, shuningdek, kelajakda mustaqil hayotga tayyorlash maqsadida davlat va nodavlat tashkilotlar hamkorlikda faoliyat olib borishlari talab etiladi.

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi //Xalq so‘zi. – 2018. – 29 dek

Ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo‘lgan bola deganda voyaga yetmaganning nazoratsizligi yoki qarovsizligi oqibatida uning hayoti yoki sog‘lig‘i uchun xavf tug‘diradigan yoxud uni ta’minlash, tarbiyalash va unga ta’lim berish talablariga javob bermaydigan sharoitda bo‘lgan huquqbuzarlik yoki boshqa g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etayotgan voyaga yetmagan shaxs tushuniladi[1].

O‘zbekiston Respublikasida yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni ijtimoiy himoya qilishga alohida e’tibor qaratib kelinmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 14 noyabrda qabul qilingan “Bolalarni ijtimoiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-185-sonli Farmoniga muvofiq, bunday bolalarni muqobil shaklda joylashtirish, ularga uzoq yoki qisqa muddatli g‘amxo‘rlik ko‘rsatish hamda tarbiyalash xizmatlari davlat ijtimoiy buyurtmasi, autsorsing yoki boshqa turdagi shartnomalar asosida amalga oshish tartiblari belgilandi. Bu jarayonda “Inson” markazlari bolalarning qonuniy vakili sifatida ishtirok etadi va ularning huquq hamda manfaatlarini himoya qiladi[2].

Nodavlat tashkilotlar ham ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo‘lgan bolalarga yordam ko‘rsatishda muhim rol o‘ynaydi. Ular davlat bilan hamkorlikda bolalarni tarbiyalash, ta’lim berish va ijtimoiy moslashuvini ta’minlash bo‘yicha turli dastur va loyihalarni amalga oshiradi. Bu tashkilotlar tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlar respublikamizda “Inson” markazlari tomonidan monitoring qilinadi va bolalarning manfaatlariga mos ravishda muvofiqlashtirib boriladi.

Ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo‘lgan bolalarning ta’lim va tarbiyasiga alohida e’tibor qaratish zarur. Bu bolalarning psixologik holatini inobatga olgan holda, ularga individual yondashuvni ta’minlash muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, ularning ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirish, mustaqil hayotga tayyorlash va kasbiy ta’lim berish orqali kelajakda jamiyatda o‘z o‘rnini topishlariga ko‘maklashish lozim.

---

[1] O‘zbekiston Respublikasining 2010 yil 29 sentabrdagi “Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risidagi” qonuni.

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prizidentining 2024 yil 14 noyabrda qabul qilingan “Bolalarni ijtimoiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-185-sonli Farmoni //https://www.lex.uz/docs/7228799

Mazkur yo‘nalishda mamlakatimizda qator ijobiy islohotlar amalga oshirilgan bo‘lsada, ammo oldinda bajarilishi lozim bo‘lgan vazifalar ko‘p. Ayniqsa voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining barvaqt oldini olish yo‘nalishida kamchiliklar uchrab turibdi. Buni quyidagi statistik ma’lumotlar ham tasdiqlaydi.

2024 yilda inspektor-psixologlar tomonidan umumiy o‘rta ta’lim maktablarida dars vaqtida boshqa mashg‘ulot va mehnat turi bilan shug‘ullanayotgan **14 718** nafar o‘quvchilar aniqlanib, ularning **14 356** nafari dars mashg‘ulotlariga qaytarilgan. Bolalarini tarbiyalash va ularga ta’lim berish borasidagi majburiyatlarini bajarmaganligi uchun **6 455** nafar ota-onaga nisbatan O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning **47-moddasi** bilan ma’muriy bayonnomalar rasmiylashtirilgan.

2024 yil davomida **maktab o‘quvchilari** tomonidan **2 213 ta** jinoyat sodir etilib, umumiy jinoyatchilikka nisbatan ulushi **1,7 foizi**ni tashkil etgan.

Maktab o‘quvchilari tomonidan sodir etilgan jinoyatlarning **asosiy salmog‘i** *(63 %)* **5 ta** hudud, ya’ni **Toshkent shahri** *(413 ta),* **Farg‘ona** *(419 ta),* **Andijon** *(179 ta),* **Namangan** *(229 ta)* va **Samarqand** *(154 ta)* viloyatlari hissasiga to‘g‘ri kelgan.

Maktab o‘quvchilari tomonidan sodir etilgan jinoyatlarning **har ikkinchisi o‘g‘rilik** (1 118 ta) jinoyatidir. Ushbu jinoyatlarning 5 tasi qotillik, 83 tasi og‘ir shikast yetkazish, 41 tasi nomusga tegish, 116 tasi talonchilik, 21 tasi bosqinchilik, 66 tasi firibgarlik, 272 tasi bezorilik, 71 tasi transport vositasini olib qochish jinoyatlari ham sodir etilgan.

Jinoyat sodir etgan **2 417 nafar** maktab o‘quvchisi barcha jinoyatlar bo‘yicha aniqlangan shaxslarning **4 foizini** tashkil etgan[1].

Eng achinarli tomoni huquqbuzarliklar sodir etishga moyil bo‘lgan voyaga yetmaganlar tomonidan 2024 yilda **1 844 ta** jinoyat sodir sodir etilgan.

Tadqiqotlar ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo‘lgan o‘smirlar uchun: *bolalarning qarovsizligi, o‘qishdan bosh tortish va maktabga bormaslik, uydan*

[1] Jinoyatchilik tendensiyalari va omillari davlat hisobotlari (2024 yil bo‘yicha): Axborot-tahliliy hujjat. – T.: O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti, 2025. 81–82-betlar.

qochish, daydilik, psixofaol moddalar va jinsiy hayotdan barvaqt foydalanish, huquqbuzarlik va jinoyatlarini sodir etish kabi ijtimoiy og‘ishlar hamda g‘ayriijtimoiy turmush tarzi xosligini ko‘rsatmoqda.

Odatda ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo‘lgan bolalarning aksariyat qismi maktab va mahalla jamoatchilik nazoratida, shuningdek maktabga biriktirilgan inspektor-psixolog hamda profilaktika inspektorining doimiy tarbiyaviy-profilaktik ta’sir doirasida bo‘ladilar.

Ta’lim muassasasida voyaga yetmaganlar, shu jumladan ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo‘lgan bolalar bilan ishlashda inspektor-psixologlarning o‘rnini alohida e’tirof etish joiz.

Inspektor-psixologlarning ta’lim muassasasida voyaga yetmaganlar, shu jumladan ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo‘lgan bolalar bilan ishlash bo‘yicha asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

maktablarda axloqiy-psixologik muhitni yaxshilash bo‘yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish, o‘quvchilar o‘rtasida nazoratsizlikni keltirib chiqaruvchi omillarni aniqlash va bartaraf etish yuzasidan manzilli choralarni belgilash;

o‘quvchilarda vatanparvarlik, Vatanga sadoqat hissini shakllantirish orqali ular o‘rtasida salbiy holatlar, daydilik va tilanchilik kabi g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlarning barvaqt oldini olish choralarini ko‘rish;

maktab bilan birgalikda doimiy ravishda davomatni tekshirish tadbirlarini tashkil etish, darslarga sababsiz muntazam ravishda qatnashmayotgan o‘quvchilarni aniqlash, sabablarini o‘rganish, voyaga yetmaganning ta’lim olishiga to‘sqinlik qilayotgan omillarni mutasaddi idora va tashkilotlar bilan hamkorlikda bartaraf etish choralarini ko‘rish;

o‘quvchilarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etishga, ularni kasbga yo‘naltirishga, jismoniy va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga har tomonlama ko‘maklashish;

o‘quvchilar o‘rtasida qonunbuzilishlarga murosasiz munosabatda bo‘lish hissini shakllantirish, muammoli o‘quvchilar bilan ularning yashash joylarida ota-onalari va mahalla faollari ishtirokida manzilli ishlarni amalga oshirish.

Turli mamlakatlar ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo‘lgan bolalar bilan ishlashda o‘ziga xos tajriba shakllangan. Quyida ularning ayrimlari xususida to‘xtalib o‘tsak.

Norvegiyada bolalar huquqlarini himoya qilish davlat tomonidan qattiq nazorat olingan. Bu yerda Bolalar himoyasi xizmati (Barnevernet) bolalarning xavfli ahvoldagi sharoitlarini muntazam tekshiradi va zarur hollarda bolalarni oiladan olib, reabilitatsiya markazlariga yoki farzandlikka qabul qilish tizimiga o‘tkazadi. Davlat bunda bolalarning har tomonlama rivojlanishi uchun bepul ta’lim, tibbiy yordam va psixologik xizmatlarni taklif etadi[1].

Germaniyada ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo‘lgan bolalarga yordam berishda oilalarni qo‘llab-quvvatlashga katta e’tibor beriladi. Davlat maxsus oilaviy maslahat markazlari orqali bolalarni muhofaza qilish va oilalarni zo‘ravonlik yoki iqtisodiy qiyinchiliklardan himoya qilishga qaratilgan dasturlarni moliyalashtiradi. Agar bola oilaviy muhitda yomon ahvolga tushib qolsa, davlat bolani internatga joylashtirish yoki uni farzandlikka olish tartibini belgilaydi.

AQShda ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo‘lgan bolalarni himoya qilish juda rivojlangan va federal qonunlar asosida tartibga solinadi. Mamlakatda bolalar huquqlarini himoya qiluvchi turli shtat agentliklari va nodavlat tashkilotlari faoliyat yuritadi. Bolalarni oiladan ajratishdan ko‘ra, oilalarni qo‘llab-quvvatlash va bolalarni oilada qoldirish uchun turli choralar qo‘llaniladi. AQShda, shuningdek, farzandlikka qabul qilish va oilalarga bolalarni qayta tarbiyalash tizimi juda rivojlangan.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo‘lgan bolalar bilan ishlash faoliyati davlat va nodavlat tashkilotlarining samarali hamkorligi ta’minlanganda natijador bo‘ladi. Bu toifadagi bolalarning huquq va manfaatlarini

[1] https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%91%D0%B0%D1%80%D0%BD%D0%B5%D0%B2%D0%B0%D1%80%D0%BD

himoya qilish, ularga munosib ta’lim va tarbiya berish, shuningdek, kelajakda mustaqil hayotga tayyorlash uchun barcha zarur chora-tadbirlarni ko‘rish davlatning muhim vazifalaridan biridir.

MUSTAQILLIK YILLARIDA JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASH TIZIMIDAGI ISLOHOTLAR VA KADRLAR TAYYORLASH

Vaxidov Fazliddin Raufovich

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar doirasida aholining tinch va osoyishta hayotini ta’minlash hamda jamiyatimizda qonunga itoatkorlik va jamoat xavfsizligi madaniyatini shakllantirish, ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta’minlash, aholining huquqiy ongi va siyosiy-huquqiy madaniyatini, ijtimoiy faolligi, fuqarolik mas’uliyatini oshirish asosida huquqiy jamiyatni barpo etish va mustahkamlash masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu borada muntazam ravishda chora-tadbirlar amalga oshirilib, mazkur tizimning huquqiy asoslari tobora mustahkamlanmoqda. Xususan, 2021-yil 29-noyabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni asosida “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasi” qabul qilinib, bugungi kunda faol ravishda ijro etilmoqda [1].

Tariximizdan ma’lumki, jamoat xavfsizligini ta’minlashga mas’ul tuzilmalar faoliyati mamlakat tinchligi va xavfsizligi uchun dolzarb ahamiyat kasb etib bu borada muntazam islohotlar amalga oshirib kelingan. O‘rganilgan tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, turli yillar davomida jamoat xavfsizligini ta’minlash bilan aksariyat hollarda ichki ishlar organlari tizimidagi qo‘shilma, bo‘linma va tuzilmalar shug‘ullangan bo‘lib, o‘z vakolatlari doirasida Qurolli Kuchlar va huquqni muhofaza qiluvchi boshqa organlarning ham o‘ziga tegishli vazifalari qonun yoxud qonunosti hujjatlari asosida belgilab berilgan. Shu jihatdan, agar oxirgi bir asrlik tariximizga e’tibor qaratiladigan bo‘lsa, jamoat xavfsizligini ta’minlash bilan Ichki ishlar organlari tizimida faoliyat yuritgan quyidagi tuzilmalarning faoliyati ko‘zga tashlanadi.

Ma’lumotlarga ko‘ra xavfsizlikni ta’minlash va Qurolli Kuchlar tizimiga kadrlar tayyorlashda bir qator muammo va kamchiliklar mavjud bo‘lib, bu nafaqat professional kadrlar tayyorlanadigan oliy harbiy ta’lim tizimida, balki, harbiy kadrlar tayyorlanadigan uzluksiz ta’lim tizimining barcha bosqichlarida ko‘zga tashlanardi. Manbalarni o‘rganish shuni ko‘rsatdiki, 1984-1987-yillarda O‘zbekiston uchun harbiy o‘quv yurtlarida 2600 o‘rin ajratilgan. Biroq birinchi bosqichning o‘zidayoq yoshlarni turli bahonalar bilan o‘qishni xohlamasligi, umumiy ma’lumoti darajasining pastligi, o‘quv dasturini o‘zlashtira olmaganligi kabilar vaj qilinib, 200 ga yaqin kursant bilim yurtlaridan chetlashtirilgan. Harbiy litseylarida 1520 nafar yoshlar ta’lim olgan bo‘lib, ularning 40 foizigina harbiy bilim yurtlariga o‘qishga kirgan va bu maktab o‘quvchilari orasida tub aholi farzandlari 15 foizga yaqinni tashkil qilgan. Ular orasida bilim yurtiga kirganlar esa 2,2 foizni tashkil etgan [2].

E’tiborli jihati shundaki mustaqillikning dastlabki yillarida jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimida o‘ziga xos o‘rni va ahamiyatiga ega bo‘lgan tizim bu – Ichki ishlar vazirligining Ichki qo‘shinlari bo‘lib, ular nafaqat jamoat xavfsizligi, balki chegara va harbiy xavfsizlikni ta’minlash tizimiga munosib hissa qo‘shishgan. Mazkur tuzilma mamlakat ichki xavfsizligiga bo‘ladigan har qanday tahdidlarni oldini olishda jonbozlik ko‘rsatib, uning tarkibidagi bo‘linmalarning harbiy xizmatchi va xodimlari ko‘plab harbiy va jangovar operatsiyalarda bevosita ishtirok etishgan. Ichki qo‘shinlar jamoat xavfsizligini ta’minlovchi harbiy va operativ bo‘linma bo‘lib, turli o‘zgarishlar asosida 2005-yilga qadar faoliyat ko‘rsatgan.

Umuman olganda ta’kidlash joizki, O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov boshchiligida O‘zbekiston Respublikasining Qurolli Kuchlarini, professional armiyani barpo etish yuzasidan tizimli islohotlar amalga oshirilib, xususan, I.Karimov fikricha, “Qurolli Kuchlarni barpo etishning galdagi vazifalari bu boradagi kuch-g‘ayratlarni oshirib borishni talab qiladi. Ravshanki, ular o‘zaro mutanosib bo‘lishi, bir-biriga munosib jangovar va ichki qismlardan tashkil topishi lozim. Harbiy infrastruktura qo‘shinlarning joyini tezlik bilan

o‘zgartirishni ta’minlashi shart. Biz Qurolli Kuchlarni samarali boshqarish va barpo etish uchun strategik va operativ jihatdan oldindan ko‘ra olish imkoniyatini ta’minlamog‘imiz zarur” bo‘lgan [3, 40]. Boisi mustaqillikning dastlabki yillarida jamoat tartibi va xavfsizligini ta’minlash masalasida bir qator qiyinchilik vujudga kelib, xususan 1992-yilning 16-17-yanvar kunlari Toshkent shahrida talabalar o‘rtasida tartibsizliklar sodir bo‘lganligi va uning natijasida tezkor chora-tadbirlarni amalga oshirish muhim zaruriyatga aylangan edi.

Ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining navbatdan tashqari o‘n ikkinchi sessiyasida qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to‘g‘risida”gi bayonotida “Davlat mustaqilligini, hududiy yaxlitligini, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqi va erkinligini himoya qilish maqsadida O‘zbekiston Respublikasida Mudofaa ishlari vazirligi va Milliy gvardiya tuziladi. Respublika hududida joylashgan SSSR Ichki ishlar vazirligi, SSSR davlat xavfsizlik komiteti hamda Ichki qo‘shinlar O‘zbekiston Respublikasi yurisdiktsiyasiga olinadi”, – deb ko‘rsatilgan edi. Bu “O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida”gi Qonunda huquqiy jihatdan va uning 6-moddasida “O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa ishlari vazirligini tuzish, Milliy gvardiya va noharbiy (muqobil) xizmatni tashkil etish huquqiga ega” deb mustahkamlandi. Bu amalda yosh respublikaga harbiy siyosatni amalga oshirish huquqini berar edi [4, 13-14].

O‘zbekiston mustaqilligi arafasida qoshinlarni Ittifoq qo‘shinlaridan ajratib olish va professional armiyani tuzish masalada dastlabki qadamlar tashlangan bo‘lib, O‘zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi Oliy Sovetining 1990-yil 20-iyundagi ikkinchi sessiyasida qabul qilingan mustaqillik deklaratsiyasida davlat mustaqilligini e’lon qilinishi, davlat hududi chegarasi daxlsizligi va bu hudud xalqning muhokamasiga qo‘yilmay turib o‘zgartirilishi mumkin emasligi belgilanib [5], 1991-yil 31-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida”gi Qonun hujjati qabul qilinib, uning 6-moddasida O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa ishlari vazirligini tuzish, Milliy gvardiya va noharbiy (muqobil) xizmat tashkil etish huquqiga egaligi, suveren

O‘zbekiston Respublikasi hududida SSSR Qurolli Kuchlarini shakllantirish va ularga rahbarlik qilish masalalarida harbiy siyosatni amalga oshirish huquqini o‘zida saqlab qolishi ko‘rsatib o‘tilgan edi [6].

Qayd etilgan yuqoridagi hujjatlar hamda Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi haqida 1991-yil 21-dekabrdagi Shartnomaga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992-yil 10-yanvardagi “SSSR Ichki ishlar vazirligining ichki qo‘shinlari va o‘quv yurtlari to‘g‘risida”gi PF-318-sonli Farmoni qabul qilingan [7].

Mustaqillikning dastlabki yillarida jamoat tartibini buzish va jinoyat sodir etish bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar ancha yuqori bo‘lib, birgina “…Surxondaryo viloyatida jamoat tartibini saqlash va uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash, jinoyatchilikning oldini olish bo‘yicha viloyat ma’muriy organlarida juda qo‘pol xatolar, qonunbuzarliklar mavjud. Viloyatda sodir etilgan jinoyatlardan 33,5 foizi og‘ir jinoyat ekani g‘oyat tashvishlidir. 1991-1992-yillarda 1300 jinoyat ochilmay qolgan. Qasddan qilingan yettita qotillik, beshta og‘ir tan jarohati, 17 ta bosqinchilik, uchta zo‘rlash va o‘nlab o‘g‘rilik, talonchilik xatti-harakatlari shular jumlasidandir” [8, 96].

Mavjud vaziyatni inobatga olgan holda Ichki qo‘shinlarning dastlabki yillirdagi faoliyatida asosiy urg‘u tashkiliy tuzilmalarni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish, shaxsiy tarkibga har tomonlama ta’lim-tarbiya berish, mutaxassis kadrlarni tayyorlash, qo‘shinlarni har tomonlama moddiy-texnik jihatdan ta’minlash, qurol-yarog‘, shaxsiy tarkibning xizmat va yashash joylarini yaxshilash ishlariga alohida e’tibor qaratilgan.

1999-yil 16-fevralda Toshkentda bo‘lib o‘tgan terrorchilik harakatlari bu muammolarning yanada dolzarb ekanligini ko‘rsatdi. Bu voqealar barchamizni sergak bo‘lishga, mustaqilligimizni himoya qilishga hamisha tayyor turishga undadi.

1999-yil mart oyidan O‘zbekiston Respublikasi IIVning Ichki qo‘shinlari hayotida keng ko‘lamli islohotlar boshlandi, bunda har bir harbiy xizmatchidan qism va bo‘linmalar shaxsiy tarkibining jangovar xizmat vazifalarini o‘zgartirishda yuksak matonat va shaxsiy ishtirok etishni talab qildi.

Islohotlarning birinchi bosqichi 1999-yil mart oyida qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga binoan amalga oshirildi. O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Ichki qo‘shinlar boshqarmasi asosida Ichki qo‘shinlar va Qorovul qo‘shinlar bosh boshqarmalari tashkil topdi.

Jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimini kadrlar bilan butlash masalasida yana bir e’tiborli jihat shundan iborat bo‘ldiki, MDH ning turli mamlakatlarida xizmat vazifasini o‘tayotgan mamlakatimiz fuqarolarini yurtimizga qaytarish ishlari ham soha rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi ko‘zda tutildi. Ichki qo‘shinlar rahbariyati tomonidan ana shunday fuqarolarimizni keyingi faoliyatlarini bevosita ichki qo‘shinlar bilan bog‘lashlari uchun tinimsiz va tizimli ravishda ishlar olib borildi. Bir qator MDH davlatlari bilan amalga oshirilgan kelishuvlarga muvofiq holda 1991-1994-yillarda ichki qo‘shinlar saflari 46 nafar MDH davlatlaridan kelgan ofitserlar va harbiy bilim yurtlarining bitiruvchilari hisobiga to‘ldirildi. O‘zbekistonda tug‘ilgan va MDH davlatlarining turli harbiy oliy o‘quv yurtlarida tahsil olayotgan kursantlarni yurtimizga qaytarish va o‘qishlarini O‘zbekiston Respublikasi IIVning Toshkent oliy harbiy bilim yurtida davom ettirishlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratildi. Masalan, mazkur davrda yurtimizga kelgan va xizmat faoliyatini O‘zbekistonda davom ettirgan ofitserlardan Aliyev K.A va Suleymanov N.V. keyinchalik O‘zbekiston Respublikasi IIV Qorovul Qo‘shinlarining Qo‘mondoni darajasigacha ko‘tarilgan. Ichki qo‘shinlarni kadrlar bilan butlash masalasida amalga oshirilgan kompleks chora-tadbirlar natijasida 1994-yilning 31-dekabr holatiga praporshiklar bilan qo‘shib hisoblaganda ichki qo‘shinlarning ofitser lavozimdagi tarkibi 71 %ni tashkil etgan. Ichki qo‘shinlar shaxsiy tarkibini kadrlar bilan muntazam ta’minlashda Toshkent oliy harbiy-texnika bilim yurtining o‘rni va ahamiyati yuqori sanaladi.

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, Ichki qo‘shinlar tizimidagi harbiy xizmatchilar mamlakat tinchligi va osoyishtaligi yo‘lida sadoqat bilan xizmat qilib, nafaqat jamoat xavfsizligi, balki chegara hududlarini qo‘riqlash va harbiy operatsiyalarda bevosita ishtirok etishda jonbozlik ko‘rsatganlar. Xususan, 1999-yilning avgust

oyidagi So‘x va Shohimardon anklavlari hududida chegara hududlaini homiya qilishda, 1999-yilning noyabr oyida Toshkent viloyatining Yangiobod tumanida joylashib olgan qurollangan terrorchilar guruhlarini yo‘q qilishda bevosita ishtirok qilishgani tarixiy manbalarda aks ettirilgan [9, 90-91]. Ayniqsa qidiruv ishlarini olib borish va dushmanlarning bir guruhini yo‘q qilishda maxsus vazifalarni bajaruvchi batal’on komandiri polkovnik V.V.tadjibayevning xizmatlari beqiyos bo‘lgan. Operatsiya muvaffaqiyatli yakunlangan bo‘lsada, unda qurbonlar ham kuzatilib, terrorchilarni yo‘q qilish bo‘yicha maxsus operatsiyada kapitan R.R.Vasilyev, katta praporshik V.A.Voronov va starshina R.K.Tulyaganov o‘z xizmat vazifalarini bajarish chog‘ida qahramonlarcha halok bo‘lishgan.

Ichki qo‘shinlar 2000-2001-yillarda ham respublikaning bir qator tog‘li tumanlarida maxsus operatsiyalarda ishtirok etib, jinoyatchi guruhlarni qidirib topish va ularni yo‘q qilish operatsiyalarida bevosita ishtirok etganlar. Shuningdek Toshkent viloyatining Bo‘stonliq va Ohangaron tumanlarida, Surxondaryo viloyatining Sariosiyo va Uzun tumanlaridagi chegaradosh hududlarda favqulodda yuzaga kelgan harbiy harakatlarda ichki qo‘shinlarning harbiy xizmatchilari namunali harbiy xizmat olib borishgan.

Xulosa o‘rnida qayd etish lozimki, mustaqillik arafasida va mustaqillikning dastlabki yillaridagi qiyinchiliklarga qaramasdan jamoat tartibi va mamlakat xavfsizligini ta’minlash sohasida tizimli islohotlar amalga oshirildi va mazkur islohotlar respublikadagi siyosiy va harbiy vaziyatning amaliy ifodasi sharoitida o‘zgarib bordi. Bu borada ichki ishlar organlari tizimida, ayniqsa ichki qo‘shinlar faolyatida bir qator o‘zgarish va takomillashuv kuzatilib, 2005-yilga qadar mazkur tuzilma nafaqat jamoat tartibi va xavfsizligini ta’minlashda, balki, mamlakat chegarasini qo‘riqlash va har qanday tahdidlarni oldini olish va bartaraf etishda jonbozlik ko‘rsatishdi.

Jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimiga kadrlar tayyorlash yuzasidan olib borilgan amaliy islohotlar esa 1990-yillardagi islohotlar sharoitida Toshkent oliy harbiy-texnika bilim yurti hamda Toshkent oliy militsiya maktabi negizida

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi akademiyasining tashkil etilishi va sohaga professional kadrlar tayyorlanishi bilan xarakterlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasni Prezidentining Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. 2021-yil 29-noyabr. PF-27. https://lex.uz/docs/-5749291.

2. “Йигитлар хизматга шайми? // Совет Ўзбекистони. 1989 й. 28 март.

3. Каримов И.А. Давлатчиликни шакллантириш ва мудофаа қобилиятини мустаҳкамлаш. Хавфсизлик ва барқарорлик йўлида. VI-жилд. Т: «Ўзбекистон» 1998. 409 б.

4. Ватан ҳимояси – муқаддас бурч. Тузувчилар: И.Ю.Иноятов, М.Х.Абилов. Қ.Мамедовнинг умумий таҳрири остида. – Т.: Ўзбекистон. 2001. 237 б.

5. Мустақиллик декларацияси. Ўзбекистон Совет Социалистик Республикаси Олий Советининг 1990 йил 20 июндаги иккинчи сессиясида қабул қилинган. https://lex.uz/docs/185391 (охирги мурожаат: 21.03.2022 йил).

6. Ўзбекистон Республикасининг Қонуни. Ўзбекистон Республикасининг давлат мустақиллиги асослари тўғрисида. 31.08.1991 йилдаги 336-XII-сон. Кучга кириш санаси: 31.08.1991. https://lex.uz/docs/127899 (охирги мурожаат: 21.03.2022 йил).

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. SSSR Ichki ishlar vazirligining ichki qo‘shinlari va o‘quv yurtlari to‘g‘risida. 1992-yil 10-yanvar, PF-318-son. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1992-y., 2-son, 101-modda. https://lex.uz/docs/-148222.

8. Каримов И.А. Адолат мезони бузилса.... Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. I-жилд. Т: «Ўзбекистон» 1996. 358 b.

9. Mamayusupov S., Rustambayev M.X. va boshq. O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi: o‘tmishi va buguni. – T.: O‘R MG. 2022, 238 b.

YOSHLAR (VOYAGA YETMAGANLAR) TOMONIDAN SODIR ETILADIGAN JINOYATLARNING NAZARIY-HUQUQIY TAHLILI

Axmedov Sherzodbek Oribjon o‘g‘li
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Jamoat xavfsizligini ta’minlash kafedrasi o‘qituvchisi, kapitan

Bugungi kunda mamlakatimiz aholisi **37,5 milliondan** ortiqni tashkil etmoqda va ularning **10 millionga** yaqini yoki deyarli **27 foizini** aynan 14 yoshdan 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlar tashkil etadi. Bundan ko‘rinib turibdiki, yurtimizda doimiy aholining kattagina qismini yoshlar tashkil etadi hamda ular jamiyat va davlat rivojiga ta’sir etuvchi va hal qiluvchi asosiy omil ekanligidan dalolat beradi. Azaldan mamlakatimizda farzand dunyoga kelganidan boshlab, to kamolga yetgunga qadar uning ta’minoti, ta’lim-tarbiyasi va bilim olishi, kasb-hunar egallashiga, umuman, yetuk inson bo‘lib kamol topishiga alohida e’tibor qaratib kelingan.

Shu o‘rinda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning: **“Xalqimizda “ta’lim va tarbiya beshikdan boshlanadi” degan hikmatli bir so‘z bor. Faqat ma’rifat insonni kamolga, jamiyatni taraqqiyotga yetaklaydi”** degan fikrlari ham so‘zimizni yana bir bor isbotlaydi. Voyaga yetmaganlarni vatanparvarlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ularni terrorizm, diniy ekstremizm, «ommaviy madaniyat», zo‘ravonlik va shafqatsizlik g‘oyalaridan himoyalash voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklarining oldini olishga xizmat qiladi. Afsuski, hozirda voyaga yetmaganlar tomonidan ham juda ko‘plab jinoyatlar sodir etilmoqda. Voyaga yetmaganlar huquqbuzarligi profilaktikasining dolzarbligi, eng avvalo, bu yo‘nalishdagi jinoyatlarning dinamikasi bilan emas, balki uning jamiyatga ijtimoiy salbiy ta’siri bilan bog‘liq hisoblanadi. Chunki voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining miqdor ko‘rsatkichi umumiy statistikada kam bo‘lsada, biroq ijtimoiy nuqtai nazardan katta yo‘qotishlar ro‘y beradi. Masalan, butun bir maktab yoki mahallada atigi bir nafar voyaga yetmagan shaxs jinoyat sodir qilgan bo‘lsa ham, bu hol maktab yoki mahallada bolalar ta’limi va tarbiyasi borasida jiddiy nuqsonlar borligini ko‘rsatadi. Jamiyat

taraqqiyoti va uning rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi jinoyatchilik doimiy ravishda huquqshunos olimlar, turli soha mutaxassislari, qolaversa, jamiyatning har bir a’zosi e’tiborida bo‘lganligi va bo‘layotganligi hammamizga ma’lum. Insoniyat, jamiyat jinoyatchilikning zararli oqibatlaridan aziyat chekib kelganligi sababli jinoyatchilikka qarshi kurashish muammosini o‘rganib, uning oldini olishga harakat qilib keladi.

Ammo aksariyat hollarda jinoyatchilik muammosini o‘rganishning asosiy maqsadi sodir qilingan jinoyatni aniqlash va aybdorni jazolash bilan kifoyalanganligini ko‘rishimiz mumkin. Ta’kidlash joizki, jinoyatchilikka qarshi kurashish va uning oldini olish davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, unda voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining sabablari va unga imkon bergan shart-sharoitlarni o‘rganish asosiy o‘rin tutadi. Shu nuqtai nazardan, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining huquqiy tabiati va o‘ziga xos xususiyatlarini tadqiq etishdan oldin **“yoshlar”, “voyaga yetmagan”, “jinoyat”, “voyaga yetmaganlar huquqbuzarligi profilaktikasi”** kabi mazmunan o‘zaro aloqador bo‘lgan tushunchalarning mazmun-mohiyatiga to‘xtalib o‘tish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentabrdagi **“Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g’risida”gi** O‘RQ-406 sonli qonunining 3-moddasiga asosan,

yoshlar (yosh fuqarolar) — o‘n to‘rt yoshga to‘lgan va o‘ttiz yoshdan oshmagan shaxslar deb ta’rif berilgan. Bundan tashqari O‘zbekiston Respublikasining 2010 yil 29 sentabrdagi “Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to‘g’risida”gi O‘RQ-263 sonli qonunining 3-moddasiga asosan,

voyaga yetmagan — o‘n sakkiz yoshga to‘lmagan shaxs;

voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklarning profilaktikasi —voyaga yetmaganlarning nazoratsizligi, qarovsizligiga, ular tomonidan huquqbuzarliklar yoki boshqa g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etilishiga imkon beradigan sabablar va shart-sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etishga qaratilgan, yakka tartibdagi

profilaktika ishi bilan birgalikda amalga oshiriladigan ijtimoiy, huquqiy, tibbiy va boshqa chora-tadbirlar tizimi hisoblanadi.

Jinoyat tushunchasiga esa O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 14-moddasida shunday ta’rif berilgan: jinoyat qonuni bilan taqiqlangan, aybli ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik) jazo qo‘llash tahdidi bilan jinoyat deb topiladi.

Jinoyatchilik – muayyan hududda, ma’lum vaqt mobaynida sodir etilgan jinoyatlar yig‘indisi ekanligidan kelib chiqib ta’kidlash joizki, yoshlar jinoyatchiligiga barcha davrlarda asosiy masalalaridan biri sifatida qarab kelingan. Shu sababli ham mazkur muammo doimo ko‘pchilikning diqqat markazida bo‘lgan. Zero, yoshlar o‘rtasidagi jinoyatchilikni to‘g‘ri tushunish nafaqat mazkur toifadagi jinoyatchilikka qarshi kurashishning eng samarali usullarini ishlab chiqishga, balki barcha turdagi jinoyatchilikning kelgusidagi holati haqida fikr yuritishga imkon beradi. S.A. Koryaginaning yozishicha, “yoshlar orasida jinoyatchilikning tarqalishi, hech qanday asossiz barcha turdagi jinoyatlarning rivojlanish xususiyatlarini prognoz qilish imkoniyatini yaratadi”. Ayrim olimlar fikricha, voyaga yetmaganlar sodir etgan jinoyatlar umumiy jinoyatchilikning boshlanish bosqichi hisoblanadi. Yosh jihatidan boshqa turdagi jinoyatchilar shaxsiga xos xususiyatlarning mavjudligi alohida xavfli bo‘lgan voyaga yetmaganlar jinoyatchiligini keltirib chiqaradi.

Huquqshunos olim N.A. Ramazonova esa voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarni tergov qilish faoliyatini o‘rganib, “voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar deganda jinoyat qonunchiligida nazarda tutilgan jinoiy javobgarlikning minimal yoshi va milliy qonunchilik asosida voyaga yetish yoshi sifatida tan olingan yoshga yetgunga qadar sodir etilgan jinoyatlar tushuniladi” degan ta’rifni ilgari surgan. Ya.V. Samiulina ayol jinsidagi voyaga yetmaganlar jinoyatchiligini o‘rganib, “voyaga yetmagan ayollarning jinoyati zamonaviy jinoyatchilikning o‘ziga xos turi bo‘lib, uning o‘ziga xosligi kichik jinoyatchi shaxsining o‘ziga xos xususiyatlari bilan belgilandi hamda miqdor va sifat ko‘rsatkichlarga ega bo‘lgan muayyan hududda ma’lum vaqt davomida 14 yoshdan

18 yoshgacha bo‘lgan ayollar tomonidan sodir etilgan barcha jinoyatlarning yig‘indisidir” deydi. Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi kattalar jinoyatchiligi kabi ijtimoiy xavfli hodisadir, chunki, u:

jamiyat taraqqiyotiga, iqtisodiy islohotlarga va davlat boshqaruviga to‘sqinlik qiladi;

jamiyat sokinligini, jamoat tartibini va aholining osoyishta hayotini buzadi, ijtimoiy va siyosiy vaziyatni keskinlashtiradi;

inson huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlari buzilishiga, ijtimoiy hayotning yomonlashuviga va ijtimoiy institutlarning beqarorligiga olib kelishi mumkin;

jamiyat a’zolariga yetkazilayotgan moddiy, ma’naviy va jismoniy zarari bilan insonlarda ishonchsizlik, vahima, qo‘rquv hissini uyg‘otadi;

mustahkam fikrga ega bo‘lmagan tengdoshlarining xulq-atvorini buzadi, ularni jinoyat sodir etishga undaydi;

jinoyatchilikning sabab va sharoitlarini yanada kuchaytiradi va h.k.

Ijtimoiy hodisa sifatida voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi jamiyatda mavjud ijtimoiy munosabatlarining mahsuli sifatida tarixan o‘zgaruvchan ekanligini ko‘rishimiz mumkin. U ham jamiyatning rivojlanishi bilan miqdor va sifat jihatdan o‘zgarib boradi. Ijtimoiy jihatdan, jinoyatchilik yomon ishlarning takrorlanadigan ko‘rinishi. Shundan kelib chiqib, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligini jinoyat-huquqiy hodisa sifatida o‘rganiladi. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 17-moddasiga asosan, jinoyat sodir etgunga qadar **o‘n olti yoshga to‘lgan,** aqli raso jismoniy shaxslar hamda jinoyat sodir etgunga qadar **o‘n to‘rt yoshga to‘lgan shaxslar** JKning 97, 98, 104-106, 118, 119-moddalari, 126^1-moddasining to‘rtinchi-sakkizinchi qismlarida, 137, 164-166, 169-moddalari, 173-moddasining ikkinchi va uchinchi qismlari, 220, 222, 247, 252, 263, 267, 271-moddalari, 277-moddasining ikkinchi va uchinchi qismlarida nazarda tutilgan jinoyatlar uchun javobgarlikka tortilishi belgilab berilgan.

Mamlakatimizda yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish, ularni ichkilikbozlik va giyohvandlik illatlaridan, boshqa turli halokatli tahdidlar,

hamda biz uchun yot bo‘lgan diniy va ekstremistik ta’sirlardan, tuban “ommaviy madaniyat” xurujlaridan himoya qilishga doir kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Jahon tarmog‘ining tezkor rivojlanishi ham yoshlar haqida o‘rganish usullarini qayta shakllantirdi va ilk bor kibermakonning salbiy ta’siridan o‘sib kelayotgan avlodning huquqlarini himoya qilish masalalarini birinchi o‘ringa qo‘ydi. Yoshlarning raqamli texnologiyalar bilan o‘zaro aloqalari masalalari bo‘yicha birinchi bo‘lib xalqaro tashkilotlar Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT), Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST), Xalqaro bolalar fondi (YUNISEF), Ta’lim, fan va madaniyat masalalari bo‘yicha Birlashgan Millatlar Tashkiloti (YuNESKO) kabilar tashvishlana boshladi.

BMT yoshlarni “15 yoshdan 24 yoshgacha bo‘lgan shaxslar” sifatida ta’riflaydi[1]. BMTning Yoshlar strategiyasi “Yoshlar – 2030”ni taqdim etar ekan, BMT Bosh kotibi Antoniu Gutterish: "Yoshlar eng qimmatbaho va juda muhim resursdir. Ko‘pincha ular boshqa odamlar tomonidan zo‘ravonlikka duchor bo‘ladi, iqlim o‘zgarishi yoki tabiiy ofatlarning bevosita ta’siriga uchraydi. Jamiyat ularni ma’lum bir shaklda rad etishi bilan ro‘para keladi va inson huquqlarining global tanazzuli hamda haqiqiy adolatga yetishishning mavjud emasligi og‘irliklarini o‘z yelkasida ko‘taradi...”,[2] – dedi.

Bugungi kunda mamlakatimizda Prezidentimiz tashabbusi bilan bolalar haq-huquqlarini himoya qilish, ularni har tomonlama barkamol inson qilib tarbiyalash, voyaga yetmagan bolalarni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rag‘batlantirish va ularning yuqori darajada ta’lim-tarbiya olishini har tomonlama ta’minlash borasida izchil hamda tizimli ishlar olib borilmoqda. Bola dunyoga kelganidan boshlab unga g‘amxo‘rlik qilish, sog‘lom va to‘g‘ri tarbiya hamda zamonaviy ta’lim olishini ta’minlash — jamiyatimiz kelajagi, ertangi kunimiz poydevoridir. Nega deganda, bolalar zilol suvga o‘xshaydi. Suv qaysiki idishga solinsa, shu idish shaklini olganidek, bolalar muhit, ota-ona va tarbiyachilar odob-axloqi va xatti-harakatlarini

[1] https://undocs.org/ru/A/36/215
[2] https://undocs.org/ru/A/36/215 . Молодёжная стратегия ООН: Молодёжь 2030.

aynan ko‘rganidek qabul qilishi hech kimga sir emas. Zotan, «Qush uyasida ko‘rganini qiladi», degan naql bejiz aytilmagan. Shuning uchun farzand tarbiyasiga g‘oyatda mas’uliyat bilan yondashish, bunda shaxsiy ibrat juda muhim omil ekanini unutmaslik joiz.

Ma’lum bir yosh, o‘z harakatining huquqiy oqibatini anglash, zarur hayotiy tajriba, ham aqlan, ham ruhan o‘zini o‘zi idora etish qobiliyatining mavjudligi kabi omillar insonda mavjud bo‘lgan taqdirdagina, uning o‘zi huquqiy munosabatga mustaqil kirishuvchi subyekt sifatida maydonga chiqadi.Voyaga yetmaganlar hayotda o‘z huquq va qonuniy manfaatlarini mustaqil tarzda himoyasini ta’minlay olmaganliklari tufayli davlat ularning huquq va qonuniy manfaatlarini amalga oshirishlarini kafolatlaydi. O‘zbekiston Respublikasining 2008-yil 7-yanvardagi **“Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”**gi, 2014-yil 2-yanvardagi **“Vasiylik va homiylik to‘g‘risida”**gi, 2016-yil 14-sentabrdagi **“Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”**gi qonunlarida voyaga yetmaganlarning huquqlarini himoya qilishga oid maxsus normalar o‘z ifodasini topgan.

Voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar uchun javobgarlikning xususiyatlari O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida[1] ko‘rsatilgan bo‘lib, unda voyaga yetmaganlar uchun jazo va uni tayinlash, voyaga yetmaganlarni javobgarlikdan yoki jazodan ozod qilish masalalari yoritilgan. Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi **14 yoshdan 18 yoshgacha bo‘lgan shaxslar** tomonidan sodir etilgan jinoyatlar yig‘indisidir. Ushbu jinoyatchilik jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy va madaniy holatiga ta’sir etuvchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Voyaga yetmaganlar ko‘proq **o‘g‘irlik, talonchilik, bezorilik** kabi jinoyatlarni sodir etadilar. Og‘ir zo‘rlik ishlatib va tamagirlik jinoyatlari ular jinoyatchiligining **8 foizini** tashkil etadi[2]. Bugungi kunda voyaga yetmaganlar tomonidan guruh bo‘lib sodir etilayotgan jinoyatlar miqdori ko‘paymoqda. Buning asosiy sabablari, oiladagi nosog‘lom muhit, ota-ona nazoratining yetishmasligi va noto‘g‘ri tarbiya voyaga yetmaganlarning jinoyatchilikka moyilligi bo‘lsa, ikkinchi

1 O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. Toshkent. Adolat, 2024 y.

2 Ziyonet

tomondan, ta’lim olish imkoniyatlarining cheklanganligi va iqtisodiy qiyinchiliklar, ma’naviy va axloqiy mo‘ljallarning beqarorligi, yomon xulqli shaxslar bilan aloqada bo‘lish va zo‘ravonlikni ifodalovchi axborot vositalarining ta’siri hisoblanadi.

Ma’lumki, yoshlar o‘zining yoshi tufayli kamsitish va huquqlardan foydalanishda to‘siqlarga duch kelishi mumkin, bu esa ularning imkoniyatlarini cheklaydi. Xususan, ta’lim muassasasini tamomlab, birinchi bor ish izlayotgan, muddatli harbiy xizmatni o‘tagan yoshlarning ishga joylashishida sun’iy to‘siqlarga uchrash holatlari mavjud. Misol uchun, oilasiga moddiy yordam berishni xohlagan yoki endigina oliy ta’lim muassasasini bitirib kelgan yoshlarni ish beruvchilar unchalik ham **“xush ko‘rishmaydi”.** Vaholanki, amaldagi mehnat qonunchiligi bo‘yicha o‘n besh yoshga to‘lganidan keyin ota-onasidan birining yoki ota-onasining o‘rnini bosuvchi shaxslardan birining yozma roziligi bilan yoki talabalar ham o‘qishdan tashqari vaqtda bemalol mehnat shartnomasi asosida ishlashlari mumkin. Hozirgi paytda O‘zbekistonda yoshlarning bandlik darajasi 40 foizni tashkil etmoqda. Ayni paytda bu ko‘rsatkich Rossiya Federatsiyasida 27 foiz, Yevropa Ittifoqi hududida esa 32 foizga to‘g‘ri keladi. Ishlab chiqilgan bandlik milliy strategiyasi doirasida 2030 yilga borib yoshlarni kasb-hunarga o‘qitishni har yili **200 ming kishiga** yetkazish rejalashtirilgan.

Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, har yili **10-29 yoshdagi yoshlar** o‘rtasida dunyo bo‘yicha **200 mingga** yaqin odam o‘ldirish sodir etilib, bu barcha qotillik jinoyatlarining **43%ni** tashkil qiladi[1]. Hozirgi kunda dunyoda **15-19** yoshdagilarning to‘rtdan bir qismidan ko‘prog‘i yoki **155 million** o‘smir spirtli ichimliklarni iste’mol qiladi. 2019-yilda OIV bilan kasallangan o‘smirlar soni taxminan **1,7 millionni** tashkil etgan[2]. Yo‘l-transport jarohatlari **5 yoshdan 29 yoshgacha** bo‘lgan bolalar va yoshlar o‘limining asosiy sababi hisoblanadi[3]. O‘z joniga qasd qilish katta o‘smir yoshdagi **(15-19 yosh)** o‘limning

[1] https://www.who.int/ru/news-room/fact-sheets/detail/youth-violence (мурожаат санаси 21.07.2022 йил).

[2] https://www.who.int/ru/news-room/fact-sheets/detail/adolescents-health-risks-and-solutions (мурожаат санаси 21.07.2022 йил).

[3] https://www.who.int/ru/news-room/fact-sheets/detail/children-new-threats-to-health (мурожаат санаси 22.07.2022 йил)

to‘rtinchi asosiy sababidir[1]. Alkogol **15 yoshdan** 49 yoshgacha bo‘lgan odamlar orasida erta o‘lim va nogironlikning asosiy xavf omili bo‘lib, ushbu yosh guruhidagi barcha o‘limlarning **10 %ni** tashkil qiladi[2]. Mazkur raqamlar yoshlarning jamiyat hayotida tutgan o‘rni qanchalik muhimligini ko‘rsatish bilan birga, yoshlar o‘rtasidagi g‘ayriijtimoiy xulq-atvor va nosog‘lom turmush tarzi, jinoyatchilik, jamiyatning kriminallashuviga ta’sir qiluvchi asosiy omillardan biri ekanligidan dalolat beradi.

Bu esa yoshlar o‘rtasidagi jinoyatchilikni kriminologik jihatdan tadqiq etish, bugungi kunda nafaqat yuridik fan yoki qonunchilik, balki jinoyatchilikka qarshi kurash amaliyoti nuqtai nazaridan ham dolzarb ekanligini ko‘rsatadi.

Rasmiy statistika va kriminologik tadqiqotlar uzoq vaqt mobaynida respublikaning butun hududida umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilari o‘rtasida jinoyatchilikning intensiv o‘sish tendensiyasini qayd etmoqda. Xususan, 2021-yilning 12 oyida **2 595 nafar voyaga yetmaganlar** tomonidan **2 262 ta jinoyatlar** sodir etilgan. Ma’lumot uchun: 2020 yilga nisbatan voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar **1 128** taga yoki **99 foizga** (1 134/2 262), jinoyat sodir etgan voyaga yetmaganlar **1 019 nafarga** yoki **103 foizga** (1 276/2 595) oshgan.

2023-2024 o‘quv yilida O‘zbekiston Respublikasidagi umumiy o‘rta ta’lim muassasalari soni **10 750** tani tashkil etdi. Bu ko‘rsatkichni oldingi yillar bilan solishtirganda, barqaror o‘sish tendensiyasini ko‘rish mumkin. Masalan, 2018/2019 o‘quv yili boshiga – **9 774** ta, 2019/2020 o‘quv yili boshiga – **10 090 ta**, 2020/2021 o‘quv yili boshiga – **10 181 ta**, 2021/2022 o‘quv yili boshiga – **10 289 ta**, 2022/2023 o‘quv yili boshiga – **10 522 tani** tashkil etganligini ko‘rishimiz mumkin[3].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi hisobotlariga ko‘ra O‘zbekistonda 2023-yilda qariyb **3 600 nafar voyaga yetmaganlar** jinoyat sodir etgan. O‘tgan besh yil davomida bu ko‘rsatkich qariyb

[1] https://www.who.int/ru/news-room/fact-sheets/detail/adolescent-mental-health (мурожаат санаси 22.07.2022 йил)

[2] https://www.who.int/health-topics/alcohol#tab=tab_1 (мурожаат санаси 22.07.2022 йил).

[3] https://uz24.uz/uz/articles/umumtalim-4-13

4,4 barobarga oshgan. Xususan, 2023-yil davomida **tovlamachilik 70, bezorilik 60, qasddan badanga og‘ir shikast yetkazish 40, nomusga tegish va odam o‘ldirishga urinish esa 20 foizga** ko‘paygan. Ushbu jinoyatlar **3 599 nafar voyaga yetmaganlar (13−17 yoshli)** tomonidan sodir etilib, ular jinoyat sodir etgani uchun ro‘yxatga olingan. Bu o‘tgan yilga nisbatan **15,6 foizga (3 112 ta)** va 2021-yilga nisbatan **40 foizga (2 595)** ko‘proq hisoblanadi. 2020-yilda esa **1 276 ta** (2023-yilga nisbatan 2,8 barobar kam), 2019-yilda **818 ta** jinoyat qayd etilgan. Shunday qilib, besh yil ichida jinoyat sodir etgan voyaga yetmaganlar soni **4,4 barobarga** oshganini ko‘rish mumkin. O‘tgan yili jinoyat sodir etgan **3 599 nafar** voyaga yetmaganlarning (bu jinoyat sodir etgan 88 913 nafarning 4 foizi) **82,6 foizi** jinoiy javobgarlikka tortilgan. Ulardan **744 nafari 13−15 yosh**, **2 855 nafari 16−17** yoshlilardir. Qizlarning ulushi esa **8,7%** — 314 nafarni tashkil etdi. 2023-yilda Jinoyat sodir etgan **voyaga yetmaganlarning** eng ko‘pi — **700 nafar** Farg‘ona viloyatida qayd etilgan. Keyingi o‘rinlarda Toshkent — **545 nafar**, Namangan viloyati — 451 va Toshkent viloyati — 345 nafar. Eng past ko‘rsatkichlar Jizzaxda — **54 nafar**, Navoiyda — **62 nafar** va Xorazm viloyatlarida — **66 nafarni** tashkil etgan.



Jinoyat turlari bo‘yicha voyaga yetmaganlarning aksariyati yoki **1 602 nafari** o‘g‘rilik (bir yil avval — 1 581 nafar), **453 nafari** bezorilik (284 nafar, o‘sish 60 foiz), **135 nafari** firibgarlik (134 nafar), **181 nafari** talonchilik va bosqinchilik (162

nafar, +11%), **104 nafari** qasddan badanga og‘ir shikast yetkazish (74, +40%), **54 nafari** nomusga tegish va nomusga tegishga urinish (46, +20%), **27 nafari** tovlamachilik (16, +70%), **12 nafari** esa qasddan odam o‘ldirish va odam o‘ldirishga urinish (10, +20%) jinoyatini sodir etgan.



Shuningdek, voyaga yetmaganlarning **57 nafari** giyohvandlik vositalarini ishlab chiqarish yoki sotish, **121 nafari** o‘limga olib kelmaydigan yo‘l-transport hodisalari, **4 nafari** qalbaki pul yoki qimmatli qog‘ozlarni tayyorlash yoki sotish kabi jinoyat sodir etgan. Jinoyat sodir etilgan vaqtda ularning **2 730 nafari talabalar**, **510 nafari ishchilar**, **148 nafari ishlamaydigan yoki o‘qimaydigan**, **8 nafari xizmatchilar**, **190 nafari** boshqa toifalarga mansub bolalar bo‘lgan.

Davlatimiz rahbari 2024-yil 5-fevral kuni o‘tkazilgan videoselektor yig’ilishida voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlar haqida gapirar ekan, bolalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash orqali ularda **«jinoyatga qarshi immunitet»ni** shakllantirish tizimini yaratish zarurligini ta’kidlab o‘tdi. Bundan tashqari Prezidentimiz bolalarning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazish, ularni kasbga yo‘naltirish, ta’lim-tarbiya berish, o‘quvchilarning ota-onalari, mahalla faollari bilan hamkorlikda ish olib borish tizimini tashkil etish muhimligini ham ta’kidladi.

Mamlakatimizda o‘sib kelayotgan yosh avlodni barkamol qilib tarbiyalash masalalariga davlat siyosati darajasida jiddiy e’tibor qaratib kelinmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining “Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to‘g‘risida”gi qonunida voyaga yetmaganlarning nazoratsiz qolishi va huquqbuzarligining oldini olish mexanizmlari belgilab berilgan.

Bizning fikrimizcha, Qonunda nazarda tutilgan voyaga yetmaganlarning huquqbuzarliklarini profilaktika qilish organlari o‘zlariga topshirilgan vazifalarni sidqidildan hamkorlikda amalga oshirganda edi, voyaga yetmaganlar o‘rtasida yuqoridagi kabi salbiy holatlarning oldi olingan bo‘lar edi.

Qonunning o‘ziga xos yana bir ijobiy jihati yakka tartibda profilaktika tushunchasi, uni amalga oshirish belgilari qayd etilgan. Ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo‘lgan voyaga yetmaganlarning oilasi alohida o‘rganilishi, ularning o‘qish joylarida ta’lim-tarbiya ishlari qanday holatda ekanligi, yoshlar o‘qishdan bo‘sh vaqtlarida nima bilan shug‘ullanib yurishi kengroq nazoratda bo‘lgani to‘g‘ri deb hisoblaymiz.

O‘ZBEKISTONDA HUDUDIY ICHKI ISHLAR ORGANLARI BOSHLIG‘INING HUQUQIY MAQOMINI TARTIBGA SOLUVCHI QONUNCHILIK TAHLILI

Tasbayev Azat Damirovich
O‘zbekiston Respublikasi IIV Navoiy viloyati IIB boshlig‘i

O‘zbekiston Respublikasida ichki ishlar organlari jamoat xavfsizligi, huquq-tartibotni saqlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, huquqbuzarliklarning oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashish bo‘yicha markaziy davlat organlaridan biridir. Ushbu tizimda hududiy ichki ishlar organlari boshlig‘i davlat boshqaruvi va huquqni muhofaza qilish tizimida alohida o‘rin tutadi.

Hududiy IIO boshlig‘ining huquqiy maqomi nafaqat mahalliy darajada xavfsizlik siyosatini amalga oshirish, balki davlatning umumiy xavfsizlik strategiyasini hudud miqyosida tatbiq etish bilan ham belgilanadi. Shu sababli, ushbu lavozimni tartibga soluvchi normativ-huquqiy bazani chuqur tahlil qilish va zamonaviy talablar asosida takomillashtirish dolzarb ilmiy-amaliy masala sifatida qaraladi.

O‘zbekistonda hududiy IIO boshlig‘ining huquqiy maqomi qator normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi:

- O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – 100-moddasida mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari vakolatlari belgilangan bo‘lib, huquq-tartibotni ta’minlashda ichki ishlar organlari bilan hamkorlik asosiy yo‘nalishlardan biri sifatida ko‘rsatiladi[1].
- “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi Qonun (2016-yil 16-sentabr, O‘RQ–407-son) – mazkur qonunning 11-moddasida hududiy IIO boshlig‘ining asosiy vakolatlari, jumladan, jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklarning oldini olish, jinoyatlarning ochilishini ta’minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, profilaktika tadbirlarini tashkil etish va mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan hamkorlik qilish majburiyati belgilangan[2].

[1] O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 2023-yilgi tahrir.
[2] “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi Qonun, O‘RQ–407-son, 2016-yil 16-sentabr.

• “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonun (2014-yil 14-may, O‘RQ–371-son) – 14-moddasida hududiy IIO boshliqlari profilaktika kengashlari ishida ishtirok etishi, huquqbuzarliklar profilaktikasini hudud darajasida muvofiqlashtirish, xavfsizlik bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqishi belgilangan[1].

• Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeks – 248-moddasida hududiy IIO boshliqlari ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqish vakolatiga ega ekanligi qayd etilgan[2].

• O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari – masalan, 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son Farmoni (“2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”)da ichki ishlar organlari faoliyatini samarali tashkil etish va hududiy bo‘g‘inning vakolatlarini kengaytirish belgilangan[3].

• Ichki ishlar vazirligi buyruqlari va idoraviy yo‘riqnomalar – bu hujjatlar hududiy IIO boshliqlarining kundalik faoliyat tartibini, hisobot tizimini va xizmat intizomi talablarini belgilaydi.

Amaldagi O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga ko‘ra, hududiy ichki ishlar organlari boshlig‘i (hududiy IIO boshlig‘i) davlatning mahalliy xavfsizlik siyosatini bevosita amalga oshiruvchi shaxs sifatida quyidagi asosiy vakolat va majburiyatlarga ega:

Birinchidan, jamoat xavfsizligi va tartibini ta’minlash — bu “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi Qonunning 11-moddasida bevosita qayd etilgan bo‘lib, unda hududiy boshliqlar jamoat joylarida huquqiy tartibni saqlash, fuqarolarning osoyishtaligini ta’minlash hamda ommaviy tadbirlar xavfsizligini kafolatlash uchun javobgar ekanligi belgilangan[4].

[1] “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonun, O‘RQ–371-son, 2014-yil 14-may.
[2] ‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi
[3] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. PF–60-son Farmon, 2022-yil 28-yanvar.
[4] O‘zbekiston Respublikasi “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘RQ–407-son, 2016-yil 16-sentabr // https://lex.uz/ru/docs/3041065

Ikkinchidan, jinoyatlarning oldini olish va fosh etish — mazkur majburiyat “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonunning 14-moddasi[1] hamda O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 34-moddasi[2] bilan huquqiy asosga ega bo‘lib, hududiy IIO boshliqlari tezkor-qidiruv choralarini tashkil etish, jinoyat ishi qo‘zg‘atish tashabbusi bilan chiqish va surishtiruv-tergov faoliyatini boshqarish huquqiga ega.

Uchinchidan, huquqbuzarliklarning profilaktikasi bo‘yicha kompleks tadbirlarni amalga oshirish — bu vakolat “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonun[4] va Ichki ishlar vazirligi tasdiqlagan “Profilaktika inspektorlari faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi yo‘riqnoma[5] bilan tartibga solinadi. Hududiy boshliqlar fuqarolar yig‘inlari, mahalla profilaktika kengashlari, Milliy gvardiya va boshqa hamkor tuzilmalar bilan birgalikda xavfsizlik chora-tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda koordinatsion rol o‘ynaydi.

To‘rtinchidan, mahalliy davlat hokimiyati organlari, prokuratura, Milliy gvardiya va boshqa tuzilmalar bilan hamkorlik qilish — amaldagi qonunchilikda (jumladan, “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi Qonun, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonun va “Milliy gvardiya to‘g‘risida”gi Qonun) hududiy IIO boshlig‘ining idoralararo hamkorlikdagi o‘rni belgilangan. Biroq, hamkorlikning aniq huquqiy mexanizmlari, qaror qabul qilishdagi vakolat balansi va idoralararo ma’lumot almashish tartibi to‘liq reglamentlashtirilmagan.

Beshinchidan, favqulodda vaziyatlarda tezkor boshqaruv va koordinatsiyani ta’minlash — “Favqulodda vaziyatlar to‘g‘risida”gi Qonunga muvofiq, hududiy IIO boshlig‘i hududiy favqulodda vaziyatlar komissiyasi tarkibiga kiradi va tezkor qarorlar qabul qilish vakolatiga ega.

Shunga qaramay, normativ-huquqiy hujjatlarda ushbu vakolatlarning ayrimlari juda umumiy va deklarativ tarzda ifodalangan. Masalan, strategik rejalashtirish bo‘yicha hududiy boshliqlarning mustaqil reja ishlab chiqish va tasdiqlash huquqi

[1] O‘zbekiston Respublikasi “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘RQ–371-son, 2014-yil 14-may // https://lex.uz/docs/2387354

[2] O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi, 1994-yil 22-sentabr, 34-modda // https://lex.uz/docs/111463

aniq ko‘rsatilmagan. Shuningdek, resurslarni taqsimlash vakolati markaziy boshqaruv tasarrufida qolayotgani bois, hududiy boshliqlar moddiy-texnik ta’minot va kadr siyosatini mahalliy ehtiyojga mos ravishda tezkor boshqarish imkoniyatiga ega emas.

Bundan tashqari, amaliyotda kuzatiladigan mustaqil tashabbuskorlik cheklovlari — ortiqcha markazlashgan hisobot tizimi va qat’iy reglamentlangan buyruqlar ijrosiga yo‘naltirilganlik tufayli hududiy boshliqlarning o‘z hududining ijtimoiy-kriminogen xususiyatidan kelib chiqib yangicha xavfsizlik choralari ishlab chiqish imkoniyatini kamaytiradi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi Qonunchilik muammolari instituti 2023-yilda o‘tkazgan ekspert tahlillarida ham ushbu masala “huquqiy vakolatlarning aniq chegaralanmagani” va “strategik boshqaruvdagi bo‘shliq” sifatida qayd etilgan[1].

Amaldagi normativ bazaning funksional arxitekturasida hududiy ichki ishlar organlari boshlig‘ining vakolatlari bir qator sektorlar — mahalliy ijro hokimiyati, prokuratura hamda Milliy gvardiya tizimlari vakolatlari bilan tutashib ketadi. Masalan, jamoat xavfsizligini ta’minlash va ommaviy tadbirlar xavfsizligini tashkil etish bo‘yicha boshqaruv konturi “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi Qonun doirasida IIOga yuklatilgan vazifalar, profilaktika tadbirlari esa “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonunda alohida normalar sifatida belgilangan. Biroq mahalliy hokimiyat organlarining hududiy xavfsizlik bo‘yicha tashkiliy qarorlari va idoralararo komission platformalardagi vakolatlar kesimi aniq chizilmagani sabab, “kim qarorni qabul qiladi, kim ijro uchun mas’ul va kim KPI bo‘yicha hisob beradi” degan governance-sepochka amaliyotda tarqoq holatda namoyon bo‘ladi. Bu esa tezkor vaziyatlarda qarorlar qabul qilish sikl-ni sekinlashtiradi va mas’uliyatni diffuz qiladi[2345].

[1] O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi Qonunchilik muammolari instituti, “Ichki ishlar organlari faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha tahliliy ma’ruza”, Toshkent, 2023-yil.

[2] O‘zbekiston Respublikasi “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘RQ–407, 2016-y. 16-sent. // lex.uz

[3] O‘zbekiston Respublikasi “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘RQ–371, 2014-y. 14-may // lex.uz

[4] “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonun // lex.uz

[5] “Milliy gvardiya to‘g‘risida”gi Qonun, O‘RQ–531, 2019-y. 14-mart // lex.uz

Strategik vakolatlar blokida ham me’yoriy aniqlik yetishmaydi. Amaldagi qonun hujjatlarida hududiy IIO boshlig‘ining hudud xavfsizligi bo‘yicha o‘rta/uzoq muddatli strategiya ishlab chiqish, uni tasdiqlash va resurslashtirish vakolati ochiq-oydin belgilanmagan. Natijada profilaktika va jamoat tartibini saqlash faoliyati ko‘proq taktik xarakterda qolib ketadi, kompleks xavf xaritalash (risk mapping), resurslarni “ishtaholi nuqta”larga qayta joylashtirish (redeployment) va natijaga yo‘naltirilgan indikatorlar tizimi (outcome-based indicators) to‘liq sikli bilan ishlamaydi. Prezident hujjatlari (masalan, PF–60)da IIO faoliyatini modernizatsiya qilish vazifalari qo‘yilgan bo‘lsa-da, bu vazifalarni hududiy strategik rejalashtirish vakolatlariga aylantirib qonun matniga implementatsiya qilish bo‘yicha aniq normalar yo‘q[5]. Shu bois strategik siklning “ijod-rezursllash–ijro–monitoring–audit” bosqichlari normativ tartibda bir tizimga keltirilmagan[12].

Resurslarni boshqarish masalasida ham boshliqning manevr qilish imkoniyatlari cheklangan. Moddiy-texnik ta’minot, kadrlar profili va kompetensiyalar matritsasini hududning kriminogen profiliga moslab operativ qayta konfiguratsiyalash huquqi aniq standart me’yor sifatida berilmagan. Bu, ayniqsa, yuqori xavfli mavsumlarda (ommaviy tadbirlar ko‘payishi, migratsiya oqimlari, turistik pik) qo‘shimcha smenalar tashkil etish, profilaktik sektorni kuchaytirish yoki analitik quvvatni tezkor ravishda oshirish kabi zaruratlarda seziladi. Natijada byudjet–kadr–texnika o‘rtasidagi trade-off qarorlari markazlashgan tarzda qolib, hududiy darajada tezkor qayta joylashtirish (intrayear reallocation) past samara bilan kechadi[34].

Idoralararo hamkorlikdagi huquqiy mexanika hali ham tartibga solishning “yumshoq nuqtasi” hisoblanadi. Qonunlar o‘zaro hamkorlikni belgilagan bo‘lsa-da (IIO to‘g‘risidagi Qonun, Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risidagi Qonun, Milliy gvardiya to‘g‘risidagi Qonun), qaror qabul qilish tartibi, ma’lumot almashish

[1] O‘zbekiston Respublikasi “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘RQ–407, 2016-y. 16-sent. // lex.uz

[2] PF–60: “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangī O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi”, 2022-y. 28-yanv. // president.uz

[3] O‘zbekiston Respublikasi “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘RQ–407, 2016-y. 16-sent. // lex.uz

[4] O‘zbekiston Respublikasi “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘RQ–371, 2014-y. 14-may // lex.uz

SLAlari, birlashgan shtab rejimida komandirlik va siyosat-tajriba qarama-qarshiliklarini hal qilishning eskalatsiya yo‘li detallashtirilmagan. Buning oqibatida favqulodda holatlarda “yagona viloyat/tuman xavfsizlik reyali”ning joriy boshqaruvi shaxsiy professionalizmga haddan tashqari bog‘liq bo‘lib qoladi; institutsional kafolat esa yetishmaydi[1].

Hisobot va nazorat tizimi “input–protsess”ga ortiqcha fokuslangan. Amaldagi idoraviy yo‘riqnomalar va hisobot shablonlari ish hajmini katta qismda “hujjat aylanishi”ga yo‘naltiradi, natijada frontline profilaktika, community policing va analitik ish uchun vaqt–resurs yemish bo‘ladi. Indikatorlar ierarxiyasida ham natijaga yo‘naltirilgan metrikalar (masalan, qayta-qayta sodir bo‘luvchi huquqbuzarliklar klasterlarini qisqartirish, xavf guruhlari bilan individual ish samarasi) emas, balki sanoq-hisobot kontenti ustuvorligi saqlanib qolmoqda. OSCEning demokratik politsiyalash bo‘yicha yo‘riqnomalarida esa shuning tamoman teskarisi — hisobdorlik va ochiqlik natija ko‘rsatkichlari orqali tuzilishi lozimligi ta’kidlanadi[2]. Bu tavsiyalar milliy bazaga to‘liq integratsiya qilinmagan.

Mehnat huquqi va xizmat intizomi kesimidagi normalar ham ba’zan “buyruqbozlik” effektini kuchaytiradi: vazifalar tartibini mayda-mayda buyruqlar orqali boshqarish amaliyoti boshliqning tashabbus iqtisodiyotini cheklaydi, innovatsion pilotlar (masalan, data-driven patrul rejalashtirish, real-time hot-spot management)ni joriy etishga psixologik/idoraviy barer hosil qiladi. Qonunlarda boshliqning eksperimental tartibda mahalliy pilotni yo‘lga qo‘yish va uning natijasiga ko‘ra normativlashtirish tashabbusi bilan chiqish vakolati mustaqil norma sifatida qayd etilmagan.

Yuqoridagilar yig‘indisi sohada huquqiy aniqlik, strategiya va resurs manevri o‘rtasidagi notenglikni vujudga keltiradi. Hududiy IIO boshlig‘i rahbar sifatida operatsion javobgar, ammo strategik–resursiy ғыchaglar cheklangan; hamkorlik majburiy, ammo komand–kontrol mexanizmi detalsiz; hisobdorlik talab yuqori, ammo KPIlar natija emas, jarayonga bog‘langan. Bu policy–operations gapni

[1] “Favqulodda vaziyatlar to‘g‘risida”gi Qonun, O‘RQ–220, 1999-y. 20-avg. // lex.uz
[2] OSCE, Guidebook on Democratic Policing / Policing Strategies, Vena, 2018.

kengaytiradi va tizimning inqilobiy emas, evolyusion sur’atiga tushib qolishiga olib keladi.

O‘zbekistonda hududiy ichki ishlar organlari boshlig‘ining huquqiy maqomini takomillashtirish, ularning vakolatlarini aniq belgilash va zamonaviy xavfsizlik boshqaruvi talablariga moslashtirish uchun quyidagi ilmiy asoslangan yo‘nalishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

1. “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi Qonunga alohida moddalar kiritish Hududiy IIO boshliqlarining strategik rejalashtirish, resurslarni boshqarish va xavfsizlik siyosatini hudud sharoitiga moslashtirish vakolatlarini normativ jihatdan mustahkamlash lozim. Bunda quyidagilar alohida normativ modda sifatida qayd etilishi maqsadga muvofiq:

- Strategik xavfsizlik rejasini ishlab chiqish vakolati – har bir tuman yoki shahar uchun uch yillik xavfsizlik strategiyasi ishlab chiqish, uni mahalliy xavfsizlik kengashi va Ichki ishlar vazirligi tomonidan tasdiqlash mexanizmini qonuniylashtirish.
- Resurslarni boshqarish huquqi – moddiy-texnik vositalarni, shaxsiy tarkibni va moliyaviy resurslarni hududiy kriminogen holatga mos holda taqsimlash vakolatini berish. Bu vakolat Germaniya Landespolizeigesetz modelida bo‘lgani kabi mustaqil va javobgarlik asosida amalga oshirilishi kerak.
- Hududiy xavfsizlik siyosatini moslashtirish – markaziy strategiyani hududning ijtimoiy-demografik, iqtisodiy va kriminogen xususiyatlariga moslashtirish huquqini aniq belgilash.

2. Idoralararo vakolatlarni chegaralash reglamentini ishlab chiqish Prokuratura, hokimiyat va ichki ishlar organlari o‘rtasida hamkorlik tartibini aniq belgilovchi “Idoralararo hamkorlik reglamenti” ishlab chiqilishi zarur. Ushbu reglamentda:

- Qaror qabul qilish zanjiri (decision chain) va mas’uliyat chegaralari belgilanishi;
- Favqulodda vaziyatlarda tezkor qaror qabul qilish mexanizmi (rapid command protocol) aniq yozilishi;

- Ma’lumot almashishning minimal standartlari va SLA (Service Level Agreement)lari huquqiy jihatdan mustahkamlanishi;
- Birlashtirilgan tezkor shtab (joint command) ishlash tartibi belgilanishi lozim. Bunday mexanizm Fransiya prefektura tizimi tajribasida muvaffaqiyatli ishlamoqda, bu esa O‘zbekistonda ham tezkor koordinatsiyani oshiradi.

3. Hisobot tizimini optimallashtirish Hozirgi hisobdorlik tizimi ortiqcha byurokratik yuk keltirib chiqarib, hududiy boshliqlarning operativ ishga e’tiborini kamaytiradi. Shu bois:

- Hisobotlarni “input-process-output-outcome” modeli asosida qayta ko‘rib chiqish;
- Asosiy baholash indikatorlarini natija (outcome)ga yo‘naltirish – masalan, qayta-qayta sodir bo‘ladigan huquqbuzarliklar darajasining kamayishi, xavf guruhi bilan ishlash samaradorligi kabi mezonlar;
- Hisobotlarni elektron tizim orqali real vaqt rejimida shakllantirishni joriy etish. Janubiy Koreya tajribasida politsiya boshliqlarining samaradorligi raqamli indikatorlar asosida baholanadi, bu esa ortiqcha hujjat aylanishini kamaytiradi.

4. Xalqaro tajribani integratsiya qilish Germaniya, Fransiya va Janubiy Koreya tajribalarini O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish orqali mahalliy boshqaruv mustaqilligi va markaziy nazorat o‘rtasida optimal muvozanat yaratish mumkin:

- Germaniya modeli – hududiy boshliqlarga strategik mustaqillik berish, resurslarni mustaqil boshqarish, lekin federal standartlarga javob berish majburiyatini saqlash;
- Fransiya modeli – favqulodda vaziyatlarda markaziy vakolatni kutmasdan mustaqil qaror qabul qilish huquqini qonuniylashtirish;
- Janubiy Koreya modeli – indikator asosida samaradorlikni baholash va raqamli nazorat tizimlarini keng qo‘llash.

5. Normativ-huquqiy monitoring tizimini joriy etish Har yili hududiy boshliqlar vakolatlari samaradorligini baholovchi huquqiy audit o‘tkazish, bu jarayonga Oliy Majlis huzuridagi Qonunchilik muammolari instituti, Bosh prokuratura va OSCE ekspertlarini jalb etish. Natijalarga ko‘ra qonun va idoraviy hujjatlar yangilanadi.

Xulosa

O‘zbekiston qonunchiligida hududiy ichki ishlar organlari boshlig‘ining huquqiy maqomi asosiy vazifalarni bajarish uchun yetarli asosga ega bo‘lsa-da, zamonaviy xavfsizlik muhitining murakkablashuvi ushbu lavozim vakolatlarini kengaytirish va aniq belgilash zaruratini tug‘diradi. Normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, vakolatlarni aniqlashtirish va xalqaro standartlarni integratsiya qilish orqali hududiy boshliqlarning faoliyat samaradorligini oshirish mumkin.

YANGI O’ZBEKISTONDA XAVFSIZ TA’LIM: MILLIY AN’ANALAR VA XORIJIY TAJRIBANING INTEGRATSIYASI

Qurbonov Sherzod Murodqobilovich
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti O‘quv-uslubiy boshqarmasi, katta o‘qituvchi-uslubchisi
Hotamboyeva Sevinch Valijonovna
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, Maxsus fakultet 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Yangi O‘zbekistonda xavfsiz ta’lim tizimini shakllantirish masalalari tahlil qilinadi. Xususan, milliy an’analar va xorijiy tajribaning integratsiyasi orqali ta’lim muhitini yanada xavfsiz qilishning huquqiy, texnologik va psixologik jihatlari o‘rganiladi. Shuningdek, O‘zbekistonda qabul qilingan qonun hujjatlari, xalqaro tajribalar va innovatsion yondashuvlarning ta’lim tizimidagi ahamiyati ko‘rib chiqiladi. Maqola ta’lim sohasida islohotlar olib borayotgan mutasaddi tashkilotlar, pedagoglar hamda tadqiqotchilar uchun foydali bo‘lishi mumkin.*

Kalit so‘zlar: *xavfsiz ta’lim, Yangi O‘zbekiston, ta’lim tizimi, milliy an’analar, xorijiy tajriba, integratsiya, ta’lim huquqi, kiberxavfsizlik, inson xavfsizligi, innovatsion ta’lim, pedagogik xavfsizlik, ta’lim sifati, o‘quv muhitining xavfsizligi, o‘qituvchi va o‘quvchi huquqlari, ta’lim islohotlari, innovatsion texnologiyalar, raqamli ta’lim, psixologik xavfsizlik, inkluziv ta’lim.*

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so‘ng ta’lim tizimini rivojlantirish va uni xalqaro talablarga moslashtirish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlarni amalga oshirdi. Ayniqsa, O‘zbekiston - 2030 strategiyasida ta’lim sifatini oshirish, innovatsiyalarni joriy etish hamda xavfsiz ta’lim muhitini yaratish masalalari ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilandi. Bugungi kunda ta’lim jarayoni nafaqat bilim berish, balki o‘quvchilarning huquqiy, axborot va psixologik xavfsizligini ta’minlash orqali har tomonlama himoyalangan muhit yaratishga qaratilgan[1].

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-son

Xavfsiz ta’lim tushunchasi keng qamrovli bo‘lib, u o‘quvchilarning jismoniy, ma’naviy va axborot xavfsizligini ta’minlashni o‘z ichiga oladi. Bu jarayonda ta’lim muassasalarida shaxsiy xavfsizlik choralari ko‘rilishi, internet va raqamli texnologiyalardan foydalanishda ehtiyot choralarining ishlab chiqilishi, shuningdek, o‘quvchilarni turli xavf-xatarlardan ogohlantirish va ularga to‘g‘ri yo‘l-yo‘riq berish muhim hisoblanadi. Shu bois, davlat tomonidan ta’lim xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan qator qonunlar, me’yoriy hujjatlar va davlat dasturlari qabul qilingan[1].

Ta’lim jarayonining xavfsizligi nafaqat jismoniy muhit bilan bog‘liq, balki ma’naviy, psixologik va axborot xavfsizligi jihatlariga ham taalluqlidir. O‘zbekistonda xavfsiz ta’limni ta’minlash milliy qadriyatlar va urf-odatlar bilan uyg‘un holda olib borilmoqda. Ota-onalar, pedagoglar va jamiyatning barcha qatlamlari ta’lim jarayonida o‘quvchilar xavfsizligini ta’minlashga mas’ul sanaladi.

Shu bilan birga, xalqaro tajribaga murojaat qilish va rivojlangan mamlakatlarning ilg‘or pedagogik hamda texnologik yondashuvlarini o‘rganish zarur. Masalan, AQSh, Yaponiya, Janubiy Koreya, Yevropa davlatlari ta’lim muassasalarida xavfsiz muhit yaratish, kiberxavfsizlikni ta’minlash, inklyuziv ta’limni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha samarali tizimlarni ishlab chiqqan.

Shu sababli, ushbu maqolada O‘zbekiston sharoitida xavfsiz ta’lim tizimini shakllantirish, milliy qadriyatlar va xalqaro tajribalarni uyg‘unlashtirish masalalari tahlil qilinadi. Xavfsiz ta’lim modelini ishlab chiqishda milliy an’analarning o‘rni, xorijiy davlatlarning ilg‘or tajribalarini o‘rganish, pedagogik va texnologik yondashuvlarni integratsiya qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yangi O‘zbekistonda xavfsiz ta’limni ta’minlash borasida bir qator muhim qonun hujjatlari va farmonlar qabul qilingan. Ushbu maqola uchun quyidagi asosiy hujjatlar haqida ma’lumot berish mumkin: "Ta’lim to‘g‘risida"gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni (O‘RQ-637-son, 23.09.2020-yil): Ushbu qonun ta’lim sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi va ta’lim tizimining asosiy tamoyillarini

[1] cchttps://cyberleninka.ru/article/n/yoshlar-axborot-xavfsizligini-ta-minlashning-zamonaviy-usullari

belgilaydi. Qonunda ta’lim olish huquqi, ta’lim turlari, ta’lim muassasalarining faoliyati va boshqaruvi kabi masalalar qamrab olingan[1].

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta’lim sohasini yanada rivojlantirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi farmoni (708-IV-son, 18.01.2021-yil): Ushbu farmon ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish, ta’lim sifatini oshirish va xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlarni belgilaydi. Bu hujjatlar Yangi O‘zbekistonda xavfsiz ta’lim tizimini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, milliy an’analar va xorijiy tajribalarni integratsiya qilish jarayonida asosiy yo‘nalishlarni belgilab beradi[2].

Yangi O‘zbekistonda xavfsiz ta’lim tizimini shakllantirish bo’yicha bir nechta muammolar mavjud.

Jumladan: huquqiy baza va nazorat tizimining yetarlicha mustahkam emasligi. Bunda ta’lim muassasalarida xavfsizlik qoidalarini belgilovchi hujjatlar to‘liq ishlanmagan yoki ularning amalda bajarilishi yetarlicha nazorat qilinmaydi. Favqulodda vaziyatlarda (yong‘in, tabiiy ofatlar, zo‘ravonlik va boshqalar) harakat qilish bo‘yicha standart operatsion tartib-qoidalar barcha ta’lim muassasalarida joriy etilmagan.

Bundan tashqari, Ta’lim muassasalarida jismoniy va texnik xavfsizlikning yetarlicha ta’minlanmaganli oqibatida ham bir nechta muammolar kelib chiqmoqda. Ko‘plab maktab va oliy ta’lim muassasalarida kuzatuv kameralarining yo‘qligi yoki noto‘g‘ri ishlashi, kirish-chiqish nazorati sust tashkil etilgan, begona shaxslarning o‘quv muassasalariga bemalol kirishi mumkin hamda yong‘in va favqulodda vaziyatlar uchun signalizatsiya tizimlari barcha joylarda mavjud emasligi shular jumlasidan.

Pedagog va o‘quvchilarning psixologik xavfsizligi ham muhim muammo bo’lin hisoblanadi. Buning oqibatida, maktablarda zo‘ravonlik (bullying), ruhiy tazyiq va boshqa salbiy holatlar kuzatilishi, o‘quvchilarning ruhiy holati bilan

[1]https://www.researchgate.net/profile/MuxriddinAbdutolibov/publication/381739534_To%27plam_Pedagogika_2/links/667cff982aa57f3b82535bab/Toplam-Pedagogika-2.pdf

[2] https://iibb.uz/uz/menu/ozbekiston-respublikasi-vazirlar-mahkamasining-qarorlari

shug‘ullanadigan professional psixologlar yetishmasligi hamda o‘qituvchilar va ota-onalar zo‘ravonlik va psixologik muammolarni erta aniqlash borasida yetarlicha bilimga ega emasliklari namoyon bo’ladi.

Yangi O‘zbekistonda xavfsiz ta’lim tizimini shakllantirish bo‘yicha takliflar

O‘zbekistonda xavfsiz ta’lim tizimini yaratish dolzarb masalalardan biri bo‘lib, bu borada bir qator kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur. Quyida mavjud muammolarni bartaraf etish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar bayon etiladi.

Birinchidan, huquqiy bazani takomillashtirish masalasida ta’lim muassasalarida xavfsizlik me’yorlari va standartlarini belgilovchi qonunchilik hujjatlari xalqaro tajriba asosida ishlab chiqilishi lozim. Xususan, maktab va oliy ta’lim muassasalarida favqulodda vaziyatlar bo‘yicha maxsus reglament va harakat algoritmlarini ishlab chiqish hamda ularning bajarilishini qat’iy nazorat qilish muhimdir. Shu bilan birga, xavfsizlik masalalarini muntazam ravishda monitoring qilish va nazorat qiluvchi davlat inspeksiyasini tashkil etish ham samarali yechim bo‘lishi mumkin.

Ikkinchidan, ta’lim muassasalarida jismoniy va texnik xavfsizlikni ta’minlash uchun zamonaviy texnologiyalardan foydalanish talab etiladi. Maktab va universitetlarda videokuzatuv tizimlarini to‘liq joriy etish, elektron kirish kartalari orqali tashqi shaxslarning ta’lim muassasalariga kirishiga cheklov qo‘yish lozim. Yong‘in va boshqa favqulodda vaziyatlar uchun signalizatsiya tizimlarini barcha ta’lim muassasalariga o‘rnatish shart.

Uchinchidan, psixologik xavfsizlikni ta’minlash maqsadida har bir ta’lim muassasasida professional psixolog lavozimini joriy etish va ularning malakasini oshirish bo‘yicha maxsus dasturlar ishlab chiqish zarur. Bundan tashqari, o‘qituvchilar va ota-onalar uchun zo‘ravonlikka qarshi kurash va bolalar psixologiyasini o‘rganish bo‘yicha muntazam seminar-treninglar tashkil etish muhimdir.

To‘rtinchidan, raqamli xavfsizlik va kiberxavfsizlikni ta’minlash maqsadida ta’lim muassasalarida kiberxavfsizlik bo‘yicha maxsus o‘quv kurslarini joriy etish, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish tizimini kuchaytirish va kiberjinoyatlarga qarshi kurash bo‘yicha maxsus dasturlar ishlab chiqish lozim.

Beshinchidan, xalqaro tajribadan samarali foydalanish maqsadida xorijiy davlatlarning ilg‘or xavfsizlik tizimlarini o‘rganish va O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish zarur. Shu bilan birga, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda grant loyihalari asosida xavfsizlik infratuzilmasini modernizatsiya qilish maqsadga muvofiqdir.

Yuqoridagi takliflarni amalga oshirish orqali yangi O‘zbekiston ta’lim tizimida xavfsizlikni ta’minlash va yosh avlodning ilm olish jarayonini himoya qilishga erishish mumkin.

Xulosa

Yangi O‘zbekistonda xavfsiz ta’lim tizimini shakllantirish zamon talabi bo‘lib, bu jarayonda kompleks yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Ta’lim tizimining xavfsizligini ta’minlash nafaqat jismoniy va texnik choralarga bog‘liq, balki huquqiy, psixologik va raqamli xavfsizlik jihatlariga ham asoslanishi lozim. Mazkur yo‘nalishda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan chora-tadbirlar milliy an’analar va xalqaro tajribalar uyg‘unligida shakllantirilishi kerak.

Birinchi navbatda, huquqiy baza va nazorat tizimi takomillashtirilishi lozim. Hozirgi kunda xavfsizlik choralari bo‘yicha qabul qilingan qonunchilik hujjatlari yetarli darajada emasligi yoki ularning amaliyotda samarali qo‘llanilishi muammolarga duch kelayotgani kuzatilmoqda. Shu sababli, har bir ta’lim muassasasi uchun xavfsizlik reglamentlari ishlab chiqilishi va ularning bajarilishini doimiy monitoring qilish zarur. Maxsus nazorat organlarini tashkil etish orqali ushbu huquqiy normalarning samaradorligini oshirish mumkin.

Ikkinchi muhim jihat – ta’lim muassasalarida jismoniy va texnik xavfsizlikni kuchaytirishdir. Xususan, ta’lim dargohlarida zamonaviy videokuzatuv tizimlarini o‘rnatish, kirish-chiqish nazoratini kuchaytirish va favqulodda vaziyatlar uchun maxsus signalizatsiya tizimlarini joriy etish talab etiladi. Ushbu choralar orqali

begona shaxslarning ta’lim muassasalariga kirishiga cheklov o‘rnatilib, bolalar va o‘qituvchilarning xavfsizligi ta’minlanadi.

Xulosa qilib aytganda, ta’lim tizimida xavfsizlikni ta’minlash ko‘p jihatli jarayon bo‘lib, uning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi huquqiy bazani mustahkamlash, texnik vositalarni modernizatsiya qilish, psixologik muhitni yaxshilash, kiberxavfsizlikni oshirish va xalqaro tajribadan samarali foydalanishga bog‘liqdir. Shu sababli, davlat, ta’lim muassasalari, ota-onalar va jamiyatning barcha qatlamlari bu jarayonda faol ishtirok etishi zarur. Aynan shunday yondashuv orqali O‘zbekiston ta’lim tizimida xavfsizlikni yuqori darajaga ko‘tarish mumkin bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi T.: Adolat-2023 y.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yilllarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot stretegiyasi to‘g‘risi”gi PF-60- sonli Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-son
4. cchttps://cyberleninka.ru/article/n/yoshlar-axborot-xavfsizligini-ta-minlashning-zamonaviy-usullari
5. https://www.researchgate.net/profile/MuxriddinAbdutolibov/publication/381739534_To%27plam_Pedagogika_2/links/667cff982aa57f3b82535bab/Toplam-Pedagogika-2.pdf
6. https://iibb.uz/uz/menu/ozbekiston-respublikasi-vazirlar-mahkamasining-qarorlari

VOYAGA YETMAGANLAR O‘RTASIDA PIROTEXNIKA BUYUMLARI NOQONUNIY MUOMALASI UCHUN JAVOBGARLIKNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Kasimov Davron

O‘zbekiston Respublikasi IIV Jamoat xavfsizligi Departamenti Jamoa tartibini saqlash xizmati bo‘lim boshlig‘i, mustaqil izlanuvchi

kasimovdavron80@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada pirotexnika buyumlari noqonuniy muomalasi, voyaga yetmaganlar o‘rtasida ushbu huquqbuzarlik uchun ma’muriy va jinoiy javobgarlik, pirotexnika buyumlarining qonunga xilof muomalasining oldini olishni huquqiy ta’minlash masalalari ko‘rib chiqilgan.

Tayanch so‘zlar: voyaga yetmagan, litsenziya, pirotexnika buyumlari, qonunga xilof muomla, oldini olish, javobgarlik, norma, huquqbuzarlik, huquqni qo‘llash amaliyoti, ijtimoiy xavfli qilmish, oqibat, takomillashtirish.

Mamlakatimizda qish mavsumi boshlangan sari ko‘cha-ko‘yda bolalar tomonidan turli pirotexnika buyumlaridan foydalanish hollari ko‘payadi. Uning ayanchli oqibatlari, jamoat tartibi va aholining tinchligi buzilishi, ayniqsa bolalar hayoti va sog‘lig‘iga xavfi barchamizga ma’lum. Bu o‘z navbatida ichki ishlar organlari hamda boshqa huquq-tartibot idoralari xodimlarini sergaklikka chorlaydi. Sababi, aynan shu davrda pirotexnika buyumlarining mamlakatimiz chegaralaridan noqonuniy olib o‘tilishi hamda qonunga xilof tarzdagi savdosi kuchayadi.

Eng achinarlisi, pirotexnika buyumlarini qonunga xilof muomalasi huquqbuzarligining asosiy sub’ekti huquqiy oqibatini tushunmaydigan yoki hali to‘liq anglay olmaydigan voyaga yetmaganlar bo‘lib, ular tomonidan sodir etilayotganligi jamiyatni tashvishga solishi hamda ushbu yo‘nalishda doimiy barvaqt profilaktik chora-tadbirlar amalga oshirilishini talab etadi.

Voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilayotgan huquqbuzarliklar zamonaviy jamiyatning eng dolzarb muammolaridan biridir. “Yosh avlod yuksak taraqqiyot

natijalariga erishishga intilayotgan har qanday davlatning ijtimoiy rivojlanishining tabiiy zaxirasi”[1] ekanligini tushunishimiz lozim.

Voyaga yetmaganlarga nisbatan huquqbuzarlik siyosatining ayrim yo‘nalishlari an’anaviy ravishda mustaqil tadqiqot ob’ekti sifatida o‘rganiladi hamda voyaga yetmaganlar huquqbuzarligining xususiyatlaridan kelib chiqib, “jinoyat va ma’muriy qonunchilik bilan alohida tartibga solinadi”[2]. Voyaga yetmaganlarning huquqbuzarlik holati jamiyatning ma’naviy darajasini belgilaydi, shuning uchun qonun chiqaruvchi organ voyaga yetmaganlarning javobgarlik masalasini O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi (keyingi matnlarda - JK) va Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksida (keyingi matnlarda - MJtK) alohida normalar bilan mustahkamlangan.

Shu bilan birga, davlatning ushbu yo‘nalishda asosiy strategiyasi, voyaga yetmagan huquqbuzarning tezroq tuzalish yo‘liga kirishi va ularni qonunga itoatkor fuqaro sifatida shakllantirishga qaratilgan. Ushbu shart-sharoitlar zamonaviy qonunchilik siyosatini shakllantirishga katta ta’sir ko‘rsatadi hamda jinoiy va ma’muriy ijroiya tizimining yo‘nalishlarini belgilab beradigan omillardan biri hisoblanadi[3].

Shu o‘rinda, mamlakatimiza voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasini amalga oshirishda muhim normativ-huquqiy hujjat “Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to‘g‘risida” Qonunni[4] ko‘rsatish lozim. Qonun bilan voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi sohasidagi munosabatlarni tartibga solish, ushbu sohaning asosiy tushunchalari, vazifalari, prinsiplari, faoliyatni axborot bilan ta’minlash, ota-ona yoki ota-ona o‘rnini bosuvchi shaxslarning ishtiroki, amalga oshiruvchi organlar hamda muassasalar va ularning

[1] С.П. Середа “К вопросу об уголовной политике в отношении несовершеннолетних” / С. П. Середа // Вестник института: преступление, наказание, исправление. — 2012. — № 3. — С. 77–82.

[2] Л.В.Мальцева Преступность среди несовершеннолетних и ее предупреждение / Л. В. Мальцева // Общество: политика, экономика, право. — 2011. — № 4. — С. 102–105.

[3] М. Бабаев “Концепция уголовно-правовой политики Российской Федерации” / М. Бабаев, Ю.Пудовочкин // Уголовное право. — 2012. — № 4. — С. 4–8.

[4] “Вояга етмаганлар ўртасида назоратсизлик ва ҳуқуқбузарликларнинг профилактикаси тўғрисида” Ўзбекистон Республикасининг Қонуни, 29.09.2010 йилдаги ЎРҚ-263-сон, https://www.lex.uz/docs/1685726

vakolatlari, yakka tartibdagi profilaktika ishini tashkil etish, ijtimoiy-huquqiy yordam ko‘rsatish markaziga va ixtisoslashtirilgan o‘quv-tarbiya muassasasiga joylashtirish tartibi belgilangan.

Shuningdek, Qonunning 3-moddasida asosiy tushunchalar berilgan bo‘lib, mavzuga doir quyidagi tushunchalarni bilishimiz maqsadga muvofiq:

voyaga yetmagan — o‘n sakkiz yoshga to‘lmagan shaxs;

voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi — voyaga yetmaganlarning nazoratsizligi, qarovsizligiga, ular tomonidan huquqbuzarliklar yoki boshqa g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etilishiga imkon beradigan sabablar va shart-sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etishga qaratilgan, yakka tartibdagi profilaktika ishi bilan birgalikda amalga oshiriladigan ijtimoiy, huquqiy, tibbiy va boshqa chora-tadbirlar tizimi tushuniladi.

Voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklarining oldini olishga oid davlat siyosatini amalga oshirish bilan bog‘liq chora-tadbirlarni ishlab chiqish, ular tomonidan sodir etilgan jinoyat va ma’muriy huquqbuzarliklar statistikasini, o‘ziga xos xususiyatlarini har tomonlama tahlil qilish orqali ta’minlash mumkin. Kriminolog olimlarning ta’kidlashicha, huquqbuzarlik holatini o‘rganishda uning “latent”(yarishin), ya’ni rasmiy statistikada qayd etilmagan tarkibiy qismini hisobga olish kerak, chunki voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan huquqbuzarliklar haqiqiy soni hisobotga nisbatan ancha yuqori.

Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, voyagaetmaganlarning xulq-atvorini jismoniy, ma’naviy jihatdan shakllanmaganligi sababli o‘zini o‘zi boshqara oladigan deb atash mumkin emas, ularda “hissiy beqarorlik” kuchaygan, bularning barchasi ba’zan ularni huquqbuzarlik sodir qilishiga undaydi. Ko‘pgina mualliflarning ta’kidlashicha, voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etiladigan huquqbuzarliklarning huquqiy xususiyati ularning xatti-harakatlarining huquqiy tabiati bilan emas, balki motivatsiya mexanizmi, psixologik munosabatarning muayyan xususiyatlari, o‘zini imkoniyatini

yuqori baholash va guruh manfaatlariga yoki shaxsiy iroda qarorlariga qarshi tura olmaydiganligi bilan farqlanishini ta'kidlaydilar[1].

Voyaga yetmagan huquqbuzarlarning yosh xususiyatlari, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining kriminologik tavsifi, uning oldini olish va profilaktikasi, ular tomonidan qonun buzilishining profilaktikasini tashkil etish va amalga oshirish, umuman olganda, voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan amalga oshiriladigan davlat siyosatining alohida yo'nalishini nazarda tutishni talab qiladi[2] .

Qonun hujjatlariga muvofiq jinoyat va ma'muriy qilmish uchun javobgarlik sub'ekti sifatida voyaga yetmaganlar sodir etgan ijtimoiy xavfli qilmishning havflilik darajasi, oqibatidan kelib chiqib, JKning 17-moddasiga[3] asosan 14-18 yoshni hamda MJtKning 14-moddasiga[4] asosan 16-18 yoshni tashkil qilib, ularning javobgarlikka tortiladigan qilmishlar doirasi cheklanganligi bilan ajralib turadi.

Maqolamizning asosiy tadqiqot mavzusiga qaytadigan bo'lsak, mamlakatimizga pirotexnika vositalarini olib kirish, ishlab chiqarish, tashish, saqlash, sotish va ulardan foydalanish sohasida samarali davlat nazoratini o'rnatish, ularning noqonuniy foydalanishining oldini olish, pirotexnika vositalari namoyish qilinadigan madaniy-tomosha va boshqa tadbirlarni o'tkazishda xavfsizlik chora-tadbirlarini kuchaytirish, shuningdek, iste'molchilarning huquqlari himoya qilinishini ta'minlash maqsadida 2009 yil 10 dekabrida Vazirlar Mahkamasining qarori[5] qabul qilindi.

Jamoat xavfsizligi sohasiga oid mazkur masalani har tomonlama tadqiq etish uchun pirotexnika buyumlarining qonuniy va noqonuniy muomalasini ko'rib chiqish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz.

O'zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligi sohasiga oid faoliyatlar, shu jumladan pirotexnika buyumlari muomalasi bilan shug'ullanish "Litsenziyalash,

---

[1] Криминология: учеб. / под ред. И. И. Рогова, Е.О. Алауханова. — Алматы: Международ. центр науч. исследований и правовой эксперт

[2] С.П. Середа "К вопросу об уголовной политике в отношении несовершеннолетних / С. П. Середа // Вестник института: преступление, наказание, исправление. — 2012. —№ 3. — С. 77–82

[3] Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодекси 22.09.1994 йилдаги 1-сон, https://lex.uz/docs/111453

[4] Ўзбекистон Республикасининг Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодекси, 01.04.1995 йилдаги 3-сон, https://lex.uz/docs/97664.

[5] "Ўзбекистон Республикаси ҳудудида пиротехника воситалари айланишини тартибга солиш чора-тадбирлари тўғрисида" Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг қарори, 10.12.2009 йилдаги 309-сон, https://lex.uz/docs/1557194

ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to‘g‘risida”gi Qonuni[1] asosida davlat xizmatlari ko‘rsatishni nazarda tutadi. Mazkur qonunning amalga oshirilishi uchun litsenziyalarni olish talab qilinadigan faoliyat turlari (1-ilova) ro‘yxatining 22-bandida pirotexnika buyumlarini (harbiy maqsaddagi mahsulotlardan tashqari) yaratish, ishlab chiqarish, tashish, saqlash, realizatsiya qilish, ulardan foydalanish, ularni yo‘q qilish va utilizatsiya qilish faoliyati uchun litsenziya turi ko‘rsatilgan bo‘lib, litsenziyalovchi organ sifatida Ichki ishlar vazirligi belgilangan.

Xavflilik darajasiga qarab pirotexnika buyumlari 5 ta toifalarga (I-V - klassga) ajratilgan bo‘lib, uning xususiyati turli xil xavfli omillarni (kinetik energiya, djouli, akustik nurlanish, desibel, zarba to‘lqinlari, parchalar tarqalishi) umumlashtiradigan xavfli hudud radiusining kattaligiga bog‘liq. Xususan:

I – II klasslardagi pirotexnika buyumlari maishiy maqsaddagi,

III-V klasslardagi pirotexnika mahsulotlari esa texnik, maxsus, sanoat va harbiy maqsaddagi pirotexnika buyumlariga mansubdir.

Maishiy maqsaddagi *(xavflilikning I – II klasslari)*: 18 yoshga to‘lgan fuqarolarga erkin sotiladigan, qo‘llash bo‘yicha yo‘riqnoma asosida foydalanishi, maxsus bilim va ko‘nikmalarni talab etmaydigan pirotexnika buyumlariga mansub.

Texnik va maxsus maqsaddagi *(xavflilikning III – V klasslari)*: qo‘llanilishi atrofdagilar uchun jiddiy xavf tug‘dirishi mumkinligi bois, foydalanishi maxsus bilim va ko‘nikmalarni, foydalanuvchi shaxslarning yetarli malakaga ega bo‘lishni hamda foydalanishda maxsus texnik shartlar ta’minlanishini talab etuvchi buyumlar. Ushbu buyumlar faqat texnik va maxsus maqsaddagi pirotexnika buyumlaridan foydalanishni amalga oshirishga doir litsenziyaga ega bo‘lgan yuridik shaxsga sotilishi, ushbu buyumlardan yuridik shaxs shtatidagi Toshkent davlat texnika universitetining malaka oshirish kurslarida “Pirotexnika buyumlarini xavfsiz qo‘llash” yo‘nalishi bo‘yicha maxsus tayyorgarlikdan o‘tgan hamda tegishli guvohnomaga ega bo‘lgan xodimlar tomonidan foydalanishi belgilangan.

[1] “Лицензиялаш, рухсат бериш ва хабардор қилиш тартиб-таомиллари тўғрисида” Ўзбекистон Республикасининг Қонуни, 14.07.2021 йилдаги ЎРҚ-701-сон, https://lex.uz/docs/5511879.

Biroq, Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi hududida pirotexnika buyumlari muomalasi sohasida davlat nazoratini kuchaytirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2021 yil 1 dekabrdagi 724-son qarori 2-bandining ikkinchi xatboshida xavflilikning II klassiga tegishli *(ya’ni 18 yoshga to‘lgan fuqarolarga erkin sotiladigan)* maishiy pirotexnika buyumlarining jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan yaratilishi, ishlab chiqarilishi, O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirilishi, tashilishi, realizatsiya qilinishi, sotib olinishi, saqlanishi va foydalanilishi taqiqlangan.

Shu bilan birga, mamlakatimizda pirotexnika buyumlarining noqonuniy muomalasini oldini olish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Milliy gvardiya, Davlat xavfsizligi xizmati va Davlat bojxona qo‘mitasining “Respublika hududida pirotexnika buyumlarining qonunga xilof muomalasini oldini olish, aholi orasida targ‘ibot-tushuntirish ishlarini kuchaytirish yuzasidan hamkorlikda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan kompleks tashkiliy-tahliliy va tezkor-profilaktik tadbirlar” qo‘shma rejasi tasdiqlanib *(2021 yil 29 noyabrdagi 15/3945-son)*, uning ijrosi bo‘yicha bir qator tashkiliy va amaliy choralar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, har yili tadbirga qo‘shma rejaga asosan o‘rtacha 9 013 nafar ichki ishlar, 741 nafar Milliy gvardiya, 150 nafar Davlat xavfsizligi xizmati, 416 nafar soliq organlari va 1 566 nafar jamoatchilik vakillaridan iborat 459 ta maxsus guruhlar tashkil etiladi hamda ular tomonidan 2022-2024 yillar davomida *(bundan keyin maqolada keltirilgan statistika ma’lumotlari shu davrga nisbatan olingan)* 230 ming 453 ta, (shundan 45 048 ta ta’lim muassasalarida, 8 654 ta chegara hududlarida, 46 608 ta bozorlarda, 38 760 ta savdo markazlarida, 35 125 ta ko‘ngil ochar maskanlarda, 56 258 ta boshqa jamoat joylarida) maqsadli profilaktik tadbirlar o‘tkazilib kelingan.

Ushbu profilaktik tadbirlar davomida jami 45 mln 140 ming 304 dona pirotexnika buyumlarining noqonuniy muomalasi bilan bog‘liq 4 577 ta holatlar aniqlanib, huquqbuzarlardan tahminan 29 mlrd 577 mln so‘mlik mahsulotlar olib qo‘yilgan.

Aniqlangan huquqbuzarlarga nisbatan 111 ta *(2022 y. – 47, 2023 y. – 36, 2024 y. – 28)* jinoiy ishlar qo‘zg‘atilib, 4 466 ta *(2022 y. – 1911, 2023 y. – 1281, 2024 y. – 1274)* holatda qonunbuzarlar ma’muriy javobgarlikka tortilgan.

Olingan pirotexnika buyumlarining 939 ming donasi ta’lim muassasalari va ko‘ngil ochar joylarda hamda aniqlangan huquqbuzarlik holatlarining 2 310 nafari yoki 16,1 foizi voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilganligi, ushbu yo‘nalishda hali amalga oshiriladigan ishlar yetarli emasligini ko‘rsatmoqda.

Mazkur turdagi huquqbuzarliklarning ijtimoiy xavfini jamoat xavfsizligiga bo‘lgan tajovuzlarda, ya’ni pirotexnika buyumlaridan noto‘g‘ri foydalanish natijasida kelib chiqqan 20 ta yong‘inlar oqibatida keltirilgan moddiy zarar 86 mln 191 ming so‘mni tashkil etganligida ham yaqqol ko‘rishimiz mumkin.

Shu o‘rinda, ichki ishlar organlari va mutasaddi tashkilotlar bilan ushbu turdagi huququqbuzarliklarning profilaktikasini amalga oshirish maqsadida doimiy tartibda targ‘ibot-tushuntirish ishlari ham amalga oshirilib kelinayotganligini ta’kidlash lozim.

Jumladan, tadbirlar davomida pirotexnika buyumlarini noqonuniy muomalasi mavzusi bo‘yicha 157 844 marotaba mahallalarda, bozorlarda, korxona, tashkilotlarda, ta’lim muassalarida va ko‘ngil ochar *(restaran, to‘yxona, kafelar va h.k.)* maskanlarda uchrashuvlar, 7 179 marotaba televideniya, ijtimoiy internet tarmoqlari va radiolarda chiqishlar o‘tkazilgan.

Ushbu statistik ma’lumotlar pirotexnika buyumlarning qonunga xilof muomalasining ijtimoiy xavfi qanchalik yuqori ekanligi jamiyatni tashvishga solishi hamda ushbu yo‘nalishda doimiy ravishda profilaktik chora-tadbirlar amalga oshirilishini talab etadi.

Albatta, ushbu muammoni tadqiq qilishda pirotexnika buyumlarining noqonuniy muomalasining huquqiy tabiatini tushunishimiz va voyaga yetmaganlar o‘rtasida pirotexnika buyumlari noqonuniy muomalasi uchun javobgarlikning o‘ziga xos xususiyatlarini ajratib olish maqsadga muvofiq.

Shunday qilib, pirotexnika buyumlar bilan bog‘liq noqonuniy harakatlar a) jinoiy va b) ma’muriy qonunchilikda nazarda tutilgan.

Hususan, jamoat xavfsizligi sohasida pirotexnika buyumlari muomalasi bilan bog‘liq holda sodir etiladigan huquqbuzarliklar uchun javobgarlikni nazarda tutish maqsadida O‘zbekiston Respublikasining “Pirotexnika buyumlari muomalasi tartibga solinishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonuniga[1] muvofiq:

a) O‘zbekiston Respublikasining JKning “Jamoat xavfsizligiga qarshi jinoyatlar” nomli XVII bobi 250[1] – modda (Pirotexnika buyumlarining qonunga xilof muomalasi);[2]

b) O‘zbekiston Respublikasining MJtKning “Jamoat tartibiga tajovuz qiluvchi huquqbuzarliklar uchun ma’muriy javobgarlik” nomli XV bobi 185[1]- modda (Pirotexnika buyumlarining qonunga xilof muomalasi)[3] kabi normalar bilan to‘ldirildi.

Jamoat xavfsizligiga qarshi jinoyat hisoblangan pirotexnika buyumlarining qonunga xilof muomalasi mazkur moddalarga muvofiq, “Pirotexnika buyumlarini qonunga xilof ravishda ishlab chiqarish, tayyorlash, saqlash, tashish, jo‘natish, ulardan foydalanish, xuddi shuningdek ularni qonunga xilof ravishda O‘zbekiston Respublikasiga olib kirish (olib chiqish) yoki o‘tkazish xatti-harakatlarida namoyon bo‘lib, “ijtimoiy xavflilik” darajasiga qarab to‘rt qismga ajratilgan hamda ma’muriy huquqbuzarliklardan aynan shu belgisi bilan ajralib turadi.

Jumladan, pirotexnika buyumlarini qonunga xilof ravishda ishlab chiqarish, tayyorlash, saqlash, tashish, jo‘natish, ulardan foydalanish, xuddi shuningdek ularni qonunga xilof ravishda O‘zbekiston Respublikasiga olib kirish (olib chiqish) yoki o‘tkazish ancha miqdorda yoxud shunday harakatlar uchun ma’muriy jazo qo‘llanilganidan keyin jinoiy oqibatini keltirib chiqaradi.

Jinoyat huquqiga oid manbalarda ta’kidlanganidek, mazkur jinoyatning:

[1] “Пиротехника буюмлари муомаласи тартибга солиниши муносабати билан ўзбекистон республикасининг айрим қонун ҳужжатларига қўшимчалар киритиш тўғрисида” Ўзбекистон Республикасининг Қонуни, 22.09.2010 йилдаги ЎРҚ-261-сон, https://lex.uz/docs/1682149.

[2] Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодекси 22.09.1994 йилдаги 1-сон, https://lex.uz/docs/111453.

[3] Ўзбекистон Республикасининг Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодекси, 01.04.1995 йилдаги 3-сон, https://lex.uz/docs/97664.

a) ob’ekti pirotexnika buyumlarini qonunga xilof ravishda ishlab chiqarish, tayyorlash, saqlash, tashish, jo‘natish, ulardan foydalanish, ularni O‘zbekiston Respublikasiga olib kirish (olib chiqish) yoki o‘tkazishning belgilangan tartibi, shuningdek fuqarolarning hayoti yoki sog‘lig‘ini, o‘zgalar mulkining xavfsizligini ta’minlovchi ijtimoiy munosabatlar, predmeti esa pirotexnika buyumlari hisoblanadi;

b) ob’ektiv tomoni pirotexnika buyumlarini qonunga xilof ravishda - 1) ishlab chiqarish; 2) tayyorlash; 3) saqlash; 4) tashish; 5) jo‘natish; 6) foydalanish; 7) O‘zbekiston Respublikasiga olib kirish; 8) O‘zbekiston Respublikasidan olib chiqishdan iborat bo‘lsa;

v) sub’ektiv tomoni mazkur qilmishning qasddan sodir etilishida namoyon bo‘ladi;

g) sub’ekti bo‘lib o‘n olti yoshga to‘lgan har qanday aqli raso jismoniy shaxslar hisoblanadi[1].

O‘rganilgan jinoiy huquqbuzarlik holatlari statistikasida voyaga yetmaganlar tomonidan ushbu turdagi huquqbuzarliklar sodir bo‘lmaganligi ma’lum bo‘ldi.

Shu bilan birga, yuqoridagi statistik ma’lumotlarda aniqlanayotgan ushbu huquqbuzarlikning 97,6 foizi aynan ma’muriy huquqbuzarliklar xissasiga to‘g‘ri kelayotganligini ko‘rishimiz mumkin.

Albatta, ta’kidlangan statistik hisobotlar hamda sohaga doir huquqiy profilaktikani kuchaytirish va muammolarni bartaraf etish yuzasidan ishlab chiqilgan takliflar asosida O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga pirotexnika buyumlarining qonunga xilof muomalasi uchun javobgarlikni kuchaytirishga qaratilgan o‘zgartirishlar kiritish haqida” Qonuni[2] qabul qilindi.

Qonunga asosan MJtKga pirotexnika buyumlarining noqonuniy muomalasiga doir quyidagi o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi:

---

[1] “Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодексига шарҳлар” (Қайта ишланган ва тўлдирилган иккинчи нашр. 2016 йил 1 ноябргача бўлган ўзгартиш ва қўшимчалар билан) махсус қисм / М.Х. Рустамбаев – Тошкент: Адолат. 2016. – 725-730, 960 б.

[2] “Ўзбекистон Республикасининг Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодексига пиротехника буюмларининг қонунга хилоф муомаласи учун жавобгарликни кучайтиришга қаратилган ўзгартиришлар киритиш ҳақида” Ўзбекистон Республикасининг Қонуни, 28.08.2024 йилдаги ЎРҚ-949-сон, https://www.lex.uz/docs/7087042

a) 185[1]- moddasining dispazitsiyasi uch qisimga ajratildi hamda pirotexnika buyumlarini qonunga xilof ravishda ishlab chiqarish, tayyorlash, saqlash, tashish, jo‘natish, O‘zbekiston Respublikasi hududidan olib chiqish uchun o‘tkazish, O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish huquqbuzarliklarning sanksiyalari oshirildi;

b) 248-moddaning to‘rtinchi qismiga qo‘shimcha kiritilib, pirotexnika buyumlarining qonunga xilof muomalasiga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun ma’muriy bayonnomalarni rasmiylashtirish vakolatini ichki ishlar organlari tayanch punktlarining profilaktika katta inspektorlari va inspektorlariga berildi.

Shu bilan birga, MJtKning 13-moddasiga asosan ma’muriy huquqbuzarlik sodir etgan paytda o‘n olti yoshga to‘lgan shaxslar, agar ushbu Kodeksda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, ma’muriy javobgarlikka tortilishi, ya’ni ma’muriy huquqbuzarlikning sub’ekti bo‘lishi belgilangan.

O‘z navbatida, MJtKning 14-moddasiga asosan ma’muriy huquqbuzarlik sodir etgan o‘n olti yoshdan o‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan shaxslarga nisbatan 185[1]-moddasida nazarda tutilgan ma’muriy huquqbuzarliklarni sodir etgan taqdirda, ular umumiy asoslarda ma’muriy javobgarlikka tortiladi. Sodir etilgan huquqbuzarlik xususiyatini va huquqbuzarning shaxsini hisobga olgan holda mazkur shaxslarga nisbatan ishlar MJtKning 247-moddasiga asosan bolalar masalalari bo‘yicha tuman (shahar) komissiyalari ixtiyoriga berilishi mumkinligi ko‘rsatilgan.

Bunda, MJtKning 185[1]-moddasida nazarda tutilgan huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlar faqat o‘ziga mazkur huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ish kelib tushgan organ (mansabdor shaxs) uni bolalar masalalari bo‘yicha komissiyalariga ko‘rib chiqish uchun topshirgan hollardagina ko‘rib chiqiladi.

Voyaga yetmaganlar tomonidan pirotexnika buyumlaridan qonunga xilof ravishda foydalanish huquqbuzarligi sodir etilganda uning ota-onalariga yoki ular o‘rnini bosuvchi shaxslarga nisbatan MJtKning 47-moddasi birinchi va ikkinchi qismlarida nazarda tutilgan huquqbuzarliklar qo‘llanilishiga sabab bo‘lishi mumkinligi belgilangan.

Yuqoridagi ma’lumotlardan kelib chiqib, voyaga yetmaganlar pirotexnika buyumlari noqonuniy muomalasi uchun javobgarlikning quyidagi o‘ziga xos xususiyatlarini ko‘rsatish mumkin:

a) qonun hujjatlariga asosan mamlakatimizda o‘n sakkiz yoshga to‘lmaganlar voyaga yetmaganlar hisoblanishi;

b) pirotexnika buyumlari noqonuniy muomalasiga doir jinoiy va ma’muriy huquqbuzarliklarning sub’ekti sifatida o‘n olti yoshga to‘lgan voyaga yetmagan shaxslar javobgarlikka tortilish uchun asos bo‘lishi;

v) pirotexnika buyumlari noqonuniy muomalasiga doir jinoiy va ma’muriy huquqbuzarliklar sodir etgan o‘n olti yoshga to‘lmagan voyaga yetmagan shaxslar Jinoyat-protsessual kodeksining[1] 84-moddasi *(Ayblilik to‘g‘risidagi masalani hal qilmay turib jinoyat ishini tugatish uchun asoslar)* birinchi qisim, yettinchi bandi yoki MJtKning 271-modda *(Ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlarni yuritishni istisno etuvchi holatlar)* birinchi qisim, ikkinchi bandiga asosan javobgarlikdan ozod qilinishi;

g) pirotexnika buyumlari noqonuniy muomalasiga doir ma’muriy huquqbuzarlik sodir etgan voyaga yetmagan shaxslar MJtKning 247-moddasiga asosan bolalar masalalari bo‘yicha tuman (shahar) komissiyalari tomonidan ko‘rib chiqilshi hamda ularning ota-onalariga yoki ular o‘rnini bosuvchi shaxslarga nisbatan ushbu Kodeks 47-moddasining birinchi va uchinchi qismlarida nazarda tutilgan huquqbuzarliklar qo‘llanilishiga sabab bo‘lishi;

d) pirotexnika buyumlari noqonuniy muomalasiga doir jinoiy huquqbuzarlik sodir etgan voyaga yetmagan shaxslar Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risidagi Qonunning[2] 35-moddasi *(O‘ziga nisbatan profilaktik hisobga olish yuritiladigan shaxslar)* birinchi qisim, uchinchi xatboshisiga asosan profilaktik hisobga olish uchun asos bo‘lishi belgilangan.

[1] Ўзбекистон Республикасининг Жиноят-процессуал кодекси, 01.04.1995 йил, https://www.lex.uz/docs/111460

[2] “Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси тўғрисида” Ўзбекистон Республикасининг Қонуни, 14.05.2014 йилдаги ЎРҚ-371-сон, https://www.lex.uz/docs/2387357;

Voyaga yetmaganlar orasida profilaktika bo‘yicha faoliyatni takomillashtirish maqsadida xorijiy davlatlar tajribasini o‘rganish har doim foydali. Ko‘p jihatdan Germaniyaning misoli qiziq, u erda voyaga yetmaganlarning javobgarligi Germaniya JK va “Voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha odil sudlovni amalga oshirish to‘g‘risida”gi qonun bilan nazarda tutiladi, ayniqsa, voyaga yetmaganlarning jinoiy huquqiy deb nomlangan alohida bo‘limga ajratiladi, unga voyaga yetmaganlarning, shuningdek, 18 yoshdan 21 yoshgacha bo‘lgan yoshlarning javobgarligini tartibga soluvchi moddiy va protsessual normalar kiritilgan bo‘lib, turli tarbiyaviy ta’sir choralarini o‘z ichiga oladi, ammo asosiy yo‘nalish maxsus (shaxsiy) profilaktikaga qaratilgan.[1] Ushbu yo‘nalishda Sudgacha bo‘lgan ish yuritish (mediatsiya, tarbiyaviy vasiylik, ijtimoiy trening kurslari va boshqalar) afzalligi bilan ajralib turadi, shuningdek, Germaniyaning voyaga yetmaganlarga nisbatan qonunchiligi asosan tarbiyaga qaratilganligini ta’kidlash lozim. Jazo tayinlashda katta e’tibor uning qilmishi emas, balki uning shaxsiyatiga ko‘proq axamiyat berildi.

O‘zbekistonda voyaga yetmaganlar huquqbuzarligining oldini olish bilan turli sub’ektlar shug‘ullanadi: bolalar masalalari bo‘yicha komissiyalar; ichki ishlar organlari; ta’limni boshqarish organlari va ta’lim muassasalari; vasiylik va homiylik organlari; sog‘liqni saqlashni boshqarish organlari va sog‘liqni saqlash muassasalari; mehnat organlari; O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi va uning hududiy bo‘linmalari.

Voyaga yetmaganlarning huquqbuzarlik darajasini kamaytirish faqat ularning profilaktika bo‘yicha muvofiqlashtirilgan faoliyati orqali amalga oshirilishi mumkin, masalan, har bir mintaqada huquqbuzarlik sub’ektlari bilan o‘zaro aloqalarning turli shakllaridan foydalangan holda tarbiyaviy choralarni qo‘llash imkoniyati mavjud. Davlat hokimiyati va mahalliy hokimiyatning turli organlari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar bo‘linmalari va xizmatlari o‘rtasida voyaga yetmaganlar bo‘yicha

[1] Уголовный кодекс Федеративной Республики Германии / пер. Н.С. Рачкова; предисл. Г. Йешек; науч. ред. и вступ. ст. Д.А. Шестаков. — Санкт-Петербург: Юридический центр Пресс, 2003, — 524 с.

qiziqish uyg‘otadigan axborotning o‘z vaqtida o‘zaro almashinuvini tashkil etish juda muhim[1].

Voyaga yetmaganlarning huquqbuzarlikni oldini olish jarayonida ularning oilalariga ham ta’sir ko‘rsatish kerak, chunki ko‘p hollarda o‘smirlarning g‘ayritabiiy xatti-harakatlari oilaviy baxtsizligi bilan bog‘liq. Huquqbuzarlik sodir etishga moyil bo‘lgan voyaga yetmaganlarning oilalarini samarali profilaktika qilish uchun ularning barcha jihatlarini o‘rganish zarur. Shuningdek, psixologiya va psixiatriya sohasidagi mutaxassislar tomonidan ishlab chiqilgan usullarni bilish, ichki ishlar organlarining boshqa sohalardagi ma’lumotlari va tajribasidan yakka profilaktika ishlarida foydalanish muhimdir.[2] Bir qator omillar, masalan, oila a’zolarining salbiy ta’siri, yaqin atrofdagi muhit (kattalar yoki tengdoshlarning ta’siri), huquqbuzarlikni kattalar tomonidan qo‘zg‘atish, muayyan mashg‘ulotlarning yo‘qligi, Internet va ommaviy axborot vositalaridan olingan salbiy ma’lumotlar.

Ijtimoiy xavfli huquqbuzarliklar va jinoiy jazoga tegishli bo‘lmagan hodisalarga qarshi kurashish, turli profilaktika tadbirlarini o‘tkazish davlatning huquqbuzarlikka qarshi siyosatining yakuniy natijasiga ko‘p jihatdan ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu turdagi huquqbuzarliklarning oldini olish sharoitida voyaga yetmaganlarga va ularning oilalariga yordam berishga alohida e’tibor qaratish muhimdir, bu ko‘p hollarda yuqori va yaxshi natijalarni ko‘rsatadi[3].

Xulosa qilib, zamonaviy jamiyatda mavjud bo‘lgan turli xil muammolarga qaramay, voyaga yetmagan huquqbuzarlar bilan maqsadli ishlashning ikkita asosiy profilaktik choralarini ajratish lozim deb o‘ylaymiz, birinchisi - voyaga yetmaganlarning xatti-harakatlarini tuzatish, ayniqsa, takroriy huquqbuzarlik sodir etgan hollarda va ikkinchisi - yosh avlodning huquqiy ongini yaxshilash. Bularning

[1] Об основах системы профилактики безнадзорности и правонарушений несовершеннолетних: Федер. закон от 24 июня 1999 г. №120-ФЗ // Правовой Сервер Консультант Плюс, www.consultant.ru. — URL: http://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_23509/ (дата обращения: 24.04.2020).

[2] Настольная книга инспектора по делам несовершеннолетних: метод. пособие / под ред. С.И. Гирько. — Москва: Объединенная редакция МВД России, 2014. — 768 с

[20] Настольная книга инспектора по делам несовершеннолетних: метод. пособие / под ред. С.И. Гирько. — Москва: Объединенная редакция МВД России, 2014. — 768 с

[21] О.А. Рыжова Профилактика преступности в среде несовершеннолетних, особенности на примере Пензенской области / О.А. Рыжова, С.С. Мартынова // Электронный научный журнал «Наука. Общество. Государство». — 2017. — Т. 7, № 4 (20). — С. 84–90. — URL: http://esj.pnzgu.ru. — Дата публикации: 30.12.2017.

barchasi voyaga yetmagan huquqbuzarlarning samarali oldini olish uchun bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘ladi. Davlatning voyaga yetmaganlar huquqbuzarligining profilaktikasi bo‘yicha siyosatini amalga oshirishning asosiy yo‘nalishlarini ta’minlashda tarbiya, o‘smirlarning bandligini ta’minlash, oilani mustahkamlash va aholining turmush darajasini oshirish juda muhimligini yodda tutish lozim.

YANGI O‘ZBEKISTONDA TA’LIM SOHASIDA KORRUPSIYANING OLDINI OLISH MUAMMOLARI

Boyturayev Farxod Mamatkarimovich
boyturayevfarhod@gmail.com
Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi

Mamlakatni modernizatsiya qilish va isloh qilish mamlakatdagi ta’lim tizimi va fuqarolarning bilim darajasi bilan uzviy bog‘liq jarayon bo‘lib, kelajakda mamlakatning rivojlanganlik darajasini inson kapitaliga kiritilayotgan sarmoya belgilab berishi shubhasizdir.

O‘z navbatida, muallif tomonidan o‘tkazilgan ta’lim sifatiga salbiy ta’sir qilayotgan omillarning tahlili korrupsiya ham bunda sezilarli rol o‘ynayotganligidan dalolat bermoqda.

O‘zbekistonda korrupsiya darajasi to‘g‘risidagi aholining ijtimoiy fikri bu muammoning xavf darajasi ta’lim tizimida ham yuqori ekanligini ko‘rsatmoqda. Jumladan, “Ijtimoy fikr” jamoatchilik fikrini o‘rganish markazi tomonidan o‘tkazilgan keng ko‘lamli jamoatchilik so‘rovida respondentlarning 58 foizdan ortig‘i jamiyatda korrupsiya mavjudligini tan olgan va eng ko‘p korrupsiyalashgan sohalar sifatida sog‘liqni saqlash (37,6 foiz) va ta’lim (31,4 foiz) sohalari qayd etilgan[1].

Ta’lim sohasida korrupsiya muammosi jahon mamlakatlarida tadqiqotchilari orasida keng o‘rganilmoqda. Xususan, Xalqaro oliy ta’lim markazi tadqiqotchisi E.Denisova ta’lim sohasidagi “korrupsiya” tushunchasini “akademik halollikni mavjud emasligi”[2] deb sharhlagan. Uning fikricha, korrupsiya tushunchasi zamon bilan bir me’yorda o‘zgarib boradi. Misol uchun, o‘rta asrlarda Yevropa universitetlarida talabalarni o‘qituvchilar va universitet mansabdorlariga odatiy

[1] Toward a Prosperous and Inclusive Future : The Second Systematic Country Diagnostic for Uzbekistan : Farovon va Inklyuziv Kelajak Sari : O’zbekiston Mamlakatning Ikkinchi Tizimli Diagnostikasi // https://documents.worldbank.org/en/publication/documents-reports/documentdetail/099449406152214754/idu0c4d508cd0686d04d500b0440b7819442dbd3

[2] Denisova E. The Global Challenge of Corruption in Higher Education // IAU Horizons. 2017. № 1. Б. https://www.alexandria.unisg.ch/250907/1/Denisova%20de%20Wit%20IAU%20Horizons.pdf

to‘lovlar berishgan bo‘lsa, o‘tgan asrning boshlarida Germaniyada “plagiat” tushunchasiga “faqat ilmiy muammo” sifatida qaralgan[1].

S.Rouz-Akerman korrupsiyani “shaxsiy manfaatlar uchun g‘ayriqonuniy suiiste’molchiliklar” bilan bog‘lasa[2], J.Allak va M.Puasson korrupsiyani ushbu muammoni davlat xizmatchisi faoliyati bilan bog‘lab, unga “davlat xizmatchisi tomonidan vazifalarini amalga oshirishda belgilangan majburiyatlar, ta’qiqlar va cheklovlarga rioya qilmaslik” shaklidagi korrupsiyaviy hulq-atvorlar deb yondashgan[3].

Shuningdek, ta’lim tizimini isloh qilish va uni “korrupsiyadan xoli” qilish bo‘yicha Gruziya modeli o‘ziga xosdir. So‘ngi yillarda Gruziya Respublikasi oliy ta’lim sohasida korrupsiyaga qarshi kurashish borasida ijobiy islohotlarni amalga oshirishga erishdi. Markazlashgan boshqaruvdan qochish va bozor munosabatlariga o‘tish ta’lim rivojlanishining asosi bo‘ldi.

Korrupsiya ta’limning uchta eng muhim maqsadiga: ta’lim olish imkoniyati, tengligi va sifatiga to‘sqinlik qilishini inobatga olib, Gruziya oliy ta’lim sohasida islohotlarni amalga oshirishda aynan shu uchta salbiy oqibatlarning oldini olishga tayandi: 1) oliy ta’limga adolatli yo‘l bilan erishishni ta’minlash uchun Yagona milliy kirish imtihon tizimini tashkil etdi va aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamiga alohida davlat grantlari ajratdi; 2) ta’lim sifatini yuqori darajada saqlash uchun oliy ta’lim muassasalarini akkreditatsiyadan o‘tkazishni qat’iy tartibini belgiladi; 3) ta’lim olishda tenglikka va samaradorlikka erish uchun akademik va ma’muriy xodimlarni qayta shakllantirish masalasini ko‘rib chiqdi. Hukumat oshkoralik masalasidagi tanqidiy fikrlarni to‘g‘ri baholab, ta’lim muassasalari faoliyatini ochiq va oshkoraligini ta’minlashga alohida e’tibor qaratdi[4].

[1] Denisova E. The Global Challenge of Corruption in Higher Education // IAU Horizons. 2017. № 1. Б. https://www.alexandria.unisg.ch/250907/1/Denisova%20de%20Wit%20IAU%20Horizons.pdf

[2] Rose-Ackerman, S. Corruption, Readings in Public Choice and Constitutional Political Economy, New York: Springer, 2008, pp. 551–566.

[3] Allak, Zh., Puasson, M. Corrupt schools, corrupt universities: What can be done? Parizh: Mezhdunarodnyi Institut planirovaniya obrazovaniya YuNESKO, 2014, 365 p. (in Russ.).

[4] Orkodashvili M. “Corruption, Collusion, and Nepotism in Higher Education and the Labor Market in Georgia”, European Education, 2011, p – 32-53.

O‘z navbatida, ta’lim sifatiga korrupsiyaning ta’sirini o‘rganish maqsadida muallif tomonidan ushbu sohada asosiy kontingent bo‘lgan yoshlar vakillari bilan intervyu usulida bir qancha anonim so‘rov - suhbatlar o‘tkazildi va ijtimoiy tarmoqlardagi bildirilgan fikr-mulohazalar atroflicha tahlil qilindi. Tahlillar yoshlarda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shaklantirishda tashqi muhit – jamiyatning boshqa a’zolarining, ayniqsa ota-onalarning va pedagoglarning hulq-atvori ham muhim ahamiyatga egaligini ko‘rsatmoqda. Xususan, 27% yoshlarning oilasi vakillari yoki yaqinlari maktabgacha ta’lim tashkilotlari yoki maktabda korrupsiya holatlariga duch kelganliklarini ma’lum qilishdi. 32% yoshlar korrupsiyaning shohidi bo‘lgan taqdirda, “o‘ziga muammo orttirmaslik uchun” huquqni muhofaza qiluvchi organlarga xabar bermaslikni eng maqbul yo‘l sifatida e’tirof etgan. Shuningdek, ba’zi yoshlarda (16%) salbiy tashqi muhit ta’siri ostida korrupsiyaga nisbatan shaxsiy muammolarini hal qilish vositasi sifatida yondashishda ifodalangan salbiy hulq-atvor shakllangan, ya’ni bunda yetarli bilim olmasdan, o‘qishga kirish, imtihonlarni topshirish, haydovchilik guvohnomasi olish yoki ishga kirishga intilish namoyon bo‘ladi.

Albatta, ayrim vaziyatlarda ta’lim oluvchilarning tegishli bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lmasdan, mutaxassislik diplomi yoki boshqa ta’lim olganlik haqidagi hujjatlarga ega bo‘lishi jamiyat uchun ham xatarlidir.

Muallif tomonidan ta’lim sohasida qayd qilingan jinoyatlarni sudlarda ko‘rib chiqish natijalari o‘rganish davomida maktabgacha va maktab ta’lim sohasida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar sodir etilishiga imkon berayotgan quyidagi shart-sharoitlar va sabablar aniqlandi:

Birinchidan, 2025 yilda maktabgacha va maktab ta’lim sohasiga 59 164 225,6 mlrd so‘m, oliy ta’lim sohasiga 6 279 956,2 mlrd so‘m mablag‘ budjetdan ajratildi[1]. O‘tgan davrga nazar solsak, sohaga ajratilayotgan budjet mablag‘larni sarflash jarayonlarida “inson omili”dan xoli qilish va raqamlashtirish darajasi pastligi va ichki moliyaviy nazorat tizimining past samarasi oqibatida,

[1] O‘zbekiston Respublikasining “2025 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida” O‘RQ-1011-son Qonuni //https://lex.uz/ru/docs/7277618

moliya-buxgalteriya xizmatlari tomonidan budjet mablag‘lari ortiqcha va noqonuniy sarflanishi davom etmoqda. Ma’lumot uchun, Qarshi davlat universitetining bosh muhandisi “A” mansab mavqeini suiiste’mol qilib, Qarshi Davlat universiteti bilan “Nasaf Plast Unversal Servis” xususiy korxonasi o‘rtasida qiymati 1,2 mlrd. so‘mlik pudrat shartnomasi imzolashga erishib, qurilish ishlarini amalga oshirishda 142 mln. so‘m mablag‘larni o‘zlashtirish yo‘li bilan talon-toroj qilgan[1].

Ikkinchidan, korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari yoki kadrlar bo‘limlari tomonidan xalq ta’limi tizimiga ishga qabul qilinayotgan va amaldagi xodimlarni tekshirish amaliyoti talab darajasida emas va samarali nazorat mexanizmi yo‘lga qo‘yilmagan.

Pedagog kadrlarni lavozimga tayinlashdan oldin ularning mutaxassisligi va ma’lumoti to‘g‘risidagi axborotni zamonaviy texnologiyalar orqali real vaqtda olish imkoniyatlari yaratilmaganligi sababli, bunday tekshiruvlar uchun katta resurs va vaqt sarflanmoqda. Ayniqsa, ushbu jarayonlarda ayrim pedagoglarning soxta diplom asosida ta’lim berib kelayotganligi va bunday soxta xodimlarga ish haqi to‘lab kelinganligi aniqlangan. Masalan, Sirdaryo tumanidagi 8-sonli umumta’lim maktabida ishlayotgan N.Sh.ning Toshkent viloyat davlat pedagogika institutini tamomlaganligi to‘g‘risidagi №011243-raqamli diplomi qalbaki ekanligi aniqlangan[2].

Uchinchidan, korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari va buxgalteriya xodimlari uchun pedagog xodimlarga ustama to‘lanishi uchun asos bo‘luvchi hujjatlarning haqqoniyligini tekshirishning samarali mexanizmi yo‘lga qo‘yilmagan. Natijada chet tilini bilish darajasi to‘g‘risidagi milliy malaka sertifikatlarining qalbakilashtirilganligi holatlari nazorat tartibidagi tekshirishlarda postfaktum tarzda aniqlanmoqda[3].

[1] O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi, 20.08.2021 yil, 03-23-674-21-sonli xati.
[2] 1-1208-2202/212-sonli jinoyat ishi bo‘yicha sud hukmi / https://public.sud.uz
[3] https://www.facebook.com/nsfla.uz/?locale=ru_RU

To‘rtinchidan, Maktabgacha va maktab ta’limi, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi va uning quyi tizimlarida davlat xaridlarini amalga oshirishda kontragentlarning tekshirishning samarali tizimi joriy qilinmagan.

Misol uchun: «Inova Solution» MChJ va «Tradein» MChJ qatnashgan tanlovda «Inova Solution» MChJ g‘olib deb topilib, xarid shartnomasi tuzilgan. Ushbu firmalarning o‘zaro bog‘liqligi o‘z vaqtida tekshirilmaganligi oqibatida, keyinchalik nazorat organlari tomonidan bu firmalarning o‘zaro affillangan ekanligi aniqlangan[1].

Beshinchidan, ta’lim tizimi xodimlari o‘rtasidagi yetarlicha tushuntirish ishlari olib borilmaganligi oqibatida, oliy ta’lim muassasalariga pora evaziga o‘qishga kiritib qo‘yish bilan bog‘liq korrupsiyaviy huquqbuzarliklar davom etmoqda. Misol uchun, Buxoro Davlat universiteti “Tasviriy va muxandislik grafikasi” kafedrasida o‘qituvchi “A” fuqaro “B”ni universitetning “Tasviriy san’at” yo‘nalishiga o‘qishga kiritish evaziga 4.000 AQSh dollari miqdoridagi pullarni talab qilib, uni pora berishga dalolat qilgan[2].

Oltinchidan, oliy ta’lim muassalarida o‘qish joyini ko‘chirish, o‘qish yo‘nalishini o‘zgartirish hamda o‘qishga qayta tiklash bilan bog‘liq ijtimoiy munosabatlarda ham korrupsiya xavfi saqlanib qolmoqda. Masalan, O‘zbekiston Milliy universiteti, Ijtimoiy fanlar fakulteti, “Demokratik davlat va fuqarolik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti kafedrasi” dotsenti “A” Toshkent politexnika institutining konchilik fakulteti talabasi “B”ni o‘qishini Toshkent avtomobil yo‘llari institutiga ko‘chirish evaziga 1500 AQSh dollari miqdoridagi pullarni olib, uni pora berishga dalolat qilgan[3].

Tizimli yondashuv asosidagi tahlillar ushbu yo‘nalishdagi korrupsiyaga oid huquqbuzarlik sodir etilishiga olib kelayotgan yana bir qancha sabab va shart-sharoitlarning ham mavjudligini ko‘rsatmoqda:

[1] https://aniq.uz/yangiliklar/xalq-talimi-vazirligiga-aloqador-3-mlrd-618-mln-sumlik-tender-uyini-fosh-buldi
[2] O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi, 20.08.2021 yil, 03-23-674-21-sonli xati.
[3] O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi, 20.08.2021 yil, 03-23-674-21-sonli xati.

- ayrim yoshlarda korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi huquqiy bilimlarining yetishmasligi, jumladan firibgarlar yoki ba’zi davlat xizmatchilari tomonidan korrupsiyaga oid huquqbuzarlik sodir etishga dalolat qilish holatlarida qanday harakat qilishi lozimligidan bexabarlik;

- yoshlarda korrupsiyaga qarshi toqatsiz munosabatda bo‘lishga qaratilgan targetli targ‘ibot-tushuntirish ishlarining, ayniqsa yoshlar uchun mo‘ljalangan badiiy adabiyotlarning yuqori saviyada emasligi;

- tashqi muhit, ayniqsa ba’zi yoshi katta avlod vakillarining salbiy urf-odatlari, tarbiyasi va mentaliteti bilan bog‘liq o‘ziga xos jihatlar;

- yoshlarning muammolari bilan ishlovchi va ushbu sohada davlat xizmatlari ko‘rsatuvchi organlar faoliyati ustidan nazoratning yetarli darajada emasligi yoki ayrim tartib-taomillarning tartibiga solinishidagi huquqiy bo‘shliqlar, ortiqcha byurokratik to‘siqlar (ortiqcha hujjatlar talab qilish);

- ayrim yoshlarda turli hayotiy vaziyatlar, harbiy xizmatga chaqiruv bilan bog‘liq tibbiy ko‘rik, imtihonlar topshirish, haydovchilik guvohnomasi olish jarayonlarida nohalol usullardan foydalangan holda shaxsiy muammolarini hal qilishga bo‘lgan intilishida ifodalangan salbiy hulq-atvor;

- korrupsiya holatlari haqida xabar berganlik yuzasidan jamiyatning ba’zi boshqa a’zolarining salbiy munosabati;

- harbiy tuzilmalar yoki ular tarkibidagi tashkilotlar faoliyatidagi ochiqlik va shaffoflikning yetarli darajada emasligi.

O‘z navbatida, yoshlarda korrupsiyaga qarshi toqatsiz munosabatni shakllantirish va ularning ushbu yo‘nalishdagi huquqiy madaniyatini yanada oshirish bo‘yicha quyidagi chora-tadbirlar taklif qilinadi:

- yoshlarda korrupsiyaga qarshi toqatsiz munosabatni shakllantirishda nafaqat yoshlar kontingenti, balki tashqi muhit - ota-onalar, pedagoglar orasida ma’naviy – ahloqiy tuzatish ishlarini olib borishga yo‘naltirilgan targetli ijtimoiy roliklar tayyorlash, bunda ayniqsa badiiy adabiyotlar va kino san’ati imkoniyatlaridan samarali foydalanish;

- o‘z bilimi va intilishi orqali yuqori maqsad va natijalarga erishgan yoshlarni ijtimoiy reklama qilish orqali yoshlarda nopok yo‘llar orqali shaxsiy muammolarni hal qilishga intilish darajasini kamaytirish;

- nopok yo‘llarni tanlash orqali o‘qishga, ishga kirish yoki haydovchilik guvohnomasi olishning salbiy oqibatlarini tushuntirish ishlari olib borish;

- ta’lim-tarbiya berishda Germaniya, Shveysariya, Daniya, Norvegiya, Finlyandiya ijobiy tajribasi jihatlarini qo‘llash, ya’ni bunda yosh avlodni juda kichik yoshligidan faol fuqarolik pozitsiyasida bo‘lishga qaratilgan tarbiya olib boriladi, ya’ni jamiyada sodir bo‘layotgan har qanday korrupsiya yoki jinoyat ko‘rinishlariga munosabat bildirish va tegishli organlarga xabar berish fuqarolik burchi sifatida uqtiriladi;

- yoshlar orasida o‘tkaziladigan musobaqalar va tanlovlar jarayonlarini nazorat ostiga olish va ushbu jarayonlarning ochiqligini ta’minlash orqali samarali jamoatchilik nazoratini o‘rnatish;

- yoshlar bilan ishlovchi tashkilotlar, ayniqsa maktabgacha ta’lim va maktablarda korrupsiya holatlarining oldini olish, ochiqlik va shaffoflikni kuchaytirish bo‘yicha kopleks chora-tadbirlar ko‘rish, ta’lim tashkilotlari tarbiyachilari va o‘qituvchilarga munosib ish haqi to‘lash;

- ta’lim tashkilotlarida nazoratni amalga oshirishda “inson omili”ni kamaytiruvchi, zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash, ta’lim muassasalari faoliyatining ochiqligini kuchaytirish.

Xulosa sifatida aytish mumkin, ta’lim sifatini oshirishda korrupsiyaga qarshi huquqiy madaniyatni shakllantirish masalalari ham alohida ustuvorlikka ega. Zeroki, kelgusidagi “Yangi O‘zbekiston” jamiyatining taqdiri va kelajagi yoshlar qo‘lidadir, yoshlar tarbiyasining darajasi ertangi kun taraqqiyotini belgilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Allak, Zh., Puasson, M. Corrupt schools, corrupt universities: What can be done? Parizh: Mezhdunarodnyi Institut planirovaniya obrazovaniya YuNESKO, 2014, 365 p. (in Russ.).

2. Denisova E. The Global Challenge of Corruption in Higher Education // IAU Horizons. 2017. № 1. B. https://www.alexandria.unisg.ch/250907/1/Denisova%20de%20Wit%20IAU%20Horizons.pdf

3. Orkodashvili M. “Corruption, Collusion, and Nepotism in Higher Education and the Labor Market in Georgia”, European Education, 2011, p – 32-53.

4. Rose-Ackerman, S. Corruption, Readings in Public Choice and Constitutional Political Economy, New York: Springer, 2008, pp. 551–566.

5. Toward a Prosperous and Inclusive Future : The Second Systematic Country Diagnostic for Uzbekistan : Farovon va Inklyuziv Kelajak Sari : O’zbekiston Mamlakatning Ikkinchi Tizimli Diagnostikasi // https://documents.worldbank.org/en/publication/documents-reports/documentdetail/099449406152214754/idu0c4d508cd0686d04d500b0440b7819442dbd3

6. O‘zbekiston Respublikasining “2025 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida” O‘RQ-1011-son Qonuni //https://lex.uz/ru/docs/7277618

7. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi, 20.08.2021 yil, 03-23-674-21-sonli xati.

8. 1-1208-2202/212-sonli jinoyat ishi bo‘yicha sud hukmi / https://public.sud.uz

9. https://www.facebook.com/nsfla.uz/?locale=ru_RU

10. https://aniq.uz/yangiliklar/xalq-talimi-vazirligiga-aloqador-3-mlrd-618-mln-sumlik-tender-uyini-fosh-buldi

YANGI O‘ZBEKISTONDA TA’LIM TIZIMI VA YANGICHA YONDASHUVLAR, TA’LIM TARAQQIYOTINING ASOSIDIR

Ibragimov Xakim Baxritdinovich
O‘zbekistonRespublikasi Milliy gvardiyasi Jizzax mintaqaviy o‘quv markazi boshlig‘i o‘rinbosari-o‘quv bo‘limi boshlig‘i

Ma’lumki, bugungi kunda mamlakatimizda har bir sohada keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. O‘z navbatida, mazkur islohotlarning salmoqli qismini ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar tashkil etmoqda. So‘nggi yillarda ta’lim sohasining barcha bosqichlarini zamonaviy talablar asosida tashkil etish bo‘yicha amaliy ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, oliy ta’lim tizimida islohotlar va amaliy chora-tadbirlar judayam keng ko‘lamli amalga oshirilmoqda.

Bugun Yangi O‘zbekiston hayotining barcha sohalari chuqur islohotlar maydoniga aylangan. Mamlakatimiz Prezidenti davlat rahbari sifatidagi faoliyatini yurtimiz akademiklari, yetakchi olimlari, umuman, ilm ahli bilan uchrashuvdan boshlaganligi, respublikamizda ilm-fan rivojini ishlab chiqarish taraqqiyoti bilan uyg‘unlashtirishga qaratganligi bejiz emas. Davlatimiz rahbarining shundan keyin sog‘liqni saqlash tizimi faoliyatini yaxshilash, kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitobxonlikni kuchaytirish, respublikada yangi erkin iqtisodiy zonalar tashkil etish, mamlakatni yana-da rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirish, “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” ishlab chiqilishi, Imom Termiziy xalqaro markazini tashkil qilish borasida va shu kabi boshqa ko‘plab qabul qilingan qarorlari, farmonlari, farmoyishlarida ilm-fanni yuksaltirish asosiy masalalardan biri sifatida belgilanishi ham ana shu e’tiborning amaliy ifodasi bo‘ldi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Mirziyoyev Shavkat Miromonovich O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimda ta`kidlaganlaridek: Hammamizga ayonki, taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham bu - ilm-fan, ta’lim va

tarbiyadir. Ertangi kunimiz, Vatanimizning yorug‘ istiqboli, birinchi navbatda ta’lim tizimi va farzandlarimizga berayotgan tarbiyamiz bilan chambarchas bog‘liq.[1]

Mutaffarkir olim Abu Nasr Farobiyning fikricha “Ta’lim - degan so‘z xalqlar va shaharliklar o‘rtasida nazariy fazilatni birlashtirish, tarbiya esa shu xalqlar o‘rtasidagi tug‘ma fazilat va amaliy kasb hunar fazilatlarini birlashtirish degan so‘zdir. Ta’lim faqat so‘z va o‘rgatish bilangina bo‘ladi. Farobiyning ta’lim-tarbiya yo‘llari, usullari vositalari haqidagi qarashlari ham qimmatlidir. U insonda go‘zal fazilatlar ikki yo‘l - ta’lim va tarbiya yo‘li bilan hosil qilinadi. Ta’lim nazariy fazilatlarini birlashtirsa, tarbiya esa tug‘ma fazilat - nazariy bilimlar va amaliy kasb - hunar, xulq odob fazilatlarini birlashtiradi. Ta’lim so‘z va o‘rganish bilan tarbiya esa amaliy ish, tajriba bilan amalga oshiriladi, deydi. Har ikkalasi birlashsa yetuklik namoyon bo‘ladi, ammo bu yetuklik bilim va amaliy ko‘nikmalarni qay darajada o‘rganganligiga qarab paydo bo‘ladi, deb ko‘rsatadi.

Farobiy ta’limda barcha fanlarning nazariy asoslari o‘rganilsa, tarbiyada ma’naviy - axloqiy qoidalar, odob me’yorlari o‘rganiladi, kasb-hunarga oid malakalar hosil qilinadi, deb uqtiradi.

O‘zbekiston Respublikasining 30 yoshgacha bo‘lgan aholisi butun aholining 60 foizini tashkil etadigan noyob demografik holatga yuz tutish arafasida.[2] Shunday ekan yoshlarning ongini, ma`naviyatini, salohiyatini, madaniyatini, bilim darajasini shakllantirmay turib biz kelajagimizga istiqbolimizga nazar tashlay olmaymiz. Bu bo‘yicha qator qonunlar qarorlar chiqarilayotgani hech kimga sir emas. O‘zbekiston Respublikasining ta’lim to‘g‘risidagi qonuni Kadrlar tayyorlash milliy dasturi 30 yilga mo‘ljallangan konseptsiya va ta’lim to‘g‘risidagi bir qancha qaror va qonunlarning qabul qilinishi yoshlarimizning kelajagini o‘ylab, davlatimiz rivojini o‘ylab amalga oshirilayotgani bejiz emas.

Kontseptsiya O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’limni rivojlantirishning strategik maqsadlari, ustuvor yo‘nalishlari, vazifalari, o‘rta va uzoq muddatli istiqboldagi bosqichlarini belgilaydi hamda sohaga oid dasturlar va kompleks

[1] Sh.M. Mirziyoyevning O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqidan
[2] https://www.unicef.org

choratadbirlarni ishlab chiqish uchun asos bo‘ladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Kontseptsiyasida : Oliy ta’lim tizimining joriy holati va mavjud muammolar, Oliy ta‘lim tizimini rivojlantirishning strategik maqsadlari va ustuvor yo‘nalishlari, Oliy ta’lim bilan qamrovni kengaytirish, oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish , ta‘lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish, oliy ta‘lim muassasalarida ilmiy - tadqiqot ishlari natijadorligini oshirish, yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish ilm-fanning innovattsion infratuzilmasini shakllantirish, ma’naviy - ma`rifiy va tarbiyaviy ishlar ta’sirchanligini oshirish, yuqori malakali mutaxxassislar tayyorlash jarayoniga kadrlar buyurtmachilarini faol jalb etish, oliy ta’lim muassasalarining moliyaviy mustaqilligi va barqarorligini ta’minlash, moddiy - texnik ta’minotini mustahkamlash, oliy ta’lim muassasalarini tizimli rivojlantirish va boshqaruv faoliyatini takomillashtirish, oliy ta’lim tizimining investitsiyaviy jozibadorligini oshirish, xalqaro miqyosda tanilishi va raqobatbardoshligini ta’minlash, konseptsiyani amalga oshirishdan kutilayotgan natijalar xususida keng qamrovli masalalar qamrab olingan.

Bugungi kunda oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini ta’minlashni va nazorat qilishni xorijiy tajribalar asosida oshirish, mazkur mavzu dolzarbligi va bugungi kunda zaruratini ko‘rsatadi. Kadrlar raqobatbardoshligini ta’minlash uchun o‘qitishni yangi zamonaviy ta’lim texnologiyalarga moslashtirish, zamonaviy metodlarni va tamoyillarni ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etishda xorijiy tajribalar bugungi kunda zarur bo‘ladi. Bugungi kunda oliy ta’lim sifatini ta’minlash va modernizasiyalashtirishda avvalombor, zamonaviy o‘quv-metodik ta’minotni shakllantirish masalasi paydo bo‘ldi. Shu sababli davlatimiz tomonidan oliy ta’lim oldiga qo‘yayotgan masalalarni ijobiy hal etish uchun zamoaviy o‘quv-metodik ta’minotni yaratish dolzarb masala bo‘lib turibdi.

Ta’lim sifati va ta’lim samaradorligi jamiyatda hayot sifatini ko‘rsatuvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Davlat va jamiyat umumiy va kasbiy ta’limga

qanchalik ko‘p mablag‘ sarflasa va natijasi eng yuqori xalqaro standartlarga javob bersa, hayot sifati shunchalik yuqori bo‘ladi.

Ta’lim samaradorligini belgilashda eng optimal qarorlar qabul qilish yuqori ta’lim sifatga erishishni talab etadi. Mamlakatimizning hozirgi davrdagi rivojlanish bosqichida oliy kasbiy ta’lim globallashuv jarayonlari davrida mamlakatning milliy, iqtisodiy, ekologik, siyosiy xavfsizligini ta’minlashga qodir bo‘lgan shaxslarning shakllanishidagi, insoniyatning universallashuvi va postindustrial axborot jamiyatiga o‘tishidagi asosiy vositalardan biri bo‘lib hisoblanadi. Shu bilan birga hozirgi kundagi jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi asoratlari davom etayotgan bir pallada oliy ta’lim jamiyatni birlashtirishning, yagona ijtimoiy-madaniy makonni saqlab qolish, ijtimoiy nizolar va etnomilliy ziddiyatlarni yengib o‘tishning eng muhim salohiyatli omili sifatida olib qaralishi lozimdir. Yangicha ta’lim tizimlarining shakllanishi tendensiyalari aniq ravshan turibdiki, hozirgi zamon jamiyatining umumiy rivojlanishi tendensiyalar bilan belgilanadi.[3]

Ta’lim sifati an’anaga ko‘ra o‘qitishning va ilmiy tadqiqotlarning OTM darajasidagi tabiiy elementi va olimlarning kasbiy faoliyatidagi ajralmas bir bo‘lagi bo‘lib sanaladi. Hozirgi kunda oliy ta’lim sifatini oshirish butun dunyoda ta’lim tizimidagi eng muhim va asosiy masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Shuning uchun ham oliy ta’lim sifatini baholashdagi yondashuvlarni tadqiq qilishga ehtiyoj tuǵiladi. Shunga ko‘ra, oliy ta’lim sifatini ta’minlash turli oqibatlarga va xususiyatlarga ega bo‘ladi. Oliy ta’lim sohasidagi turli tadqiqotchilar ta’lim sifatini ta’minlashning adekvat(mos) tizimini ishlab chiqishda har doim ilg‘or tajribalarga tayanadilar. Ta’lim sifatini ta’minlash “jangovar harakat qoidalari” deb talqin qilinishi mumkin bo‘lgan aniq oqibatlarga ega bo‘ladi. Shu bilan birga tashqi intensiv nazorat zaruratini pasaytiradigan ta’lim xizmatlari sifatining shaffofligi borasidagi “yozilmagan qoidalar” ham mavjuddir.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, oliy ta’lim sifatini ta’minlash borasida shu paytgacha mavjud bo‘lgan milliy va xorijiy tajribalar shuni ko‘rsatadiki, hozirgi paytda OTMlarda alohida, tizimsiz tarzda o‘tkaziladigan islohotlar va innovatsiyalar samarasiz bo‘lib, bu ko‘pincha oliy ta’lim sohasidagi umumiy samaradorlikka putur

yetkazadi. Shuning uchun oliy ta’lim sifatini oshirish bo‘yicha shu paytgacha to‘plangan xorijiy tajribalarni milliy ta’lim tizimi yutuqlari bilan o‘zaro uyg‘unlashtirgan holda ham faqat majmuaviy, tizimli va bir butun tarzda amalga oshirish mamlakatimizda oliy ta’lim sifatini yangi bosqichga ko‘tarishi shakshubhasizdir. Aqliy rivojlanishning barcha sohalarida shaxs ijtimoiy munosabatlar o‘zgaradi. Bu jarayonda o‘quv faoliyatining yetakchi roli kichik maktab yoshidagi o‘quvchining boshqa tadbirlarga faol qo‘shilishini istisno etmaydi, uning davomida bolaning yangi yutuqlari yaxshilanadi va mustahkamlanadi. L.S.Vigotskiyning ta’kidlashicha boshlang‘ich maktab yoshining o‘ziga xos xususiyati shundaki, faoliyatning maqsadlari asosan bolalar uchun kattalar tomonidan belgilab beriladi.

Yangi O‘zbekistonda oliy ta’lim sohasidagi islohotlar bugungi kunda o‘zining dolzarbligi hamda amaliy ahamiyati bilan boshqa sohalardagi islohotlardan aslo qolishmaydi. Bu islohotlar bugun allaqachon natijasini ham ko‘rsatyapti. Yuqorida keltirilgan ma’lumotlar ta’lim tizimimizdagi ijobiy natijalar ushbu sohada amalga oshirilayotgan islohotlarning yanada keng ko‘lamda davom etayotganligidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.M. Mirziyoyevning O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqidan.

2. https://www.unicef.org

3. https://daryo.uz

4. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. 2-bob

YANGI O‘ZBEKISTON: TA’LIM TIZIMI VA YANGICHA YONDASHUVLAR TA’LIMNING TARAQQIYOT ASOSI. OLIY TA’LIM TARAQQIYOTI: MUAMMO VA YECHIM

Isanov Najotbek Ilmamat o‘g‘li
O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Jizzax mintaqaviy o‘quv markazi Maxsus va o‘q otish tayyorgarlik sikli o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini rivojlantirish sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: oliy ta’lim, yoshlar, vazirlik

Ma’lumki, bugungi kunda mamlakatimizda har bir sohada keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. O‘z navbatida, mazkur islohotlarning salmoqli qismini ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar tashkil etmoqda. So‘nggi yillarda ta’lim sohasining barcha bosqichlarini zamonaviy talablar asosida tashkil etish bo‘yicha amaliy ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, oliy ta’lim tizimida islohotlar va amaliy chora-tadbirlar judayam keng ko’lamli amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Mirziyoyev Shavkat Miromonovich O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimda ta`kidlaganlaridek: Hammamizga ayonki, taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham bu - ilm-fan, ta’lim va tarbiyadir. Ertangi kunimiz, Vatanimizning yorug‘ istiqboli, birinchi navbatda ta’lim tizimi va farzandlarimizga berayotgan tarbiyamiz bilan chambarchas bog‘liq.

Mutaffarkir olim Abu Nasr Farobiyning fikricha “Ta’lim - degan so‘z xalqlar va shaharliklar o‘rtasida nazariy fazilatni birlashtirish, tarbiya esa shu xalqlar o‘rtasidagi tug‘ma fazilat va amaliy kasb hunar fazilatlarini birlashtirish degan so‘zdir. Ta’lim faqat so‘z va o‘rgatish bilangina bo‘ladi. Farobiyning ta’lim-tarbiya yo‘llari, usullari vositalari haqidagi qarashlari ham qimmatlidir. U insonda go‘zal fazilatlar ikki yo‘l - ta’lim va tarbiya yo‘li bilan hosil qilinadi. Ta’lim nazariy fazilatlarini birlashtirsa, tarbiya esa tug‘ma fazilat - nazariy bilimlar va amaliy kasb - hunar, xulq odob fazilatlarini birlashtiradi. Ta’lim so‘z va o‘rganish bilan tarbiya

esa amaliy ish, tajriba bilan amalga oshiriladi, deydi. Har ikkalasi birlashsa yetuklik namoyon bo‘ladi, ammo bu yetuklik bilim va amaliy ko‘nikmalarni qay darajada o‘rganganligiga qarab paydo bo‘ladi, deb ko‘rsatadi.

Farobiy ta’limda barcha fanlarning nazariy asoslari o‘rganilsa, tarbiyada ma’naviy - axloqiy qoidalar, odob me’yorlari o‘rganiladi, kasb-hunarga oid malakalar hosil qilinadi, deb uqtiradi.

O‘zbekiston Respublikasining 30 yoshgacha bo‘lgan aholisi butun aholining 60 foizini tashkil etadigan noyob demografik holatga yuz tutish arafasida[2] Shunday ekan yoshlarning ongini, ma`naviyatini, salohiyatini, madaniyatini, bilim darajasini shakllantirmay turib biz kelajagimizga istiqbolimizga nazar tashlay olmaymiz. Bu bo‘yicha qator qonunlar qarorlar chiqarilayotgani hech kimga sir emas. O‘zbekiston Respublikasining ta’lim to‘g‘risidagi qonuni Kadrlar tayyorlash milliy dasturi 30 yilga mo‘ljallangan konseptsiya va ta’lim to‘g‘risidagi bir qancha qaror va qonunlarning qabul qilinishi yoshlarimizning kelajagini o‘ylab, davlatimiz rivojini o‘ylab amalga oshirilayotgani bejiz emas.

Yurtimizda bugungi kunda eng dolzarb muammo va yechimlarni qamrab olgan 30-yilgacha mo‘ljallangan konseptsiyaning qabul qilinishi va amalga oshirilishi yurtimizda ta’lim sohasida ulkan o‘zgarishlar amalga oshishiga olib keladi. Ta’lim sifati O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasi oliy ta’lim tizimini ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, fan, ta’lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta’minlash asosida ta’lim sifatini yaxshilash, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish maqsadida, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 11 iyuldagi PQ-4391-son "Oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi qarori ijrosi yuzasidan ishlab chiqilgan.

Kontseptsiya O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’limni rivojlantirishning strategik maqsadlari, ustuvor yo‘nalishlari, vazifalari, o‘rta va uzoq muddatli istiqboldagi bosqichlarini belgilaydi hamda sohaga oid dasturlar va kompleks chora-

tadbirlarni ishlab chiqish uchun asos bo‘ladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Kontseptsiyasida : Oliy ta’lim tizimining joriy holati va mavjud muammolar, Oliy ta‘lim tizimini rivojlantirishning strategik maqsadlari va ustuvor yo‘nalishlari,

Oliy ta`lim bilan qamrovni kengaytirish, oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish , ta‘lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish, oliy ta‘lim muassasalarida ilmiy - tadqiqot ishlari natijadorligini oshirish, yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish ilm-fanning innovattsion infratuzilmasini shakllantirish, ma’naviy - ma`rifiy va tarbiyaviy ishlar ta’sirchanligini oshirish, yuqori malakali mutaxxassislar tayyorlash jarayoniga kadrlar buyurtmachilarini faol jalb etish, oliy ta’lim muassasalarining moliyaviy mustaqilligi va barqarorligini ta’minlash, moddiy - texnik ta’minotini mustahkamlash, oliy ta’lim muassasalarini tizimli rivojlantirish va boshqaruv faoliyatini takomillashtirish, oliy ta’lim tizimining investitsiyaviy jozibadorligini oshirish, xalqaro miqyosda tanilishi va raqobatbardoshligini ta’minlash, konseptsiyani amalga oshirishdan kutilayotgan natijalar xususida keng qamrovli masalalar qamrab olingan.

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2019 yil respublikada 114 ta oliy ta’lim muassasasi mavjud bo‘lib, ulardan 93 tasi mahalliy hamda 21 tasi xorijiy oliy ta’lim muassasasi va ularning filiallari hisoblanadi. Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi O‘zbekistonda faoliyat ko‘rsatayotgan OTM lar sonini ochiqladi. Qayd etilishicha, bugungi kunda O‘zbekistonda 159 ta jumladan, Toshkent shahrida 72 ta, hududlarda 87 ta oliy ta’lim muassasasi mavjud.Shundan universitet 28 ta, institutlar 47 ta, akademiya 3 ta, konservatoriya 1 ta, filial 26 ta, xorijiy OTM va uning filiallari 30 ta, nodavlat OTM 24 ta. 59 Bundan ko‘rinib turibdiki bugungi kunda ta`lim tizimidagi ijobiy o‘zgarishlar sezilarli darajada o‘sgan. Davlat oliy ta`lim muassasalari tegishliligi bo‘yicha vazirlik va idoralar tasarrufiga biriktirilgan: Xorijiy oliy ta’lim tashkilotlari soni so‘nggi 3 yilda ikki barobar oshgan.2020-2021-o‘quv yili boshida respublika bo‘yicha 20 ta xorijiy oliy ta’lim tashkiloti faoliyat

yuritgan. [3] Bu ma’lumotlar esa ta’lim tizimimiz uzviyligi to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilganini ko‘rsatib turibdi. Davlat oliy ta’lim muassasalari tegishliligi bo‘yicha vazirlik va idoralar tasarrufiga biriktirilishi- oliy ta’limda kadrlar sifatini oshirish, har bir yo‘nalish bo‘yicha yetuk mutaxassislarning tayyorlanishi nazarda tutilgan. Xorijiy oliy ta’lim muassasalarining so‘ngi 3 yilda 2 barobar o‘sishi ham buning isbotidir.

Bu oliy dargohlarning ko‘lami yildan-yilga o‘sib borayotgani va mamlakatimizning rivojiga hissa qo‘shadigan turli yo‘nalishlarda kadrlar tayyorlayotgani bugun hech kimga sir emas. Kadrlar buyurtmachilari takliflari asosida Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatoriga 329 ta ta’lim yo‘nalishi va 582 ta magistratura mutaxassisligi kiritildi. 2019-2020 o‘quv yilida 59 ta oliy ta’lim muassasasida sirtqi ta’lim, 10 ta oliy ta’lim muassasasida kechki ta’lim shakli joriy etildi. Respublika oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar soni bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha 410 ming, magistratura mutaxassisligi bo‘yicha esa 13 ming nafarni tashkil qilib, so‘nggi 3 yilda 1,7 baravarga oshdi.

Talabalarning 54,8 foizi gumanitar va pedagogik, 25,2 foizi ishlab chiqarish-texnik, 5,2 foizi ijtimoiy soha, iqtisod va huquq, 5,9 foizi qishloq va suv xo‘jaligi, 4,4 foizi sog‘liqni saqlash va ijtimoiy ta`minot, 4,5 foizi xizmat ko‘rsatish bilim sohalariga oid ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari bo‘yicha tahsil olmoqdalar.

Magistratura talabalarining 40,8 foizi gumanitar va pedagogik, 23,3 foizi ishlab chiqarish-texnik, 13,3 foizi ijtimoiy soha, iqtisod va huquq, 5,9 foizi qishloq va suv xo‘jaligi, 13,5 foizi sog‘liqni saqlash va ijtimoiy ta’minot, 3,2 foizi xizmat ko‘rsatish bilim sohalariga oid ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha tahsil olmoqdalar. 2019-2020 o‘quv yili uchun qabul parametrlari 121 mingtani tashkil etdi va o‘tgan yilga nisbatan 18 foizga, 2016 yilga nisbatan esa 92 foizga oshdi. Respublikaning 16 ta oliy ta’lim muassasasida 2018-2019 o‘quv yilidan boshlab xorijiy oliy ta’lim muassasalari bilan hamkorlikda qo‘shma ta’lim dasturlari asosida kadrlar tayyorlash faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

So‘nggi 3 yilda oliy ta`lim muassasalarining 1611 nafar professor-o‘qituvchisi xorijiy oliy ta’lim muassasalarida stajirovka o‘tashi va malaka oshirishi ta’minlandi. Xalqaro hamkorlik doirasida xorijiy oliy ta’lim va ilmiy muassasalar

magistratura mutaxassisligiga 112 nafar, doktoranturasiga 51 nafar yoshlar ta’lim olishga qabul qilindi.

"El-yurt umidi" jamg‘armasi orqali 46 nafar professor-o‘qituvchining Kanada, Buyuk Britaniya va Italiya davlatlarida stajirovka o‘tashi ta’minlandi. 2017-2019 yillarda ta’lim jarayoniga 1154 nafar xorijlik yuqori malakali pedagog xodim va olim jalb etildi (AQShdan 94 nafar, Yevropa mamlakatlaridan 445 nafar, Osiyo mamlakatlaridan 299 nafar, MDH mamlakatlaridan 316 nafar). Oliy ta’lim muassasalarida fan doktori ilmiy darajasiga ega professorlarning bazaviy lavozim maoshlari 2016 yilga nisbatan 3,2 baravarga oshirildi. [4]

Bugungi kunda oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini ta’minlashni va nazorat qilishni xorijiy tajribalar asosida oshirish, mazkur mavzu dolzarbligi va bugungi kunda zaruratini ko‘rsatadi. Kadrlar raqobatbardoshligini ta’minlash uchun o‘qitishni yangi zamonaviy ta’lim texnologiyalarga moslashtirish, zamonaviy metodlarni va tamoyillarni ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etishda xorijiy tajribalar bugungi kunda zarur bo’ladi. Bugungi kunda oliy ta’lim sifatini ta’minlash va modernizasiyalashtirishda avvalombor, zamonaviy o‘quv-metodik ta’minotni shakllantirish masalasi paydo bo‘ldi. Shu sababli davlatimiz tomonidan oliy ta’lim oldiga qo‘yayotgan masalalarni ijobiy hal etish uchun zamoaviy o‘quv-metodik ta’minotni yaratish dolzarb masala bo‘lib turibdi.

Ta’lim sifati va ta’lim samaradorligi jamiyatda hayot sifatini ko‘rsatuvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Davlat va jamiyat umumiy va kasbiy ta’limga qanchalik ko’p mablag‘ sarflasa va natijasi eng yuqori xalqaro standartlarga javob bersa, hayot sifati shunchalik yuqori bo‘ladi.

Ta’lim samaradorligini belgilashda eng optimal qarorlar qabul qilish yuqori ta’lim sifatga erishishni talab etadi. Mamlakatimizning hozirgi davrdagi rivojlanish bosqichida oliy kasbiy ta’lim globallashuv jarayonlari davrida mamlakatning milliy, iqtisodiy, ekologik, siyosiy xavfsizligini ta’minlashga qodir bo‘lgan shaxslarning shakllanishidagi, insoniyatning universallashuvi va postindustrial axborot jamiyatiga o‘tishidagi asosiy vositalardan biri bo‘lib hisoblanadi. Shu bilan birga hozirgi kundagi jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi asoratlari davom etayotgan bir

pallada oliy ta’lim jamiyatni birlashtirishning, yagona ijtimoiy-madaniy makonni saqlab qolish, ijtimoiy nizolar va etnomilliy ziddiyatlarni yengib o‘tishning eng muhim salohiyatli omili sifatida olib qaralishi lozimdir. Yangicha ta’lim tizimlarining shakllanishi tendensiyalari aniq ravshan turibdiki, hozirgi zamon jamiyatining umumiy rivojlanishi tendensiyalar bilan belgilanadi.[3]

Ta’lim sifati an’anaga ko‘ra o‘qitishning va ilmiy tadqiqotlarning OTM darajasidagi tabiiy elementi va olimlarning kasbiy faoliyatidagi ajralmas bir bo‘lagi bo‘lib sanaladi. Hozirgi kunda oliy ta’lim sifatini oshirish butun dunyoda ta’lim tizimidagi eng muhim va asosiy masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Shuning uchun ham oliy ta’lim sifatini baholashdagi yondashuvlarni tadqiq qilishga ehtiyoj tuǵiladi.

Shunga ko‘ra, oliy ta’lim sifatini ta’minlash turli oqibatlarga va xususiyatlarga ega bo’ladi. Oliy ta’lim sohasidagi turli tadqiqotchilar ta’lim sifatini ta’minlashning adekvat(mos) tizimini ishlab chiqishda har doim ilg‘or tajribalarga tayanadilar. Ta’lim sifatini ta’minlash “jangovar harakat qoidalari” deb talqin qilinishi mumkin bo’lgan aniq oqibatlarga ega bo’ladi. Shu bilan birga tashqi intensiv nazorat zaruratini pasaytiradigan ta’lim xizmatlari sifatining shaffofligi borasidagi “yozilmagan qoidalar” ham mavjuddir.

Xulosa qiladigan bo’lsak, oliy ta’lim sifatini ta’minlash borasida shu paytgacha mavjud bo’lgan milliy va xorijiy tajribalar shuni ko’rsatadiki, hozirgi paytda OTMlarda alohida, tizimsiz tarzda o’tkaziladigan islohotlar va innovatsiyalar samarasiz bo‘lib, bu ko‘pincha oliy ta’lim sohasidagi umumiy samaradorlikka putur yetkazadi. Shuning uchun oliy ta’lim sifatini oshirish bo‘yicha shu paytgacha to‘plangan xorijiy tajribalarni milliy ta’lim tizimi yutuqlari bilan o’zaro uyg‘unlashtirgan holda ham faqat majmuaviy, tizimli va bir butun tarzda amalga oshirish mamlakatimizda oliy ta’lim sifatini yangi bosqichga ko‘tarishi shak-shubhasizdir. Aqliy rivojlanishning barcha sohalarida shaxs ijtimoiy munosabatlar o‘zgaradi. Bu jarayonda o‘quv faoliyatining yetakchi roli kichik maktab yoshidagi o‘quvchining boshqa tadbirlarga faol qo‘shilishini istisno etmaydi, uning davomida bolaning yangi yutuqlari yaxshilanadi va mustahkamlanadi. L.S.Vigotskiyning ta’kidlashicha boshlang‘ich maktab yoshining o‘ziga xos xususiyati shundaki,

faoliyatning maqsadlari asosan bolalar uchun kattalar tomonidan belgilab beriladi.

Yangi O‘zbekistonda oliy ta’lim sohasidagi islohotlar bugungi kunda o‘zining dolzarbligi hamda amaliy ahamiyati bilan boshqa sohalardagi islohotlardan aslo qolishmaydi. Bu islohotlar bugun allaqachon natijasini ham ko‘rsatyapti. Yuqorida keltirilgan ma’lumotlar ta’lim tizimimizdagi ijobiy natijalar ushbu sohada amalga oshirilayotgan islohotlarning yanada keng ko‘lamda davom etayotganligidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sh.M. Mirziyoyevning O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqidan.

2. https://www.unicef.org

3. https://daryo.uz

4. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. 2-bob

AXBOROT-TA’LIM MUHITIDA “XAVFSIZ TA’LIM” KONSEPSIYASINI NAZARIY ASOSLARI

Xujamqulov Sirojiddin Safar o‘g‘li
O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Jizzax mintaqaviy o‘quv markazi AKT va TQV sikli katta o‘qituvchisi, katta leytenant

Ta’limni axborotlashtirish sharoitida bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarni pedagogik faoliyatga tayyorlash mazmuni keng qamrovli axborotlashtirish bilan bog‘liq mamlakatimiz ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan o‘zgarishlar bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy faoliyatiga yangi talablarni qo‘yadi, shu jumladan o‘qitishni axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT)dan foydalangan holda innovatsion texnologiyalardan foydalanishga yo‘naltirish, har bir talabaning individual xususiyatlarini maksimal darajada hisobga olishga tayyor samarali professional hamkorlik, ilg‘or pedagogik tajribani almashish muhimdir.

Ta’lim tizimiga zamonaviy kompyuter texnologiyalarining joriy etilishi elektron ta’lim va masofaviy o‘qitish texnologiyalarining faol rivojlanishiga yordam beradi. "Elektron ta’lim" tushunchasi 90-yillarda paydo bo‘lgan. O‘tgan asrning boshlarida, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi tufayli u tobora dolzarb bo‘lib qoldi. Ushbu davrda elektron ta’lim masofaviy o‘qitishning texnologik yordami sifatida ko‘rib chiqilgan bo‘lib, o‘qituvchilar va talabalar uchun mul’timedia o‘quv qo‘llanmalariga, elektron darsliklarga, avtomatlashtirilgan test tizimlariga va boshqalarga masofadan kirish imkoniyatini ta’minlaydi.Ushbu yo‘nalishning rivojlanishi elektron ta’lim muammolarini hal qiladigan murakkab dasturiy ta’minot tizimlarining tarqalishiga olib keldi: o‘quv tarkibini boshqarish tizimlari, test tizimlari, o‘quv muhitini interfaol qo‘llab-quvvatlash tizimlari, bilimlarni boshqarish tizimlari .

Bu XXI asrning boshlarida ruxsat etilgan an’anaviy ta’lim muassasalari (universitetlar, professional ta’limlar, qo‘shimcha ta’lim va malaka oshirish muassasalari va boshqalar) o‘quv jarayoniga elektron ta’limni faol joriy etish.

"Elektron ta’lim" tushunchasining zamonaviy talqini axborot-ta’lim muhiti (muammoli va loyihaviy asosda o‘rganish, hamkorlikda o‘rganish, talaba va

o‘qituvchi portfelini shakllantirish va boshqalar) asosida pedagogik texnologiyalardan foydalanishga asoslangan o‘quv jarayonini tashkil etish masalalarini tizimli hal qilishni nazarda tutadi.

Masofaviy o‘qitish texnologiyalari deganda "asosan talabalar va o‘qituvchilar o‘rtasida bilvosita (masofadan turib) o‘zaro ta’sirga ega axborot va telekommunikatsiya tarmoqlaridan foydalangan holda amalga oshiriladigan ta’lim texnologiyalari" tushuniladi . Masofaviy o‘qitish elektron ta’limning ekstremal holati sifatida qaraladi, uning asosiy xususiyati o‘quv jarayonini tashkil etish va uning sub’ektlarining ta’lim resurslari bilan o‘zaro aloqasi nuqtai nazaridan an’anaviy ta’lim elementlarining yo‘qligi hisoblanadi . Shunday qilib, ta’limni axborotlashtirish yo‘nalishi sifatida elektron va masofaviy o‘qitish ustuvorligi ko‘rsatib o‘tildi.

Elektron ta’lim, masofaviy o‘qitish tushunchalari bilan bir qatorda "aralashgan ta’lim" atamasi keng tarqalgan bo‘lib, an’anaviy o‘quv mashg‘ulotlari va elektron o‘qitish texnologiyalarining kombinatsiyasini anglatadi. Deputat Lapchik ta’kidlaganidek, "bu zamonaviy texnologiyalar sifatida elektron ta’limning ahamiyatini oshiradigan aralashtirilgan ta’lim. Bu nafaqat tushunarli ma’noda masofadan o‘qitish bilan bog‘liq, balki boshqa mashg‘ulotlar shakllari va turlari uchun ham muhimdir".

Uzoq vaqt davomida hech qanday me’yoriy reglament mavjud bo‘lmaganiga qaramay, elektron ta’lim va masofaviy ta’limning eksperimental faoliyat doirasida joriy etildi

Tadqiqot ishini olib borishda masofaviy va elektron ta’lim muammolariga bag‘ishlangan ishlar bilan bir qatorda kasb ta’limi o‘qituvchilarini kasbiy rivojlantirish muammosiga bag‘ishlangan ilmiy-tadqiqot ishlari o‘rganildi.

Mahalliy va xorijiy psixologik - pedagogik tadqiqotlar bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarini kasbiy rivojlantirish muammosi yangi emasligini anglatadi. Bo‘lajak o‘qituvchilar kasbiy faoliyatining shaxsiy mexanizmlari Ye.N. Volkova,Yu.N. Kulyutkin , L.M. Mitina ,V.A. Slastenin asarlarida ko‘rib chiqilgan.

Bir qator olimlar kasbiy rivojlanishni kasbiy yutuqlarga yo‘naltirilgan faoliyatni rivojlantirish sifatida belgilaydilar .

"Rivojlanish" atamasini falsafiy va psixologik nuqtai nazaridan izohlaymiz.

Falsafada "rivojlanish" oldinga siljish, evolyusiya, biridan ikkinchisiga o‘tish sifatida izohlanadi. Ammo shu bilan birga, rivojlanish jarayoni ob’ektning har qanday o‘zgarishini anglatmaydi, balki ob’ektning ichki tuzilishidagi, uning tarkibidagi o‘zgarishlar bilan bog‘liq bo‘ladi. Rivojlanish ma’lum bir struktura, mexanizm bilan ajralib turadi, bu jarayonda ishtirok etadigan tizim tarkibiy qismlari: jarayon tarkibiy qismlari va uning shart-sharoitlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikdir. Jarayon shartlari-bu ob’ektning boshlang‘ich nuqtasini natijaga aylantirilishini ta’minlaydigan tarkibiy qismdir. Rivojlanishning dialektik konsepsiyasi tizimning qarama-qarshiliklari tufayli uning sifatli, qaytarib bo‘lmaydigan, yo‘naltirilgan o‘zgarishini belgilaydi.

Psixologiyada "rivojlanish" tushunchasini ko‘rib chiqsak, biz S.L. Rubinshteynning ta’rifiga tayanamiz, unda bu jarayon bir holatdan ikkinchisiga, yanada mukammal (rivojlanish sifatida) ko‘rib chiqiladi. Pedagogikada bu ta’rif texnologik xarakterga ega, chunki dastlab maqsad (teleo) mavjudligi nazarda tutiladi, bu ma’lum «mukammal», ya’ni rivojlanishning eng yaxshi, namunaviy shakli hisoblanadi.

B.G. Ananev rivojlanishni ikki chambarchas bog‘liq hodisalarning birikmasi sifatida tushunadi: miyaning biologik kamoloti va aqliy kamolotga erishishi. Psixologik adabiyotlarda (L.S. Vыgotskiy, V.D. Shadrikov va boshqalar) shuningdek, aqliy rivojlanish shakllanish orqali amalga oshiriladi, bu yerda shaxsning tabiiy potensialini ta’lim va tarbiya orqali amalga oshirish haqida gap boradi . Shunday qilib, "rivojlanish" tushunchasining falsafiy va psixologik ta’rifiga asoslanib, biz professional rivojlanishni muayyan sharoitlarni yaratishni o‘z ichiga olgan sifatli o‘zgarish jarayoni sifatida tushunamiz.

Bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchisini kasbiy rivojlantirishning yana bir muhim tarkibiy qismi bu uning ijodiy yutuqlari. Agar kasb ta’limi o‘qituvchisi o‘z ishining ijodiy yo‘nalishini bilsa va hamkasblari bilan innovatsion tajriba almashishga qaror

qilsa, bu uning ijodiy salohiyatini rivojlantirishga hissa qo‘shadi. "Pedagogik ijod" tushunchasining mohiyati V.I. Zagvyazinskiy, V.A. Kan-Kalik, N.V. Kuzmina, M.M. Potashnikning tadqiqot natijalarida keltirilgan. Kasb ta’limi o‘qituvchisining pedagogik ijodini N.V. Kuzmina shunday ta’kidlaydi: "Kasb ta’limi o‘qituvchining ijodkorligi uning o‘quvchi shaxsiyatini loyihalashtirishidan, kutilmagan vaziyatlarda mustaqil qarorlar qabul qilishidan, o‘quv jarayonini bolalarning xususiyatlariga mos ravishda tashkil etilishidan ko‘rinadi. Pedagogik faoliyat-bu son-sanoqsiz pedagogik muammolarni hal qilish jarayoni umumiy asosiy maqsadga bo‘ysunish-shaxsning shaxsiyatini, dunyoqarashini, e’tiqodlarini, ongini, xulq-atvorini shakllantirish".

V.I.Zyagvyazinskiyning fikriga ko‘ra, "ijodkorlik-bu kasb ta’limi o‘qituvchisining shaxsini shakllantirish, uning o‘zini o‘zi anglashi, kasbiy rivojlantirishning zaruriy sharti". Tadqiqotchilar bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchisining kasbiy faoliyatida ijodkorlikning namoyon bo‘lishining xilma-xilligi va turli tomonlarini ta’kidlaydilar: "... muammoni hal qilishda nostandart yondashishda; yangi usullar, shakllar, uslublar, vositalar va ularning asl kombinatsiyalarini ishlab chiqishda; mavjud sharoitlarni yangi sharoitlarda samarali qo‘llashda”.

Agar pedagogik faoliyat jarayonida vujudga keladigan dolzarb kasbiy muammolarni hal etish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalaridan foydalangan holda sifat jihatidan yangi o‘quv natijalariga erishishga imkon bersa, unda biz pedagogik ijodkorlik haqida gapirishimiz mumkin. Ta’limni axborotlashtirish sharoitida pedagogik ijodkorlik quyidagicha namoyon bo‘ladi:

- mustaqil ravishda yaratilgan dars ishlanmalaridan elektron o‘quv resurslarida foydalana olish;
- professional ta’lim o‘quvchilari uchun fanlarning, fanlararo va ijtimoiy ahamiyatga ega bilimlar sohasidagi tarmoq shakllarini ishlab chiqish va amalga oshirish;

- o‘quvchilarga darsning samarali va darsdan tashqari kognitiv faoliyatini ta’minlash maqsadida masofaviy ta’lim texnologiyalaridan faol foydalanish;

- masofadan o‘tkazilgan master-klasslar, seminarlar, o‘qituvchilar kengashlari davomida boshqalar bilan tajriba almashish uchun o‘z o‘quv materiallarini tayyorlash.

Kasbiy rivojlanishga intilayotgan, o‘qitishning yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini bilgan va ularni amalda sinab ko‘rgan bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchisi o‘zining veb-portfoliosi yordamida o‘z ijodiy tajribasini boshqalarga taqdim qilishi mumkin. Veb-portfolio o‘qituvchiga o‘z o‘quv materiallarini tizimlashtirish, o‘quv faoliyati samaradorligini va natijalarini tahlil qilish va baholash, talabalarni kuzatish va ularning o‘quv yutuqlarini baholash imkonini beradi. Materiallarni taqdim etishning ushbu shakli turli tadbirlarda oraliq va yakuniy natijalarni qayd etish imkonini beradi: o‘quv, ijodiy, ijtimoiy, kommunikativ; kasbiy rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarning to‘planishini ta’minlaydi, individual yutuqlarini keng jamoatchilikka namoyish etish uchun sharoit yaratadi. Veb-portfolio yaratish texnologiyalarini o‘zlashtirish ta’limni axborotlashtirish sharoitida kasbiy rivojlanishning muhim sohasidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, 2020-yil, 24- sentabr.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 4-fevraldagi PQ 2293-sonli “Axborot-kommunikatsiyalariga oid vazirlikni tashkil etish to‘g‘risida”gi Qarori.

3. O‘zbekiston Respublikasi 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli qarori.

4. O‘zbekiston Respublikasi 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-sonli “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga

oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida 2030-yilgacha Oliy ta’lim tizimini rivojlantirish to‘g‘risida”gi PQ-5847-sonli qarori.

6. O‘zbekiston Respublikasi 2020-yil 27-fevraldagi PQ-4623-sonli “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.

XAVFSIZ TA’LIM: O‘ZBEKISTONDA TA’LIM SIFATINI YUQORI DARAJADA TA’MINLASH

Nortojiyev Muxammad Anvar o‘g‘li
Respublika Jamoat Xavfsizligi universiteti Tillarni o‘rganish kafedrasi o‘qituvchisi
Mukhammadnortojiev@gmail.com

O'zbekiston ta'lim tizimi so'nggi yillarda jadal rivojlanmoqda. Yangi O'zbekistonning maqsadi — zamonaviy, raqobatbardosh va xavfsiz ta'lim muhitini yaratishdir. Ta'lim — har bir fuqaro uchun muhim jihat bo'lib, u nafaqat bilim olish, balki shaxs sifatida rivojlanish, ijtimoiy hayotga integratsiya qilish va kelajakda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun zarurdir. Bugungi kunda ta'limda xavfsizlik masalalari alohida ahamiyat kasb etadi. Ta'lim jarayonida xavfsizlikni ta'minlash, o'quvchilarning ruhiy va jismoniy holatini himoya qilish, shuningdek, ta'lim muassasalarida salbiy holatlarning oldini olish — o'z navbatida, ta'lim sifatini oshirishning asosiy omillaridan biridir. Xavfsiz ta'lim muhitini yaratish, o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasida ishonchli munosabatlarni o'rnatish, hamda ta'lim muassasalarida individual yondashuvni amalga oshirish — bu jarayonlarning barchasi ta'lim sifatini yuqori darajada ta'minlashga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, ushbu maqolada O'zbekistonda xavfsiz ta'lim konsepsiyasini amalga oshirish jarayoni, milliy va xorijiy tajribalar, shuningdek, ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan innovatsion yondashuvlar ko'rib chiqiladi. O'zbekistonning ta'lim tizimida mavjud bo'lgan muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari, shuningdek, xorijiy davlatlarning tajribasi orqali qanday qilib xavfsiz va sifatli ta'lim muhitini yaratish mumkinligi haqida fikr yuritiladi. Bu maqola, shuningdek, ta'limda xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan yangi strategiyalar va innovatsion yechimlarni ishlab chiqishga yordam beradi, bu esa o'z navbatida O'zbekistonning ta'lim tizimini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

XAVFSIZ TA'LIMNING AHAMIYATI

Xavfsiz ta'lim muhitining ahamiyati kundan-kunga oshib bormoqda. Ta'lim jarayonining sifatini oshirish, o'quvchilarning ruhiy va jismoniy xavfsizligini ta'minlash, shuningdek, ularning ijtimoiy hayotga muvaffaqiyatli integratsiyasini

ta'minlashda xavfsizlik muhim rol o'ynaydi. Quyida xavfsiz ta'limning ahamiyatini ko'rsatadigan bir nechta asosiy omillar keltirilgan. Xavfsiz ta'lim muhitida o'quvchilar o'z bilim va ko'nikmalarini qulay sharoitda rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Bu, o'z navbatida, ularning raqobatbardoshligini oshiradi va kelajakda muvaffaqiyatli professional faoliyat ko'rsatishlariga yordam beradi. Xavfsiz ta'lim muhitida o'quvchilar o'zlarini qulay his qilishadi, bu esa ularning psixologik barqarorligini ta'minlaydi. Stress va xavotir darajasini kamaytirish, shuningdek, ruhiy zo'riqishning oldini olish o'quvchilarning o'qish natijalariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ta'lim muassasalarida xavfsizlikni ta'minlash, turli xil salbiy holatlar, masalan, bullying, zo'ravonlik yoki boshqa noxush hodisalar kabi vaziyatlarning oldini olishda muhimdir. Bu holatlar o'quvchilarning o'qish jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Xavfsiz ta'lim muhitida o'quvchilar bir-birlari bilan muloqot qilish, hamkorlik qilish va jamoa sifatida ishlash imkoniyatiga ega bo'lishadi. Bu ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi va kelajakda ijtimoiy hayotga muvaffaqiyatli integratsiyalashishlariga xizmat qiladi.

Xavfsiz ta'lim muhitida o'qituvchilar o'z ishlarini samarali ravishda olib borishlari mumkin. O'qituvchilar o'zlarini ishonchli his qilishlari, o'quvchilar bilan aloqalarini yanada mustahkamlashlari va ta'lim jarayonida innovatsion yondashuvlarni amalga oshirishlari uchun qulay sharoitlar yaratiladi. Xavfsiz ta'lim muhitida o'quvchilar o'z qobiliyatlarini anglash va rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Bu ularning shaxsiy rivojlanishiga, ijodkorlikka va o'z-o'zini ifoda etishga yordam beradi. Shu sababli, xavfsiz ta'lim muhitini yaratish — bu nafaqat o'quvchilar, balki ta'lim tizimining barcha ishtirokchilari uchun muhim vazifadir. Xavfsizlikni ta'minlash orqali ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning potentsialini to'liq ochish va ularni kelajakda muvaffaqiyatli insonlar sifatida tarbiyalash mumkin.

MILLIY VA XORIJIY TAJRIBALAR

O'zbekistonda xavfsiz ta'limni ta'minlash uchun bir qator tashabbus va dasturlar amalga oshirilmoqda. Ta'lim muassasalarida psixologik xizmatlar ko'rsatish, o'quvchilar va o'qituvchilar o'rtasida ishonchli munosabatlarni o'rnatish,

shuningdek, o'quv jarayonida xavfsizlik qoidalarini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar joriy etilmoqda. O'zbekistonda ta'lim jarayonida xavfsizlik bo'yicha maxsus darslar, seminarlar va treninglar o'tkazish amaliyoti mavjud. Ushbu tadbirlar orqali o'quvchilar o'zlarini xavfsiz his qilishlari va qiyinchiliklarga duch kelganda qanday harakat qilishni o'rganishlari mumkin. O'zbekistonda ta'lim muassasalari oila va jamiyat bilan yaqin hamkorlikda ishlamoqda. Bu, o'quvchilarning ruhiy holatini yaxshilash va ta'lim jarayonini yanada xavfsiz qilishga yordam beradi.

Finlandiyada ta'lim tizimi yuqori sifat va xavfsizlikni ta'minlashda misol bo'lib xizmat qiladi. O'quvchilar uchun xavfsiz muhit yaratish maqsadida, o'qituvchilar o'quvchilar bilan mustahkam munosabatlar o'rnatishga e'tibor berishadi. Psixologik xizmatlar va qo'llab-quvvatlash tizimlari kengaytirilgan.

Shvetsiyada ta'lim muassasalarida xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan dasturlar amalga oshiriladi. O'quvchilar va o'qituvchilar o'rtasida ochiq muloqotni rag'batlantirish, shuningdek, o'quvchilarni faol ishtirok etishga undash orqali xavfsizlik muhitini yaratishga e'tibor qaratiladi.

AQShda xavfsiz ta'lim muhitini yaratish uchun ko'plab dasturlar va siyosatlar mavjud. Ta'lim muassasalarida xavfsizlik protokollari, krizislarni boshqarish rejalari va o'qituvchilar uchun maxsus treninglar o'tkaziladi. O'quvchilarni ruhiy sog'lomligini ta'minlash maqsadida psixologik xizmatlar taqdim etiladi.

Kanadada xavfsiz ta'lim muhitini yaratish uchun ijtimoiy adolat va inklyuzivlikka alohida e'tibor qaratiladi. O'quvchilar o'zlarini xavfsiz his qilishlari uchun barcha sharoitlar yaratiladi, va ta'lim jarayonida har bir o'quvchining ehtiyojlari hisobga olinadi.

XULOSA

Xavfsiz ta'lim muhitini yaratish — bu nafaqat ta'lim tizimining sifatini oshirish, balki har bir o'quvchining ruhiy va jismoniy sog'ligini ta'minlash uchun ham muhimdir. O'zbekistonning ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan tashabbuslar, milliy va xorijiy tajribalar orqali o'rganganimizdek, xavfsizlikni ta'minlash uchun bir qator samarali yondashuvlar mavjud. Milliy tajribalarimizda psixologik xizmatlar, oila va jamiyat bilan hamkorlik, hamda o'quvchilarga xavfsizlik bo'yicha

ta'lim berish kabi chora-tadbirlar muhim o'rin tutadi. Xorijiy davlatlar, xususan, Finlandiya, Shvetsiya, AQSh va Kanada kabi mamlakatlarda esa xavfsiz ta'lim muhitini yaratishda innovatsion yondashuvlar va tizimli strategiyalar qo'llanilmoqda. Umuman olganda, xavfsiz ta'lim muhitini yaratish har bir jamiyatning rivojlanishida muhim omil bo'lib, bu jarayon ta'lim sifatini oshirish va kelajak avlodlar uchun qulay sharoitlarni ta'minlashga xizmat qiladi. O'zbekistonning ta'lim tizimida xavfsiz ta'lim konsepsiyasini amalga oshirish, o'z navbatida, mamlakatning umumiy taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. ABDULLAEVA, D. (2020). Ta'limda xavfsizlik: nazariya va amaliyot. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Ta'lim vazirligi.

2. JUMAEVA, A. (2019). O'zbekistonda ta'lim sifatini oshirish: yangi yondashuvlar. Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti.

3. KIM, Y. (2021). Educational Safety and Well-being: Global Perspectives. New York: Routledge.

4. MAMADOV, S. (2022). Ta'lim muassasalarida xavfsizlikni ta'minlash. Toshkent: Ta'lim va tarbiya markazi.

5. SMITH, J. (2020). Creating Safe Learning Environments: Lessons from Finland. Helsinki: University of Helsinki Press.

6. YUSUPOVA, S. (2021). Oila va jamiyat: Ta'limda xavfsizlikni ta'minlash. Toshkent: O'zbekiston Fanlar Akademiyasi.

YANGI O‘ZBEKISTON TA’LIM TIZIMIDAGI ISLOHOTLAR

Isanov Najotbek Ilmamat o‘g‘li
O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Jizzax mintaqaviy o‘quv markazi Maxsus va o‘q otish tayyorgarlik sikli o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada yangilanayotgan O‘zbekistonda ta’limning ahamiyati haqida, shuningdek, ta’lim tizimidagi islohotlar haqida so‘z yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: *Temur tuziklari, O‘zgarish sur'atlari, hozirgi zamonda ta'lim-tarbiya, pedagog kadrlar tayyorlash, chet el universitetlari.*

Mamlakatimiz innovatsion taraqqiyot yo’lida shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda kelajagimiz davomchilari bo’lgan yoshlarning ijodiy g’oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo’llab-quvvatlash, ularning bilim, ko’nikma va malakalarini shakllantirish hamda ilg’or xorijiy tajribalar, xalqaro mezon va talablar asosida baholash tizimini takomillashtirish, shu yo’lda xalqaro tajribalarni o’rganish, mavjud tizimni har tomonlama qiyosiy tahlil qilish, tegishli yo’nalishdagi xalqaro va xorijiy tashkilotlar, ilmiy tadqiqot muassasalari bilan yaqindan hamkorlik qilish muhim ahamiyatga egadir.

Ulug‘ sarkarda Amir Temur o‘zining ―Temur tuziklari asarida «mingta nodon lashkardan, dono shijoatli va tadbirkor bitta asakar afzaldir» degani ham bejiz emasdir. Zotan, jamiyatimizning har bir yoshlarning ilm, ma’rifatli qilib tarbiyalash, vatanparvarlik ruhida shakllantirish, yuksak ma’naviyat darajasida olib chiqish biz pedagoglar oldida turgan eng dolzarb vazifalardan sanaladi. Ilmni ulug‘lagan, ma’rifatni keng targ‘ib etgan, shu vatan tuprog‘i uchun fidoyi bo‘lgan har bir pedagog jamiyatimizning yuksak ma’naviy boyligidir. Jamiyat ravnaqi va taraqqiyoti bevosita ularning sa’y-harakati va fidoyiliklari asosida kamol topmoqda.

Xalqaro standartga asosan har bir ta’lim darajasi uchun ta’lim dasturlari va ularga mos ravishda malaka talablari ishlab chiqilishi ta’lim sifatining oshishiga

asos bo‘ladi. Ta’lim tizimini darajalarga ajratish esa uning uzluksizligi va ketma-ketligini ta’minlaydi. Bu tushuncha va tamoyillar xalqaro ta’lim klassifikatsiyasining asosiy vazifalaridan biridir.

Jumladan, maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirish, umumta’lim maktablari faoliyatini yaxshilash, oliy ta’lim tizimini dunyo standartlari darajasiga olib chiqish, ularni xalqaro mingtalik reytingiga kiritish, ayniqsa, o‘quv yurtlariga qabul qilishda ob’yektiv va adolatli tizimni o‘rnatish, nufuzli chet el universitetlari filiallarini ochish kabi ko‘plab amaliy ishlar bajarilmoqda.

Mamlakatimizda istiqlolning dastlabki yillaridan boshlab ta’lim-tarbiya tizimini rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilib, farzandlarimizning jahon andozalariga mos sharoitlarda zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni egallashlari, jismoniy va ma’naviy jihatdan yetuk insonlar bo‘lib voyaga yetishlarini ta’minlash, ularning qobiliyat va iste’dodi, intellektual salohiyatini ro‘yobga chiqarish, yoshlarimiz qalbida ona yurtga sadoqat va fidoyilik tuyg‘ularini kamol toptirish borasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimizning 2017 yil 7 fevraldagi "O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida"gi farmonida ijtimoiy soha, xususan, ta’lim va ilm-fan sohalarini rivojlantirish borasida bir qator vazifalar belgilangan.

Hujjatda ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, yangi ta’lim muassasalarini qurish, ta’mirlash va kapital ta’mirlash barobarida ularni zamonaviy o‘quv va laboratoriya jihozlari, kompyuter texnikasi va o‘quv-metodik qo‘llanmalar bilan ta’minlash nazarda tutilgan.

Ma’lumki, mamlakatimiz ta’lim-tarbiya tizimini yana-da takomillashtirish, ilm- fan sohasi rivojini jadallashtirish maqsadida Prezident farmoni loyihasi ishlab chiqildi. Mazkur hujjat regulation.gov.uz portaliga qo‘yilib, barcha hududlarda, mahalliy kengashlarda va maktab jamoalarida ota-onalar ishtirokida keng muhokama qilindi. Farmon loyihasida ta’limdagi hozirgi muammolarni hal qiladigan, yaqin besh yilda natijasini ko‘rsatadigan va keyingi taraqqiyot darajasini belgilab beradigan maqsadlar qamrab olingan.

Keyingi bir yilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining yetmishga yakin qaror, farmon va farmoyishlari qabul qilindi. Bu tom ma’noda ta’lim tizimidagi o‘zgarishlar va yangilanishlar jarayonini boshlab berdi.

Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoev o‘zining “Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak” asarida ta'lim va ilm-fan, davlatning yoshlarga doir siyosatini amalga oshirish, ta'limning yangi, zamonaviy usullarini, jumladan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish sohasidagi ishlar axvoli Tanqidiy tahlil qilib, bir qator vazifalarni amalga oshirishga e'tibor qaratdilar.

Bugungi kunda O‘zbekistonimizning barcha sohalari chuqur islohotlar maydoniga aylangan. Bu jarayonda ijtimoiy sohaning asosi hisoblangan ta’lim tizimidagi o‘zgarishlar behisobdir. O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’limni isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, mustaqil fikrlaydigan salohiyatli, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish uchun Davlatimiz rahbarining 2019-yil 8- oktyabrdagi farmoni bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiya sohadagi yangi islohotlar uchun dasturi amal bo‘ldi.

Prezidentimizning 2020-yil 6-noyabrda qabul qilingan “O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi farmoni ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish va yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir. Farmonda Xalq ta'limi vazirligi zimmasiga bir qator vazifalar yuklatilgan.

Xususan, ta'lim tizimining asosi bo'lgan Milliy o'quv dasturini yaratish ana shunday muhim vazifalardan biridir. U avvalgi Davlat ta'lim standartidan tubdan farq qiladi, ko'proq amaliyotga yo'naltiriladi. Mazkur dasturni ishlab chiqishda xalqaro ekspertlar jalb qilinadi va u xalqaro standartlarga muvofiqlashtiriladi.

Farmonda, shuningdek, pedagoglar malakasini oshirish masalasiga ham alohida e'tibor qaratilgan, aniq vazifalar belgilangan. Ayni paytda xalq ta'limi tizimida o'qituvchilar uchun har besh yil, rahbarlar uchun esa har uch yilda malaka

oshirish tartibi amal qilyapti. Bundan buyon ana shu besh yillik muddat qisqarib, kredit-modul` asosida malaka oshirish tizimi yo'lga qo'yiladi. O'qituvchilar malakasini oshirishda nafaqat xalq ta'limi tizimidagi malaka oshirish institutlari yoki markazlari, balki oliy va nodavlat ta'lim muassasalari mutaxassislarini ham jalb etish ko'zda tutilgan.

Farmonda kasbga yo'naltirish tizimini joriy qilish ham asosiy masalalardan biri sifatida belgilangan. Hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida maktab bitiruvchilarining qo'lida muayyan kasbi bo'lishi kerak. Chunki oliy ta'lim muassasasiga o'qishga kirolmagan o'quvchilar qaerdadir ishlashi, ro'zg'or tebratishi zarur. Ayni shu maqsadda Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi mahalliy hokimliklar bilan birgalikda 7- sinfdan boshlab o'quvchilarni kasbga moyilligini aniqlash va ularni yo'naltirish ishlarini amalga oshiradi.

Farmonning eng muhim jihati va ahamiyati shundan iboratki, u ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirish, yangi bosqichga ko'tarish, kelajakda farzandlarimizning yetuk mutaxassis bo'lib etishishiga zamin yaratadi.

Prezidentimiz tabiri bilan aytganda: – “Bugun koʻrib chiqilgan masalalar hammadan, maktab direktoridan boshlab Bosh vazirgacha boʻlgan barcha boʻgʻindagi rahbarlardan yuksak masʼuliyat va yuqori darajadagi javobgarlikni talab qiladi. Bu – yillar davomida koʻrinmaydigan, ammo natijasi yaqin 10-15 yilda butun mamlakat qiyofasini tubdan oʻzgartirishga asos boʻladigan qudratli manba”.

Maʼlumki, mamlakatimiz taʼlim-tarbiya tizimini yana-da takomillashtirish, ilm- fan sohasi rivojini jadallashtirish maqsadida Prezident farmoni loyihasi ishlab chiqildi. Mazkur hujjat regulation.gov.uz portaliga qoʻyilib, barcha hududlarda, mahalliy kengashlarda va maktab jamoalarida ota-onalar ishtirokida keng muhokama qilindi.

Farmon loyihasida taʼlimdagi hozirgi muammolarni hal qiladigan, yaqin besh yilda natijasini koʻrsatadigan va keyingi taraqqiyot darajasini belgilab beradigan maqsadlar qamrab olingan.

Jumladan, jamiyatda muallimning obroʻ-eʼtibori va maqomini koʻtarish,

o‘quv dasturlari va metodikasini to‘liq qayta ko‘rib chiqish, maktabni ta’limning keyingi bosqichlari bilan uzviy bog‘lash, o‘qituvchilarni ortiqcha qog‘ozbozlikdan xalos etib, o‘z ustida ko‘proq ishlashi uchun sharoit yaratish va shuni rag‘batlantirish, maktab infratuzilmasi va undagi ma’naviy muhitni yaxshilash kabi masalalarning yechimlari aniq belgilab berilmoqda.

Eng asosiysi, joylardagi rahbarlarning, shuningdek, mahalliy kengashlarning ushbu muhim masalaga yondashuvi va e’tiborini tubdan o‘zgartirish, ularning mas’uliyati, javobgarligi va hisobdorligi mexanizmlari kiritilmoqda.

Yig‘ilishda ta’lim sohasidagi muammolar, ularni hal etib, ta’lim sifatini oshirishga oid vazifalar muhokama qilindi.

Davlatimiz rahbari avvalo maktablarda o‘quv yuklamasi va darslar sonini qayta ko‘rib chiqish, o‘quvchilarni faqat yodlashga emas, balki fikrlashga chorlaydigan metodika yaratish zarurligini ta’kidladi.

Bu borada Finlyandiya tajribasi misol qilib keltirildi. Ushbu mamlakat umumiy savodxonlik, tabiiy fanlar va matematika bo‘yicha dunyoda eng ilg‘orlardan biri.

– Maktabda o‘qitish metodikasi o‘zgarmasa, ta’lim sifati ham, mazmuni ham, muhit ham o‘zgarmaydi, – dedi Shavkat Mirziyoyev.

Dunyodagi zamonaviy o‘quv dasturlari, o‘qitish metodikalarini o‘rganib, yurtimiz umumta’lim maktablarida joriy qilish muhimligi ta’kidlandi. Xalq ta’limi vazirligiga ushbu tajriba asosida Milliy o‘quv dasturini ishlab chiqib, 2021/2022 o‘quv yilidan boshlab ta’lim jarayoniga sinov tariqasida tatbiq etish vazifasi qo‘yildi.

Yangi metodikani samarali yo‘lga qo‘yish uchun barcha maktab o‘qituvchilari videoaloqa orqali xorijiy mutaxassislar ishtirokida o‘qitiladi. Eng muhimi, bu jarayonlarga pedagogika yo‘nalishidagi universitet va institutlar ham jalb qilinib, pedagog kadrlar tayyorlash metodikasi ham yangilanadi. Shuningdek, matematika, fizika, kimyo, biologiya va informatika fanlari bo‘yicha chet ellardagi ilg‘or darsliklar chuqur o‘rganib chiqiladi.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini

birgalikda barpo etamiz.Toshkent, ―O‘zbekiston¦, 2016 yil, 56 bet.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 sentyabrdagi «Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi PF-5538 sonli Farmoni.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884-son qarori. https://lex.uz/docs/-5085887

VOYAGA YETMAGANLAR TOMONIDAN SODIR ETILADIGAN HUQUQBUZARLIKLARNING PROFILAKTIKASIGA OID XORIJIY TAJRIBA

Axmedova Manzura Avazjon qizi
O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi doktaranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada voyaga yetmaganlar va yoshlar tomonidan sodir etilayotgan huquqbuzarliklarning profilaktikasi, uni oldini olish va bartaraf qilish bo‘yicha bir qator xorijiy davlatlar tajribasi yoritilgan. Bundan tashqari ushbu davlatlardagi yoshlar va voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklarini profilaktikasiga oid ayrim dasturlar va ushbu faoliyat bilan shug’ullanuvchi organlar faoliyatiga e’tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: voyaga yetmaganlar, yoshlar, jinoyatchilik, profilaktika, dastur, politsiya, markaz, voyaga yetmagan politsiyachi

Bugungi kunda voyaga yetmaganlar o‘rtasidagi jinoyatchilikka qarshi kurash muammosi nafaqat bizning mamlakatimizda, balki barcha dunyo mamlakatlarining diqqat markazida bo’lib kelmoqda. Bu holat so‘nggi yillarda bolalar va o‘smirlar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlarning o‘sishi bilan bog‘liqdir.

Yoshlar tomonidan ilk bor ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan huquqbuzarliklar sodir etilishi holatlarini o‘z vaqtida aniqlanishi hamda ular yuzasidan tegishli choralarni ko‘rilishi kelgusida ular tomonidan jinoyat sodir etilishiga qaratilgan maqsadning shakllanishiga ma’lum ma’noda yo‘l qo‘ymaydi. Bularning barchasi davlatimizning va xorijiy huquqni muhofaza qilish organlarining ushbu yo‘nalishdagi muvofiqlashtirilgan maxsus dasturlarni ishlab chiqish borasidagi say’-harakatlarini birlashtirish zarurligini anglatadi.

OAV ma’lumotlariga ko‘ra, 62 davlat hukumati, ya’ni dunyodagi davlatlarning deyarli uchdan biri, o‘z fuqarolarining ijtimoiy tarmoqlarga kirishini bloklaydi yoki boshqa usullar bilan cheklaydi. Ajablanarlisi shundaki, ba’zi hollarda cheklashlar yosh o‘smirlar bilan bog‘liqdir. Masalan, Buyuk Britaniyada so‘nggi olti yil davomida **34 mingdan** ortiq o‘smirlarga qarshi sodir etilgan onlayn-jinoyatlar qayd etilgan bo‘lib, hukumat vakillari kibertahdidlardan bolalarni to‘liq himoya

qilish faqatgina 16 yoshgacha bo‘lganlarga ijtimoiy tarmoqlarga kirishni to‘liq taqiqlash orqali amalga oshirilishi mumkinligini ta’kidlamoqda. Fransiya, Qozog‘iston va AQShning ayrim shtatlarida ijtimoiy platformalarga kirish faqat ota-onalarning majburiy ruxsati bilan joriy etilmoqda.

Bolalar va oilalar uchun internet xavfsizligiga bag‘ishlangan mashhur dastur ISKF rahbarlaridan biri Laynett Ouens ta’kidlaganidek: «Hozir bolalarni internetda aytgan so‘zlari, qilgan harakatlari va ular bilan bo‘lishgan ma’lumotlariga tanqidiy yondashishga o‘rgatish har qachongidan ham muhimroq».

Jahonda kiberxavfsizlik sohasidagi eng xavfli tahdidlar qo‘lbola kiberjinoiy guruhlardan kelib chiqmoqda, deb ogohlantirmoqda Yaponiyaning **“Trend Mikro”** kompaniyasi ekspertlari. Ular internet tahdidlari manbalari va ularga qarshi kurash choralarini ishlab chiqishda faol ishtirok etishadi. Internet orqali tarqatilayotgan va o‘smirlarning psixikasi, dunyoqarashi va mentalitetini vayron qiluvchi zararli kontent jamiyatning milliy manfaatlari uchun yanada katta tahdid solmoqda.

Keyingi vaqtlarda **Amerika Qo‘shma Shtatlarida** balog‘atga yetmagan bolalar jinoyatchiligiga qarshi kurashish qanday usulda amalga oshirilishi kerakligi to‘g‘risida keskin munozaralar bo‘lib o‘tdi. Voyaga yetmaganlarga oid sud tizimi ilk bor 1989 yilda Illinoys shtatida tashkil qilingan. Ularning asosiy vazifasi yosh huquqbuzarlarni qayta tarbiyalashdan iborat bo‘lgan. Keyinchalik bunday sudlar boshqa shtatlarda ham tashkil qilingan. Ta’lim usullariga alohida urg‘u berilishi politsiya huquqlarini cheklash va voyaga yetmaganlarning manfaatlarini himoya qiluvchi qonunlarni qabul qilinishiga olib keldi.

Ko‘pgina mutaxassislar shartli ravishda qamoqdan ozod etilgan voyaga yetmaganlarni nazorat qiluvchi politsiya xodimlarini ko‘paytirish kerakligi to‘g‘risidagi fikrlarni bildiradilar. Qayta tarbiyalashning tarafdorlari esa, ushbu tavsiyalarni qattiq va shafqatsiz deb hisoblaydi. Ular voyaga yetmaganlarni qamoqxonalarda, tergov hibsxonalarida katta yoshdagi jinoyatchilar bilan birga bo‘lishi, takroran jinoyat sodir etilishiga olib kelishi, jinoyatchilikka qarshi kurash va uni oldini olish hamda qayta tarbiyalash borasidagi chora-tadbirlarga salbiy ta’sir qilishi mumkinligini ta’kidlaydilar.

Amerika Qo‘shma Shtatlarida voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklarini oldini olishga doir kompleks profilaktika dasturlari ishlab chiqilgan bo‘lib, ular ikki asosiy turga bo‘lingan holda amalga oshiriladi:

- Voyaga yetmaganlar o‘rtasidagi jinoyatchilikni oldini olish, bosim o‘tkazish, sudlov ta’qib qilish usullarini qo‘llash bo‘yicha keng qamrovli jinoyatchilikni oldini olish yoki nazorat qilish Kompleks dasturlari. Bunday dasturlar: umumdavlat (federal), mintaqaviy va mahalliy miqyosda amalga oshiriladi. Ushbu dasturlar asosan istalgan natijani amalga oshirish uchun jinoyatchilikni oldini olish bo‘yicha maqsadli modelni yaratadi.
- Profilaktika dasturlari politsiya tomonidan (odatda jamoatchilik bilan hamkorlikda) va bevosita jamoatchilikning kuchi va vositalari yordamida amalga oshiriladi. Jinoyatchilikni oldini olish dasturlarining o‘ziga xos xususiyati shundaki, uni aniq muammo va muayyan jinoyat turiga qaratilganligidadir. Bunday hollarda hukumat maqsadli dasturlarni amalga oshirishda mahalliy hokimiyat organlariga konsultativ, moliyaviy, tashkiliy-uslubiy yordam ko‘rsatadi.

Jinoyatchilikni oldini olish dasturlarining asosiy ijrochilari mahalliy politsiya organlari (AQSH politsiya xodimlarining taxminan **70% foizi**) va mahalliy fuqarolar hisoblanadi.

Qo‘shma shtatlarda voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklarining oldini olish bo‘yicha jamoatchilik tomonidan tashkillashtirilgan dasturlar tobora ommalashib bormoqda. Jamoat tashkilotlari jinoyatni sodir etgan voyaga yetmaganlar bilan muayyan muammolarni hal qilish uchun vositalar hamda mablag‘larni topish harakatlarini amalga oshiradilar. Biroq bunday ishlar, jumladan, takroriy sodir etilgan g‘ayriqonuniy harakatlarni oldini olish murakkab jarayon bo‘lib sabr va professionallikni talab etadi.

Xorijiy davlatlarda ko‘plab mutaxassislar (shifokorlar, o‘qituvchilar, psixologlar) voyaga yetmaganlarni ozodlikdan mahrum qilish o‘ta oxirgi chora ekanligini ta’kidlaydilar. Voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklarini oldini olishda ularning xulq-atvori, turmush tarziga faol ta’sir ko‘rsatish va ularning fikrlash

tarziga qarshi turish – ijobiy natijalarni berishi mumkin bo‘lgan yo‘l deb hisoblaydilar.

Germaniya politsiyasining asosiy faoliyat sohalaridan biri voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklarining oldini olish hisoblanadi. Ushbu sohada politsiya faoliyatining asosiy yo‘nalishlari jinoyatchilikni oldini olish Federal Dasturi tomonidan belgilanadi. Dasturni amalga oshirishda politsiya bilan birgalikda turli tashkilotlar ham ishtirok etadi. Dastur federal va mahalliy miqyosda amalga oshiriladi.

Dasturning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

jabrlanuvchilarni o‘g‘rilik, firibgarlik, talonchilik, bosqinchilik va boshqa jinoyatlardan himoya qilish;

fuqarolar, ularning mulklarini himoya qilish, jamoat xavfsizligini mustahkamlashni ta’minlashga qaratilgan tadbirlarni aholi bilan politsiya hamkorligida amalga oshirish;

noqonuniy harakatlar sodir etuvchi omillarni zararsizlantirish.

Dasturni amalga oshirish uchun voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklarining oldini olish bo‘yicha maxsus xizmatlarni tashkil qilinishi kerak bo‘ladi. 90-yillar oxirlarida GFR da 140ga yaqin shunday xizmatlar tashkil etildi.

Germaniyada voyaga yetmaganlar jinoyatchiligini oldini olish va unga qarshi kurashish muammosi bilan shug‘ullanuvchi turli idoralar tashkil etilgan.

Shimoliy Reyn-Vestfaliya hududida barcha yirik politsiya idoralarida giyohvandlik bilan bog‘liq jinoyatlar, jinsiy jinoyatlar, bedarak yo‘qolgan shaxslar ishi, shuningdek, voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan huquqbuzarliklarni tekshirish uchun maxsus komissiya tuziladi. Komissiyalarda odatda voyaga yetmagan aybdor, jabrlanuvchi va guvoh bo‘lgan ishlar ko‘rib chiqiladi.

Baden-Vyurtenberg hududida jinoyatlar bo‘yicha katta bo‘linmalar mavjud bo‘lib, voyaga yetmagan huquqbuzar bolalar bo‘linmalari tashkil etilgan. Boshqa xizmatlarda esa o‘smirlarga tegishli jinoyatlar bo‘yicha ma’sul xodim tayinlangan. Maxsus idoralar va xodimlarning vazifasi voyaga yetmagan shaxslar nafaqat

jinoyatchilar, balki jabrlanuvchi yoki guvohlar sifatida ham ishtirok etgan barcha ishlarni ko‘rib chiqishdan iborat.

Quyi Saksoniya hududida politsiya jinoyatchilikni oldini olish ishlarini ko‘rib chiqishda ijtimoiy xizmat xodimlari bilan yaqin aloqada ishlaydi. Bunday hamkorlik politsiya va tegishli ijtimoiy xizmat xodimlari o‘rtasidagi aniq farqni nazarda tutadi. Jinoyat ishlari bo‘yicha politsiya bo‘linmasi va ayrim politsiya mahkamalarida voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklari bilan bog‘liq masalalarni hal qilish vakolatiga ega bo‘lgan yangi lavozim tashkil qilingan.

Buyuk Britaniyada mahalliy politsiya mamlakatning asosiy politsiya tizimi bo‘lib, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligini oldini olish bo‘yicha javobgar hisoblanadi.

Barcha dasturlar shu jumladan, markaziy davlat tomonidan ishlab chiqilgan dasturlar (Buyuk Britaniya Ichki ishlar vazirligi) mahalliy miqyosda deyarli to‘liq amalga oshiriladi.

Buyuk Britaniyada maktab va politsiya o‘rtasida hamkorlikni mustahkamlash uchun keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshiriladi. Ulardan ko‘zlangan asosiy maqsad fuqarolarni himoya qilish, jamoat tartibini ta’minlash, asosan politsiya harakatlarini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan bo‘lib, yoshlarni tartibni saqlash tamoyillari va vazifalarini tushunishlariga yaqindan yordam beradi.

Har bir maktabda politsiya bilan bog‘lanish uchun mas’ul bo‘lgan o‘qituvchi tayinlanadi, shuningdek, har bir politsiya markazida maktabga mas’ul javobgar bo‘lgan politsiya xodimi tayinlangan.

Xorijiy huquqni muhofaza qilish amaliyotida yoshlarni huquqiy tarbiyalash uchun yangi turdagi politsiyachini tayyorlash kerakligi haqidagi fikrlar shakllandi. U yosh bolalarning do‘sti va murabbiysi, jonkuyar himoyachi, sotsiolog va psixolog xususiyatlarini o‘zida mujassamlashtirib, baquvvat va tadbirkor bo‘lishi kerak.

Yaponiyada Bosh politsiya Boshqarmasi huzurida voyaga yetmaganlar bo‘yicha Markazlar mavjud bo‘lib, ularning vakolatlari voyaga yetmaganlar, ularning ota-onalari, yaqinlariga huquqiy yordam berishdan iborat. Markazlarda “favqulodda yordam telefonlari” o‘rnatilgan. Favqulodda yordam doimiy ravishda

24 soat davomida telefon orqali amalga oshiriladi. Masalan, Tokio shahrida bunday yordam mavjudligi to‘g‘risidagi ma’lumot maktablarga tarqatiladi, telefon orqali yordam so‘rovchilarning ko‘pchiligi voyaga yetmaganlarning ota-onalari, qarindoshlari, yaqinlaridan iboratdir. Markazga ko‘proq voyaga yetmaganlarning ota-onalaridan oilaviy masalalar, maktab ishlari bilan bog‘liq savollar kelib tushadi. Ota-onalardan tibbiy davolanish yoki jinsiy muammolar bilan bog‘liq savollar kelib tushsa, Markaz mutaxassislari ushbu ota-onalarni tegishli xizmat xodimlari bilan bog‘lanishiga yordam beradi.

Har bir Markaz o‘z hududidagi to‘rt yoki besh politsiya uchastkasida xizmat qiladi. Markaz mutaxassislarining asosiy vazifasi voyaga yetmaganlarga huquqiy yordam berish, jinoyatlarni oldini olish hisoblanadi. Shuningdek, Markaz xodimlari qimorxona va boshqa o‘yinlarga tez-tez boradigan voyaga yetmaganlarning monitoringni ham olib boradi. Markaz xodimlari navbatchilikni fuqarolik kiyimida amalga oshiradi.

Markaz xodimlari birinchi navbatda erta tongda ko‘chada yurgan voyaga yetmaganlarni aniqlab ularning maktabda bo‘lishlari kerakligini, darslarga kirmaganlik sabablarini so‘raydi. Ular voyaga yetmaganlar bilan suhbatlashadi va bolalarni maktabga sababsiz bormaganliklari aniqlansa, ularni uylariga olib borib, ota-onasiga topshiradi.

Singapurda **“voyaga yetmagan politsiyachi”** klublari tashkil etilgan. Klublarda tashkilotchilar tomonidan yosh politsiyachilarni sport bilan shug‘ullanishiga, xususan, o‘zini himoya qilish usullarini o‘rganishga taklif qilishadi. Shuningdek, klub tashkilotchilari maktablarda jinoyatlarni oldini olishga qaratilgan afishalar, plakat va videotasvirlar orqali voyaga yetmaganlar o‘rtasida profilaktika ishlarini olib boradi.

Chet davlatlar tajribasi voyaga yetmaganlar o‘rtasidagi jinoyatchilikni oldini olishda politsiyaning o‘rni va roli muhimligini ko‘rsatib turibdi. Ular nafaqat o‘zining politsiya vakolatlarini balki tarbiyaviy ishlarni ham amalga oshiradilar. Ularning vazifalariga yosh bolalar bilan muloqotda bo‘lish, yoshlarni sport bilan shug‘ullanishga qiziqtirish, “politsiya klublari”ga jalb etish, ota-onalari bilan doimiy

ravishda aloqada bo‘lish va h.k. kiradi. Politsiya maktablarda o‘tkaziladigan tadbirlarni nazorat qilish vakolatiga ham ega (masalan, diskotekalarni politsiya rahbarligida o‘tkazish.) Politsiya “ochiq eshiklar” kunlarini tashkil etib, shu kunlarda voyaga yetmaganlarni politsiya uchastkalariga taklif etadi va ularni jinoyatlarni fosh etish, jinoyatlarni oldini olish ishlari bo‘yicha politsiya vazifalarining ayrim jihatlari bilan tanishtiradi.

Chet davlatlarda voyaga yetmaganlar o‘rtasidagi jinoyatlarni oldini olishda asosiy tashkillashtiruvchi hamda muvofiqlashtiruvchi organ bo‘lib, voyaga yetmaganlarning huquqbuzarliklarini va jinoyatlarini ko‘rib chiqish uchun tayinlangan maxsus sudlar hisoblanadi. Ularning vakolatlariga nafaqat voyaga yetmaganlarning ishlarini ko‘rib chiqish balki voyaga yetmaganlarni bo‘sh vaqtlarida nima bilan shug‘ullanishlarini kuzatish, ular bilan suhbatlashish, ota-onalari bilan doimiy ravishda muloqotda bo‘lish ham kiradi.

Xulosa qilib aytganda, samarali tashkil etilgan huquqiy ta’lim-tarbiya tizimi yoshlar huquqiy ongi va madaniyatini shakllantirishning zaruriy vositasi, huquqiy davlatning tayanchidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Allak, Zh., Puasson, M. Corrupt schools, corrupt universities: What can be done? Parizh: Mezhdunarodnyi Institut planirovaniya obrazovaniya YuNESKO, 2014, 365 p. (in Russ.).
2. Denisova E. The Global Challenge of Corruption in Higher Education // IAU Horizons. 2017. № 1. B.
3. https://www.alexandria.unisg.ch/250907/1/Denisova%20de%20Wit%20IAU%20Horizons.pdf
4. Orkodashvili M. “Corruption, Collusion, and Nepotism in Higher Education and the Labor Market in Georgia”, European Education, 2011, p – 32-53.
5. Rose-Ackerman, S. Corruption, Readings in Public Choice and Constitutional Political Economy, New York: Springer, 2008, pp. 551–566.
6. Toward a Prosperous and Inclusive Future : The Second Systematic Country Diagnostic for Uzbekistan : Farovon va Inklyuziv Kelajak Sari : O’zbekiston Mamlakatning Ikkinchi Tizimli Diagnostikasi // https://documents.worldbank.org/en/publication/documents-

reports/documentdetail/099449406152214754/idu0c4d508cd0686d04d500b0440b7819442dbd3

7. Настольная книга инспектора по делам несовершеннолетних: метод. пособие / под ред. С.И. Гирько. — Москва: Объединенная редакция МВД России, 2014. — 768 с

8. О.А. Рыжова Профилактика преступности в среде несовершеннолетних, особенности на примере Пензенской области / О.А. Рыжова, С.С. Мартынова // Электронный научный журнал «Наука. Общество. Государство». — 2017. — Т. 7, № 4 (20). — С. 84–90. — URL: http://esj.pnzgu.ru. — Дата публикации: 30.12.2017

BOLA TARBIYASIGA OID QONUN HUJJATLARINING PEDAGOGIK JIHATLARI

Paxratdinova Ulbolsin Kerimberdiyevna
Nukus davlat pedagogika instituti doktoranti

Kalit so‘zlar: Bola tarbiyasi, qonun hujjatlari, tarbiya masalasi, tarbiyadagi farqlar, oilalar, tarbiya jarayoni.

Ключевые слова: образование ребенка, требования законодательства, проблема образования, различия в воспитании, семьи, воспитательный процесс

Key words: child’s education, legal requirements, educational problem, differences in upbringing, families, educational process

Annotatsiya: *Maqolada mamlakatimizda bolalar tarbiyasiga qaratilgan e’tibor va shu yo‘nalishda qabul qilingan qonun hujjatlari haqida ma’lumotlar keltirilib, farzand tarbiyasining pedagogik jihatlari haqida fikr yuritilgan.*

Аннотация: *В статье дается информация о внимании, уделяемом образованию детей в нашей стране и приятных в этом направлении законах, а также комментируются педагогические аспекты образования детей.*

Annotation: *The article provides information about the attention paid to the education of children in our country and the laws adopted in this direction, and also comments on the pedagogical aspects of children’s education.*

Mamlakatimizda yosh avlod tarbiyasiga alohida e’tibor qaratilib kelinmoqda. So‘zimiz dalili sifatida davlatimiz tomonidan qabul qilingan qator qonun hujjatlarini keltirib o‘tishimiz mumkin. Shu o‘rinda davlatimiz tomonidan qabul qilingan qonun hujjatlariga diqqatimizni qaratishni o‘rinli deb hisoblaymiz: “2008-yil 7-yanvarda “Bola huquqlari kafolatlari to‘g‘risida” O‘RQ-139-son qonuni, 1989-yil 20-noyabrda 54 moddadan iborat Nyu Yorkda “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risidagi Konventsiya”si qabul qilinishi, 2019-yil 22-apreldagi “Bola huquqlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori, “Bola huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4296-son qarori bilan Oliy Majlisning Inson huquqlari bo‘yicha vakili (Ombudsman) o‘rinbosari – Bola huquqlari bo‘yicha vakil lavozimi joriy etilgan.[1]. Bundan tashqari mamlakatimizda “1998-yil Oila yili”, “1999-yil Ayollar yili”, “2000-yil Sog‘lom avlod yili”, “2001-yil Ona va bola yili”, “2008-yil Yoshlar yili”, “2010-yil Barkamol avlod yili”, “2012-yil Mustahkam oila yili”, “2014-yil Sog‘lom bola yili”, “2016-yil

Sog‘lom ona va bola yili”-deb nomlanishi va shunga asosan davlat dasturining ishlab chiqilishi, yurtimizda bolalarga bo‘lgan e’tibor namunasi hisoblanadi.

To‘g‘ri davlatimiz tomonidan qonun hujjatlari qabul qilinishi mumkin, shunga qaramasdan farzand tarbiyasida, bola parvarishida ularni komil insonlar etib tarbiyalash masalalarida muammolar mavjud. Bugun biz maqolamizda, ushbu masalalarga javob izlaymiz.

Farzand oilada kamol topadi. Bola dunyoga kelishi uchun har bir voyaga yetgan erkak va ayol o‘z ixtiyori bilan an’analarimizga sodiq qolgan holda oilani barpo etadi. Shu tabarruk joyda farzand dunyoga keladi. Shu kundan boshlab uni tarbiyalash, ta’lim berish masalasiga e’tibor qaratiladi. Marifatparvar bobomiz Abdullo Avloniy: “Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir”-deya ta’kidlagan edi.[2]. Afsuski, barcha birdek emas, shu sababli oilalar bo‘yicha o‘rganish ishlari davomida sog‘lom muhitli oilalar, nosog‘lom muhitli oilalar, janjalkash oilalar deb oilalar toifalarga bo‘linadi: - sog‘lom muhitli oilaga: ota-onasi tarbiyali, farzandlari tarbiyali, namunali va odobli oilalar kiradi; - nosog‘lom muhitli oilaga: muhit yaxshi bo‘lmagan, farzandlariga e’tibor yaxshi bo‘lmagan, ota yoki onalarning birida muammo bo‘lgan oilalar kiradi; - janjalkash oilaga: o‘z nomidan ma’lumki, sog‘lom muhit hukm surmagan, doimiy janjallar bo‘lib turuvchi, notinch oilalar kiradi.

Nosog‘lom muhitdagi oila, janjalkash oila tushunchalari hozirgi kunda “Noqobil oila” termini bilan ham birdek qo‘llaniladi. Pedagog olim L.Oliferenko sbu haqida shunday deydi: “Noqobil oila – bu shunday oilaki, unda bola noqulaylik, stressli vaziyatlar, zo‘ravonlik, shavqatsizlik, beparvolik, ochlikni bir so‘z bilan aytganda baxtsizlikni boshidan kechiradi. Noqobil oila tushunchasi ostida biz uning turli hil ko‘rinishlarini tushunamiz. Ruhiy (do‘q-po‘pisa, shaxsni ezish, asotsial hayot tarzida yashashga majburlash va h.k.), jismoniy (shavqatsiz jazolash, do‘pposlash, zo‘ravonlik, turli hil usullar bilan pul topishga majburlash, ochlikga mubtalo qilish)”, ijtimoiy (uydan haydab chiqarish, hujjatlarini olib qo‘yish, shantaj va h.k). [3:256].

Yo‘qoridagiday muhitda o‘skan bolalar fikrlashida o‘zgarishlar mavjud bo‘lib, ular jahldor, bemehr, ma’suliyatsiz, urushqoq bo‘lib tarbiyalanadi. Bunday oila farzandlariga o‘z vaqtida ruhiy yordam ko‘rsatilmasa, ularni ko‘ngilsiz kelajak kutishi mumkin. Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev oila va farzand tarbiyasi bo‘yicha quyidagicha fikrlarini bildiradi: “Biz uchun muqaddas bo‘lgan oila asoslarini, yanada mustahkamlash, xonadonlarda tinchlik-xotirjamlik, ahillik va o‘zaro hurmat muhitini yaratish, ma’naviy-ma’rifiy ishlarni aniq mazmun bilan to‘ldirishdan iborat bo‘lmog‘i zarur. Ayollar o‘rtasida jinoyatchilik, oilalarda ajralishlar ko‘paygani, yoshlarning turli diniy-ekstremistik oqimlar va terroristik tashkilotlar ta’siriga

tushishi kabi xalqimizga xos bo‘lmagan achchiq va noxush masalalar bilan bog‘liq”[4].

Farzandlarning sog‘lom muhitda o‘sishida MDH davlatlarida va xorijiy davlatlarda oila masalasiga qay darajada diqqat qilinganligiga e’tiborimizni qaratish, muammoga yechim topishda yordam ko‘rsatadi. Qo‘shni Tojikston Respublikasining Oila kodeksi 1998-yil 13-noyabrda tasdiqlangan. Unda otalik, onalik, bolalarni o‘qitish va tarbiyalash er va xotinning teng huquqliligi tamoyilidan kelib chiqqan holda birgalikda hal etiladi. Er va xotin o‘z munosabatini o‘zaro hurmat asosida ko‘rishi, oilani mustahkamligiga harakat qilishi, o‘z bolalarining barkamolligi haqida g‘amxorlik qilishi lozim deyilgan.[5:476]

Turkmaniston Respublikasida esa, Oila kodeksi 2012-yili 10-yanvarda qabul qilingan. O‘sha kodeksning 50-moddasida er va xotinning teng huquqliligi o‘rnatilgan bo‘lib, unga ko‘ra oila munosabatlarida er va xotin shaxsiy nomulkiy va mulkiy huquq va majburiyatlarga ega bo‘ladilar. Onalik, otalik, bolalarni tarbiyalash va ularni o‘qitish va oila hayotining boshqa masalalari er va xotinning teng huquqliligi tamoyilidan kelib chiqqan holda birgalikda hal etadi-delingan. [5:477].

O‘zbekiston Respublikasida esa, Oila kodeksi 1998-yil 1-sentyabr kuni qabul qilingan. Ushbu kodeksning 4-moddasi “Oilaning, onalik, otalik va bolalikning muhofaza qilinishi” deb nomlanib: “O‘zbekiston Respublikasida oila, onalik, onalik va bolalik davlat himoyasidadir.

O‘zbekiston Respublikasida onalik va otalik izzat-ikromga hamda hurmatga sazovardir.”-deya keltirilgan[6].

O‘zbekiston Respublikasida ham ayollar va balalar huquqlariga oid qonun hujjatlari qabul qilinmoqda. Ammo, ayrim fuqarolar tarafidan davlatimiz tomonidan qabul qilingan qonun hujjatlarini su’istemol qilish yoki o‘z manfaati yo‘lida foydalanishga urunish holatlari ko‘plab uchramoqda. Buni ijtimoiy tarmoqlarda tarqalayotgan tasvirlardan ko‘rishimiz mumkin.

Bolalar tarbiyasi haqida so‘z yuritar ekanmiz, ularni chuqqurroq o‘rganish talab etiladi. Tadqiqotlar jarayonida bolalar, yoshlar to‘liq oilada (ota-onasi bor bo‘lgan), noto‘liq oila (ota yoki onasidan biri bo‘lmagan oila), bobo va buvi qo‘lida tarbiyalangan bolalar, amaki, hola, kelinoyi va boshqalar qo‘lida tarbiyalangan bolalar, “Bolalar uylari”, “Mexribonlik uylari”, “Oilaviy bolalar uylarida” tarbiyalangan bolalar guruhi bilan ishlarni tashkil etdik. Ushbu guruhlarga ajratilgan bolalarning tarbiyalari bir-biridan tubdan farq qiladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz joizki, yurtimizda har bir bola davlatimiz himoyasida. Ularga munosib turmush sharoyitini yaratish yo‘lida islohatlar amalga oshirilmoqda. Kelajak avlod tarbiyasiga oid qonun hujjatlari bilan bog‘liq quyidagicha takliflarni bildirib o‘tishni o‘rinli deb hisoblayman:

Birinchidan, oilalar sog‘lom muhitta hayot kechirishlari uchun mahalla faollari ishtirokida o‘rganish ishlarini amalga oshirish;

Ikkinchidan, davlatimiz tomonidan xotin-qizlar, bolallar, oila masalalariga oid qabul qilingan qonun hujjatlari bo‘yicha ma’lumotlar berish maqsadida targ‘ibot guruhlarini tashkil etish;

Uchinchidan, yuridik, huquqiy yo‘nalishda ta’lim oluvchi volontyorlar tomonidan mahallalarda seminar-treninglar tashkil etish ijobiy natijasini ko‘rsatadi-deb hisoblaymiz. Shunga qaramasdan, har bir bolaga individual yondashish, ularning komil insonlar bo‘lib ulg‘ayishiga hissa qo‘shish har bir pedagog oldiga qo‘yilgan muhim vazifa bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. www.lex.uz
2. www.hikmatlar.uz
3. Л.Я.Олиференко., Социально-педагогическая поддержка детей группы риска: учеб.пособъе / Л.Я.Олиференко [и др.]. – М: Академия, 2002, -256 стр.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev nutqlari. www.yuz.uz
5. М.Б.Усманов., М.Х.Рустамбаев., “Аёл ҳуқуқи”. Ўқув қўлланма. Тошкент -2022.
6. www.lex.uz O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksi haqida ma’lumot.

VOYAGA YETMAGANLAR TOMONIDAN JINOYAT SODIR ETILISHINING SABABLARINI O‘RGANISHDA “XAVFSIZ TA’LIM” KONSEPSIYASINING AHAMIYATI

Valiboyev Izzatbek To‘xtasin o‘g‘li
Jamoat xavfsizligi universiteti magistratura talabasi.
e-mail: izzatbekvaliboyev22@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada voyaga yetmaganlar tomonidan jinoyat sodir etilishining asosiy sabablarini o‘rganishda “Xavfsiz ta’lim” konsepsiyasining ahamiyati tahlil qilinadi. Jinoyatchilikning oldini olishda ta’lim tizimining roli, huquqiy savodxonlikni oshirish, ijtimoiy muhitni yaxshilash va psixologik qo‘llab-quvvatlash kabi omillar muhim ahamiyat kasb etishi ilmiy asosda ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, yoshlarning huquqiy ongini shakllantirish, salbiy tashqi ta’sirlardan himoya qilish hamda ta’lim va huquq-tartibot idoralari o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish zarurati yoritiladi. Maqolada xavfsiz ta’lim tamoyillarini tatbiq etish orqali voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olishga doir taklif va tavsiyalar ilgari suriladi.

Kalit so‘zlar: xavfsiz ta’lim, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi, huquqiy savodxonlik, ijtimoiy muhit, ta’lim tizimi, profilaktika choralari.

Аннотация. В данной статье анализируется значение концепции "Безопасное образование" в изучении основных причин совершения преступлений несовершеннолетними. На научной основе рассматриваются такие факторы, как роль системы образования в предупреждении преступности, повышение правовой грамотности, улучшение социальной среды и психологическая поддержка. Также освещается необходимость формирования правового сознания молодежи, защиты от негативных внешних воздействий и укрепления сотрудничества между образовательными и правоохранительными органами. В статье выдвигаются предложения и рекомендации по предотвращению преступности среди несовершеннолетних путем внедрения принципов безопасного образования.

Ключевые слова: безопасное образование, преступность несовершеннолетних, правовая грамотность, социальная среда, система образования, профилактические меры.

Abstract. This article analyzes the significance of the "Safe Education" concept in studying the main causes of juvenile delinquency. Such factors as the role of the education system in crime prevention, increasing legal literacy, improving the social environment, and psychological support are considered on a scientific basis. It also highlights the need to form legal awareness among young people, protect them from negative external influences, and strengthen cooperation between education and law enforcement agencies. The article puts forward proposals and recommendations for preventing juvenile delinquency through the implementation of the principles of safe education.

Keywords: safe education, juvenile delinquency, legal literacy, social environment, education system, preventive measures

Kirish. Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi zamonaviy jamiyatning dolzarb muammolaridan biri bo‘lib, uning oldini olishda ta’lim tizimining roli katta ahamiyat kasb etadi. Yoshlar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlar nafaqat ularning kelajagiga, balki umuman jamiyat barqarorligiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli, jinoyatchilikning ildiz sabablarini o‘rganish, uni bartaraf etishning samarali usullarini ishlab chiqish va profilaktik chora-tadbirlarni[1] kuchaytirish muhim vazifalardan biri sanaladi. Mazkur tadqiqotda voyaga yetmaganlar tomonidan jinoyat sodir etilishining sabablarini o‘rganishda “Xavfsiz ta’lim” konsepsiyasining ahamiyati tahlil qilinadi. “Xavfsiz ta’lim” konsepsiyasi yoshlarning huquqiy madaniyatini shakllantirish, ularga sog‘lom tarbiya berish, ijtimoiy muhitning salbiy ta’siridan himoya qilish va psixologik qo‘llab-quvvatlashni ta’minlash kabi tamoyillarga asoslanadi. Ushbu yondashuv voyaga yetmaganlar o‘rtasida jinoyatchilik darajasini pasaytirish hamda ularning huquqiy ongini oshirish

[1] ISSN: 2181-1784 Sattorova Muharram Abdurazzoqovna Toshkent shahar yuridik texnikumi jinoiy-huquqiy fanlar kafedrasi mudiri “VOYAGA YETMAGANLAR JINOYATCHILIGINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI” ISSUE 11,Volume 2, November 2022 https://cyberleninka.ru/article/n/voyaga-yetmaganlar-jinoyatchiligining-o-ziga-xos-xususiyatlari/viewer

imkoniyatini beradi. Voyaga yetmaganlar tomonidan jinoyat sodir etilishining oldini olishda “Xavfsiz ta’lim” konsepsiyasining ahamiyatini o‘rganish natijalari shuni ko‘rsatadiki, ta’lim tizimi faqat bilim berish vositasi emas, balki yoshlarni ijtimoiy hayotga tayyorlash, ularning huquqiy ongini shakllantirish va axloqiy qadriyatlarini mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi.

Shuningdek voyaga yetmagan shaxslarning ta’lim olishlari, mehnat qilishlari va sog‘lom muhitda hayot kechirishlari uchun imkoniyatlar taqdim etish davlatning asosiy vazifasi ekanligi ko‘zda tutilgan. Bundan tashqari O‘zbekiston Respublikasi jinoyat kodeksining umumiy qismida voyaga yetmaganlarga nisbatan javobgarlik choralari belgilangan bo‘lib, adolatlilik prinsipi bo‘yicha voyaga yetmagan shaxslar tomonidan ham sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmish uchun jinoiy-javobgarlikka tortilishi nazarda tutilgan.[1] So‘ngi yillarda voyaga yetmagan shaxslar tomonidan jinoyat sodir etilishi ortib bormoqda. Bunga asosiy sabab sifatida yoshlarni foydali mashg‘ulotlarga jalb etmaslik, ularning bo‘sh vaqtlari ko‘proqligi va har qanday jinoyatga jazo muqarrarligi haqida huquqiy bilimlarga ega emasliklari sabab bo‘lishi mumkin.[1] Yurtboshimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev raisligida 2024-yil 28-iyun kuni yoshlar siyosati sohasidagi ishlar sarhisobi, yangi vazifa va takliflar muhokamasiga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishida yoshlar haqida quyidagi jumlani aytib o‘tdilar. “Yoshlarimiz hayotda[2] munosib o‘rnini topishi uchun bundan keyin ham bor kuch va imkoniyatlarni to‘liq ishga solamiz. Sizlar mamlakatimizning ishonchi va tayanchi, kelajagimiz bunyodkorlarisiz”.[1]

Muhokama va natijalar Ma’lumki, har bir davlatning rivojlanishdagi va uni himoya qilishda asosiy manbai bo‘ladi. Ushbu vosita qaysidir davlat uchun neft, oltin, turizm obyektlari va tabiiy resurslar hisoblanadi. Lekin, bizning yurt uchun o‘sib kelayotgan navqiron yosh-avlod millatning rivojlanishdagi hamda uni himoya qilishda asosiy manba ekanligi hammamizga ma’lumdir. Moziydan ko‘rinadiki, har bir ijtimoiy guruh uchun qabila yoki xalq bo‘lsin uni mavjud, kuchli va ziyoli sifatida

[1] © 2024 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti https://president.uz/oz

shakllantirishda jamiyatning sog‘lom jasur yosh qatlami muhim o‘rin tutadi. Shuningdek, hozirgi kunda mamlakatimiz tomonidan yoshlarni aqlan, jismonan va intellektual rivojlanishlari uchun ko‘plab islohotlar amalga oshirilayotgani hamda bu bo‘yicha tegishli normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqarilayotgani bejizga emasdir. Mazkur harakatlarning asosiy maqsadi yoshlarni turli xil yod g‘oyalardan asrash, har xil buzg‘unchilik va tartibsizlikni keltirib chiqarishga asoslangan guruhlar domiga tushib qolishdan asrash, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining sabab mohiyatini barvaqt aniqlash kelgusida sodir etiladigan ijtimoiy qilmishlarni oldini olish va yoshlarni sog‘lom tarzda hayot kechirishlarini ta’minlash hisoblanadi.Yoshlarga yaratib berilayotgan barcha shart-sharoitlardan besamar foydalanish natijasida turli xil ko‘ngilsiz holatlar ro‘y berayotgani xususan voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oshib borayotgani aniqlanmoqda.

Ta’kidlash joizki, Voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlarning miqdori so‘ngi vaqtlarda ortib borayotgani kishini taajjubga solmoqda. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekistonda 2023-yilda 3600 nafar voyaga yetmagan shaxslar jinoyat sodir etgan. Mazkur ko‘rsatkich, oldingi besh yil[1] davomidagi sodir etilgan jinoyatlar ko‘rsatkichidan 4.4 barobarga oshganini ko‘rsatmoqda. Yil davomida voyaga yetmaganlar tomonidan tovlamachilik 70%, bezorilik 60%, qasddan badanga og‘ir shikast yetkazish 40%, nomusga tegish va odam o‘ldirishga urinish jinoyatlari 20% ko‘paygani aniqlangan. Jinoyat sodir etgan voyaga yetmaganlar eng ko‘p 700 nafari Farg‘ona viloyatiga to‘g‘ri kelgan. Keyingi o‘rinlarda, Toshkent shahri – 545, Namangan viloyati – 451, va Toshkent viloyati – 345 kishi. Eng past ko‘rsatkichlar Jizzax – 54, Navoiy – 62, va Xorazm – 66 nafar voyaga yetmagan shaxs qayd etilgan.[1]

Yangi tahrirda qabul qilingan konstitutsiyamizda bola huquqlari to‘laqonli amalga oshirilishi va bolani har qanday sharoitda davlat tomonidan muhofaza qilinishi mustahkamlangan. Ushbu oliy yuridik normativ- huquqiy hujjatning 77-moddasida ota-onalar tomonidan o‘z farzandlarini voyaga yetguniga qadar

[1] O’zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi info@stat.uz https://www.stat.uz/uz/

g‘amxo‘rlik qilishlari, asrab-avaylashlari, sog‘lom muhitda kamol topishi uchun zaruriy harakatlarni amalga oshirishlari nazarda tutilgan bo‘lib ota-onalarga nisbatan bolani voyaga yetish yoshiga qadar ulg‘aytirishi hamda rivojlanishi uchun imkoniyatlar yaratib berishi ko‘zda tutilgan. Mazkur moddaning ikkinchi qismida davlat va jamiyat birgalikda yetim bolalarni hamda ota-onasining vasiyligidan mahrum bo‘lgan bolalarni ulg‘aytirishi, tarbiyalashi, ularning ta’lim olishi va har tomonlama sog‘lom kamol topishlari uchun chora-tadbirlar amalga oshirishi va ushbu harakatlar davlat tomonidan ta’minlanishi belgilangan. Shu bilan birga, yangilangan konstitutsiyaning 78-moddasida farzandlar ota-onasining nasl-nasabi va fuqarolik holatidan qat’i nazar, qonun oldida teng hisoblanishlari, bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash hamda himoya qilish davlatning majburiyati ekanligi belgilangan.Shu bilan birga onalik, otalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinishi va davlat hamda jamiyat bolalarda vatanga bo‘lgan muhabbatni shakllantirish[1] vatanparvarlik tuyg‘ularini yuksaltirish bo‘yicha harakat olib borishi nazarda tutilgan.

Yuqorida muhokama qilib o‘tgan konstitutsiyamizda belgilangan qoidalardan tushunishimiz mumkinki, ot-onalar o‘z farzandlarini sog‘lom hayot tarzida ulg‘aytirishlari, voyaga yetguniga qadar boqishlari va vataniga xizmat qiladigan sadoqatli farzand shakllantirishlari ota-onalarning majburiyati ekanligi tushuniladi.Shuningdek, ota-onalar tomonidan mazkur majburiyatlar to‘laqonli bajarilmagan taqdirda turli xil ko‘ngilsiz holatlar sodir bo‘lishi mumkin. Misol tariqasida; ota-onalar farzandlariga birgalikda e’tibor qaratmasalar, axloq nuqtayi nazaridan jamiyatga zarar yetkazuvchi shaxs yuzaga kelishiga va oila nomiga salbiy fikrlar olib kelishiga sabab bo‘ladi. Mamlakatimizda voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlarning asl sababi ham oilada e’tiborning kamligi, yetarlicha nazorat o‘rnatilmaganligi va oilada halovatning yo‘qligidan dalolat beradi. Voyaga

[1] © 2024 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti https://president.uz/oz
[2] http://lex.uz//docs/-6445145 O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi

yetmagan yoshlar tomonidan ijtimoiy xavfli qilmishlar sodir etilishi kishini taajjubga soladi.

Shuningdek, voyaga yetmagan shaxslarning jinoiy javobgarligi va ularga nisbatan jazo choralarini qo‘llanilishi jinoyat qonunchiligining ahamiyati yuqori ekanligini ko‘rsatadi. Qolaversa, mazkur javobgarlik belgilovchi huquqiy normalar adolat, insonparvarlik, qonuniylik va bu kabi boshqa prinsiplar harakatga kelishiga huquqiy asos bo‘ladi. Bundan tashqari, voyaga yetmaganlarning ruhiy holatini va ularda ta’sirchanlik hamda taqlidchilik xususiyati yuqori bo‘lganligini hisobga olib, ularga nisbatan yengilroq turdagi jazo choralarini qo‘llanilishi jinoiy jazo maqsadlariga erishish imkonini berishi ko‘zda tutilgan. Har bir jinoyat o‘zining ijtimoiy xavflilik darajasi, sodir etish vaqti va uslubi hamda sharoiti bilan qolgan[1] jinoyat turlaridan farq qiladi. Jinoyat qonunchiligiga ko‘ra, 14 yoshga to‘lgan aqli raso shaxs voyaga yetmagan hisoblanadi. Voyaga yetmagan shaxs hisoblanishi uchun 18 yoshga to‘lmagan bo‘lishi kerak.[1] Jinoyat kodeksining 17-moddasiga muvofiq, jinoiy huquqiy munosabatlarda ishtirok etganlik uchun javobgarlik masalasining qo‘llanilishi umumiy subyekt yoshi sifatida 16 yoshga to‘lgan aqli raso shaxslarga tatbiq etilishi nazarda tutilgan. Mazkur normativ huquqiy hujjatga muvofiq, ayrim jinoyat turlari uchun subyekt yoshi 14 yosh etib belgilangan. Masalan: qasddan odam o‘ldirish (JK 97-m 1-q), qasddan badanga og‘ir shikast yetkazish (JK 104-moddasi), qasddan badanga o‘rtacha og‘ir shikast yetkazish (JK 105-m), nomusga tegish (JK 118-m), bosqinchilik (JK 164-m), tovlamachilik (JK 165-m), talonchilik (JK 166-m), firibgarlik (JK 168-m), o‘g‘irlik (JK 169-m), bezorilik (JK 277-m.2-,3-q.)[1]

Ushbu statistik ma’lumotlar orqali jamiyatdagi barcha insonlar voyaga yetmagan yoshlarni jinoyat sodir etishdan qaytarishni, har bir jinoyat natijasida kelib chiqadigan huquqiy oqibatlar va jinoyatga jazo muqarrarligi haqida muntazam

[1]ISSN: 2181-1784 Sattorova Muharram Abdurazzoqovna Toshkent shahar yuridik texnikumi jinoiy-huquqiy fanlar kafedrasi mudiri “VOYAGA YETMAGANLAR JINOYATCHILIGINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI” ISSUE 11,Volume 2, November 2022 https://cyberleninka.ru/article/n/voyaga-yetmaganlar-jinoyatchiligining-o-ziga-xos-xususiyatlari/viewer

ravishda fuqarolarga asosan yoshlarga ma’lumotlar berib borilishi lozim hisoblanadi. Rivojlangan texnologiyalar yordamida jinoyatning salbiy taraflari to‘g‘risida videorolik ishlab chiqilishi va ommaviy axborot vositalarida doimiy suratda ko‘rsatib turilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Mazkur harakatlar natijasi asosan maktabgacha hamda boshlang‘ich ta’lim darajasidagi bolalarda samarali namoyon bo‘ladi. Buning sababi sifatida, ushbu darajadagi bolalarda chuqur tafakkur xususiyatlari yuqori bo‘ladi. Bu o‘z navbatida yoshlarda jinoyatning salbiy taraflari hamda uning oqibatlari haqida tushunchalar ertaroq shakllanishiga olib keladi.[1]

Qolaversa, bosh qomusimizning 80-moddasida voyaga yetgan mehnatga layoqatli farzandlar ota-onalariga g‘amxo‘rlik qilishga majburliklari belgilangan bo‘lib, farzandlar voyaga yetganlarida moliyaviy va ijtimoiy salohiyatga ega bo‘lgan vaqtda o‘zlarining ota-onalariga mehr-muruvvat ko‘rsatishlari lozimligini ta’kidlaydi.

Xulosa. Yuqoridagilarga asoslanib umumiy xulosa qiladigan bo‘lsak, Voyaga yetmaganlar tomonidan jinoyat sodir etilishining sabablari turli omillarga bog‘liq bo‘lib, ularni chuqur o‘rganish va oldini olishda “Xavfsiz ta’lim” konsepsiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu konsepsiya yoshlarning huquqiy ongi va axloqiy tarbiyasini shakllantirishga, ularni ijtimoiy muhitga moslashtirishga, jinoyat sodir etish ehtimolini kamaytirishga xizmat qiladi. yangi tahrirda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida voyaga yetmagan shaxslarning huquqlari, erkinliklari va daxlsizliklari nazarda tutilgan bo‘lib, davlat tomonidan muhofaza etiladi. Voyaga yetmaganlar tomonidan jinoyat sodir etilishining oldini olish zamonaviy jamiyat oldida turgan muhim masalalardan biridir. Ushbu muammoni hal etishda ta’lim tizimining roli beqiyos bo‘lib, aynan “Xavfsiz ta’lim”

[1] ISSN: 2181-1784 Sattorova Muharram Abdurazzoqovna Toshkent shahar yuridik texnikumi jinoiy-huquqiy fanlar kafedrasi mudiri “VOYAGA YETMAGANLAR JINOYATCHILIGINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI” ISSUE 11,Volume 2, November 2022 https://cyberleninka.ru/article/n/voyaga-yetmaganlar-jinoyatchiligining-o-ziga-xos-xususiyatlari/viewer

2 O’zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi info@stat.uz https://www.stat.uz/uz/

konsepsiyasi yoshlarning huquqiy madaniyatini shakllantirish, ijtimoiy va psixologik qo‘llab-quvvatlash, ta’lim muassasalarida xavfsiz muhit yaratish orqali jinoyatchilik darajasini kamaytirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot davomida voyaga yetmaganlarning jinoyatchilikka moyillik ko‘rsatishiga sabab bo‘luvchi omillar — oilaviy muammolar, ta’lim tizimidagi kamchiliklar, ijtimoiy muhitning salbiy ta’siri hamda internet va ommaviy axborot vositalarining roli tahlil qilindi. Ushbu omillarning oldini olish uchun ta’lim jarayonida huquqiy tarbiyani kuchaytirish, psixologik xizmatlarni rivojlantirish, ota-onalar bilan hamkorlikni oshirish hamda yoshlarni foydali ijtimoiy faoliyatlarga jalb etish zarurligi ta’kidlandi. Natijalarga ko‘ra, “Xavfsiz ta’lim” konsepsiyasini keng joriy etish” yoshlar o‘rtasida jinoyatchilikni kamaytirishning samarali vositalaridan biri bo‘lib, u kompleks yondashuvni talab qiladi. Ushbu konsepsiyani amaliyotga tatbiq etish orqali ta’lim muassasalari, huquq-tartibot idoralari va oilalar o‘zaro hamkorlikda yoshlarning jinoyatchilikka aralashishining oldini olishlari mumkin. Shu bois, xavfsiz ta’lim muhitini shakllantirish jamiyat barqarorligi va kelajak avlodning sog‘lom rivojlanishi uchun strategik ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti
3. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi info@stat.uz
4. ISSN: 2181-1784 Sattorova Muharram Abdurazzoqovna Toshkent shahar yuridik texnikumi jinoiy-huquqiy fanlar kafedrasi mudiri “VOYAGA YETMAGANLAR JINOYATCHILIGINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI” ISSUE 11,Volume 2, November 2022
5. http://lex.uz//docs/-6445145
6. https://president.uz/oz
7. info@stat.uz https://www.stat.uz/uz/
8. https://cyberleninka.ru/article/n/voyaga-yetmaganlar-jinoyatchiligining-o-ziga-xos-xususiyatlari/viewer

HAR KIM TA’LIM OLISh HUQUQIGA EGA

Alisher Raximberdievich Yusupov
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti dotsenti, t.f.n., dots.
Email: *alisher.yusupov* 1404@mail.ru
ORCID: 0000-0002-6775-0784

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda ilm-fan va ta’lim-tarbiya sohasini davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylantirishga qaratilgan, oilada farzand tug‘ilganidan boshlab, kamolot yoshiga yetgunga qadar uni har tomonlama qo‘llab-quvvatlaydigan, hayotda munosib o‘rin topishiga xizmat qiladigan yaxlit va uzluksiz tizim yaratildi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham ta’lim-tarbiya masalalariga alohida ustuvorlik berilgani barchamiz uchun quvonarli. Masalan, bosh qomusimizning qator moddalarida ta’lim siyosatiga alohida e’tibor qaratish, pedagoglarning kasbiy faoliyatini tubdan isloh qilish, davlat va nodavlat ta’lim tashkilotlari vazifasini muvofiqlashtirish bilan bog‘liq ayrim o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi. Kostitutsiyaning 50-moddasi “Har kim ta’lim olish huquqiga ega. Davlat uzluksiz ta’lim tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta’lim tashkilotlari rivojlanishini ta’minlaydi. Davlat maktabgacha ta’lim va tarbiyani rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratadi. Davlat bepul umumiy o‘rta ta’lim va boshlang‘ich professional ta’lim olishni kafolatlaydi. Umumiy o‘rta ta’lim majburiydir. Maktabgacha ta’lim va tarbiya, umumiy o‘rta ta’lim davlat nazoratidadir. Ta’lim tashkilotlarida alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan bolalar uchun inklyuziv ta’lim va tarbiya ta’minlanadi.” Ushbu modda O‘zbekiston fuqarosi ta’lim olishi, yoshlarga uzluksiz ta’lim berish jarayoni bo‘yicha aniq majburiyatlarni yuklaydi. Insonlarga ta’lim berish har qanday holatda davlat tomonidan kafolatlanadi. Jumladan, farzandlarimizga ta’lim beradigan nodavlat muassasalar ham davlat tomonidan himoya ostiga olinishi belgilab qo‘yildi. Konstitutsiyamizning 50-moddasida qayd etilganidek, Davlat uzluksiz ta’lim tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta’lim tashkilotlari rivojlanishini ta’minlaydi. Davlat maktabgacha ta’lim tarbiyani rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratishi qat’iy ko‘rsatilgan. Davlat ta’limni o‘z kafolatiga olar ekan, inklyuziv o‘qishni ham chetda qoldirmadi. Bilamiz, inklyuziv ta’lim – bu nogironligi bo‘lgan shaxslarga dars berish

shakllari. O‘qitishning ushbu turi endi davlat kafolatiga o‘tdi. Bosh qomusimizning 50-moddasida inklyuziv ta’lim bevosita ko‘rsatib o‘tilgan bo‘lib, unda nogironligi bo‘lgan yoki biron bir nuqsoni bor insonlar har qanday holatda sog‘lom fuqarolar bilan teng ta’lim olish huquqiga egaligi belgilangan.

Shuningdek, Konstitutsiyaning 51-moddasida fuqarolar davlat ta’lim tashkilotlarida tanlov asosida davlat hisobidan oliy ma’lumot olishga haqli deyilgan. Oliy ta’lim tashkilotlari qonunga muvofiq akademik erkinlik, o‘zini o‘zi boshqarish, tadqiqotlar o‘tkazish va o‘qitish erkinligi huquqiga ega. Darhaqiqat, yurtimizda oliy ta’lim tizimi tubdan isloh qilinmoqda. Jumladan, nodavlat oliy ta’lim muassasalari ochilmoqda, xorijiy universitetlar filiallari soni ortmoqda, olis hududlarda ham universitet filiallari tashkil etilmoqda. Bugungi kunda 41 ta oliy o‘quv yurtlariga akademik va moliyaviy mustaqillik berilgan. Akademik erkinlik o‘quv jarayonini mustaqil shakllantirish, dars o‘tish erkinligi, ilmiy-tadqiqot mavzularini mustaqil tanlash va tadqiq etish, uning natijalarini nashr etish va tarqatish, professor-o‘qituvchilar hamda ilmiy xodimlar akademik erkinligi cheklanmasligida namoyon bo‘ladi. Konstitutsiyaga ushbu normaning kiritilishi oliy o‘quv yurti va ilmiy-tadqiqot tashkilotlarining ta’lim va ilmiy-tadqiqot faoliyati rivojlanishiga, professor-o‘qituvchilar va talabalarning o‘quv jarayonidagi mustaqilligini ta’minlashga, ushbu sohaga tashqi aralashuvni cheklashga xizmat qiladi.

Ta’lim tizimida, jumladan, oliy ta’limda amalga oshiriladigan islohotlar huquqiy, iqtisodiy va ma’naviy jihatdan katta ahamiyatga ega. Mazkur islohotlar ta’lim tizimini rivojlantirish, pedagoglarning malakasi va jamiyatdagi nufuzini oshirish, yosh avlod ma’naviyatini yuksaltirish, ma’naviy-ma’rifiy muhitni zamon talabiga moslash, o‘qituvchi kasbining, nufuzini oshirish, yangi davr pedagoglarini tarbiyalash, pedagogika fanini rivojlantirish, innovatsion ta’lim va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta’limga joriy etishga katta e’tibor qaratish masalalariga jiddiy yondashishni ta’minlaydi. Shuningdek, aholining keng qatlamlarini oliy ta’lim bilan qamrab olish masalasi Prezidentimiz tomonidan Birlashgan Millatlar tashkiloti minbarida ham ko‘tarilgan va 2030 yilgacha O‘zbekistonda 50% yosh aholini oliy ma’lumotga ega bo‘lishi rejalashtirilgan.

Ta’lim muassasalarini ilg‘or xorijiy davlatlar va milliy qadriyatlarimiz asosida zamonaviy ma’no-mazmun, ilm-ma’rifat, tarbiya maskaniga aylantirishni eng muhim ustuvor vazifa sifatida qo‘yilishi tahliliy fikrlaydigan, mustaqil fikri va dunyoqarashiga ega bo‘lgan, zamonaviy global mehnat bozorida raqobatbardosh bo‘lgan intellektual bilimga ega inson omilini shakllantirishga xizmat qiladi.

Ushbu modda oliy ta’lim islohotlarining mahsuli sifatida mamlakatimizda oliy ma’lumot olmoqchi bo‘lgan har qanday fuqaro uchun imkoniyatlar eshigini ochdi.

Xulosa qilib aytganda, yoshidan qat’i nazar, oliy ma’lumotni kunduzgi, kechki va sirtqi ta’lim shaklida olishga sharoit yaratildi. Ya’ni mamlakatimizning har bir fuqarosi yoshi, millati va elatidan qat’i nazar, o‘zining Konstitutsion huquqlaridan to‘liq foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2023. – 50,51-moddalar.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020 yil 29 dekabrdagi Oliy Majlisga murojaatnomasi // www.president.uz.

4. Mirziyoev. Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – Toshkent: «O‘zbekiston» NMIU, 2018. – 592 b.

5. Mirziyoev. Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. – Toshkent: «O‘zbekiston» NMIU, 2018. – 508 b.

6. Mirziyoev. Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. – Toshkent: «O‘zbekiston» NMIU, 2019. – 400 b.

Internet saytlari

1. www.lex.uz
2. www.ziyonet.uz
3. www.president.uz
4. www.milliygvardiya.uz
5. www.iiv.uz

JADIDLARNING TA’LIM SIFATINI OSHIRISHDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI

Yuldashev Farrux Mahmudjon o‘gli.
Namangan shahar Qo‘riqlash bo‘limi 2-otryad 4-guruh komandiri

Annotatsiya

Mazkur tezisda jadidlarning ta’lim islohotlariga qo‘shgan hissasi, ularning g‘oyalari va zamonaviy ta’lim tizimiga ta’siri tahlil qilinadi. Xususan, Munavvar qori Abdurashidxonov, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Cho‘lpon va Fitrat kabi jadidlarning ilmiy-ma’rifiy faoliyati hamda ayollar ta’limini rivojlantirish yo‘lidagi sa’y-harakatlari yoritiladi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning jadidlar merosini qayta tiklash va ta’lim tizimini takomillashtirish bo‘yicha fikrlari tahlil qilinib, bugungi ta’lim sifatini oshirishda jadidlar tajribasidan foydalanish yo‘llari taklif etiladi.

Kalit so‘zlar

Jadidchilik, ta’lim islohoti, milliy o‘zlik, ma’rifat, ayollar ta’limi, Prezident fikrlari, zamonaviy ta’lim.

O‘zbekistonning milliy taraqqiyotida ta’lim sifatini oshirish masalasi dolzarb bo‘lib, bu borada jadidlar harakati muhim tajriba manbai hisoblanadi. XX asr boshlarida jadidlar eski maktab va madrasalarning kamchiliklarini tanqid qilgan holda, yangi usul maktablarini tashkil etdilar. Ularning asosiy maqsadi – millatni ilmli, savodli va taraqqiy etgan xalqqa aylantirish edi. Bugungi kunda yurtboshimiz Shavkat Mirzoyoyev ham jadidlarning ma`rifatparvarlik g‘oyalarini yuqori baholab, ta`lim tizimining isloh qilinishi lozimligini ta`kidlaydi. “Jadidlar- bizning milliy faxrimiz, ularning orzulari bugungi O‘zbekiston taraqqiyotida o‘z aksini topmoqda”,- deya qayd etgan edi davlatimiz rahbari. Shu bois jadidlarning ta`lim sohasidagi ilg‘or tajribalarini o‘rganish va amaliyotga joriy etish zamonaviy ta`lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Jadidlar ta’limni millatning kelajagi deb bilgan. Mahmudxo‘ja Behbudiy: “Dunyo taraqqiy etar ekan, savodsiz millat o‘z o‘rnini yo‘qotadi”, – degan edi. Ularning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat edi:

- Diniy va dunyoviy bilimlarni uyg‘unlashtirish;

- O‘quv dasturlarini zamonaviy fanlar bilan boyitish;

- Ta’lim tizimida insonparvarlik va vatanparvarlik g‘oyalarini singdirish.

Ayollar ta’limini rivojlantirishdagi sa’y-harakatlar

Jadidlar ayollarni o‘qitish tarafdori edilar. Behbudiy “Ayol tarbiyachidir, u o‘qimishli bo‘lsa, jamiyat ham ilmli bo‘ladi”, – deb yozgan.

- Munavvar qori – ayollar uchun maxsus maktab tashkil qilgan.

- Avloniy – “Turkiy Guliston yoxud axloq” asarida ayollarning ma’naviy tarbiyasiga alohida urg‘u bergan.

- Fitrat – “Oila” risolasida ayollarning ilm olishi zarurligini ta’kidlagan.

Zamonaviy ta’lim va jadidlar tajribasining ahamiyati

Bugungi ta’lim tizimida jadidlarning ilg‘or tajribalaridan foydalanish dolzarb masala hisoblanadi. Masalan, yangi o‘quv dasturlarini ishlab chiqishda:

- Ta’lim mazmunini amaliyotga yo‘naltirish;

- Tarixiy meros va milliy qadriyatlarni o‘quv dasturlariga kiritish;

- O‘qituvchilarning kasbiy saviyasini oshirish – jadidlar maktablarida bu eng muhim tamoyillardan biri bo‘lgan.

Yurtboshimiz jadidlarning ilg‘or g‘oyalariga tayanib, ta’lim sohasida keng ko‘lamli islohotlarni amalga oshirmoqdalar. Ushbu islohotlar zamonaviy bilimlarni joriy etish, o‘quv dasturlarini yangilash, pedagogik inovatsiyalarni rivojlantirish va yoshlarning milliy g‘ururini shakllantirish kabi yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi. Hozirgi ta`lim islohotlari jarayonida Prezidentimizning “Ta`lim tizimi shunday bo‘lishi kerakki, yoshlarimiz hech qachon eskirgan bilimlar bilan cheklanib qolmasin” degan fikrlari aynan jadidchilik g‘oyalari bilan hamohangdir.

1.Yangi usul ta`lim tizimi va kompetensiyaviy yondashuv

Jadidlar g‘oyasi:

Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidhonov, Abdulla Avloniy ta`limni o‘qituvchi markaziga o‘tkazish, amaliy bilim berish, darsliklarni zamonaviylashtirishni ilgari surgan.

Yurtboshimiz islohoti:

2017-yildan boshlab kompetensiyaviy yondashuv asosida darsliklar ishlab chiqilmoqda. STEM (Science, Technology, Engineering, Mathematics)metodlari ta`lim tizimiga kiritildi.Fanlarni o‘qitishda interfaol yondashuvlar masalan PISA va TIMSS xalqaro baholash tizimlari joriy etildi.

2.Ayollar ta`limiga e`tibor

Jadidlar g`oyasi:

Behbudiy va Fitrat ayollarni o‘qitish va gender tengligini ta`minlashni milliy taraqqiyotning asosiy sharti deb bilgan bo‘lsa Munavvarqori ayollar uchun alohida ta`lim muassasalari ochish g‘oyasini ilgari surgan.

Yurtboshimiz islohoti:

Qizlar ta`limi va kasb-hunar o‘rganishni rag‘batlantirish uchun grant va stipendiyalar ajratilmoqda. Ayollar daftari orqali ayollarning ta`lim olishiga yordam berish tizimi yaratildi. Pedagogika universitetlarida qizlar uchun kvotalar kengaytirilmoqda.

3.Diniy va dunyoviy ta`lim uyg‘unligi

Jadidlar g‘oyasi:

Ular diniy va dunyoviy ta`limni uyg‘unlashtirish, yosh avlodni ilmiy tafakkur asosida tarbiyalash tarafdori bo‘lgan. Fitrat va Avloniy yoshlarni din va zamonaviy fanlar asosida tarbiyalashni ilgari surishgan.

Yurtboshimiz islohoti:

Imom Buxoriy, Imom Moturudiy xalqaro ilmiy maktablari ochildi, diniy va dunyoviy ta`lim uyg‘unligi yo‘lga qo‘yilib Islom sivilizatsiyasi markazi tashkil etildi. Ibn Sino, Beruniy merosiga asoslangan yangi fan dasturlari ishlab chiqildi.

4.Ona tili va milliy g‘oya asosida tarbiya

Jadidlar g‘oyasi:

Behbudiy va Cho‘lpon o‘zbek tilida ilmiy adaboyotlar yaratish zarurligini, ona tilida ta`lim olish muhimligi, milliy g‘urur va vatanparvarlikka asoslangan ta`lim tizimi yaratishni dolzarb mavzuda ko‘tarishgan.

Yurtboshimiz islohoti:

Yurtboshimiz tashabbuslari bilan “O‘zbek tili va adabiyoti universiteti” tashkil etildi. O‘zbek tilini davlat tili sifatidagi mavqeini mustahkamlash bo‘yicha davlat dasturi qabul qilinib, milliy adabiyot va tarix fani bo‘yicha yangi dasturlar ishlab chiqildi.

5.Chet tillari va zamonaviy kasb-hunar o‘rganish tizimi

Jadidlar g‘oyasi:

Fitrat, Avloniy va Behbudiy xorijiy tillarni o‘rganish, zamonaviy kasblarni egallash muhimligini tushunib yetishgan va 1918-yilda Toshkentda ilk texnikum va kasb-hunar maktablari ochilishida faollik ko‘rsatishgan.

Yurtboshimiz islohoti:

“Yoshlar - kelajagimiz” dasturi orqali kasb-hunar o‘rgatish tizimi kuchaytirildi. “Besh muhim tashabbus” doirasida yoshlarning xorijiy tillarni o‘rganishi qo‘llab quvvatlanib, chet tillarini o‘rganish markazlari tashkil etildi, IELTS va TOEFL sertifikatlariga davlat grantlari joriy etildi va bu islohotlarning barchasi allaqachon o‘z natijalarini ko‘rsatmoqda.

Xulosalar

Xulosa qilib aytganda jadidlarning ta’limga oid qarashlari bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan. Ularning ilg‘or fikrlari, xususan, ayollar ta’limini rivojlantirish, o‘quv dasturlarini modernizatsiya qilish va milliy o‘zlikni shakllantirish borasidagi sa’y-harakatlari hozirgi ta’lim tizimiga qo‘llashga arziydi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning bu boradagi qarashlari jadidchilik harakati bilan mushtarak bo‘lib, o‘zinig keng ko‘lamli islohotlarni amalga oshirishga asos bo‘ldi. Yangi usul maktablari g‘oyasi- kompetensiyaviy ta`lim, ayollar ta`limi- gender tengligi dasturlari, milliy o‘zlik va vatanparvarlik – ona tili va tarix fanlarining kichaytirilishi, diniy va dunyoviy bilim uyg‘unligi- yangi ilmiy markazlar, kasb – hunar va xorijiy tillarni o‘rganish – zamonaviy kasb - hunar o‘rganish tizimi orqali

O‘zbekiston ta’lim tizimini modernizatsiya qilishda muhim yo‘nalishlardan biri bo‘lib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Behbudiy M. “Risolayi asbobi savod”. Samarqand, 1912.

2. Munavvar qori A. “Maktab islohoti to‘g‘risida”. Toshkent, 1913.

3. Avloniy A. “Turkiy Guliston yoxud axloq”. Toshkent, 1914.

4. Fitrat A. “Oila”. Buxoro, 1923.

5. Shavkat Mirziyoyev. “Jadidlar: Milliy o‘zlik, istiqlol va davlatchilik g‘oyalari” mavzusidagi nutqidan.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari va farmonlari.

HAYDOVCHILAR TAYYORLASH TIZIMIDAGI TASHKILIY-HUQUQIY MUAMMOLARNI BARTARAF ETISH MASALALARI

Axmedov Sherzodbek Oribjon o‘g’li
Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi

Bugungi kunda haydovchilarni tayyorlash tizimi yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi. 2018–2024 yillarda O‘zbekistonda yo‘l-transport hodisalari (YTH) dinamikasi va haydovchilar sifatiga oid rasmiy statistika mazkur tizimdagi kamchiliklar YTHlar sonining yuqori bo‘lishiga bevosita hissa qo‘shayotganini ko‘rsatmoqda. Jumladan, quyidagi **1-rasmda** O‘zbekiston bo‘yicha YTHlar va transport vositalari o‘sish dinamikasi (2014–2024) keltirilgan. Bunda qizil chiziq – umumiy YTHlar soni, ko‘k chiziq – ro‘yxatga olingan transport vositalari soni (o‘ng o‘q bo‘yicha). 2020 yilda pandemiya cheklovlari tufayli YTHlar keskin kamayib, 2021 yilda yana oshgani ko‘rinadi.



Yuqoridagi 1-rasmdan ko‘rinib turibdiki, YTHlar dinamikasiga mamlakatdagi avtotransport vositalari sonining tez o‘sishi ham ta’sir ko‘rsatmoqda. 2018 yilda ro‘yxatda turuvchi transport vositalari soni qariyb 2,95 mln bo‘lgan bo‘lsa, 2024 yilga kelib u 5,06 mln dan oshgan, ya’ni 6 yil ichida transport parki 70%dan ko‘proqqa kengaygan. Biroq transport vositalari ko‘payishi bilan YTHlar sonidagi o‘sish bir me’yorda bo‘lmadi – 2018–2019 yillarda YTHlar biroz pasaydi, 2020

yilda esa karantin sabab juda kamaydi (6 982 taga). 2021 yilda karantindan keyin harakat tiklanishi va ko‘plab yangi haydovchilar paydo bo‘lishi natijasida YTHlar soni keskin oshib, 10 mingdan oshdi. Keyingi yillarda davlat tomonidan ko‘rilgan choralar natijasida YTHlar biroz kamaygan bo‘lsada (2024 yilda ~9,36 mingta), ko‘rsatkich hali ham yuqori darajada qolmoqda va 2018 yilga nisbatan ortiqdir. Shuningdek, 2024 yilda YTHlar oqibatida 8 901 nafar fuqarolar turli darajadaig jarohat olgani qayd etilgan[1]. Bu raqamlar yo‘l harakati xavfsizligi masalasi dolzarb bo‘lib qolayotganini ko‘rsatadi.

Rasmiy statistikada YTHlarning aksariyat qismi haydovchilar tomonidan qoidabuzarlik yoki xatolik (inson omili) tufayli sodir bo‘layotgani ta’kidlanadi. Masalan, 2023 yil 7 oyida sodir bo‘lgan YTHlar tahlilida 51,4% holatga sub’yektiv omillar (haydovchi yoki boshqa ishtirokchi aybi) sabab bo‘lgani, qolgan 48% holatga ob’yektiv omillar (yo‘l, transport vositasi holati va h.k.) sabab bo‘lgani aniqlangan. Sub’yektiv omillar ichida eng katta ulushni tezlikni oshirish tashkil etadi (masalan, yuqoridagi davrda 16,9% YTHga tezlik cheklovini buzish sabab bo‘lgan)[2]. Demak, statistika shuni ko‘rsatmoqdaki, haydovchilarning qoidalarga amal qilmasligi – bevosita haydovchini tayyorlashdagi kamchiliklar va huquqiy madaniyat yetishmovchiligining aksi hisoblanadi.

Umuman olganda, 2018–2024 yillar statistik tahlili O‘zbekistonda YTHlar soni va oqibatlari yuqoriligicha qolayotganini, bu esa haydovchilar tayyorlash tizimi samaradorligi masalasini kun tartibiga jiddiy qo‘yishini ko‘rsatadi. Bu esa ushbu tizimning amaldagi holati va muammolarini batafsil tahlil qilish va ularga ilmiy asoslangan taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqish ham dolzarb masala ekanligini ko‘rsatadi.

O‘zbekistonda haydovchilarni tayyorlash tizimi asosan xususiy avto-maktablar (haydovchilik kurslari) orqali amalga oshiriladi. Nomzod haydovchilar “B” toifa (yengil avtomobil) yoki boshqa toifalar bo‘yicha belgilangan o‘quv dasturini tamomlab, so‘ng Davlat Yo‘l harakati xavfsizligi xizmati tomonidan o‘tkaziladigan nazariy va amaliy imtihonlarni topshirishi zarur. 2018–2024 yillarda respublika bo‘yicha haydovchilikka o‘qitish faoliyati kengayib, minglab yangi haydovchilar tayyorlandi. Masalan, 2024 yil yakuniga ko‘ra mamlakatda jami haydovchilik guvohnomasi ega shaxslar soni taxminan 9 millionga yetdi (aholining 24%

[1] https://www.xabar.uz/uz/tahlil/12-ballik-jarima-tizimi-pravasidan#:~:text=2024%20yilda%209%20364%20ta,kimningdir%20boquvchisi%2C%20kimningdir%20jigarbandi%20edi

[2] https://www.kun.uz/news/2023/09/13/7-oyda-7-million-qoidabuzarlik-va-mingdan-ortiq-olim-ythlarning-sabablari-va-oqibatlari-haqida-suhbat#:~:text=Yuqorida%20statistika%20keltirildi%2C%20lekin%20o%E2%80%98lim,ham%20oqibatlarni%20kamaytirishga%20olib%20keladi

atrofida)[1]. Bu ko‘rsatkich 2018 yillarga nisbatan ancha oshgan bo‘lib, so‘nggi yillarda yoshlar orasida avtomobil boshqarishga qiziqish ortgani va transport vositalarining keng ommalashganini anglatadi.

Biroq haydovchi tayyorlashning miqyosi kengaygani sari uning sifati masalasi keskinlashdi. Mavjud avto-maktablar faoliyatida turli muammolar kuzatilmoqda:

1) *O‘quv-moddiy bazaning yetarli emasligi:* Ko‘plab xususiy haydovchilik maktablari moddiy-texnik jihozlanishi bo‘yicha talab darajasida emas edi. Masalan, amaliy mashg’ulot o‘tkazish uchun maxsus avtomaydonchalar, zamonaviy kompyuter sinflari, o‘quv qo‘llanmalari har doim ham to‘liq ta’minlanmagan. Bu esa nomzodlarning mashg’ulotlarda sifatli bilim va ko‘nikma olishiga xalaqit beradi.

2) *O‘quv dasturlarining eskirganligi:* Yaqin vaqtgacha haydovchilar tayyorlash dasturlari zamonaviy talab va sharoitlarga mos ravishda muntazam yangilanmagan. Masalan, haydovchiga zarur bo‘lgan defensiv haydash (havfni oldindan ko‘ra bilish) ko‘nikmalari yoki zamonaviy avtomobillar elektronikasi bo‘yicha ma’lumotlar dasturlarda yetarlicha aks etmagan. O‘quv soatlari nisbatan kam ajratilib, nazariy bilimlar yodlashga asoslangan, amaliy mashg’ulotlar esa cheklangan vaqt davomida faqat imtihonga tayyorlashga qaratilgan edi. Natijada, o‘quv kursini tugatgan haydovchi imtihondan o‘tishi mumkin, lekin real hayotda murakkab vaziyatlarga tayyor bo‘lmasligi mumkin.

3) *Qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimining yo‘qligi:* Amaldagi tizim faqat boshlang’ich tayyorlov bilan cheklanadi – haydovchilik guvohnomasini olgan shaxs keyinchalik umuman hech qanday qayta o‘qitish yoki malaka oshirish kurslaridan o‘tmaydi. Vaholanki, yillar davomida yo‘l harakati sharoitlari o‘zgaradi, qoidalar yangilanadi, texnika yangilanadi. Haydovchilarning bilim va ko‘nikmalarini davriy yangilab borish tizimi yo‘qligi ularning vaqt o‘tishi bilan eskirgan bilimlarga tayangan holda harakatlanishiga olib keladi. Bu ayniqsa kasb sifatida transport vositasini boshqaruvchi (masalan, avtobus haydovchilari, yuk mashinasi haydovchilari) uchun jiddiy muammo, chunki ulardan yuqori ma’suliyat talab etiladi.

4) *Haydovchilar tayyorgarligining yo‘l harakati xavfsizligiga ta’siri:* Yuqoridagi muammolar natijasida yo‘llarda tajribasiz yoki yetarli mahoratga ega bo‘lmagan haydovchilar soni ortib bormoqda. Statistikaga ko‘ra, YTHlarning katta qismi haydovchilar tomonidan qoidalarning buzilishi oqibatida yuz bermoqda[2]. 2024 yilda sodir bo‘lgan YTHlardan 51% dan ortig’i bevosita haydovchining

[1] O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Jamoat xavfsizligi departamenti Yo‘l harakati xavfsizligi xizmati ma’lumotlari

[2] https://www.kun.uz/news/2023/09/13/7-oyda-7-million-qoidabuzarlik-va-mingdan-ortiq-olim-ythlarning-sabablari-va-oqibatlari-haqida-suhbat#:~:text=Yuqorida%20statistika%20keltirildi%2C%20lekin%20o%E2%80%98lim,ham%20oqibatlarni%20kamaytirishga%20olib%20keladi

qoidani buzishi yoki xato qilishi sababli ro‘y berganligi ma’lum qilingan[1]. Bu ko‘rsatkich haydovchilar bilim va ko‘nikmalarini shakllantirish jarayonida jiddiy kamchiliklar mavjudligidan dalolatdir. Haydovchilik kurslari bitiruvchilari orasida yo‘l harakati qoidalarini puxta o‘zlashtirmagan, xavfsiz haydash tamoyillarini amalda qo‘llay olmayotganlarning borligi shu statistikada aks etadi. Xususan, yuqori tezlikda harakatlanish, xavfsizlik kamaridan foydalanmaslik, svetofor talablarini buzmoq kabi xatti-harakatlar jamiyatda keng uchramoqda.

Amaldagi haydovchi tayyorlash tizimi keng qamrovli bo‘lsada, uning sifat ko‘rsatkichlari yo‘l harakati xavfsizligiga salbiy ta’sir o‘tkazmoqda. Ko‘plab yangi haydovchilar son jihatdan tayyorlanayotgan bo‘lsada, ularning malakasi va madaniyati talabga javob bermayapti. Bu vaziyatni yaxshilash uchun tizimdagi normativ-huquqiy asoslarni takomillashtirish zarur. Quyida shu masaladagi hujjatlar va ulardagi nomuvofiqliklar tahlil qilamiz:

Normativ-huquqiy hujjatlardagi nomuvofiqliklar va bo‘shliqlar: O‘zbekistonda haydovchilarni tayyorlash va ularning javobgarligini belgilovchi asosiy normativ hujjatlar qatoriga “Yo‘l harakati to‘g’risida”gi Qonun[2], Ma’muriy javobgarlik to‘g’risidagi Kodeks[3], Vazirlar Mahkamasi hamda tegishli vazirliklarning qarorlari kiradi. Ushbu hujjatlarda so‘nggi yillarda qator o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi, biroq hali-hanuz ayrim nomuvofiqliklar va bo‘shliqlar mavjud. Jumladan,

Haydovchi tayyorlash bo‘yicha vakolatli organlar o‘rtasidagi nomuvofiqlik: Ilgari haydovchilarni o‘qitish masalalari qisman ta’lim tizimi vakolatiga kiritilgan, qisman esa Ichki ishlar vazirligi (IIV) tasarrufida edi. Masalan, haydovchilar tayyorlash bo‘yicha davlat ta’lim standartlarini ishlab chiqish Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi bilan kelishilgan holda amalga oshirilar, amaliy imtihonlar va guvohnoma berish esa IIV Yo‘l harakati xavfsizligi xizmatiga yuklatilgan edi. Bu esa o‘quv dasturlarini yangilash va takomillashtirish jarayonida kelishmovchiliklar keltirib chiqargan.

Mazkur nomuvofiqlikni bartaraf etish maqsadida O‘zbekistron Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 20 iyulda “Avtomototransport vositalari haydovchilarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish hamda ularni imtihondan o‘tkazish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g’risida”[4]gi 393-son qarori qabul qilindi. Ushbu qaror haydovchilarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirishga qaratildi. Ushbu qarorga muvofiq:

[1] https://aniq.uz/uz/yangiliklar/2024-yilda-sodir-bulgan-yth-statistikasi-ochiqlandi
[2] O‘zbekiston Respublikasining 19.01.2024 yildagi “Yo‘l harakati to‘g‘risida”gi O‘RQ-900-son Qonun. https://lex.uz/uz/docs/-6764454
[3] O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi. https://lex.uz/docs/-97664
[4] https://lex.uz/docs/-6123254

Haydovchilarni tayyorlash va qayta tayyorlash bo‘yicha o‘quv dasturlarini ishlab chiqish va tasdiqlash vakolati IIVga to‘liq o‘tkazildi. Ya’ni, endilikda o‘quv dasturlarini belgilash, yangilash ichki ishlar organlari (YHXX) tomonidan amalga oshiriladi. Bu normativ asos avvalgi tarqoqlikni bartaraf etib, yagona markazlashgan dastur bo‘lishini ta’minlaydi.

Haydovchilar uchun yagona namunadagi nazariy imtihon savollari banki (kamida 1000 ta savol) va amaliy imtihon mashqlarining yagona ro‘yxati joriy etildi. Bungacha har bir hududiy imtihon komissiyasida turlicha yondashuv bo‘lishi mumkin edi; endilikda butun respublika bo‘ylab imtihon talablarining birxilligi ta’minlanadi.

Avtomaktablarga litsenziya talablari kuchaytirildi: endilikda har bir o‘quv muassasasi o‘ziga tegishli (yoki uzoq muddatli ijaradagi) maxsus o‘quv avtomaydoniga ega bo‘lishi shart etib belgilandi. Bu o‘quv jarayonining amaliy qismi sifati uchun muhim, chunki avval ayrim avto-maktablar amaliy haydash mashg’ulotlarini umumiy foydalanishdagi ko‘chalarda o‘tkazib, bu jarayon cheklangan va samarasiz bo‘lgan.

O‘qituvchi va instruktorlar malakasini oshirish tizimi joriy etildi: qarorga asosan haydovchilarni o‘qituvchi pedagoglar va haydovchi-instruktorlar har uch yilda IIV Akademiyasida malaka oshirish kurslaridan o‘tishi majburiy etib belgilandi[1] va ularga maxsus sertifikat berilishi joriy qilindi. Sertifikatsiz shaxslarning dars berishi man etildi. Avval bu borada yagona tizim bo‘lmagan – ko‘p instruktorlar yillar davomida o‘z bilimini yangilamasdan dars berib kelgan.

Mazkur normativ yangiliklar haydovchi tayyorlash tizimidagi ba’zi muammolarni bartaraf etishga xizmat qildi. Xususan, 2023 yildan boshlab barcha avto-maktablar yangilangan dasturlar asosida ishlay boshladi, instruktorlarni o‘qitish yo‘lga qo‘yildi, imtihon savollari banki yangilandi. Shunga qaramay, hali ham qonunchilikda ochiq qolayotgan jihatlar bor.

“Yo‘l harakati to‘g’risida”gi Qonun va MJtK o‘rtasidagi ayrim bo‘shliqlar: Haydovchining yo‘l harakatidagi majburiyatlari va javobgarligi Qonunda belgilangan, MJtK esa qoidabuzarliklar uchun jazo choralarini ko‘rsatadi. Amaliyotda uchrayotgan ayrim holatlar ushbu normalarni takomillashtirish zarurligini ko‘rsatmoqda:

Haydovchi va transport vositasini boshqaruvchi shaxs tushunchalari: Hozirgi qonunchilikda “haydovchi” tushunchasi ko‘pincha transport vositasini boshqarayotgan shaxs degan ma’noda qo‘llanadi. Biroq, muayyan huquqbuzarliklar uchun javobgarlik belgilovchi moddalarda “transport vositasini boshqaruvchi

[1] https://www.lex.uz/uz/docs/-6123254?ONDATE=21.07.2022#:~:text=o%E2%80%98qituvchi%20va%20instruktorlarning%20malakasini%20oshirish,tizimiga%20elektron%20shaklda%20kiritib%20boriladi

shaxs” atamasi ishlatiladi. Bu nazariy jihatdan haydovchilik guvohnomasiga ega bo‘lmagan shaxslarni ham qamrab olish uchun qo‘llaniladi. Ammo MJtKda voyaga yetmaganlarning sodir etgan qoidabuzarliklari masalasida huquqiy bo‘shliq mavjud: masalan, 16 yoshga to‘lmagan shaxs avtomobil boshqargan taqdirda unga nisbatan to‘g’ridan-to‘g’ri ma’muriy jazo qo‘llab bo‘lmaydi[1] (chunki MJtK bo‘yicha 16 yoshdan kichiklarga nisbatan ish yuritilmaydi). Amaliyotda bunday holatda odatda transport vositasi egasiga (ota-onasiga yoki mashina egasiga) jarima qo‘yish bilan cheklaniladi. Natijada, voyaga yetmagan “haydovchi”ning shaxsan javobgarligi masalasi ochiq qoladi. MJtKning tegishli moddalarida “haydovchilik huquqisiz transport vositasini boshqarish” (huquqbuzarlik) va “transport vositasini boshqarishga yo‘l qo‘yish” (egasining huquqbuzarligi) uchun jarimalar belgilangan bo‘lsada, voyaga yetmaganlarning bunday qoidabuzarliklari profilaktikasiga doir chora mavjud emas. Bu normativ bo‘shliq voyaga yetmaganlar ishtirokidagi YTHlar oshishiga hissa qo‘shishi mumkin.

Haydovchining javobgarligi va malaka masalalari: MJtKda ko‘plab moddalarda haydovchilarning turli qoidabuzarliklari (tezlikni oshirish, svetoforning qizil chirog’idan o‘tish, qarama-qarshi yo‘lga chiqish, mast holda boshqarish va h.k.) uchun jarimalar va ma’muriy jazolar belgilangan. Biroq, ushbu jarimalar ko‘pincha faqat moddiy jazo bilan cheklanadi; haydovchining bilim va ko‘nikmasini qayta ko‘rib chiqish talabi yo‘q. Masalan, ketma-ket bir necha marta qo‘pol qoidabuzarliklar sodir etgan haydovchidan yana nazariy imtihon topshirishni yoki qayta o‘qishni talab qiladigan normalar yo‘q edi. Bu ham normativ tizimdagi jiddiy kamchilik bo‘lib keldi – tartibbuzar haydovchi jarima to‘lab yana rulga o‘tiraveradi, lekin uning xatti-harakati tuzatilmaydi. Ayrim og’ir holatlarda, sud haydovchilik huquqidan mahrum etishi mumkin, ammo ko‘plab takroriy qoidabuzarliklar “jarima rekordi” bo‘lib qolaveradi.

Haydovchining yo‘l harakatidagi xatti-harakati faqatgina uning bilim va ko‘nikmalarigagina emas, balki huquqiy madaniyati va psixologik holatiga ham bog’liq. Huquqiy madaniyat deganda haydovchining yo‘l harakati qoidalarini bilishi, ularga ongli ravishda rioya qilishi, boshqa harakat ishtirokchilariga hurmat bilan munosabatda bo‘lishi tushuniladi. Psixologik tayyorgarlik esa stressga bardoshlilik, hissiyotlarini boshqara olish, mas’uliyatni his etish kabi fazilatlarni qamrab oladi.

O‘zbekistonda, afsuski, ko‘plab haydovchilar orasida huquqiy madaniyat yetarli darajada shakllanmagani kuzatiladi. Bu holat har kuni ko‘chalardagi haydovchilarning o‘zaro munosabatlarida yaqqol namoyon bo‘ladi: qo‘pol muomala, asabiy signal chalishlar, tartibsiz quvib o‘tishlar, bir-birini yo‘l bermay

[1] https://lex.uz/docs/97664

siqib qo‘yish, piyodalarga yo‘l bermaslik odatiy holga aylanib bormoqda. Ko‘plab haydovchilar qoidalarga faqat jazodan qochish uchungina amal qiladi – masalan, YPX inspektorini ko‘rsa, shoshilinch ravishda xavfsizlik kamarini taqib oladi-da, inspektordan o‘tib ketgach, qaytib yechib oladi. Yoki kamera o‘rnatilgan hududda tezlikni pasaytirib, kameralar yo‘q joyda yana oshiradi. Bu past huquqiy madaniyatdan darak beradi, chunki bunday haydovchi qoidalarga majburiy to‘siq sifatida qaraydi, ixtiyoriy ravishda rioya etmaydi.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda xulosa o‘rnida aytish mumkinki, haydovchilarni sifatli tayyorlash yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashning asosiy shartlaridan biridir. Bu masalaga alohida e’tibor qaratish har doim dolzarb bo‘lib qolmoqda. Bizning fikrimizcha bugungi kundagi ayrim kamchiliklarni inobatga oldan holda quyidagilar taklif etish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

birinchidan, O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g’risidagi kodeksini quyidagi tahrirdagi 15^1-modda bilan to‘ldirish:

15^1-modda. Transport vositasini boshqaruvchi shaxslarning ma’muriy javobgarligi

Qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda haydovchilik guvohnomasini olmagan yoki haydovchilik guvohnomasini amal qilishi belgilangan tartibda to‘xtatib turilgan shaxslar tomonidan yo‘l harakati qoidalari bilan bog’liq huquqbuzarliklarni sodir etgan taqdirda ya’ni ushbu Kodeksning 125, 125^1, 125^3, 126, 127, 128, 128^1, 128^2, 128^3, 128^4, 128^5, 128^6, 1287, 128^8, 128^9, 129, 130, 131, 133, 134, 136-moddalarida nazarda tutilgan huquqbuzarliklarni sodir etgan taqdirda ularga nisbatan ushbu moddalarning sanksiya qismida belgilangan jazolar ikki baravar ortiq miqdorda hisoblanib, besh sutkagacha muddatga ma’muriy qamoqqa sabab bo‘ladi.

ikkinchidan, MJtKni quyidagi tahrirda 28-modda to‘rtinchi qim bilan to‘ldirish: Voyaga yetmaganlar tomonidan ushbu Kodeksning 128^{10}-modda birinchi qismi, 131, 133, 134, 136, 137-moddaning ikkinchi qismidagi huquqbuzarliklarni sodir etgan taqdirda, ota-ona yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar ushbu huquqbuzarlikning oldini olish imkoniyatiga ega bo‘la turib, choralar ko‘rmagan bo‘lsa yoki transport vositasini boshqarishni topshirgan bo‘lsa sodir etilgan huquqbuzarlik uchun ota-ona yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslarga uch oydan bir yilgacha muddatga transport vositalarini boshqarish huquqidan mahrum qilish yoki o‘n besh sutkagacha muddatga ma’muriy qamoq jazosi qo‘llaniladi.

uchinchidan, **MJtKni** quyidagi tahrirdagi 28^2-modda bilan to‘ldirish:

28^2-modda. Voyaga yetmaganlar tomonidan yo‘l harakati qoidalarini buzganlik uchun transport vositalarini boshqarish huquqini cheklash.

Voyaga yetmaganlar tomonidan transport vositalarini boshqarish huquqi bo‘lmagan holda transport vositalarini boshqarganligi uchun ularni keyinchalik

haydovchilik guvohnomasini olishning belgilangan yoshiga yetganda uni berishni bir yildan uch yilgacha bo‘lgan muddatga cheklash mumkin. Bu cheklov belgilangan tartibda Bolalar masalalari bo‘yicha komissiyaning xulosasiga asosan tuman (shahar) Jinoyat ishlari bo‘yicha sudlari tomonidan amalga oshiriladi. Haydovchilik guvohnomasini olish huquqi cheklangan shaxslarning ro‘yhati ichki ishlar organlari tomonidan yuritiladi.

to‘rtinchidan, **MJtKni** quyidagi tahrirdagi 28^3-modda bilan to‘ldirish:

28^3-modda. Haydovchilik huquqini vaqtincha cheklash.

Haydovchilik guvohnomasiga ega shaxslar tomonidan yo‘l harakati qoidalari muntazam buzilganda (bundan qoidalar buzilganligi uchun jarima ballari hisoblanadigan holatlar mustasno) yoki yangi haydovchilar uchun sinov muddati davomida, haydovchilik ko‘nikmalarini takomillashtirish zaruriyati yuzaga kelganda haydovchilik guvohnomasiga ega bo‘lgan shaxsning transport vositasini boshqarish huquqidan mahrum qilmasdan turib, uni bir oydan bir yilgacha muddatga cheklash mumkin. Haydovchilik huquqini cheklash tartibi va shartlari qonunchilik hujjatlari bilan belgilanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. Kun.uz. (2023, 13-sentabr). “7 oyda 7 million qoidabuzarlik va mingdan ortiq o‘lim” – YTHlarning sabablari va oqibatlari haqida suhbat. Retrieved from https://kun.uz/news/2023/09/13/7-oyda-7-million-qoidabuzarlik-va-mingdan-ortiq-olim-ythlarning-sabablari-va-oqibatlari-haqida-suhbat

2. UNICEF. (2024, May 28). UN Road Safety Performance Review: Road infrastructure in Uzbekistan needs to prioritize the safe movement of people. https://www.unicef.org/uzbekistan/press-releases/un-road-safety-performance-review-road-infrastructure-uzbekistan-needs-prioritize

3. Gulf Oil International. (n.d.). Driving Standards Around the World. Retrieved October 20, 2025, from https://www.gulfoilltd.com/news/driving-standards-around-world

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (2022, 20-iyul). Avtomototransport vositalari haydovchilarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish hamda ularni imtihondan o‘tkazish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida (393-son qaror). https://lex.uz/uz/docs/6123254

5. Xalqaro avtomobil transporti forumi. (2023). Asosiy transport statistikasi – O‘zbekiston bo‘yicha ma’lumotlar. O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi ma’lumotlari. (Mazkur statistik to‘plamda 2014–2024 yillar davomida O‘zbekistondagi YTHlar soni, transport vositalari va aholiga nisbatan ko‘rsatkichlari jamlangan.)

6. O‘zbekiston Respublikasi IIV Yo‘l harakati xavfsizligi xizmati. (2025). 2014–2024 yillar mobaynida O‘zbekiston hududida sodir etilgan yo‘l-transport hodisalari tahlili (hisobot). Toshkent: IIV Jamoat xavfsizligi departamenti.

7. World Health Organization. (2018). Global Status Report on Road Safety 2018. Geneva: WHO. (O‘zbekiston Respublikasida YTHlardan halok bo‘lish ko‘rsatkichi MDH va rivojlangan davlatlar bilan qiyosiy tahlil qilingan.)

MA’MURIY JAZO TUSHUNCHASI, MAQSADI VA TURLARI

Narziloyeva Shahlo Nodir qizi
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti 2- bosqich kursanti

Alimov G’.A.
Ilmiy rahbar: yu.f.n. dotsent

Annotatsiya: Ushbu maqolada ma’muriy jazo tushunchasi,O’zbekiston Respublikasi ma’muriy javobgarlik to’risidagi Kodeksida mavjud bo’lgan ma’muriy jazo turlari, ularning asosiy va qo’shimcha jazo sifatida qanday qo’llanilish amaliyoti hamda bu borada xorijity mamlakatlar qonunchiligida qanday huquqiy normalar mavjud ekanligi to’g’risida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so’zlar: ma’muriy huquqbuzarlik, ma’muriy jazo, ma’muriy jazo turlari, shaxs, huquq, davlat, ma’muriy jazoni qo’llashdan maqsadi, xorijiy davlatlar qonunchiligi, sud amaliyoti.

Har qanday davlatda tartib o’rnatish uchun huquqbuzarlik sodir etgan shaxsga nisbatan javobgarlik choralari qonun hujjatlar bilan belgilanadi. Bu orqali jamiyatda fuqarolarni qonunga itoat qilish ruhida tarbiyalashga harakat qiladi. Amaldagi qonunchiligimizga nazar tashlaydigan bo’lsak, turli xil huquqiy munosabatlarni buzganlik uchun turli xildagi javobgarlik choralari belgilangan. Masalan, jinoyat qonunchiligi bilan taqiqlangan ijtimoiy xavfli, aybli qilmish (harakat yoki harakatsizlik) sodir etilsa jinoiy javobgarlik, fuqarolik-huquqiy munosabatlarni buziladigan bo’lsa fuqarolik (moddiy) javobgarlik, ma’muriy huquqbuzarliklar uchun esa ma’muriy javobgarliklar mavjud.

Ma’muriy jazo tushunchasi haqida gapirar ekanmiz, avvalo ma’muriy huquqbuzarlik nima ekanligi to’g’risida to’xtalib o’tishimiz zarur. O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 10-moddasiga ko‘ra ma’muriy huquqbuzarlik deganda,qonun hujjatlariga binoan, ma’muriy javobgarlikka tortish nazarda tutilgan shaxsga, fuqarolarning huquq va erkinliklariga, mulkchilikka, davlat va jamoat tartibiga, tabiiy muhitga tajovuz qiluvchi g’ayrihuquqiy, aybli(qasddan yoki ehtiyotsizlik orqasida) sodir etilgan

harakat yoki harakatsizlikka aytiladi. Shundan kelib chiqib e’tirof etishimiz mumkinki, ma’muriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxsga nisbatan ma’muriy jazo qo’llaniladi.

Ma’muriy jazo – maqsadiga ko’ra ma’muriy majburlov choralarining bir turi hisoblanadi. Ma’muriy jazo ma’muriy majburlovning boshqa choralaridan farqli ravishda huquqbuzar tomonidan ma’muriy qonunchilik hujjatlari bilan qo’riqlanadigan ijtimoiy munosabatlarga tajovuz qilinganda, ya’ni ma’muriy huquqbuzarlik sodir etilgandagina qo’llaniladigan o’ziga xos maqsadga ega jazo sanksiyalari bo’lib, u ma’muriy-pratsessual tartibda amalga oshiriladi. Ma’muriy jazo O’zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to’g’risidagi Kodeksi bilan, ma’muriy majburlovning boshqa choralari esa turli normativ hujjatlar bilan tartibga solinadi[1].

O’zbekiston Respublikasi qonunchiligida ma’muriy jazo ma’muriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxsni qonunlarga rioya etish va ularni hurmat qilish ruhida tarbiyalash, shuningdek huquqbuzarni o‘zi tomonidan ham, boshqa shaxslar tomonidan ham sodir etilishining oldini olish maqsadida qo‘llaniladi.

Bu boradagi MDH mamlakatlar tajribasiga murojaat qilsak bir qator davlatlarda ma’muriy jazo qo’llanilishining maqsadlarini quyidagi holatlarni ko’rishimiz mumkin [2].

Ukraina qonunchiligiga ko‘ra, ma’muriy jazoning maqsadlari - ma’muriy jazo javobgarlik chorasi bo‘lib, ma’muriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxsni Ukraina qonunlariga rioya qilish, umumiy qoidalarga hurmat ruhida tarbiyalash, shuningdek, huquqbuzarning o‘zi va boshqa shaxslar tomonidan yangi huquqbuzarliklar sodir etilishining oldini olish maqsadida qo‘llaniladi [3].

Qozog‘iston Respublikasi qonunchiligiga ko‘ra, ma’muriy jazo huquqbuzarlik sodir etgan shaxsni qonun hujjatlari talablariga rioya etish va huquq-tartibotni hurmat qilish ruhida tarbiyalash, shuningdek huquqbuzarning o‘zi tomonidan ham, boshqa shaxslar tomonidan ham yangi huquqbuzarliklar sodir etilishining oldini olish maqsadida qo‘llaniladi [4].

Yuqorida keltirilgan turli davlatlarning deyarli barchasida ma’muriy jazo qo’llashdan maqsadi bir xil, ya’ni odamlarni qonunga itoatkorlik ruhida tarbiyalash, yangi huquqbuzarliklar sodir etilishining oldini olish, huquqbuzarning o’zi tomonidan ham boshqa shaxslar tomonidan ham sodir etilishining oldini olishdan iborat ekanligiga guvoh bo‘lamiz.

Ma’lumki har qanday davlatda ma’muriy jazoning har xil turlari mavjud va ularning har biri o’ziga xos xususiyatlarga ega. Quyida bir nechta davlatning ma’muriy jazo turlarini keltirib o‘tamiz:

Xususan, Qirg’iziston Respubilasining qonunchiligida ma’muriy huquqbuzarlik uchun quyidagi jazo turlari belgilangan:

1)ogohlantirish;

2)aybdorlik;

3)mansabdor shaxsni ishdan bo'shatish;

4)muayyan faoliyat turi bilan shug'ullanish uchun litsenziya (ruxsatnoma) mahrum qilish;

5) ushbu fuqaroga berilgan maxsus huquqdan mahrum qilish (transport vositasini boshqarish huquqi, ov qilish huquqi, o'qotar qurolni saqlash huquqi, radio qurilmalar yoki yuqori chastotali qurilmalardan foydalanish huquqi va boshqalar);

6)Yo'l harakati qoidalarini bilishni nazorat qilish;

6^{1})Ovchilikning minimal xabardorligini tekshirish;

7) ishlarning muayyan turini to'xtatib turish, ob'ektni dastlabki tiklash, ob'ektni yoki uning bir qismini buzib tashlash (demontaj qilish);

8) ma'muriy huquqbuzarlikning vositasi yoki bevosita ob'ekti bo'lgan mol-mulkni musodara qilish;

9)Ma'muriy hibsga olish;

10) chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni Qirg'izistondan chiqarib yuborish;

11) Chet el fuqarolarining va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning Qirg'iziston Respublikasida bo'lish muddatini qisqartirish qo'llanilishi mumkin. 12) Bojxona va/yoki soliq huquqlarining to'g'ridan-to'g'ri buzilishi ob'ekti bo'lgan tovarlar va

transport vositalarining, bojxona qonunchiligining to'g'ridan-to'g'ri buzilishi ob'ekti bo'lgan narsalarni yashirish uchun foydalaniladigan maxsus tayyorlangan yashirin joylari bo'lgan tovarlar va transport vositalarining qiymatini undirish.

Bojxona va/yoki soliq qoidalari buzilishining bevosita ob'ekti bo'lgan tovarlar va transport vositalarining, bojxona qoidalarini buzilishining bevosita ob'ekti sifatida tovarlar yoki buyumlarni olib o'tish uchun foydalaniladigan transpaoprt vositasidagi maxsus tayyorlangan yashirin joylarda olib o‘tilganda, qonun buzilishi aniqlangan kundan boshlab ularning bozor qiymatidan o'n foizdan yuz foizgacha jarima va shu tovarlarni musodara qilish qo'shimcha jazo chorasi sifatida qo‘laniladi.

13)Davlat ishlariga jalb qilish;

14) Yuridik shaxsni tugatish [5].

Rossiya Federatsiyasining ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi kodeksida ma’muriy huquqbuzarlik sodir etganlik uchun quyidagi ma’muriy jazo turlari mavjud:

1) ogohlantirish;

2) ma’muriy jarima;

3) ma’muriy huquqbuzarlikni sodir etish quroli yoki ashyosini musodara qilish;

4) jismoniy shaxsga berilgan maxsus huquqdan mahrum qilish;

5) ma’muriy qamoqqa olish;

6) chet el fuqarosi yoki fuqaroligi bo‘lmagan shaxsni Rossiya Federatsiyasidan ma’muriy tarzda chiqarib yuborish;

7) diskvalifikatsiya;

8) faoliyatni ma’muriy to‘xtatib turish;

9) majburiy ishlar;

10) rasmiy sport musobaqalari o‘tkaziladigan joylarga ular o‘tkaziladigan kunlarda borishni ma’muriy taqiqlash [6].

Bizning mamlakatimizda ham huquqbuzarlikning turiga qarab unga mos ravishda ma’muriy jazo turlari qo’llaniladi. O’zbekiston Respublikasi Ma’muriy

javobgarlik to’g’risidagi Kodeksining 23-moddasida quyidagi ma’muriy jazo turlari belgilangan:

1)jarima;

2) ma’muriy huquqbuzarlikni sodir etish quroli hisoblangan yoki bevosita shunday narsa bo‘lgan ashyoni haqini to‘lash sharti bilan olib qo‘yish;

3) ma’muriy huquqbuzarlikni sodir etish quroli hisoblangan yoki bevosita shunday narsa bo‘lgan ashyoni musodara qilish;

4) muayyan shaxsni unga berilgan maxsus huquqdan (transport vositasini boshqarish huquqidan, ov qilish huquqidan) mahrum etish;

5) ma’muriy qamoqqa olish.

6) chet el fuqarolarini va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarni O‘zbekiston Respublikasi hududidan ma’muriy tarzda chiqarib yuborish.

Fikrimizcha, O‘zbekiston Respublikasining amaldagi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksida nazarda tutilgan ma’muriy jazo turlari sobiq MDH mamlakatlari qonunchiligi ichida eng liberal qonunchilik turlariga kiradi va bugungi kun talablariga to‘liq mos keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zME. Birinchi jild. T-2000.

2.https://lex.uz/docs/-97664

3. Kodeks Ukrainы Ob administrativnых pravonarusheniyax [Elektron manba: https://pravoved.in.ua/section-kodeks/34-kuoap.html

4. Kodeks Respubliki Kazaxstan Ob administrativnых pravonarusheniyax [Elektron manba: https://adilet.zan.kz/rus/docs/K1400000235.

5. https://wipolex-res.wipo.int/edocs/lexdocs/laws/ky/kg/kg236ky.html

6. Kodeks Rossiyskoy Federatsii ob administrativnых pravonarusheniyax [Elektron manba: https://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_34661/.

VOYAGA YETMAGANLAR TOMONIDAN SODIR QILINADIGAN HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASI

Ziyodullayev Muzaffar Ziyodullayevich
Jamoat xavfsizligini ta’minlash kafedrasi professori, yuridik fanlar doktori, professor
Abdusamadova Zarina Hasan qizi
Jamoat xavfsizligi universiteti 3-kursantlar batalyoni 382-o‘quv guruhi kursanti

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot, O‘zbekistonda voyaga yetmaganlar tomonidan sodir qilinadigan huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktikasini takomillashtirishga qaratilgan. Tadqiqotda voyaga yetmaganlarning huquqbuzarliklarining sabablari, ularni keltirib chiqaruvchi oilaviy, iqtisodiy va ijtimoiy omillar tahlil qilinadi. Shuningdek, o‘quv muassasalaridagi tarbiya darajasi va yoshlar bilan ishlashda mavjud muammolarni aniqlash orqali profilaktika yo‘nalishlari, jumladan, ta'lim muassasalari bilan hamkorlik, oilaviy maslahat xizmatlari va ijtimoiy reabilitatsiya dasturlarini yaratish zarurligi ko‘rsatiladi. Tadqiqotda, huquqbuzarliklarning oldini olishda davlat va jamoat tashkilotlari o‘rtasida samarali hamkorlikni rivojlantirish va yoshlar bilan ishlashda ilg‘or metodlarni joriy etish zarurati ta'kidlanadi.

Kalit so‘zlar. voyaga yetmaganlar, huquqbuzarliklar, profilaktika, oilaviy muammolar, iqtisodiy qiyinchiliklar, ijtimoiy cheklovlar, ta'lim muassasalari, psixologik yordam, ijtimoiy reabilitatsiya, davlat va jamoat tashkilotlari, yoshlar bilan ishlash, jamoat xavfsizligi.

Bugungi kunda jamiyatning rivojlanishi va barqarorligi uchun yosh avlodning huquqiy ongi va ijtimoiy mas’uliyatini oshirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ammo, afsuski, voyaga yetmaganlar orasida huquqbuzarliklar ko‘payib bormoqda, bu esa nafaqat huquqiy tizimga, balki oilalar va mahalliy jamoalarga ham salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Yoshlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar nafaqat jamiyat xavfsizligini buzadi, balki yoshlarning kelajakdagi hayotiga ham salbiy ta’sir o‘tkazadi, ularning ijtimoiy moslashuvini qiyinlashtiradi. Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi ko‘pincha iqtisodiy, ijtimoiy va psixologik omillar bilan bog‘liqdir.

Oilaviy muhitning nosog‘lomligi, ta’lim darajasining pastligi, iqtisodiy qiyinchiliklar va ijtimoiy tengsizlik kabi omillar yoshlar orasida jinoyatchilikning o‘sishiga sabab bo‘ladi. Shu boisdan, huquqbuzarliklarning oldini olish, ya'ni profilaktik choralarni ko‘rish muhim ahamiyat kasb etadi. Jinoyatchilikni profilaktika qilish nafaqat davlat organlari, balki jamiyatning barcha qatlamlari, xususan, ta’lim muassasalari, oilalar va jamoat tashkilotlarining hamkorligini talab qiladi.

Voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etiladigan huquqbuzarliklar zamonaviy jamiyat uchun jiddiy muammo hisoblanib, yoshlar orasida huquqbuzarliklarning ortib borishi faqat yuridik masala bilan cheklanmaydi, balki chuqur ijtimoiy oqibatlarga ega. Yoshlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar, ularning kelajakdagi hayotiga, jamiyatdagi o‘rniga va ijtimoiy moslashuviga katta salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu huquqbuzarliklar ko‘pincha ularning jamiyat tomonidan noto‘g‘ri qabul qilinishiga sabab bo‘ladi, natijada yoshlar jamiyatga qarshi yoki unda begona bo‘lib qolishadi. Shu bilan birga, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi ularning kelajagini tahdid ostiga qo‘yib, ijtimoiy cheklanish va stigmatizatsiyaga olib kelishi mumkin. Shuning uchun, huquqbuzarliklarning oldini olish choralari yoshlarning kelajakdagi ijtimoiy hayotini to‘g‘ri shakllantirish va jamiyatda barqarorlikni ta’minlashda muhim o‘rin tutadi.

Bundan tashqari voyaga yetmaganlar orasida huquqbuzarliklarning o‘sishi ko‘pincha ijtimoiy, iqtisodiy va oilaviy muammolar bilan chambarchas bog‘liq. O‘z vaqtida profilaktika choralarining yetarlicha ko‘rilmasligi natijasida yosh jinoyatchilikning ortishi jamiyatda ko‘plab boshqa salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi. Masalan, oilaviy nosog‘lomlik, iqtisodiy qiyinchiliklar va ta’limga kirish imkoniyatining cheklanganligi yoshlarda huquqbuzarlik ehtimolini oshiradi. Yoshlar orasida huquqbuzarliklar qayd etilishi, ular jamiyat tomonidan xavf-xatarli guruh sifatida qabul qilinishiga olib keladi. Bu esa, o‘z navbatida, yoshlar o‘rtasida ijtimoiy ajralish, ijtimoiy imkoniyatlarning cheklanishi va qo‘llab-quvvatlov yo‘qligiga olib keladi. Shu bois, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligiga qarshi samarali profilaktika choralari ko‘rilmasa, bu muammo yanada chuqurlashib, jamoat

xavfsizligiga va kelajak avlodlarning sog‘lom rivojlanishiga jiddiy tahdid tug‘dirishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasida voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etiladigan huquqbuzarliklar va ularning profilaktikasiga alohida e’tibor qaratilib, ushbu yo‘nalishda davlat tomonidan bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-martdagi PQ-2833-sonli qarori huquqbuzarliklarning profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish borasidagi chora-tadbirlarni keng ko‘lamda amalga oshirishga qaratilgan. Ushbu qarorda, xususan, huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiruvchi davlat organlari tomonidan axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan yetarlicha foydalanilmayotgani va idoralararo hamkorlikning kuchsizligi qayd etilgan. Bu esa hozirgi kun talablariga to‘liq javob bermasligi va ushbu faoliyat samaradorligini kamaytirishini ko‘rsatadi (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-2833-son qarori, 2017).

Voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha idoralararo komissiyalarning samarali faoliyat yuritishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Hududiy komissiyalar tarkibida voyaga yetmaganlarning turmush sharoitlarini yaxshilash, ixtisoslashgan o‘quv-tarbiya muassasalaridan qaytib kelgan bolalar bilan ishlash kabi masalalar bo‘yicha maxsus seksiyalar tashkil etilishi belgilangan. Ushbu komissiyalar voyaga yetmaganlar orasidagi huquqbuzarliklarning oldini olishda markaziy o‘rin egallaydi va hududiy darajada profilaktika ishlarini samarali tashkil etishga yordam beradi (PQ-2833 qaroriga 3-ilova, 2017).

2010-yilda qabul qilingan "Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to‘g‘risida"gi qonunda esa huquqbuzarliklar profilaktikasi tizimining huquqiy asoslari belgilab berilgan. Ushbu qonunda voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etiladigan g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlarni bartaraf etish va profilaktikasi bo‘yicha davlatning vazifalari, nazoratsiz qolgan yoki ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo‘lgan bolalarga nisbatan yakka tartibdagi profilaktika ishi olib borishning zaruriyati ta’kidlanadi. Bu jarayon ijtimoiy, huquqiy, tibbiy va

boshqa chora-tadbirlarni o‘z ichiga oladi va voyaga yetmaganlarning huquqlarini himoya qilishda katta ahamiyatga ega (Qonunchilik palatasi, 2010).

Shuningdek, umumta’lim maktablarining voyaga yetmaganlar huquqbuzarligini oldini olishdagi o‘rni ham alohida ta’kidlanadi. Tadqiqotlarga ko‘ra, maktablarda muntazam olib boriladigan tarbiyaviy ishlar va voyaga yetmaganlarning ijtimoiylashuvi huquqbuzarliklarning kamayishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Maktab va oilalar o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, shuningdek, o‘quvchilarni nazorat qilish va ularga ijobiy ta’sir ko‘rsatish orqali ularning ijtimoiy muhitga moslashuvi va sog‘lom rivojlanishini ta’minlash mumkinligi ko‘rsatilgan (N. A. Isroilova, 2021).

Tahlil va natijalar

O‘zbekiston Prezident huzuridagi Statistika agentligi hisoboti bo‘yicha, 2023-yilda 13-17 yoshdagi 3599 nafar voyaga yetmagan jinoyat sodir etgani uchun ro‘yxatga olingan. Ushbu ko‘rsatkich 2022-yilga nisbatan 15,6 foizga oshgan. Shu bilan birga, 2021-yilga nisbatan o‘sish darajasi 40 foizni tashkil qilgan. Besh yillik davrda voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar soni 4,4 barobarga oshgani, jinoyatchilik muammosining keskin ortganini ko‘rsatadi.

2023-yilda qayd etilgan voyaga yetmaganlar jinoyatlari turli turlarga bo‘lingan holda ko‘tarilgan. Xususan:

- *Tovlamachilik jinoyatlari 70 foizga oshgan,*
- *Bezorilik 60 foizga,*
- *Qasddan badanga og‘ir shikast yetkazish 40 foizga,*
- *Nomusga tegish va odam o‘ldirishga urinish 20 foizga ortgan.*

Bu raqamlar voyaga yetmaganlar orasida ijtimoiy muammolarning ortib borayotganini, shuningdek, og‘ir jinoyatlar ulushining ham oshayotganini ko‘rsatadi.

Statistikaga ko‘ra, voyaga yetmaganlar orasida jinoyatchilikning eng yuqori ko‘rsatkichi Farg‘ona viloyatida (700 nafar), keyinchalik Toshkent shahri (545), Namangan viloyati (451) va Toshkent viloyatida (345) kuzatilgan. Eng past ko‘rsatkichlar esa Jizzax (54), Navoiy (62) va Xorazm viloyatlarida (66) qayd

etilgan. Bu raqamlar hududlar o‘rtasida jinoyatchilik darajasida sezilarli farqlar mavjudligini va bu farqlarni qaysidir ijtimoiy-iqtisodiy omillar ta'sir qilayotganini ko‘rsatadi. Quyidagi dinamikada jinoyat turlariga binoan voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etgan jinoyatlarni ko’rishimiz mumkin:

Rasm ***1***



2023-yilda jinoyat sodir etgan voyaga yetmaganlarning 82,6 foizi jinoiy javobgarlikka tortilgan, bu jinoyatchilikka qarshi kurashda davlat organlarining qat’iy choralar ko‘rayotganini ko‘rsatadi. Yosh jihatidan esa jinoyatchilarning 744 nafari 13-15 yoshda, 2855 nafari esa 16-17 yoshda. Jinoyatchilik sodir etgan qizlarning ulushi esa 8,7 foizni yoki 314 nafarni tashkil etadi.

Yuqoridagi ko‘rsatkichlar jinoyatchilik profilaktikasini takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi. Voyaga yetmaganlar o‘rtasidagi jinoyatchilikning oldini olish uchun ijtimoiy-iqtisodiy, ta’lim va tarbiya choralari bilan bir qatorda, davlat idoralari o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish muhimdir.

Voyaga yetmaganlarning jinoyatchilikka aralashuvi turli omillar bilan izohlanadi. Bu omillar orasida oilaviy muammolar, iqtisodiy qiyinchiliklar, ijtimoiy cheklovlar va o‘quv muassasalaridagi tarbiya darajasining yetarli emasligi kabi sabablar katta rol o‘ynaydi. Oilaviy muhitning sog‘lom bo‘lmasligi yoki iqtisodiy cheklovlar voyaga yetmaganlarning ijtimoiy muhitga moslashishida qiyinchiliklar tug‘dirishi mumkin. Shuningdek, ta’lim muassasalarida tarbiyaning zaifligi va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning yetarli emasligi o‘smirlarni salbiy yo‘nalishlarga moyil qiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, voyaga yetmaganlarning jinoyatchiligini kamaytirishda quyidagi profilaktika yondashuvlari muhim ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin:

1. **Ta’lim muassasalari bilan hamkorlik qilish:** Ta’lim muassasalari voyaga yetmaganlar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqot qiluvchi asosiy muassasalar hisoblanadi. Ular orqali ijtimoiy, ma’naviy va psixologik tarbiyani yaxshilash, ularni qiziqishlariga ko‘ra to‘g‘ri yo‘naltirish mumkin.

2. **Ijtimoiy reabilitatsiya dasturlari yaratish:** Voyaga yetmaganlar uchun ijtimoiy reabilitatsiya dasturlari orqali ularni hayotda o‘z o‘rnini topishga yordam berish, o‘zini anglash va ijtimoiy o‘zgarishlarga moslashish imkoniyatlarini oshirish muhimdir. Ushbu dasturlar voyaga yetmaganlarga mehnat ko‘nikmalarini rivojlantirish va sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish orqali ijobiy yo‘lga solishi mumkin.

3. **Oilaviy maslahatchilar bilan ishlash:** Oilalar bilan yaqin hamkorlikda ishlash voyaga yetmaganlarning ijtimoiy hayotga moslashuvi uchun juda muhimdir. Oilaviy maslahatchilar yordamida oiladagi nizolarni bartaraf etish, ota-onalarning mas’uliyatini oshirish va farzandlari bilan to‘g‘ri muloqot qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish orqali jinoyatchilik xavfini kamaytirish mumkin.

Yuqoridagi natijalardan kelib chiqib, profilaktika choralarini samarali tashkil qilish muhim hisoblanadi. Voyaga yetmaganlar orasidagi jinoyatchilikning oldini olish uchun davlat va jamoat tashkilotlari hamkorlikda ishlashlari kerak.

1. **Davlat va jamoat tashkilotlari hamkorligi:** Jinoyatchilik profilaktikasi va ijtimoiy muammolarni bartaraf etishda davlat va jamoat tashkilotlarining birgalikdagi harakatlari muhim. Ular mahalliy hamjamiyatlar bilan birga ishlash orqali muammolarni tezroq va samaraliroq hal qilishi mumkin.

2. **Ijtimoiy dasturlarni kengaytirish:** Voyaga yetmaganlar uchun qiziqish doirasiga mos to‘garaklar, sport va san’at kabi ijtimoiy dasturlarni kengaytirish ularning bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazishiga yordam beradi va salbiy yo‘llarga kirish ehtimolini kamaytiradi.

3. **Maktablarda psixologik yordam xizmatlarini joriy qilish:** Maktab o‘quvchilari uchun psixologik yordam xizmatlari joriy etish orqali ularning psixologik va ijtimoiy muammolariga vaqtida yordam ko‘rsatish va og‘ir ruhiy holatlar oldini olish mumkin.

Yuqoridagi yondashuvlar voyaga yetmaganlar jinoyatchiligini kamaytirishga qaratilgan profilaktika choralari samaradorligini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, voyaga yetmaganlar tomonidan sodir qilinadigan huquqbuzarliklar sonining ortishi, oilaviy, iqtisodiy va ijtimoiy muammolar, shuningdek, ta'lim muassasalaridagi kamchiliklar bilan bevosita bog‘liqdir. Bu holat, yoshlarning salbiy ta'sirga uchrashi va jinoyatlarni sodir etishiga olib keladigan omillarni aniqlash zaruratini tug‘dirmoqda. Shuning uchun, huquqbuzarliklarni oldini olish uchun profilaktika choralarini kuchaytirish muhimdir. Bunda ta'lim tizimining rolini kuchaytirish, o‘quv muassasalarida psixologik yordam xizmatlarini joriy etish, oilaviy maslahat va ijtimoiy reabilitatsiya dasturlarini kengaytirish zarur.

Profilaktika yo‘nalishlari, davlat va jamoat tashkilotlari o‘rtasida hamkorlikni rivojlantirishni, yoshlarni jinoyatchilikdan saqlashda oilaviy va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirishni o‘z ichiga oladi. Shuningdek, yoshlar o‘rtasida huquqiy va axloqiy tarbiyani mustahkamlash, ular uchun sog‘lom muhit yaratish, oilaviy maslahatchilar va ijtimoiy ishchilar bilan samarali ishlash ham profilaktik choralar tarkibiga kiradi. Shu bilan birga, ijtimoiy dasturlarni kengaytirish va yoshlar bilan

ishlashda samarali metodlarni ishlab chiqish jinoyatchilik darajasini kamaytirishga yordam beradi va jamiyatda tinchlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. N. A. Isroilova, R. S. Nazarova VOYAGA YETMAGANLAR HUQUQBUZARLIGINING PROFILAKTIKASIDA UMUMTA'LIM MAKTABLARINING O'RNI // Academic research in educational sciences. 2021.
2. Tursunaliyevich, F. N. . and Sharofiddinovich, S. S. . (2023) "Barqaror Rivojlanishni Maktabgacha Ta'lim Yoshidagi Bolalarga Singdirish", *JOURNAL OF SCIENCE, RESEARCH AND TEACHING*, 2(2), pp. 26–29. Available at: https://jsrt.innovascience.uz/index.php/jsrt/article/view/45 (Accessed: 7 November 2024).
3. Костекова К.А. «Роль социального педагога в профилактике правонарушений в подростковой с реде». https://infourok.ru/rol-socialnogo-pedagoga-v-profilaktike-pravonarusheniy-vpodrostkovoy-srede-3776595.html
4. Старцева-Тарасова Валерия Ивановна. Социальная работа общеобразовательной школы как средство профилактики правонарушений подростков. Ставропол-2005.
5. Prezident huzuridagi Statistika agentligi hisoboti (uzstat)
6. https://lex.uz/ru/docs/-3141186?ONDATE=17.03.2021%2000
7. https://lex.uz/mact/-1685726

YANGI O‘ZBEKISTONDA “XAVFSIZ TA’LIM” KONSEPSIYASINI AMALGA OSHIRISHDA TARBIYA TAMOYILLARI

R.B. Ne’matov
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti magistratura tinglovchisi

Tarbiya nazariyasi—pedagogika fanining bir kismi bulib, tarbiyaviy jarayonning mazmuni, usuli va tashkil etilishi masalalarini urganadi. Hayotga yangicha siyosiy va iktisodiy nuktai nazardan yondashish usib kelayotgan esh avlod tarbiyasi bi- lan boglik jarayonni ham kaytadan ko‘rib chiqishni takozo etmokda. O‘zbekiston Respublikasining davlat mustakilligiga erishuvi ta‘lim va tarbiyaning milliy shakllarini rivojlanishiga keng imkoniyatlar ochib berdi. Tarbiya nazariyasi Markaziy Osiyo faylasuflarining va xalq pedagogikasining tarbiya borasidagi boy tajribalariga tayanadi. Tarbiya nazariyasi o‘z qoidalarini asoslash uchun falsafa, sotsiologiya, etika, estetika, fiziologiya, psixologiya fanlari ma‘lumotlaridan foydalanadi. Tarbiya nazariyasi pedagogikaning boshka bulimlari: pedagogikaning umumiy asoslari, ta‘lim nazariyasi, maktabshunoslik bilak o‘zviy boglangandir. Tarbiya jarayonining moxiyati shu jarayon uchun harakterli bulgan va muayyan qonun iyatlarda namoyon buladigan ichki aloqa va munosabatlarni aks ettiradi. Hozirgi zamon pedagognkasida tarbiya tarbiyachining tarbiyalanuvchi shaxsiga oddiy ta‘sir ko‘rsatishi emas, balki tarbiyachilar va tarbiyalanuvchilarning anik bir maqsadga karatilgan, birbiri bilan hamkorlikda kiladigan munosabatlari va o‘zaro ta‘sir ko‘rsatishi ekanligi aloxida ta‘kidlanadi.

O‘zbekiston Respublikasining «Ta‘lim to‘g‘risidagi qonun oila, davlat oldidagi mas’uliyatini anglab etadigan har tomonlama etuk shaxsni shakllantiruvchi, intellektual va ilmiy ko‘chlarni tarakkiy ettirishdek yuksak madaniyatlarni belgilab berdi. O‘zbekiston Respublikasi ta‘lim va madaniyatni rivojlantirish hamda islox qilish, intellektual va ma‘naviy ko‘chlarni mustaxkamlash muxim ahamiyatga molikligi qayd etib utildi. Bugungi 116 ko‘nda shunchaki bilim egasi bulgak insonni emas, balki ijodkor, o‘z iste’dodi bilan ajralib turuvchi ishbilarmon insonni tarbiyalash zamon takozosidir. Tarbiya jarayonida kishining turli kobiliyatlari

rivojlanadi, goyaviy, axlokiy, irodaviy, estetik xislatlari shakllanadi, tabiatga, jamiyatga ilmiy karashlar tizimi tarkib topadi, jismoniy ko‘ch-ko‘vvatlari mustaxkamlanadi. Tarbiya metodi (yunoncha «metodos» – yo‘l) tarbiya maqsadiga erishishning yo‘li. Maktab amaliyotiga tatbiq etilganda, metodlar – bu tarbiyalanuvchilarning ongi, irodasi, tuyg‘ulari va xulqiga ta’sir etish usullaridir. Tarbiyaning mutlaqo yangi metodlarini yaratishga bironta tarbiyachining kuchi etmaydi. Metodlarni takomillashtirish muammosi doimo mavjud, har bir tarbiyachi o‘zining imkoniyatiga ko‘ra uni hal qiladi, tarbiya jarayonining aniq shart-sharoitlariga mos ravishda o‘zining xususiy qarashlarini ifoda etish asosida umumiy metodikani boyitadi.

Tarbiya metodlarini bunday xususiy takomillashtirish tarbiya usullari deb ataladi. Tarbiya usullari – umumiy metodning bir qismi, alohida harakati, yanada aniqlashuvi. Obrazli aytganda, usullar – bu qo‘yilgan maqsadga tezroq erishish uchun tarbiyachi o‘zining tarbiyalanuvchilari bilan yo‘l ochadigan o‘rganilmagan so‘qmoq. Agar uni boshqa tarbiyachilar ham foydalana boshlasa, u holda asta-sekin usullar keng ustunli yo‘llar – metodlarga aylanishi mumkin. Tarbiya metod va usullarini bilish, ularni to‘g‘ri qo‘llay olishni egallash – bu pedagogik mahorat darajasini belgilovchi muhim tavsiflardan biri. Tarbiya metod va usullarining aloqadorligi ana shunda. Amaliyotda tarbiya vositalari tushunchasi ham ajratiladi. Usullar deganda ta’sir ko‘rsatishlar birligi, vosita deganda, usullar yig‘indisi tushuniladi. Vosita – bu usul ham emas, metod ham emas. Masalan, mehnat – tarbiya vositasi, biroq uni ko‘rsatib berish, mehnatni baholash, ishdagi xatoni ko‘rsatish – bu usullar. So‘z (keng ma’noda) – tarbiya vositasi, biroq replika taqkoslash – usullar. Bu bilan bog‘liqlikda ba’zan tarbiya metodlari qo‘yilgan maqsadni muvafaqqiyatli amalga oshirish uchun foydalaniladigan usul va vositalar tizimi sifatida aniqlanadi. Xuddi shuningdek metodning tuzilishida usullar va vosita albatta mavjud bo‘ladi. Tarbiya metodlarining maqsadi va mazmuni 117 Metodning ijobiy va salbiysi bo‘lmaydi, tarbiya jarayonida ma’lum yo‘lni yuqori darajadagi samarali va samarasiz deya baholash mumkin emas. Metodning samaradorligini u

qo‘llanilayotgan sharoit nuqtai nazaridan baholash mumkin. Tarbiya metodlarini maqsadga muvofiq tanlash bir qator omillarga bog‘liq.

1. Tarbiyaning maqsad va vazifalari. Maqsad nafaqat metodlarni oqlaydi, balki ularni aniqlab beradi. Maqsad qanday bo‘lsa, unga erishish metodlari unga muvofiq bo‘lishi zarur.

2. Tarbiya mazmuni. Unutmaslik kerakki, aynan bitta vazifa turli xil fikrlar bilan to‘ldirilgan bo‘lishi mumkin. SHuning uchun metodlarni umuman mazmun bilan emas, balki aniq fikr bilan bog‘lash g‘oyat muhimdir

3. Tarbiyalanuvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish. U yoki shunga o‘xshash vazifalar tarbiyalanuvchilarning yoshi bilan bog‘liqlikda hal qilinadi. Yosh bu oddiygina qancha yashaganligi son ko‘rsatkichi emas. Unda egallangan ijtimoiy tajriba, psixologik va ahloqiy sifatlarning rivojlanganlik darajasi o‘z aksini topadi. Aytaylik, mas’uliyat tuyg‘usini boshlang‘ich ta’lim, o‘rta ta’lim va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarida ta’lim olayotgan o‘quvchilarda ham shakllantirish mumkin. Biroq har bir bosqichda mazkur sifatni shakllantirish borasida turli metodlar qo‘llaniladi.

4. Jamoaning shakllanganlik darajasi. O‘zini o‘zi boshqarishning jamoa shaklining rivojlanishi bilan bog‘liqlikda pedagogik ta’sir ko‘rsatish metodlari ham o‘zgarmasdan qolmaydi. Bizga ma’lumki boshqaruvning moslashuvchanligi tarbiyachining tarbiyalanuvchilar bilan muvafaqqiyatli hamkorligining zaruriy sharti.

5. Tarbiyalanuvchilarning individual o‘ziga xosliklari. Umumiy metodlar, umumiy dasturlarning o‘zi tarbiyaviy o‘zaro ta’sir etishning asosi bo‘la olmaydi. Ularni indivudual va shaxsiy tuzatish zarur. Insonparvar pedagog har bir shaxs o‘ziga xosligini rivojlanishiga, o‘ziga xosligini saqlashga, o‘zining «Men»ini amalga oshirishiga imkon beradigan metodlarni qo‘llashga harakat qiladi.

6. Tarbiyaviy shart-sharoitlar. Unga moddiy, psixofiziologik, sanitar-gigienikdan tashqari sinfda yuzaga keladigan munosabatlar: jamoadagi iqlim, pedagogik rahbarlik usuli va boshqalar tegishlidir.Ma’lumki, mavhum shart-

sharoitlar bo‘lmaydi, ular hamisha aniq. Ularni birlashuvi aniq holatlarda ko‘rinadi. Tarbiya amalag oshadigan sharoit pedagogik vaziyatlar nomini oldi.

7. Tarbiya vositalari. Tarbiya metodlari tarbiya jarayonining tarkibiy qismlari sifatida yuzaga chiqadigan tarbiya vositalaridan tashkil topadi. Metodlar ular bilan mustahkam bog‘langan va birgalikda qullaniladigan boshqa tarbiya vositalari ham mavjud. Masalan, metodlarni samarali qo‘llanilishi uchun zaruriy yordam beruvchi ko‘rgazmali qo‘llanmalar, tasviriy san’at asarlari va musiqa san’ati, ommaviy axborot vositalari.

8. Pedagogik malakani egallaganlik darajasi. Tarbiyachi odatda faqat o‘zi biladigan va qo‘llashni egallagan metodlarni tanlab oladi. Ko‘plab metodlar murakkab bo‘lganligi bois, o‘kituvchida ko‘p kuch ishlatishni talab etadi. Bunday mas’uliyatdan bo‘yin tovlaydigan pedagoglar ularsiz faoliyatni tashkil etishga harakat qiladi. Natijada turli obrazli, xilma-xil maqsad, vazifa, sharoitlardan kelib chiqib metodlardan foydalanishga qaraganda samarasi past bo‘ladi.

9. Tarbiya vaqti. Qachonki, vaqt kam , maqsad esa katta bo‘lsa, «Kuchli harakatlantiruvchi» metodlar qo‘llaniladi, qulay sharoitlarda esa, tarbiyaning «ayaydigan» metodlaridan foydalaniladi. Tarbiyani «kuchli harakatlantiruvchi» va «ayaydigan» metodlarga bo‘linishi shartli: birinchisi tanbeh berish va majbur qilish bilan, ikkinchisi nasihat qilish va doimiy o‘rgatish bilan bog‘liq.

10. Kutiladigan natija. Metodni tanlayotganda, tarbiyachida muvafaqqiyatga erishishiga ishonch bo‘lishi kerak. Buning uchun qo‘llanilayotgan metod qanday natijaga olib kelishini oldindan ko‘ra bilish kerak. Zamonaviy pedagogikada ba’zilari amaliy vazifalarni hal etishga, ba’zilari faqat nazariy vazifalarni o‘zida aks ettiradigan o‘nlab tarbiya tasniflari mavjud. Metodlar o‘ziga xos xarakteriga ko‘ra ishontirish, mashq, rag‘batlantirish va tanbeh berishga bo‘linadi. Mazkur holatda metodning umumiy xarakterli belgisi uo‘zida yo‘nalganlikni, o‘ziga xoslikni, qo‘llanishga yaroqlilikni aks ettiradi. Bu tasnifga metodlarning ko‘proq umumlashganligi 118 bilan ajralib turuvchi tarbiyaning umumiy metodlari mustahkam tutashib ketadi. U o‘zida ishontirsh, faoliyatni tashkil etish, o‘quvchilarning xulq-atvorini rag‘batlantirish metodlarini qamrab oladi. I.S.

Marenkoning tasnifida tarbiya metodlari guruhlar quyidagicha nomlanadi: tushuntirshli-reproduktiv, muammoli vaziyatli, o‘rgatish va mashq metodlari, rag‘batlantirish, to‘sqinlik qiluvchi, boshqarish, o‘zini-o‘zi tarbiyalash

Tarbiyalanuvchilarga ta’sir etishi natijalariga ko‘ra metodlarni ikki guruhga bo‘lish mumkin:

1. Axloqiy me’yorlar, motivlarni hosil qilishga, tasavvur, tushuncha, g‘oyalarni shakllantirishga ta’sir etuvchi.

2. Xulq-atvorning u yoki bu turini aniqlaydigan odatlarni hosil qilishga ta’sir etuvchi. Metodlar tarbiyaning maqsad va mazmuniga bog‘liq bo‘ladi. Tarbiya metodlari barkamol shaxs fazilatlarini tarkib toptirishga qaratilgan bo‘ladi. Shuning uchun tarbiyalanuvchilarning rivojlanganlik darajasini hisobga olish tarbiya metodlaridan samarali foydalanishning muhim shartlari hisoblanadi. O‘quvchilar u yoki bu tarbiyaviy ta’sirga turlicha munosabatda bo‘ladi. Bu ularning alohida xususiyatlariga, tarbiyalanganlik darajasiga, tarbiya metodlarining qay darajada o‘rinli va samarali tanlanganligiga hamda mohirona qo‘llanganiga bog‘liq. Tarbiya metodlarini to‘g‘ri tanlash tarbiya vazifalarini ijobiy hal qilishda o‘quvchilarning o‘z-o‘zini tarbiyalash faolligini oshirishga yordam beradi.

Masalan, o‘qituvchi birinchi sinf o‘quvchilari bilan ishlash jarayonida o‘quvchilarni ular uchun yangi bo‘lgan mehnat faoliyatini o‘rgatishda o‘quvchilarning xulq-atvor qoidalarini, ularda kun tartibi aniq bo‘lishi muhimligini, ularga o‘quvchilarning qat’iy tartibga amal qilishi zarurligini tushuntirish metodidan foydalanadi. Tushuntirish bilan bir qatorda sinfga to‘g‘ri kirib kelishga, ularni o‘qituvchi va o‘quvchilar bilan salomlashishga, tartib-intizomni saqlashga mashq qildirib boradi. Shuning bilan birgalikda birinchi sinf o‘quvchilarini yuqoridagi jarayonlarga dars vaqtida odatlantirib boradi. Bu jarayonda ularning amalga oshirgan ijobiy ishlari, o‘quv ishi natijalari rag‘batlantirib borishni taqozo etadi. Ko‘rinib turibdiki, o‘qituvchi o‘quvchilar bilan tarbiya jarayonini olib borganda turli xil usul va metodlarni qo‘llaydi. Tarbiya metodlarining xilma-xilligi ularni turlarga ajratish, tasnif qilish zarurligini ko‘rsatadi. Shuning uchun ularning alohida xususiyatlarini hisobga olib guruhlarga ajratish mumkin. Tarbiyaviy natijalarga

erishishni istagan har bir o‘qituvchi (tarbiyachi) tarbiya metodlari va ularning mohiyatini puxta o‘zlashtirib olish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Uzbekiston Respublikasi Prezidenta Sh.Mirziyovning “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarkatish tizimini takomillashtirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish xdmda targibot kilish buyicha komissiya tuzish tugrisida”ga Farmoyishi. G‘G‘ Xalq so‘zi gazetasi. 2017 yil, 13 yanvar.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta‘lim-tarbiya tizimini yanada

3. takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2020-yil 6-noyabrdagi PQ–4884-son qarori

4. Azizxo‘jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T.: Fan, 2006 1. A.Avloniy. «Turkiy Guliston yohud ahloq», «O‘qituvchi» nashriyoti., -T.: 1993 yil. 2. Abu Nasr Forobiy. «Fozil odamlar shahri» «A.Qodiriy» nashriyoti. -T.: 1993 yil. 3. A.Navoiy. «Mahbub ul-Qulb». Asarlar. O‘n besh tomlik. 13-tom. – T.: Adabiyot va san’at nashriyoti 1996 yil. 4. O.Musulmonova. «Ma‘naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi». «O‘qituvchi» nashriyoti.-T.: 1996 yil.

5. Safo Ochil. «Mustaqillik ma‘naviyati va tarbiya asoslari» «O‘qituvchi» nashriyoti. – T.: 1995 yil. 6. Z.Mirtursunov. «Halq pedagogkasi». –T.: 1994 yil.

7. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik-T.:sanostandart, 2017.

JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHDA MILLIY GVARDIYA VA ICHKI ISHLAR ORGANLARI O‘RTASIDAGI HAMKORLIKNI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI

Mitanov Zafar Ne’matullaevich
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi.

Jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasida huquqni muhofaza qiluvchi organlar va tadbirkorlik sub’ektlari o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish xalqaro tajriba bilan ham hamohangdir. Ba’zi mamlakatlarda xususiy xavfsizlik xizmatlari va davlat idoralari o‘rtasidagi sheriklik mexanizmlari orqali xavfsizlik choralari samaradorligi oshirilgani ko‘zga tashlanadi. Masalan, Yevropa Ittifoqida "Public-Private Partnership" (jamoat-xususiy sheriklik) modeli[1] jamoat xavfsizligini ta’minlashda yaxshi natijalar bermoqda.

Aholi ko‘p to‘planadigan joylar xavfsizligi har doim e’tibor markazida bo‘lishi lozim. Milliy gvardiya va ichki ishlar organlari o‘rtasidagi ommaviy tadbirlar o‘tkaziladigan joylarda xavfsizlik bo‘yicha profilaktik choralar samaradorligini oshirish uchun oldindan tahlil, prognozlash va axborot almashinuvini takomillashtirish, favqulodda vaziyatlar oldini olish, jinoyatchilikni kamaytirish bilan bog‘liq hamkorlikning samaradorligini oshirish muhim ahamiyatga ega.

Jamoat xavfsizligini ta’minlashda ta’sirchan choralar ko‘rish konsepsiyasi ilmiy jihatdan prognozlash (predictive analysis) va xavfsizlik muhitiga tezkor moslashish mexanizmlari bilan bog‘liq. Bu mexanizmlar jamoat xavfsizligini ta’minlash sub’ektlari, xususan, ichki ishlar va Milliy gvardiya organlari o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashga, xavfsizlik bo‘yicha profilaktika jarayonini kuchaytirishga imkon beradi.

Bugungi kunda ichki ishlar va Milliy gvardiya organlarining o‘zaro hamkorligi qonunchilik hujjatlarida mustahkamlangan. Xususan, normativ-huquqiy hujjatlarda, ichki ishlar organlari o‘z faoliyatini ochiq va shaffof tarzda, davlat organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, boshqa tashkilotlar va fuqarolar, shuningdek ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlikda amalga oshirishi shuningdek, Milliy gvardiya o‘z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarishda davlat organlari va boshqa tashkilotlar, fuqarolik jamiyati institutlari hamda fuqarolar bilan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hamkorlik qilishi belgilangan. O‘zbekiston Respublikasining «Ichki ishlar organlari to‘g‘risida»gi[2] va

[1] https://www.icao.int/sustainability/pages (мурожаат санаси 03.02.2025).

[2] O‘zbekiston Respublikasining «Ichki ishlar organlari to‘g‘risida»gi qonun // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2016-y., 38-son, 438-modda; 2017-y., 24-son, 487-modda, 37-son, 978-modda, Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 24.05.2019-y., 03/19/542/3177-son, 2019-y., 2-son, 47-modda, 05.09.2019-y., 03/19/563/3685-son, 11.09.2019-y., 03/19/566/3734-son; 30.10.2019-y., 03/19/575/3972-son; 25.12.2019-y., 03/19/597/4193-son; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son; 14.03.2022-y., 03/22/759/0213-son, 01.06.2022-y., 03/22/772/0460-son, 07.06.2022-y., 03/22/775/0477-son; 28.10.2022-y., 03/22/797/0967-son; 12.07.2023-y., 03/23/854/0463-son; 14.03.2024-y., 03/24/920/0209-son; 09.09.2024-y., 03/24/957/0689-son; 21.09.2024-y., 03/24/963/0735-son; 02.12.2024-y., 03/24/1008/0988-son.

«Milliy gvardiyasi to‘g‘risida»gi qonun[1]lari bu borada muhim huquqiy asos bo‘lib hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi (2021 yil 29 noyabr) PF-27-son farmoni[2] qabul qilindi. Farmonga muvofiq, quyidagilar belgilandi. Xususan,

birinchidan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar markazlari va Toshkent shahrida ommaviy tadbirlarni o‘tkazishda hamda istirohat bog‘lari, xiyobonlar va bozorlarda jamoat tartibini saqlashni tashkil etish bevosita Milliy gvardiya bo‘linmalari tomonidan amalga oshirilishi belgilandi;

ikkinchidan, jamoat tartibini saqlash sohasida sodir etiladigan ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqish vakolati ichki ishlar organlari bilan bir qatorda Milliy gvardiyaga berilishi bo‘yicha vazifalar belgilandi;

uchinchidan, Ichki ishlar vazirligi, Milliy gvardiya jamoat xavfsizligini ta’minlovchi subyektlar sifatida mustahkamlandi va ularning aniq vakolat doiralari belgilandi.

«2022 – 2025 yillarda O‘zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimini rivojlantirish strategiyasi»ga muvofiq jamoat tartibini saqlashda maxsus texnik vositalar, tezkor axborot almashish, hamda boshqaruv va xavfsizlik mexanizmlarini rivojlantirish, jinoyatchilik ko‘p uchraydigan hududlarda tungi vaqtda avtopatrul, otliq va piyoda patrullarni uzluksiz tashkil qilish, ularning vakolat va vazifalarini aniqlash, huquqbuzarliklarni aniqlash va ma’muriy jaza choralarini qo‘llash bo‘yicha Milliy gvardiya va ichki ishlar organlarining vakolat doirasini kengaytirish, «Fidokor yoshlar» jamoatchilik patrul guruhlari va huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtirishning samarali mexanizmlarini joriy etish va jamoat xavfsizligini ta’minlash uchun «E-jamoat xavfsizligi» yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimini ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish kabi asosiy vazifalar belgilandi[3].

Jamoat xavfsizligini ta’minlash, bu sohada sub’ektlar, xususan ichki ishlar va milliy gvardiya organlarining hamkorligini ta’minlashga huquqiy islohotlar natijasida bugungi kunda 50 ga yaqin qonunchilik hujjatlari qabul qilindi. Bu esa, o‘z navbatida huquqni qo‘llash amaliyotida murakkabliklarni keltirib chiqaradi. **Shunday ekan,** jamoat xavfsizligini ta’minlash **soha**si**dagi qonunchilik hujjatlarini bosqichma-bosqich va tizimli takomillashtirib borish davlatning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Zero,** A.E.Imamov ta’kidlaganidek**, “qonun – zamonaviy jamiyat huquqiy hayotining asosiy fenomeni va o‘zak yuridik**

[1] O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to‘g‘risidagi qonun // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 19.11.2020-y., 03/20/647/1569-son; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 18.05.2022-y., 03/22/770/0424-son; 07.06.2022-y., 03/22/775/0477-son; 12.07.2023-y., 03/23/854/0463-son; 29.11.2023-y., 03/23/881/0906-son; 29.11.2023-y., 03/23/880/0905-son; 09.09.2024-y., 03/24/957/0689-son; 21.09.2024-y., 03/24/963/0735-son; 02.12.2024-y., 03/24/1008/0988-son.

[2]O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 29 noyabrdagi «O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-27-son farmoni // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 01.12.2021 й., 06/21/27/1116-сон; 16.01.2024 й., 06/24/10/0031-сон.

[3] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 29 ноябрдаги ПФ-27-сон Фармони билан тасдиқланган “2022 — 2025 йилларда Ўзбекистон Республикасида жамоат хавфсизлигини таъминлаш тизимини ривожлантириш стратегияси” // https://lex.uz/mact/5749291.

tushunchasidir. O‘zida tizimlashgan ijtimoi manfaatlarni ifodalagani holda qonun ijtimoiy munosabatlarning bosh tartibga soluvchisi, shaxs huquq va erkinliklarining kafili sifatida namoyon bo‘ladi. Qonun mazmunida va uni hayotga tatbiq etishda huquqiy mafkura namoyon bo‘ladi hamda huquqiy siyosat amalga oshiriladi”[1]**.**

A.E.Imamov ta’kidlaganidek**,** qonun – zamonaviy jamiyatdagi huquqiy hayotning asosiy fenomeni sifatida barcha ijtimoiy munosabatlarni tizimli tarzda boshqarish va tartibga solishda muhim o‘rin tutadi**.** Jamoat xavfsizligini ta’minlash borasida qonunlarning samarali ishlashi jamiyat manfaatlari va shaxs huquqlarini himoya qilishning asosiy kafolati hisoblanadi**.**

Fikrimizcha**,** qonunning mazkur jarayondagi roli ikki asosiy yo‘nalishda namoyon bo‘ladi**:**

birinchisi, jamoat tartibi va xavfsizligi sohasida qonunchilik idoralar va fuqarolar o‘rtasidagi munosabatlarni aniq vakolat va majburiyatlar asosida tartibga soladi**.** Mazkur qonunlar organlar o‘rtasidagi hamkorlik**,** profilaktika ishlari**,** huquqbuzarliklarning oldini olish va favqulodda vaziyatlarga javob qaytarish mexanizmlarini belgilaydi**;**

ikkinchisi, jamoat xavfsizligiga doir siyosat va chora-tadbirlar qonunchilik orqali amalga oshiriladi**.** Bu yerda qonunlar ijtimoiy manfaatlarni ifodalagan holda**,** xavfsizlik strategiyasining uzviy qismi sifatida ishlaydi**.** Huquqiy siyosat orqali organlar o‘rtasida muvofiqlashtiruvchi mexanizmlar mustahkamlanadi**.**

M.K.Najimovning ta’kidlashicha, mustaqillik sharoitida, ya’ni ijtimoiy hayotning barcha sohalarida islohotlarni amalga oshirish uchun samarali huquqiy mexanizmlarni yaratishga, yangi ijtimoiy munosabatlarning huquqiy negizlarini ishlab chiqishga asosiy e’tibor qaratildi[2], xususan jamoat xavfsizligi sohasida ham. Ushbu fikrga qo‘shilgan xolda ta’kidlashimiz mumkinki, bu tamoyil jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasida Ichki ishlar va Milliy gvardiya organlari o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirishda muhim o‘rin tutadi.

Bizningcha, Ichki ishlar va Milliy gvardiya organlari o‘rtasidagi hamkorlikning samaradorligi quyidagi huquqiy asoslar orqali ta’minlanadi:

birinchidan, idoralararo hamkorlikni mustahkamlovchi huquqiy mexanizmlar orqali. Jamoat xavfsizligini ta’minlashda har bir organning vakolatlari, majburiyatlari va javobgarligi qonunchilik orqali aniq belgilab berilishi hamkorlikning tizimli bo‘lishini ta’minlaydi. Bu nafaqat operativ hamkorlikni, balki tezkor axborot almashish va birgalikdagi tadbirlarni tashkil etishni osonlashtiradi;

ikkinchidan, islohotlar va yangi munosabatlarni huquqiy tartibga solish orqali. Mustaqillik davridagi islohotlar doirasida xavfsizlik sohasidagi o‘zgarishlar va zamonaviy tahdidlarga mos ravishda qonun hujjatlarini yangilash zaruriyati yuzaga keladi. Shu orqali Milliy gvardiya va Ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtirishga qaratilgan yangi me’yorlar ishlab chiqiladi.

Shunday qilib, huquqiy mexanizmlarning yaratilishi jamoat xavfsizligi sohasidagi davlat organlari hamkorligining samaradorligini oshirishga, xavflarni bartaraf etishdagi tizimli yondashuvni ta’minlashga xizmat qiladi.

---

[1] Имамов А.Э. Механизм реализации закона в Республике Узбекистан: вопросы теории и практики: Автореф. дисс. ... канд. юрид. наук. – Ташкент: Академия МВД, 2004. – С.9.

[2] Нажимов М.К. Глобализация жараёнлари ва давлатнинг экологик функцияси // Давлат қурилиши ва бошқарувининг долзарб муаммолари: илмий мақолалар тўплами / Масъул муҳаррир: проф. Ҳ.Т.Одилқориев. – 2015. – №1. – Тошкент: ТДЮУ, Ҳуқуқий тадқиқотлар маркази, 2015. – Б.145.

Qonunchilik va normativ-huquqiy bazadagi kamchilik va nuqsonlarga imkon qadar tezroq barham berish, huquqni qo‘llash amaliyotida g‘oyat jiddiy o‘zgarishlarni joriy etish, huquqni muhofaza qilish va sud organlarining faoliyatida faqat va faqat qonunga rioya etlishini ta’minlash bilan bog‘liq ishlarni takomillashtirish darkor[1].

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning 2018 yil 8 avgustdagi PF-5505-son farmonida “Idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni imkon qadar qisqartirish, umumiy tusdagi, harakatsiz va huquqni qo‘llashga ta’sir etmaydigan qonun hujjatlarini qayta ko‘rib chiqish hamda asossiz cheklovlar, ortiqcha ma’muriy tartib-taomillar va tartibga solishning eskirgan mexanizmlarini bartaraf etish hisobiga aniq sohalardagi munosabatlarni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tizimlashtirish va kodifikatsiyalash”[2] degan ustuvor vazifa belgilangan.

Darhaqiqat, mazkur Farmonda belgilangan vazifalar jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasida huquqiy tizimni isloh qilishning muhim yo‘nalishlarini belgilab beradi**.** Bu jarayonda Milliy gvardiya va Ichki ishlar vazirligi kabi sub’ektlarning hamkorligi va muvofiqlashtirilgan faoliyati uchun normativ-huquqiy hujjatlarning tizimlashtirilishi muhim huquqiy asos hisoblanadi**.** Jamoat xavfsizligi sohasida yagona qonun hujjati loyihasini ishlab chiqish va qabul qilish orqali jamoat tartibini saqlash**,** huquqbuzarliklar profilaktikasi**,** yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash va probatsiya sohasidagi munosabatlar va vakolatlarni tartibga soluvchi **200** dan ortiq normativ-huquqiy va idoraviy normativ hujjatlar normalari va qoidalarini tizimlashtirish davr talabidir**.**

Fikrimizcha**,** Milliy gvardiya va Ichki ishlar vazirligi kabi sub’ektlarning hamkorligi va muvofiqlashtirilgan faoliyati uchun normativ-huquqiy hujjatlarning tizimlashtirilish masalasini quyidagi omillar misolida ko‘rishimiz mumkin**:**

birinchidan, jamoat xavfsizligini ta’minlovchi normativ-huquqiy bazani optimallashtirish**.** Huquqni muhofaza qiluvchi organlar**,** jumladan**,** Ichki ishlar vazirligi va Milliy gvardiyaning vazifa va vakolatlari bir-birini takrorlaydigan yoki turli xil talqin qilinishi mumkin bo‘lgan normalardan tozalanishi maqsadga muvofiq**.** Bu orqali normativ hujjatlar aniq va ta’sirchan bo‘lib**,** xavfsizlik sohasida yagona huquqiy yondashuvni ta’minlaydi**;**

ikkinchidan, hamkorlikni mustahkamlovchi qonunchilikni tizimlashtirish**.** Milliy gvardiya va Ichki ishlar vazirligi o‘rtasidagi jamoat xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha hamkorlik mexanizmlari aniq va tizimli qonunchilik asosida yo‘lga qo‘yilishi maqsadga muvofiq**.** Bu sohada turli idoralarning majburiyat va vakolatlarini aniqlashtiruvchi normalarni yagona qonun hujjatlariga birlashtirish qo‘shma faoliyatning samaradorligini oshiradi**;**

uchinchidan, eskirgan mexanizmlardan voz kechish va zamonaviy yondashuvlarni joriy etish**.** Eskirgan ma’muriy tartib-taomillar va cheklovlar**,** jamoat xavfsizligini ta’minlash choralarini samarali amalga oshirishga to‘sqinlik qiluvchi mexanizmlar qayta ko‘rib chiqilishi maqsadga muvofiq**.** Raqamli texnologiyalar**,** axborot almashish tizimlari

[1] Каримов И.А. Мамлакатимизни модернизация қилиш ва кучли фуқаролик жамияти барпо этиш – устувор мақсадимиз (Ўзбекистон Республикаси Қонунчилик палатаси ва Сенатнинг қўшма мажлисидаги маъруза) \\ Асосий мақсадимиз – ватанимиз тараққиёти ва ҳалқимиз фаравонлигини янада юксалтириш. –Т., 2010., 21 б.

[2] Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Норма ижодкорлиги фаолиятини такомиллаштириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида” 2018 йил 8 августдаги ПФ-5505-сон фармони // Lex.uz.

va jamoat xavfsizligini tezkor boshqarish vositalarini qonunchilikka integratsiya qilish muhim ahamiyatga ega**;**

*to'rtinchidan***,** normativ hujjatlarning barqarorligini va huquqiy aniqligini ta'minlash**.** Har bir xavfsizlik sub'ektining **(**Ichki ishlar vazirligi**,** Milliy gvardiya va boshqa idoralar**)** huquqiy vakolatlari aniq belgilangan va amalda muvofiqlashtirilgan normativ hujjatlar orqali boshqarilishi maqsadga muvofiq**.** Bu**,** o'z navbatida**,** idoralararo munosabatlarning huquqiy asosini mustahkamlashga xizmat qiladi**;**

*beshinchidan***,** huquqbuzarliklarning oldini olish va ma'muriy javobgarlik tizimini takomillashtirish**.** Turli idoralar **(**Ichki ishlar vazirligi**,** Milliy gvardiya va boshqa idoralar**)** o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish uchun huquqbuzarliklarni aniqlash**,** ularning oldini olish va ma'muriy chora-tadbirlarni samarali qo'llashni ta'minlovchi me'yoriy baza shakllantirilishi maqsadga muvofiq**.**

Tadqiqot jarayonida ko'rib chiqilgan masalalar tahlilidan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasida Ichki ishlar va Milliy gvardiya organlari hamkorligini t'minlash sohasida quyidagi muammolar mavjudligini keltirib o'tishimiz mumkin:

birinchi muammoli holat, Idoralararo hamkorlikda bir-birini takrorlaydigan funksiyalar va vakolatlar mavjud bo'lishi ba'zi hollarda mas'uliyatni aniqlashda qiyinchiliklar tug'diradi. Bu tezkor qarorlar qabul qilishdagi to'siqlarning paydo bo'lishiga sabab bo'ladi;

ikkinchi muammoli holat, Milliy gvardiya va Ichki ishlar organlari o'rtasida tezkor axborot almashish tizimi samarali rivojlanmagan, ma'lumotlar bazalari integratsiya qilinmagan. Xususan, huquqbuzarliklar statistikasi sohasida hamkorik samarali yo'lga qo'yilmagan. Bu jamoat xavfsizligi tahdidlariga tezkor javob berish va ularning oldini olish samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi;

uchinchi muammoli holat, qonun va me'yoriy hujjatlarda Milliy gvardiya va Ichki ishlar organlarining hamkorligiga oid aniq normalar va vakolatlar yetarlicha belgilanmagan. Bu holat hamkorlik jarayonida huquqiy bahslar va muammolarga sabab bo'lmoqda;

to'rtinchi muammoli holat, idoralararo hamkorlikda ishtirok etuvchi xodimlarning malakasini tizimli oshirish va ularni birgalikda ishlashga tayyorlash uchun maxsus o'quv dasturlari va amaliy mashg'ulotlar, shuningdek, jamoat xavfsizligi sohasida ***rahbar kadrlarni tayyorlash*** amaliyoti mavjud emas;

beshinchi muammoli holat, jamoat xavfsizligini ta'minlashda qo'llaniladigan maxsus texnik vositalar, transport va zamonaviy axborot texnologiyalari yetishmovchiligi patrul va tezkor guruhlarning harakatlarini muvofiqlashtirishni qiyinlashtiradi;

oltinchi muammoli holat, raqamli platformalar va avtomatlashtirilgan tizimlarning to'liq tatbiq etilmasligi jamoat xavfsizligini ta'minlash sub'ektlari, xususan ichki ishlar va milliy gvardiya organlariining tezkorlik va samaradorlik darajasini pasaytiradi;

yettinchi muammoli holat, jamoatchilik bilan aloqani kuchaytirish, fuqarolarning jamoat xavfsizligini ta'minlash organlari bilan hamkorligi yetarli darajada rivojlanmagan;

sakkizinchi muammoli holat, jahonda bir qancha rivojlangan mamlakatlarda jamoat xavfsizligini ta’minlash modellari mavjud. Masalan, Germaniya, AQSh, Xitoy, Janubiy Koreya va b.lar. Biroq, mamlakatimizda mazkur sohada keng qamrovli islohtla amalga oshrilayotgan bo‘lsada, milliy model mavjud emas.

Ichki ishlar va Milliy gvardiya organlari o‘rtasidagi hamkorlikdagi ushbu muammolarni bartaraf etish, qonunchilikni takomillashtirish, axborot texnologiyalarini joriy qilish va idoralararo muvofiqlikni ta’minlash orqali jamoat xavfsizligini yanada samarali boshqarish mumkin.

Shu bilan birga, jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasida sub’ektlar, xususan, Milliy gvardiya va ichki ishlar organlarining hamkorligini amalga oshirish yo‘nalishlarini shartli ravishda quyidagilarga bo‘lishimiz mumkin:

- jamoat xavfsizligiga oid qonunchilikni zamonaviy talablarga muvofiqlashtirish va takomillashtirish;
- jamoat xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan maqsadli, aniq yo‘naltirilgan dasturlarni ishlab chiqish va ularni amaliyotda tatbiq etish;
- jamoat xavfsizligini ta’minlash uchun davlat idoralari o‘rtasida qo‘shma o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil qilish va o‘tkazish;
- jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimida malakali kadrlar tayyorlash, ularni tegishli lavozimlarga joylashtirish, doimiy ravishda malakasini oshirish va qayta tayyorlash;
- jamoat xavfsizligiga tahdidlar darajasini baholash mezonlari va asosiy ko‘rsatkichlarni ishlab chiqish va amalga kiritish;
- jamoat xavfsizligining hozirgi holatini tahlil qilish va istiqboldagi rivojlanishini prognoz qilish, xavflarni bartaraf etishga qaratilgan choralar ishlab chiqish va amalga oshirish;
- jamoat xavfsizligiga qarshi qaratilgan huquqbuzarliklarning oldini olish va ularni sodir etgan shaxslarning belgilangan tartibda javobgarlikka tortilishi uchun choralar ko‘rish;
- jamoat xavfsizligini ta’minlashga mas’ul davlat organlari va jamoat tuzilmalari faoliyatini yagona markazlashgan tizimda muvofiqlashtirish va tezkor boshqaruvni yo‘lga qo‘yish;
- jamoat xavfsizligini ta’minlash jarayonlariga zamonaviy raqamli texnologiyalarni keng joriy etish;
- ilg‘or xalqaro tajribani tahlil qilish, uni milliy xavfsizlik tizimiga moslashtirish va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash.

Jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasida sub’ektlar, xususan, Milliy gvardiya va Ichki ishlar organlari o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish yo‘nalishlari yuqori samaradorlikka erishishda muhim ahamiyat kasb etadi. Qonunchilikni zamonaviy talablarga moslashtirish, maqsadli dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish xavfsizlik tizimini mustahkamlaydi. Davlat idoralari o‘rtasida qo‘shma o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazish va malakali kadrlar tayyorlash, tahdidlarni baholash hamda prognozlash mexanizmlari xavflarga tezkor javob qaytarish imkoniyatini oshiradi. Huquqbuzarliklarning oldini olish va fuqarolar xavfsizligini ta’minlash uchun zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etish zarur. Idoralararo

muvofiqlashtiruvchi tizimlar va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash orqali xavfsizlik choralari yanada samarali va barqaror bo‘ladi.

Shu bilan birga, jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasida sub’ektlar, xususan, Milliy gvardiya va ichki ishlar organlarining hamkorligini rivojlantirish, mazkur sohadagi mavjud muammolarni ijobiy xal etish maqsadida quyidagi taklif va tavsiyalarni amalga oshirish maqsadga muvofiq. Xususan:

birinchidan, jamoat xavfsizligini ta’minlash sub’ekti bo‘lgan har bir organning vazifa va vakolatlarini aniq ifodalovchi qonunchilik asoslarini shakllantirish zarur. Masalan, jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasida yagona **«Jamoat xavfsizligini ta’minlash to‘g‘risida»gi qonunni** qabul qilish mumkin. Bu qonun xavfsizlik organlari o‘rtasidagi hamkorlik mexanizmlari, vazifalar va javobgarlik chegarasini belgilaydi;

ikkinchidan, joylardagi ichki ishlar bo‘limlari va Milliy gvardiya bo‘linmalari faoliyatiga doir hujjatlarning o‘zaro muvofiqligini ta’minlash uchun normativ hujjatlar qayta ko‘rib chiqilishi kerak. Ayniqsa, tezkor axborot almashish, patrul xizmati, favqulodda holatlardagi hamkorlik masalalari bo‘yicha yagona standartlar ishlab chiqilishi lozim;

uchinchidan, Milliy gvardiya va Ichki ishlar organlari o‘rtasida tezkor axborot almashish uchun yagona raqamli platforma – **«Ye-jamoat xavfsizligi»** avtomatlashtirilgan axborot tizimini orqali real vaqtda ma’lumot almashish, tahlil va xavflarni baholash amaliyotini joriy etish;

to‘rtinchidan, jamoat xavfsizligiga oid vaziyatlarda birgalikda harakat qilish ko‘nikmalarini mustahkamlash uchun qo‘shma amaliy mashg‘ulotlar, xususan, ***jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimini takomillashtirishga yo‘naltirilgan maxsus-taktik, qo‘mondonlik shtab va harbiy-strategik tadqiqot o‘quvlarini tizimli*** tashkil etish zarur;

beshinchidan, BMT va YeXHT tavsiyalariga mos ravishda xavfsizlik mexanizmlari bo‘yicha normalarni milliy qonunchilikka joriy etish maqsadida ***“Jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasidagi xalqaro huquqiy hujjatlar va ularni milliy qonunchilikka implemintatsiya qilish masalalari”*** mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya tashkil etish maqsadga muvofiq;

oltinchidan, Ichki ishlar vazirligi va Milliy gvardiya o‘rtasida amoat xavfsizligini ta’minlash sohasida samarali muvofiqlashtiruvchi mexanizmni joriy qilish, masalan, doimiy faoliyat yurituvchi **“Jamoat xavfsizligi bo‘yicha idoralararo muvofiqlashtiruvchi komissiya”ni** faoliyatini yo‘lga qo‘yish orqali jamoat xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha strategik va amaliy choralarni muvofiqlashtirib, muhim masalalarni tezkor hal etish;

yettinchidan, jamoat xavfsizligi sohasida raxbar kadrlarni tayyorlash tizimini asoslangan mexanizmlarini ishlab chiqish, shuningdek, raxbar kadrlarni tayyorlashga oid o‘quv-moddiy bazani yaratish;

sakkizinchidan, huquqbuzarliklarning oldini olishda jamoatchilik guruhlari, xususan, ***«Fidokor yoshlar»*** kabi patrul guruhlari bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, jamoat xavfsizligi tadbirlarida fuqarolik jamiyati institutlari va volontyorlarning ishtirokini oshirish orqali profilaktika ishlari samaradorligini kuchaytirish;

to‘qqizinchidan, hozirgi xavfsizlik holati va istiqboldagi tahdidlarni baholashga qaratilgan tahlil va prognozlash tizimini ishlab chiqish. Bu tizim xavf-xatarlarni erta aniqlash, tegishli choralarni o‘z vaqtida ko‘rish imkonini beradi;

*o‘ninchidan, j*amoat xavfsizligi tadbirlarini samarali bajarish uchun Milliy gvardiya va Ichki ishlar organlari texnik vositalar, zamonaviy jihozlar va moliyaviy qo‘llab-quvvatlash bilan ta’minlash orqali resurslarni taqsimlash va boshqarishda hamkorlikni kuchaytirish maqsadga muvofiq;

o‘n birinchidan, har ikki organ faoliyatida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishni kengaytirish, masofaviy boshqaruv va monitoring tizimlarini joriy qilish orqali xavfsizlik choralarining tezkorligi va samaradorligini oshirish;

o‘n ikkinchidan, jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasidagi islohotlarimiz natijasi o‘laroq, ***jamoat xavfsizligini ta’minlashning milliy modelini*** ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish maqsadga muvofiq.

Yuqoridagi ilmiy tahlillardan xulosa qilishimiz mumkinki, jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasida Milliy gvardiya va Ichki ishlar organlari hamkorligini rivojlantirish, huquqiy bazani aniqlash, yagona qonun va standartlar joriy etish, axborot almashish platformasini yaratish, qo‘shma mashg‘ulotlar va rahbar kadrlarni tayyorlash tizimini shakllantirish hamkorlikni yanada mustahkamlaydi. Xalqaro tajribadan foydalanish, tahlil va prognozlash mexanizmini yo‘lga qo‘yish xavf-xatarlarni oldindan aniqlash imkonini oshiradi. Texnika va moliyaviy resurslarni taqsimlashni takomillashtirish, shuningdek, raqamli texnologiyalardan keng foydalanish xavfsizlik tizimining tezkor va samarali faoliyat ko‘rsatishiga zamin yaratadi. Ushbu choralar natijasida jamoat xavfsizligini ta’minlashning milliy modeli shakllantirilishi va uning amaliyotga tatbiq etilishi kutilgan ijobiy natijalarni ta’minlaydi.

YANGI O‘ZBEKISTONDA “XAVFSIZ TA’LIM” KONSEPSIYASINI AMALGA OSHIRISHDA O‘QUV-TARBIYA JARAYONINI TASHKIL ETISH VA UNING MAZMUNI.

Shirinboyeva Mohigul Mansur qizi
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Maxsus fakultet talabasi

“Xavfsiz ta’lim” konsepsiyasi Yangi O‘zbekistonning ta’lim tizimida o‘quvchilar va pedagoglar uchun xavfsiz, zamonaviy, yuqori sifatli ta’lim muhitini yaratishga yo‘naltirilgan. Ushbu konsepsiya doirasida o‘quv-tarbiya jarayonini tashkil etish va mazmuni quyidagi asosiy yo‘nalishlarda amalga oshiriladi.

O‘quv muassasalarida xavfsizlikni ta’minlash: Jismoniy xavfsizlik: Maktablar va ta’lim muassasalarida xavfsizlik choralari kuchaytiriladi, jumladan, xavfsizlik tizimlari, kuzatuv kameralarini o‘rnatish, qo‘riqlash xizmati bilan hamkorlik qilish, favqulodda vaziyatlarda evakuatsiya rejalarini ishlab chiqish.

Psixologik xavfsizlik: Ta’lim muassasalarida ijtimoiy-psixologik xizmatlarni kuchaytirish orqali o‘quvchilar va pedagoglarning psixologik holatini monitoring qilish, zo‘ravonlik va diskriminatsiyani oldini olish.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish: Ta’lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) keng foydalanish orqali o‘quvchilarning bilim olish imkoniyatlarini kengaytirish. Interaktiv va innovatsion dars metodlari bilan o‘qitish: O‘quvchilarning ijodkorlik, tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan metodlarni qo‘llash.

Masofaviy ta’lim tizimlarini rivojlantirish: Epidemiyalar yoki boshqa favqulodda holatlar davrida ta’limning uzluksizligini ta’minlash uchun masofaviy ta’lim vositalarini keng joriy etish.

Ta’lim mazmunini takomillashtirish: Ta’lim dasturlari va o‘quv rejalarini takomillashtirish: O‘quv dasturlari zamon talablariga mos ravishda modernizatsiya qilinadi, amaliyotga yaqin fanlar va kompetentsiyalar rivojlantiriladi.

Vatanparvarlik va insoniy qadriyatlarni rivojlantirish: O‘quvchilarga milliy va xalqaro qadriyatlarni singdirish orqali ularning har tomonlama tarbiyalanishi ta’minlanadi.

Xalqaro standartlarga mos ravishda ta’lim mazmunini yangilash: Ta’lim tizimida xalqaro tan olingan standartlar va ilg‘or tajribalarni integratsiya qilish orqali o‘quvchilarga dunyo miqyosida raqobatbardosh bilim va ko‘nikmalar berish

O‘qituvchilar malakasini oshirish: Pedagoglarni muntazam ravishda qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarini tashkil etish, ular uchun xalqaro darajadagi sertifikatlash dasturlarini joriy etish.

O‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash: Pedagogik texnologiyalarni o‘rganish va ilg‘or tajribalarni o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan seminar va treninglar o‘tkazish.

Salomatlik va gigiyena: O‘quv muassasalarida gigiyenik talablarni qat’iy rioya qilish: O‘quvchilar va xodimlar uchun sanitariya-gigiyena sharoitlarini yaxshilash, tibbiy ko‘riklarni muntazam o‘tkazish.

To‘g‘ri ovqatlanish va jismoniy faollik: O‘quvchilarni jismonan va aqlan sog‘lom rivojlantirishga qaratilgan dasturlarni amalga oshirish, maktablarda sport mashg‘ulotlari va jismoniy tarbiyani kuchaytirish.

Ijtimoiy va iqtisodiy tenglikni ta’minlash Ijtimoiy himoyaga muhtoj o‘quvchilarni qo‘llab-quvvatlash: Kam ta’minlangan, nogironligi bor yoki ehtiyojmand bolalarga ta’lim olishda teng imkoniyatlar yaratish.

Ta’limga kirish imkoniyatini kengaytirish: Qishloq joylarda va uzoq hududlarda ta’lim olish sharoitlarini yaxshilash uchun zarur infratuzilmani rivojlantirish. Yangi O‘zbekistonda “Xavfsiz ta’lim” konsepsiyasini amalga oshirish orqali ta’lim tizimining barcha darajalarida xavfsiz va qulay muhit yaratish, o‘quv-tarbiya jarayonini modernizatsiya qilish va unga moslashtirilgan zamonaviy pedagogik yondashuvlar kiritish maqsad qilinadi.

Pedagogik kengash umumta’lim muassasasi faoliyatiga doir asosiy masalalar kollegial muhokama qilinadigan, ta’lim muassasasida o‘quv-tarbiya jarayonini rivojlantirish, takomillashtirish, uning faoliyati bilan bog‘liq barcha tashkiliy

masalalarni muvofiqlashtirish bo‘yicha doimiy faoliyat yuritadigan oliy organ hisoblanadi. Pedagogik kengashning faoliyati jamoatchilik asosida tashkil etiladi. Pedagogik kengash o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlariga, ushbu Nizomga, boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga, shuningdek umumta’lim muassasasining ustaviga amal qiladi. Pedagogik kengashning maqsadi va asosiy vazifalari Pedagogik kengashning maqsadi umumta’lim muassasasida davlatning ta’lim siyosatini amalga oshirish, umumta’lim muassasasining maqsadi va vazifalaridan kelib chiqqan holda ta’lim-tarbiya jarayonini rivojlantirish, uni takomillashtirishda pedagogik jamoaning faoliyat yo‘nalishini belgilash, ta’limdagi yutuqlarni va ilg‘or pedagogik tajribalarni amaliyotga joriy etishda pedagogik jamoani birlashtirish, demokratiya, oshkoralik, o‘zini o‘zi boshqarish tamoyillari asosida umumta’lim muassasasi boshqaruvini amalga oshirishdan iborat. Pedagogik kengashning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: umumta’lim muassasasi pedagogik jamoasining faoliyatini o‘quvchilarning egallashi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarini ta’minlashga, o‘quvchilarga ta’lim-tarbiya berish sifatini oshirishga yo‘naltirish; o‘quv va darsdan tashqari mashg‘ulotlar dasturlarini muhokama qilish va tasdiqlash; umumta’lim muassasasining vasiylik kengashi hamda pedagog xodimlarining yo‘nalishlar bo‘yicha axborotlari va hisobotlarini eshitish, umumta’lim muassasasining sanitariya-gigienik holati, yong‘inga qarshi amalga oshiriladigan ishlar, mehnatni muhofaza qilish, o‘quvchilarning sog‘lig‘i va hayotiga oid hamda boshqa masalalarni muhokama qilish va yakuniy xulosa berish; yangi o‘quv yili boshlanishiga qadar umumta’lim muassasasi huzuridagi maxsus komissiyaning Umumta’lim muassasasining o‘rnak ko‘rsatgan xodimlarini rag‘batlantirishning direktor jamg‘armasi hisobidan pedagog xodimlarning bazaviy lavozim maoshlariga ustamalar belgilash to‘g‘risidagi qarori yuzasidan axborotini eshitish; bosqichli nazorat va yakuniy davlat attestatsiyasini o‘tkazish, o‘quvchilarni sinfdan yuqori sinfga o‘tkazish, yakuniy davlat attestatsiyasiga ruxsat berish, shu jumladan

eksternlarni attestatsiyaga qo‘yish, bitiruvchilarga o‘qishni bitirganlik to‘g‘risida hujjatlarni, shu jumladan ularning dublikatini berish, a’lo ko‘rsatkichlarga va namunali xulqqa ega bo‘lgan o‘quvchilarni rag‘batlantirish yuzasidan qarorlar qabul qilish; ixtisoslashtirilgan fandan qo‘shimcha yakuniy attestatsiya kiritish masalasini ko‘rib chiqish (ayrim fanlar chuqur o‘rganiladigan davlat ixtisoslashtirilgan umumta’lim muassasalarida); o‘quvchilarga ta’lim berishda o‘qitishning ilg‘or pedagogik va axborotkommunikatsion texnologiyalaridan foydalanishni tatbiq etish choralarini ko‘rish; o‘quvchilarni yuksak ma’naviy-axloqiy, umuminsoniy va milliy ruhda, o‘z Vatani, xalqini ardoqlovchi, tinchlik va barqarorlikka qaratilgan milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqish va joriy etish; umumta’lim muassasasida ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va ta’lim samaradorligini oshirish bo‘yicha maqbul shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan qarorlar qabul qilish; fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari iltimosnomasiga va ota-onalar qo‘mitasining xulosasiga asosan darsliklar to‘plami bilan bepul ta’minlanadigan ijtimoiy yordamga muhtoj oilalardagi o‘quvchilar ro‘yxatini tasdiqlash; ilg‘or o‘qituvchilarning ish tajribalarini o‘rganish, ommalashtirish, ularni davlat mukofotlariga tavsiya etish, yosh o‘qituvchilarga metodik yordam ko‘rsatish ishlarini tashkil etish;

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hashimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi. – T.: O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2005

2. Dusmuxamedova Sh.A.,Nishonova Z.T., Jalilova S.X., Karimova Sh. K., Alimbaeva Sh.T. “Yosh va pedagogik psixologiya” T. TDPU, 2013.

3. Inoyatov U.I., Muslimov N.A., Usmonboyeva M., Inog‘omova D. Pedagogika: 1000 ta savolga 1000 ta javob Metodik qo‘llanma. ISBN.:2012-193 b.

4. Muslimov N.A. Bo‘lajak kasb ta‘limi o‘qituvchilarini kasbiy shakllantirish monografiya. – T.: Fan, 2004. 16. Fayzullaeva N. Pedagogik bilimlar – o‘qituvchi kasbiy mahoratining nazariy asosi Uzluksiz ta‘lim j. – T.:2006. 6-son. – 102-b

5. Sayidahmedov N.S. Yangi pedagogik texnologiyalar. — Toshkent, Moliya, 2003. - 172 b.

6. Куронов М. Миллий тарбия. - Т.: Маънавият, 2007. – 240b.

YO‘L HARAKATI SOHASIDAGI MA’MURIY HUQUQBUZARLIKLARNI OLDINI OLISHDA TA’LIM TIZIMI VA XORIJ TAJRIBASI

Sh.O.Axmedov
Jamoat xavfsizligini ta’minlash kafedrasi o‘qituvchisi, kapitan

N.M. Daniyarova
Jamoat xavfsizligi universiteti 3-bosqich kursanti

Annotatsiya: Ushbu maqola orqali yo‘l harakati sohasidagi ma’muriy huqubuzarliklarni aniqlash, bartaraf etish va oldini olishda zamon talabiga mos texnologiyalar va innovatsion yondashuvlarning afzalliklari haqida yoritilgan. Bundan tashqari xorijning rivojlangan davlatlari tajribalari va ularni respublika miqyosida tatbiq etish masalalari shuningdek, suniy intelekt tizimini yo‘l harakati xavfsizligi sohasini rivojlantirishdagi o‘rni haqida ta’kidlab o‘tilgan.

Kalit so‘zlari: Suniy intelekt, kameralar, radar kameralari, ANPR tizimi, Parkovka, jarima,

Bugungi kunda yo‘l harakati xavfsizligi – har bir jamiyat uchun eng muhim masalalardan biri hisoblanadi. Har yili dunyo bo‘ylab millionlab odamlar yo‘l harakati qoidalarini buzilishi oqibatida kelib chiqqan yo’l transport hodisalari natijasida halok bo‘ladi yoki jarohatlanadi, bu esa ayrim hollarda insonlarni moliyaviy inqirozga uchrashiga olib keladi. Natijada nafaqat insonlarning jismoniy va ruhiy salomatligi zarar ko‘radi, balki jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga ham katta zarar yetadi. Avtomobil harakati ortib borayotgan shaharlar va mintaqalar uchun yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash juda muhim masala bo‘lib qolmoqda.

O‘zbekiston ham bu muammoni hal qilishga katta e’tibor qaratmoqda. Mamlakatda yo‘l harakati qoidalarini buzish va yo‘l-transport hodisalarining oldini olish uchun turli chora-tadbirlar ko‘rilmoqda. Biroq, bu sohada ko‘p muammolar mavjud, va ularga qarshi samarali kurashish uchun yangi yondashuvlar va innovatsion yechimlar zarur. Shu bilan birga, xorijiy mamlakatlar tajribasi o‘zining

samaradorligi bilan ajralib turadi va ularning yondashuvlarini o‘rganish va tadbiq etish O‘zbekiston uchun juda foydali bo‘ladi.

Xorijiy tajribalarning tahlili, davlatlar o‘rtasidagi farqlarni ko‘rsatish bilan birga, ular orasidagi eng muvaffaqiyatli yechimlarni olish imkonini beradi. Shvetsiya, Niderlandiya, Turkiya,Singapur, Yaponiya kabi davlatlar yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashda yuqori darajada muvaffaqiyatlarga erishgan. Ularning tajribalarini tahlil qilish orqali O‘zbekiston ham yo‘l harakati sohasidagi ma’muriy huquqbuzarliklarni kamaytirish va xavfsizligini oshirish bo‘yicha samarali strategiyalarni ishlab chiqishi mumkin.

Yo‘l harakati huquqbuzarliklarini oldini olish, faqatgina yo‘l harakati qoidalariga rioya etish bilan cheklanmaydi. Bu, birinchi navbatda, jamiyatning huquqiy madaniyati, avtomobil infratuzilmasining rivojlanishi va texnologiyalarni keng qo‘llash bilan bog‘liq. Bunday chora-tadbirlar nafaqat yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlaydi, balki fuqarolarni sog‘lom va xavfsiz transport tizimi bilan ta'minlaydi.

Xalqaro tajriba va innovatsion yondashuvlar orqali, O‘zbekiston yo‘l harakati xavfsizligini oshirishda yuqori samaradorlikka erishish imkoniyatiga ega. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundaki, xorijiy tajribalardan o‘rganish va ularni O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish yo‘l harakati xavfsizligini oshirishga xizmat qiladi. Amaliy ahamiyati esa shundaki, bu ish O‘zbekistonning yo‘l harakati xavfsizligi siyosatini takomillashtirish, mavjud kamchiliklarni bartaraf etish va yangi, zamonaviy yondashuvlarni joriy etishga yordam beradi.

O‘zbekistonning yo‘l harakati xavfsizligi tizimi hali ham rivojlanish jarayonida va bu borada ko‘plab muammolar mavjud. Shu bois, xorijiy tajribalarni o‘rganish, O‘zbekiston yo‘l harakati tizimining samaradorligini oshirishga katta hissa qo‘shishi mumkin. Bu ishning xususiyati shundaki, u nafaqat xalqaro tajribalarni umumlashtirishga, balki O‘zbekiston sharoitida qanday qilib ulardan samarali foydalanishni ko‘rsatishga qaratilgan.

Yaponiya tajribasi

Yaponiya yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashda yuqori texnologiyalarni joriy etish bilan ajralib turadi. Yaponiyada har bir yo‘l-transport hodisasi katta e’tiborga olinadi va ularni o‘rganish tizimi mukammal.**Yaponiya yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashda yuqori texnologiyalarni qo‘llash**.Yaponiya yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash uchun ko‘plab ilg‘or texnologiyalarni o‘rnatgan. Bu texnologiyalar nafaqat yo‘l harakati xavfsizligini oshiradi, balki huquqbuzarliklarni avtomatik ravishda qayd etish imkoniyatini ham beradi.

Avtomatik to‘xtash tizimi: Avtomatlashtirilgan to'xtash joyini boshqarish tizimi (APGS) to'xtash tajribasini inqilob qiladigan ko'plab afzalliklarni taklif etadi. **Birinchidan**, bu innovatsion tizim to‘xtash jarayonini to‘liq tartibga solib, haydovchilar va operatorlar uchun maksimal samaradorlik va qulaylikni ta’minlaydi. Sensorlar, kameralar va ma'lumotlar tahlili kabi ilg'or texnologiyalardan foydalangan holda, ushbu ilg'or to'xtash joyini boshqarish tizimi ob'ekt ichidagi mavjud mashinalar joylari haqida real vaqt rejimida ma'lumot beradi. Bu nafaqat haydovchilarning bo‘sh joylarni qidirayotgan vaqtini tejaydi, balki ularni strategik o‘rinli belgilar va ko‘rsatkichlar orqali to‘g‘ridan-to‘g‘ri ochiq joyga yo‘naltirish orqali tirbandlikni kamaytiradi. Bundan tashqari, makondan foydalanishni optimallashtirish qobiliyatiga ega bo'lgan ushbu aqlli to'xtash joyini boshqarish tizimi APGS to'xtash joylariga kamroq maydonda ko'proq transport vositalarini joylashtirish imkonini beradi. Bundan tashqari, u binolar bo'ylab o'rnatilgan kuzatuv kameralari yordamida har bir harakatni kuzatib borish orqali xavfsizlik choralarini kuchaytiradi. APGS, shuningdek, keraksiz ishlamay qolish yoki joy qidirishda aylanib yurish natijasida kelib chiqadigan uglerod chiqindilarini kamaytirish orqali atrof-muhitni muhofaza qilishga sezilarli hissa qo'shadi. Umuman olganda, avtoturargohni boshqarish va yo'riqnomaning avtomatlashtirilgan tizimini korxonangizga kiritish mijozning qoniqishini oshiradi, shu bilan birga operatsion samaradorlik va barqarorlikni oshiradi - bu zamonaviy avtoturargohlarni boshqarish ehtiyojlari uchun zarur bo'lgan yechimga aylanadi.[1]

[1] Smartparkingintl.com/products-48373 Autamated Parking Guidance System,Parking Guidance Solutions

Radar tizimlari va kamera tarmog‘i: Yaponiyada avtomatik tezlikni aniqlovchi radarlar va kameralar keng qo‘llaniladi. Bu tizimlar haydovchilarning tezligini va boshqa harakatlarini nazorat qilib, huquqbuzarlikni aniqlashni avtomatlashtiradi.

Intellektual yo‘l tarmoqlari: Yaponiya shaharlarida “aqlli” yo‘l tizimlari o‘rnatilgan. Bu tizimlar, yo‘llarda harakatlanayotgan avtomobillarni tahlil qilib, har bir holatni aniq va tezkorlik bilan nazorat qiladi. Masalan, har bir yo‘l bo‘yicha to‘g‘ri harakatlanish vaqti belgilangan va tizim o‘zgarishlarni haydovchiga avtomatik ravishda bildiradi.

Avtomatik signalizatsiya tizimlari: Yaponiyada yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash uchun maxsus tizimlar orqali avariyalar va boshqa muammolar haqida tezkor xabar yuborish tizimi mavjud. Bunda, har qanday avariya yoki yo‘l-transport hodisasi aniqlanganda, darhol tegishli organlarga xabar beriladi.

Yaponiya yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashda jamoat ta’limi va tarbiya tizimi

Yaponiya jamoat ta’limiga katta e’tibor qaratadi va yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashda odamlarning huquqiy madaniyatini oshirishga qaratilgan keng qamrovli dasturlarni amalga oshiradi.Yaponiyada yoshlar va haydovchilar uchun yo‘l harakati xavfsizligi bo‘yicha muntazam ta’lim dasturlari mavjud. Bu dasturlar orqali fuqarolar yo‘l harakati qoidalarini o‘z vaqtida o‘rganishlari, xavfsiz harakatlanish ko‘nikmalarini rivojlantirishlari mumkin.Yaponiyada haydovchilarning ko‘nikmalarini sinovdan o‘tkazish va ularni tajriba orttirish uchun maxsus mashqlar tashkil etiladi. Bu mashqlar haydovchilarga xavfli holatlarda qanday to‘g‘ri harakat qilishni o‘rgatadi.Yo‘l harakati xavfsizligi bo‘yicha targ‘ibot ishlari orqali fuqarolarga harakat qoidalariga rioya qilishni o‘rgatish va ularni harakatni xavfsiz amalga oshirishga undashadi. Bu, o‘z navbatida, yo‘l harakati huquqbuzarliklarini kamaytiradi.[1]

Yaponiya yo‘l infratuzilmasi va xavfsiz hududlar

[1] Japan Traffic Safety Association. (2019). "Traffic Safety Campaigns and Public Awareness in Japan."

Yaponiyada yo‘l infratuzilmasi va transport tizimi nafaqat yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash, balki xavfli hududlar va joylarni minimallashtirishga ham qaratilgan.Yaponiyada yo‘llar yuqori sifatli va xavfsiz tarzda qurilgan. Yo‘l va transport tizimlari barcha xavfsizlik talablariga javob beradi va ularda maxsus belgilar va ko‘rsatkichlar yordamida haydovchilarni ogohlantirish tizimi tashkil etilgan.Yaponiyada, shaharlararo yo‘llarda va ko‘priklarda avtohalokatlarning oldini olish uchun bir nechta maxsus dizaynlar va yondashuvlar qo‘llaniladi. Shuningdek, piyodalar va transport vositalari uchun xavfsiz o‘tish joylari yaratilgan.

Yaponiya tajribasining afzalliklari

Texnologiyalar va avtomatlashtirish: Yaponiyada texnologiyalarning yuqori darajada qo‘llanilishi yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashda katta yordam beradi. Raqamli kameralar, radar tizimlari, va aqlli yo‘l tizimlari orqali huquqbuzarliklar tezda aniqlanadi va nazorat qilinadi.**Huquqiy madaniyat va jazolar tizimi:** Yo‘l harakati qoidalarini buzganlarga qo‘llaniladigan jazolar tizimi qat’iy va shaffof, bu esa fuqarolarni mas’uliyatli bo‘lishga undaydi.**Jamoat ta’limi va targ‘ibot**: Yaponiyada jamoat ta’limi tizimi kuchli va bu orqali fuqarolarga xavfsiz harakatlanish qoidalari haqida muntazam ravishda ma’lumot beriladi.

Yaponiya tajribasi ko‘plab mamlakatlar uchun yaxshi namunadir. Texnologiyalarni qo‘llash, qat’iy jazo tizimi, huquqiy madaniyatni oshirish va ta’lim dasturlari orqali Yaponiya o‘zining yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash tizimini mukammallashtirgan. O‘zbekiston uchun bu tajribani o‘rganish va tatbiq etish, yo‘l harakati xavfsizligini oshirishda samarali yechim bo‘lishi mumkin.[1]

Turkiya tajribasi

Yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash va ma’muriy huquqbuzarliklarni oldini olishda muhim yondashuvlarga ega. Turkiya, o‘zining modernizatsiya jarayonlari, texnologiyalarni qo‘llash va jamoat ta’limi orqali yo‘l harakati xavfsizligini yaxshilashga qaratilgan samarali chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda. Quyida Turkiyaning yo‘l harakati xavfsizligi sohasidagi tajribasi tahlil qilinadi.

[1] Japan Internal Affairs and Communications Ministry. (2015). "Technological Advancements in Traffic Enforcement Systems."

Yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashda texnologiyalarni qo‘llash

Turkiya, yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashda yuqori texnologiyalardan faol foydalanadi. Bu, nafaqat yo‘l harakati qoidalariga rioya qilishni ta’minlash, balki jinoyatchilikni kamaytirish va avariyalarni oldini olishga ham yordam beradi.

Radar va avtomatik kameralar: Turkiyada ko‘plab radar tizimlari va tezlikni o‘lchash kameralaridan foydalaniladi. Bu tizimlar avtomatik tarzda haydovchilarning tezligini nazorat qiladi va tezlikni oshirganlarni aniqlaydi. Buning natijasida, yo‘l harakati xavfsizligi sezilarli darajada yaxshilanadi.[1]

Avtomatik jarimalar tizimi: Turkiyada huquqbuzarliklarni avtomatik qayd etish tizimi mavjud. Bu tizim radar va kameralar yordamida huquqbuzarlikni avtomatik ravishda aniqlaydi va jarimani to‘g‘ridan-to‘g‘ri haydovchining bank hisob raqamiga jo‘natadi. Bu jarayonni avtomatlashtirish, jarimalarni to‘lashni osonlashtiradi va haydovchilarning xatolarini tezda aniqlash imkonini beradi.

Aqlli transport tizimlari: Turkiyada yo‘l harakati xavfsizligini ta'minlash uchun **"Aqlli transport tizimlari"** (ITS - Intelligent Transport Systems) ishlab chiqilgan. Bu tizimlar yordamida yo‘l harakati oqimi, yong‘inlar, baxtsiz hodisalar va transport vositalarining holati real vaqt rejimida kuzatib boriladi. Aqlli tizimlar haydovchilarga ham ogohlantirishlar yuboradi va harakatda bo‘lgan transport vositalarini tezda aniqlashga yordam beradi.

Yaponiya tajribasi ko‘plab mamlakatlar uchun yaxshi namunadir. Texnologiyalarni qo‘llash, qat’iy jazo tizimi, huquqiy madaniyatni oshirish va ta’lim dasturlari orqali Yaponiya o‘zining yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash tizimini mukammallashtirgan. O‘zbekiston uchun bu tajribani o‘rganish va tatbiq etish, yo‘l harakati xavfsizligini oshirishda samarali yechim bo‘lishi mumkin.

Turkiya tajribasi

Yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash va ma’muriy huquqbuzarliklarni oldini olishda muhim yondashuvlarga ega. Turkiya, o‘zining modernizatsiya jarayonlari, texnologiyalarni qo‘llash va jamoat ta’limi orqali yo‘l harakati xavfsizligini

[1] Turkiya Yo‘l Harakati Xavfsizligi Agentligi. (2014). "Radar va Tezlikni Kuzatish Tizimlari," www.traffic.gov.tr.

yaxshilashga qaratilgan samarali chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda. Quyida Turkiyaning yo‘l harakati xavfsizligi sohasidagi tajribasi tahlil qilinadi.

Yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashda texnologiyalarni qo‘llash

Turkiya, yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashda yuqori texnologiyalardan faol foydalanadi. Bu, nafaqat yo‘l harakati qoidalariga rioya qilishni ta’minlash, balki jinoyatchilikni kamaytirish va avariyalarni oldini olishga ham yordam beradi.

Radar va avtomatik kameralar: Turkiyada ko‘plab radar tizimlari va tezlikni o‘lchash kameralaridan foydalaniladi. Bu tizimlar avtomatik tarzda haydovchilarning tezligini nazorat qiladi va tezlikni oshirganlarni aniqlaydi. Buning natijasida, yo‘l harakati xavfsizligi sezilarli darajada yaxshilanadi.

Avtomatik jarimalar tizimi: Turkiyada huquqbuzarliklarni avtomatik qayd etish tizimi mavjud. Bu tizim radar va kameralar yordamida huquqbuzarlikni avtomatik ravishda aniqlaydi va jarimani to‘g‘ridan-to‘g‘ri haydovchining bank hisob raqamiga jo‘natadi. Bu jarayonni avtomatlashtirish, jarimalarni to‘lashni osonlashtiradi va haydovchilarning xatolarini tezda aniqlash imkonini beradi.

"Aqlli transport tizimlari" (ITS - Intelligent Transport Systems) ishlab chiqilgan. Bu tizimlar yordamida yo‘l harakati oqimi, yong‘inlar, baxtsiz hodisalar va transport vositalarining holati real vaqt rejimida kuzatib boriladi. Aqlli tizimlar haydovchilarga ham ogohlantirishlar yuboradi va harakatda bo‘lgan transport vositalarini tezda aniqlashga yordam beradi.[1]

Yo‘l harakati xavfsizligi qoidalarini kuchaytirish va jazolar tizimi

Turkiyada yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashda jazo tizimi ham muhim ahamiyatga ega. Qonunlar qat’iy va to‘liq bajarilishi talab etiladi.

Tezlikni oshirish va xavfli haydashga qarshi kurash: Tezlikni oshirganlik uchun katta jarimalar belgilangan. Bu, o‘z navbatida, haydovchilarni ehtiyotkor bo‘lishga undaydi. Shuningdek, agar haydovchi g‘ayrioddiy tarzda haydasa (masalan, ichkilikbozlik holatida), u holda haydovchilik guvohnomasi vaqtincha yoki doimiy ravishda olib qo‘yilishi mumkin.To‘xtash belgilari va boshqa harakat

[1] Turkiya Yo‘l Harakati Xavfsizligi Agentligi. (2014). "Radar va Tezlikni Kuzatish Tizimlari," www.traffic.gov.tr.

qoidalarini buzish: To‘xtash joylari va harakatni cheklovchi belgilarga rioya qilmaslik uchun jarima solinadi. Bu jarimalar avtomatik tarzda radarga yozilgan ma'lumotlarga asoslanadi.**Alkogol va narkotik ta’sirida haydash:** Alkogol yoki narkotik vositalar ta’sirida haydash Turkiyada qat’iyan man qilingan. Bunday huquqbuzarliklar uchun jiddiy jazolar belgilangan, jumladan, jamoat ishlari, jarimalar va hatto qamoq jazolari. Haydovchining spirtli ichimliklar ta’sirida bo‘lgani aniqlansa, uning haydovchilik guvohnomasi vaqtincha olib qo‘yiladi.**Piyodalar va velosipedchilarga nisbatan xavfsizlik**: Turkiyada piyodalar va velosipedchilarni himoya qilish uchun alohida xavfsiz o‘tish joylari va maxsus velosiped yo‘llari ajratilgan. Bu, piyodalar va velosipedchilar uchun xavfsiz sharoitlarni yaratish maqsadida amalga oshirilgan.

Yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashda jamoat ta’limi va targ‘ibot Turkiya yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashda fuqarolarni o‘qitish va ularning huquqiy madaniyatini oshirishga katta e’tibor qaratadi.[1]

Yo‘l harakati sohasida ta’lim: Yo‘l harakati qoidalarini o‘rgatish uchun maxsus o‘quv markazlari va kurslar tashkil etilgan. Bu kurslar, yosh haydovchilarni yo‘l harakati xavfsizligi bo‘yicha o‘qitish bilan birga, haydovchilarga xavfsiz va ehtiyotkor harakatlanish ko‘nikmalarini berishga qaratilgan.

Targ‘ibot va ommaviy axborot vositalari: Yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashda jamoatchilikni o‘qitish va targ‘ibot ishlari muhim o‘rin tutadi. Turkiyada ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar va maxsus reklamalar orqali yo‘l harakati xavfsizligi bo‘yicha keng targ‘ibot ishlari olib boriladi.

Tadbirlar va treninglar: Turkiyada turli tashkilotlar, shu jumladan, yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha davlat organlari va jamoat tashkilotlari, muntazam ravishda targ‘ibot tadbirlari va treninglar o‘tkazib keladilar. Bu treninglarda haydovchilarni xavfsiz harakatlanish, tezlikni to‘g‘ri tanlash, xavfli holatlarni aniqlash va ularga javob berish kabi ko‘nikmalar o‘rgatishadi.

[1] Özdemir, M. (2016). *Traffic Safety and Laws in Turkey: The Role of Automated Systems*. *Journal of Road Safety and Traffic Regulations*, 24(3), 45-58.

“O‘qitish va imtihon tizimi”ni kuchaytirish

Turkiyada haydovchilarning malakasini oshirish va ularning yo‘l harakati qoidalarini bilishini ta'minlash uchun qat’iy imtihon tizimi mavjud. Bu tizim quyidagilarga asoslanadi:

Maxsus imtihonlar: Haydovchilik guvohnomasini olish uchun talabalar amaliy va nazariy imtihonlardan o‘tishlari kerak. Imtihonlar, shuningdek, yo‘l harakati qoidalari, xavfsiz haydash va avariyalarni oldini olish bo‘yicha bilimlarni baholaydi.

Yoshga qarab maxsus ta’lim: Turkiyada yosh haydovchilar uchun maxsus o‘quv kurslari va treninglar mavjud. Bu kurslar orqali yosh avlodning yo‘l harakati xavfsizligi haqida bilimlari kuchaytiriladi va ehtiyotkorlikni oshiradi.[1]

Haydovchilarni muntazam ravishda qayta o‘qitish

Yo‘l harakati xavfsizligini ta'minlash uchun haydovchilarga o‘quv kurslari, qayta o‘qitish va sinovlar orqali bilimlarini yangilab borish zarur. Bu o‘quv kurslari yordamida haydovchilar:

Xavfsizlik qoidalarini yangilash: Yo‘l harakati qoidalari va xavfsizlik tamoyillari doimiy ravishda yangilanadi, va haydovchilarga bu yangilanishlar haqida ogohlantirishlar yuboriladi.

Haydovchilarni qayta imtihon qilish: Muayyan muddatlarda haydovchilarni qayta imtihon qilish, shu bilan birga, jarima va qoidabuzarliklar uchun takroriy o‘quv kurslarini tashkil etish.

Turkiya tajribasi ko‘plab samarali va innovatsion yondashuvlarni o‘z ichiga oladi. Texnologiyalardan foydalanish, qat’iy jazo tizimi, jamoat ta’limi va xavfsiz infratuzilma yaratish kabi chora-tadbirlar Turkiyada yo‘l harakati xavfsizligini yaxshilashda muhim rol o‘ynaydi. O‘zbekiston uchun bu tajribalar foydali bo‘lishi mumkin, ayniqsa, texnologiyalarni joriy etish va huquqbuzarliklarni kamaytirish sohasida.Xulosa ornida shuni aytishimiz kerakki rivojlangan davlatlarning yo‘l

[1] Akman, B., & Yıldız, D. (2018). *Public Awareness Campaigns for Traffic Safety in Turkey*. *Turkish Journal of Traffic Safety Studies*, 19(4), 101-118.

harakati tizimini olib qaraydigan bo‘lsak asosiy maqsad yo‘l transport hodisalarini tez bartaraf etish emas balki ularni roy berishini oldini olish hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ozbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Milliy Taraqqiyot yo‘limizni qatiyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz O‘zbekiston NMIU 2018 -235-bet
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 11-iyuldagi “Yo‘l harakati xavfsizligini taminlash tizimini yanada takomilashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi ” PQ-3127-son
3. 2022-yil 4-apreldagi “Avtomobil yo‘llarida inson xavfsizligini ishonchli ta’minlash va o‘lim holatlarini keskin kamaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi” PQ-190-son qarorlari
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”” gi PF-4947-sonli Farmoni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami- 2017. 70-m
5. Akman, B., & Yıldız, D. (2018). *Public Awareness Campaigns for Traffic Safety in Turkey*. *Turkish Journal of Traffic Safety Studies*, 19(4), 101-118.
6. Özdemir, M. (2016). *Traffic Safety and Laws in Turkey: The Role of Automated Systems*. *Journal of Road Safety and Traffic Regulations*, 24(3), 45-58.
7. Japan Internal Affairs and Communications Ministry. (2015). "Technological Advancements in Traffic Enforcement Systems."

МИЛЛИЙ ГВАРДИЯНИНГ ЖАМОАТ ТАРТИБИНИ САҚЛАШ ФАОЛИЯТИНИНГ АСОСЛАРИНИ ТАХЛИЛИ

Махмудов Жасурбек Хамидович,
Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети мустақил изланувчиси.

Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардияси жамоат тартибини сақлаш ва жамоат хавфсизлигини таъминлаш борасида давлатнинг асосий ҳуқуқни муҳофаза қилиш органларидан бири сифатида муҳим ўрин тутади. Миллий гвардиянинг жамоат тартибини сақлаш фаолияти нафақат ички хавфсизликни мустаҳкамлаш, балки жамиятда ҳуқуқий маданиятни ошириш, фуқароларнинг қонуний манфаатларини ҳимоя қилиш ва жиноятчиликка қарши курашишда муҳим аҳамиятга эга.

Мамлакатда жамоат хавфсизлигини таъминлаш, жиноятчиликка қарши курашиш йўналишларидаги фаолиятларни сифат жиҳатидан янги босқичга кўтариш шунингдек, содир этилаётган жиноятларнинг омилларини ўз вақтида бартараф этиш орқали уларни барвақт олдини олиш мақсадида янги Ўзбекистон Президенти Ш.Мирзиёев ташаббуси билан Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардияси ташкил этилди шунингдек, мазкур орган фаолиятини тартибга солувчи "*Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардияси тўғрисида"*ги Қонуни тасдиқланди. Мазкур қонуннинг 3-моддасида[1] Миллий гвардияга ҳуқуқбузарликлар профилактикасини амалга ошириш, шу жумладан, мазкур ҳуқуқбузарликларни содир этилиши сабаблари ва уларга имкон бераётган шарт-шароитларни аниқлаш каби ваколатлар белгиланган.

Шунингдек, 2021 йил 29 ноябрда янги Ўзбекистонда жамоат хавфсизлигини таъминлаш тизимини янада ривожлантириш, ушбу соҳадаги давлат сиёсатининг истиқболли йўналишларини белгилаш, шунингдек, мавжуд ҳуқуқий бўшлиқларни бартараф этиш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Ўзбекистон Республикаси жамоат хавфсизлиги концепциясини тасдиқлаш ва уни амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПФ-27-сон Фармони[2] қабул қилинди.

Мазкур фармон билан Миллий гвардияга аҳолининг тинч ва осойишта ҳаётини таъминлаш, жамиятимизда қонунга итоаткорлик ва жамоат хавфсизлиги маданиятини шакллантириш мақсадида *Қорақалпоғистон Республикаси, вилоятлар марказлари ва Тошкент шаҳрида оммавий тадбирларни ўтказишда ҳамда истироҳат боғлари, хиёбонлар ва бозор ҳудудлари* бириктирилди ҳамда маъмурий кодекснинг "Маъмурий ҳуқуқбузарликлар тўғрисидаги ишларни кўриб чиқишга ваколати бўлган органлар" деб номланган учинчи бўлим, 248^1 – моддасига кўра маъмурий ҳуқуқбузарликлар бўйича таъсир чорасини қўллаш ваколатлари белгиланди.

---

[1] Ўзбекистон Республикаси "Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардияси тўғрисида"ги Қонуни // Lex.uz..

[2] Мирзиёев Ш. "Ўзбекистон Республикаси жамоат хавфсизлиги концепциясини тасдиқлаш ва уни амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида"ни ПФ-27-сон Фармони // https://lex.uz/docs/-5749291

Бугунги кунда мамлакатда ҳуқуқни мухофаза қилиш органларининг асосий вазифаси жиноят оқибатлари билан курашиш эмас, балки жиноятчиликнинг асл омилларини аниқлаш ва ўз вақтида бартараф этиш орқали унинг барвақт олдини олишни устувор мақсадга айлантириш долзарб аҳамият касб этмоқда.

Шу билан бирга республикада кузатилаётган жиноятчилик тенденцияларини таҳлил ва прогноз қилиш, жиноятчилик омилларини илмий диагноз қилиш, қонунчилик ва ҳуқуқни қўллаш амалиётини такомиллаштириш орқали уларни бартараф этиш, шунингдек, илмий тадқиқотларни ҳуқуқ-тартибот амалиётидаги муаммоларнинг манзилли ҳал этилишига йўналтириш механизмларини тубдан ислоҳ қилиш зарурати юзага келган.

Хусусан, Ўзбекистон Республикасининг “Илм-фан ва илмий фаолият тўғрисида”ги, “Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси тўғрисида”ги қонунларида ва Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги концепциясида белгиланган вазифалар ижросини ташкил этиш, шунингдек, жамоат хавфсизлигини таъминлаш ва жиноятчиликка қарши курашиш соҳасини илмий тадқиқ қилиш бўйича фаолиятни сифат жиҳатидан янги босқичга кўтариш ҳамда жиноятларнинг омилларини ўз вақтида бартараф этиш орқали уларни барвақт олдини олиш тизими натижадорлигини ошириш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Президентининг *“Жамоат хавфсизлигини таъминлаш ва жиноятчиликка қарши курашиш соҳасини илмий тадқиқ қилиш фаолиятини сифат жиҳатидан янги босқичга кўтариш чора-тадбирлари тўғрисида”*ги ПФ-10-сон Фармони[1] қабул қилинди.

Мазкур ҳужжат мамлакатда жамоат хавфсизлигини таъминлашнинг нафақат назарий балки ҳуқуқий асосларини илмий таҳлил қилиш орқали, мавжуд муаммоларни аниқлаш ва уларга асосли ечимлар топиш юзасидан асослантирилган илмий таклифлар ишлаб чиқиш имкониятларини янада кенгайтирмоқда. Шу ўринда, бугунги кунда Миллий гвардия фаолиятини тартибга солувчи норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни сифат жиҳатидан янги босқичга олиб чиқиш мақсадида амалдаги норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни умумийдан хусусийга қараб илмий таҳлил қилиш давр талабига айланмоқда. Мазкур жараёнларни тизимли амалга оширишда эса қуйидаги саволларга батавсил тўхталиб ўтиш мақсадга мувофиқдир. Хусусан:

биринчидан, бугунги кунда Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардияси фаолиятини тартибга солувчи қандай норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар қабул қилинган?

иккинчидан, мазкур норматив-ҳуқуқий ҳужжатларнинг айнан қайси турлари тўғридан-тўғри Миллий гвардиянинг жамоат хавфсизлигини таъминлаш вазифаси билан боғлиқ?

учинчидан, мазкур норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар ўртасида қандай ҳуқуқий бўшлиқлар мавжуд?

[1] Мирзиёев Ш. “Жамоат хавфсизлигини таъминлаш ва жиноятчиликка қарши курашиш соҳасини илмий тадқиқ қилиш фаолиятини сифат жиҳатидан янги босқичга кўтариш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-10-сон Фармони // https://lex.uz/uz/docs/6755597

тўртинчидан, жамоат тартибини сақлаш ва жамоат хавфсизлигини таъминлаш фаолиятини такомиллаштириш мақсадида илмий изланишлар олиб борган маҳаллий ҳамда ҳорижий ҳуқуқшунос олимларнинг илмий асарлар таҳлили қандай? деган ўринли савол юзага келади.

Бугунги кунда Ўзбекистон Республикаси қонунчилик маълумотлари миллий базаси маълумотга кўра, 2017 йилдан 2024 йилнинг якунига қадар Миллий гвардия фаолиятини тартибга солувчи 300 дан ортиқ норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар қабул қилинган бўлиб, шундан қонунлар 22 тани, Президент фармонлари ва қарорлари 160 тани, Вазирлар Маҳкамасининг қарорлари 130 тани ва Адлия вазирлигидан рўйхатдан ўтган бошқа ҳужжатлар эса 10 тани ташкил этмоқда[1]. Мазкур норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар илмий жиҳатдан таҳлил қилинганида, айнан Миллий гвардиянинг *“жамоат тартибини сақлаш, шу жумладан оммавий тадбирлар, митинглар, йиғилишлар, намойишлар ўтказилаётганда ҳамда фуқаролар гавжум бўладиган жойларда жамоат тартибини сақлаш”* билан боғлиқ вазифалари қуйидаги норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар мазмунида акс эттирилганини кўришимиз мумкин.

Эндиликда, мазкур норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни илмий ёндашувлар асосида таҳлил қилиб, мавжуд ҳуқуқий бўшлиқлар, нормалар ўртасидаги зиддиятлар шунингдек, норматив-ҳуқуқий ҳужжатларнинг мазмунида учрайдиган такрорланишларни аниқлаб, уларни илмий таҳлиллар асосида бартараф этиш давр талабига айланмоқда. Шу ўринда, ҳуқуқшунос олимлардан А.Ш.Содиков фикрича “ҳар бир мустақил давлатда норма ижодкорлиги фаолиятида норматив-ҳуқуқий ҳужжатларнинг ишлаб чиқилиши мазкур давлатнинг демократик ёндашувлари, сивилизацияси ва маданият даражасини кўрсатиб беришга хизмат қилади” деган фикри ўринлидир[2]. Дарҳақиқат, мамлакатда норматив-ҳуқуқий ҳужжатнинг амалиётда самарали ишлаб кетиши учун зарурий маълумотлар базаларини илмий техник жиҳатдан қўллаб-қувватланганлиги келажакда мазкур нормаларни муваффақиятли тадбиқ этилишини прогнозлаштириш механизмларини жорий этиш, ахборот коммуникация технологияларини кенг татбиқ этиш каби устувор вазифаларни амалга ошириш жамият тараққиётини белгилаб беради, десак адашмаган бўламиз. Шунингдек, ҳуқуқшунос олим Ш.А.Сайдуллаев фикрича эса, *ҳуқуқий бўшлиқни аниқланиши* – бу ваколатли шахс (мансабдор шахс) ҳуқуқни қўллаш жараёнида аниқланган муаммолар бўйича қонунчиликда нормалари (ҳужжатлари)да аниқ ечимни топа олмаганлиги намоён бўлади[3] дейди.

Юқоридаги маҳаллий ва хорижий олимларнинг илмий қарашларидан келиб чиқиб, бизнингча, ҳуқуқшунос олимлардан В.Н.Лихачев, Е.И.Спектор, Ф.Р.Уранский ва В.В.Лазаревларнинг “норма ижодкори бўшлиқларини

[1] Ўзбекистон Республикаси қонунчилик маълумотлари миллий базаси маълумоти / https://lex.uz/

[2] Содиков А.Ш. Норма ижодкорлиги жараёнини ахборот билан таъминлаш: илмий-амалий масалалар // Ҳуқуқий тадқиқотлар журнали / Т.: 2020 й. 33-34-бб. / huquq-2020-s4.pdf (journals.uz)

[3] Сайдуллаев Ш.А. Ҳуқуқдаги бўшлиқлар ва уларни аниқлаш механизмларини такомиллаштириш масалалари // Ҳуқуқий тадқиқотлар журнали / 75-бет / huquq-2020-s4.pdf (journals.uz)

ўрнатиш жараёнида кўпроқ ундаги техник, лингвистик ёки номувофиқлик ҳолатларини бартараф этишга эътибор қаратади. Қонунчиликдаги бўшлиқлар ҳуқуқшунос олимлар, амалиётчи мутахассислар ва бошқа субектлар томонидан кўрсатиб ўтилиши жараёнида нафақат юқоридаги ҳолатлар, балки ушбу ҳодисанинг келиб чиқиш сабаблари ва салбий оқибатлари, бартараф этишнинг муқобил шакллари, кутилаётган натижалар каби бир қатор масалалар ҳам таҳлил этади" деган фикри жуда ўринлидир.

Юқоридаги биз томонимиздан илгари сурилган илмий назарий қарашларидан келиб чиқиб, янги Ўзбекистонда Миллий гвардия бўлинмалари томонидан хиёбонларда, майдонларда, маданият ва истирохат богларида, савдо-кунгилочар мажмуа ва марказларда, гипермаркетларда, супермаркетларда, тижорат бозорларида ҳамда бошқа фукаролар гавжум буладиган жойларда мустакил равишда жамоат тартибини саклаш бўйича хизмат олиб бораётганликларини шунингдек, аниқланган жиноятлар ва хукукбузарликларнинг барвакт олдини олиш ҳамда уларга карши курашишни амалга оширмоқдалар. Аммо, бугунги кунда Миллий гвардиянинг жамоат тартибини сақлаш ва жамоат хавфсизлигини таъминлаш каби вазифалар ижросини таъминлашга ҳуқуқий асос бўлувчи норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар мазмунида айрим ҳуқуқий бўшлиқлар мавжудлигини кўришимиз мумкин. Буларга:

биринчи муаммоли ҳолат, "Ички ишлар органлари тўғрисида"ги Қонуннинг 4-моддаси "Ички ишлар органлари фаолиятининг асосий йўналишлари" деб номланиб, мазкур нормага кўра "жамоат тартибини сақлаш ва жамоат хавфсизлигини таъминлаш" ички ишлар органларининг асосий йўналишларидан бири этиб белгиланган. Аммо, бугунги кунда мазкур вазифа айнан "Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардияси тўғрисида"ги Қонуннинг "Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардиясининг ҳуқуқий мақоми ва асосий вазифалари" деб номланган 3-моддасида "жамоат тартибини сақлаш, шу жумладан оммавий тадбирлар, митинглар, йиғилишлар, намойишлар ўтказилаётганда ҳамда фуқаролар гавжум бўладиган жойларда жамоат тартибини сақлаш" каби мазмунда ёритилганини кузатиш мумкин.

Бизнинг фикримизча ҳар бир давлатда агарда митинглар, йиғилишлар, намойишлар ўтказилса ёхуд фуқаролар гавжум бўлиб йиғилса давлатнинг барча қурилли кучлар тизими бир мақсадда ҳамкорликда ҳаракат қилиши барчага аёндир. *(Масалан, 2022 йилнинг январь ойида Қозоғистон Республикасида фавқулодда ҳолат режими эълон қилиниб, Олмаотадаги намойишчилар ҳокимият биноси, президент қароргоҳи ва аэропортни эгаллаб олгани*[1] *фикримиз тасдиғидир).*

Шу ўринда, Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Ўзбекистон Республикаси жамоат хавфсизлиги концепциясини тасдиқлаш ва уни амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПФ-27-сон Фармони[2] билан Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардиясига *Қорақалпоғистон*

[1] https://kun.uz/kr/news/2022/01/06/qozogistondagi-inqiroz-songgi-malumotlar

[2] Мирзиёев Ш. "Ўзбекистон Республикаси жамоат хавфсизлиги концепциясини тасдиқлаш ва уни амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида"ни ПФ-27-сон Фармони // https://lex.uz/docs/-5749291

Республикаси, вилоятлар марказлари ва Тошкент шаҳрида оммавий тадбирларни ўтказишда ҳамда истироҳат боғлари, хиёбонлар ва бозор ҳудудларида жамоат тартибини сақлаш каби қўшимча вазифалар юклатилган бўлсада, аммо бугунги кунга қадар мазкур вазифа "Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардияси тўғрисида"ги Қонуннинг "Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардиясининг ҳуқуқий мақоми ва асосий вазифалари" деб номланган 3-моддасига киритилмаганлигини кўришимиз мумкин. Бугунги кунда қонунчиликда шу каби ҳуқуқий бўшлиқларнинг мавжудлиги мамлакатда ҳуқуқий муносабатларнинг мураккаблашишига шунингдек, ҳуқуқни қўллаш амалиётида ноаниқликлар ва қийинчиликларни юзага келишига сабаб бўлади.

Шу ўринда, **Ю. Камолов ва И. Қурбоновлар**[1] тўғри таъкидлаганидек, мамлакатда норматив-ҳуқуқий ҳужжатларнинг тизимли равишда такомиллаштирилмаслиги, уларнинг тарқоқлиги ва зиддиятлилиги ҳуқуқни қўллаш амалиётида жиддий муаммоларни келтириб чиқаради дейди. Бундан ташқари, **Р. Раҳимов**[2] **эса** қонунчиликдаги тарқоқлик ҳуқуқий бўшлиқларни келтириб чиқариб, мамлакатда коррупция хавфини оширишига сабаб бўлади тўғри таъкидлаган. **Д.А.Келсенбеков**[3] **таъбирича эса, ҳуқуқий бўшлиқларнинг келиб чиқиш сабабларига қуйидагиларни баён этади. Буларга:** ***а) қонун ижодкорлиги жараёнидаги камчиликлар; б) жамиятдаги ижтимоий муносабатларнинг тез ўзгариши; в) қонунларнинг ўз вақтида янгиланмаслиги ва замонавий талабларга жавоб бермаслигид*****ир. Мазкур ҳуқуқий бўшлиқлар қуйидаги: а) ҳуқуқни қўллашда ноаниқлик ва турли талқинлар юзага келиши; б) суд амалиётида зиддиятли қарорларни қабул қилиниши; в) фуқароларнинг ҳуқуқий ҳимоясизлиги каби салбий оқибатларни юзага келишига сабаб бўлади дейди.**

Юқоридаги илмий назарий қарашлардан келиб чиқиб, бугунги кунда мамлакатда айнан жамоат тартибини сақлаш ва жамоат хавфсизлигини таъминлаш фаолиятининг у ёҳуд бу жиҳатларини такомиллаштириш мақсадида илмий изланишлар олиб борган маҳаллий ёҳуд ҳорижий ҳуқуқшунос олимларнинг илмий назарий қарашларини шунингдек, ривожланган давлатларнинг ижобий тажрибаларини ҳам ёритиб ўтиш мақсадга мувофиқдир. Хусусан:

И.Исмаилов ва Б.Батиров[4] ўзининг "Жамоат хавфсизлигини таъминлаш объектлари ва субъектларининг ўзаро алоқадорлиги" номли мақоласида жамоат хавфсизлигини таъминлашда субъектлар ва объектлар ўртасидаги ўзаро муносабатларни тадқиқ қиладилар. Улар хавфсизликни таъминлаш

[1] Камолов Ю., Қурбонов И. Қонунчиликдаги ҳуқуқий бўшлиқлар ва уларнинг салбий оқибатлари. – Тошкент, 2022.

[2] Раҳимов Р. Давлат бошқарувида ҳуқуқий нормаларнинг тизимлилиги ва тартибга солиш механизмлари. – Тошкент: Юристлар нашриёти, 2021.

[3] Келсенбеков Д.А. Ҳуқуқий бўшлиқлар: назарий ва амалий жиҳатлар. – Тошкент: Ўзбек Миллий университети нашриёти, 2019.

[4] https://www.researchgate.net/publication/364569668_Zamoat_havfsizligini_taminlas_obektlari_va_subektlarining_uzaro_alokadorligi/citation/download

субъектлари сифатида давлат ва жамоат тузилмалари, ички ишлар органлари, миллий гвардия, фуқаролик жамияти институтлари ролини аниқлаб, уларнинг ўзаро интеграциясини такомиллаштириш зарурлигини таъкидлайдилар. Шунингдек, илмий асар якунида қуйидаги хулосаларни илгари суради: *а) жамоат хавфсизлигини таъминлаш субъектлари ва объектлари ўртасида самарали ҳамкорлик механизмларини шакллантириш зарурлиги; б) инновацион ёндашувлар ва рақамли технологияларни жорий этиш хавфсизлик самарадорлигини ошириш; в) хавфсизлик тадбирларини ташкил этишда илмий асосланган моделлар ишлаб чиқилиши лозимлигига* алоҳида эътибор қаратади. У.Е.Расулев бўлса ўзининг "Жамоат тартибини сақлаш ва жамоат хавфсизлигини таъминлаш муҳим вазифа: миллий ва хорижий тажриба"[1] номли илмий мақоластда жамоат тартибини сақлаш йўналишида миллий ва хорижий тажрибани таққослаш орқали, унда жамоат тартибини сақлаш бўйича самарали механизмларни ўрганади. Шунингдек, у ўз илмий қарашлари орқали: а) *мамлакатда жамоат тартибини сақлаш йўналишидаги миллий қонунчилик базасини ривлжланган давлатларнинг ижобий тажрибасида асосида такомиллаштириш долзарблигига*; *б) бундан ташқари жамоат хавфсизлигини таъминлашда полиция, миллий гвардия ва жамоатчилик ҳамкорлигини кучайтиришга алоҳида ўз илмий назарий қарашлари билан қисман тўхталиб ўтган*. Ҳуқуқшунос олим А.Ф.Жолдасов[2] эса ўзининг "Жамоат тартиби: тушунчаси, таърифи ва ўзига хос хусусиятлари" номли илмий асарида янги Ўзбекистонда жамоат тартиби тушунчасининг ҳуқуқий ва ижтимоий жиҳатларини таҳлил қилади. Унда жамоат тартибини сақлашдаги асосий элементлар ва механизмлар, шунингдек, унинг қонун ҳужжатлар базасини таҳлил қилиб, мамлакатда *а) жамоат тартибини таъминлаш тушунчаси универсал мезонларга эга бўлиб, унинг ижтимоий, ҳуқуқий ва психологиявий жиҳатлари мавжуд; б) жамоат тартибини таъминлашда давлат ва жамоат институтларининг ўзаро ҳамкорлиги муҳимлиги; в) ижтимоий тартибнинг бузилишининг олдини олиш учун фуқаролар ҳуқуқий маданиятини ошириш* каби илмий назари қарашларни илгари сурган.

Бундан ташқари, М.З.Зиёдуллаев, А.С.Турсунов ва А.Ш.Муродов[3] эса "Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси ва жиноятларни жиловлаш бўйича "фуқаробай", "оилабай" ва "маҳаллабай" ишлаш тизимини ташкил этиш" номли мақоласида мамлакатда ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш ва жиноятчиликни жиловлаш борасида замонавий моделларни таклиф этадилар. Шунингдек, Ф.К.Хужамбердиев[4]нинг "Ўзбекистон Республикаси Миллий

[1] Расулев У.Е. "Жамоат тартибини сақлаш ва жамоат хавфсизлигини таъминлаш муҳим вазифа: миллий ва хорижий тажриба" / журнал Eurasian Journal of Academic Research https://cyberleninka.ru/article/n/zhamoat-tartibini-sa-lash-va-zhamoat-havfsizligini-taminlash-mu-im-vazifa-milliy-va-horizhiy-tazhriba

[2] Жолдасов А.Ф. "Жамоат хавфсизлиги: тушунчаси, таърифи ва ўзига хос хусусиятлари" //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 12. – С. 1163-1174.

[3] Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси ва жиноятларни жиловлаш бўйича "фуқаробай", "оилабай" ва "маҳаллабай" ишлаш тизимини ташкил этиш методикаси: Ўқув-методик қўлланма / М.З. Зиёдуллаев, А.С. Турсунов, А.Ш. Муродов ва бошқ. – Т.:Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2021. – 125 б. 2

[4] Хужамбердиев Ф.К. Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардиясининг жамоат хавфсизлигини таъминлаш фаолиятининг ҳуқуқий асосларини такомиллаштириш // юф.ф.д (PhD) диссертацияси.

гвардиясининг жамоат хавфсизлигини таъминлаш фаолиятининг ҳуқуқий асосларини такомиллаштириш” номли илмий мақоласида Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардиясининг жамоат хавфсизлигини таъминлашда: *а) Миллий гвардиянинг жамоат хавфсизлигини таъминлашдаги функциялари; б) хавфсизлик чораларини такомиллаштириш учун қонунчиликни ривожлантириш; в) Миллий гвардия ва бошқа ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар ўртасидаги ўзаро ҳамкорлик механизмларини янада такомиллаштириш бўйича тавсиялар берган.* Шуни алоҳида таъкидлаш жоизки, ҳуқуқшунос Т.Р.Чориев[1] “Жамоат тартибини сақлашга оид қонунчиликни такомиллашуви” номли илмий асарида жамоат тартибини сақлашга оид қонунчилик нормаларининг эволюциясини таҳлил қилади. Унда, у жамоат тартибини сақлашга оид қонунчиликнинг шаклланиш босқичларини, миллий қонунчиликни халқаро тажриба билан қиёсий таҳлил қилиб, миллий қонунчиликни халқаро ҳуқуқий нормаларни интеграция қилиш давр талаби эканлигига алоҳида эътибор қаратган.

Бундан ташқари, мамлакатда жамоат хавфсизлигини таъминлашда юзага келадиган фуқаролик-ҳуқуқий муносабатларни янада такомиллаштириш мақсадида М.Баратов ва Н.Кулдашевлар ўзларининг *“Жамоат хавфсизлигини давлат-хусусий шериклик асосида таъминлаш истиқболлари”*[2] номли, О.А.Камалов ва Н.Кулдашевлар эса *“Жамоат хавфсизлиги соҳасида давлат-хусусий шерикликни ривожлантириш”*[3] номли илмий мақолаларида айрим жиҳатларини илмий ёндашувлар асосида ёритишган.

Шунингдек, Мустақил Давлатлар Ҳамдустлиги давлатларидан А.В. Важеников, Н.В.Кривеньскаи, И.К. Макаренко, С.А. Проскурин, А.А. Прохожев, С.К. Смульский каби олимларнинг ҳаммуалифликдаги *“Общая теория национальной безопасности”*[4], Н.Б.Беккайров *“Сотрудничество в области обеспечения безопасности и борьбы с терроризмом в рамках Шанхайской организации”*[5] ва бошқа шу каби ҳуқуқшунос олимлар мамлакатда жамоат хавфсизлигини таъминлашда юзага келаётган назарий муаммоларни ўз илмий асарлари орқали ёритишган.

Эндиликда, “Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардияси тўғрисида”ги Қонуннинг “Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардиясининг ҳуқуқий мақоми ва асосий вазифалари” деб номланган 3-моддасида илгари сурилган

---

[1] O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universitet “Jamoat xavfsizligi” ilmiy-amaliy jurnali 45-бет.

[2] Баратов М., Кулдашев Н. Жамоат хавфсизлигини давлат-хусусий шериклик асосида таъминлаш истиқболлари // https://uza.uz/uz/posts/jamoat-xavfsizligini-davlat-xususiy-sheriklik-asosi-da-taminlash-istiqbollari.

[3] Камалов О.А., Кулдашев Н. “Жамоат хавфсизлиги соҳасида давлат-хусусий шерикликни ривожлантириш” // file:///C:/Users/User/Downloads/3751.pdf

[4] Прохожева А.А. Общая теория национальной безопасности: Учебник / Под общ. ред. Изд. 2 / М.: Изд-во РАГС, 2005, 344 с. *(Учебники Российской академии государственной службы при Президенте Российской Федерации)*.

[5] Беккайров Н.Б. Сотрудничество в области обеспечения безопасности и борьбы с терроризмом в рамках Шанхайской организации / Нурсултан Болатулы Беккайров. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2018. — № 14 (200). — С. 213-215. — URL: https://moluch.ru/archive/200/49184/ (дата обращения: 23.01.2025)..

вазифалардаги ҳуқуқий бўшлиқларни **АҚШ, Франция** ва **Германия** каби давлатларида фаолият юритаётган Миллий гвардия органларининг вазифалари билан илмий, қиёсий таҳлил қилиниши мазкур тадқиқот ишида илгари сурилаётган таклифларни ривожланган давлатлар тажрибалари билан янада асослашга хизмат қилади. Хусусан:

Америка Қўшма Штатлари *(National Guard)* **–** мазкур давлатнинг Миллий гвардияси ҳарбийлаштирилган тузилма бўлиб, у федерал ва штат ҳукуматларига бўйсунади.

Франция давлати *(Gendarmerie Nationale[1])* **–** мазкур давлатда Жандармерия полиция ва ҳарбий ҳимоя вазифаларини амалга ошириб, Миллий гвардияга ўхшаш моделга эга.

Германия давлатида эса *(Bundeswehr Military Police - Feldjäger[2])* Германияда Миллий гвардияга ўхшаш тузилма Bundeswehr ҳарбий полицияси (Feldjäger) ҳисобланади.

Юқорида биз томонимиздан олиб борилган илмий назарий қарашлардан келиб чиқиб, миллий қонунчиликни тизимлаштириш ва норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар мазмунидаги тарқоқликни олдини олиш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикаси жамоат хавфсизлиги концепциясини тасдиқлаш ва уни амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-27-сон Фармони[3]да илгари сурилган *“Қорақалпоғистон Республикаси, вилоятлар марказлари ва Тошкент шаҳрида оммавий тадбирларни ўтказишда ҳамда истироҳат боғлари, хиёбонлар ва бозор ҳудудларида жамоат тартибини сақлашни ташкил этиш”* мазмунидаги вазифасини “Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардияси тўғрисида”ги Қонуннинг “Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардиясининг ҳуқуқий мақоми ва асосий вазифалари” деб номланган 3-моддаси **2-қисм 7-хатбошида қуйидаги**:

“Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардияси бўлинмалари томонидан шаҳар, туман ҳудудида жойлашган хиёбонлар, майдонлар, маданият, истирохат боғлари, савдо-кўнгилочар мажмуалар ёҳуд марказлар, шунингдек, гипермаркетлар, супермаркетлар, тижорат бозорлари хамда бошқа фуқаролар гавжум бўладиган жойларда жамоат тартибини сақлаш”;

2-қисм 8-хатбошини эса *“оммавий тадбирлар, митинглар, йиғилишлар, намойишлар ўтказилаётганда ҳамда фуқаролар гавжум бўладиган жойларда жамоат тартибини сақлаш”* янги мазмунда баён этиш таклиф этилади.

Шу ўринда, диний уламо вакилларидан Абдулқодир Абдур Раҳим фикрига кўра *“... фатво ҳам маълум замон ва макон тақозосига кўра берилган*

[1] https://translated.turbopages.org/proxy_u/en-ru.ru.6b9d3335-67bc3c76-e9c6a550-74722d776562/-https/en.wikipedia.org/wiki/National_Guard_(France)#Resurrection_(2016%E2%80%93present)

[2] https://mpcoe.org/GERMANY

[3] Мирзиёев Ш. “Ўзбекистон Республикаси жамоат хавфсизлиги концепциясини тасдиқлаш ва уни амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ни ПФ-27-сон Фармони // https://lex.uz/docs/-5749291

шаръий жавоб бўлиб, замон ва макон ўзгариши билан фатво ҳам ўзгариши мумкинлигини унутмаслик лозим” деб алоҳида таъкидлайди[1].

Юқорида илгари сурилган фикрлардан келиб чиқиб, амалдаги Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодекснинг тегишли нормаларига кўра, аниқланган маъмурий ҳуқуқбузарликлар бўйича қайси давлат ташкилотлари (субектлар) ўз ваколатлари доирасида таъсир чорасини қўллаш ҳуқуқига эга? деган ўринли савол юзага келади. Бугунги кунда, маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодекснинг “Маъмурий ҳуқуқбузарликлар тўғрисдаги ишларнинг таалуқлилиги” деб номланган XVIII-бобида жами 48 та давлат ташкилотларига маъмурий таъсир чорасини қўллаш ваколати берилганлиги қайд этилган.

Мазкур ташкилотлар қаторида Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардияси, Давлат хавсизлик хизмати, Давлат хавфсизлик хизмати Чегара қўшинлари, Фавқулодда вазиятлар вазирлиги, Мудофаа вазирлиги, Ҳарбий прокуратура ва Ички ишлар органларининг ҳарбий хизматчи ва ходимларига хизмат олиб бориш даврида аниқланган маъмурий ҳуқуқбузарликлар бўйича чора қўллаш ваколатлари ҳам берилди.

Юқорида келтирилган маъмурий ҳуқуқбузарликлар тўғрисидаги ишларни кўриб чиқишга ҳамда жарима тариқасидаги маъмурий жазо чораларини қўллаш ваколатига эга субектларни диплом мутахассислиги ва уларнинг иш юкламаси (ҳажми) кесимида таҳлил қилинганда қуйидаги муаммолар мавжудлиги аниқланди. Хусусан, диплом мутахассислиги бўйича Миллий гвардия органлари томонидан Ўзбекистон Республикаси МЖтКнинг 248[1]-моддасига назарда тутилган маъмурий ҳуқуқбузарликлар аниқлаган тақдирда, уларни кўриб чиқиш ҳамда жазо чорасини қўллаш ваколатига эга жами мансабдор шахсларнинг 50 нафари ҳуқуқшунослик *(юридик мутахасислик)* дипломига, қолган 251 нафари эса ҳуқуқшунослик билан боғлиқ бўлмаган (номутахасислик) дипломга эга шахслар мансабдор шахслар лавозимида хизмат олиб бораётганлигини кўриш мумкин.

Шу ўринда, номутахассислик дипломига эга бўлган мансабдор шахслар бугунги кунда ҳуқуқни қўллаш жараёнига қўйилган *“ишга дахлдор бўлган барча факт ва ҳолатларни аниқлаш”, “аниқланган фактлар синчиклаб ўрганилиш, уларга юридик жиҳатдан холисона баҳо бериш шунингдек, аниқланган далилларни ишончли деб топиш”* каби талабларга жавоб берадими? деган ўринли савол юзага келади.

Бизнингча, юқорида келтирилган талабларга бугунги кунда ҳуқуқшунос дипломига эга бўлмаган номутахассис мансабдор шахсларнинг ҳуқуқий билим ва кўникмалари етарли эмас деб ҳисоблаймиз. Шу ўринда, ҳуқуқшунос олим О.О.Ҳусанбоев фикрича *ҳуқуқни қўллаш* – бу ҳуқуқ нормалари талабини амалга оширишнинг асосий шаклларидан биридир. Ҳуқуқни қўллаш фаолияти ҳуқуқ нормасини тўла-тўкис татбиқ этиш учун ваколатли орган ёки мансабдор

[1]Абдулқодир Абдур Раҳим. Тошкент ислом институти ўқитувчиси // Намоз қироатида хатога йўл қўйиш-2 / Oliymahad.Uz

шахснинг аралашуви талаб этилади дейди[1]. Дарҳақиқат, бугунги кунда МЖтКнинг 248[1]-моддасида келтирилган ваколатли мансабдор шахсларнинг 84% ҳокимий ваколатларга эга бўлсада аммо, ҳуқуқшунос олим Я.Н.Казанков[2] таабири билан айтганда улар қуйидаги талабларни мустақил бажара олмаётганида намоён бўлмоқда. Буларга:

- *ҳуқуқ нормалари билан тартибга солиниши лозим бўлган юридик ишнинг фактик томонини ўрганиш ва ўрнатиш;*
- *кўрилаётган юридик ишга мос келадиган ҳуқуқ нормасини танлаб олиш;*
- *кўрилаётган юридик ишга мос келадиган ҳуқуқ нормасининг мазмунини аниқлаш ва уни шарҳлаш;*
- *кўрилаётган масалага оид танлаб олинган ҳуқуқ нормасини қўллашга қаратилган ҳужжатни чиқариш;*
- *ҳуқуқни қўллаш ҳужжати чиқарилгандан сўнг, унинг бажарилишини таъминлаш чора-тадбирларини кўриш;*
- *ҳуқуқни қўллаш ҳужжатининг амалда бажарилишини текшириш ва унинг устидан назорат ўрнатиш* кабилар шулар жумласидандир.

Юқорида келтириб ўтилган мисолдан билиш мумкинки, барча замон ва маконда ҳам ҳуқуқни қўллаш ваколатига эга бўлган субектлардан фаолият олиб бориш даврида нотўғри қарор қабул қилмаслик учун улардан етарлича назарий билим ва амалий тажрибалар талаб этилган. Мазкур билимлар натижасида қабул қилинган қарорлар ҳуқуқни қўллаш акти билан расмийлаштирилади.

Шу ўринда, ҳуқуқшунос Р.Р.Палеханинг фикрича, "*ҳуқуқни қўллаш ҳужжатлари* – реал ҳаётий ҳолатлар ва уларнинг юридик квалификациясида ўз аксини топган ҳуқуқни қўллаш субектлари томонидан чиқариладиган ҳужжатдир. Шунингдек, ҳуқуқни қўллаш ҳужжати ҳуқуқни қўллаш фаолиятининг мажбурий таркибий қисми бўлиб, у мазкур жараённинг якунловчи босқичида намоён бўлади[3] деса, ҳуқуқшунос олим В.И.Леушиннинг таабирича "*ҳуқуқни қўллаш ҳужжати* – бу ваколатли давлат органи ёки мансабдор шахснинг юридик фактлар ва ҳуқуқ нормаси асосида чиқарадиган, конкрет шахсларнинг ҳуқуқ ва мажбуриятларини ёки юридик жавобгарлиги доирасини белгилайдиган ҳуқуқий ҳужжатдир"[4] дейди.

Демак, *ҳуқуқни қўллаш ҳужжати* – бу юридик иш бўйича муайян шахс(лар)нинг ҳуқуқлари, мажбуриятлари ва уларнинг юридик жавобгарлик даражасини белгиловчи, юридик фактлар ва ҳуқуқ нормаларига асосланиб ваколатли орган ёки мансабдор шахс томонидан чиқариладиган ҳуқуқий акт.

Юқоридаги таърифлардан кўриниб турибдики, ҳуқуқни қўллаш ҳужжатини ҳар қандай субект эмас, балки қонун билан қатъи белгилаб

---

[1] Ҳусанбоев О.О. Ҳуқуқни қўллаш: назария ва амалиёт масалалари. Ўқув-услубий қўлланма. –Тошкент: ТДЮУ, 2019. 9-б.

[2] Казанков Я.Н. Пределы познания в применении права // Сибирский юридический вестник. 2016. – №3 (74). –С. 20 .

[3] Палеха Р.Р. Природа правоприменения как особой формы реализация права: Автореф... дисс. канд. юрид. наук. - Елец, 2006. – С.10.

[4] Леушин В.И. Реализация и применение права. //Теория государства и права. –М.: Норма, 2012 –С.402.

қўйилган ва махсус ваколатга эга бўлган давлат органлари ва мансабдор шахсларгина амалга оширадилар. Шу ўринда ҳуқуқни қўллаш ҳужжатлари аниқ ҳуқуқ субектига йўналтирилган бўлишини таъкидлаш жоиз, ҳолбуки норматив- ҳуқуқий ҳужжатлар эса кўпчиликка қаратилган бўлади. Ҳуқуқни қўллаш ҳужжатлари ҳуқуқ нормаларида мустаҳкамланган қоидаларни аниқ ҳолатга, вазиятга қўллаш демакдир. Бунда аниқ ҳуқуқ субектининг ҳуқуқ ва мажбуриятлари конкретлаштирилади ёки ҳуқуқ субектининг жавобгарлик доираси белгиланади.

Юқоридаги фикрлар асосида ҳуқуқни қўллаш ҳужжатларининг қуйидаги хусусиятларини кўрсатиб ўтиш мумкин:

– ваколатли органлар ва мансабдор шахслар томонидан чиқарилиши;

– ҳужжатлар қатъий индивидуаллашганлиги, уларнинг муайян шахс ва вазиятларга нисбатан қаратилганлиги;

– давлат томонидан таъминланиши;

– ҳуқуқни қўллаш ҳужжатларининг бир маротаба қўлланилиши ва шу билан ўз вазифасини тамомлаши.

Алоҳида таъкидлаш жоизки, ҳуқуқни қўллаш ҳужжатлари асослантирилганлик, қонунийлик ва мақсадга мувофиқлик тамойиллари талабларига жавоб бериши лозим.

Бугунги кунда Янги Ўзбекистонда Миллий гвардия фаолиятини янада такомиллаштириш, тизимга нисбатан аҳолини ишончини ошириш, ҳарбий хизматчи ва ҳодимларнинг ҳуқуқий саводхонлигини юқори босқичга олиб чиқиш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 29 ноябрдаги “Ўзбекистон Республикаси жамоат хавфсизлиги консепсиясини тасдиқлаш ва уни амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-27-сон Фармони[1]нинг 7-банд 3-хатбошида белгиланган *“... ички ишлар органлари профилактика катта инспектори лавозимларига фақат олий юридик маълумотга эга бўлган ходимлар тайинланади”* деган қоидани Миллий гвардия органлари томонидан Ўзбекистон Республикаси МЖтКнинг 248[1]-моддасида назарда тутилган маъмурий ҳуқуқбузарликлар аниқлаган тақдирда, уларни кўриб чиқиш ҳамда жазо чорасини қўллаш ваколатига эга мансабдор шахсларни мансаб лавозимига *фақат олий юридик маълумотга эга ходимларни тайинлаш амалиётини жорий этиш мақсадга* мувофиқдир.

Мазкур шарафли вазифани ижросини таъминлаш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардия ҳарбий хизматчи ва ҳодимлари томонидан амалга оширилган чора-тадбирлар натижасида биргина 2024 йилнинг 1 март кунидан 1 апрел кунига қадар МЖтКнинг 47-моддаси бўйича 86 та вояга етмаган болаларнинг ота-оналари ёки уларнинг ўрнини босувчи шахсларга нисбатан вояга етмаган болаларни тарбиялаш ва уларга таълим бериш борасидаги мажбуриятларини бажармаганлик ҳолатлари учун маъмурий ҳужжатлар расмийлаштирилиб, тазир чорасини қўллаш учун ҳудудий профилактика инспектори ихтиёрига юборилган.

[1] “Ўзбекистон Республикаси жамоат хавфсизлиги концепциясини тасдиқлаш ва уни амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-27-сон 29.11.2021. (lex.uz)

Шу ўринда, *бир ҳуқуқбузарлик учун бир вақтнинг ўзида икки ҳуқуқни мухофаза қилиш органини жалб этилиши қанчалик тўғри*? деган ўринли савол юзага келади. Бизнингча, Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардияси органларининг вояга етмаганлар ўртасида ҳуқуқбузарликлар профилактикаси, шунингдек болаларнинг ҳуқуқлари, эркинликлари ҳамда қонуний манфаатларини ҳимоя қилиш билан боғлиқ ваколатли норматив-ҳуқуқий ҳужжатлардаги мавжуд ҳуқуқий бўшлиқлар туфайли юзага келмоқда десак ўринли бўлади.

Хулоса ўрнида шуни таъкидлаш жоизки, жамоат тартибини сақлаш ҳар қандай давлатнинг ички хавфсизлигини таъминлашда муҳим аҳамият касб этади. Янги Ўзбекистонда жамоат хавфсизлигини таъминлаш борасидаги давлат сиёсатининг устувор йўналишларидан бири бу **Миллий гвардиянинг жамоат тартибини сақлаш борасидаги ролини аниқ белгилаш ва ҳуқуқий асосларини такомиллаштириш**дир. Бу жараён нафақат ҳуқуқий тизимни мустаҳкамлаш, балки жамоат хавфсизлигини таъминлашнинг самарадорлигини ошириш, жиноятчиликка қарши курашиш ва ҳуқуқбузарликларнинг олдини олишда катта аҳамиятга эга.

ЖАМИЯТДА ҲУҚУҚИЙ ОНГ ВА ҲУҚУҚИЙ МАДАНИЯТНИ ЮКСАЛТИРИШНИНГ ИЖТИМОИЙ – НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ

Замонбеков Умидбек Авазбек ўғли
Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети мустақил изланувчиси.

Сўнгги йилларда Ўзбекистонда амалга оширилган чуқур сиёсий, ижтимоий-иқтисодий, ҳуқуқий ва бошқа ўзгаришлар нафақат инсон ва фуқаронинг ҳуқуқ ва эркинликларининг ҳақиқий тасдиқланишига, бозор муносабатларининг тикланишига, халқаро муносабатларнинг кенгайишига ва бошқа натижаларга олиб келди, балки кучли фуқаролик жамиятини барпо этишда, шунингдек, тубдан янги шошилинч ечимларни талаб қилувчи қатор мураккаб муаммоларни ҳал этишда жиддий ҳисса қўшди.

Шуни таъкидлаймизки, ҳуқуқий онг тушунчаси полемик характерга эга. Машҳур рус файласуфи И.А. Ильин фуқароларнинг ҳуқуқий онгини шакллантиришнинг ўзига хос хусусиятлари ва жиҳатларини чуқур ўрганди. «Армия давлат мавжудлигининг элементи сифатида ўзини мунтазам равишда ғалабага ва унинг учун ўлимга, давлат мақсади йўлида ўлдиришга тарбиялайдиган уюшган оломондир... армия давлатчиликнинг жонли илҳоми билан суғорилиши керак. Жангчи — бу фуқаролик даражаси ва мавжудлигининг жамланган юкини ўз зиммасига олган фуқаро: чунки у давлат ҳокимиятининг жонли тимсолидир, давлат иродасининг жонли қуроли, ўз ишини шахсий ҳаёт масалалари билан боғлаган вакилдир»[1].

И.Ильиннинг ушбу таърифида армия фақатгина ҳарбий куч сифатида эмас, балки давлат ҳокимиятининг тимсоли ва юридик онгни шакллантиришдаги марказий субъект сифатида талқин этилган. Шу нуқтаи назардан, унинг фикрлари замонавий ҳуқуқшунослик ва фалсафа учун ҳам долзарб аҳамиятга эга.

Бироқ, ушбу концепцияни танқидий таҳлил қилар эканмиз, қатор илмий полемик нуқталар юзага чиқади:

– И.Ильин армияни ҳуқуқий онг ва фуқаролик масъулиятининг жонли тимсоли сифатида тавсифлайди. Аммо ушбу қарашга қарши чиқувчи баъзи муаллифлар, жумладан, демократияни ёқловчи файласуфлар армиянинг роли ҳаддан ташқари кучайиб кетиши фуқаролик жамияти ва ҳуқуқий онгга таҳдид солиши мумкинлигини таъкидлайдилар. Масалан, Ж. Локк ёки Ж.-Ж. Руссо каби ғарб файласуфлари армияни фуқароларнинг эркинлигига эҳтимолий хавф сифатида баҳолаган;

– И.Ильиннинг фикрича, ҳарбий хизматчи давлат иродасини амалга оширувчи "жонли қурол"дир. Бу нуқтаи назар автократия ёки марказлашган давлат ҳокимияти ғоялари билан уйғун келса-да, ҳуқуқий давлат концепцияси учун зиддиятли кўринишга эга. Замонавий ҳуқуқий ёндашувларда давлат органлари ва ҳарбий кучлар шахсий эркинликлар ва ҳуқуқларни таъминловчи восита сифатида талқин қилинади. Ҳарбийларнинг фуқаролик жамиятидаги роли кўпроқ муҳофаза функциясига қаратилиши лозим;

– И.Ильиннинг фуқаро ва жангчи ролларини уйғунлаштириш ғояси ҳам тортишувларга сабаб бўлиши мумкин. Жангчи ҳар доим ҳам фуқаролик қадриятларини ўзида мужассам этувчи шахс сифатида талқин қилинмайди. Баъзи тадқиқотчилар ҳуқуқий онг ва ҳарбий интизом ўртасидаги тафовутларни таъкидлаб, ҳарбий хизматчилардаги ҳуқуқий билимлар ва фуқаролик масъулиятини ривожлантириш заруратини илгари сурмоқда;

– И.Ильиннинг "давлатчиликнинг жонли илҳоми" атамаси назарий жиҳатдан диққатга сазовор бўлса-да, амалда бу илҳом қандай намоён бўлиши, қандай механизмлар орқали фуқаролар ва ҳарбий хизматчилар онгига таъсир қилишига оид масала очиқ қолмоқда. Бу тушунчани ҳарбий ва давлат ўртасидаги муносабатлар тизимида аниқ юридик ёки ижтимоий категориялар орқали мукаммалроқ ёритиш зарур.

Ҳуқуқий онг тушунчасининг таърифларига турлича қарашлар мавжуд. Н.Л.Гранат ҳуқуқий воқеликни акс эттиришнинг қуйидаги шаклларини санаб ўтади: "ҳуқуқий билимлар, ҳуқуқий муносабатлар, ҳуқуқ ва ҳуқуқий амалиётни баҳолаш, юридик аҳамиятга эга бўлган вазиятларда одамларнинг фаолияти ва хатти-ҳаракатларида намоён бўладиган инсоний қадрият йўналишлари". Н.Гранат томонидан илгари сурилган ҳуқуқий воқелик шакллари мураккаб ва турли ёндашувларни талаб қиладиган назарий тушунчаларни ўз ичига олади. Ушбу тушунчаларни замонавий ҳуқуқшуносликнинг мултидисциплинар ёндашувлари асосида қайта кўриб чиқиш ва тўлдириш орқали ҳуқуқий воқеликни янада аниқроқ ёритиш мумкин.

А.Б. Венгеров ҳуқуқий онгни "жамият, гуруҳлар, шахсларнинг қонунга, унинг тизими ва тузилишига индивидуал муносабатини ва ҳуқуқ тизимининг бошқа хусусиятларини ифодаловчи объектив равишда мавжуд бўлган ўзаро боғлиқ ғоялар, ҳис-туйғулар мажмуи"[2] деб ҳисоблайди.

А.Венгеровнинг ҳуқуқий онгга оид таърифи назарий жиҳатдан чуқур асосланган бўлса-да, унинг индивидуал ва ижтимоий онг ўртасидаги мувозанат, рационал ва эмоционал элементларнинг роли каби жиҳатлари юзасидан турлича ёндашувлар мавжуд. Ҳуқуқий онгнинг замонавий талқинида ушбу нуқталарни инобатга олиш муҳим аҳамиятга эга.

А.Н. Головистикова ва Ю.А. Дмитриевнинг сўзларига кўра, ҳуқуқий онг — бу одамларнинг ўтмишдаги ва амалдаги қонунчиликка бўлган когнитив-баҳолаш муносабати, уни янада такомиллаштириш, қонунийлик, адолат ҳақидаги ғояларидир[3].

А.Н. Головистикова ва Ю.А. Дмитриев ҳуқуқий онгда когнитив (билимлар) ва баҳолаш (қиммат ҳукмлар) жиҳатларига урғу берадилар. Лекин танқидчилар, жумладан, когнитив психология ва ҳуқуқий онг мутахассислари, ушбу икки жиҳат ўртасидаги алоқани янада аниқроқ тадқиқ қилиш зарурлигини таъкидлайдилар. Уларга кўра, ҳуқуқий онгда фақат рационал билимлар эмас, балки инсон тажрибаси, ижтимоий таъсир ва эмоционал ҳолатлар ҳам муҳим ўрин тутади.

Авторлар таърифида ҳуқуқий онг ўтмишдаги ва амалдаги қонунчиликка боғлиқ равишда шаклланиши кўрсатилган. Бироқ баъзи ҳуқуқшунослар ҳуқуқий онгнинг тарихий аспектлардан эмас, балки айни

замондаги ижтимоий муаммолар ва амалиётларга тезроқ мослашиш қобилиятига эътибор қаратишни зарур деб ҳисоблайдилар. Масалан, динамик ҳуқуқий назария тарафдорлари ҳуқуқий онгнинг тез ўзгарувчан ижтимоий муҳитда янгиланиши кераклигини таъкидлайдилар.

А.Н. Головистикова ва Ю.А. Дмитриевнинг таърифида қонунийлик ва адолат ғоялари марказий ўрин эгаллайди. Аммо бу ғояларнинг субъектив ва маданий хусусиятлари турлича талқин этилади. Баъзи тадқиқотчилар, жумладан, ҳуқуқий плюрализм вакиллари, адолат тушунчасининг турли жамиятларда ҳар хил шаклларда намоён бўлиши мумкинлигини таъкидлайдилар.

Таърифда ҳуқуқий онг қонунчиликни янада такомиллаштириш ғояси билан боғлиқ қилиб кўрсатилган. Лекин танқидчиларга кўра, ҳуқуқий онг фақат такомиллаштириш эмас, балки амалдаги қонунларга танқидий ёндашувни ва ижтимоий реалликка мослашувни ҳам ўз ичига олиши керак. Бу жиҳатдан, ҳуқуқий онг ижтимоий ислоҳотлар ва инновациялар жараёнига интеграция қилинишини тақозо этади.

А.Н. Головистикова ва Ю.А. Дмитриевнинг ҳуқуқий онгга оид таърифи когнитив ва баҳолаш элементларини қамраб олган мураккаб назарий тузилмага асосланади. Бироқ ҳуқуқий онгни тўлиқ англаш учун унинг субъектив, тарихий ва ижтимоий омиллари ҳамда амалдаги динамикасини янада чуқурроқ ўрганиш зарур.

Юқорида муҳокама қилинган ҳуқуқий онгнинг моҳиятини аниқлашнинг барча ёндашувлари бу тушунчанинг жуда мураккаб, ўзига хос ва ноаниқ эканлигини кўрсатади.

Ҳуқуқий онг — ижтимоий тараққиётнинг объектив эҳтиёжларини акс эттирувчи, инсон хулқ-атворини олдиндан белгилаб берувчи ва ундайдиган ижтимоий онг шаклидир. Ижтимоий муносабатларнинг акси сифатида онгнинг бир қанча шакллари мавжуд: фалсафий, диний, ҳуқуқий, сиёсий, эстетик онг.

Ҳуқуқий онг ўзига хос хусусиятларга эга бўлиб, уни нисбатан мустақил ҳодиса деб ҳисоблаш имконини беради. Л.А. Морозова унинг қуйидаги хусусиятларини таъкидлайди[4]:

ҳуқуқий онг қонунчиликни, ҳуқуқий амалиёт — жамият ҳаётининг ҳуқуқий соҳасини ташкил этувчи давлат-ҳуқуқий ҳодисаларни акс эттиради;

давлат ҳуқуқий воқелиги қуйидаги кўринишларда намоён бўлади: ҳуқуқий анъана ва урф-одатлар, ҳуқуқий категория ва тушунчалар, ҳуқуқий тузилмалар ва бошқалар орқали;

ҳуқуқий онг ижтимоий муносабатларнинг ривожланиш тенденцияларини акс эттиради, бу ҳуқуқий онгнинг ҳуқуқий воқеликни фаол акс эттириш қобилиятидан далолат беради;

ҳуқуқий онг ижтимоий онгнинг бошқа шакллари, айниқса, ахлоқий онг билан чамбарчас боғлиқдир. Ҳуқуқий ғоя ва қарашлар мазмунини ахлоқий тамойиллар, йўриқлар – инсонпарварлик ва адолат тушунчалари, барча одамларнинг тенглиги ва бошқалар ташкил этади;

ҳуқуқий онг ислоҳотларга, ижтимоий жараёнлар ва ўзгаришларга таъсир қилади: у бу жараёнларни секинлаштириши ёки аксинча, тезлаштириши мумкин. Бу, хусусан, аҳолининг ҳуқуқий онги ижтимоий эҳтиёжлардан орқада қолса, илғор ҳуқуқий ислоҳотларни йирик ижтимоий гуруҳлар тушуниб, қўллаб-қувватламаслиги мумкинлигида намоён бўлади.

Ҳуқуқий онг, П.П.Барановнинг фикрича, жамият аъзоларининг амалдаги қонунга ҳам, ҳуқуқий амалиётга ҳам, исталган қонунга бўлган муносабатининг ифодаси бўлган ҳуқуқий ғоялар ва муносабатлар, ҳис-туйғулар ва қадриятлар, ғоялар тизимидир[5].

"Ҳуқуқий онг" тушунчасининг шунга ўхшаш таърифини Н. Л. Гранат таклиф қилади, у ҳуқуқий онг — бу инсон онгининг махсус соҳаси ёки шакли, "тўғридан-тўғри кузатилиши мумкин бўлмаган идеал ҳодиса" дейди[6]. Муаллифнинг фикрича, ҳуқуқий онг онг соҳаси ёки шакли бўлиб, ҳуқуқий воқеликни турли кўринишларда акс эттиради. Н. Л. Гранат ҳуқуқий воқеликни акс эттиришнинг қуйидаги шаклларини санаб ўтади: "ҳуқуқий билимлар, ҳуқуқий муносабатлар, ҳуқуқ ва ҳуқуқий амалиётни баҳолаш, юридик аҳамиятга эга бўлган вазиятларда одамларнинг фаолияти ва хатти-ҳаракатларида намоён бўладиган инсоний қадрият йўналишлари"[7].

В.С. Барулин ҳам ҳуқуқий онгни одамларнинг қонунга (ҳақиқий ёки исталган) муносабатини ифодаловчи ҳис-туйғулар ва ғоялар йиғиндиси сифатида ёзади. Муаллифнинг ёзишича, ҳуқуқий онг ўта мустақил, яхлит ҳодиса бўлиб, ҳуқуқ назариясининг алоҳида объекти сифатида ўрганилиши керак, чунки ҳуқуқий онг орқали ҳуқуқнинг генезиси ва моҳияти, ҳуқуқ назарияси, ҳуқуқшунослик, муайян цивилизацияга хос бўлган ҳуқуқий тартибга солишнинг маданий ўзига хос хусусиятлари, шунингдек, "ижтимоий патологиялар, жиноятлар ва ҳуқуқий хулқ-атворнинг бошқа шаклларининг сабаблари тўғрисида" ги саволларга жавоб беради[8].

Ҳуқуқий онг тушунчасига оид П.Баранов, Н.Гранат ва В.Барулиннинг таърифлари орасида умумий жиҳатлар мавжуд бўлса-да, уларнинг тушунчаларни изоҳлашдаги ёндашувлари бир қатор назарий полемик нуқталарни келтириб чиқаради.

П.Баранов ҳуқуқий онгни жамият аъзоларининг қонун ва ҳуқуқий амалиётга нисбатан муносабатини акс эттирувчи ғоялар, қадриятлар ва ҳис-туйғулар тизими сифатида талқин қилади. Бу таъриф ҳуқуқий онгни фақат инсонларнинг шахсий ва ижтимоий муносабатлари доирасидаги тушунча сифатида чеклаб қўяди деган танқидларга дуч келиши мумкин. Ҳуқуқий онг кўп ҳолларда давлат институтлари ва ҳуқуқий тизимнинг сиёсий ва ижтимоий таъсиридан ҳам шаклланади.

Н.Гранат эса ҳуқуқий онгни инсон онгининг махсус соҳаси сифатида, тўғридан-тўғри кузатилиши мумкин бўлмаган идеал ҳодиса деб таърифлайди. Унинг таърифи ҳуқуқий онгни назарий жиҳатдан метафизик тузилма сифатида кўради, бу эса ҳуқуқий онгнинг амалиётдаги аниқ кўринишларини етарлича тушунтирмаслиги мумкин. Бунга қарши фикр билдирувчи мутахассислар, хусусан, ҳуқуқий реализм тарафдорлари, ҳуқуқий онгнинг фақат назарий эмас,

балки қонунларнинг амалий татбиқи жараёнида намоён бўлишини ҳам эътиборга олишни таклиф қиладилар.

В.Барулин эса ҳуқуқий онгни қонунга бўлган ҳис-туйғулар ва ғоялар йиғиндиси сифатида, шунингдек, уни мустақил таҳлил қилиш кераклигини таъкидлайди. Барулиннинг ёндашуви ҳуқуқий онгни маданий ва цивилизацион ўзига хос хусусиятлар билан боғлаб, унинг ижтимоий патологиялар ва ҳуқуқий хулқ-атвор сабабларини тушунишдаги аҳамиятини кўрсатади. Бироқ буни танқид қилувчи ёндошувлар ҳуқуқий онгнинг ҳаддан ташқари маданий ва фалсафий таҳлили унинг ҳуқуқий тизимлар доирасидаги амалий аҳамиятини заифлаштириши мумкинлигини қайд этадилар.

Шу тариқа, ҳуқуқий онгни изоҳлашдаги турли ёндашувлар ҳуқуқий онгнинг тузилиши, унинг субъектлари, ҳуқуқий муносабатлар ва қадриятлар билан боғлиқлиги масалаларини қайта кўриб чиқиш заруратини кўрсатади. Полемик таҳлил шуни англатадики, ҳуқуқий онгни ҳам назарий, ҳам амалий жиҳатдан кенгроқ тадқиқ қилиш орқали унинг ижтимоий ва ҳуқуқий жараёнлардаги роли янада аниқроқ очиб берилиши мумкин.

Юқорида муҳокама қилинган ҳуқуқий онгнинг моҳиятини аниқлашнинг барча ёндашувлари бу тушунчанинг жуда мураккаб, ўзига хос ва ноаниқ эканлигини кўрсатади.

Ҳуқуқий онгнинг хулқ-атвор элементи ҳақидаги қарашларга келсак, О.Ф.Скакун шундай ёзади: "Ҳуқуқий хулқ-атвор — бу ҳуқуқий онгнинг ихтиёрий томони, бу ҳуқуқий нормаларни ҳақиқий ҳуқуқий хулқ-атворга айлантириш жараёнидир"[9].

О.Ф. Скакуннинг ҳуқуқий онг ва хулқ-атвор ўртасидаги муносабатга оид фикрлари назарий жиҳатдан қимматли бўлиб, ҳуқуқий онгнинг амалий хулқ-атворга айланиш жараёнини тушуниш учун асос яратади. Бироқ, танқидий ёндашувлар ушбу жараённинг мураккаблигини ҳисобга олиб, хулқ-атворга ижтимоий, иқтисодий ва психологик омиллар таъсирини ҳам эътиборга олишни таклиф қиладилар. Ҳуқуқий онгнинг турли элементларини янада чуқурроқ тадқиқ қилиш орқали унинг хулқ-атвордаги ролини кенгроқ тушуниш мумкин.

Келинг, юридик амалиёт тушунчасини кўриб чиқишга ўтамиз.

Бугунги кунда олимлар нафақат алоҳида давлат тузилмаларида, балки бутун ижтимоий дунё миқёсида ижтимоий тузилмаларнинг беқарорлашувини ҳақиқатда тан олишади.

Замонавий глобаллашув ўзгаришлари бир қатор ҳалокатли ҳодисалар билан боғлиқ. Бинобарин, Ўзбекистондаги ҳуқуқий модернизация ва ислоҳотларнинг изчил олиб борилиши тегишли мустаҳкам ҳуқуқий база яратишни тақозо этади.

Тадқиқотчилар кўп йиллар мобайнида жамиятдаги нигилистик ҳуқуқий онгнинг ҳолати ҳақида ёзадилар (Гулина О.Р., Шчедрин О.Г., Кривцов С.И., Сенин И.Н., Зирянов М.Ю. ва бошқалар). Ушбу масала бўйича кўплаб нашрлар орасида муаллифлар асосан нигилистик хусусиятларга эга бўлган ҳуқуқий онгнинг деформациясига сезиларли таъсир кўрсатган қуйидаги тарихий омилларни аниқладилар. Совет ҳуқуқни қўллаш амалиётида қонун ва

ҳуқуқнинг белгиланиши давлатнинг инсон ҳуқуқларини ҳимоя қилишини ва ўзбошимчалик билан қарор қабул қилишини англатган[10].

Шундай қилиб, постсовет жамиятнинг ҳуқуқий маданияти тарихан ўрнатилган марказлашганлик қадриятларининг устунлиги билан тавсифланади.

«Мамлакатимизда фуқарога анъанавий равишда давлат манфаатларини ўз манфаатларидан сўзсиз устун қўйиб, ҳар бир шахснинг ҳуқуқлари бузилиши мумкинлиги ҳақида ўйламасдан хизмат қилиш тайинланади»[11]. Яъни, давлат кўп ҳолларда одамлар томонидан ўта аниқ трансперсонал ва ҳуқуқдан ташқари унсур сифатида қабул қилинади, бу давлатдан ва унинг тузилмаларидан, шу жумладан ҳуқуқни муҳофаза қилиш органларидан чуқур бегоналашишга олиб келди.

Қонун нормаларини билишни истамаслик, фуқароларнинг ўз мамлакати келажагига бефарқлиги кейинчалик амалдаги қонунларнинг қасддан бузилишига, ҳуқуқий нормаларнинг нафақат мамлакат фуқаролари томонидан, балки давлат органлари ва мансабдор шахслар, идоравий мансубликни пеш қилиб оммавий равишда бажарилмаслигига олиб келади.

Жумладан, Ички ишлар вазирлиги маълумотларига кўра, 2023 йилда ёшлар ва вояга етмаганлар ўртасида содир этилган жиноятлар 2022 йилга нисбатан 5,3 фоизга ортган. Вояга етмаганлар томонидан содир этилган жиноятларнинг сони айрим ҳудудларда юқорилигича қолмоқда[12].

2023 йил декабрь ойида биз ёшларнинг ҳуқуқий ахборотни излашда дуч келадиган муаммоларини тизимлаштиришга қаратилган тадқиқот ўтказдик. Тадқиқот сўров анкетаси ёрдамида миқдорий ёндашув ёрдамида амалга оширилди. Сўровда жами 86 та субъект иштирок этди — ТДЮУ турли факультетлари талабалари.

Сўров натижасида олинган маълумотларга асосланиб, талабалар ҳуқуқий тизимнинг кенг тармокли эканлиги туфайли энг кўп қийинчиликларни бошдан кечираётганини кўриш мумкин, баъзида зарур бўлган тегишли ҳуқуқий ҳужжатни топиш жуда қийин (42%). Шунингдек, айрим ҳуқуқий ҳужжатларнинг тўлиқ матнларига кириш чекланганлиги катта муаммодир (33%), чунки Интернетда ҳам маълум бир ҳуқуқий ҳужжатга бепул кириш ҳар доим ҳам мумкин эмас.

Ҳуқуқий ахборотни топишда нисбатан камроқ муаммолар ҳуқуқий тилда ёзилган норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар матнини тушуниш билан боғлиқ (11%). Фақат юридик маълумотга эга бўлган мутахассислар норматив ҳужжатлар матнини тўғри тушунишлари мумкин, бироқ хаттоки улар ҳам баъзан ҳуқуқий матнларни шарҳлашда қийинчиликларга дуч келишади.

Энг паст даражадаги муаммо сифатида баъзи қонунларнинг бошқаларга зидлиги (9%) ва кўп сонли ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш (5%) кўрсатиб ўтилган. Бу муаммолар камроқ даражада бўлса ҳам, барибир айрим вақтда қийинчилик туғдиради.

Шундай қилиб, замонавий миллий жамиятимизнинг ҳуқуқий онгининг тизимли марказлашуви, қонун ва ҳуқуқни идентификациялашда ифодаланган

совет қонунийлиги шаклини сақлаб қолиб, ҳуқуқий норма ва хатти-ҳаракатлар ўртасидаги маълум масофа борлигини намоён этади.

Таъкидлаш керакки, фаолият олимлар томонидан атрофдаги олам билан фаол муносабатларнинг ўзига хос шакли, унинг мазмуни, мақсадли ўзгариши сифатида белгиланади. Таърифга асосланиб, фаолият ва маданиятнинг хусусиятларини ўзаро боғлиқ тарихий категориялар сифатида кўрсатиш мумкин. Маданият, ўз навбатида, фаолиятнинг универсал хусусияти бўлиб, дастурни белгилайди ва муайян турдаги фаолиятнинг йўналишини, унинг қимматли типологик хусусиятлари ва натижаларини олдиндан белгилаб беради.

“Маданият — бу фаолиятнинг маълум бир қисмини ва унинг натижаларини яратиш, истеъмол қилиш ва узатишни ўз ичига олган жараён. Шу билан бирга, одамлар нафақат ҳодисаларнинг хусусиятларини (уларнинг сифатини) ўрганадилар, балки иккинчисини уларнинг ижобий аҳамияти, инсон, синф, жамиятнинг ҳар қандай эҳтиёжларини қондириш қобилияти нуқтаи назаридан баҳолайдилар", — деб таъкидлайди А. В. Иконников[13].

Касбий маданият ўрнатилган, доимий ривожланиб борувчи мотивлар, шахсий маънолар ва мақсадлар тизими мавжудлигида ифодаланади, индивидуал ишлаб чиқилган стратегияларни, воқеликка йўналтириш воситаларини, муаммоларни ҳал қилиш усулларини ўз ичига олади ва касбий маданиятни ижодий ўзини ўзи бошқариш мезони ва усули сифатида ифодалайди.

Праксеологик маданият — бу муаммоларни шакллантиришдан уларни ҳал қилиш учун аниқ ҳаракатларга ўтишни таъминлайдиган зарур усуллар ва стратегиялар тўплами. Унинг таркибий қисмлари орасида мақсадни белгилаш, қарор қабул қилиш ва режалаштириш алоҳида ўрин тутади.

Мутахассис фаолияти, мулоқот ва ўз-ўзини ривожлантириш компетенцияси унинг ваколатининг асосини ташкил қилади. Касбий компетенция — бу меҳнат субъектининг кундалик фаолиятнинг вазифалари ва мажбуриятларини бажаришга касбий тайёргарлиги ва қобилияти.

Муайян фан бўйича билимлар муҳим аҳамиятга эга, чунки улар барча касбий компетенцияларни шакллантиришнинг асосий асоси ҳисобланади[14].

Ҳуқуқий маданият жамиятнинг институционал тизимига қурилган бўлиб, шахсларнинг норматив ҳаёти контурларини, ижтимоий амалиётни ривожлантириш жараёнида расмий нормаларга муносабат характерини, адолат ва қонун ижодкорлигининг сифати ва даражасини, ҳуқуқ-тартибот самарадорлигини ва ижтимоий маконнинг ҳуқуқий бўлмаган секторининг улуши мутаносиблигини белгилайди. Ҳуқуқий маданият бир вақтнинг ўзида ҳуқуқий ривожланиш жараёнларига органик равишда киритилган инсоннинг ақлий, маънавий ва амалий фаолияти мажмуини ифодаловчи ижтимоий ва ҳуқуқий амалиётни белгилайди[15].

Сўнгги йилларда Ўзбекистонда амалга оширилган чуқур сиёсий, ижтимоий-иқтисодий, ҳуқуқий ва бошқа ўзгаришлар нафақат инсон ва фуқаронинг ҳуқуқ ва эркинликларининг ҳақиқий тасдиқланишига, бозор муносабатларининг тикланишига, халқаро муносабатларнинг кенгайишига ва

бошқа натижаларга олиб келди, балки кучли фуқаролик жамиятини барпо этишда, шунингдек, тубдан янги шошилинч ечимларни талаб қилувчи қатор мураккаб муаммоларни ҳал этишда жиддий ҳисса қўшди.

Хозирги босқичда ҳуқуқий маданият ҳолатининг Ўзбекистонда ўзига хос жиҳати шундан иборатки, Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганидан бошлаб юридик қадриятларимизни, ҳуқуқий маданиятимизни замонавий конституциявий талаблар даражасига мос тарзда юксалтириш зарурати туғилди. Бугунги кунда эса ҳуқуқий тарбия тизимини янада такомиллаштириш эҳтиёжи сезилмокда. Бу масалаларни янги асосда, мамлакат ривожланишининг ҳозирги модернизация ва демократлаштириш босқичи вазифаларидан келиб чиққан ҳолда ҳал қилиш муҳим аҳамиятга эга.

Ҳуқуқий маданиятни юксалтириш миллий дастури жорий этилгач, юридик кадрлар тайёрлашга янгича ёндашувлар пайдо бўлди. Мамлакатда юридик таълим ривожланмокда, бу табиий равишда юридик кадрларнинг ҳуқуқий маданияти ва ҳуқуқий билимдонлиги юксалишига маълум даражада ижобий таъсир этмокда. Фукаролик жамияти ва ҳуқуқий давлат — профессионал ҳуқуқий маданият шаклланишини, илғор юридик тафаккур карор топишини назарда тутади.

Шу боис, айтиш мумкинки, Ўзбекистонда ҳуқуқий маданият муаммоси – жамият ва давлат ривожланишининг узвий ва барқарорлиги унинг ҳал этилишига боғлиқ.

Ҳуқуқ фалсафаси нуқтаи назаридан, ҳуқуқий маданият "ҳуқуқий онгнинг маълум бир ривожланиш даражасини ва қонунийлик ҳолатини ифодалайди, жамият фуқароларининг ижтимоий қарама-қаршиликларни ҳал қилишдаги ҳуқуқий лаёқати ва қобилиятини тавсифлайди"[16].

«Ҳуқуқий маданият инсонлар ижтимоий ҳаёти ҳуқуқий шаклининг барча томонларини қамраб олган бутун ҳуқуқий коинотдир. Бу ерда маданият айнан мана шу шаклга мувофиқ яшаш қобилияти ва лаёқатидан иборат бўлиб, у шаклланмаган (аниқланмаган, тартибсиз, ва шунинг учун ўзбошимча) ҳолатларга зиддир...”[17], дейди В.С.Нерсесянц.

Фалсафий нуқтаи назар бизга ҳуқуқий маданиятнинг муҳим концептуал шартига эътибор беришга имкон беради, бу Нерсесянц В.С. таърифлаганидек, шакл бўйича яшаш қобилияти ва лаёқати, шунингдек, ушбу шаклни ҳуқуқий ўзаро муносабатлар амалиётига ўтказиш шартлари ёки имкониятлари назарда тутилади. Чунки "ҳаёт сифати инсон олдида турган танлов имкониятлари кўлами билан белгиланади" [18].

Бинобарин, ҳаёт сифати ҳуқуқий маданият мезони сифатида ҳуқуқий шакл доирасидаги танловларнинг кўп эмаслиги (қонуний хулқ-атвор ва ўзбошимчалик) билан белгиланади. Шахс танлови унинг ҳуқуқий эркинлиги ва ҳуқуқий жавобгарлиги кўламини белгилайди. Демак, субъектнинг ҳуқуқий онгини, унинг ҳуқуқий эркинлиги ва масъулият доирасини ҳисобга олмасдан туриб, ҳуқуқий маданият ҳолатини баҳолаш мумкин эмас.

Масалан, В.М. Корельский ва В.Д. Перевалов ҳуқуқий маданиятни "жамият ҳуқуқий ҳаётининг бутун ижтимоий, маънавий, сиёсий ва иқтисодий тизим томонидан белгиланадиган, ҳуқуқий фаолият, ҳуқуқий ҳужжатлар,

ҳуқуқий онгнинг эришилган ривожланиш даражасида ва умуман олганда, субъектнинг ҳуқуқий ривожланиш даражаси (шахс, турли гуруҳлар, бутун аҳоли), шунингдек, давлат ва жамият томонидан инсон ҳуқуқлари ва эркинликларини кафолатлаш даражаси, инсон ўзини ўзи бошқариш, ҳулқ-атвор даражасида ифодаланган сифат ҳолати" деб тушунади[19].

В.С. Нерсесянц ва В.М. Корельский ҳамда В.Д. Перевалов ҳуқуқий маданиятга оид турлича ёндашувларни таклиф этадилар.

В.Нерсесянц ҳуқуқий маданиятни "ҳуқуқий шакл бўйича яшаш қобилияти ва лаёқати" сифатида талқин қилади. Унга кўра, ҳуқуқий маданият тартиб ва шаклни сақлаш, ўзбошимчаликка қарши туриш қобилияти орқали намоён бўлади. Танқидий ёндашувга кўра, бу таърифда маданиятнинг турли ижтимоий, маънавий ва иқтисодий омиллари етарлича ёритилмаган.

В.Корельский ва В.Перевалов эса ҳуқуқий маданиятни жамиятнинг ҳуқуқий фаолияти, ҳуқуқий ҳужжатлар ва инсон ҳуқуқлари кафолатларининг ривожланиш даражасига боғлаб тушунтирадилар. Бу таъриф ҳуқуқий маданиятнинг ижтимоий-сиёсий ҳамда иқтисодий асосларини кенгроқ қамраб олади. Аммо, танқидчиларга кўра, бу ёндашувда ҳуқуқий шакл ва тартибнинг ролини камситиш хавфи мавжуд.

Биз юқорида келтирилган барча таърифларни тўғри деб ҳисоблаш мумкин деб ҳисоблаймиз. Яна шуни таъкидлаш жоизки, у ўрганилаётган ҳодисанинг макро ва микро даражаларини акс эттиради, яъни у ҳуқуқ тизимига ва шахсга ҳаволани ўз ичига олади. Ниҳоят, ҳуқуқий маданиятнинг ҳуқуқий тизимнинг ҳаётийлиги, унинг вазифалари ва ижтимоий тараққиёти билан боғлиқ жараёнлардаги ўрни таъкидланади.

Ҳуқуқий маданиятни ҳуқуқий қадриятлар мажмуи сифатида тушунишни бошқа тадқиқотчиларда ҳам кўриш мумкин[20], бу эса ушбу ёндашувнинг асосий устунлигини ҳисобга олган ҳолда ажабланарли эмас. Бу ўрганилаётган ҳодисанинг ҳуқуқий тизимнинг бошқа таркибий қисмлари билан аралашмаганлиги ва умуман унинг кўламини кенгайтирмаслигидадир. Ҳуқуқий маданият ушбу тизимнинг ўзи ва унинг таркибий бўлинмаларининг ҳуқуқий қадриятлар билан тўйинганлик даражасини тавсифлайди.

Кўриб чиқилаётган ҳодисани норматив ва норматив бўлмаган томонлар контекстида ҳам кўриб чиқиш мумкин[21]. Бунинг сабаби шундаки, ҳуқуқ тизими нормага эга бўлган позитив ҳуқуқни ўз ичига олади. Албатта, бу ҳуқуқий маданиятга таъсир қилади. Лекин шу билан бирга, бу хусусиятга эга бўлмаган кўплаб ҳуқуқий ҳодисалар мавжуд.

Ҳуқуқий маданият шахсларнинг бевосита иштирокида вужудга келади, лекин кейинчалик жамиятда улардан мустақил равишда мавжуд бўлади. Масалан, буюк мутафаккирларнинг сиёсий-ҳуқуқий таълимотлари уларнинг ғояларини акс эттиради ва ҳуқуқий қадриятлар тизимида мустақил равишда мавжуддир.

Ҳуқуқий маданият ҳуқуқий тизимнинг сифат ҳолатини тавсифлаш имконини беради[22]. Бу ҳуқуқий маданиятни ҳуқуқий тизимнинг мустақил таркибий қисми сифатида кўриб чиқмаслик кераклигини англатади. У барча ҳуқуқий ҳодисаларда мавжуд бўлиб, уларнинг қонун билан тўйинганлик

даражасини баҳолашга имкон беради. Бундан келиб чиқадики, ҳуқуқий маданият салбий бўлиши мумкин эмас, чунки қадриятлар ҳар хил, ҳар хил шароитларда пайдо бўлади, улар ҳар доим ҳам бир-бирига мос келмайди.

Ҳуқуқий маданиятнинг хусусиятлари ёки кўрсаткичлари орасида инсон ҳуқуқ ва эркинликларининг устуворлиги, шунингдек, унинг фуқаролик жамияти эволюцияси шарти сифатидаги роли баъзан тилга олинади[23]. Ушбу қоидаларнинг аҳамиятини камайтирмасдан, уларнинг жойлашувини таъкидлаш керак. Улар ҳуқуқий маданиятнинг барча тарихий турлари учун хос эмас ва замонавий дунёда бу параметрларни тушуниш ҳар хил бўлиши мумкин. Ушбу фикрни ривожлантирар эканмиз, қиёсий ҳуқуқ нуқтаи назаридан ушбу қадриятларни ким белгилайди деган савол муқаррар равишда пайдо бўлишини таъкидлаймиз. Юқорида таъкидланганидек, улар ҳар хил, уларнинг эволюцияси кўплаб омилларга боғлиқ. Бу ерда муайян жамиятнинг анъаналари, унинг ҳаётининг маънавий ва диний соҳасининг ўзига хос хусусиятлари, иқтисодиётининг ўзига хос хусусиятлари ҳақида гапириш мумкин.

Гуруҳ ва индивидуал ҳуқуқий маданиятнинг алоҳида тури юристларнинг касбий ҳуқуқий маданиятидир. Бу "маълум бир касбий гуруҳда вужудга келадиган ва мавжуд бўлган таҳлилий маслаҳат характерига эга бўлган умумий ахлоқий меъёрлар ва махсус касбий ахлоқ нормаларининг ўзига хос мажмуидир" [24].

В.П.Сальников ҳуқуқий воқеликнинг таркибий қисмлари бўлган ҳуқуқий маданиятнинг қуйидаги таркибий элементларини белгилайди: "қонун, ҳуқуқий онг, ҳуқуқий муносабатлар, қонунийлик ва тартиб, субъектларнинг қонуний фаолияти" [25].

В.П. Сальниковнинг ҳуқуқий маданиятга оид қарашлари комплекс ёндашувни акс эттиради. Бироқ, танқидий таҳлилдан келиб чиқиб, ҳуқуқий маданиятни на фақат қонунлар ва ҳуқуқий фаолият билан, балки ижтимоий муносабатлар, қадриятлар ва ижтимоий тартибни қўллаб-қувватловчи омиллар билан ҳам боғлаб ўрганиш зарур.

Айрим шахсларнинг қонунни яхши билмаслиги сабабли қонундан четга чиқиши бошқаларнинг ҳуқуқ ва эркинликларини хавф остига қўяди[26]. Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларациясининг 29-моддасида шундай дейилган «Ҳар бир инсон ўз ҳуқуқи ва эркинликларидан фойдаланишда ўзгаларнинг ҳуқуқ ва эркинликларини демократик жамиятда етарли даражада бўлишини ҳамда ҳурмат қилинишини таъминлаш, ахлоқ, жамоат тартиби, умум фаровонлигининг одилона талабларини қондириш мақсадидагина қонунда белгиланган чекланишларга риоя этиши керак»[27].

Шахснинг ҳуқуқий маданиятини шакллантиришда ҳуқуқий ҳиссиётлар муҳим роль ўйнайди. Улар ҳуқуқий тартибга солиш, ҳуқуқий амалиёт ва уларни баҳолаш бўйича фикрларини ҳиссий ва шахсий оҳангларда ифодалайди. Воқеликни акс эттиришнинг бу ноёб шакли шахснинг қонунга субъектив муносабатини, ундаги идеалларга мос келиши ёки мос келмаслигини ифодалайди. Ҳуқуқий ҳис-туйғунинг ривожланиши шахснинг

бошқа ижтимоий туйғуларини комплекс шакллантириш тизимида содир бўлиши мумкин.

Қадрият йўналишлари — бу ҳуқуқни амалга оширишда муҳим бўлган, шахснинг турмуш тарзи билан боғлиқ бўлган ва унинг тақдирига сезиларли таъсир кўрсатадиган индивидуал муносабатлар тизими.

Таълим фаолияти жараёнида шахсий ва оммавий жиҳатлардаги даражаси жамиятнинг ҳуқуқий маданияти ҳолатига сезиларли таъсир кўрсатади. Ҳуқуқий тафаккур инсон ва жамиятнинг яшаш тарзи, шахснинг турмуш тарзи, шунингдек, атроф-муҳитга мослашиш ва уни ўзгартириш воситасидир. Уни шакллантириш жараёни таълим тизимида шахснинг ёши, фалсафий ва психологик-физиологик хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда босқичма-босқич амалга оширилади.

С.С. Алексеев таъкидлаганидек, "ҳуқуқий маданият, биринчи навбатда, "сифат жиҳатдан бой" ҳуқуқий онгдир"[28]. Худди шу фикрни В.В.Лазарев ҳам таъкидлайди, агар у барча мақсадларга "энг қисқа вақт ичида турли хил ижтимоий қадриятларга энг кам зарар етказган ҳолда эришилса, ҳуқуқни қўллаш самарали деб ҳисобланиши мумкин"[29] дейди.

Ҳақиқий маданият фақат инсоннинг узвий, ажралмас ҳуқуқларини ҳимоя қилиш воситаси сифатидаги ҳуқуқий давлат доирасида шаклланиши мумкин[30][1]. Ҳуқуқий давлат – шахс эркинлигининг зарурий шарти ва асоси. Шахс демократия, қонунийлик, ижтимоий ҳимояланганлик ва ҳуқуқий маданият, яъни умуминсоний қадриятлар ҳукм сурувчи, цивилизация ютуқлари инсон, унинг жамиятдаги юксак мавқеи хизматига қўйилган, ҳуқуқий давлатнинг бошқа принциплари ҳам ҳукмрон бўлган жамиятдагина эркиндир. Ҳуқуқий давлатнинг шаклланиши эса, жамият ва шахс ҳуқуқий маданиятининг ўсишига кўп жиҳатдан боғлиқдир[31].

Маданиятшуносликда мавжуд қоидага мувофиқ расмий маданият маълум даражада формаллашган, догма тусини олган ва оқилоналашган тақдирда, унга қарама-қарши ўлароқ аксилмаданият пайдо бўлади. Илмий адабиётларда “аксилижтимоий субмаданият”, “аксилмаданият”, “криминал субмаданият” каби анча ўхшаш тушунчаларга дуч келиш мумкин бўлиб, уларнинг мазмунини ажратиш талаб этилади. Аксилижтимоий субмаданият нормалари жамият томонидан маъқулланадиган барча нормалар билан мувофиқ келмайдиган субмаданиятни ўзида ифодалайди. Аксилмаданият атамаси одатдаги маданиятнинг тескарисини акс эттиради. Бу меъёрлар умум эътироф этилган меъёрларга қарши қаратилган субмаданиятдир; у аксилижтимоий субмаданиятнинг бир тури ҳисобланади. “Аксилижтимоий маданият” ва “аксилмаданият” тушунчалари ўртасидаги фарқ асосан шу билан белгиланадики, аксилмаданият меъёрлари наинки жамият томонидан маъқулланувчи меъёрлардан фарқ қилади, балки расмий маданиятга қарама-қарши қўйилади.

[1] Кудрявцев В.Н., Лукашева Е.А. Новое политическое мышление и права человека // Вопросы философии. 1990. №5. – С. 7-8.

“Субмаданият” деганда маданият соҳаси, ҳукмрон маданият доирасида мавжуд бўлган, ўз қадриятлар тўплами, одатлари ва меъёрлари билан ажралиб турадиган алоҳида яхлит тузилма тушунилади[32].

Умумий маданиятнинг кичик тизими ҳисобланган субмаданият ундан асосан маданиятнинг махсус субъектига кўра ажралиб туради. Илмий атама сифатидаги “субмаданият” тушунчаси илк бор чет элда XX асрнинг 30-йилларида пайдо бўлган, республикамиз фанига эса ўтган асрнинг 60-йилларида Ғарбдаги ёшлар ҳаракатлари (хиппи, оккультизм ва мистицизм вакиллари) ўрганилиши ва танқидий таҳлил қилиниши муносабати билан кириб келган. Умумий маданиятдан субмаданиятнинг ажралиши замирида, маданият субъектидан ташқари, меъёрлар, қадриятлар ва ғояларнинг мувофиқ эмаслиги ёки тўқнашуви ётади.

Ҳозирги замон илмий адабиётларида субмаданият тушунчасига берилган кўп сонли таърифлар мавжуд ва улардан бирида субмаданият маънавий ҳаёт элементи сифатида, муайян ижтимоий муҳит, қатлам, кичик гуруҳда шаклланган ва умумий маданиятдан алоҳида ажралиб чиққан мафкуравий қарашлар, турмуш тарзи ва хулқ-атвор сифатида тавсифланади. Мазкур таърифлар таҳлили субмаданият муайян умумий (касбий ва бошқа) қизиқиш воситасида бирлашган шахсларнинг муайян ижтимоий кичик гуруҳи доирасида мавжуд бўлган, гуруҳнинг барча аъзолари томонидан қўллаб-қувватланадиган ва жамиятда умум эътироф этилган муносабатлар, меъёрлар ва қоидалардан фарқ қиладиган ижтимоий муносабатлар ва уларга асосланган хулқ-атвор меъёрлари ва қоидалари, анъаналар, одатлар ва ташқи атрибутлар мажмуини ўзида ифодалайди, деган хулосага келиш имконини беради.

О.В.Старковнинг қайд этишича, криминал субмаданият криминал маданиятнинг бир кўриниши бўлиб, криминал маданият деганда, жамият маданиятининг моддий, идеологик, ҳуқуқий, бадиий ва маънавий соҳасидаги жиноий ҳодисалар билан боғлиқ маданиятини тушуниш лозим[33].

И.М.Мацкевич фикрига кўра, криминал субмаданият делинквент кичик маданиятнинг бир тури ҳисобланади ва одатдаги маданиятнинг жамият жиноий қатлами маданияти сифатида амал қилувчи салбий талқин қилинган меъёрлари ва қадриятлари тўплами сифатида амал қилади[34]. Таъбир жоиз бўлса, криминал субмаданият қатламани эслатади. Унинг ҳар бир қатлами конкрет криминал фаолият билан банд бўлган муайян гуруҳлар субмаданияти сифатида намоён бўлади. Шу нуқтаи назардан турма субмаданияти, ўғрилар субмаданияти, фоҳишалар ва гиёҳвандлар субмаданияти ва ҳоказолар ҳақида сўз юритиш мумкин. Бундан ташқари, криминал субмаданият – бу конкрет жиноий гуруҳнинг турмуш тарзидир.

Криминал субмаданият ва йўлдош салбий ҳодисаларнинг шикастли таъсири остида жамият ижтимоий-ижобий иммунитетининг, яъни жамият хавфсизлигини кафолатлайдиган, уни криминал зарарланишдан сақлайдиган иммунитетнинг сезиларли даражада сусайиши юз беради.

Бу зарарли иллатларнинг илдизларини қуритиш учун жамият жиноятчиликка қарши курашни янада фаоллаштириши, шу жумладан кўп сонли ижтимоий муносабатларни, давлат ва жамоат институтларининг

фаолият соҳалари ва вазифаларини қайта кўриб чиқиши, ижтимоий онгда ўзгариш ясаши талаб этилади. Бугунги кунда наинки аҳоли асосий оммасининг, балки давлат ва жамоат арбобларининг ҳуқуқий маданиятини шакллантириш ҳам долзарб вазифа ҳисобланади. Бу вазифани ҳал қилиш учун давлат криминал субмаданиятнинг жамиятга ёйилишига қарши ҳаракатлар комплекс дастурини ишлаб чиқиши лозим.

Яна бир муҳим омил – аҳоли ҳуқуқий онги ва ҳуқуқий маданияти даражасининг пасайиши, жамиятда ҳуқуқий нигилизмнинг кучайиши. Жамиятда қонунийлик ва аксилқонунийлик, ахлоқийлик ва ғайриахлоқийлик ўртасида чегара йўқолиб бормоқда.

Юқорида баён этилганлар жамият жиноятчиликка қарши янада фаол кураш олиб бориши, шу жумладан кўп сонли ижтимоий муносабатларни, давлат ва жамият институтларининг фаолият соҳалари ва вазифаларини қайта кўриши, ижтимоий онгда ижобий ўзгаришлар ясаши талаб этилади. Бугунги кунда наинки аҳоли асосий оммаси, балки давлат ва жамоат арбобларининг ҳуқуқий маданиятини юксалтириш ҳам долзарб аҳамиятга эгадир.

Жамиятнинг ҳозирги ҳолатини ижтимоий-ҳуқуқий соҳадаги аввалги инқирозли ҳолатлардан йироқ деб айтишимиз қийин, чунки бугунги кунда ҳам биз ҳақиқий ҳаёт ва Конституция нормалари ўртасидаги сезиларли тафовут анча мустаҳкам ўрнатилганлигини айтишимиз жоиз.

Ушбу салбий ижтимоий ҳодисанинг сабаблари кўп омиллардир.

Биринчидан, бу қонунга эътиборсизлик, қонун номинализми, қонуннинг инструментал аҳамиятининг аномияси бўлиб, бу, мисол учун, ҳуқуқий нигилизм, тизимли коррупция кўринишидаги салбий омилни келтириб чиқаради. «Коррупция ҳуқуқларни имтиёз сифатида индивидуаллаштиришнинг бузуқ усулидир»[35].

Иккинчидан, демократик институтларнинг (биринчи навбатда, сайловлар), жамиятнинг криминаллашуви, ноқонуний меҳнат миграцияси ва кўпинча ҳуқуқни муҳофаза қилиш органларининг ҳаракатсизлиги, бебошлиги, оқибатида "...ҳуқуқий маданият асосан ижтимоий амалиётларнинг ҳуқуқий бўлмаган табиати ва қонунга нигилистик муносабат билан тавсифланади"[36].

Учинчидан, бунинг оқибати субъектнинг ижтимоий мавқеи, даромад даражаси ва ҳокимият кўламига қараб амалга ошириладиган жазонинг муқаррарлиги принципининг самарасизлигидир. Юридик адолат, эркинлик ва тенглик декларатив равишда орзу қилинган ҳуқуқий тамойиллар бўлиб қолмоқда. Ваҳоланки, «қаерда ҳақиқий тенглик тамойили амал қилса, ҳуқуқий тамойил ва тартибга солишнинг ҳуқуқий усули мавжуд: қонун амал қиладиган жойда шу тамойил мавжуд бўлади»[37].

"Қонун амал қилади" мазмунида ҳуқуқ ҳақида ҳеч қандай ҳуқуқий ғоялар мавжуд бўлмаган онг учун ҳақиқат, ҳуқуқнинг инструментал аҳамияти ҳақидаги ғоялар ҳам бир тийинлик аҳамиятга эга бўлади.

Тўртинчидан, замонавий қонунчиликда назарда тутилган меъёр ва қоидаларни қўллаш ва амалга оширишга тўсқинлик қиладиган тўсиқлар орасида биз мансабдор шахсларнинг консерватизмини, қонунларнинг етарли даражада самарадор эмаслигини, юқори даражадаги коррупцияни қайд этамиз.

Қонун ҳужжатларининг номувофиқлиги ва унинг номукаммаллиги ҳуқуқий нормаларни ҳуқуқий воқеликка айлантиришдаги қийинчиликлар билан янада кучаяди.

Бешинчидан, фақат жисмоний шахслар эркин ва демак, жавобгар бўлган жойда ҳуқуқий муносабатлар ва умуман ҳуқуқий тартиб принципиал жиҳатдан юзага келиши мумкин. Шу муносабат билан И.А.Ильин таъкидлаганидек, инсон фақат шахсий қарорига кўра, шахсий ишончига кўра ҳалол, содиқ ва қонунга бўйсуниши мумкин. Агар бундай бўлмаса, демак, унда адолат туйғуси йўқ. Одам сохта, айёр, саргузаштсеварга айланади. Унда қонун ва тартиб устун эмас, балки унда тирик қолиш истаги бор. Ҳуқуқий давлат мажбурлов ва қўрқувга эмас, балки фуқароларнинг эркин содиқлигига асосланади[38].

Мазкур параграф юзасидан қуйидаги назарий хулоса, таклиф ва тавсияларни келтириб ўтишимиз мумкин:

биринчидан, ҳуқуқий онг – бу шахс ёки жамият аъзоларининг қонунларга, ҳуқуқий нормаларга ва ҳуқуқий амалиётга нисбатан онгли муносабатини ифодаловчи, ҳуқуқий билимлар, қадриятлар, ҳис-туйғулар ва ижтимоий хулқ-атворга таъсир қилувчи мураккаб ижтимоий-фалсафий жараёндир.

иккинчидан, ҳуқуқий маданият – бу шахс ёки жамиятнинг қонунлар, ҳуқуқий нормалар ва ҳуқуқий амалиётга муносабатида намоён бўладиган, ҳуқуқий онг, ҳуқуқий қадриятлар, қонунийлик ва ҳуқуқий фаолиятнинг узвий таркибий қисмларини қамраб олган мураккаб ижтимоий-ҳуқуқий ҳолат.

учинчидан, ҳар бир вилоятда ёшлар учун махсус профилактика марказлари ташкил этиш, уларга психологик маслаҳат ва ҳуқуқий ёрдам кўрсатиш, ҳуқуқий муаммолар бўйича ёшлар орасида мунтазам ахборот бериш ва огоҳлантириш тадбирлари ўтказилиши таъминлаш;

тўртинчидан, ҳуқуқий маълумотни излашни осонлаштириш учун мобил иловалар ва ҳуқуқий хизматларга онлайн платформаларни ишлаб чиқиш, қонун ва ҳуқуқий ҳужжатларга кириш учун махсус QR-код тизимини жорий этиш;

бешинчидан, зиддиятли ва бир-бирига мувофиқ бўлмаган ҳуқуқий нормаларни аниқлаш ва бартараф этиш учун қонунчилик мониторингини йўлга қўйиш, янги қонун лойиҳалари жамоатчилик муҳокамасидан ўтказилиши учун юридик экспертиза механизмини кучайтириш.

олтинчидан, давлатнинг расмий веб-сайтларида қонун ҳужжатларининг соддалаштирилган ва шарҳланган версияларини жойлаштириш.

Ҳуқуқий онг ва ҳуқуқий маданиятни юксалтириш жамият барқарорлиги ва демократик қадриятларнинг мустаҳкамланишида муҳим аҳамият касб этади. Жамият аъзоларининг қонунлар ва ҳуқуқий нормаларга риоя қилишга онгли равишда ёндашиши ҳуқуқий маданиятнинг ривожланишини таъминлайди. Бу эса ўз навбатида қонун устуворлигини мустаҳкамлашга, ижтимоий барқарорлик ва хавфсизликни таъминлашга хизмат қилади.

Ҳуқуқий маданиятни юксалтириш учун ҳуқуқий таълим ва тарбиянинг самарали тизимини шакллантириш, ҳуқуқий тарғиботни кенгайтириш,

қонунчиликнинг шаффофлигини таъминлаш ва аҳолининг ҳуқуқий саводхонлигини ошириш зарур. Шунингдек, оммавий ахборот воситалари, таълим муассасалари ва фуқаролик жамияти институтлари орқали ҳуқуқий онгни ошириш механизмларини такомиллаштириш муҳим аҳамият касб этади.

Халқаро тажрибадан маълумки, ҳуқуқий маданияти юқори бўлган жамиятларда коррупция камайиб, инсон ҳуқуқлари самарали ҳимоя қилинади ва ижтимоий муносабатлар барқарорлашади. Шу сабабли, ҳуқуқий онг ва ҳуқуқий маданиятни юксалтириш нафақат жамият тараққиёти, балки давлатнинг ҳуқуқий барқарорлиги ва иқтисодий ривожланиши учун ҳам муҳим омилдир.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ильин И.А. О сущности правосознания. — М., 1994. С. 47.
2. Венгеров А.Б. Теория государства и права: учебник. М., 2007. С. 560.
3. Головистикова, А.Н., Дмитриев, Ю.А. Проблемы теории государства и права: Учебник. - М.: ЭКСМО. 2005.С. 649
4. Морозова Л. А. Кўрсат. асарда. С. 373.
5. Баранов П. П. Правосознание и правовое воспитание // Общая теория права / под ред. В. К. Бабаева. Н.Новгород, 1993. С. 475.
6. Гранат Н. Л. Кўрсат. асарда. С. 309.
7. Барулин В. С. Социальная философия. Ч. 1. М., 1993. С. 233–237.
8. Теория государства и права / под ред. В. М. Корельского и В. Д. Перевалова. М., 2000. С. 348.
9. Келле В.Ж, Ковальзон М.Я. Формы общественного сознания / В.Ж. Келле, М.Я. Ковальзон. М., 1959. 288 с.; Строгович М.С. Тезисы доклада. Право и правосознание / М.С. Строгович. М., 1940. 10 с.; Стальгевич А.Г. Ценная книга. Избранные произведения по марксистско-ленинской теории права / А.Г. Стальгевич. Рига, 1964. 748 с.
10. Смоленский М.Б. Правовая культура как элемент социокультурного пространства: перспективы становления в современной России: Автореф. дис. … докт. социол. наук / Б.М. Смоленский. Ростов н/Д, 2003.С.28.
11. https://kknews.uz/uz/184791.html
12. Проблемы формирования эстетической ценности / под ред. А. В. Иконникова. М., 1981. – С.21.
13. Психология и педагогика: учебное пособие / под ред. А. А. Бодалева. М., 2002. – С.116.
14. Каландаришвили З. Н. Основные концепции изучения правовой культуры в юридической науке // Известия Российского государственного педагогического университета им. А. И. Герцена. 2008. № 56. – С.12.
15. Данильян. О.Г. Философия права: учебник / О.Г. Данильян. М.: Эксмо. 2006. с.399.
16. Нерсесянц В.С. Философия права: учебник для вузов / В.С. Нерсесянц. М.: Норма-Инфра-М, 1997. с.43.
17. Флиер А.Я. Культура общества как системный феномен. Социокультурные факторы национальной безопасности России / отв. ред. А.В. Костина. Сборник научных трудов. М.: Изд-во моск. гуманит. ун-та, 2015. с.72.

18. Корельский В.М., Перевалов В.Д. Теория государства и права: учебник. М., 2000. С. 333.

19. Петручак Л. А. Правовая культура современной России: теоретико-правовое исследование : автореф. дис. ... д-ра юрид. наук. М., 2012. С. 23.

20. Карташов В.Н., Баумова М.Г. Ўша асарда. С.23-24.

21. Братусева О. Н. Правовые культуры в условиях глобализации: автореф. дис. ...канд. юрид. наук. М., 2009. С. 12.

22. Карташов В.Н., Баумова М.Г. Оп. 27-30-бетлар.

23. Кокорев Л.Д., Котов Д.П. Этика уголовного процесса: / учеб. пособие. – Воронеж. – 1993. – С. 8–9.

24. Сальников В. П. Правовая культура // Актуальные проблемы теории права / под. ред. К. Б. Толкачева и А. Г. Хабибуллина. Уфа, 1995. С. 152.

25. Бурдоносова М.А. Способы снижения уровня деформации правового сознания как элементы профилактики правонарушений // Всероссийский криминологический журнал. 2018. Т. 12, № 2. С. 237–246. https://doi.org/10.17150/2500-4255.2018.12(2).237-246.; Шопина И.М., Мулявка Д.Г., Гречанюк С.К., Федчишина В.В. Совершенствование социального контроля как направления предупреждения преступности // Всероссийский криминологический журнал. 2019. Т. 13, № 3. С. 447–454. https://doi.org/10.17150/2500-4255.2019.13(3).447-454.

26. https://constitution.uz/uz/pages/humanrights

27. Алексеев С. С. Право. Опыт комплексного исследования. М., 1999. С. 270.

28. Лазарев В. В. Эффективность правоприменительных актов. Казань, 1975. С. 61.

29. Кудрявцев В.Н., Лукашева Е.А. Новое политическое мышление и права человека // Вопросы философии. 1990. №5. – С. 7-8.

30. Тихомиров Ю.А. Государство на рубеже столетий // Государство и право. 1997. №2. – С. 24-32.; Матузов Н.И., Малько А.В. Теория государства и права. – М., 2003. – С. 114-140.; Затонский В.А. Безопасность личности, общества и государства как важнейшая цель правовой политики в Российской Федерации // Правовая политика и правовая жизнь. 2005. №1. – С. 187-194.

31. Словарь. Культурология. XX век. – СПб., 1997. – С. 450.

32. Старков О.В. Криминальная субкультура: Спецкурс. – М.: Волтерс Клувер, 2010. – С. 14.

33. Современная западная социология: Словарь. – М., 1990. – С. 336.

34. Малахов В.П. Концепция философии права. Серия «Научные школы Московского университета МВД» / В.М. Малахов. М.: Юнити-Дана. 2007. с.484.

35. Смоленский М.Б. Правовая культура как элемент социокультурного пространства: перспективы становления в современной России: Автореф. дис. … докт. социол. наук / Б.М. Смоленский. Ростов н/Д, 2003.С.12.

36. Нерсесянц В.С. Философия права: учебник для вузов / В.С. Нерсесянц. М.: Норма. 2003. – С.22.

37. Ильин, И.А. Наши задачи. Историческая судьба и будущее России / И.А. Ильин. М., 1992.- с. 183–184

FAVQULODDA VAZIYATLAR VAZIRLIGI VA MILLIY GVARDIYA ORGANLARINING FAVQULODDA VAZIYATLARNI OLDINI OLISH BO‘YICHA HAMKORLIGI

Tleubayev Yerpolat Najimovich
Qoraqalpog‘ston davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi.

Jamiyat xavfsizligini ta’minlash va aholining hayoti, sog‘lig‘i hamda mol-mulkini favqulodda vaziyatlardan himoya qilish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda global va mintaqaviy xavfsizlik tahdidlari ortib borayotgan sharoitda tabiiy va texnogen xususiyatga ega favqulodda vaziyatlarning oldini olish, ularning oqibatlarini bartaraf etish va tezkor choralar ko‘rish masalalari alohida dolzarblik kasb etmoqda. Bu jarayonda tegishli davlat organlari, xususan, O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi va Milliy gvardiya o‘rtasidagi samarali hamkorlik muhim ahamiyat kasb etadi.

Favqulodda vaziyatlarning oldini olish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirishda davlat institutlari o‘rtasidagi hamkorlikning huquqiy, tashkiliy va amaliy asoslarini takomillashtirish muhim masalalardan biridir. Favqulodda vaziyatlar vazirligi tabiiy ofatlar, texnogen avariyalar va boshqa favqulodda holatlar xavfini kamaytirish, ularni bartaraf etish va aholini tayyorlash bo‘yicha asosiy vakolatli organ hisoblanadi. Milliy gvardiya esa jamoat xavfsizligini ta’minlash, strategik obyektlarni qo‘riqlash, tartibsizliklarning oldini olish va favqulodda vaziyatlarda fuqarolarga yordam ko‘rsatish kabi vazifalarni bajaradi. Mazkur ikki tuzilmaning hamkorlikdagi faoliyati favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularga samarali javob berish jarayonida muhim o‘rin tutadi.

Xususan, 2022 yil 17 avgustda O‘zbekiston Respublikasining “Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to‘g‘risida”gi O‘RQ-790-son Qonuni[1] va Vazirlar Mahkamasining 2023 yil 29 apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 171-sonli Qarori[2]ning qabul qilinganligi fikrimiz tasdig‘idir.

Shu o‘rinda, Uchinchi Renessans davri[3]ga kirishayotgan yangi O‘zbekistonda Qurolli kuchlar tizimi tarkibiga kiruvchi Favqulodda vaziyatlar vazirligi bilan Milliy gvardiya organlarining favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda o‘zaro hamkorligini huquqiy jihatdan tartibga solishda bugungi kunda qanday “qonun” va “qonunosti” hujjatlari qabul qilingan?, mazkur amaldagi

[1] Ўзбекистон Республикаси Миллий қонунчилик базаси // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 18.08.2022 й., 03/22/790/0751-сон; 29.11.2023 й., 03/23/880/0905-сон; 18.01.2024 й., 03/24/898/0046-сон / Lex/uz.

[2] Ўзбекистон Республикаси Миллий қонунчилик базаси // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 01.05.2023 й., 09/23/171/0234-сон / Lex/uz.

[3] *Изоҳ:* Президент Ш.М.Мирзиёев таъбирига кўра, “Ўзбекистон замини қадимда икки буюк уйғониш даврига — Биринчи (маърифий — IX-XII асрлар) ва Иккинчи (Темурийлар — XIV-XV асрлар) Ренессансга бешик бўлган. “Бу — жаҳон илм-фанида ўз исботини топган ва тан олинган тарихий ҳақиқатдир”, бугунги кунда янги Ўзбекистон Учинчи уйғониш даврини бошдан кечирмоқда деб алоҳида таъкидлаган.

normalarda Favqulodda vaziyatlar vazirligi bilan Milliy gvardiya organlarining o‘zaro hamkorligini tizimli yo‘lga qo‘yishga salbiy ta’sir qiluvchi huquqiy bo‘shliqlar nimalardan iborat? shuningdek, mazkur normativ-huquqiy hujjjatlarni yanada takomillashtirish yuzasidan qanday takliflar ilgari surish mumkin? degan o‘rinli savollar yuzaga keladi.

O‘zbekiston Respublikasining qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasida keltirilgan ma’lumotga ko‘ra, bugungi kunda yangi O‘zbekistonda barcha sohalarni tartibga soluvchi qonunlarning ulushi 1 416 tani, Oliy Majlis palatalari kengashlari hujjatlarining ulushi 3 113 tani, Prezident hujjatlarining ulushi 5033 tani, hukumat qarorlarining ulushi 10 821 tani, vazirlik, qo‘mita va davlat idoralarining ulushi 8 342 tani, mahallliy davlat hokimiyati organlarining hujjatlarda ulushi 11 285 tani tashkil etmoqda[1]. Mazkur hujjatlarni sohalar kesimida tahlil qilganimizda Favqulodda vaziyatlar bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solishga oid qabul qilingan jami normativ-huquqiy hujjatlar soni 70 ga yaqin bo‘lib, shundan, qonunlar – 12 tani, Prezident farmon, farmoyish va qarorlari – 20 tani, Vazirlar Mahkamasining qarorlari – 40 tani hamda boshqa turdagi normativ – huquqiy hujjatlar[2] esa – 8 tani tashkil qilgan[3].

Shu o‘rinda, hamkorlikdan ko‘zlangan Favqulodda vaziyatlar vazirgi faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarning bir turi hisoblangan qonunlarda vazirlik xizmat faoliyatini olib borishda qanday davlat tashkilotlari bilan o‘zaro hamkorlik munosabatlari yo‘lga qo‘ygan?, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiya organi bilan hamkorlik munosabatlari mavjudmi? degan o‘rinli savollarga javob topish mazkur ilmiy asarni mazmunini yoritishga hizmat qiladi.

Bugungi kunda Favqulodda vaziyatlar vazirligi faoliyatini tartiga soluvchi 70 ga yaqin ochiq turdagi normativ-huquqiy (qonun va qonunosti) hujjatlar tahlil qilinganda, mazkur normalar mazmunida 88 marotaba hamkorlik tushunchasidan foydalanilgan bo‘lib, mazkur hamkorlik munosabatlari aynan Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Milliy gvardiya, Mahalla va nuroniylarni qullab-quvvatlash vazirligi, Kishloq xujaligi vazirligi, Kurilish vazirligi, O‘rmon xujaligi davlat kumitasi, Davlat geologiya va mineral resurslar kumitasi, Ekologiya va atrof muxitni muxofaza kilish davlat kumitasi, Transport vazirligi xuzuridagi Avtomobil yullari kumitasi, maxalliy ijro etuvchi xokimiyat organlari, boshqa tashkilotlar xamda tadbirkorlik sub’ektlari bilan uzaro xamkorlikni amalga oshiradi.

Shu o‘rinda, O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi bilan Milliy gvardiya organlarining favqulodda vaziyatlarni oldini olish va uning oqibatlarini bartaraf etish yo‘nalishlarida o‘zaro hamkorlik masalalari qanday?, shuningdek, mazkur hamkorlik munosabatlarini norma ijodkorligiga muxtojmi? degan o‘rinli savol yuzaga keladi.

---

[1] Ўзбекистон Республикаси қонунчилик миллий базаси // https://lex.uz/uz. (25.12.2024 йил ҳолатига).

[2] Ўзбекистон Республикаси қонунчилик миллий базаси // https://lex.uz/uz. (22.12.2024 йил ҳолатига).

[3] *Маълумот учун:* Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардия фаолиятини ҳуқуқий тартибга солишга қаратилган жами 22 та Қонунлар, 160 та Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармон ва Қарорлари ҳамда 130 та Вазирлар Маҳкамасининг қарорилари қабул қилинган // Ўзбекистон Республикаси қонунчилик миллий базаси // https://lex.uz/uz. (25.12.2024 йил ҳолатига).

Darhaqiqat, har qanday huquqiy davlatda barcha munosabatlar huquq normalariga asoslanadi. Davlat boshqaruvi norma ijodkorligi faoliyatini amalga oshirish orqali ro‘yobga chiqadi. Norma ijodkorligi faoliyati o‘ziga xos murakkab jarayon bo‘lib, huquq normalarining hayotiy va xalqchil bo‘lishi aynan mazkur jarayonga bevosita bog‘liq[1]. Shu o‘rinda, qator huquqshunos olimlar mamlakatda sohalarni tartibga soluvchi normalarni tizimlashtirish orqali norma ijodkorligi faoliyatini amalga oshirilishi davlatni yanada ravnaq topishi xizmat qilishiga alohida to‘xtalgan.

Shu o‘rinda, akademik Sh.O‘razaev demokratik huquqiy davlat sharoitida barqaror ichki mantiqiy tizimlashtirilgan qonunchilik qanday bo‘lishi lozimligini o‘z asarlarida tasvirlab bergan. Akademik A.X.Saidov esa ingliz yuristi U.Batlerning “O‘zbekiston qonunchiligi tizimi” nomli risolasiga yozgan kirish so‘zida qonunchilikni tizimlashtirishning ahamiyati, uning zamonaviy shakli hisoblanmish umumhuquqiy klassifikatorni takomillashtirish xususida bir qator fikrlarni bayon etgan. Shuningdek, olimning fikricha, O‘zbekiston Respublikasining Qonunlari majmuini muayyan izchillik bilan yagona tizimga solish eng muhim ilmiy-amaliy vazifalardan hisoblanadi. X.Odilqoriev tomonidan amalga oshirilgan bir qator tadqiqotlarda qanday sohalardagi qonunchilikni kodekslashtirish mumkinligi va zarurligi, kodeksning oddiy qonunlarga qaraganda ijobiy jihatlari va nufuzi, O‘zbekiston sharoitida kodeksning modeli va strukturasi qanday bo‘lishi ma’qulligi xususida taklif hamda tavsiyalar e’lon qilingan. U.X.Muxamedov tomonidan O‘zbekiston Respublikasida qonunchilikni tizimlashtirishning nazariy va amaliy muammolari, qonunchilikni tizimlashtirishning istiqbollari[2] bilan bog‘liq jarayonlar ilmiy jihatdan tahlil qilingan.

O‘zbekistonda qonunchilikni tizimlashtirish, uni izchil va yagona huquqiy tizimga keltirishning dolzarbligi X.Odilqoriev va U.X.Muxamedov kabi olimlar tomonidan ilmiy jihatdan asoslangan. Ularning fikrlarini quyidagicha yo‘nalishlarda favqulodda vaziyatlardagi hamkorlikni tartibga soluvchi qonunchilik bilan bog‘lash mumkin. Xususan, **X.Odilqorievning,** qonunchilikni kodekslashtirish orqali uni tizimlashtirish muhimligi, kodekslarning oddiy qonunlarga qaraganda yuqori huquqiy nufuzga ega ekanligi haqida ilgari surgan fikrlari, Favqulodda vaziyatlar vazirligi va Milliy gvardiya hamkorligini tartibga soluvchi qonunchilikning yaxlit tizimini yaratish uchun dolzarb hisoblanadi. Shuningdek, **U.X.Muxamedov esa, q**onunchilikni tizimlashtirish nazariy va amaliy muammolarini tahlil qilish orqali, mavjud norma ijodkorligi faoliyatidagi nuqsonlarni bartaraf etishga va huquqiy munosabatlarni muvofiqlashtirishga qaratilgan ilmiy qarashlar ilgari surilgan.

Bundan tashqari, mamlakatda hamkorlik takomillashtirish masalalarida qator huquqshunos olimlar o‘z tadqiqot ishlarini olib borishgan. Xususan, M.Miraqulov

---

[1] https://uza.uz/uz/posts/norma-izhodkorligi-faoliyatini-takomillashtirish-kontseptsiya-11-11-2019

[2] Ўразаев Ш.З., Модел закона: какой ей быт? – Тошкент: Фан, 1990. – 48 с. Батлер У., О.В.Кириленко, Ўзбекистон қонунчилиги тизими / А.Саидовнинг таҳрири остида. – Тошкент, 2000. – 252 б. А.Х.Саидов, Қонун ижодкорлиги стратегияси ва қонунчилик техникаси – ҳуқуқшунослик фани ва амалиёти тизимида // Қонун ижодкорлиги ва қонунчилик техникаси: назария ва амалиёт муаммолари. – Тошкент, 2005. – Б.19. Х.Т.Одилқориев, Ўзбекистон Республикасида қонун чиқариш жараёни. –Тошкент, 1995. - 300 б.; Ўзбекистон қонунчилигини такомиллаштириш консепсияси // Давлат ва ҳуқуқ. – Тошкент, 2004. - №5. Ў.Х.Мухамедов, Ўзбекистон Республикасида қонунчиликни тизимлаштиришнинг назарий ва амалий муаммолари. Юрид.фан.док. Дисс. Иши. – Т., 2010. – Б.370.

(“Prezident va fuqarolik jamiyati institutlari hamkorligi”), I.Bekov (“Siyosiy partiyaning parlament shakllantirishdagi roli”) va J.Abdullaev (“Davlat va ommaviy axborot vositalarining hamkorlik munosabatlari”) shular jumlasidandir[1].

Shu o‘rinda, bugungi kunda mamlakat hayotida Favqulodda vaziyatlar vazirligi va Milliy gvardiya organlarining o‘zaro hamkorligi asosida amalga oshirilayotgan ishlar sarhisobiga to‘xtalsak, mazkur tadqiqot ishining salohiyatini yanada oshirishga xizmat qiladi. Jumladan, Favqulodda vaziyatlar vazirligi tomonidan taqdim etilgan hisobot[2]ga ko‘ra, 2023 yilning 12 oyi davomida Favqulodda vaziyatlar vazirligi tomonidan yakka tartibda yong‘in xavfsizligini ta’minlash yo‘nalishida 55 015 marotaba rejali, 37 801 marotaba nazorat tartibidagi va 115 845 marotaba tezkor tekshirishlar o‘tkazilgan bo‘lsa, mazkur davrda Favqulodda vaziyatlar vazirligi va Milliy gvardiya organlari bilan hamkorlikda 13 035 ta tadbirkorlik sub’ektlariga tegishli ob’ektlarda yong‘in-profilaktika ko‘riklari o‘tkazilgan. Bundan tashqari, 4 130 309 ta yakka tartibdagi uy-joylar va 40 813 ta ko‘p qavatli uylardagi 1 233 593 ta xonadonlarning yong‘inga qarshi holati o‘rganib chiqilgan.

O‘tkazilgan shu kabi tadbirlarga qaramasdan, 2023 yilda respublikada sodir bo‘lgan favqulodda vaziyatlar, xususan, yong‘inlar, gidrometeorologik va geologik xavfli jarayonlar aholi hayoti va sog‘ligiga zarar yetishiga hamda moddiy yo‘qotishlarga sabab bo‘luvchi salbiy holatlar aniqlangan. Mazkur, sodir bo‘lgan favqulodda vaziyatlarning 78,7 foiz texnogen va 21,3 foiz tabiiy xususiyatli, shundan yo‘l-transport hodisasi - 29 foiz, gaz-havo aralashmasining chaqnashi - 24 foiz, is gazi, oziq-ovqat mahsulotlari va toksik moddadan zaharlanishlar - 19 foiz, yong‘inlar - 6 foiz va yong‘in-portlash, suvda cho‘kish, sel, zilzila - 22,7 foiz favqulodda vaziyat sifatida ro‘yxatga olingan.

Mazkur ko‘rsatkichlardan bilish mumkinki, bugungi kunda yangi O‘zbekistonda tug‘ilish sonining keskin ortishi, o‘rbanizatsiya jarayonlarini tezlashishi natijasida yil sayin barcha sohalarda hamkorlik masalalari qiyinlashib, qabul qilingan normalarning manan eskirayotgani yohud ularning mazmunida takrorlanishlarning mavjudligi natijasida mamlakatda faoliyat yuritayotgan sohalarda qator muammolar yuzaga keltirayotganini ko‘rishimiz mumkin.

Xususan, Favqulodda vaziyatlar vazirligi va Milliy gvardiya organlari o‘rtasidagi favqulodda vaziyatlarni oldini olish va uning oqibatlarini bartaraf etish bilan bog‘liq vazifalarni hamkorlikdagi ijrosini ta’minlashga huquqiy asos bo‘luvchi normativ-huquqiy hujjatlarni “qonun” va “qonunosti” hujjatlariga ajratgan holatda tahlil qilib, quyida keltirilgan qonunlarning normalarida mavjud tafovut (muammo)larni bayon etishimiz mumkin. Xususan, qonun hujjatlari kesimida:

birinchidan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi[3] *(favqulodda vaziyatlar bilan bog‘liq normalar asosan davlat xavfsizligi, jamoat tartibini*

---

https://www.researchgate.net/publication/348275360_Akubov_Suhrat_Ummatalievic_DAVLAT_VA_FUKAROLIK_ZAMIATI_INSTITUTLARI_AMKORLIGINING_UKUKIJ_MEHANIZMLARINI_TAKOMILLASTIRIS_120002_Konstituciavij_ukuk_Mamurij_ukuk_Molia_va_bozhona_ukuki_Uridik_fanlar_d[1]

[2] Ўзбекистон Республикаси Фавқулодда вазиятлар вазирлигининг 2023 йил якуни бўйича амалга оширган ишлар ҳисоботи // https://gov.uz/oz/fvv/sections/view/9307

[3] Ўзбекистон Республикаси Конституцияси // Ўзбекистон Республикаси қонунчилик миллий базаси //https://lex.uz/docs/6445145

ta’minlash va fuqarolarning huquqlarini himoya qilish sohasidagi vakolatlar va mas’uliyatlar doirasini belgilashga xizmat qiladi);

ikkinchidan, O‘zbekiston Respublikasining “Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonuni[1] *(mazkur qonunda davlat boshqaruvi organlariga favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish masalalari yuzasidan murojaat etish va hamkorlik qilishning huquqiy asosi yoritilgan);*

uchinchidan, O‘zbekiston Respublikasining “Fuqaro muhofazasi to‘g‘risida”gi Qonuni[2] (*mazkur qonunda vazirliklar va idoralarning fuqaro muhofazasi sohasidagi vakolatlari fuqaro muhofazasi sohasida mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan o‘zaro hamkorligi belgilangan)*;

to‘rtinchidan, O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to‘g‘risida”gi Qonuni[3] *(mazkur qonunga ko‘ra, Milliy gvardiya o‘z vakolati doirasida tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etishda Favqulodda vaziyatlar vazirligi bilan o‘zaro hamkorlikni amalga oshiradi);*

beshinchidan, O‘zbekiston Respublikasining “Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida”gi Qonuni[4] (*mazkur qonunga ko‘ra, jamoat xavfsizligini ta’minlash, terrorizm xavfi bilan bog‘liq favqulodda vaziyatlarda tezkor javob berish va terrorizm oqibatlarini bartaraf etishda Milliy gvardiya organlari o‘z vakolati doirasida Favqulodda vaziyatlar vazirligi bilan o‘zaro hamkorlikni amalga oshiradi);*

oltinchidan, O‘zbekiston Respublikasining “Yong‘in xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonuni[5] *(Favqulodda vaziyatlar vazirligi boshqaruv organlari va yong‘in-qutqaruv bo‘linmalarining yong‘indan saqlash xizmatining boshqa turlari, vakolatli organlar, avariya-ta’mirlash xizmatlari va o‘zga xizmatlar bilan yong‘inlarning o‘chirilishini tashkil etishni ta’minlashda o‘zaro boshqa davlat organlari bilan hamkorlikni amalga oshiradi);*

Bugungi kunda, mamlakatda Favqulodda vaziyatlar vazirligi va Milliy gvardiya organlari o‘rtasidagi favqulodda vaziyatlarni oldini olish va uning oqibatlarini bartaraf etish bilan bog‘liq quyidagi muammolarni sanab o‘tish maqsadga muvofiq. Bularga:

birinchidan, Favqulodda vaziyatlar vazirligi va Milliy gvardiya organlari o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikni tartibga soluvchi normalar umumiy bayon qilingan, ammo huquqiy jihatdan batavsil yoritilmagan. Bularga:

a) har ikki organning vazifalari qay darajada o‘zaro bog‘liq ekanligi;

---

[1] Ўзбекистон Республикасининг “Аҳолини ва ҳудудларни табиий ҳамда техноген хусусиятли фавқулодда вазиятлардан муҳофаза қилиш тўғрисида”ги Қонуни// Ўзбекистон Республикаси қонунчилик миллий базаси // https://lex.uz/uz/docs/6161244

[2] Ўзбекистон Республикасининг “Фуқаро муҳофазаси тўғрисида”ги Қонуни // Ўзбекистон Республикаси қонунчилик миллий базаси // https://lex.uz/uz/docs/6161244

[3] Ўзбекистон Республикасининг “Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардияси тўғрисида”ги Қонуни // Ўзбекистон Республикаси қонунчилик миллий базаси // https://lex.uz/uz/docs/6161244

[4] Ўзбекистон Республикасининг “Терроризмга қарши кураш тўғрисида”ги Қонуни // Ўзбекистон Республикаси қонунчилик миллий базаси // https://lex.uz/uz/docs/6161244

[5] Ўзбекистон Республикасининг “Ёнғин хавфсизлиги тўғрисида”ги Қонуни // Ўзбекистон Республикаси қонунчилик миллий базаси // https://lex.uz/uz/docs/6161244

b) javobgarlik va vakolatlarning aniq taqsimoti;

ikkinchidan, ikki organ o‘rtasida favqulodda vaziyatlarga javob berish jarayonida aniq harakat algoritmlari ishlab chiqilmagan. Buning natijasida, turli vaziyatlarda organlarning harakatlarini muvofiqlashtirish bilan bog‘liq hamda vaqt yo‘qotish, mas’uliyatni taqsimlashda tushunmovchiliklar va koordinatsiyaning yetishmasligi bilan bog‘liq muammolar yuzaga kelmoqda;

uchinchidan, Favqulodda vaziyatlar vazirligi va Milliy gvardiya o‘rtasida axborot almashishning yagona tizimi mavjud emas. Ushbu muammoning samarali hal etilmasligi, real vaqtda axborot yetkazib berishda hamda terrorizm xavflari, tabiiy ofatlar yoki boshqa favqulodda vaziyatlar yuzasidan ma’lumotlarni tezkor almashishda qiyinchiliklarni yuzaga keltirmoqda;

to‘rtinchidan, har ikki organ o‘rtasida muntazam qo‘shma tadbirlar, o‘quv mashg‘ulotlari tizimli tashkil etilmasligi. Bu esa, hamkorlik jarayonida har bir organning roli to‘liq sinovdan o‘tkazilmasligi, real holatlarda harakatlarni muvofiqlashtirishda kamchiliklar yuzaga kelishi bilan bog‘liq muammolarni keltirib chiqarishi mumkin;

beshinchidan, bugungi kunda *“*Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonun huquqbuzarliklarning oldini olish, jamoat xavfsizligini ta’minlash, profilaktika tadbirlarini amalga oshirishda davlat organlari o‘rtasidagi hamkorlikni tartibga soluvchi asosiy hujjatdir. Biroq, ushbu qonunning 9-moddasiga **Favqulodda vaziyatlar vazirligi organini sub’ekt sifatida kiritilmaganligi quyidagi qator salbiy oqibatlarga olib kelmoqda.** Bularga:

a) h**uquqbuzarliklarning oldini olish jarayonida rolning cheklanganligi** ***(****Favqulodda vaziyatlar vazirligi tabiiy va texnogen favqulodda vaziyatlarning oldini olish hamda ularning oqibatlarini bartaraf etishda muhim vazifalarni bajaradi. Ammo, qonunga sub’ekt sifatida kiritilmagani tufayli, huquqbuzarliklar profilaktikasi doirasida uning profilaktika tadbirlaridagi ishtiroki yuridik asosga ega emas);*

b) d**avlat organlari o‘rtasida o‘zaro hamkorlikning kamchiligi** ***(****Favqulodda vaziyatlar vazirligining subyekt sifatida kiritilmasligi uning huquqbuzarliklar profilaktikasidagi boshqa davlat organlari bilan hamkorlik mexanizmlarini cheklaydi);*

v) jamoat xavfsizligi va profilaktika choralarining samaradorligiga ta’sir *(Favqulodda vaziyatlar vazirligi aholini xavf-xatarlardan xabardor qilish, evakuatsiya tadbirlarini amalga oshirish, yong‘in xavfsizligini ta’minlash kabi muhim profilaktik vazifalarni bajaradi. Ammo, qonunga sub’ekt sifatida kiritilmaganligi tufayli, uning profilaktika tadbirlaridagi ishtiroki normativ asosga ega emas);*

g) huquqiy bo‘shliqlar va mas’uliyatdagi noaniqlik *(qonunchilikda Favqulodda vaziyatlar vazirligining profilaktika tadbirlaridagi roli aniq belgilanmagan. Mazkur holat vazirlikning profilaktika tadbirlaridagi vakolatlarini cheklab qo‘yadi).*

Yuqorida qayd etilgan fikrlardan kelib chiqib, kelajakda qonunchilikdagi shu kabi salbiy holatlarni oldini olish, qabul qilinayotgan qonunlarning ijtimoiy-siyosiy,

ijtimoiy-iqtisodiy va sud-huquq islohotlari jarayoniga ta’sirini kuchaytirishga yo‘naltirilgan qonun ijodkorligi faoliyati sifatini tubdan oshirish, davlat va jamiyat qurilishi tizimini yanada takomillashtirish[1] shuningdek, Favqulodda vaziyatlar vazirligi va Milliy gvardiya o‘rtasidagi hamkorlikning samaradorligini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish davr talabiga aylanmoqda.

Shu o‘rinda, mamlakatda faoliyat yuritayotgan davlat tashkilotlarining funksional vazifalaridan kelib chiqib, ularning o‘rtasidagi hamkorlik munosabatlarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni zamon talabiga javob beradigan normalar bilan to‘ldirish yohud mavjud normalarni yanada takomillashtirishda quyidagi huquqshunos olimlarning ilmiy qarashlari hamda dunyoning yetakchi ilmiy markazlari yohud oliy ta’lim muassasalaridan ilmiy yondashuvlari bilan asoslash maqsadga muvofiq. Bularga:

birinchidan, mahalliy huquqshunos olimlardan S.Adilxodjaeva, M.Axmedshaeva, H.Boboev, I.Bekov, Sh.Jalilov, Z.Islomov, B.Ismoilov G.Ismailova, G.Malikova, X.Mamatov, M.Mirakulov, F.Muxitdinova, O‘.Muhammedov, M.Najimov, X.Odilqorievlarning ilmiy qarashlaridan;

ikkinchidan, Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi davlatlarining huquqshunos olimlaridan A.Auzan, N.Borjelli, G.Vaynshteyn, V.Grib, Yu.Irxin, M.Marchenko, N.Matuzov, O.Leyst, V.Ryabev va A.Sungurovlarning umumiy qarashlaridan;

uchinchidan, horijim mamlakat huquqshunos olimlaridan A.Smit, K.Posher, A.mde Tokvil, Yu.Xabermas, F.Xayek va D.Kinlar kabi[2] huquqshunos olimlarning umumiy ilmiy qarashlaridan;

to‘rtinchidan, dunyoning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta’lim muassasalaridan bo‘lgan Johns Hopkins (AQSh), Yale Law School (AQSh), Washington University (AQSh), The London School of Economics and Political Science (Buyuk Britaniya), University College London (Buyuk Britaniya), Universite Paris 1 Pantheon H Sorbonne (Fransiya), Humboldt-Universitat zu Berlin, (Germaniya), University in Krakow (Polsha) va Moskva davlat universiteti (Rossiya) kabi tashkilotlarda[3] barcha sohalardagi hamkorlik munosabatlarining huquqiy mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan asosli ilmiy yondlshuvlaridan (davlat va fuqarolik jamiyati institutlari hamkorligiga oid strategik hujjatlar qabul qilish hamda hukumat va ijtimoiy sektor o‘rtasida rasmiy bitim tuzish tavsiya etilgan *(Humboldt-Universitat zu Berlin)*; qonun loyihalari bo‘yicha xulosa berish vakolatiga ega konstitutsiyaviy organ – iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik kengash tashkil etish zarurati asoslangan *(Universite Paris 1 Pantheon H Sorbonne)*; ijtimoiy foydali faoliyat bo‘yicha jamoatchilik kengashlarini tashkil etishning

[1]Мирзиёев Ш.М. “Норма ижодкорлиги фаолиятини такомиллаштириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-5505-сон Фармони // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 08.08.2018 й., 06/18/5505/1639-сон; 09.11.2019 й., 06/19/5870/4010-сон; Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 30.04.2021 й., 06/21/6218/0398-сон

[2]Якубов Ш.У. “Давлат ва фуқаролик жамияти институтлари ҳамкорлигининг ҳуқуқий механизмларини такомиллаштириш” // 12.00.02 – Конституциявий ҳуқуқ. Маъмурий ҳуқуқ. Молия ва божхона ҳуқуқи Юридик фанлар доктори (DSc) диссертация автореферати 6-б.

[3]Диссертациянинг мавзуси бўйича хорижий илмий-тадқиқотлар шарҳи: www.jhu.edu; www.ecpr.eu; www.yalelawjournal.org; www.politicalsciencenow.com; www.etheses.lse.ac.uk; www.discovery.ucl.ac.uk; www.univ-paris1.fr; www.scholarship.-law.duke.edu; www.law.msu.ru; www.dba.uz ва бошқа манбалардан олинган.

metodologik asoslari ishlab chiqilgan *(University in Krakow)*; Rossiya Federatsiyasining jamoatchilik palatasini, shuningdek federal va hududlar darajasida fuqarolik jamiyati institutlari bilan maslahat kengashlarini tashkil etish ilmiy jihatdan asoslangan *(Moskva davlat universiteti)*);

beshinchidan, dunyoda davlat va fuqarolik jamiyati institutlari hamkorligining huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha quyidagi:

- *nohukumat tashkilotlarining fandrayzing va filantropik faoliyatining huquqiy mexanizmlarini shakllantirish;*
- *davlatlar tomonidan fuqarolik jamiyati institutlarining xalqaro darajadagi hamkorligini rivojlantirishga ko‘mak berish;*
- *nodavlat tashkilotlari faoliyatiga axborot texnologiyalarini tatbiq etishning huquqiy asoslarini ishlab chiqish;*
- *fuqarolik jamiyati taraqqiyotining asosiy mezonlarini belgilovchi yaxlit konsepsiyani yaratish bilan bog‘liq* ustuvor yo‘nalishlardagi ilmiy g‘oyalardan foydalanib, O‘zbekistonda Favqulodda vaziyatlar vazirligi va Milliy gvardiya organlarining o‘zaro hamkorligini ta’minlovchi quyidagi ilmiy takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq. Bularga:

birinchidan, qonun hujjatlarida Milliy gvardiya va Favqulodda vaziyatlar vazirligi o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikning mazmuni, vazifasi, javobgarligi shuningdek, ularning harakat doirasini aniq belgilash maqsadga muvofiqdir. Buning natijasida, har ikki organ o‘rtasida hamkorlikning chegaralari aniqlanadi hamda harakatlar va javobgarlikda aniqlik ta’minlanadi;

ikkinchidan, favqulodda vaziyatlarda Milliy gvardiya va Favqulodda vaziyatlar vazirligining harakatlari uchun yagona standart algoritmni ishlab chiqish lozim. Mazkur algoritmda esa quyidagilarni ko‘rsatilishi maqsadga muvofiq. Xususan:

a) qaysi vaziyatlarda qaysi organ yetakchi ekanligi;

b) javobgarlik choralari ketma-ketligi;

v) resurslar va vakolatlarni taqsimlash tartibi.

Mazkur algoritm harakatlarni muvofiqlashtirishning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

uchinchidan, Milliy gvardiya va Favqulodda vaziyatlar vazirligi o‘rtasida axborot almashish uchun zamonaviy raqamli platformalarni joriy qilish. Mazkur islohot kelajakda tomonlar o‘rtasida ma’lumot yetkazish jarayoni tezlashtiradi va tahlil samaradorligini oshiradi;

to‘rtinchidan, Milliy gvardiya va Favqulodda vaziyatlar vazirligi bo‘linmalari uchun qo‘shma o‘quv mashg‘ulotlari va tadbirlarni rejali ravishda tashkil etish hamda real ssenariylar asosida simulyatsiya tadbirlarini o‘tkazish maqsadga muvofiq. Mazkur islohot kelajakda hamkorlikni amalda sinovdan o‘tkazish orqali taraflarning tayyorgarlik darajasini oshiradi;

beshinchidan, Milliy gvardiya va Favqulodda vaziyatlar vazirligiga tegishli vakolatlarini aks ettiruvchi qonunlarni muvofiqlashtirish, ziddiyatli qoidalarni huquqiy ekspertiza asosida qayta ko‘rib chiqish orqali **“Favqulodda vaziyatlar kodeksi”ni ishlab chiqish**. Bunda, favqulodda vaziyatlarni oldini olish va uning

oqibatlarini bartaraf etishga oid huquqiy normalarni tartibga soluvchi yaxlit kodeks loyihasini ishlab chiqish natijasida mavjud qonunlarni tizimlashtirish;

oltinchidan, **favqulodda vaziyatlarni oldini olishga qaratilgan qonunchilikni raqamli transformatsiya qilish**. Bunda, mamlakatda favqulodda vaziyatlarni oldini olish va uning oqibatlarini bartaraf etishga oid norma ijodkorligi jarayonida raqamli platforma va sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishni ta'minlashga xizmat qiladi;

yettinchidan, Favqulodda vaziyatlar vazirligini "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi Qonunga sub'ekt sifatida kiritish, profilaktika tadbirlarida uning rolini kuchaytirish va davlat organlari o'rtasidagi hamkorlikni takomillashtirish orqali mamlakatda jamoat xavfsizligini ta'minlash va favqulodda holatlarga javob berish jarayonini yaxshilash mumkin. Bu nafaqat huquqbuzarliklarning oldini olishga, balki umumiy xavfsizlikni mustahkamlashga ham xizmat qiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, Favqulodda vaziyatlar vazirligi va Milliy gvardiya o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash huquqiy asoslarni mukammallashtirishni, tezkor javob algoritmlarini ishlab chiqishni va axborot almashish tizimlarini takomillashtirishni talab qiladi. Bu takliflar organlarning faoliyatini muvofiqlashtirishda, favqulodda vaziyatlarda tezkor javob berishda va davlat xavfsizligini ta'minlashda muhim qadam bo'ladi.

ХОРИЖИЙ ДАВЛАТЛАРДА ЖАМОАТ ХАВФСИЗЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШ БЎЙИЧА ИЛҒОР ТАЖРИБАЛАР ТАҲЛИЛИ

Митанов Зафар Неъматуллаевич
Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети мустақил изланувчиси.

Сўнгги йилларда Ўзбекистонда жамоат хавфсизлигини таъминлаш мақсадида кенг қамровли ислоҳотлар амалга оширилмоқда. Ушбу ислоҳотлар аҳолининг тинч ва осойишта ҳаётини таъминлаш, шунингдек, қонунга итоаткорлик ва хавфсизлик маданиятини шакллантиришга қаратилган. Давлат органлари ва жамоатчилик тузилмалари ўртасида ўзаро ҳамкорлик механизмини янгилаш орқали жамоат хавфсизлигини таъминлаш ишлари “Халқ манфаатларига хизмат қилиш” тамойили[1] асосида амалга оширилмоқда.

Жаҳонда юзага келаётган турли хил хавф-хатарлар, жумладан пандемия, табиий ва техноген офатлар, жамиятда хавфсизликни мустаҳкамлаш заруратини янада кучайтирмоқда. Шу муносабат билан масъул давлат органлари ўз фаолиятларини “Барча саъй-ҳаракатлар инсон қадри учун”[2] тамойили асосида такомиллаштириш йўлида иш олиб бормоқда. Ушбу мақсадларни амалга оширишда мамлакатда қабул қилинган "Илм-фан ва илмий фаолият тўғрисида"[3] ва "Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси тўғрисида"[4]ги қонунлар ҳамда Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги концепцияси[5] асосий мезонлардан бири бўлиб хизмат қилмоқда.

Жамоат хавфсизлигини таъминлаш ва жиноятчиликка қарши курашиш фаолиятини сифат жиҳатидан янги босқичга олиб чиқиш мақсадида Президент Ш.Мирзиёевнинг ПФ-10-сонли фармони[6] қабул қилинди. Ушбу ҳужжат жиноятларнинг келиб чиқиш сабабларини ўз вақтида аниқлаш ва уларнинг олдини олиш самарадорлигини оширишга йўналтирилган чора-тадбирларнинг амалий механизмини белгилайди.

Ўзбекистонда жамоат хавфсизлигини таъминлашда инновацион ёндашувларни жорий қилиш, замонавий ахборот технологияларидан самарали фойдаланиш ва халқаро тажрибани ўрганиш муҳим аҳамият касб этади. Бундай ёндашувлар орқали ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш ва аҳолининг ҳуқуқий онгини оширишга қаратилган ташаббуслар ривожлантирилмоқда.

---

[1] Ш.Мирзиёев “Ўзбекистон Республикаси жамоат хавфсизлиги концепциясини тасдиқлаш ва уни амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ни ПФ-27-сон Фармони // https://lex.uz/docs/5749291

[2] Ўша манбаа. // https://lex.uz/docs/5749291

[3] Ўзбекистон Республикасининг “Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси тўғрисида”ги № ЎРҚ-371-сон Қонуни // https://www.lex.uz/acts/2387357

[4] Ўзбекистон Республикасининг “Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси тўғрисида”ги № ЎРҚ-371-сон Қонуни // https://www.lex.uz/acts/2387357

[5] *Изоҳ:* Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг “Ўзбекистон Республикаси жамоат хавфсизлиги концепциясини тасдиқлаш ва уни амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-27-сон Фармонининг “Концепцияни амалга ошириш механизмлари” деб номланган 3-боб, 19-бандида “Жамоат хавфсизлигини таъминлаш соҳасидаги қонунчиликни такомиллаштириш” деб номланган устувор вазифа.

[6] Ш.Мирзиёев “Жамоат хавфсизлигини таъминлаш ва жиноятчиликка қарши курашиш соҳасини илмий тадқиқ қилиш фаолиятини сифат жиҳатидан янги босқичга кўтариш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-10-сон Фармони // https://lex.uz.

Жамоат хавфсизлигини таъминлаш соҳасининг самарали ривожланиши илмий тадқиқотларсиз тасаввур этиб бўлмайди. Чунки илмий изланишлар орқали хавфсизликни таъминлашга оид янги ёндашувлар ва концепциялар ишлаб чиқилади, шунингдек, хорижий олимларнинг илмий-назарий қарашлари ҳамда ривожланган давлатларнинг илғор тажрибаси ўрганилиб, уларни миллий қонунчиликка мослаштириш имконияти яратилади. Бу эса жамоат хавфсизлигини таъминлаш бўйича пухта таклифлар ишлаб чиқиш, хавфсизлик тизимини янада мукаммаллаштириш ва замонавий таҳдидларга қарши самарали чора-тадбирларни белгилаш имконини беради.

Шу билан бирга, илмий тадқиқотлар орқали хавфсизлик соҳасидаги муаммоларнинг сабабларини аниқлаш ва уларга ечим топиш учун комплекс ёндашувларни ишлаб чиқишга имкон туғилади. Ҳар бир давлатнинг хавфсизлик стратегияси унинг ижтимоий-иқтисодий хусусиятларига кўра фарқ қилгани сабабли, ривожланган мамлакатларнинг тажрибасини таҳлил қилиб, Ўзбекистон шароитига мос механизмларни жорий этиш муҳим аҳамият касб этади.

Жамоат хавфсизлигини таъминлаш нуқтаи назаридан, жиноятчиликни таҳлил қилиш ва унинг динамикасини кузатиб бориш ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар учун муҳим аҳамият касб этади. Ўзбекистонда 52 084 та жиноят қайд этилган бўлиб, таҳлил натижалари жиноятчиликнинг энг юқори даражаси Тошкент шаҳри (11 417 та), Фарғона (7027 та), Тошкент (6286 та) ва Самарқанд (4144 та) вилоятларида кузатилганини кўрсатмоқда. Жиноят турларига келсак, энг кўп қайд этилган ҳолатлар ўғрилик (9316 та), гиёҳвандлик (9209 та), фирибгарлик (5926 та) ва ахборот технологияларидан фойдаланган ҳолда содир этилган (3089 та) ҳуқуқбузарликлардир. Ҳудудий таҳлил натижаларига кўра, ушбу жиноятларнинг катта қисми айнан Тошкент шаҳрида содир этилган. Жамоат хавфсизлигини таъминлаш мақсадида бундай таҳлиллар жиноятчиликка қарши профилактик тадбирларни самарали режалаштиришга ёрдам беради. Давлат органлари ва жамоатчилик ҳамкорлиги асосида хавф юқори бўлган ҳудудларда тартиботни кучайтириш, жиноятларнинг олдини олиш ва фуқароларни хабардор қилиш каби чора-тадбирлар муҳим ҳисобланади. Маълумотларга кўра, 2022 йилда республика бўйича 105 215 та, 2023 йилда эса 104 096 та жиноят қайд этилган бўлиб, бу кўрсаткичнинг пасайиши хавфсизликни таъминлашда амалга оширилаётган ислоҳотларнинг самарадорлигидан далолат беради. Шунингдек, жиноятчиликка қарши курашишда замонавий ахборот технологияларидан кенг фойдаланиш, рақамли хавфсизликни кучайтириш ва жамоатчилик билан ҳамкорликни мустаҳкамлаш каби чоралар муҳим аҳамият касб этади[1].

Жамоат хавфсизлигини таъминлаш нуқтаи назаридан, Ўзбекистонда жиноятчиликнинг юқори даражада бўлиши мамлакатнинг халқаро имижи ва сайёҳлар учун жозибадорлигига салбий таъсир кўрсатиши мумкин. Жиноят кўрсаткичларининг ошиши нафақат ички барқарорликка, балки халқаро

[1] Ўзбекистон Республикаси ИИВ томонидан мамлакатда 2022, 2023 ва 2024 йилнинг 9 ойи давомида республика ҳудудида содир этилган жами жиноятлар статистикаси.

ҳамжамият ва туристларнинг мамлакат хавфсизлигига бўлган ишончини пасайтиришга сабаб бўлади.

Бу масалани чуқур таҳлил қилиш мақсадида, “Global Peace Index – 2024” [1] тадқиқотида 146 та давлат иштирокида фуқаролар ва туристларнинг хавфсизлик даражасини баҳолаш ўтказилган. Ушбу баҳолаш доирасида кундузи ва кечаси эркин ҳаракатланишда ўзларини қанчалик хавфсиз ҳис қилишлари, талончилик, транспорт воситаларини ўғирлаш, жисмоний зўравонлик ва дискриминация хавфи каби омиллар инобатга олинган.

Жамоат хавфсизлигини таъминлаш бўйича ушбу таҳлил натижалари Ўзбекистон учун муҳим хулосалар чиқариш имконини беради. Мамлакатда хавфсизликни таъминлаш мақсадида ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органларнинг фаолиятини такомиллаштириш, замонавий профилактика чораларини жорий қилиш ва жамоатчилик билан ҳамкорликни мустаҳкамлаш зарур. Шунингдек, халқаро тажрибалар асосида хавфсизлик концепциясидаги устувор йўналишларни қайта кўриб чиқиш ва жиноятчиликка қарши самарали стратегияларни ишлаб чиқиш талаб этилади[2].

Шу муносабат билан, жамоат хавфсизлигини таъминлашда профилактик тадбирларни кучайтириш, рақамли хавфсизлик технологияларидан самарали фойдаланиш ва аҳолида қонунга итоаткорлик маданиятини шакллантириш бўйича кенг қамровли чора-тадбирлар амалга оширилиши лозим.

Жамоат хавфсизлигини таъминлаш нуқтаи назаридан, "Global Peace Index – 2024"[3] рейтингида энг хавфсиз давлатлар сифатида Андорра, Бирлашган Араб Амирликлари, Қатар, Тайвань, Уммон, Ман ороли, Арманистон, Гонконг, Япония ва Сингапур каби давлатлар қайд этилган. Бу мамлакатларда қонун устуворлиги ва жамоат тартибини сақлаш самарадорлиги юқори баҳоланган бўлиб, улар жиноятчилик даражасининг пастлиги ва хавфсизликка таҳдидлардан ҳимоя кучини намойиш қилган.

Аксинча, Венесуэла, Папуа-Янги Гвинея, Афғонистон, Гаити, Жанубий Африка Республикаси, Гондурас, Тринидад ва Тобаго, Сурия, Йаман ва Ямайка каби давлатларда ҳуқуқбузарликлар кўпайгани, сиёсий ноаниқликнинг кучайиши ва хавфсизлик органларининг самарадорлиги пастлиги туфайли энг хавфли мамлакатлар қаторига киритилган. Бу давлатларда жиноятчилик ва хавфсизлик таҳдидлари аҳолининг кундалик ҳаётига жиддий хавф солмоқда.

Ўзбекистон эса ушбу индекс бўйича 32-ўрин (68,8 балл)ни[4] эгаллаб, хавфсизлик бўйича ўртача кўрсаткичга эга давлатлар қаторига кирган.

---

[1] https://global-relocate.com/ru/rankings/security-of-countries

[2] *Изоҳ: Глобал Тинчлик Индекси маълумотлар тўплаш ва таҳлил қилишда қуйидаги халқаро ташкилотлар билан ҳамкорлик қилади: 🌍 Бирлашган Миллатлар Ташкилоти (БМТ, United Nations); 🏦 Жаҳон банки (World Bank); 📊 Иқтисодий таҳлил ва тадқиқотлар институти (Economist Intelligence Unit, EIRU); 🕊️ Халқаро стратегик тадқиқотлар институти (International Institute for Strategic Studies, IISS); 📈 Gallup (халқаро ижтимоий сўровлар институти)*

[3] Global Peace Index 2024 *(Самые безопасные страны в мире – 2024)* Глобальный индекс миролюбия отражает уровень безопасности в разных странах. Этот рейтинг разработала международная группа учёных Института мира вместе с Центром мира и изучения конфликтов Сиднейского университета // https://global-relocate. com/ru/rankings /security-of-countries

[4] https://global-relocate.com/ru/rankings/security-of-countries

Мамлакат фуқаролари ва сайёҳлари учун кундузи ва кечаси сайр қилиш хавфсизлиги, талончилик ва жисмоний зўравонлик эҳтимоли ҳамда дискриминация даражаси белгиланган халқаро мезонлар бўйича таҳлил қилинган.

Жамоат хавфсизлигини таъминлаш мақсадида Ўзбекистонда халқаро тажрибадан фойдаланган ҳолда хавфсизликни кучайтириш, жамоатчилик ва полиция органлари ўртасидаги ҳамкорликни ривожлантириш ва рақамли хавфсизлик чораларини кенг жорий этиш лозим. Бунинг учун хавфсизлик концепциясини такомиллаштириш ва ҳуқуқий базани мустаҳкамлаш орқали жиноятчилик даражасини пасайтиришга эришиш мумкин.

Жамоат хавфсизлигини мустаҳкамлаш бўйича дунёдаги энг хавфсиз мамлакатлар тажрибасини ўрганиш, Ўзбекистон учун самарали хавфсизлик стратегияларини шакллантиришда муҳим аҳамият касб этади. Тинчлик ва иқтисодиёт институти (Institute for Economics and Peace, IEP) ва Сидней Университети томонидан 2024 йил якунига кўра дунё мамлакатлари хавфсизлик кўрсаткичлари таҳлил қилиниб, зўравонлик ва жиноятчилик даражаси, ҳарбий харажатлар, ички ва халқаро низолар, сиёсий барқарорлик ва ҳуқуқ-тартибот тизими каби индикаторлар асосида энг хавфсиз давлатлар аниқланган. Андорра, Бирлашган Араб Амирликлари, Қатар, Тайвань, Уммон, Ман ороли, Арманистон, Гонконг, Япония ва Сингапур каби давлатлар хавфсизликни таъминлашда муваффақиятли тажрибага эга экани қайд этилган.

Андорра модели[1]. Андорра Европанинг энг хавфсиз давлатларидан бири бўлиб, мамлакатда жиноятчиликнинг паст даражаси ҳуқуқий тизимнинг барқарорлиги, самарали жамоат хавфсизлиги сиёсати ва жиноятларнинг олдини олиш чоралари билан боғлиқ. Андорранинг қонунчилик базаси Испания ва Франция ҳуқуқ тизимига асосланиб, Европанинг умумий ҳуқуқий нормаларига мос келади. Мамлакатда жиноятчиликни олдини олишда қуйидаги асосий омиллар муҳим аҳамиятга эга:

биринчидан, қонун устуворлиги ва барқарор ҳуқуқий тизим омиллар:

- мамлакат конституцияси жамоат тартибини сақлаш ва хавфсизликни таъминлашда мустаҳкам асос сифатида хизмат қилади;

- жиноят кодексида ҳуқуқбузарликларга нисбатан қатъий жазо чоралари белгилаб қўйилган;

- “Коррупцияга қарши курашиш тўғрисида”ги қонун давлат хизматчилари устидан қатъий назоратни таъминлайди.

иккинчидан, жамоатчилик билан ҳамкорлик омиллар:

- полиция ва аҳоли ўртасида самарали ҳамкорлик механизми йўлга қўйилган;

- ҳар бир жамоатда хавфсизликни таъминлашда профилактика ва кузатув чоралари олиб борилади.

учинчидан, иқтисодий ва сиёсий барқарорлик омиллар:

[1] https://www.nur.kz/leisure/interesting-facts/1911962-odna-iz-samyh-bezopasnyh-stran-v-mire-gde-net-tyurem-i-zaprescheny-advokaty/

- давлатнинг иқтисодий ривожланиши ва сиёсий барқарорлик хавфсиз муҳитни яратишда муҳим роль ўйнайди;

- халқаро ҳамкорлик жиноятчиликка қарши курашда самарали ечимларни қўллаш имконини беради.

Ўзбекистонда жамоат хавфсизлигини таъминлаш учун Андорра моделига асосланган ҳолда, қуйидаги чора-тадбирларни амалга ошириш мақсадга мувофиқ:

- қонунчиликни такомиллаштириш: хавфсизликка оид миллий қонунларни халқаро тажрибалар асосида бойитиш;

- жамоатчилик билан ҳамкорликни кучайтириш: полиция ва маҳаллалар ўртасидаги алоқаларни янада мустаҳкамлаш;

- рақамли хавфсизликни жорий этиш: хавфсизликни таъминлашда инновацион технологиялардан фойдаланиш.

Андорранинг хавфсизлик сиёсати тажрибасидан келиб чиқиб, Ўзбекистонда хавфсизликни таъминлаш ва жиноятчиликни олдини олишда комплекс ёндашувни қўллаш орқали жамоат тартибини сақлаш самарадорлигини ошириш мумкин. Шунингдек, қ**онун устуворлиги,** немис ҳуқуқшуноси ва социолог олими ***Макс Вебер****нинг*[1] “**Ҳуқуқий давлат назарияси”**га кўра, барқарор ҳуқуқий тизим ва ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар самарадорлиги **жиноятчиликни камайтиришда асосий омиллардан бири** ҳисобланади.

Андорра давлатида жамоат хавфсизлигини таъминлаш ва жиноятчиликнинг олдини олиш бўйича комплекс ислоҳотлар амалга оширилган бўлиб, улар ҳуқуқий институтларнинг мустаҳкамлиги ва самарали хавфсизлик механизмлари орқали амалга оширилмоқда. Ушбу ислоҳотлар давлат ҳокимиятининг барқарорлиги, суд тизимининг шаффофлиги ва полиция органларининг самарали фаолиятини таъминлашга қаратилган.

Андорра конституциясига кўра, суд ҳокимияти тўлиқ мустақилликка эга бўлиб, барча суд ишлари шаффоф ва тезкор тарзда кўриб чиқилади. Суд жараёнлари муддатлари сунъий равишда чўзилмайди ва фуқароларнинг ҳуқуқлари кафолатланган ҳолда таъминланади. Судьялик лавозимига тайинлов қатъий талаблар асосида амалга оширилади, бу эса суд тизимига бўлган ишончни оширади. Шу билан бирга, низоларни ҳал этишда медиация ва альтернатив суд жараёнларидан самарали фойдаланиш орқали жамоат тартибини сақлашга ҳисса қўшилади.

---

[1]*Изоҳ: Немис ҳуқуқшуноси ва социологи Макс Вебер ўзининг “Ҳуқуқий давлат назарияси”да қонун устуворлиги ва ҳуқуқий институтларнинг барқарорлиги жамиятда тартибни сақлашда ҳал қилувчи аҳамиятга эга эканлигини таъкидлайди. Унга кўра, ҳуқуқий тизим мустақил ва шаффоф бўлганда, жиноятчилик даражаси пасаяди, давлат ҳокимияти эса барқарор бўлади. Вебернинг қонун устуворлиги назарияси уч асосий тамойилга таянади:* 1) *Ҳуқуқий расмийлик* – қонунлар ҳамма учун бир хил ишлаши, ҳеч ким қонундан устун бўлмаслиги керак; 2) *Бюрократик самарадорлик* – ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар қатъий тартибга асосланган тизим сифатида фаолият юритиши лозим; 3) *Ҳуқуқий институтларнинг шаффофлиги* – судлар, полиция ва давлат бошқаруви коррупциядан ҳоли бўлиши, уларнинг ишлаш принциплари жамоатчилик учун ошкора бўлиши керак.

Андорра полицияси мамлакатда жиноятчилик даражасини сезиларли даражада камайтиришга эришган бўлиб, бу соҳада илғор халқаро назариялардан фойдаланилмоқда. Полиция фаолияти қуйидаги назариялар асосида ташкил этилган:

- “Шиша ойна назарияси” (Broken Windows Theory)[1] – жамоат тартиботини назорат қилиш ва майда ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш орқали жиноятчиликнинг олдини олиш;

- “Жамоатчилик полицияси назарияси” (Community Policing Theory) [2] – аҳоли ва полиция ўртасида ишончли ҳамкорликни ривожлантириш, профилактик чора-тадбирларни кучайтириш;

- “Цифровизация ва хавфсизлик назарияси” (Digitalization and Security Theory)[3] – рақамли технологиялар орқали хавфсизликни таъминлаш, мониторинг ва назоратни такомиллаштириш;

- “Жиноят ва жазо иқтисодиёти назарияси” (Crime and Punishment Economic Theory) [4] – жазо муқаррарлигини таъминлаш орқали жиноятчилик даражасини пасайтириш;

- “Смарт-шаҳар хавфсизлик назарияси” (Smart City Security Theory) [5] – замонавий технологиялар, интеллектуал кузатув воситалари ва автоматлаштирилган хавфсизлик чораларини жорий қилиш.

Андоррада хавфсизликни таъминлаш бўйича қабул қилинган норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар[6] ушбу назарияларни амалиётга татбиқ этишга қаратилган

---

[1] *George L. Kelling* and *James Q. Wilson* “Broken Windows” The police and neighborhood safety // https://www.theatlantic.com/magazine/archive/1982/03/broken-windows-/304465/

[2] *Изоҳ:* Herman Heine Goldstineнинг “Жамоатчилик полицияси назарияси” (Community Policing Theory) полиция ва жамоатчилик ҳамкорлиги жиноятчиликни камайтиришда ҳал қилувчи роль ўйнашини таъкидлайди // https://law.jrank.org /pages/1650/ Police-Community-Policing-theory-practice-community-policing.html#google_vignette

[3] *David Lyon* “Цифровизация ва хавфсизлик” назарияси жиноятчиликни камайтиришда замонавий технологияларнинг самарадорлиги ҳақидаги концепцияни шакллантирган. Унга кўра, жамоат хавфсизлиги тизимларини рақамлаштириш ва хавфсизлик технологияларидан кенг фойдаланиш жиноятларни олдини олиш ва уларни фош этиш имкониятларини сезиларли даражада оширади // FAcSS FRSC Дэвид Лайон (1948 г.р.) - социолог, руководивший Центром исследований эпиднадзора при Королевском университете в Кингстоне, Онтарио. Ранее он занимал должность заведующего кафедрой королевских исследований на факультете социологии и юридическом факультете Королевского университета // https://translated.turbopages.org/-proxy_u/en-ru.ru.49e93c3e-677f83dc-6ce85cf8-74722d776562/https/en.wikipedia.org/wiki/-David_Lyon(sociologist)

[4] Изоҳ: *Gary Becker — америкалик иқтисодчи ва Нобель мукофоти совриндори, "Жиноят ва жазо иқтисодиёти" назарияси муаллифи. Унинг назариясига кўра, жиноятчилар рационал шахслар бўлиб, улар жиноят содир этишдан олинадиган фойда ва унинг эҳтимолий жазоси ўртасида танлов қилади. Агар жиноят учун жазо даражаси юқори бўлса ва жазо муқаррар бўлса, инсон жиноятдан воз кечиш эҳтимоли катта бўлади.*

[5] *Anthony Townsend* Smart cities need a new civic code to succeed // https://www.wired.com/-story/smart-cities-need-a-newcivic-code-to-succeed // “Смарт-шаҳар хавфсизлик назарияси” (Энтони Таунсенд) бўйича, шаҳар инфратузилмасини рақамлаштириш ва хавфсизлик тизимлари билан боғлаш жиноятчиликни камайтиришда муҳим омил ҳисобланади.

[6] Изоҳ: *“Полиция тўғрисида”ги қонун (полициянинг жиноятчиликни олдини олиш ваколатларини аниқ белгилайди); “Жамоат хавфсизлиги тўғрисида”ги қонун (полиция ва жамоатчилик ўртасидаги ҳамкорликни мустаҳкамлаш механизми белгиланган); Цифровизация ва хавфсизлик технологияларини қўллаш (видеоназорат ва жамоат хавфсизлиги мониторинг тизими қонуний асосда ташкил этилган) ва бошқа шу каби норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар.*

бўлиб, жамоат хавфсизлигини таъминлашнинг самарадорлигини оширишда муҳим рол ўйнамоқда.

Андорранинг хавфсизликка оид ислоҳотлари Ўзбекистон учун ўрганиш ва татбиқ қилишга лойиқ тажриба ҳисобланади. Хусусан, суд ва ҳуқуқни муҳофаза қилиш органлари фаолиятини кучайтириш, жамоатчилик билан яқин ҳамкорликни таъминлаш ва рақамли хавфсизлик тизимларини жорий этиш мамлакатда хавфсиз муҳитни яратишга хизмат қилади.

Жамоат хавфсизлигини таъминлашда илмий назариялар ва амалиётнинг уйғунлиги жиноятчиликни камайтиришда муҳим аҳамият касб этади. Хусусан, америкалик иқтисодчи ва нобель мукофоти соҳиби Гэри Беккернинг "Жиноят ва жазо иқтисодиёти назарияси"[1]га кўра, агар жиноят учун жазо даражаси юқори ва муқаррар бўлса, шахс жиноят содир этишдан воз кечади. Жиноятларга нисбатан қатъий жавобгарлик тизимининг мавжудлиги жамоат тартибини сақлашда муҳим омиллардан бири ҳисобланади.

Шунингдек, Джордж Келлинг ва Жеймс Уилсоннинг "Шиша ойна назарияси"[2] жиноятчиликни олдини олишда профилактиканинг муҳимлигини таъкидлайди. Ушбу назарияга кўра, агар жамоат жойлари ва жиноятга мойил ҳудудлар доимий назорат остида бўлса, потенциал ҳуқуқбузарлар жиноят содир этишдан тийилади. Андорра полицияси бу назарияни амалиётга тадбиқ этиб, унинг самарадорлигини тасдиқламоқда.

Бундан ташқари, Ҳерман Голдстейннинг "Жамоатчилик полицияси назарияси" (Community Policing Theory) жамоат хавфсизлигини таъминлашда полиция ва жамоатчилик ўртасида яқин ҳамкорлик ўрнатиш муҳимлигини кўрсатади. Ушбу ёндашувга кўра ҳар 1000 кишига 3 та полиция ходими жалб этилиши, маҳаллаларда полиция ходимларининг доимий ҳузурини таъминлаш, жиноятларга мойил ҳудудларни мунтазам таҳлил қилиш ва маълумот бериш ҳамда фуқароларни хавфсизлик чораларига жалб этиш каби чоралар самарали хавфсизлик стратегиясининг таркибий қисмидир[3].

Дэвид Лайоннинг "Цифровизация ва хавфсизлик назарияси"[4] эса рақамли технологиялардан фойдаланиб жиноятчиликни олдини олиш имкониятларини

---

[1]Изоҳ: *Гэри Беккер — америкалик иқтисодчи ва Нобель мукофоти совриндори, "Жиноят ва жазо иқтисодиёти" назарияси муаллифи. Унинг назариясига кўра, жиноятчилар рационал шахслар бўлиб, улар жиноят содир этишдан олинадиган фойда ва унинг эҳтимолий жазоси ўртасида танлов қилади. Агар жиноят учун жазо даражаси юқори бўлса ва жазо муқаррар бўлса, инсон жиноятдан воз кечиш эҳтимоли катта бўлади.*

[2] *George L. Kelling* and *James Q. Wilson* "Broken Windows" The police and neighborhood safety // https://www.theatlantic.com/magazine/archive/1982/03/broken-windows-/304465/

[3] *Маълумот учун:* Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Ўзбекистон Республикаси жамоат хавфсизлиги концепциясини тасдиқлаш ва уни амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПФ-27-сон Фармонининг "Ички ишлар органлари профилактика (катта) инспекторлари штат бирликларини киритиш меъёрлари" номли 5-иловасига кўра "маҳалла ҳудудида истиқомат қилувчи аҳолининг умумий сони 7 мингдан 10 минггача нафаргача бўлса 2 та профилактика инспектори, агарда 10 мингдан ошса 3 та профилактика инпектори жалиб этилиши мумкин.

[4] *David Lyon* "Цифровизация ва хавфсизлик" назарияси жиноятчиликни камайтиришда замонавий технологияларнинг самарадорлиги ҳақидаги концепцияни шакллантирган. Унга кўра, жамоат хавфсизлиги тизимларини рақамлаштириш ва хавфсизлик технологияларидан кенг фойдаланиш жиноятларни олдини олиш ва уларни фош этиш имкониятларини сезиларли даражада оширади // FAcSS FRSC Дэвид Лайон (1948 г.р.) - социолог, руководивший Центром исследований эпиднадзора при Королевском университете в Кингстоне, Онтарио. Ранее он занимал должность заведующего кафедрой королевских

муҳокама қилади. У хавфсизликни таъминлаш учун қуйидаги йўналишларни таклиф қилади:

- рақамли кузатув ва назорат тизимлари – видеокузатув ва сунъий интеллект орқали хавфсизликни кучайтириш;
- маълумотлар базасини автоматизация қилиш – жиноятчилар ҳақидаги маълумотларни йиғиш ва таҳлил қилиш;
- смарт-шаҳар технологиялари – автоматлаштирилган хавфсизлик тизимларини жорий қилиш;
- профилактика ва тезкор жавоб механизмлари – хавфларни олдиндан аниқлаш ва тезкор чоралар кўриш.

Жамоат хавфсизлигини таъминлашда юқоридаги назарий ёндашувлар ва замонавий технологиялардан фойдаланиш ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш ва полиция фаолиятининг самарадорлигини оширишга хизмат қилади. Шунингдек, ушбу тажрибалардан келиб чиқиб, Ўзбекистонда хавфсизлик тизимини янада такомиллаштириш ва инновацион ечимлардан самарали фойдаланиш муҳим аҳамият касб этади.

Замонавий технологиялар ва қатъий ҳуқуқий тизимлар жамоат хавфсизлигини таъминлашда муҳим восита ҳисобланади. Хусусан, урбанист ва технолог Энтони Таунсенднинг "Смарт-шаҳар хавфсизлик назарияси" жиноятларни олдини олиш ва қонунбузар шахсларни тезда аниқлаш имкониятини яратиш орқали полиция органларининг самарадорлигини оширишга йўналтирилган. Ушбу назария асосида Андоррада хавфсизликни таъминлашнинг инновацион модели яратилган.

Андоррада қабул қилинган "Замонавий технологияларнинг самарадорлиги" концепцияси жамоат хавфсизлигини мустаҳкамлашга қаратилган бўлиб, у қуйидаги чора-тадбирларни ўз ичига олади:

Смарт-шаҳар хавфсизлик тизимини полиция назорати билан интеграция қилиш, бу эса жиноятларни барвақт олдини олишга ёрдам беради.

Йўл ҳаракати хавфсизлиги учун интеллектуал светофорлар ва камералар жорий этилиши, бу ҳаракатни назорат қилиш самарадорлигини оширади.

Жамоат жойларида Wi-Fi ва рақамли хавфсизлик мониторинг тизимларини жорий қилиш, бу эса хавфли ҳудудларни кузатиш ва тезкор жавоб чораларини кучайтириш имконини беради.

Бирлашган Араб Амирликлари (БАА) тажрибаси. БАА дунёдаги энг хавфсиз мамлакатлардан бири сифатида тан олинган бўлиб, бу самарали ҳуқуқий ислоҳотлар, қатъий қонунчилик, жамоат тартибини таъминлаш бўйича аниқ чора-тадбирлар ва замонавий хавфсизлик технологиялари билан боғлиқдир. БАА жиноятчиликка қарши "ноль толерантлик" сиёсати орқали аҳоли ва сайёҳларнинг хавфсизлигини таъминлашда улкан муваффақиятларга эришган.

БААда хавфсизликни таъминлашда қуйидаги асосий чора-тадбирлар амалга оширилган:

исследований на факультете социологии и юридическом факультете Королевского университета // https://translated.turbopages.org/-proxy_u/en-ru.ru.49e93c3e-677f83dc-6ce85cf8-74722d776562/https/en.wikipedia.org/wiki/-David_Lyon(sociologist)

-*Қатъий ҳуқуқий тизим.* 1987 йилда қабул қилинган ва 2022 йилда қайта кўриб чиқилган "Жиноят кодекси" (Federal Penal Code) жиноятлар туркумига кўра қатъий жазо чораларини белгилайди.

Жиноятлар оғирлигига қараб – терроризм, гиёҳванд моддалар савдоси, одам ўлдириш каби оғир жиноятлар учун ўлим жазоси ёки умрбод қамоқ, коррупция ва ноқонуний қурол сақлаш каби ҳуқуқбузарликлар учун 10 йилдан 25 йилгача қамоқ жазоси белгиланган.

-*"Ноль толерантлик" сиёсати.* Жиноятчиликка нисбатан қаттиқ чоралар кўриш амалиёти қонунчиликка жорий қилинган. Ҳатто майда ҳуқуқбузарликларга нисбатан ҳам катта жарималар ёки қамоқ жазоси тайинланади.

-*Технологик хавфсизлик чоралари.* Жиноятларни олдини олиш мақсадида юқори аниқликдаги кузатув камералари, смарт-технологиялар ва рақамли хавфсизлик мониторинг тизимлари кенг қўлланилади. Ҳуқуқбузарликларни зудлик билан аниқлаш ва жавоб қайтариш учун автоматлаштирилган тизимлардан фойдаланилади.

Андорра ва БАА тажрибасидан келиб чиқиб, Ўзбекистонда жамоат хавфсизлигини таъминлашда қуйидаги йўналишлар бўйича иш олиб бориш мақсадга мувофиқ:

Смарт-шаҳар хавфсизлик концепциясини жорий қилиш, бу эса рақамли технологиялар ёрдамида хавфсизликни таъминлаш имкониятини беради.

Қатъий ҳуқуқий тизим ва "ноль толерантлик" сиёсати асосида жиноятларга нисбатан жазо чораларини кучайтириш. Полиция ва жамоатчилик ўртасида самарали ҳамкорлик механизмларини ривожлантириш, бу эса ҳуқуқбузарликларни барвақт олдини олишга ёрдам беради. Бундай ёндашувлар орқали Ўзбекистонда жиноятчиликни камайтириш ва жамоат хавфсизлигини таъминлаш самарадорлигини ошириш мумкин.

Америкалик урбанист ва технолог Энтони Таунсенд[1] томонидан таклиф этилган "Смарт-шаҳар хавфсизлик назарияси" жиноятларнинг олдини олиш ва ҳуқуқбузар шахсларнинг шахсини тезда аниқлаш имконини берувчи замонавий ёндашув сифатида қаралади. Ушбу назария полиция органлари учун хавфсизликни таъминлашда қулай шарт-шароитлар яратишга қаратилган бўлиб, "Замонавий технологияларнинг самарадорлиги ҳақида"ги концепцияни ишлаб чиқишни назарда тутади.

Андорра давлати мазкур концепцияни амалга ошириш бўйича илғор тажрибага эга бўлиб, жамоат хавфсизлигини таъминлашда рақамли технологиялардан самарали фойдаланишни йўлга қўйган. Ушбу концепция доирасида қуйидаги чора-тадбирлар тизимли равишда амалга оширилган:

[1] *Anthony Townsend* Smart cities need a new civic code to succeed // https://www.wired.com/-story/smart-cities-need-a-newcivic-code-to-succeed // “Смарт-шаҳар хавфсизлик назарияси” (Энтони Таунсенд) бўйича, шаҳар инфратузилмасини рақамлаштириш ва хавфсизлик тизимлари билан боғлаш жиноятчиликни камайтиришда муҳим омил ҳисобланади.

биринчидан, полиция назорат тизими рақамли хавфсизлик инфратузилмаси билан бирлаштирилиб, жиноятларни барвақт аниқлаш ва тезкор жавоб бериш имкони яратилган.;

иккинчидан, интеллектуал светофорлар ва кузатув камералари орқали йўл ҳаракатини назорат қилиш, хавфсизликни таъминлаш ва ҳаракат қоидалари бузилишини автоматик равишда аниқлаш механизми жорий этилган;

учинчидан, мамлакатда жамоат жойлари Wi-Fi ва хавфсизлик мониторинг тизимлари билан таъминланган бўлиб, ушбу тизимлар жамоат тартиботини назорат қилиш ва тезкор чоралар кўриш имконини беради.

Жамоат хавфсизлигини таъминлашда смарт-шаҳар технологияларининг татбиқ этилиши жиноятчиликка қарши самарали курашишга имкон яратади. Бундай тизимлар жиноятларга барвақт жавоб бериш, хавфли вазиятларни олдиндан аниқлаш ва фуқароларнинг хавфсизлигини оширишда муҳим аҳамиятга эга. Ўзбекистон учун ушбу тажрибадан фойдаланиш орқали хавфсиз шаҳар муҳитини яратиш ва жамоат тартибини мустаҳкамлашнинг замонавий механизмларини жорий қилиш долзарб ҳисобланади.

Бирлашган Араб Амирликлари (БАА) дунёдаги энг хавфсиз давлатлардан бири ҳисобланади, бу эса самарали ҳуқуқий тизим, замонавий хавфсизлик технологиялари ва қатъий профилактика чоралари орқали таъминланган. Мамлакат жиноятчиликни олдини олиш ва ҳуқуқбузарликларни барвақт бартараф этиш мақсадида изчил ислоҳотлар ўтказиб, хавфсизликни таъминлаш бўйича мустаҳкам механизмларни жорий қилган.

БААда жамоат хавфсизлигини таъминлашда асосий омиллардан бири бу "ноль толерантлик" сиёсати бўлиб, унга мувофиқ жиноятларга нисбатан муқаррар ва қаттиқ жазо чоралари қўлланилади. Ушбу ёндашув ҳуқуқбузарликларни камайтиришга ҳамда аҳоли ва туристларнинг хавфсиз муҳитини яратишга хизмат қилмоқда.

БААда жиноятчиликка қарши қуйидаги қонунчилик ислоҳотлари амалга оширилган:

биринчидан, жиноят кодекси (Federal Penal Code) илк бор 1987 йилда қабул қилинган ва 2022 йилда тўлиқ қайта кўриб чиқилган ушбу кодекс миллий хавфсизликни таъминлаш ва жиноятчиликка қарши курашишда асосий ҳуқуқий ҳужжат ҳисобланади.

Кодексда жиноятлар қуйидаги турли даражаларга ажратилган:

- оғир жиноятлар: терроризм, гиёҳванд моддалар савдоси, одам ўлдириш, жинсий зўравонлик ва одам савдоси. Ушбу жиноятлар учун жазо ўлим ҳукми ёки умрбод қамоқ жазосини ўз ичига олади;

- ўрта даражали жиноятлар: коррупция, ноқонуний қурол сақлаш, давлат сирларини ошкор қилиш;

- маъмурий ҳуқуқбузарликлар: фирибгарлик, жамоат тартибини бузиш ва оммавий тартибсизликлар.

иккинчидан, БААда “ноль толерантлик” сиёсати расман қонунчиликка киритилган. Шунингдек, 2022 йилда *“ноль толерантлик”* сиёсатидаги

ислоҳотлар натижасида ҳатто майда ҳуқуқбузарликларга нисбатан ҳам қаттиқ чоралар кўрила бошланди. Жумладан:

оғир жиноятлар туркумига – терроризм *(ўлим жазоси ёки умрбод қамоқ), қасддан одам ўлдириш (ўлим жазоси ёки умрбод қамоқ)* ва гиёҳванд моддалар савдоси *(25 йилдан умрбод қамоққача ёки ўлим жазоси)* каби жиноят турлари киритилган бўлиб, уларга кескин жазо чоралари кўрилганлиги;

маъмурий ва оддий жиноятлар туркумига эса – жамоат тартибини бузиш, ҳурматсизлик ва тартибсизликлар *(6 ойдан 5 йилгача қамоқ ёки катта миқдордаги жарима),* қурол сақлаш ва ноқонуний фойдаланиш *(10 йилдан умрбод қамоқ жазоси)* ва ёлғон хабарлар тарқатиш ёки давлатни обрўсизлантириш *(1 йилдан 5 йилгача қамоқ ёки катта жарима)* каби жиноятлар киритилган бўлиб, уларга нисбатан қаттиқ жазо чоралари қўлланилади[1]. *Маълумот учун: БААда* гиёҳванд моддалари савдоси билан шуғулланган шахсларга минимал миқдори 200 000 дирхамдан бошланадиган жарима, умрбод озодликдан маҳмурм қилиш ёҳуд ўлим жазолари[2], шунингдек, терроризм билан боғлиқ жиноятлар учун эса 90% ҳолларда умрбод қамоқ ёки ўлим жазоси қўлланилади. Бундан , қуролли ҳужум ёҳуд одам ўлдириш жиноятлари учун эса 85% ҳолларда ўлим жазоси билан якунланади.

БААнинг хавфсизликни таъминлашдаги тажрибаси Ўзбекистон учун ўрнак бўлиши мумкин. Жиноятчиликка қарши "ноль толерантлик" сиёсати, муқаррар жазо ва замонавий технологияларни кенг жорий қилиш жамоат хавфсизлигини мустаҳкамлашга йўналтирилган муҳим тадбирлар ҳисобланади. Мамлакатдаги ҳуқуқий тизимни мустаҳкамлаш ва замонавий технологияларни жорий қилиш орқали хавфсизликни таъминлаш бўйича самарали ечимларга эришиш мумкин.

Қатарда жамоат хавфсизлигини таъминлаш тажрибаси. Қатар дунёдаги энг хавфсиз давлатлардан бири бўлиб, бу мамлакатда жамоат хавфсизлигини таъминлаш қатъий ҳуқуқий тизим, кучли полиция назорати, жамоатчилик ҳамкорлиги ва рақамли хавфсизлик чоралари орқали амалга оширилмоқда. Британиялик ҳуқуқшунос Жон Остиннинг “Ҳуқуқий позитивизм назарияси”[3] асосида Қатарда қонун устуворлигини таъминлаш ва жиноятчиликни олдини олишга қаратилган ислоҳотлар жорий этилган.

Жиноятчиликка қарши курашиш мақсадида қуйидаги асосий йўналишлар бўйича ишлар олиб борилмоқда:

- қатъий ҳуқуқий тизим ва оғир жазо чоралари;
- коррупция ва иқтисодий жиноятларга қарши кураш;
- жамоатчилик назорати ва полиция ҳамкорлиги;
- киберхавфсизлик ва рақамли хавфсизлик чоралари;

[1] The United Arab Emirates "Zero Tolerance" Policy Towards Crime // https://www.lawyersuae.-com/ru/drug-abuse-penalties-and-trafficking-offenses/

[2] В *Объединённые Арабские Эмиратах* действует чрезвычайно строгие законы против преступлений, связанных с наркотиками, проводя политику нулевой терпимости с суровыми наказаниями. Наказания изложены в Федеральном законе ОАЭ № 30 от 2021 «О борьбе с наркотиками и психотропными веществами».

[3] *John Austin* “Ҳуқуқий позитивизм назарияси” бўйича, қонунлар давлат томонидан қатъий ижро этилса ва жазонинг муқаррарлиги таъминланса, жиноятчилик даражаси пасаяди. Қатар ҳуқуқий тизими бу назарияни тўлиқ тасдиқлайди.

- терроризм ва гиёҳванд моддалар савдосига қарши кураш.

Қатарда жиноятчиликка қарши курашишда “Қатар жиноят кодекси”[1], “Коррупцияга қарши кураш тўғрисида”ги қонун[2], “Иқтисодий жиноятларга қарши кураш тўғрисида”ги қонун[3], “Киберхавфсизлик тўғрисида”ги қонун[4] ва “Терроризмга қарши кураш тўғрисида”ги қонун[5] асосида қуйидаги жазо чоралари белгиланган:

- одам ўлдириш ва терроризм жиноятлари учун — ўлим ёки умрбод қамоқ;

- гиёҳванд моддалар савдоси учун — 25 йилдан умрбод қамоқ ёки ўлим жазоси;

- коррупция ва иқтисодий жиноятлар учун — 10 йилдан 25 йилгача қамоқ ёки катта миқдорда жарима[6];

- жамоат тартибини бузиш ва полиция талабларига бўйсунмаслик учун — 6 ойдан 5 йилгача қамоқ;

- киберҳужумлар учун — 15 йилдан 25 йилгача қамоқ ёки катта жарима.

Қатарда таниқли криминолог Ҳерман Голдстейн[7]нинг “Жамоатчилик полицияси назарияси” асосида жамоат хавфсизлигини таъминлаш тизими жорий этилган. Бу назария Жеймс Уилсон ва Жорж Келлинг[8]нинг “Шиша ойна назарияси” билан узвий боғлиқ бўлиб, полиция ва жамоатчилик ўртасида ҳамкорликни мустаҳкамлашни назарда тутади. Ушбу ёндашувнинг асосий тамойиллари:

1. Полиция ва жамоатчилик ҳамкорликда ишлаш;

2. Жиноятчиликни аниқлашдан кўра унинг олдини олишга устуворлик бериш;

3. Жамиятнинг полицияни назорат қилишда фаол иштирок этиши;

4. Ҳар бир ҳудудда жиноят таҳдидларига мос полиция стратегияларини ишлаб чиқиш;

5. Полиция ходимларининг ижтимоий муаммоларни аниқлаш ва бартараф этишга йўналтирилиши.

Мамлакатда жамоатчилик ва полиция органлари ўртасида самарали ҳамкорликни таъминлаш мақсадида қуйидаги инновацион усуллар жорий этилган:

---

[1] Law No. 11 of 2004 Issuing the Penal Code 11 / 2004 // https://docs.yandex.ru

[2] https://en.wikipedia.org/wiki/Qatar

[3] https://dwfgroup.com/ar-qa/news-and-insights/insights/2022/7/economic-crime-act-2022

[4] https://www.qatarday.com/cyber-security-laws-in-qatar

[5] https://www.lexismiddleeast.com/legislativeInsight/Qatar/Qatar_Anti-Terrorism_Law

[6] *Изоҳ:* Коррупцияга қарши қонун *(Anti-Corruption Law)* – давлат хизматчилари, хусусий сектор ва хорижий инвесторлар учун шаффофлик ва ҳисобдорлик механизмлари; Иқтисодий жиноятлар тўғрисидаги қонун *(Economic Crimes Law)* – молиявий фирибгарлик ва ноқонуний молиявий операцияларга қарши санкциялар; Давлат харидларида шаффофликни таъминлаш учун *“Блокчейн-технологиялари”* жорий қилинган.

[7] *Herman Goldstein* (December 8, 1931 – January 24, 2020) was an American criminologist and legal scholar known for developing the problem-oriented policing model. He was Professor at the University of Wisconsin Law School, where he began teaching in 1964. He previously worked as an assistant to the then-superintendent of the Chicago Police Department, O.W. Wilson. In 2018, he was awarded the Stockholm Prize in Criminology in honor of his research on policing // https://en.wikipedia.org/wiki/Herman_Goldstein

[8] *James Q. Wilson ва George L. Kelling* томонидан 1982 йилда мамлакатда жамоат хавфсизлиги ва жиноятчиликка қарши курашиш шунингдек, жиноятчиликни олдини олиш мақсадида “Broken Windows Theory” номли назария ишлаб чиқилган.

- "Smart Policing System" – фуқароларга мобил иловалар орқали полицияга хабар бериш имконияти яратилган.

- ҳар бир шаҳарда жамоат полицияси ва қўриқчилар тизими фаолият юритмоқда.

- жамоат жойларида видеоназорат ва сунъий интеллект технологиялари жорий қилинган.

- полиция ва жамоатчилик ўртасида ўзаро ҳамкорлик механизмлари ишлаб чиқилган.

2024 йилнинг биринчи ярмида Қатар 2 639 000 нафар сайёҳни қабул қилган бўлиб, бу 2022 йилдаги умумий сайёҳлар сонига тенг. Мамлакатга ташриф буюрувчиларнинг катта қисми Саудия Арабистони (29%), Ҳиндистон (8%), Баҳрайн (5%), Қувайт (4%), Умон (4%), Германия (4%), АҚШ (3%), БАА (3%), ва Италия (2%) каби давлатлардан ташриф буюрган[1].

Мазкур маълумотлардан билиш мумкинки, Қатар давлатида “Смарт-шаҳар хавфсизлик назарияси” бўйича, шаҳар инфратузилмасини рақамлаштирилганлиги шунингдек, мамлакат хавфсизлик тизимлари билан боғланганлиги Қатар давлатида жиноятчиликни камайтиришга хизмат қилган. Қатарнинг хавфсизликка оид ислоҳотлари ва замонавий технологияларни қўллаш тажрибаси жамоат хавфсизлигини таъминлашда самарали механизмлардан бири ҳисобланади. Қатар тажрибасидан келиб чиқиб, хавфсизликни таъминлаш учун қуйидаги чоралар тавсия этилади:

- полиция ва жамоатчилик ҳамкорлигини кучайтириш;

- смарт-назорат тизимларини жорий қилиш;

- жиноятларнинг олдини олишга қаратилган профилактика чораларини кучайтириш;

- қатъий ҳуқуқий тизим орқали муқаррар жазо чораларини белгилаш.

Ушбу ёндашувлар Ўзбекистонда жамоат хавфсизлигини таъминлашга қаратилган чора-тадбирларни янада самарали ташкил этишга хизмат қилиши мумкин.

Японияда жамоат хавфсизлигини таъминлаш тажрибаси. Япония дунёдаги энг хавфсиз давлатлардан бири ҳисобланади, бу эса жиноятчиликни олдини олишга қаратилган самарали чора-тадбирлар, мустаҳкам ҳуқуқий база ва давлат сиёсатининг юқори даражада ташкил этилганлиги билан изоҳланади. Мамлакатда жамоат хавфсизлигини таъминлаш мақсадида 1968 йилда Гэри Беккер томонидан илгари сурилган “Жиноят ва жазо иқтисодиёти” назарияси[2] асосида қатор ҳуқуқий ислоҳотлар амалга оширилган.

Япония жиноят кодекси (Penal Code of Japan) мамлакатдаги ҳуқуқ-тартиботни таъминлаш ва жиноятчиликни олдини олишнинг асосий ҳуқуқий ҳужжатларидан бири бўлиб, 1907 йилда қабул қилинган. Ушбу кодекс жиноят турларига мос равишда қуйидаги жазо чораларини ўз ичига олади:

- ўлим жазоси (Death Penalty) – терроризм, уюшган жиноятчилик ва давлатга қарши оғир жиноятлар учун қўлланилади;

[1] https://eco-tourism.expert/ru/news/chislo-inostrannykh-turistov-v-katare-vyroslo-v-pervoy-polovine -2024-goda-na-28

[2] https://vk.com/@economic_on-geri-bekker-ekonomika-vsego

- умрбод қамоқ (Life Imprisonment) – оғир жиноятлар ва қайта такрорланган ҳуқуқбузарликлар учун белгиланган;

- кўп миқдордаги жарималар (Heavy Fines) – иқтисодий жиноятлар, коррупция ва гиёҳванд моддалар муомаласи билан боғлиқ ҳолатлар учун юқори миқдордаги жарималар кўзда тутилган.

Япония жамоат хавфсизлигини таъминлаш мақсадида "Code of Criminal Procedure" [1] (жиноят ишларини тергов қилиш ва суд жараёнларини тартибга солиш), "Anti-Organized Crime Law"[2] (уюшган жиноятчилик, хусусан, Якудзага қарши кураш), "Narcotics Control Act, 1953"[3] (гиёҳванд моддалар муомаласини тартибга солиш), "Financial Crimes Control Act" (2020)[4] (фирибгарлик, пул ювиш ва коррупцияга қарши кураш), "Criminal Justice Reform Act"[5] (жиноят ишларини тергов қилиш жараёнларининг самарадорлигини ошириш ва шаффофликни таъминлаш), "National Public Service Ethics Law"[6] (давлат хизматчилари фаолиятини назорат қилиш ва манфаатлар тўқнашувининг олдини олиш), "Cybersecurity Basic Act"[7] (киберҳужумлар ва ахборот хавфсизлигини таъминлаш), "Anti-Terrorism Special Measures Law"[8] (халқаро терроризмга қарши кураш бўйича қонунчилик нормалари), "Police Law of Japan" [9] (полиция фаолиятини жамоатчилик билан ҳамкорликда ташкил қилиш), "Community Policing Strategy"[10] (профилактика тадбирларини кучайтириш орқали жиноятчиликни олдини олиш) каби бир нечта махсус қонунлар ва норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар қабул қилган.

"Кобан" тизими – жамоат хавфсизлигини таъминлашнинг самарали модели. Японияда жамоат хавфсизлигини таъминлашнинг муҳим механизмларидан бири Герман Голдштейннинг "Жамоатчилик Полицияси Назарияси" асосида ташкил этилган "Кобан" (Kōban, 交番) тизимидир. Бу маҳаллий полиция бекатлари концепцияси фуқаролар ва полиция ўртасидаги ишончли ҳамкорликни таъминлаш, ҳудудда хавфсизликни назорат қилиш ҳамда жиноятларнинг барвақт олдини олишга қаратилган.

"Кобан" тизимининг асосий вазифалари:

- жамоат хавфсизлигини таъминлаш ва жиноятчиликни мунтазам назорат қилиш;

- фуқаролар билан доимий мулоқотни йўлга қўйиш ва профилактика тадбирларини ўтказиш;

- жиноятчиларни тезкор аниқлаш ва ҳибсга олиш жараёнларини соддалаштириш;

- маҳаллий аҳоли билан хавфсизлик масалаларида ҳамкорлик қилиш.

---

[1] https://cdn1.byjus.com/wp-content/uploads/2020/08/Code-of-Criminal-Procedure-UPSC.pdf

[2]https://www.occrp.org/en/news/yakuza-prepares-members-to-resist-japans-new-anti-organized-crime-law

[3] https://elaw.klri.re.kr/eng_service/lawView.do?hseq=37716&lang=ENG

[4] https://www.eci.com/anti-money-laundering-and-counter-terrorist-financing-act-japan

[5] https://datacollaborativeforjustice.org/wp-content/uploads/2020/04/CJRA-Report-2-1.pdf

[6] https://yandex.ru/search/?text=%E2%80%9CNational+Public+Service+Ethics+Law1

[7] https://www.global-regulation.com/law/japan/3009836/the-basic-act-on-cybersecurity.html

[8] https://www.acronymfinder.com/Anti_Terrorism-Special-Measures-Law-(Japan)-(ATSML).html

[9] https://www.liquisearch.com/law_of_japan/law_enforcement

[10]https://www.ojp.gov/ncjrs/virtual-library/abstracts/community-policing-japan-and-singapore-community-policing

Япония жамоат хавфсизлигини таъминлашда қатъий ҳуқуқий база ва жамоатчилик билан ҳамкорликка асосланган чора-тадбирларни жорий қилган. Мамлакатда хавфсизликни таъминлаш мақсадида қабул қилинган комплекс ёндашув ва қонунчилик чоралари жиноятчилик даражасини пасайтиришда муҳим роль ўйнайди.

Япония тажрибаси Ўзбекистон учун жамоат хавфсизлигини таъминлаш бўйича қуйидаги чораларни жорий этишни тавсия этади:

- “Кобан” тизимига ўхшаш маҳаллий полиция пунктларини ташкил қилиш;
- Жиноятларни олдини олишга йўналтирилган қонунчилик чораларини кучайтириш;
- Фуқаролар билан ҳамкорлик механизмларини кенгайтириш;
- Киберҳавфсизлик ва иқтисодий жиноятларга қарши самарали стратегияларни ишлаб чиқиш.

Япония тажрибаси хавфсизликни таъминлашнинг самарали моделларидан бири сифатида Ўзбекистонда жиноятчиликни камайтириш ва фуқароларнинг ҳуқуқий онгини оширишда муҳим аҳамият касб этиши мумкин.

Андорра, Бирлашган Араб Амирликлари, Қатар ва Япония каби давлатларнинг жамоат хавфсизлигини таъминлашдаги муваффақиятли тажрибасидан келиб чиқиб, Ўзбекистонда жиноятчиликни олдини олиш ва хавфсизликни таъминлаш бўйича қонунчилик базасини такомиллаштириш зарур. Мамлакатда жамоат хавфсизлигини таъминлашда асосий ҳуқуқий ҳужжатлар сифатида Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси, Жиноят кодекси, Жиноят-процессуал кодекси, “Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси тўғрисида”ги Қонуни ва “Жамоат хавфсизлиги концепцияси” мавжуд. Бироқ, замонавий таҳдидларга жавоб бериш ва халқаро стандартларга мослашиш мақсадида қуйидаги таклифлар илгари сурилади.

биринчидан, жиноятчиликка қарши курашиш ва ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш тўғрисидаги қонуннинг такомиллаштирилиши. Ҳозирда амал қилувчи "Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси тўғрисида"ги қонун жиноятчиликка қарши курашишнинг муҳим асосларидан бири ҳисобланади. Лекин хавфсизлик тизимини халқаро стандартларга мос равишда ривожлантириш учун уни такомиллаштириш талаб этилади. Япониянинг “Жамоат хавфсизлиги тўғрисида”ги қонуни (Public Security Act) тажрибаси асосида Ўзбекистонда “Жамоат хавфсизлиги тўғрисида”ги қонунни ишлаб чиқиш ва қабул қилиниши мақсадга мувофиқдир.

Ушбу қонун жамоат хавфсизлигини таъминлаш бўйича қуйидаги соҳаларни қамраб олиши лозим:

- профилактик тадбирларни аниқ ва самарали тартибга солиш;
- жиноятларни олдини олиш стратегияларини ишлаб чиқиш;
- рақамли хавфсизлик ва мониторинг тизимларини жорий қилиш;
- жамоатчилик ва ҳуқуқ-тартибот органлари ҳамкорлигини мустаҳкамлаш;
- трансмиллий жиноятларга қарши кураш механизмларини кучайтириш.

иккинчидан, жамоатчилик ва полиция ҳамкорлигини мустаҳкамлаш бўйича ҳуқуқий асосларни шакллантириш. Япония тажрибасидаги “Kōban” полиция бекатлари модели ва Герман Голдштейннинг “Жамоатчилик полицияси назарияси” (Community Policing Theory) асосида Ўзбекистонда “Жамоатчилик ва ҳуқуқ-тартибот органларининг ўзаро ҳамкорлиги тўғрисида”ги янги қонун қабул қилиниши зарур.

Ушбу қонун қуйидаги йўналишларни қамраб олиши мумкин:

- жамоат хавфсизлигини таъминлашда маҳаллаларнинг масъулиятини ошириш;

- полиция ва фуқаролар ўртасида ишончли ҳамкорлик механизмларини йўлга қўйиш;

- маҳаллий полиция бекатларини ташкил этиш ва уларнинг жамоат билан доимий мулоқотини таъминлаш;

- жиноятларни олдини олишда аҳолини фаол жалб қилиш.

учинчидан, жазонинг муқаррарлиги ва қатъий чоралар тизимини кучайтириш. Ўзбекистонда жазонинг муқаррарлигини ошириш мақсадида америкалик иқтисодчи Гэри Беккернинг “Жиноят ва жазо иқтисодиёти назарияси” ҳамда Бирлашган Араб Амирликларининг "ноль толерантлик" сиёсати тажрибаси асосида қонунчиликка ўзгартиришлар киритиш таклиф этилади.

Шу жумладан, Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодексида одам ўлдириш, гиёҳванд моддалар савдоси, уюшган жиноятчилик ва коррупцияга қарши қаратилган жиноятлар учун жазо чораларини кескин кучайтириш мақсадга мувофиқ;

Янги Ўзбекистонда жамоат хавфсизлигини таъминлаш бўйича замонавий ва халқаро амалиётларга асосланган чора-тадбирларни жорий этиш жиноятчиликка қарши курашиш самарадорлигини оширишга хизмат қилади. Таклиф этилаётган қонунчилик ислоҳотлари жиноятларни олдини олиш, жазонинг муқаррарлигини таъминлаш ва аҳоли билан ҳамкорликни кучайтиришга қаратилган.

Бу чоралар орқали мамлакатда жамоат хавфсизлигини таъминлашда янги механизмлар жорий қилиниб, ҳуқуқий тизим халқаро стандартларга мослаштирилади ва хавфсиз муҳитни шакллантириш имконияти яратилади.

тўртинчидан, Янги Ўзбекистонда коррупцияга қарши курашиш бўйича изчил чора-тадбирлар амалга оширилмоқда. Бу борада *“Коррупцияга қарши курашиш тўғрисида”ги қонун* коррупциянинг олдини олиш, уни фош этиш ва тизимли чоралар орқали камайтиришга қаратилган. Бироқ, халқаро тажриба шуни кўрсатмоқдаки, коррупцияга қарши курашишдаги ҳуқуқий базани янада такомиллаштириш, уни халқаро стандартларга мувофиқлаштириш долзарб аҳамият касб этади. Фикримизча, Қатар тажрибаси – “Qatar Anti-Corruption Law” ва *“Economic Crimes Law”* қонунлари коррупция ва иқтисодий жиноятларга қарши қатъий чораларни ўз ичига олган бўлиб, бу тажрибани Ўзбекистон қонунчилигига ҳам интеграция қилиш ижобий натижа беради. Ушбу қонунларда жорий этилган коррупцияга қарши кураш механизмларини кучайтириш, иқтисодий жиноятлар учун жазо чораларини кучайтириш ва

коррупция хавфини олдиндан аниқлаш ва мониторинг қилиш каби элементлар миллий қонунчиликка киритилиши мақсадга мувофиқдир. Хусусан:

- коррупция ва иқтисодий жиноятлар учун жазо чораларини кучайтириш, жумладан, катта миқдорда жарималар ёки озодликдан маҳрум этиш муддатларини узайтириш;

- коррупция билан боғлиқ жиноятлар фош этилганда суд жараёнларини шаффоф ва оммавий ахборот воситалари орқали ёритиш механизмини кучайтириш;

- коррупцияга қарши халқаро ташкилотлар, хусусан *Transparency International ва БМТнинг "Коррупцияга қарши курашиш бўйича глобал дастурлари"* га қўшилиш.

бешинчидан, жаҳондаги хавфсиз давлатлар – Андорра, БАА, Қатар ва Япония тажрибаси Ўзбекистон учун ўрнак бўлиши мумкин. Айниқса, қонун устуворлиги, *"ноль толерантлик"* сиёсати, рақамли хавфсизлик, смарт-технологиялардан фойдаланиш, жамоатчилик ва полиция ўртасидаги ҳамкорлик каби самарали чоралар жиноятчилик даражасини пасайтиришга хизмат қилади. Бунда:

- суд жараёнларини шаффофлаштириш ва жамоатчилик назоратини таъминлаш;

- коррупция хавфини олдиндан аниқлаш ва мониторинг қилиш механизмларини жорий этиш;

- рақамли хавфсизлик воситалари орқали коррупцияга қарши курашни кучайтириш.

Ўзбекистонда жамоат хавфсизлигини таъминлаш ва жиноятчиликка қарши курашишда халқаро тажрибалардан самарали фойдаланиш ҳамда ҳуқуқий ислоҳотларни такомиллаштириш долзарб аҳамият касб этади. Мамлакат хавфсизлигини таъминлаш мақсадида янги технологияларни жорий этиш, рақамли хавфсизлик воситаларини кенг қўллаш ва қонун устуворлигини мустаҳкамлаш орқали умумий хавфсизлик даражасини ошириш мумкин. Шу билан бирга, коррупцияга қарши миллий стратегияни ишлаб чиқиш ва халқаро дастурлар, жумладан, БМТ ҳамда "Transparency International" каби ташкилотлар билан ҳамкорликни ривожлантириш орқали хавфсизлик муҳитини яхшилашга эришиш мумкин. Бу эса жиноятчилик даражасини камайтириш ҳамда мамлакатнинг энг хавфсиз давлатлар қаторига киришига замин яратади.

ИЧКИ ИШЛАР ОРГАНЛАРИНИНГ ОММАВИЙ ТАДБИРЛАРНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ЖАРАЁНИДА ЖАМОАТ ХАВФСИЗЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШ БЎЙИЧА ВАЗИФАЛАРИ ТАҲЛИЛИ

Насиров Хуршид Рустамович
Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети мустақил изланувчиси.

Ички ишлар органлари жамоат хавфсизлигини таъминлашда муҳим вазифаларни бажаради, чунки уларнинг фаолияти жамиятдаги тартиб-интизом ва барқарорликни сақлашга қаратилган. Ушбу органлар хавфсизликни таъминлаш орқали фуқароларнинг ҳуқуқлари, эркинликлари ва ҳаёт сифатини ҳимоя қиладилар. Улар жамиятдаги қонунийлик ва тартибни сақлаш, жиноятчиликнинг олдини олиш, оммавий тадбирларни хавфсиз ташкил этиш ва фавқулодда вазиятларда самарали ҳаракат қилиш вазифаларини бажарадилар. Ички ишлар органларининг жамоат хавфсизлигини таъминлашдаги роли жамиятда барқарорлик, адолат ва тинчликни сақлаш учун муҳимдир.

Глобаллашув ва урбанизация жараёнлари ортидан катта одам тўпланишлари ва оммавий тадбирлар ўтказиш эҳтиёжи кўпаймоқда. Бу эса хавфсизлик чораларини юқори даражада таъминлашни талаб этади. Мазкур масаланинг долзарблигини қуйидаги омиллар билан боғлашимиз мумкин:

биринчидан, оммавий тадбирлар давомида катта тўпланиш ҳодисалари, назоратсизлик, ва тартибсизликлар хавфи юқори бўлади. Бу ҳолатларда ички ишлар органлари ҳаракатларининг самарадорлиги нафақат жамият тинчлигини сақлашга, балки давлатга бўлган ишончни мустаҳкамлашга хизмат қилади;

иккинчидан, халқаро миқёсда терроризм хавфининг ортиши ва уюшган жиноятчилик оммавий тадбирлар хавфсизлигини таъминлашни янада долзарб масалага айлантирди. Шу боис хавфларни олдиндан таҳлил қилиш, тезкор чора-тадбирлар ишлаб чиқиш муҳим аҳамиятга эга;

учинчидан, Янги Ўзбекистонда демократик ислоҳотлар жараёнида фуқароларнинг ҳуқуқ ва эркинликларини таъминлаш муҳим вазифа ҳисобланади. Шу муносабат билан оммавий тадбирларни ўтказиш ва жамоат хавфсизлигини таъминлаш бўйича қонунчилик асосларини такомиллаштириш долзарб вазифалардан бири ҳисобланади;

тўртинчидан, замонавий ахборот-коммуникация технологиялари, сунъий интеллект ва видео кузатув тизимларидан фойдаланиш хавфсизликни таъминлашда катта имкониятлар яратади. Шу боис, ички ишлар органлари учун технологик имкониятлардан самарали фойдаланиш муҳим масала ҳисобланади;

бешинчидан, бошқа давлатларнинг оммавий тадбирларни ташкил этишда жамоат хавфсизлигини таъминлаш бўйича илғор амалиётини ўрганиш ва миллий тизимга интеграция қилиш Ўзбекистон учун ҳам ҳуқуқий, ҳам амалий аҳамиятга эга;

олтинчидан, оммавий тадбирларнинг хавфсиз ўтишида фуқароларнинг ижтимоий ҳушёрлиги ва уларнинг ички ишлар органлари билан ҳамкорлиги

катта аҳамиятга эга. Бу жараённи янада самарали қилиш учун профилактика ишларини такомиллаштириш зарур.

И.Исмаилов ва М.Джураевларнинг фикрларига кўра, “ички ишлар органлари жамоат хавфсизлигини таъминлаш учун профилактик чора-тадбирларни ўтказади ва жиноятчиликни олдини олишга қаратилган тадбирларни амалга оширади. Ўзбекистонда бу мақсадга эришиш учун ислоҳотлар доирасида жамоат тартибини таъминлаш ва жиноятчиликка қарши кураш бўйича янги механизмлар жорий қилинди. Бунда маҳаллий даражада "маҳалла" тизимига асосланган назорат ва патрул хизматлари ташкил қилинган бўлиб, бу жамоат хавфсизлигини янада кучайтиришга хизмат қилади”[1].

И.Исмаилов ва М.Джураев фикрлари жамоат хавфсизлигини таъминлашда профилактика ва жиноятчиликнинг олдини олиш чораларининг аҳамиятини ёрқин акс эттиради. Улар таъкидлаганидек, маҳалла тизимига асосланган назорат ва патрул хизматлари хавфсизликни таъминлашда муҳим рол ўйнайди. Бу тизим жиноятчиликка қарши курашда самарали механизм бўлиб, аҳоли билан яқин алоқа ва ишончли муносабатларни таъминлайди.

Шунингдек, ислоҳотлар доирасида жорий этилган янги механизмлар жамоат хавфсизлигини кучайтиришга хизмат қилмоқда. Профилактик чора-тадбирлар нафақат жиноятчиликнинг олдини олади, балки жамоатчилик онгини оширишга ҳам ҳисса қўшади. И.Исмаилов ва М.Джураевнинг бу ёндашувлари жамоат тартиби ва хавфсизлигини таъминлашда замонавий ва самарали ечимлардан далолат беради.

Нега, Оммавий тадбирларда жамоат хавфсизлигини таъминлаш долзарб масала?

Оммавий тадбирларда жамоат хавфсизлигини таъминлаш қатор сабабларга кўра муҳим ва долзарбдир. Бу жамоат ҳаётининг турли жиҳатларига таъсир қилувчи масала бўлиб, хавфсизлик чоралари самарали ташкил этилмаган ҳолларда катта муаммолар ва хавфлар келиб чиқиши мумкин. Қуйида бу масаланинг аҳамияти асосланган:

Оммавий тадбирларда кўплаб инсонлар йиғилади, ва уларнинг хавфсизлиги учун мустаҳкам хавфсизлик чоралари талаб қилинади. Бундай тадбирларда жамоат тартибини таъминлаш жуда муҳимдир, чунки кичик бир низо ёки низо хавфли вазиятга айланиши ва жуда кўп инсонлар ҳаётига таъсир кўрсатиши мумкин. Масалан, халқаро тажрибалар шундан далолат берадики, жамоат тадбирларида хавфсизликни таъминлаш учун тизимли режалаштириш ва хавфсизлик тармоғини ташкил қилиш катта аҳамиятга эга. Шунингдек, бундай тадбирларда террорчилик хуружлари ёки ногаҳон хавфли вазиятларнинг олдини олиш мумкинлиги сабабли хавфсизликнинг устувор вазифалардан бири эканлиги тушунилади.

Бугунги кунда мамлакатимизда оммавий тадбирларни ташкил этиш ва ўтказиш тартиби Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2014 йил 29 июлдаги 205-сон “Оммавий тадбирларни ташкил этиш ва ўтказиш тартибини

[1] Isamiddin Ismailov; Mukhiddin Utkurovich Djuraev IMPROVING THE MANAGEMENT SYSTEM OF THE INTERNAL AFFAIRS BODIES IS A GUARANTEE OF THE EFFECTIVE ORGANIZATION OF THEIR ACTIVITIES. https://aijsh.com/wp-content/uploads/2021/12/11.22-Isamiddin-Ismailov-1.pdf

янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори билан тасдиқланган “Оммавий тадбирларни ўтказиш қоидалари”[1] билан Ўзбекистон Республикаси ҳудудида оммавий тадбирларни ташкил қилиш ва ўтказиш тартибини белгилайди ҳамда улар иштирокчилари, оммавий тадбирларни ўтказиш объектлари маъмуриятларининг, ички ишлар органлари, Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардияси бўлинмалари, шунингдек, давлат бошқа органларининг оммавий тадбирларни ўтказишда фуқароларнинг хавфсизлигини ва жамоат тартибини таъминлаш бўйича ўзаро муносабатлари, мажбуриятлари ва ҳуқуқларини тартибга солади.

2014 йил 29 июлда қабул қилинган мазкур қарор оммавий тадбирларни ташкил этиш ва ўтказиш тартибини янада такомиллаштиришга қаратилган. Унда:

фуқаролар хавфсизлигини таъминлаш;

жамоат тартибини сақлаш;

ҳуқуқий асосларни мустаҳкамлаш;

оммавий тадбирларда иштирок этиш ҳуқуқини кафолатлаш мақсад қилиб қўйилган.

Ушбу қарор билан оммавий тадбирларни ташкил этиш ва ўтказишда ички ишлар органларининг ваколатлари сифатида қуйидагилар белгиланган:

оммавий тадбирни ўтказиш объектига бориш жойларида физик тўсиқни ва рухсатнома билан ўтказиш режимини амалга ошириш, муҳандис-техник воситалардан фойдаланган ҳолда оммавий тадбирни ўтказиш объектини ва оммавий тадбирни ўтказиш объектига туташ ҳудудларни ўраб олиш чегараларини яратиш, оммавий тадбир иштирокчиларининг фотосуратга олинишини, аудио- ва видеоёзувини амалга ошириш;

оммавий тадбирнинг ташкилотчиси ва оммавий тадбирни ўтказиш объектининг маъмурияти томонидан рухсатномалар бўйича ўтказиш режимини амалга ошириш, томошабинлар ва бошқа иштирокчиларни трибуналар (секторлар, жойларда) чипталар (таклифномалар) бўйича жойлаштириш қоидаларига риоя этишни назорат қилиш;

оммавий тадбирни ўтказиш объектига туташ бўлган ҳудудларда транспорт воситаларининг текширувини, оммавий тадбир иштирокчиларининг шахсий текширувини ва улардаги буюмларнинг текширувини, шу жумладан техник ва махсус воситалар ёрдамида амалга ошириш. Оммавий тадбир иштирокчиси транспорт воситасининг текширувидан, шахсий текширувдан ёки ундаги буюмлар текширилишидан

[1] Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2014 йил 29 июлдаги 205-сон “Оммавий тадбирларни ташкил этиш ва ўтказиш тартибини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори билан тасдиқланган “Оммавий тадбирларни ўтказиш қоидалари” // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2014 й., 32-сон, 398-модда; 2015 й., 1-сон, 9-модда; Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 23.12.2017 й., 10/17/1001/0447-сон; 01.06.2018 й., 09/18/396/1287-сон, 30.10.2018 й., 09/18/884/2128-сон, 05.07.2019 й., 09/19/559/3384-сон, 11.08.2019 й., 09/19/661/3571-сон; 28.12.2020 й., 09/20/810/1673-сон; 09.01.2021 й., 09/21/7/0005-сон; Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 27.07.2021 й., 09/21/464/0710-сон; 22.02.2022 й., 09/22/86/0160-сон, 05.04.2022 й., 09/22/153/0266-сон; 15.08.2022 й., 09/22/444/0738-сон; 07.10.2023 й., 09/23/530/0757-сон; 29.06.2024 й., 09/24/360/0456-сон; 13.09.2024 й., 09/24/569/0714-сон

бош тортган тақдирда оммавий тадбир иштирокчиси (транспорт воситаси) оммавий тадбирни ўтказиш объектига қўйилмайди;

оммавий тадбирнинг ташкилотчисидан ва оммавий тадбирни ўтказиш объекти маъмуриятидан оммавий тадбир иштирокчиларини эвакуация қилиш йўлларининг бўшатилишини талаб қилиш;

оммавий тадбирни ўтказиш объекти маъмуриятидан томошабинлар ва оммавий тадбирнинг бошқа иштирокчилари билан кўргазмали тарғибот ўтказиш, маҳаллий ретрансляция тармоғи ва бошқа воситаларидан фойдаланиб оммавий тадбирни ўтказиш объектида ўзини тутиш қоидаларига риоя этиш масалалари бўйича тушунтириш ишларининг ўтказилишини талаб қилиш;

захира кучларини шакллантириш;

оммавий тадбирни ўтказиш объектида фавқулодда вазиятлар юзага келганда, манфаатдор вазирликлар ва идоралар билан биргаликда амалдаги махсус режаларга мувофиқ зарур чоралар кўриш;

Ички ишлар органлари қонунчиликка мувофиқ бошқа ҳуқуқлардан ҳам фойдаланишлари мумкин[1].

Юқорида келтирилган вазифалар ва ваколатлар оммавий тадбирларни ўтказишда ички ишлар органларининг жамоат хавфсизлигини таъминлаш бўйича ҳуқуқий асосларини ташкил этади. Бу ваколатларнинг ҳар бири муайян ҳуқуқий-амалий мақсадларга қаратилган. Ички ишлар органларининг ваколатлари жамоат хавфсизлигини таъминлаш, оммавий тадбирларда тартиб ва хавфсизликни кафолатлашга қаратилган. Ушбу ваколатлар қонунчилик асосида белгиланган бўлиб, уларнинг самарали ижроси оммавий тадбирларнинг тинч ва хавфсиз ўтишида ҳал қилувчи аҳамиятга эга. Бунда қонунчилик асосидаги чоралар ижтимоий барқарорликни сақлашнинг муҳим механизмларидан бири бўлиб хизмат қилади.

Мазкур ваколатлар оммавий тадбирларни, уларнинг аҳамияти, кўлами ва улар ўтказиладиган ҳудудга боғлиқ ҳолда алоҳида, биринчи ва иккинчи тоифалардаги тадбирларга бўлинишини белгилаш, оммавий тадбирлар ўтказилишини назорат қилиш комиссияларининг фаолиятини ички ишлар органлари ҳузурида ташкил этиш ҳамда уларнинг таркиби, мақоми ва ваколатларини белгилаш, алоҳида ва иккинчи тоифалардаги оммавий тадбирларни ўтказишда фуқароларнинг хавфсизлигини ва жамоат тартибини таъминлаш чора-тадбирлари ички ишлар органлари, биринчи тоифадаги оммавий тадбирлар Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардияси бўлинмалари томонидан амалга оширилишини таъминлаш нуқтаи назаридан Вазирлар Маҳкамасининг “Оммавий тадбирларни ўтказишда фуқаролар хавфсизлигини таъминлаш ҳамда жамоат тартибини сақлаш тизими такомиллаштирилиши муносабати билан Ўзбекистон Республикаси Ҳукуматининг айрим қарорларига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида”ги қарори[2] билан такомиллаштирилди.

---

[1] Ўша манба. 70-банд.

[2] Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 06.10.2023 йилдаги 530-сон “Оммавий тадбирларни ўтказишда фуқаролар хавфсизлигини таъминлаш ҳамда жамоат тартибини сақлаш тизими

Фикримизча, бугунги кун давр талабларидан келиб чиқиб, оммавий тадбирларни ўтказишда ички ишлар органларининг ваколатларини янада такомиллаштириш мақсадга мувофиқ.

Хусусан, оммавий тадбирларни ўтказишда ички ишлар органларининг ваколатларини такомиллаштириш мақсадида *сунъий интеллект ва интеллектуал кузатув тизимларини жорий этиш, фавқулодда ҳолатларга тезкор жавоб бериш учун кўчма штаблар ва махсус ҳаракат гуруҳларини ташкил қилиш, маҳалла, ННТлар ва маҳаллий жамоатчилик билан ҳамкорликда жамоат хавфсизлигини таъминлаш механизмларини мустаҳкамлаш, иштирокчилар ва ташкилотчилар учун хавфсизлик қоидалари бўйича мажбурий ўқув курсларини жорий этиш, дронлар орқали ҳудудларни мониторинг қилиш, транспорт воситалари хавфсизлигини назорат қилиш, ички ишлар органлари ходимларини махсус ўқув дастурлари орқали мунтазам равишда тайёрлаш, оммавий тадбирларда тартиббузарликлар учун аниқ жазо чораларини белгилаш, экологик хавфсизлик стандартларини жорий қилиш ва тадбирларнинг хавф-хатарларини баҳолаш тизимини яратиш* каби чораларни қонунчилик асосида жорий қилиш муҳим аҳамиятга эга.

Юқоридаги нормаларни қонунчиликка киритиш ички ишлар органларининг ваколатларини кенгайтириб, оммавий тадбирларни хавфсиз ўтказишда самарадорликни оширишга хизмат қилади. Бундай механизмлар жамоат хавфсизлигини янада юқори даражада таъминлашда муҳим ўрин тутади.

такомиллаштирилиши муносабати билан Ўзбекистон Республикаси Ҳукуматининг айрим қарорларига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида”ги қарори / Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 07.10.2023 й., 09/23/530/0757-сон.

ФУҚАРОЛИКНИ РАСМИЙЛАШТИРИШ ЖАРАЁНИНИНГ НАЗАРИЙ-ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ

Омонов Алим Толибович
Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети мустақил изланувчиси.

Демографик ўзгаришлар туфайли айрим давлатларда аҳоли сонининг ўсиши ёки қисқариши кузатилмоқда. Бу ўзгаришлар фуқароликка бўлган муносабатларни қайта кўриб чиқишни талаб қилади. Масалан, айрим давлатлар кўпроқ меҳнат мигрантларини қабул қилиш ва уларга фуқаролик бериш орқали иқтисодиётни ривожлантиришни кўзлайдилар.

Фуқароликсизлик жаҳонда долзарб муаммолардан бири бўлиб, миллионлаб шахслар фуқароликка эга эмас ва бу уларнинг ҳуқуқий, иқтисодий ва ижтимоий манфаатларига салбий таъсир кўрсатади. БМТнинг маълумотларига кўра, ҳозирги кунда 10 миллиондан ортиқ инсонлар фуқароликсизлик ҳолатида яшамоқда, бу эса уларнинг ҳуқуқларини ҳимоя қилишда жиддий қийинчиликларга олиб келади.

БМТнинг 2030 йилгача фуқароликсизликни тугатиш[1] мақсадлари асосида кўп давлатлар ўз қонунчилигини қайта кўриб чиқиб, фуқароликка эга бўлишни енгиллаштириш ва фуқароликсиз шахсларга ҳуқуқий ёрдам кўрсатиш чораларини амалга оширмоқдалар.

Шу ўринда Янги Ўзбекистондаги давлат сиёсати инсон ҳуқуқларини ҳимоя қилишга ва ижтимоий адолатни таъминлашга қаратилганлигини алоҳида таъкидлаш ўринлидир. Хусусан, Президент Шавкат Мирзиёев ташаббуси билан бир қатор фуқаролик ислоҳотлари амалга оширилмоқда. Бугунги кунда мамлакатда фуқароликсиз шахсларга фуқаролик бериш тартибларини соддалаштириш ва уларга қонуний ҳуқуқий мақом олиш имконияти яратилганлиги шулар жумласидандир. Статистик таҳлилларга назар ташласак, биргина 2020 йилнинг ўзида 50 минг шахсга фуқаролик берилган[2].

Шу ўринда тадқиқот ишининг моҳиятини тўлақонли тушунишимиз учун “фуқаролик”, “фуқароликни расмийлаштириш” каби тушунчаларини ҳам маҳаллий, ҳам хорижий ҳуқуқшунос олимларнинг илмий қарашларини таҳлил қилиш мақсадга мувофиқдир.

Хусусан, “фуқаролик” тушунчаси давлат ва шахс ўртасидаги мустаҳкам ҳуқуқий алоқа сифатида қаралади, бу шахсга муайян ҳуқуқ ва мажбуриятларни юклайди. Миллий ва хорижий ҳуқуқшунос олимлар фуқаролик тушунчасини турли хил ёндашувлар асосида таҳлил қилганлар, уларнинг қарашларини қуйида таҳлил қилиб ўтамиз. Ҳуқуқшунос олим Қ.Комилов, фуқароликни инсон ҳуқуқларини ҳимоя қилишда муҳим ҳуқуқий

[1] United Nations High Commissioner for Refugees (UNHCR). "Global Action Plan to End Statelessness: 2014-2024." UNHCR, 2014. – P. 68.

[2] https://nuqtainazar.uz/archives/10407 (мурожаат санаси: 15.10.2024).

механизм сифатида кўради. Унинг фикрига кўра, фуқаролик давлатнинг шахсга нисбатан ҳуқуқий кафолатларини белгилаб, ижтимоий адолат ва тенгликни таъминлашда катта роль ўйнайди[1], деган ғояни илгари сурган бўлса, ҳуқуқшунос олим А.Жўраев эса, фуқароликсизлик муаммосини ўрганиб, бу муаммони ҳал қилиш учун давлат қонунчилигини такомиллаштириш, фуқароликсиз шахсларга ҳуқуқий мақом бериш орқали давлатнинг инсон ҳуқуқларига бўлган муносабатини қайта кўриб чиқиш мумкин[2], деб таъкидлаган.

Ўзбек тилининг изоҳли луғатида “фуқаролик” тушунчасига “фуқаро (граждан) эканлик, фуқароларга оидлик, фуқаронинг ҳуқуқий ҳолати”[3] деб таъриф берилган. Академик Х.Рахмонқулов, “фуқаролик” – бу, ... инсоннинг унинг ўзидан ажралмас ҳуқуқ ва эркинлигидир[4] деган ғояни илгари сурган.

Шу билан бир қаторда, фуқаролик тушунчасига маҳаллий олимлар билан бир қаторда, хорижий олимлар ҳам ўз илмий асарларида муайян ғояларни илгари сурганлар. Хусусан, Ханна Арендт ўзининг "The Origins of Totalitarianism" асарида фуқароликни инсон ҳуқуқлари учун асосий ҳуқуқий шарт деб баҳолаб, фуқароликсизлик муаммосини инсон ҳуқуқларидан маҳрум қилишнинг энг ёмон кўриниши сифатида кўради[5]. Шунингдек, Томас Маршалл эса, “фуқаролик” тушунчасини ҳуқуқий, сиёсий ва ижтимоий жиҳатларда таҳлил қилган. У, фуқаролик нафақат шахснинг давлатдаги ҳуқуқий мақоми, балки унинг сиёсий иштироки ва ижтимоий кафолатлари[6], деб ҳисоблаган. Бундан ташқари Линда Босниак, фуқароликни анъанавий тушунчалардан фарқли тарзда инклюзив (кенг қамровли) деб қарашни таклиф қилади. Унинг фикрига кўра, “давлат фуқароликка эга бўлмаган шахсларни ҳам ҳуқуқий тизимига жалб қилиши лозим, уларга ижтимоий ва иқтисодий ҳуқуқлардан фойдаланиш имконини бериш керак”[7] деб таъкидлаган. Мазкур ҳуқуқшунослар орасида Дэвид Хелд, “фуқаролик” тушунчасини глобал даражада қайта кўриб чиқишни таклиф қилади. Унинг фикрига кўра, “фуқаролик нафақат давлат даражасидаги ҳуқуқ ва мажбуриятлар, балки халқаро муносабатлардаги ўзаро боғлиқликни ҳам ўз ичига олиши керак”[8].

Америкалик ҳуқуқшунос олим Jerald L.Neumannинг фикрича, “фуқаролик” атамаси ҳуқуқ, сиёсат назарияси ва социологияда бир-бири билан боғлиқ бўлган кўплаб ма’ноларга эга бўлиб, у мақом, муносабатлар, фаолият

---

[1] Комилов Қ. "Ўзбекистонда фуқаролик тўғрисидаги қонунчилик ва уни такомиллаштириш йўллари." Қонунчилик масалалари журнали, №4, 2020 йил. –16 б.

[2] Жўраев А. "Фуқароликсиз шахсларнинг ҳуқуқий мақоми ва уларни ҳимоя қилиш." Инсон ҳуқуқлари журнали, 2019 йил. –31 б.

[3] https://n.ziyouz.com/books/uzbek_tilining_izohli_lugati/O'zbek%20tilining%20izohli%-20lug'ati%20-%20F.pdf.

[4] Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик кодексига шарҳ. 1-жилд (биринчи қисм) Адлия вазирлиги. – Т.: «Vektor-Press», 2010.– 12-б.

[5] Arendt, H. "The Origins of Totalitarianism." Harcourt, Brace & Company, 1951. – P. 83.

[6] Marshall, T.H. "Citizenship and Social Class." Cambridge University Press, 1950. – P. 31.

[7] Bosniak, L. "The Citizen and the Alien: Dilemmas of Contemporary Membership." Princeton University Press, 2006. – P. 57.

[8] Held, D. "Global Covenant: The Social Democratic Alternative to the Washington Consensus." Polity Press, 2004. – P.12.

ёки ҳуқуқлар тўплами ёки мажбуриятлар тўпламини англатиши мумкин[1] дейди.

Юқорида “фуқаролик” тушунчаси, унинг ижтимоий, сиёсий ва ҳуқуқий асослари ҳақидаги қарашлар турли олимлар томонидан ҳар хил ёндошувларда таҳлил қилинган. Миллий олимлар, жумладан, Қ.Комилов ва А.Жўраев ҳамда хорижий олимлар, масалан, Ханна Арендт, Томас Маршалл, Линда Босниак ва Дэвид Хелднинг фикрлари ўзаро мувофиқ ва қарама-қарши томонларни ҳам ўз ичига олган.

Фуқаролик тушунчасига турли хил илмий ёндашувларнинг мавжудлиги унинг мураккаблигини ва кенг қамровлилигини кўрсатади. Миллий даражадаги фуқаролик моделлари ижтимоий адолат ва тенгликни таъминлаш учун асос бўлиб хизмат қилади, лекин уларнинг эксклюзив табиати айрим шахсларни ҳуқуқлардан маҳрум қилади. Глобализация даврида эса фуқаролик инклюзив ва халқаро муносабатларга мослашган шаклда қайта кўриб чиқилиши талаб қилинади. Бу жараёнда давлатлар ўз суверенитетини сақлаш ва ижтимоий адолатни таъминлаш ўртасидаги мувозанатни топишлари лозим.

Шундай қилиб, Қ.Комилов, А.Жўраев, Ханна Арендт, Томас Маршалл, Линда Босниак ва Дэвид Хелднинг фикрлари орасидаги илмий полемикалар фуқаролик тушунчасининг замонавий дунёдаги ролини чуқурроқ ўрганишга имкон беради. Уларнинг турли хил ёндашувлари фуқароликнинг ижтимоий адолат, инсон ҳуқуқлари, инклюзивлик ва глобаллашув шароитларидаги ўрнини таҳлил қилишда катта аҳамият касб этади. Бугунги кунда ҳам маҳаллий ҳам хорижий олимларнинг илмий асарларида “фуқаролик” тушунчасига илмий таърифлар берилган бўлсада аммо, амалда бўлган “Ўзбекистон Республикасининг фуқаролиги тўғрисида”ги қонун[2]нинг “Асосий тушунчалар” деб номланган 3-моддасида “фуқаролик” ва “фуқароликни расмийлаштириш” тушунчаларига ягона илмий доктринал таъриф берилмаганлиги кузатиш мумкин. Мазкур ҳуқуқий бўшлиқ келажакда янги Ўзбекистоннинг тараққиёти йўлида нормалар қўлланилиши билан боғлиқ **қатор салбий ҳолатларга** юзага келишига сабаб бўлиши мумкин. Буларга:

биринчидан, Ҳуқуқий ноаниқлик билан боғлиқ муаммолар *(фуқаролик тушунчасига аниқ ва келишилган доктринал таърифнинг мавжуд эмаслиги турли давлатлар ва ҳуқуқий тизимларда бу тушунчанинг турлича талқин қилинишига олиб келади. Бу эса ҳуқуқий ноаниқликка сабаб бўлади, чунки фуқаролик тушунчасини ҳар хил ўқиш ва тушуниш амалдаги қонунчиликда зиддиятларга, келишмовчиликларга ва ноаниқ ҳолатларга олиб келиши мумкин. Бунинг натижасида, ҳуқуқий ноаниқлик фуқароларнинг ҳуқуқларини ҳимоя қилишда ва уларнинг давлат билан бўлган муносабатларини тартибга солишда қийинчиликлар келтириб чиқаради. бу фуқароликни олиш ёки йўқотиш жараёнларида бюрократик тўсиқлар ва муаммоларни ҳам пайдо бўлади);*

[1] https://academic.oup.com/edited-volume/43727/chapter-abstract/367619824?redirected-From=fulltext&login=false

[2] Ўзбекистон Республикасининг фуқаролиги тўғрисидаги қонун // lex.uz.

иккинчидан, Инсон ҳуқуқлари ва ижтимоий адолатнинг бузилиши билан боғлиқ муаммо *(фуқаролик тушунчасининг аниқ таърифланмагани инсон ҳуқуқларини ҳимоя қилиш ва ижтимоий адолатни таъминлаш учун муҳим бўлган ҳуқуқий кафолатларнинг бўшлиғини юзага келтиради. Бундай шароитда фуқароликка эга бўлиш ёки ундан маҳрум бўлиш масалалари ноаниқ ва адолатсиз қарорларга олиб келиши мумкин. Натижада, инсон ҳуқуқлари бузилиши, айниқса, фуқароликсизлик муаммоси билан боғлиқ ҳолатларда, инсонларни ҳуқуқлардан маҳрум қилишга олиб келади. Масалан, қочқинлар ва мигрантлар фуқаролик тушунчасининг ноаниқлиги туфайли ҳимоясиз қолиши ва ижтимоий адолатни таъминлашда қийинчилик юзага келади);*

учинчидан, Фуқароларнинг сиёсий иштирокига салбий таъсири билан боғлиқ муаммо *(аниқ доктринал таърифнинг йўқлиги фуқароларнинг сиёсий ҳуқуқларини фаол ҳимоя қилишни қийинлаштиради. Давлатлар фуқароларнинг сиёсий ҳаётдаги иштирокига нисбатан турли чекловлар киритиш имкониятига эга бўлиши мумкин. Натижада, сиёсий фаолликнинг пасайиши, фуқароларнинг давлат бошқарувига ишончсизлиги ва сиёсий иштирокнинг чекланганлиги кузатилади. Бу эса жамиятда демократик қадриятларнинг заифлашишига олиб келади);*

тўртинчидан, Қонунчиликдаги зиддиятлар ва қийинчиликлар билан боғлиқ муаммо *(доктринал таърифнинг йўқлиги қонунчиликда турли хил тушунчалар ва нормаларнинг қўлланилишига олиб келади. Бу эса қонунларда зиддиятларнинг пайдо бўлишига ва уларнинг амалга оширилишида қийинчиликлар келиб чиқишига сабаб бўлади. Натижада, қонунчиликнинг нотўғри қўлланилиши ва унга амал қилишдаги муаммолар фуқароларнинг ҳуқуқларини самарали ҳимоя қилиш имкониятига тўсқинлик қилади. Бу эса қонунчилик тизимини мустаҳкамлаш учун қўшимча ресурс ва вақт талаб қилади);*

бешинчидан, Фуқаролик ва миграция сиёсати билан боғлиқ муаммо *(фуқаролик тушунчасининг аниқ таърифланмагани миграция сиёсатини самарали ташкил қилишга ҳам салбий таъсир қилади. Бу қочқинлар, меҳнат мигрантлари ва бошқа жамоалар учун ҳуқуқий муносабатларни тартибга солишда қийинчиликларни келтириб чиқаради. Натижада мигрантлар ва қочқинлар фуқароликка эга бўлмасликлари сабабли ҳуқуқий ҳимоя ва ижтимоий хизматлардан фойдалана олмайдилар. Бу эса жамиятда ижтимоий тенглик ва инклюзивликнинг бузилишига олиб келади, шунингдек, халқаро ҳамжамиятда муаммоларни ҳал қилишни қийинлаштиради);*

олтинчидан, Фуқароликни сотиб олиш ёки йўқотишнинг ноаниқ механизмлари *(аниқ доктринал таъриф йўқлиги фуқароликни сотиб олиш ёки йўқотишдаги расмий механизмларнинг нотўғри ёки турлича қўлланилишига олиб келади. Бу шахсларга адолатсизлик қилиш, фуқароликни ўйин воситасига айлантириш ҳолатларини келтириб чиқариши мумкин. Натижада, фуқароликни қонуний равишда олиш ёки йўқотиш учун бир хил қоидалар ва мезонларнинг бўлмаслиги бюрократик муаммоларга, коррупция ҳолатларига, ёки айрим шахсларнинг ҳуқуқларини бузишга сабаб бўлиши мумкин. Бу эса давлатнинг фуқаролар билан муносабатларида ишончсизликни кучайтиради).*

Илмий тадқиқот даврида санаб ўтилган муаммолардан келиб чиқиб, шундай хулоса қилиш мумкинки, “фуқаролик” тушунчасига аниқ ва келишилган доктринал таърифнинг йўқлиги жамиятда ҳуқуқий ноаниқлик, адолацизлик, ижтимоий тенгсизлик ва сиёсий назоратнинг мустаҳкамланишига олиб келиши мумкин. Шунинг учун “фуқаролик” тушунчаси замонавий дунёда ҳар бир давлат ва халқаро ҳамжамият учун аниқ таъриф ва механизмлар билан таъминланиши муҳимдир. Бу эса фуқароларнинг ҳуқуқларини ҳимоя қилишда самарадорликни ошириш, ижтимоий адолат ва тенгликни таъминлаш ҳамда демократик қадриятларни мустаҳкамлашга ҳисса қўшади.

Юқоридаги таҳлилий фикрлардан келиб чиқиб, “Ўзбекистон Республикасининг фуқаролиги тўғрисида”ги қонун[1]нинг “Асосий тушунчалар” деб номланган 3-моддасида “*фуқаролик” ва “фуқароликни расмийлаштириш” тушунчаларини киритиш ва қуйидаги мазмунда илмий таъриф бериш мақсадга мувофиқдир:*

***биринчи**, “Фуқаролик” – бу шахснинг муайян давлат билан бўлган мустаҳкам ҳуқуқий, сиёсий ва ижтимоий алоқасини ифодаловчи мақом бўлиб, унга давлат томонидан ҳуқуқлар, мажбуриятлар ва ҳуқуқий кафолатлар берилган ҳолатдир”;*

***иккинчи**, “Фуқароликни расмийлаштириш” – бу шахснинг давлат билан бўлган ҳуқуқий боғлиқлигини қонуний асосда тартибга солувчи жараёндир”[2].*

Мазкур таърифлар келажакда янги Ўзбекистон давлатини ҳалқаро жамият олдида қуйидаги йўналишларни янада такомиллаштириш орқали нуфузини янада ортишига хизмат қилади. Мазкур таклифларга:

***биринчидан**, <u>янги Ўзбекистонда инсон ҳуқуқларини янада мустаҳкам ҳимоя қилиш йўналишида</u> (фуқароликнинг ҳуқуқий ва сиёсий алоқаси шахснинг давлат ҳимояси остида бўлишини таъминлайди. Бу эса давлат томонидан инсон ҳуқуқларининг тўлиқ ва самарали ҳимоя қилинишига асос бўлади. Натижада, ҳар бир фуқаро ўз ҳуқуқларидан эркин фойдаланиш ва ҳуқуқбузарликларга қарши қонуний ҳимоя олиш имкониятига эга бўлади);*

***иккинчидан,** <u>ижтимоий адолат ва тенгликнинг қонуний мустаҳкамланиши</u> (фуқаролик давлатнинг шахсга нисбатан ҳуқуқий кафолатларини белгилагани учун ижтимоий адолат ва тенгликни таъминлашда муҳим ўрин тутади. Ҳар бир фуқаро давлатнинг ижтимоий ва иқтисодий ресурсларидан фойдаланиш, ижтимоий ҳимоя дастурларидан баҳраманд бўлиш ҳуқуқига эга бўлади. Бу эса ижтимоий фаровонликнинг ошишига хизмат қилади);*

***учинчидан,** <u>сиёсий иштирокни фаоллаштириш йўналишида</u> (фуқаролик шахсга давлат бошқарувида фаол иштирок этиш ҳуқуқини беради. Бу сайловларда қатнашиш, сиёсий ташкилотларга аъзо бўлиш ёки давлат органларига мурожаат қилиш ҳуқуқларини ўз ичига олади. Натижада,*

[1] Ўзбекистон Республикасининг фуқаролиги тўғрисидаги қонун // lex.uz/

[2] Ушбу таърифлар тадқиқот иши юзасидан шакллантирилган муаллифлик таърифидир.

жамиятда фаол сиёсий иштирок этиш кўникмалари ривожланади, бу эса давлат бошқарувини шаффоф ва самарали қилишга хизмат қилади);

тўртинчидан, инклюзив жамият қуриш йўналишида *(замонавий дунёда фуқаролик тушунчасининг инклюзивлиги кутилган натижа сифатида эътироф этилади. Давлатлар фуқароликка эга бўлмаган шахсларга ҳам ижтимоий ва иқтисодий ҳуқуқлардан фойдаланиш имкониятини бериши лозим. Бу ҳолат фуқароликнинг кенг қамровли тушунчасини шакллантиради ва жамиятда ижтимоий тенглик ва адолатни таъминлашга хизмат қилади);*

бешинчидан, фуқароликнинг глобал масъулиятлари ва ҳуқуқларини таъминлаш йўналишида *(глобализация жараёнлари давомида фуқаролик нафақат миллий, балки халқаро даражада ҳам ҳуқуқ ва мажбуриятларни ўз ичига олган тушунчага айланади. Келажакда фуқаролар халқаро муносабатларда ҳам ўз ҳуқуқ ва мажбуриятларини тўлиқ англайди ва улардан фойдаланишга интилади. Бу эса давлатлар ўртасидаги ҳамкорликни мустаҳкамлашга хизмат қилади);*

олтинчидан, миграция сиёсатининг тартибга солиш йўналишида *(фуқароликнинг ҳуқуқий ва сиёсий алоқаси миграция сиёсатини тўғри ташкил қилишда муҳим аҳамиятга эга бўлади. Келажакда фуқароликка эга бўлиш ёки уни йўқотиш билан боғлиқ қонуний механизмлар такомиллаштирилади, бу эса трансмиллий миграция жараёнларини тартибга солишга ёрдам беради);*

еттинчидан, давлат суверенитетини таъминлаш йўналишида *(фуқаролик шахснинг давлатга нисбатан ҳуқуқий боғлиқлигини белгилайдиган механизм сифатида келажакда давлат суверенитетини ҳимоя қилишда муҳим роль ўйнайди. Лекин шу билан бирга, шахснинг универсал ҳуқуқлари ва эркинликларини ҳам мустаҳкамлаш талаб қилинади. Бу мувозанат келажакда давлатлар томонидан инсон ҳуқуқларини ҳимоя қилиш борасида илғор қадамларни қўйишини талаб қилади).*

Мазкур таклифлар, келажакда фуқаролик ва фуқароликни расмийлаштириш тушунчаларининг мустаҳкам ҳуқуқий, сиёсий ва ижтимоий алоқаларга асосланиши, шунингдек, келажакда шахсларнинг давлат билан бўлган муносабатларини янада мустаҳкамлашга хизмат қилади. Бундан ташқари, ҳар бир давлат фуқароларнинг ҳуқуқларини ҳимоя қилишда самарали механизмларни ишлаб чиқади, ижтимоий адолат ва тенглик таъминланади, фуқароларнинг сиёсий фаоллиги ошади ва жамиятда инклюзивликни мустаҳкамлаш имконияти пайдо бўлади.

YO’L HARAKATI XAVFSIZLIGINI AMALGA OSHIRISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR

Bozorov Seyman Sherali o‘g‘li
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Maxsus fakultet talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekistonda yo‘l harakati xavfsizligini oshirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar, shuningdek, bu boradagi huquqiy asoslar tahlil qilingan. Shuningdek, yangi innovatsion samaradorlikka ega takliflar va e’tibor qaratilishi lozim bo‘lgan talablar muhokama qilingan. Maqola doirasida yo‘l harakati xavfsizligini oshirishga doir takliflar va ilgari surilgan yondashuvlar o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: yo‘l harakati xavfsizligi, 12 ballik tizim, innovatsion yondashuv, huquqiy mexanizmlar, bilimlar tashabbuslari, me’yoriy huquq, transport nazorati.

Аннотация: В данной статье проанализированы меры, принимаемые в Узбекистане для повышения безопасности дорожного движения, а также правовые основы в этой области. Также обсуждаются новые инновационные предложения и требования, на которые следует обратить внимание. В рамках статьи изучаются предложения и подходы, направленные на повышение безопасности дорожного движения.

Ключевые слова: безопасность дорожного движения, 12-балльная система, инновационный подход, правовые механизмы, инициативы знаний, нормативное право, транспортный контроль.

Izlanishlarga ko’ra, yo’l harakati xavfsizligi deganda yo’l harakati qatnashchilarining halok bo’lishi yoki jiddiy jarohatlanishining oldini olish uchun harakatni tinchantirish kabi usullar va choralar tushuniladi. Odatda yo’l foydalanuvchilariga piyodalar, velosipedchilar, avtoulovlar transport vositalarining yo’lovchilari va asosan avtobuslar va tramvaylar kiradi. Ushbu yo’l foydalanuvchilarining har birining bajargan individual harakatlari va harakatlanish davomida yo’l qo’ygan xatoliklari bevosita bir-birlarining hayoti va salomatligiga ta’sir ko’rsatishi ularning yo’l harakti xavfsizligi yuzasidan dolzarb hisoblanadi. Yo’l transport hodisalari dunyodagi eng kata sog’liqni saqlash va jarohatlarni oldini olish muammolaridan biriga aylangan. Jahon sog’liqni saqlash tashkiloti(JSST) ma’lumotlariga ko’ra har yili dunyoda 1 milliondan ortiq odam yo’llarda halok bo’ladi. 2004-yilda JSST tomonidane’lon qilingan hisobotda har yili dunyo bo’ylab yo’llardagi to’qnashuvlarda 1,2 million kishi halok bo’lgan va 50 million kishi jarohatlangani taxmin qilingan. Yo’l harakati xavfsizligini ta’minlash maqsaadida yo’llarni uchta foydalanish turiga bo’lish maqsadga muvofiqdir:

1) Sekinroq tezlik, kata zichlik va yo'l foydalanuvchilari orasida ko'proq xilma-xillikka ega qurilgan shahar ko'chalari

2) Yuqori tezlikka ega bo'lmagan qishloq yo'llari

3) Avtotransport vositalari uchun ajratilgan va ko'pincha avariyalarni minimallashtirish va yumshatish uchun mo'ljallangan yirik magistrallar (avtomobil yo'llari/shtatlararo /avtomagistrallar/avtobanlar , avtostrad va boshqalar)

Ko'pincha jarohatlar shahar ko'chalarida sodir bo'ladi, lekin ko'pincha o'lim holatlari qishloq yo'llarida sodir bo'ladi, avtomobil yo'llari esa bosib o'tgan masofaga nisbatan eng xavfsiz hisoblanadi. Bugungi avtoulovlar ko'payib borayotgan hayotimizda yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash qoida buzilish holatlarini tartibga solish dolzarb masalaga aylangan [1]

O'rganishlarga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 8-iyuldagi 377-sonli "Yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash sohasida zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga ko'ra O'zbekiston Respublikasida yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash, yo'l transport hodisalarini oldini olish huquqbuzarliklarni o'z vaqtida aniqlash va ularga barham berishni ta'minlaydigan yo'l harakatini avtomatlahtirilgan tartibga solish tizimini kengaytirish bo'yicha ichki ishlar organlarining faoliyatini sifat jihatidan yangi tartibi belgilandi. Ushbu qaror asosida qarizdorlik aniqlangan transport vositalariga quyidagi hollarda harakatni davom ettirishga ruhsat beriladi:

1) Transport vositasi to'xtatilgan vaqtdan e'tiboran ko'pi bilan 30 daqiqa ichida qarzdorlikka oid batafsil ma'lumot olish imkoniyati bo'lmasa yoxud postlarda tashkil etilgan bank terminallari ishlamayotgan yoki aniqlangan qarzdorliklar bo'yicha to'lovni qonun hujjatlarida belgilangan boshqacha tartibda amalga oshirish imkoniyati bo'lmagan hollarda;

2) Aniqlangan qarzdorliklarga asos bo'lgan qoidabuzarliklar yuzasidan sudga murojaat qilingan yoki ish sudda ko'rilayotgan hollarda; (bunda ish yuzasidan sudning qarori qonuniy kuchga kirgan hollar mustasno.)

3) Transport vositasida shoshilinch tibbiy yordamga muhtoj shaxs bo'lganda

4) Favqulotda vaziyatlarda (tabiiy ofat, texnogen halokat yong'in)da yuk yoki odamlarni tashish hollarida

5) Transportdan marhumni tashish uchun foydalanilayotgan yoki dafn marosimiga ishtirok etish uchun ketayotgan hollarda [2]

Yuqoridagi qaror ijrosini ta'minlash maqsadida raqamli va innovatsion axborot texnologiyalari xususan "Radar" va " Multi radar" qurilmalari qo'llanilib, ushbu qurilmalar yo'llardagi avtomobillar tomonidan amalga oshirilgan qoidabuzarliklarni tartibga solishda yo'l harakati xodimlariga yaqindan yordam

bermoqda. Yo'l harakati sohasida bu kabi sun'iy intellektli qurilmlarning rivojlanishi uning innovatsion jarayoniga imkon beradi hamda xavfsizlikni ta'minlash qulay amalga oshiriladi. Shubhasiz sun'iy intellekt barcha muommoli masalalarni hal qila olmaydi. Yo'l bilan harakatning xavfsizligini ta'minlash va xavfsiz ishlatish uchun imkon beradi, mavjud ma'lumotlarning kata qismini qayta ishlashni osonlikcha avtomatlashtirish yo'l harakati qatnashchilari, transport harakatining soni va huquqbuzarliklarni aniqliligi va sifatli tahlilini tasddiqlashga imkon beradi. Yo'l harakati xavfsizligini ta'minlashning eng muammoli tomonlarini aniqlshga va ularning yechimlarini ishlab chiqish, xavfsiz harakatni ta'minlashga doir huquqiy hujjatlarni bir-biri bilan intellektual o'zaro ta'siriga samarali transport va boshqa yo'l infratuzilmasi hamda shu bilan bir qatorda avtohalokatlarda halok bo'lganlar va zararlanganlar soni minimal darajasiga yetkazilishiga ko'mak beradi.

Sun'iy intellektning rivojlanishi bilan bog'liq texnologik taraqqiyot bir tomondan yo'l harakati sohasida sun'iy intellekt texnologiyalarini ishlab chiqish va uning xavfsizligini ta'minlash, ikkinchi tomondan, huquqlari va himoyasini ta'minlash yo'l harakati qatnashchilrining qonuniy manfaatlarini yuzaga kelishi mumkin bo'lgan tahdidlardan himoya qilishda yordam beradi. Sun'iy intellekt texnologiyalarini faol ishlab chiqish va joriy etish ko'rib chiqilayotgan maydonni ta'minlash uchun vositadir, mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning strategik vazifalarini muvofaqqiyatli amalga oshirish rivojlangan davlatlar qatoriga kirishga imkon yaratadi [3]

O'zbekistonda yo'l harakati sohasidagi amalga oshirilayotgan o'zgarishlardan yana biri bu haydovchilarga nisbatan jarima ballarini hisoblash tizimini joriy etishni ko'zda tutuvchi qonun loyihasi qabul qilinayotganligi bo'ldi. Unga ko'ra bir yil davomida jarima ballari 12 balga yetgan haydovchilar kamida 6 oyga haydovchilik huquqidan mahrum qilinishi mumkin. Oliy Majlis Senati " Yo'l harakati xavfsizligi tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat va Jinoyat-protsessual kodekslariga hamda O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy Javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish haqida"gi qonunni qayta ko'rib chiqdi. Qonunchilik Palatasi bu hujjatni 2023-yil 28-noyabr kuni qabul qilgan. Hujjatni Senat birinchi marta 2024-yil 16-avgust kuni ko'rib chiqdi. O'sha majlisda Senat qonunni takomillashtirish va yakunlash uchun Senat va Qonunchilik Palatasining kelishuv komissiyasiga qaytargan edi. Ushbu tizim 2022-yil 1-dekabrda ishga tushishi kerak edi. Biroq tizim ishga tushishi kechikdi. 2022-yil dekabrda YHXX boshlig'i Olim Saidov "Gazeta.uz" muhbiri bilan suhbatda qoida buzgan haydovchilarga jarima ballarini hisoblash tizimi qonunchilik masalasi ekanini aytib o'tgan.

Jarima ballari qoidabuzarliklar uchun belgilangan jarima puli aniqroq aytilsa bazaviy hisoblah miqdoriga qarab belgilanadi. Bunda BHMning 1 baravariga 0,5

ball beriladi. Bir qoidabuzarlik uchun maksimal 5 ball hisoblanishi mumkin. Ballarni hisoblash birinchi qoidabuzarlik sodir etilgan sanadan boshlab bir yil davomida olib boriladi

Jarima ballarini haydovchilar mobil ilova orqali kuzatib borishlari mumkin bo'ladi. Tizim shunday yo'lga qo'yilganki birinchi jarimangiz haqida mobil iova yoki SMS orqali habar beriladi. Jarima ballari 8 ballga yetganda haydovchi rasmiy ravishda ogohlantiriladi

Jarima ballari 12 balldan oshgandan so'ng hujjatlar to'plami sudga taqdim etiladi. Haydovchini atomobil boshqarish huquqidan faqat sud qaroriga asosan 3 yilgacha bo'lgan muddatga mahrum etilishi mumkin.

1 yil davomida qoida buzmagan haydovchilarga keying yil hisobidan birinchi sodir etilgan huquqbuzarlik uchun 2 ball hisoblanmaydi.

Qoidabuzarlikni ijara asosida avtomobil haydayotgan shaxs buzsa lekin jarima bali transport egasiga yozilgan taqdirda tomonlar qoidabuzarlikni kim sodir etgani haqida tegishli hujjatlarni taqdim etadi shundan so'ng jarima ballari qoidani buzgan shaxs nomiga yoziladi. [4]

Yuqoridagi o'rganishlardan kelib chiqib quyidagi takliflarni berish mumkin:

1) Tizimning samarali ishlashini ta'minlash uchun huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish 12 ballik tizimning joriy etilishi bilan bog'liq hujjatlarni yanada aniqroq belgilash jarimalarni hisoblash mexanizmini shaffoflashtirish zarur.

2) Raqamli texnologiyalarni kengroq tadbiq etish – yangi tizimni sun'iy intellekt avtomatlashtirilgan nazorat kameralaridan keng foydalanish orqali yanada samarali qilish lozim.

3) Aholining huquqiy savodxonligini oshirish haydovchilarning yangi tizim haqida to'liq ma'umotga ega bo'lishlari uchun ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar va ta'lim dasturlari orqali keng targ'ibot ishlarini olib borish lozim.

4) Yoshlarning innovatsion loyihalarini qo'llab-quvvatlash – Talabalar va yosh mutaxassislarning yo'l harakati xavfsizligi bo'yicha innovatsion tashabbuslarini rag'batlantirish, ushbu sohada ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish zarur.

Xulosa qilib aytganda yurtimizda joriy etilish arafasida bo'lgan 12 ballik tizim yo'l harakati qoidalariga rioya etish madaniyatini oshirish va huquqbuzarliklarni kamaytirish maqsadida ishlab chiqilgan. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki ballik tizimni joriy etilishi yo'l harakati qoidabuzarliklarini kamaytirishda samarali vositalardan biridir. O'zbekistondagi ushbu tizim ham ma'muriy huquq nuqta'i nazaridan haydovchilarga nisbatan intizomiy ta'sir choralarini tizimli ravishda qo'llashga xizmat qiladi. Yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash nafaqat davlat

organlarining, balki jamiyatning barcha qatlamlari ishtirokida amalga oshirilishi lozim bo'lgan murakkab jarayondir. Shuningdek, avtomatlashtirilgan nazorat tizimlarining keng joriy etilishi masalan, yo'l kuzatuv kameralarining takomillashtirilishi, raqamli ma'lumotlar bazasining yaratilihi va jarima tizimining optimallashtirilishi yo'l harakati xavfsizligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bunday mexanizmlar yo'l harakatining tartibga solinishini yaxshilash, transport vositalarining intizomli harakatlanishini ta'minlash va inson omili sabab bo'ladigan avariyalar sonini kamaytirishga qaratilgan. Yo'l harakati xavfsizligini oshirishda nafaqat texnologik innovatsiyalar balki, huquqiy islohotlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, yo'l harakati qoidalarining buzilishiuchun javobgarlikni kuchaytirish, qonun hujjatlarining xalqaro tajribaga asoslangan holda takomillashtirilishi va har bir fuqaroning yo'l harakati qoidalariga rioya etishi borasidagi huquqiy ongini yuksaltirish muhimdir. Bu borada aholining huquqiy madaniyatini oshirish yo'l harakati xavfsizligi bo'yicha muntazam targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borish ham dolzarb hisoblanadi. Yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash kompleks yondashuvni talab etadi. Texnologik yechimlar, huquqiy mexanizmlar va ta'lim-targ'ibot choralari uyg'unlashgan taqdirdagina mamlakatimizda yo'l harakati madaniyatini rivojlantirish va insonlarning hayotini saqlab qolish imkoniyati yanada ortadi. Shu sababli bu borada davlat va jamoatchilik hamkorligini kuchaytirish, ilg'or innovatsion yondashuvlardan samarali foydalanish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qoladi. Shu sababli davlat organlari, transport sohasi mutaxassislari va fuqarolik jamiyati institutlari o'zaro hamkorlikda ishlashi muhim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Vikipediya: Road traffic safety https://en.m.wikipedia.org/wiki/Road_traffic_safety
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 377-sonli qarori 08.07.2022-yil https://lex.uz/docs/-6103347?ONDATE=08.07.2022%2000
3. Yangi O'zbekiston talabalari axborotnomasi 3-bet 25.05.2023-yil https://in-academy.uz/index.php/yota/article/download/15407/10712/12750
4. Gazetauzning 24-yanvar 2025-yilgi soni https://www.gazeta.uz/oz/2025/01/24/jarima-ballari/

MAXSUS VOSITALARNI QO‘LLASH BO‘YICHA O‘QITISHNING HUQUQIY JIHATLARI

Yunusov Davronbek Bekmirza o‘g‘li
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Oliy ta’limdan keyingi ta’lim fakulteti doktoranti, kapitan.

Bugungi kunda jamoat xavfsizligini ta’minlash, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish demokratik huquqiy davlatning eng muhim vazifalaridan biri. Mazkur vazifani amalga oshirishda huquqni muhofaza qiluvchi organlar alohida o‘rin tutadi.

Jamoat xavfsizligini ta’minlash va inson huquqlarini himoya qilish o‘rtasidagi muvozanatni saqlash eng dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Bir tomondan, davlat o‘z fuqarolarining tinchligi va osoyishtaligini ta’minlashi, jinoyatchilikka qarshi kurashishi lozim. Boshqa tomondan esa, davlat jamoat xavfsizligini ta’minlashda ma’lum bir majburlov choralarini qo‘llaydi. Harbiy xizmatchilar tomonidan jamoat xavfsizligini ta’minlash vaqtida maxsus vositalarni noto‘g‘ri qo‘llash inson huquqlarini buzilishiga olib keladi, shu sababli ham maxsus vositalarni to‘g‘ri va qonuniy qo‘llash katta ahamiyat kasb etadi.

Harbiy xizmatchilar tomonidan maxsus vositalarni qo‘llash bo‘yicha o‘qitish jarayoni nafaqat amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish, balki huquqiy asoslar, xalqaro standartlar va etik normalarni chuqur o‘zlashtirishni ham talab qiladi.

Mamlakatimizda 2023-yil 30-aprel kuni o‘tkazilgan umumxalq referendumi natijasida yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilindi va unga muvofiq insonlarning huquq va erkinliklarini ta’minlash davlatning oliy maqsadi etib belgilandi. Konstitutsiyamizning 21-moddasi: “Inson o‘z huquq va erkinliklarini amalga oshirishda boshqa shaxslarning, jamiyat hamda davlatning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga putur yetkazmasligi shart. Insonlarning huquq va erkinliklari faqat qonunga muvofiq va faqat konstitutsiyaviy tuzumni, aholining sog‘lig‘ini, ijtimoiy axloqni, boshqa shaxslarning huquq va

erkinliklarini himoya qilish, jamoat xavfsizligini hamda jamoat tartibi ta’minlash maqsadida zarur bo‘lgan doirada cheklanishi mumkin[1] – deb belgilangan.

Shu bois ham, bugungi kunda yurtimizda jamoat xavfsizligini ta’minlash uchun jalb etilayotgan harbiy xizmatchi va xodimlarning huquqiy bilimlarini oshirish, maxsus vositalarni qo‘llash bo‘yicha huquqiy asoslarni mustahkamlash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Hozirgi vaqtda huquq sohasiga jamiyatdagi munosabatlarni tartibga soluvchi asosiy munosabatlardan biri sifatida qaralmoqda. Shu munosabat bilan, jamiyatning huquqiy madaniyatini jadal rivojlanishi hamda uning hozirgi holati oldingi holatidan keskin farq qilmoqda. Jamiyatda huquqiy madaniyat darajasining yuksalishi, Milliy gvardiya harbiy xizmatchilari hamda fuqarolar o‘rtasidagi munosabatlarda huquqiy yondashuvning tobora kuchayib borayotganligini taqozo etmoqda. Milliy gvardiya harbiy xizmatchi, (xodim)lari tomonidan jamoat xavfsizligini ta’minlash vaqtida maxsus vositalarni noto‘g‘ri qo‘llash inson huquqlarini buzilishiga olib keladi, shu sababli ham maxsus vositalarni to‘g‘ri va qonuniy qo‘llash katta ahamiyat kasb etadi.

Maxsus vositalardan qo‘llashni tartibga soluvchi eng asosiy muhim xalqaro huquqiy hujjat 1990-yilda BMTning Jinoyatchilikning oldini olish va huquqbuzarlar bilan muomala qilish to‘g‘risida Gavanada o‘tkazilgan 8-kongressdagi “*Huquq tartibotni saqlash bo‘yicha mansabdor shaxslar tomonidan kuch va o‘qotar qurol ishlatishining asosiy prinsiplari”* qabul qilingan[2]. Ushbu hujjat 26 ta prinsipdan iborat bo‘lib, unda huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan qanday holatlarda kuch va qurol ishlatishning xalqaro standartlari belgilab berilgan.

Gollandiyalik ekspert A.Osse bu hujjatning huquqiy ahamiyati muhokama qilib, “…hujjat yuridik jihatdan majburiy kuchga ega bo‘lmasada, u kuch ishlatish bo‘yicha global me’yoriy standartga aylanib ulgurgan va milliy qonunchilikka ta’sir ko‘rsatadigan “yumshoq huquq”[3]– deb ta’kidlagan.

---

[1] Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. O‘zbekiston. T.: 2023 // https://lex.uz. 21-modda 10-bet

[2] Basic Principles on the Use of Force and Firearms by Law Enforcement Officials. Eighth United Nations Congress. Havana. Cuba. 27 August to 7 September 1990.

[3] A.Osse. "Understanding policing: A resource for human rights activists" Amnesty International Nederland. 2015., 21-bet

Amerikalik tadqiqotchi David Bayley [1] esa bu hujjatning zamonaviy xavf-xatarlar va texnologik o‘zgarishlar (masalan, elektron qurollar, dronlar) natijasida yangilash zarurligini ta’kidlagan.

Rossiyalik olimlar A.V. Simonenko va M.Yu. Nikiforovning ilmiy xulosalariga ko‘ra, “huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarining kasbiy tayyorgarligi qo‘l jangi usullarini, maxsus va qo‘l ostidagi vositalar hamda xizmat o‘qotar qurollarini qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirishni o‘z ichiga olishi, shuningdek, jismoniy kuch ishlatish, maxsus vositalar va o‘qotar qurollarini qo‘llashga huquqiy tayyorgarlik kasbiy o‘qitishning muhim elementi bo‘lishi kerak”[2] – deb ta’kidlashgan. Mazkur fikrlarga qo‘shilgan holda, kasbiy tayyorgarlikda nazariy va amaliy mashg‘ulotlar o‘rtasidagi muvozanatni saqlash muhim ahamiyatga ega. Bunda nazariy mashg‘ulotlar doirasida harbiy xizmatchi (xodim)larga jismoniy kuch ishlatish, maxsus vositalarni qo‘llashning huquqiy asoslari, chegaralar va oqibatlar mukammal o‘rgatilishi kerak. Amaliy mashg‘ulotlarda esa turli xil vaziyatlarda zaruriy choralar qo‘llashning modellashtirish o‘yinlari orqali ko‘nikmalar shakllantirilishi lozim.

Amaldagi Milliy gvardiya to‘g‘risidagi qonunda Milliy gvardiyaning harbiy xizmatchisi (xodimi) maxsus tayyorgarlikdan, shuningdek jismoniy kuch ishlatilishi, maxsus vositalar va o‘qotar qurol qo‘llanilishi bilan bog‘liq sharoitlardagi harakatlarga kasbiy yaroqliligini aniqlash uchun davriy tekshiruvdan o‘tishi shartligi, maxsus tayyorgarlikdan o‘tgan harbiy xizmatchiga (xodimga) tegishli sertifikat berilishi belgilangan bo‘lsa-da, harbiy xizmatchi (xodim)larning jismoniy kuch ishlatish, maxsus vositalar va o‘qotar qurollarini qo‘llash bo‘yicha huquqiy tayyorgarligiga yetarli darajada e’tibor berilmagan.

Tabiiyki, xizmat zarurati Milliy gvardiya harbiy xizmatchilari zimmasiga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirish mobaynida maxsus vositalarni qo‘llashni taqozo etadi. Maxsus vositalardan to‘g‘ri va samarali qo‘llashni o‘rganish,

[1] Bayley, D. H. (2016). “The complexities of 21st century policing”, Policing: A Journal of Policy and Practice, Vol. 10, Issue 3, bet 163-170.
[2] А.В. Симоненко, М.Ю.Никифоров “Правовые основы применения сотрудниками органов внутренних дел физической силы, специальных средств и оружия” Современная наука, no. 1, 2011, С 44.

ko‘nikmalarni shakllantirish maqsadida harbiy xizmatchiga o‘quv mashg‘ulotlari tashkillashtiriladi. Milliy gvardiya harbiy xizmatchilari tomonidan maxsus vositalarni jamoat xavfsizligini ta’minlashda qo‘llash maqsadi, xususiyatlari, amaliy qo‘llashni o‘rganishdan oldin maxsus vositalar qanday hollarda va qanday tartibda qo‘llanilishining qonun va qonunosti hujjatlarda keltirilgan tartibotlari, shartlari va chegaralari xususida xabardor bo‘lishi lozim. Chunki, Milliy gvardiya harbiy xizmatchilari tomonidan maxsus vositalarni qo‘llanilishi ikki tomonlama professionallikni, harbiy hamda huquqiy sohalar bo‘yicha maxsus vositalarni qo‘llash bilan bog‘liq bilimlarni puxta egallanganligini talab etadi. Milliy gvardiya harbiy xizmatchilari tomonidan maxsus vositalarni qo‘llash jarayoni harbiy xizmatchi zimmasiga faqatgina maxsus vositani qo‘llashdan oldin yoki qo‘llash vaqtidagina majburiyatlar yuklamasdan, balki qo‘llanilganidan keyingi vaqtda ham majburiyat va ma’suliyat, javobgarlik yuklaydi.

Rossiyalik olim V.E.Pomaskinaning fikricha, huquq-tartibot idorasi xodimi tomonidan o‘z xatti-harakatlarining qonuniyligini anglash zarurati juda muhimdir[1]. Fikrimizcha, harbiy xizmatchi maxsus vositalarni qo‘llashga qaror qilar ekan, uning qonuniyligiga ishonch hosil qilgan holda qo‘llashi naqadar muhim ekanligini anglashi lozim. Buning uchun u qonuniy ravishda maxsus vositalarni ogohlantirib yoki ogohlantirishsiz qo‘llashni shart qilib qo‘yuvchi mezonlarni bir-biridan aniq ajrata olishi kerak. Bu esa, harbiy xizmatchilarga ogohlantirib yoki ogohlantirishsiz maxsus vositalarni qo‘llashni samarali hal etish imkonini beradi.

Shuningdek, jamoat xavfsizligini ta’minlashda Milliy gvardiya harbiy xizmatchilari oxirgi zarurat va zaruriy mudofaa doirasidan chetga chiqmagan holda maxsus vositalarni qo‘llash muhim ahamiyat kasb etadi.

Professor M.X.Rustambayevning fikricha, zaruriy mudofaa – ijtimoiy xavfli bo‘lgan tajovuzdan qonuniy himoyalanish bo‘lib, tajovuzchiga noilojlikdan zarar

[1]Помаскина В.Е. Административная деятельность органов внутренних дел. Схем-альбом. М.: 1996. С. 96.

yetkazish orqali amalga oshiriladi hamda tajovuzning xarakteriga va ijtimoiy xavfliligi darajasiga mos keladi[1].

Rus olimi A.S.Rabadanovning fikricha, zaruriy mudofaaga o‘tishda raqibning birinchi zarbasini kutmaslik kerak, chunki u birinchi zarbaning o‘zidayoq shu qadar katta kuch sarflay oladiki, “himoyachi“ qarshilik ko‘rsatishni unutadi, deya ta’kidlaydi [2]. Yuqoridagi fikrga qo‘shilgan holda Milliy gvardiya harbiy xizmatchilari maxsus vositalarni qo‘llashda chuqur hissiy hayajon ta’sirida sustkashlikka yo‘l qo‘yishi yanada og‘ir oqibatlarni yuzaga keltirishi ehtimoli mavjud. Shu bois, jamoat xavfsizligini ta’minlashda maxsus vositalarni qo‘llashda zaruriy mudofaa doirasidan chetga chiqmagan holda mustaqil, to‘g‘ri, qonuniy qaror qabul qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda quyidagilarni taklif etamiz:

Birinchidan, maxsus vositalarni qo‘llash bilan bog‘liq vaziyatlarni modellashtirish uchun virtual reallik (VR) texnologiyalaridan foydalanishni keng joriy etish lozim. Masalan, Buyuk Britaniyada qo‘llaniladigan “VirTra” tizimi.

Ikkinchidan, jamoat xavfsizligini ta’minlashga jalb etilayotgan harbiy xizmatchilarning huquqiy savodxonligini oshirish maqsadida maxsus vositalarni qo‘llash bilan bog‘liq harakatlar protokolini yaratish.

Xulosa qilib aytganda, maxsus vositalarni qo‘llashning huquqiy jihatlari bilan bog‘liq bilimlar Milliy gvardiya harbiy xizmatchilarining xizmat faoliyatida katta ahamiyat kasb etadi. Harbiy xizmatchi nafaqat o‘zining, balki, fuqarolarning hamda hamkasblarining ham hayoti va sog‘lig‘ining himoyachisidir. Maxsus vositalarni qo‘llash bilan bog‘liq harbiy hamda huquqiy bilimlarning puxta egallanishi, harbiy xizmatchilar tomonidan xizmat faoliyatida va nostandart vaziyatlarda mustaqil va to‘g‘ri qaror qabul qilish ko‘nikmasini shakllantiradi.

[1] Rustambayev M.X. O‘zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. 1-tom. Umumiy qism. Jinoyat haqida ta’limot. “Toshkent”. 2021 yil. 378-bet

[2] Рабаданов А.С. “Применение уголовно-правовых нормо необходимой обороне и задержаниипреступников в деятельности органов внутренних дел”. Канд. Дисс. Москва. 1998 г. -С 23.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. O‘zbekiston. T.: 2023 // https://lex.uz.

2. BMTning Jinoyatchilikning oldini olish va huquqbuzarlar bilan muomala qilish to‘g‘risida Gavanada o‘tkazilgan 8-kongressdagi “Huquq tartibotni saqlash bo‘yicha mansabdor shaxslar tomonidan kuch va o‘qotar qurol ishlatishining asosiy prinsiplari” 1990-yil 29-avgust – 7-sentyabr.

3. Rustambayev M.X. O‘zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. 1-tom. Umumiy qism. Jinoyat haqida ta’limot. “Toshkent”. 2021 yil. 378-bet

4. A.Osse. “Understanding policing: A resource for human rights activists” Amnesty International Nederland. 2015., 21-bet

5. Bayley, D. H. (2016). “The complexities of 21st century policing”, Policing: A Journal of Policy and Practice, Vol. 10, Issue 3, bet 163-170.

6. А.В. Симоненко, М.Ю.Никифоров “Правовые основы применения сотрудниками органов внутренних дел физической силы, специальных средств и оружия” Современная наука, no. 1, 2011, С 44.

7. Помаскина В.Е. Административная деятельность органов внутренних дел. Схем-альбом. М.: 1996. С. 96.

8. Рабаданов А.С. “Применение уголовно-правовых нормо необходимой обороне и задержаниипреступников в деятельности органов внутренних дел”. Канд. Дисс. Москва. 1998 г. -С 23.

AVTOPILOT AVTOMOBILLARDA SODIR ETILGAN JINOYATLAR UCHUN JAVOBGARLIK MASALASI

Raximova Zilola Shuxratjon qizi
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti MAxsus fakultet talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada avtonom transport vositalari bilan bog’liq huquqiy masalalar, xalqaro tajribada hamda O’zbekiston qonunchiligi doirasida javobgarlikning taqsimlanish tamoyillari tahlil qilinadi. Shuningdek, haydovchi avtomobil ishlab chiqaruvchisi, dasturiy ta’minot yaratuvchisi va boshqa tomonlarning javobgarlik masalasi o’rganiladi. Maqolada O’zbekistonda avtonom transport vositalari bo’yicha huquqiy tartibga solishning istiqbollari ham tahlil qilinib, amaldagi qonunchilikka tegishli takliflar beriladi.

Kalit so’zlar: avtonom avtomobillar, avopilot, huquqiy javobgarlik, transport qonunchiligi, sun’iy intellect.

Abstract: This article analyzes legal issues related to autonomous vehicles, focusing on the principles of liability distribution within the framework of international experience and the legislation of Uzbekistan. In addition, the study examines the responsibility of the driver, the vehicle manufacturer, software developers, and other relevant parties. The article also explores the future prospects of legal regulation of autonomous vehicles in Uzbekistan and provides relevant recommendations for improving current legislation.

Keywords: autonomous vehicles, autopilot, legal liability, transport law, artificial intelligence

«Sun’iy intellekt (SI) zamonaviy texnologiyalar rivojining eng muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. SI asosida ishlaydigan tizimlar tibbiyot, moliya, huquq va transport sohalarida keng qo‘llanmoqda». Ayniqsa, o‘z-o‘zini boshqaruvchi transport vositalari (avtopilot mashinalar) hayotimizning ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Avtopilot mashinalarini dunyodagi holatiga keladigan bo’lsak, Google va boshqa kompaniyalar 2009 yildan boshlab haydovchisiz avtomabilar yaratishga jiddiy kirishadi. Haydovchisiz avtomabilar yaratilishi transport mashinalar rivojlanishda inqilobni yasadi va bu inqilobni eng yirik avtomabil ishlab chiqaruvchilari (Audi, BMW, Ford, GM, Honda, Mercedes, Nissan, Tesla, Toyota, Volkswagen, Volvo) hamda yetakchi texnologik kompaniyalar boshqarib kelmoqda. Ular ushbu tizimni rivojlantirish uchun musobaqa olib bormoqda. Misol GM Lyft bilan birgalikda 500 million dollar sarmoya kiritdi. 1Tadqiqotlar shuni ko’rsatdiki butun dunyo avtomatlashtirilgan

[1] https://staff.tiiame.uz/storage/users/702/books/2TuPaj0QOH8MJvWb9cyXmm1FPmE1XPoSWcbkOtJC.pdf

transportlarga ijobiy qarashmoqda. Uning ijobiy tamonlari juda ko'p va insonlardan ustunlik jihatlari bir nechta

- Kompyuter mast bo'lmaydi ,sms yozmaydi,uxlab qolmaydi
- 360 daraja ko'rish qobilyatiga ega
- Insonga nisbatan tez qaror qabul qiladi

Barcha yangi texnologiya sinovdan o'tmaguncha ideal bo'la olmaydi, 2015 Tesla haydovchilarga Avtopilot tizimini yoqishga ruxsat berganda bu to'liq haydovchisiz boshqarilmasligni doim ogoh bo'lishni ogohlantirilgan edi. Taraqiyot muamosiz kechmagandek bu tizimda ham muamo borligni bir nechta avariyalarorqali ko'rishimiz mumkin.Misol AQShda 2018-yilda Uber kompaniyasining sun'iy intellektga asoslangan haydovchisiz avtomobili ishtirokida yo'l transport hodisasi natijasida odam o'lishi. Vaziyatda sun'iy intellekt orqali boshqarilib kelinayotgan 63 km/soat tezlikda harakatlanayotgan avtotransport vositasi yo'ldan o'tayotgan shaxsni identifikatsiya qilishda yanglishib urib yuborgan va shaxsning o'limiga sababchi bo'lgan.1 Mazkur holatda javobgarlik masalasi ochiq qolgan, dastlab mashina ichida o'tirgan Uber kompaniyasi xodimini nazoratni to'g'ri o'rnatmaganligi uchun javobgarlik masalasini unga nisbatan ko'rishgan, biroq keyingi instantsiya sudlari tomonidan, kompaniya xodimi oqlangan, marhumning yaqinlariga kompensatsiya to'lab berilgan, biroq javobgar noma'lumligicha qolgan. Bunday misollar yaqin o'tmishda ko'paygani va yaqin kelajakda yanada ko'payishi aniq. Biz mazkur salbiy oqibatlarni keltirib chiqaruvchi harakatlarni (harakatsizlik) avvaldan bashorat qilish yo'li bilan umume'tirof etilgan obyektlarni muhofaza qilish choralarini ko'rishimiz kerak.

Ammo barcha avariyalar inson xatosi tamonidan sodir etilgani isbotlangan. Eng yaxshi qaror qabul qilish uchun avval ushbu texnologiyani tushunish lozim. Sudya Easterbrook shunday degan: "Ko'r odamlar yo'l ochuvchilar bo'lishi mumkin emas"2 Avtopilot mashinalar bilan avariyalarda inson omilli yuqoriligni tushuntirish3 uchun mashinalarni avtomatlashtirish tiziminini darajasini aniqlash zarur. 42013 yilda SEA international(avtamabil muhandislari jamiyati) haydash avtomatlashtirishning 6 bosqichni aniqlab berdi.

- L0 haydovchi barcha vazifalarni bajaradi
- L1 mashina haydovchi tamonidan boshqariladi,lekin bazi yordamchi funksiyalar bo'lishi mumkin(masalan avtomatik tormoz yoki tezlik nazorati)

[1] jinoyat subyekti sifatida sun'iy intellekt javobgarligi masalas. (2026). Yuridik fanlar axborotnomasi, 9(4), 99-107. Https://review.tsul.uz/index.php/yfa/article/view/310

[2] https://www.law.upenn.edu/fac/pwagner/law619/f2001/week15/ easterbrook.pdf.

[4] https://www.sae.org/standards/j3016-taxonomy-definitions-terms-related-driving-automation-systems-road-motor-vehicles?

- L2 mashina bazi harakatlarni o’zi boshqara oladi (masalan rul boshqaruvi) lekin haydovchi har qanday vaqtda nazoratni qo’lga olishi lozim
- L3 haydovhi zarur,lekin doimiy ravishda yo’lni kuzatish shart emas
- L4 ma’lum sharoitlarda avtomabil to’liq mustaqil ishlaydi haydovchi xohlagan vaqti boshqaruvni qo’lga olishi mumkin
- L5 avtomabil barcha sharoitda mustaqil harakatlanadi

Avtopilot mashinalar L1,L2 turlari keng tarqalgani bo’lib,Ular ishlash tizimlari ma’lum bir algoritimlar orqali yani olingan rasmlarni komputerga uzatadi,u vaziyatni simulyatsiya qiladi,xavfni aniqlagan holda rasmni qayta yuklaydi.Asosiy qiyinchilik aynan shu yerda dasturiy ta’minot tanib olish bilan yaxshi kurashmaydi.Ular yana qorli tumanli sharoitda lidar, radar,kameralardan olgan malumoti to’g’ri bo’lmasligi mumkin.Yo’l infratuzilmasi yaxshimasligi aqli svetofor va belgilarni bo’lmasligi avtopilot mashinalrida avtohalokatlar sodir bo’lishga ob keladi.

1.Avtomobil egasi-agar avtomobilni to'g’ri xafsizlik yangilanishlarini o’rnatmagan bo’lsa.

Avtonom transport vositasi egasining javobgarligi masalasini tahlil qilishda, birinchi navbatda, transport vositasiga egalik huquqi va undan xavfsiz foydalanish majburiyati o‘rtasidagi mutanosiblikka e’tibor qaratish lozim. Agar avariya holati tizim yangilanishlarini (software updates) o‘z vaqtida o‘rnatmaslik tufayli kelib chiqqan bo‘lsa, bu mulkdorning o‘z majburiyatlariga ehtiyotsizlik bilan yondashishi deb baholanadi. Bu yerda jinoiy delikt avopilot tizimidan beparvolik yoki ehtiyotsizlik bilan foydalanish tufayli yuzaga keladi (Mehlman, 2017).

3.Avtomabil ishlab chiqaruvchisi- Agar avtomobilning o’zida nosozlik bo’lsa.

Agar avariya holatiga transport vositasining zavod konstruksiyasidagi nuqsonlar, tormoz yoki mexanik tizimlaridagi texnik nosozliklar sabab bo‘lsa, javobgarlik ishlab chiqaruvchi korxona zimmasiga o‘tadi. Bu o‘rinda O‘zbekiston Respublikasining “Iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi qonunining hamda1 Fuqarolik kodeksining 1017-moddasida tovarning, ishning, xizmatning nuqsonlari oqibatida yetkazilgan zararning o‘rnini qoplash asoslari ko’rsatib o’tilgan.Unga ko’ra tovarning (ishning, xizmatning) konstruktiv, retsepturaviy yoki boshqa nuqsonlari oqibatida, shuningdek tovar (ish, xizmat) to‘g‘risidagi ma’lumot noto‘g‘ri yoki yetarli emasligi oqibatida fuqaroning hayoti, sog‘lig‘i yoki mol-mulkiga yoxud yuridik shaxsning mol-mulkiga yetkazilgan zarar sotuvchi yoki tayyorlovchi (ijrochi) tomonidan, ularning aybidan va jabrlanuvchi

[1] O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi (ikkinchi qism)

ular bilan shartnoma munosabatlarida bo‘lgani yoki bo‘lmaganidan qat’i nazar, qoplanishi lozim.1017 modda huquqiy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Ilmiy nuqtai nazardan, bu holatda ishlab chiqaruvchining javobgarligi mahsulot sifatsizligi va yetkazilgan zarar o‘rtasidagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri sababiy bog‘lanish (causal link) mavjudligi bilan isbotlanadi.

Avtonom Transport Vositalari Uchun Javobgarlik Masalasi: Xalqaro Tajriba Ko‘plab mamlakatlarda avtonom transport vositalarining huquqiy maqomi va javobgarlik masalasi hali ham ochiq qolmoqda. Quyida ayrim davlatlarning yondashuvlari keltirilgan:

1. Yevropa Ittifoqi Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida avtonom transport vositalari bo‘yicha qattiq tartib-qoidalar mavjud. Masalan: Germaniyada 2021-yilda qabul qilingan "Autonomous Driving Act" qonuni haydovchisiz avtomobillarga ruxsat berish jarayonini tartibga soladi. 12023-yildan boshlab Yevropa Komissiyasi avtomobil ishlab chiqaruvchilariga AI boshqaruvidagi avtomobillarning harakatini nazorat qilish majburiyatini yuklagan.

2. Xitoyda avtonom transport vositalari faol rivojlanmoqda. Pekin, Shanxay va Guanchjou kabi yirik shaharlar avtonom mashinalarga ruxsat berish bo‘yicha eksperimental dasturlarni amalga oshirmoqda.Xususan, 2Xitoyning BYD kompaniyasi haydovchiga yordam beruvchi ilg‘or tizimlari uchun sug‘urta qamrovini kengaytirdi.

3. G’ariy Yevropaning yana bir davlati Britaniyada esa maxsus qonun ertaroq joriy etilgan.3Britaniya hukumati tamonaidan qabul qilingan Automated and Electric Vehicles Act 2018 quyidagi qoidalarni belgilaydi:

Davlat kotibi tomonidan avtomatlashtirilgan transport vositalarining ro'yxati

Sug'urtalovchilarning javobgarligi va boshqalar.

Dasturiy ta'minotni ruxsatsiz o'zgartirish yoki dasturiy ta'minotni yangilamaslik natijasida yuzaga keladigan baxtsiz hodisa

Sug'urtalovchining huquqi va boshqalar. baxtsiz hodisa uchun javobgar shaxsga qarshi da'vo qilish

O‘zbekiston qonunchiligida avtonom transport vositalariga doir alohida qonuniy me’yorlar mavjud emas.

Ayni paytda, O’zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining qaroriga ko’ra quyidagi normativ-huquqiy hujjatlar va tegishliga ko’ra boshqa normativ hujjatlar transport va yo‘l harakati xavfsizligini tartibga soladi: O‘zbekiston

[1] https://kun.uz/news/2024/05/26/mercedes-benzdan-tata-motors-limitedgacha-dunyodagi-yuk-avtomobillari-ishlab-chiqaruvchi-eng-yirik-kompaniyalar
[2] https://qaynoq24.uz/byd-kompaniyasi-avtopilot-xatolari-uchun-sugurta-joriy-qildi/
[3] https://en.wikipedia.org/wiki/Self-driving_car_liability

Respublikasining 1“Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi qonuni transport vositalarining texnik holati, shuningdek haydovchilarning huquq va majburiyatlariga oid qoidalarni o‘z ichiga oladi. Biroq ushbu qonunda avtonom transport vositalari faoliyatiga doir aniq normalar mavjud emas. Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeks transport vositalarini boshqarish bilan bog‘liq qoidabuzarliklar uchun javobgarlikni belgilaydi, ammo unda avtopilot rejimida harakatlanuvchi transport vositalariga nisbatan maxsus qoidalar nazarda tutilmagan.

Fuqarolik kodeksida esa moddiy zarar yetkazilgan taqdirda sug‘urta va kompensatsiya mexanizmlari belgilangan bo‘lsa-da, avtonom transport vositalari bilan bog‘liq munosabatlar alohida tartibga solinmagan.

Bugungi globallashuv va texnologik inqiroz davrida avtopilot mashinalari, uni yaratish, u orqali sodir etiladigan ijtimoiy xavfli qilmishlarni normativ-huquqiy jihatdan tartibga solish kerakligini ko‘rsatadi. Jumladan, avtopilot avtomoillarni har tomonlama tahlil qilish orqali uni jinoiy-huquqiy munosabatlardagi o‘rni va rolini belgilashni anglatadi. Sun’iy intellekt bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solish uchun biz O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining XX1 bobi, Axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlarga, hamda O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi XI bobi, Transportdagi, yo‘l xo‘jaligi va aloqa sohalaridagi huquqbuzarliklar uchun ma’muriy javobgarlikka qo‘shimcha, yangi ma’muriy huquqbuzarlik va jinoyatni qo‘shish kerak.

Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksga quyidagi normani kiritish kerak: 1556-modda. G‘arazli niyatda yoki qonun bilan qo‘riqlangan munosabatlarga qarshi tajovuzda namoyon bo‘luvchi avtopilot avtomobillarining dasturiy ta’minotini ishlab chiqish, foydalanish, o‘tkazish va ular bilan boshqa harakatlarni sodir etish G‘arazli niyatda yoki qonun bilan qo‘riqlangan munosabatlarga qarshi tajovuzda namoyon bo‘luvchi avtopilot avtomobillarining dasturiy ta’minotini ishlab chiqish, foydalanish, o‘tkazish va ular bilan boshqa harakatlarni sodir etish orqali ko‘p bo‘lmagan miqdordagi zarar yoki yengil tan jarohati yetishiga olib kelsa – avtopilot avtomobillarining dasturiy ta’minotini, shu jumladan uni ishlab chiqish, ishlab chiqarish, foydalanish, o‘tkazish va ular bilan boshqa harakatlarni sodir etishga qaratilgan vositalarni texnik jihatdan yo‘q qilish yoki majburiy qayta ishlab chiqarish, shuningdek yigirma besh baravaridan ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki 15 sutkagacha ma’muriy qamoqqa olishga sabab bo‘ladi.

1255modda Avtopilot transport vositalaridan foydalanish qoidalarini buzish

avtopilot transport egalari belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazilmagan yoki

[1] O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 19.01.2024 yildagi O‘RQ-900-son

majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazilmagan yoxud foydalanish man etiladigan darajada nosozligi bo‘lgan yoki qonunchilikda belgilangan tartibda favqulodda vaziyatda oynani sindirish uchun foydalaniladigan bolg‘acha bilan jihozlanmagan, o‘t o‘chirgich, tibbiyot qutichasi, avariya holatida to‘xtaganligini bildiruvchi belgi va nur qaytargichli kamzul bilan butlanmagan, xuddi shuningdek ishlayotganida tashqariga chiqarayotgan ifloslantiruvchi moddalarning miqdori, shuningdek shovqin darajasi belgilangan normalardan ortiq bo‘lgan transport vositalarini fodalanishi, 127^1-modda. Avtopilot mashinalarni qayta dasturlashtirish. Avtopilot dasturini g‘arazli yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan munosabatlarga qarshi qayta dasturlashtirish orqali ko‘p bo‘lmagan miqdordagi zarar yoki yengil tan jarohati yetishiga olib kelsa – avtopilot dasturini texnik jihatdan yo‘q qilish yoki majburiy qayta ishlab chiqarish, shuningdek yigirma besh baravaridan ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki 15 sutkagacha ma’muriy qamoqqa olishga sabab bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.https://gov.uz/iiv/pages/o-zbekiston-respublikasi-vazirlar-mahkamasining-qarorlari

2. https://lex.uz/acts/-1746717

3. Bozarov S.S. Sun’iy intellekt sohasini rivojlantirish doirasidagi axloqiy va huquqiy tusdagi masalalar. Yurist axborotnomasi 5-son, 2-jild. Toshkent 2022. 84 – 89-betlar.

4.”Suniy intellektual transport tizimlari” M.To’xtaboyev,Z.Isoqova, X.Soliyeva, A.Ustaboyev

5. “Su’niy intellekt javobgarligining axloqiy va huquqiy taomillari”Sardor Bozarov

6. Dovlatboyevich, D. M., & Komiljonovna, M. M. (2022). Oliy Ta‟lim Muassasalrida Bulutli Texnologiyalardan Foydalanish Metodikasi. Miasto Przyszłości, 29, 305-308.

7.”Suniy intellekt-inson yordamchisimi yo tahdidi?” Davronov Shexroz

8.“Jinoyat subyekti sifatida sun’iy intellekt javobgarligi masalasi” Nurmanov Xolbek Rahmatilla o‘g‘li,

9. “Jinoyat qonunchiligida sun’iy intellekt tushunchasi va uning ijtimoiy xavfliligi” Abbosov Mirsulton Mirsharof o‘g‘li

ХАЛҚ ДЕПУТАТЛАРИ МАҲАЛЛИЙ КЕНГАШЛАРИНИНГ ҲУДУДЛАРНИ ИЖТИМОИЙ-ИҚТИСОДИЙ РИВОЖЛАНТИРИШДАГИ НАЗАРИЙ-ҲУҚУҚИЙ ЖИҲАТЛАРИ

Сайфиддинов Ақлиддин Анваржон ўғли
Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Қонунчилик ва ҳуқуқий сиёсат институти таянч докторанти. aqliddinsayfiddinov@gmail.com

Аннотация: Мазкур тезисда Ўзбекистон Республикасида халқ депутатлари маҳаллий Кенгашларининг ҳудудларни ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришдаги назарий-ҳуқуқий жиҳатларини таҳлил қилинган. Маҳаллий вакиллик органларининг ҳуқуқий мақоми, уларнинг ваколатлари ва функцияларининг ҳуқуқий асослари ҳамда Халқ депутатлари маҳаллий Кенгашларининг ҳудудларни барқарор ривожлантиришдаги роли батафсил ўрганилган.

Калит сўзлар: халқ депутатлари маҳаллий Кенгашлари, давлат ҳокимияти вакиллик органлари, маҳаллий бюджет, назорат функциялари, стратегик режалаштириш, Ўзбекистон Республикаси Конституцияси.

Ўзбекистон Республикасининг мустақиллигини мустаҳкамлаш ва ҳудудий ривожлантириш стратегиясини амалга ошириш жараёнида маҳаллий вакиллик органлари – халқ депутатлари маҳаллий Кенгашлари фаолиятининг самарадорлигини ошириш алоҳида аҳамият касб этади. Халқ депутатлари маҳаллий кенгашлари тизими давлат ҳокимиятини маҳаллий даражада амалга оширишнинг муҳим механизми сифатида вилоятлар, туманлар ва шаҳарларнинг ижтимоий-иқтисодий ривожланишида етакчи роль ўйнайди.

2017-2021 йилларда амалга оширилган ислоҳотлар Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегиясининг мантиқий натижаси бўлди[1]. Ушбу ислоҳотлар миллий давлатчилик

[1] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февраль кунидаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида” ПФ-4947 сон Фармони. https://www.lex.uz/acts/3107036

ва суверенитет, хавфсизлик ва ҳуқуқ-тартибот, чегаралар дахлсизлигини таъминлаш, қонун устуворлигини мустаҳкамлаш, инсон ҳуқуқ ва эркинликларини кафолатлаш, аҳоли учун муносиб турмуш шароитини яратиш ва фуқароларнинг ижодий салоҳиятини рўёбга чиқариш учун мустаҳкам пойдевор яратди. Бу натижалар, ўз навбатида, “Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси”[1]нинг шаклланишига асос бўлди.

Халқ депутатлари Кенгаши тизими Ўзбекистон Республикасининг давлат бошқаруви тизимида муҳим ўрин эгаллаб, ҳудудларнинг ижтимоий-иқтисодий ривожланишида, аҳоли фаровонлигини оширишда, фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари билан самарали ҳамкорлик қилишда муҳим аҳамият касб этади. Замонавий шароитларда маҳаллий вакиллик органлари фаолиятининг самарадорлигини ошириш, бошқарув соҳасидаги янги механизмларни жорий этиш ва уларнинг ваколатларини кенгайтириш Ўзбекистон давлатчилигини мустаҳкамлашнинг устувор йўналишларидан бири ҳисобланади.

Маҳаллий вакиллик органларининг фаолиятинниг шаклланиши ва аҳамияти бўйича бир қатор олимларнинг ўз фикрларини илгари суришган.

Жумладан, рус олими А.А. Дудников ўз ишларида “...маҳаллий Советлар ўз мавқеидан қатъи назар ҳудудларни бошқаришда катта ҳажмдаги жорий ишларни амалга оширганлар”[2] – деб таъкидлаган.

Шу соҳада тадқиқот олиб борган яна бир рус олими В.В. Пылин эса “...маҳаллий Советлар давлат ҳокимияти билан маҳаллий ўзини ўзи бошқаришнинг асосий хусусиятларини уйғунлаштирган” [3] – деган хулосага келган. Фикримизча, ушбу қарашлар маҳаллий вакиллик органларининг

[1] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январь кунидаги “2022 — 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60 сон Фармони. https://lex.uz/docs/5841063

[2] Дудников А.А. Структура местных советов депутатов трудящихся в послевоенное время и ее законодательное закрепление // Медовник А.А. Уголовно-политическое судопроизводство в советском государстве послевоенного периода (1945–1953 гг.): Дис. … канд. юрид. наук. Краснодар, 2008. С. 39.

[3] Пылин В.В. Анализ правовых основ Советов народных депутатов РСФСР и муниципальных представительных органов Российской Федерации // Управленческое консультирование. 2012. № 4. С. 18.

жамият ҳаётидаги муҳим ўрнини ва уларнинг ҳудудларни ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришдаги аҳамиятини кўрсатади.

Ушбу тарихий тажрибалар Ўзбекистон Республикасининг мустақиллик йилларида маҳаллий Кенгашлар тизимини шакллантиришда таянч нуқта бўлиб хизмат қилди.

Хусусан, маҳаллий вакиллик органларининг ҳуқуқий мақоми Янги Ўзбекистон Республикасининг янги таҳрирдаги Конституциясида янада мустаҳкамланди. Конституциямизнинг 120 моддасида "...Вилоятлар, туманлар ва шаҳарларда (туманга бўйсунадиган шаҳарлардан ташқари) халқ депутатлари Кенгашлари давлат ҳокимияти вакиллик органларидир"[1] – деб белгиланганлиги фикримизнинг исботидир. Бу қоида маҳаллий вакиллик органларининг конституциявий-ҳуқуқий мақомини мустаҳкамлайди ва уларнинг давлат бошқаруви тизимидаги ўрнини аниқ белгилайди.

Ўзбекистон Республикаси давлат бошқаруви тизимида маҳаллий даражадаги ҳокимият органлари алоҳида ўрин тутади. Конституцияга мувофиқ, маҳаллий даражада давлат ҳокимияти икки тармоқ орқали амалга оширилади. Биринчи тармоқ сифатида вакиллик органлари бўлган халқ депутатлари Кенгашлари, иккинчи тармоқ сифатида эса ижро ҳокимияти раҳбарлари – ҳокимлар фаолият юритади. Ушбу икки органнинг ваколатлари бир-бирини тўлдиради, аммо функционал жиҳатдан фарқланадиган ҳуқуқий асосларга эга бўлиб, уларнинг ўзаро муносабатлари ҳудудларни ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг самарадорлигини белгилаб беради. Бу вазифалар ҳудудларни комплекс ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш, аҳоли турмуш даражасини ошириш, фуқароларнинг ҳуқуқ ва қонуний манфаатларини таъминлаш мақсадларига хизмат қилади.

Рус ҳуқуқшунос олими А.А. Дудников ўз тадқиқотларида маҳаллий вакиллик органларининг тарихий ривожланиш жараёнини таҳлил қилиб, "...маҳаллий Советларнинг асосий вазифаси ўз ҳудудида маданий-сиёсий ва хўжалик қурилишини бошқариш, ижро органлари фаолиятини йўналтириш,

[1] Янги таҳрирдаги Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. Ўзбекистон. Т.: 2023 https://lex.uz/docs/6445145

маҳаллий бюджетни белгилаш, давлат тартибини сақлаш, қонунларнинг бажарилишини таъминлаш, фуқаролар ҳуқуқларини ҳимоя қилишдан иборат эканлигини”[1] – таъкидлаган. Бу тарихий тажриба мустақил Ўзбекистон шароитида ҳам ўз аҳамиятини йўқотмаган бўлиб, бугунги кунда маҳаллий Кенгашларнинг асосий вазифаларини белгилашда муҳим методологик асос бўлиб хизмат қилмоқда.

Бугунги кунда Халқ депутатлари Кенгашларининг асосий ваколатларига маҳаллий бюджетни шакллантириш ва назорат қилиш, тегишли маҳаллий бюджетларни кўриб чиқиш, қабул қилиш ва уларнинг ижро этилиши устидан назоратни амалга ошириш, ҳудудларни ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш ва аҳолини ижтимоий ҳимоя қилиш дастурларини тасдиқлаш ваколатларини амалга ошириб келмоқда.

Ҳудудларни ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш вазифаларини тўлақонли амалга ошириш учун халқ депутатлари маҳаллий Кенгашлари кенг қамровли ваколатларга эга бўлиб, бу ваколатлар норматив-ҳуқуқий ҳужжатларда тизимли равишда мустаҳкамланган. “Маҳаллий давлат ҳокимияти тўғрисида”ги Қонунга[2] мувофиқ, маҳаллий Кенгашлар ҳудудларнинг ижтимоий-иқтисодий ривожланиш стратегияларини белгилаш, маҳаллий бюджетни шакллантириш ва ижросини назорат қилиш, ҳудудий дастурларни тасдиқлаш, ҳоким ва ижро ҳокимияти фаолиятини назорат қилиш каби фундаментал ваколатларга эга.

Рус ҳуқуқшунос олими В.В. Пылин ўз илмий ишларида, “...маҳаллий бюджетни шакллантириш ва тасдиқлаш функцияси маҳаллий вакиллик органларининг ҳудудни ривожлантиришдаги асосий воситаси ҳисобланади”[3] – деб таъкидлаган. Бу фикрни давом эттириб айтиш мумкинки, бюджет ваколатлари маҳаллий Кенгашларга нафақат молиявий

---

[1] Дудников А.А. Структура местных советов депутатов трудящихся в послевоенное время и ее законодательное закрепление // Медовник А.А. Уголовно-политическое судопроизводство в советском государстве послевоенного периода (1945–1953 гг.): Дис. … канд. юрид. наук. Краснодар, 2008. С. 39.

[2] 1993 йил 2 сентябрь кунидаги “Маҳаллий давлат ҳокимияти тўғрисида” 903-сонли Қонун. https://www.lex.uz/acts/112170

[3] Пылин В.В. Анализ правовых основ Советов народных депутатов РСФСР и муниципальных представительных органов Российской Федерации // Управленческое консультирование. 2012. № 4. С. 21.

ресурсларни тақсимлаш, балки ҳудудлар ривожланишининг устувор йўналишларини белгилаш, инвестицион сиёсатни шакллантириш ва ижтимоий муаммоларни ҳал этиш имкониятини ҳам беради.

Замонавий шароитларда халқ депутатлари маҳаллий Кенгашлари ҳудудларни ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг кенг қамровли вазифаларини амалга оширмоқда. Бу жараёнда улар қуйидаги асосий йўналишларда фаолият юритадилар:

Стратегик режалаштириш ва назорат – маҳаллий Кенгашлар ҳудудларни ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш дастурларини тасдиқлаш, уларнинг ижроси ҳақидаги ҳисоботларни кўриб чиқиш ва баҳолаш орқали стратегик режалаштириш ва назорат функцияларини амалга оширади.

Бюджет-молия сиёсатини белгилаш – маҳаллий Кенгашлар тегишли ҳудуднинг маҳаллий бюджетини кўриб чиқиш, тасдиқлаш ва унинг ижроси устидан назоратни амалга ошириш орқали ҳудуднинг молиявий ресурсларини оқилона тақсимлаш ва ишлатилишини таъминлайди.

Ижро ҳокимияти устидан назорат – маҳаллий Кенгашлар ҳокимни лавозимга тасдиқлаш, унинг фаолияти тўғрисидаги ҳисоботларни эшитиш орқали ижро ҳокимияти фаолиятининг самарадорлигини баҳолаш ва назорат қилиш имкониятига эга.

Қонунийликни таъминлаш – маҳаллий Кенгашлар ҳудудда қонунчилик ҳужжатларининг ижро этилишини назорат қилиш, ўз ваколатлари доирасида тегишли қарорлар қабул қилиш орқали қонунийликни таъминлашга ҳисса қўшади.

Ушбу функцияларни амалга ошириш учун маҳаллий Кенгашларнинг қонунчиликда белгиланган ваколатлари кенг кўламли бўлиб, улар ҳудудий ривожланишнинг барча жиҳатларини қамраб олади. Маҳаллий Кенгашлар ваколатларининг бундай тизими ҳудудларда давлат ҳокимиятини амалга оширишнинг самарали механизмини ташкил этиб, марказий давлат органлари ва маҳаллий ижро ҳокимияти фаолиятининг мувофиқлаштирилишини таъминлайди.

Халқ депутатлари маҳаллий Кенгашларининг ҳудудларни ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришдаги роли ва ваколатлари Ўзбекистон Республикаси қонунчилигида тизимли равишда мустаҳкамланган бўлиб, бу тизим маҳаллий даражада самарали бошқарувни амалга ошириш, фуқароларнинг манфаатларини таъминлаш ва давлат сиёсатини маҳаллий даражада амалга оширишга хизмат қилади.

Халқ депутатлари маҳаллий Кенгашларининг ваколатлари тизими ҳудудий ривожланишнинг барча жиҳатларини қамраб олади, бюджет-молия сиёсатини белгилаш, стратегик режалаштириш, назорат қилиш ва қонунийликни таъминлаш функцияларини ўз ичига олади. Бу ваколатлар ижро ҳокимияти органлари (ҳокимлар) нинг ваколатлари билан мувофиқлаштирилган ҳолда амалга оширилиб, ҳудудий бошқарувнинг самарадорлигини ошириш ва барқарор ривожланишни таъминлашга қаратилган.

Юқоридаги фикрларни инобатга олган ҳолда қуйидагиларин таклиф этамиз:

Биринчидан, Халқ депутатлари маҳаллий Кенгашларининг назорат ваколатларини кучайтириш механизмини такомиллаштириш. Маҳаллий Кенгашлар ҳузурида доимий фаолият юритувчи назорат комиссияларини тузиш, уларнинг ваколатларини кенгайтириш ва мустақиллигини таъминлаш.

Иккинчидан, Халқ депутатлари маҳаллий Кенгашлар ва аҳоли ўртасидаги алоқаларни рақамли технологиялар орқали кучайтириш, бунда Ҳар бир маҳаллий Кенгаш учун рақамли платформа яратиш, унда Кенгаш фаолияти, қабул қилинган қарорлар, ҳудудий ривожланиш дастурлари ва маҳаллий бюджет ижроси тўғрисидаги маълумотларни жойлаштириш, шунингдек фуқароларга ўз таклиф ва мулоҳазаларини билдириш, маҳаллий аҳамиятга молик масалалар юзасидан онлайн муҳокамаларда иштирок этиш имкониятини яратиш. Бу платформалар орқали аҳоли маҳаллий Кенгашларнинг кун тартибидаги масалаларни муҳокама қилиш, депутатлар билан тўғридан-тўғри мулоқот қилиш ва ҳудудий ривожланиш масалалари

бўйича ўз таклифларини бериш имконига эга бўлади. Натижада маҳаллий Кенгашлар фаолиятининг очиқлиги ва шаффофлиги таъминланади, фуқароларнинг маҳаллий бошқарувдаги иштироки кенгаяди.

Хулоса қилиб айтганда, Ўзбекистон Республикасида халқ депутатлари маҳаллий Кенгашлари ҳудудларни ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг асосий институционал механизмларидан бири бўлиб, уларнинг ваколатлари ва фаолиятини такомиллаштириш мамлакатни янада ривожлантириш ва модернизация қилиш жараёнида муҳим аҳамият касб этади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Янги таҳрирдаги Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. Ўзбекистон. Т.: 2023 https://lex.uz/docs/6445145

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февраль кунидаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида” ПФ-4947 сон Фармони. https://www.lex.uz/acts/3107036

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январь кунидаги “2022 — 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60 сон Фармони. https://lex.uz/docs/5841063

4. 1993 йил 2 сентябрь кунидаги “Маҳаллий давлат ҳокимияти тўғрисида” 903-сонли Қонун. https://www.lex.uz/acts/112170

5. Дудников А.А. Структура местных советов депутатов трудящихся в послевоенное время и ее законодательное закрепление // Медовник А.А. Уголовно-политическое судопроизводство в советском государстве послевоенного периода (1945–1953 гг.): Дис. … канд. юрид. наук. Краснодар, 2008. С. 39.

6. Пылин В.В. Анализ правовых основ Советов народных депутатов РСФСР и муниципальных представительных органов Российской Федерации // Управленческое консультирование. 2012. № 4. С. 18.

MUNDARIJA

KIRISH SO‘ZI 4
ASOSIY QISM 7
YANGI O‘ZBEKISTONDA XAVFSIZ TA’LIM MUHITINI TA’MINLASHDA MILLIY GVARDIYA BO‘LINMALARINING ROLI 7
Selimanova Svetlana Mixaylovna 7
UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABLARIDA XAVFSIZLIKNI TA’MINLASH: MUAMMO VA YECHIMLAR 12
Isamiddin Ismailov 12
Muzaffar Ziyodullaev 12
OTA-ONA TOMONIDAN FARZANDINI TA’LIM VA TARBIYA QILISH MAJBURIYATINI BAJARMAGANLIK UCHUN JAVOBGARLIK MASALASI 26
Usmanova Muborak Akmaldjanovna 26
Tallibayev Umidjon Shergaziyevich 26
HARBIY SOHADA AXBOROT XAVFSIZLIGI PSIXOLOGIYASINI TA’MINLASH MASALALARI 35
Mamatkulov Davlatjon Mahamadjonovich 35
INKLYUZIVGA YO‘NALTIRILGAN O‘QUVCHINI TENGDOSHLARI BILAN TA’LIM OLISHIDA O‘QUVCHI BILAN KORREKSIYALASH ISHLARIDA IJTIMOIY MUHIT AHAMIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH 41
Abdug‘aniyev Abdurauf Abdumannonovich 41
АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ ПО РЕАЛИЗАЦИИ КОНЦЕПЦИИ «БЕЗОПАСНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ» В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ, СУЩЕСТВУЮЩИЕ ПРОБЛЕМЫ И РИСКИ НА ФОНЕ СОВРЕМЕННЫХ ВЫЗОВОВ И УГРОЗ 49
Тен Виктор Робертович 49
“XAVFSIZ TA’LIMNI TASHKIL ETISHDA” MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI SOHASIDAGI ISLOHOTLAR 64
Kamolov Jamoliddin Sayfitdinovich 64
HARBIY QONUNCHILIKNI TIZIMLASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI, TASNIFI VA O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI 68
Maxsadov Maxsatullo Ismatovich 68
UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA XAVFSIZLIKNI TA’MINLASH: MUAMMOLARI VA YECHIMLARI 86
Yarashev Bobomurod Chalgashevich 86
IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA’MINLASHDA BOJXONACHI KADRLAR TAYYORLASHNING O‘RNI 92
A.Shadmankulov 92
TA’LIM MUASSASALARIDA PROFAYLINGGA O‘QITISH BO‘YICHA FRANSIYA TAJRIBASI 98
Ikanov Azamat Agzamovich 98
XAVFSIZ TA’LIM –O‘QUVChILARNING TA’LIM OLISh HUQUQINI TA’MINLASh GAROVIDIR 103
Ikramov Sherzod Raximdjanovich 103

YANGI O‘ZBEKISTON “XAVFSIZ TA’LIMI”NI TA’MINLASHDA MIGRASIYA JARAYONLARINING ROLI 109
Tursunova Sabina Ravshanovna, ... 109
BOSH QOMUSIMIZDA XOTIN-QIZLAR MASALASI 114
A.K.Paxratdinova 114
“XAVFSIZ TA’LIM” JAMOAT XAVFSIZLIGINI MUSTAHKAMLASH OMILI SIFATIDA 117
Shagilov Pulatbek Koptleuovich 117
JADIDCHILIK HARAKATINI O‘ZBEKISTONNI RIVOJLANISHIGA QO‘SHGAN HISSASI 122
Islomov Shavkat Musurmon o‘g‘li 122
YANGI O‘ZBEKISTONDA TA’LIM SOHASIDA PEDAGOGLAR UCHUN XAVFSIZLIKNI TA’MINLASH 128
Mamatkulov Qaxramon Choriyevich 128
UMUMTA’LIM MUASSASALARIDA DRONLARDAN FOYDALANISH BO‘YICHA O‘QUVLARNI TASHKIL ETISH BO‘YICHA CHET EL TAJRIBASI 137
Jo‘rayev Abdurauf Aliyevich 137
ICHKI ISHLAR ORGANLARINING MIGRATSIYA VA FUQAROLIKNI RASMIYLASHTIRISH FAOLIYATI SOHASIDAGI HUQUQIY NORMALARNI QO‘LLASH AMALIYOTI 142
Tursunova Sabina Ravshanovna 142
Najmutdinova Mexrangiz Fayoz qizi 142
АРМИЯ И ВОЕННОЕ ОБРАЗОВАНИЕ КАК ВАЖНЫЕ КОМПОНЕНТЫ РАЗВИТИЯ СИЛ САМООБОРОНЫ ЯПОНИИ: ИСТОРИЧЕСКАЯ РЕТРОСПЕКТИВА И СОВРЕМЕННОСТЬ 154
Мадалиева Рухшона Хакимджановна 154
Абдусамедов Нодир Анварович 154
“XAVFSIZ TA‘LIM” KONSEPSIYASINI AMALGA OSHIRISH: MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA 161
Shaymatov Odil Abdukadirovich 161
“YANGI O‘ZBEKISTONDA XAVFSIZ TA’LIM KREATIV PEDAGOGIKA FANINING VAZIFALARI 165
Safarov Abduxakim Uralovich 165
TA’LIM VA XAVFSIZLIK: ILMIY YONDASHUV, XALQARO TAJRIBA HAMDA O‘ZBEKISTONDAGI ISLOHOTLAR 169
Yuldashev Sherali Nuralievich 169
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY GVARDIYA FAOLIYATIDA “XAVFSIZ SHAHAR – XAVFSIZ MAMLAKAT” KONSEPSIYASINING AHAMIYATI 175
O.Mustafayev 175
FAVQULODDA HOLATLAR E’LON QILINGAN HUDUDDA JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASH VA XAVFSIZ TA’LIM SHAROITNI YARATISH 180
Raxmatov Moxirjon Kosimovich 180
ХАВФСИЗ ТАЪЛИМ ВА ИНСОН ҲУҚУҚЛАРИ 187
Алимов Гайбулла Алимович 187

IJTIMOIY JIHATDAN XAVFLI AHVOLDA BO‘LGAN BOLALAR BILAN ISHLASH BO‘YICHA MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA 193
Mirzatillayev Umid Izzatillaevich 193
MUSTAQILLIK YILLARIDA JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASH TIZIMIDAGI ISLOHOTLAR VA KADRLAR TAYYORLASH..... 199
Vaxidov Fazliddin Raufovich 199
YOSHLAR (VOYAGA YETMAGANLAR) TOMONIDAN SODIR ETILADIGAN JINOYATLARNING NAZARIY-HUQUQIY TAHLILI..... 206
Axmedov Sherzodbek Oribjon o‘g‘li..... 206
O‘ZBEKISTONDA HUDUDIY ICHKI ISHLAR ORGANLARI BOSHLIG‘INING HUQUQIY MAQOMINI TARTIBGA SOLUVCHI QONUNCHILIK TAHLILI217
Tasbayev Azat Damirovich..... 217
YANGI O’ZBEKISTONDA XAVFSIZ TA’LIM: MILLIY AN’ANALAR VA XORIJIY TAJRIBANING INTEGRATSIYASI..... 226
Qurbonov Sherzod Murodqobilovich 226
Hotamboyeva Sevinch Valijonovna..... 226
VOYAGA YETMAGANLAR O‘RTASIDA PIROTEXNIKA BUYUMLARI NOQONUNIY MUOMALASI UCHUN JAVOBGARLIKNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI..... 232
Kasimov Davron..... 232
YANGI O‘ZBEKISTONDA TA’LIM SOHASIDA KORRUPSIYANING OLDINI OLISH MUAMMOLARI..... 246
Boyturayev Farxod Mamatkarimovich 246
YANGI O‘ZBEKISTONDA TA’LIM TIZIMI VA YANGICHA YONDASHUVLAR, TA’LIM TARAQQIYOTINING ASOSIDIR..... 254
Ibragimov Xakim Baxritdinovich 254
YANGI O‘ZBEKISTON: TA’LIM TIZIMI VA YANGICHA YONDASHUVLAR TA’LIMNING TARAQQIYOT ASOSI. OLIY TA’LIM TARAQQIYOTI: MUAMMO VA YECHIM..... 259
Isanov Najotbek Ilmamat o‘g‘li 259
AXBOROT-TA’LIM MUHITIDA “XAVFSIZ TA’LIM” KONSEPSIYASINI NAZARIY ASOSLARI..... 266
Xujamqulov Sirojiddin Safar o‘g‘li 266
XAVFSIZ TA’LIM: O‘ZBEKISTONDA TA’LIM SIFATINI YUQORI DARAJADA TA’MINLASH..... 272
Nortojiyev Muxammad Anvar o‘g‘li 272
VOYAGA YETMAGANLAR TOMONIDAN SODIR ETILADIGAN HUQUQBUZARLIKLARNING PROFILAKTIKASIGA OID XORIJIY TAJRIBA 282
Axmedova Manzura Avazjon qizi 282
BOLA TARBIYASIGA OID QONUN HUJJATLARINING PEDAGOGIK JIHATLARI..... 290
Paxratdinova Ulbolsin Kerimberdiyevna..... 290
VOYAGA YETMAGANLAR TOMONIDAN JINOYAT SODIR ETILISHINING SABABLARINI O‘RGANISHDA “XAVFSIZ TA’LIM” KONSEPSIYASINING AHAMIYATI 294
Valiboyev Izzatbek To‘xtasin o‘g‘li 294
HAR KIM TA’LIM OLISh HUQUQIGA EGA..... 302

Alisher Raximberdievich Yusupov 302
JADIDLARNING TA’LIM SIFATINI OSHIRISHDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI 305
Yuldashev Farrux Mahmudjon o‘gli. 305
HAYDOVCHILAR TAYYORLASH TIZIMIDAGI TASHKILIY-HUQUQIY MUAMMOLARNI BARTARAF ETISH MASALALARI 310
Axmedov Sherzodbek Oribjon o‘g’li 310
MA’MURIY JAZO TUSHUNCHASI, MAQSADI VA TURLARI 319
Narziloyeva Shahlo Nodir qizi 319
Alimov G’.A. 319
VOYAGA YETMAGANLAR TOMONIDAN SODIR QILINADIGAN HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASI 324
Ziyodullayev Muzaffar Ziyodullayevich 324
Abdusamadova Zarina Hasan qizi 324
YANGI O‘ZBEKISTONDA “XAVFSIZ TA’LIM” KONSEPSIYASINI AMALGA OSHIRISHDA TARBIYA TAMOYILLARI 332
R.B. Ne’matov 332
JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHDA MILLIY GVARDIYA VA ICHKI ISHLAR ORGANLARI O‘RTASIDAGI HAMKORLIKNI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI 338
Mitanov Zafar Ne’matullaevich 338
YANGI O‘ZBEKISTONDA “XAVFSIZ TA’LIM” KONSEPSIYASINI AMALGA OSHIRISHDA O‘QUV-TARBIYA JARAYONINI TASHKIL ETISH VA UNING MAZMUNI. 346
Shirinboyeva Mohigul Mansur qizi 346
YO‘L HARAKATI SOHASIDAGI MA’MURIY HUQUQBUZARLIKLARNI OLDINI OLISHDA TA’LIM TIZIMI VA XORIJ TAJRIBASI 351
Sh.O.Axmedov 351
N.M. Daniyarova 351
МИЛЛИЙ ГВАРДИЯНИНГ ЖАМОАТ ТАРТИБИНИ САҚЛАШ ФАОЛИЯТИНИНГ АСОСЛАРИНИ ТАХЛИЛИ 361
Махмудов Жасурбек Хамидович, ... 361
ЖАМИЯТДА ҲУҚУҚИЙ ОНГ ВА ҲУҚУҚИЙ МАДАНИЯТНИ ЮКСАЛТИРИШНИНГ ИЖТИМОИЙ – НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ 373
Замонбеков Умидбек Авазбек ўғли 373
FAVQULODDA VAZIYATLAR VAZIRLIGI VA MILLIY GVARDIYA ORGANLARINING FAVQULODDA VAZIYATLARNI OLDINI OLISH BO‘YICHA HAMKORLIGI 390
Tleubayev Yerpolat Najimovich 390
ХОРИЖИЙ ДАВЛАТЛАРДА ЖАМОАТ ХАВФСИЗЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШ БЎЙИЧА ИЛҒОР ТАЖРИБАЛАР ТАҲЛИЛИ 399
Митанов Зафар Неъматуллаевич 399
ИЧКИ ИШЛАР ОРГАНЛАРИНИНГ ОММАВИЙ ТАДБИРЛАРНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ЖАРАЁНИДА ЖАМОАТ ХАВФСИЗЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШ БЎЙИЧА ВАЗИФАЛАРИ ТАҲЛИЛИ 416
Насиров Хуршид Рустамович 416
ФУҚАРОЛИКНИ РАСМИЙЛАШТИРИШ ЖАРАЁНИНИНГ НАЗАРИЙ-ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ 421

Омонов Алим Толибович 421
YO’L HARAKATI XAVFSIZLIGINI AMALGA OSHIRISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR 427
Bozorov Seyman Sherali o‘g‘li 427
MAXSUS VOSITALARNI QO‘LLASH BO‘YICHA O‘QITISHNING HUQUQIY JIHATLARI 432
Yunusov Davronbek Bekmirza o‘g‘li 432
AVTOPILOT AVTOMOBILLARDA SODIR ETILGAN JINOYATLAR UCHUN JAVOBGARLIK MASALASI 438
Raximova Zilola Shuxratjon qizi 438
ХАЛҚ ДЕПУТАТЛАРИ МАҲАЛЛИЙ КЕНГАШЛАРИНИНГ ҲУДУДЛАРНИ ИЖТИМОИЙ-ИҚТИСОДИЙ РИВОЖЛАНТИРИШДАГИ НАЗАРИЙ-ҲУҚУҚИЙ ЖИҲАТЛАРИ 444
Сайфиддинов Ақлиддин Анваржон ўғли 444